

Abdulla Qodiriy



Mehrobdan  
chayon

ABADIY BARHAYOT ASARLAR

R O M A N



**ABADIY BARHAYOT ASARLAR**

**ABDULLA QODIRIY**

**MEHROBDAN  
CHAYON**

*(Xudoyorxon va munshilari hayotidan tarixiy roman)*

1228

“Navro‘z”

**Toshkent – 2019**

**UO`K: 811.514**

**KBK: 85.9(38)**

**Q-77**

**A. Qodiriy.** «Mehrobdan chayon» / roman / «Abadiy barhayot asarlar» turkumi / Nashrga tayyorlovchi: **Xondamir QODIRIY.**

– T.: “Navro‘z”, 2019. – 288 b.

### **Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:**

**Ergashbay MATYAKUBOV**

O‘zbek romanchiligi va hayotiy hikoyalar janrlarining asoschisi, buyuk ustozimiz – Abdulla Qodiriy (1894-1938-yillar) XX asr o‘zbek adabiyotining buyuk darg‘alaridan biri bo‘lgan.

A. Qodiriy dastlabki ta‘limni musulmon maktabi, rus-tuzem maktabida, Abulqosim shayx madrasasida olgan. 1925-1926-yillarda Moskvadagi adabiyot kursida ta‘lim olgan. Uning dastlabki ijodlari «Samarqand», «Oina», «Sadoi Turkiston» gazetalari va o‘zi tashkil etgan «Mushtum» jurnalida e‘lon qilingan.

A. Qodiriyning «To‘y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she‘rlari; «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz», «Uloqda» (1916-yil), «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydi?» (1920-yil) kabi hikoyalari; «O‘tkan kunlar» (1924-1926), «Mehrobdan chayon» (1929-yil) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi hozirgi vaqf la ham sevib o‘qiladi. Shuningdek, N. V. Gogolning «Uylanish» (1935-yil), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936-yil) asarlar ni ona tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan.

1937-yilning 31-dekabrida «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktyabrda o‘limga mahkum qilingan. Yozuvchining o‘zi va asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan.

Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991-yil), «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlangan (1994-yil).

**UO`K: 811.514**

**KBK: 85.9(38)**

**ISBN: 978-9943-3819-2-6**

© Abdulla Qodiriy

© “Navro‘z”, 2019-yil.

1228

Navro‘z AKSI



## ADABIYOT MEHROBIDAGI ABADIYAT

Zamonning talabi katta, shiddati esa tez. Bugunning yangi kashfiyotidan hayratga to'la taassurotingiz arimay turib boshqa bir yangilik sizni o'z sirliligiga tortishi ham bor gap. Albatta, yangi-yangi ixtirolar, hayotimizga kirib kelayotgan turli texnika vositalari mehnatimizni yengillashtirishi, har jabhada bizning imkoniyatlarimizni oshirishi ayni haqiqat. Ammo jamiyat hayotida qanchadan qancha kashfiyotlar qilinmasin inson ma'naviy dunyosining rivojida kitobning o'rni beqiyos. Kishi ruhiyatining ma'nan boyishida, xalqparvarlik, diyonat, olijanoblik, insoniy fazilatlarining kamol topishida hech bir zamon ixtirosi adabiyotchilik kuchga ega emas. **Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risidagi» Qarori** ham hozirgi kunimizda yosh avlod tarbiyasi yo'lida adabiyotning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Adibning qo'lingizdagi ushbu – «Mehrobdan chayon» romani yillar o'tsa-da o'z badiiy qimmatini yo'qotgan emas va yo'qotmaydi ham. Mazkur asarni o'qir ekansiz muallif bejizga shunday nom tanlamaganiga iqror bo'lasiz. Bilamizki, mehrob – masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy bo'lib, namoz shu tomonga qarab o'qiladi. Shu bilan bir qatorda ushbu so'z joyning yuqori, to'r qismi ma'nosiga ham ega. Demak, ta'bir joiz bo'lsa, aytish kerakki, namoz o'qiladigan joyda ham, aytaylik, davralarning to'rida ham millatparvar, xalq dardi bilan yashovchi, o'z manfaatidan ko'ra millat manfaatini ustun biluvchi din peshvolari, ziyolilar o'rin oladi. Bunday insonlar yurt istiqbolining mash'alasida bo'lishi darkor. Ammo Qodiriy tili bilan aytadiganimiz – tariximizning «eng kir va qora kunlari» da mehroblardan joy oluvchi «ulamolar» xalq dardi bilan yashamadi. Ular Xudoyorxon zulmiga qarshi chiqish o'rnida uning zulmkor siyosatining tayanch kuchi bo'lib qoldilar. Bu haqda romanning mavzusiga izoh bera turib muallif «...Xudoyorning bu yo'ldagi (zulmkor siyosati nazarda tutilmoqda – R. A.) birinchi istinodgohi (ya'ni asosiy tayanchi) bo'lg'on «ulamolar», ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi..., ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg'ani ham ham xabosat

(ifloslik, yaramaslik) pardasi ostida sezilmas darajada yetkanligi»dan kuyunadi. Mehroblardan adib kutgan ziyolilar emas, balki chayonlar chiqib keldi. Chayonning ishi ersa, chaqmoq erur, o'z nishini sanchmoq erur.

Kitobxon «Mehrobdan chayon»ni o'qib shunchaki vaqtini o'tkazmaydi. Aytish lozimki, asar xalqimiz tarixining ayanchli davri bayoni bilan birga xalqimizning «... tarixiy va etno'g'rafiy lavhalari, o'zbek hayoti, qiziqchiligi, tanqidchiligi, o'zbek xotin-qizlari orasidagi iste'dod..., azkiyachilik» kabi jihatlarni ham qamrab olingan. Asarning hozirgi kun uchun tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajadadir. Birgina misol. Asarning «Chin o'rtoq» faslida keltirilgan Nasim va Anvarning do'stligi haqidagi o'rinlarga e'tibor beraylik. Nasim martabali amaldor farzandi. Anvar esa oddiy bir bo'yoqchining yetimi. Bu ikki do'stning «sinfy ayirmaligi yer bilan ko'kcha». Ammo biri boyning bolasiman deb kerilmaydi, o'z o'rnida ikkinchisi o'zining bechora holligidan andisha qilmaydi. Ehtimol, ularni hali yosh, shu bois do'stlar sinfiy farqlarni bilmas, deyish mumkindir. Lekin Qodiriy bu o'rinda aytmoqchiki, bola beg'ubor bo'lib tug'iladi, go'daklar qalbida razilliklar bo'lmaydi, ularni ijtimoiy muhit yo'ldan og'diradi, qabih ishlarga boshlaydi. **Ikki jumlada – ikki olam ma'nosi!!!**

«Mehrobdan chayon»ning ushbu nashrida asar yaratilgan davrda keng ishlatilgan, biroq hozirgi kunga kelib iste'moldan chiqqan hamda yosh kitobxonlar uchun tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralarning izohiga katta e'tibor qaratildi. Bunda nafaqat eskirgan, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning sharhi, balki ularning qaysi til: arab, forsiy tillarga mansub ekanligi haqida ham qaydlar berib borildi, bu esa o'z navbatda kitobxonning so'z boyligining oshishiga xizmat qiladi. Qolaversa, kitobxon badiiy asarni o'qish barobarida ona tilimizning imlo qoidalarini o'rganishi va o'zida ko'nikma hosil qilib borishini ko'zda tutgan holda asarning mazkur nashri hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalariga moslangan holda berildi.

Aziz kitobxon! O'ylaymizki, bular kitob mutolaasi asnosida sizning diqqatingizdan chetda qolmas. Zero adabiyot mehrobidagi abadiyat qalbingizni ezgulik, samimiylilik bilan to'ldirsa ajab ermas!

*Adabiyotshunos – Ravshanov Alisher*

## RO‘MONNING MAVZU‘I TO‘G‘RISIDA

Turkiston feodallarining keyingi vakili bo‘lg‘an Xudoyorning o‘z xohishi yo‘lida dehqon ommasi va mayda hunarmand – kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo‘lmasin, rahmsiz jazo berishi ro‘monning mavzu‘idir. Xudoyorning bu yo‘ldag‘i birinchi istinodgohi<sup>1</sup> bo‘lg‘an ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti, ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg‘ani ham xabosat<sup>2</sup> pardasi ostida sezilmas darajaga yetkanligi mundarija sig‘dirg‘an qadar bayon qilinadir. Bular ro‘monning nomarg‘ub<sup>3</sup> – manfiy qahramonlari. Ikkinchi tarafda mazkur qora kuchlarga qarshi «tuban» sinf – kambag‘al-lar, ularning xonliq tuzilishiga, qora kuch – ulamo alayhiga<sup>4</sup> chiqishi. Mehnatkash kambag‘allarning axloqi, sajiyasi<sup>5</sup>, oilasi, turmishi va bir-biriga aloqasi, samimiyati.

Albatta, men bu so‘ng‘i marg‘ub<sup>6</sup> qahramonlarni o‘zbek tarixining hazmi ko‘targan qadar o‘z holicha olishqa tirishdim. Ularning xon va ulamoga qarshi isyoni tabiiy – shar‘iydir. Chunki shundan ortig‘o soxta bo‘lishi ustiga kitobning qadrini ham tushurar edi. Shu ikki sinf kurashini tasvir qilish vositasida xon harami, xotinlari, qirq qizlar, tarixiy va etno‘g‘rafiy lavhalar, o‘zbek hayoti, qiziqchilig‘i, tanqidchilig‘i, o‘zbek xotin-qizlari orasidag‘i iste‘dod, shoiralalar, azkiyachilik va boshqa yana ko‘b nuqtalarni qamrab olindi.

Ro‘monda yana bundan boshqa ko‘b jihatlar bor. Ularni bu yerda sanab o‘lturish hojat emas, ular muhtaram o‘qug‘uchining nazaridan qochib qutilmas.

*Abdulla Qodiriy (Julqunboy)*  
*Toshkand, 1928-nchi yil, 5 fevral –*

<sup>1</sup> **Istinodgoh** – asosiy tayanchi

<sup>2</sup> **Xabosat** – nopoklik, ifloslik, yaramaslik.

<sup>3</sup> **Nomarg‘ub** (marg‘ub (*arabcha*) – istalgan; ehtiyoj sezilgan; ma‘qul) – kishiga maqul bo‘lmaydigan, ko‘ngilga yoqmaydigan; yoqimsiz.

<sup>4</sup> **Ulamolar alayhi** (alayhi (*arabcha*) – unga, shunga) – shunga binoan, shu asosda, binobarin. **Bu yerda ulamolar qarshi chiqmoq ma‘nosida kelgan.**

<sup>5</sup> **Sajiya** (*arabcha*) – tug‘ma sifat, xususiyat; xulq, tabiat. **Bu yerda xarakter ma‘nosida kelgan.**

<sup>6</sup> **Nomarg‘ub** (*arabcha*: istalgan; ehtiyoj sezilgan; ma‘qul) – kishiga maqul bo‘ladigan, ko‘ngilga yoqadigan; matlub, yoqimli.

*Agar Farhodning Shirin, bo'lsa Majnunlarning Laylosi  
Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning – Ra'nosi.  
(Mirzo)*

*Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,  
Ne baxt, Ra'no, xaridoring talab ahlining – Mirzosi.  
(Ra'no)*

### I Fasl. RA'NONING EGASI

Solih maxdum<sup>1</sup> bu kun odatdan tashqari yeshilib ketdi, masjiddan chiqib to'g'ri qassobning oldig'a bordi, bir tangalik go'sht, sakkiz pullik piyoz olib havlisiga keldi. Maktabda husnixat mashq qilib o'lturg'uchi bolalar ichidan ikkitasini gulzorni supurib, suv sepushka buyurdi va o'zi go'shtni ko'tarib ichkariga kirdi.

Nigor oyim hozirg'ina qizlarni ozod qo'yub, ko'krak bolasini bag'rig'a olg'an edi. Ra'no havli yuzida ikkita ukasining o'rtasig'a tushib, ularning loy o'yunig'a ishtirok etar, yer supurib yotqan soch o'rumlarning tuproqqa belashkanidan xabarsiz edi.

Go'sht ko'tarib yo'lakdan kirgan Solih maxdumning ko'zi Ra'noning shu holiga tushdi:

– Balli, Ra'no, ana jinnilik!– dedi maxdum, – atlas ko'ylak senga hayf, senga bo'zdan boshqasi, albatta, hayf!


Ra'no o'rmidan turdi, dadasidan uyalib loyliq qo'llarini orqasig'a yashirdi.

– Uyat emasmi, yuv qo'lingni, yuv! Ukalaringni bola desam, sen ulardan ham oshib tushasan!

Ra'no yugurib ariqqa ketdi, Nigor oyim o'lturgan joyidan: «Ra'noning aqli tushsin», – deb kulib qo'ydi. Solih maxdum hanuz Ra'nodan koyib kelar edi:

– Ishing bo'lmasa, kitob o'qi, husnixat ol, sen kulolning qizi emassanki... Solih maxdum go'shtni Nigor oyimning yonig'a

<sup>1</sup> **Maxdum (maxsum)** (*arabcha*: janob; xo'jayin; ishga oluvchi, yollovchi) – ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo'lgan kishi.



qo'yub o'zi zina bilan ayvonga chiqdi.

Maxdum tomonidan Ra'noning tergalishi Nigor oyimni uncha mashg'ul etmadi<sup>1</sup>. Ammo hozir uning ko'ngliga kelgan masala erining chiqim vajiga favqulodda yeshilib ketishi edi. To'g'ri, Nigor oyimning oshxonasig'a shuningdek bir necha choraklab go'shtlar ko'b kelar edi, faqat eri tomonidan emas. Solih maxdumning jo'mardlig'i ko'pincha yigirma paysa<sup>2</sup> etdan narig'a oshmas, shunda ham bolalardan mo'mayroq «ozodliq» kelib qolsa yoki «panjshanbalik»<sup>3</sup> kutkandan ortig'roq tushsa.

Shuning uchun Nigor oyim bu jo'mardliq<sup>4</sup> haqini eriga beralmadi:

– Go'shni ko'broq olibsizmi... Anvar buyurg'anmidi?– deb so'radi.

– Yo'q, – dedi maxdum sallasini qoziqqa ila-ila, – bir manti qilayliq, – dedim, – manti yeganimizga ko'b bo'ldi, vallohi a'lam<sup>5</sup>...

Ra'no yuvinib keldi, dadasiga uyat aralash bir qarab oldi-da, Nigor oyimning yonig'a o'lturdi va onasining bag'rida emib yotqan chaqaloqning kichkina mimit<sup>6</sup> qo'llarini suyub o'pdi.

Solih maxdum yeshinib kelib ona-bolaning ustida to'xtadi.

– Sen mundan keyin kichkina bo'lmaysan, qizim, Ra'no, – dedi maxdum nasihatomez, – shu ukalaring bilan qilib o'lturgan ishingni kishi ko'rsa, nima deydi. Inshoolloh, uy egasi bo'lishg'a yaqinlashib qolding. Endi tosh-tarozuni ham shunga qarab qo'yishing kerak, qizim.

Ra'no qizarinib onasig'a qaradi, yana mimit qo'lni o'pishka mashg'ul bo'ldi.

– Ra'noni egasiga topshirmag'uningizcha, – dedi Nigor oyim, – quyulmaydirg'ang'a o'xshaydir.

Bu so'zdan Ra'no uyalib, boshini chaqaloqning bag'rig'a tiqib oldi. Solih maxdum kulimsigan ko'yi dahlizga yurub bordi va oyog'ini kafshiga uzatdi.

– Tur, yotma, Ra'no!– dedi dahlizdan, – go'shtni onangg'a

<sup>1</sup> Mashg'ul etmoq – e'tiborini tortmoq.

<sup>2</sup> Paysa – taxminan 50 grammga teng og'irlik o'lchov birligi.

<sup>3</sup> Payshanbalik – eski maktabda har payshanba kuni domlaga yoki otinbibiga o'quvchilar tomonidan keltiriladigan haq (pul, non, don kabi).

<sup>4</sup> Jo'mardlik – tantilik; saxiylik.

<sup>5</sup> Vallohi a'lam (arabcha: Alloh yaxshi biluvchidir) – aniq emaslikni, aniq bilmaslikni ifodalaydi; Alloh, xudo biladi, bilmadim. Bu yerda gachonligini bilmadim ma'nosida kelgan.

<sup>6</sup> Mimit – kichkinagina, mitti, jajji.

to'g'rab ber, piyozni art! Anvar akang ham kelib qolar, taom asrga tayyor bo'lsin!

Ra'no dadasini uzog'latib, boshini ko'tardi, onasig'a o'pka aralash kulib qaradi. Uning bu qarashidan onasining boyag'i so'ziga qarshi rizosizliq onglashilmas, balki shodliq ma'nolari o'qulur edi. Darhaqiqat, er-u xotin oralarida o'tkan ikki kalima so'z shu oila gulshanida o'skan Ra'noning istiqbolini ochiq belgilar edi. Nigor oyim «Ra'noni egasiga topshirmag'uningizcha...» deb garchi bir muncha qo'polroq ta'bir bilan bo'lsa ham, «Ra'noning egasi» borlig'ini so'zlar, Ra'no esa «egasi»ning kim ekanligini yaxshi bilgani va uni qanot qoqib qarshi olg'ani uchun jodu ko'zida rizosizliq emas, surur ma'nolari o'ynatar edi. Dadasining – «Anvar akang ham kelib qolar, taoming asrga<sup>1</sup> tayyor bo'lsin!» jumlasini Ra'noga yana ochiq, yana ravshan ta'minot berar edi...

## II Fasl. AMIR UMARXONNING KANIZI

Solih maxdum 1230-1290-nchi hijriy yillarda «Ho'qandi firdavsmonand»da yashag'an bir muallim va imom, o'z zamona-sining istilosi bilan aytkada «maktabdor domla»dir. Solih maxdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub bo'lib, bobosi Olimxon<sup>2</sup> va Umarxon<sup>3</sup> davrlarida muftilik<sup>4</sup>, qoziliq mansablarida xizmat qilg'an, otasi ersa Qo'qonning Madalixon (Muhammad Alixon)<sup>5</sup> madrasasida necha yillar mudarris<sup>6</sup> bo'lgandir. Qisqasi maxdumning ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida «sharaflik va muhtaram» mavqi'ni ushlab kelgan-

<sup>1</sup> Asr – asr namozi o'qiladigan vaqt.

<sup>2</sup> Olimxon Norbo'tabiy o'g'li (1775-1810) – 1801-1811-yillarda Qo'qon xoni bo'lgan. Ming sulolasidan. U Buxoro amirligiga qarshi turishga kuchi yetajagini ko'rib xon unvonini qabul qiladi, davlati esa Qo'qon xonligi deb atala boshlandi.

<sup>3</sup> Amir Umarxon (1787-1822) – Qo'qon xoni (1810-1822), zullisonayn shoir. Norbo'tabiyning o'g'li.

<sup>4</sup> Mufti(y) (arabcha: fatvo beruvchi) – musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniy; shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi, fatvo beruvchi lavozimli ulamo.

<sup>5</sup> Muhammad Alixon (taxm. 1803/06-1842) – Qo'qon xoni (1822-1841). Umarxon va Nodiraning o'g'li. Otasi Umarxon vafotidan keyin 17 yoshida taxtga o'tirgan. 1841-yil noyabrda ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechadi, shunday bo'lsa ham 1842-yil aprelda Buxoro amiri Nasrullaxon Qo'qonni zabt etdi va Muhammad Alixonni, ukasi Sulton Mahmudxonni, onasi Nodira begimni qatl ettiradi.

<sup>6</sup> Mudarris (arabcha: dars beruvchi; o'qituvchi, muallim) – madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o'qituvchisi.

lar. Biroq bu mumtoz silsila<sup>1</sup> bizning maxdumgacha yetib kelal-may, Mamadalixonning qatli bilan birga kesilgan, buning mojarosi ersa quyidag'ichadir:

Turkiston xonlig'i tarixidan xabardor kishilarga ma'lum-dirkim, Amir Umarxon oxir umrida o'z saroyidagi yosh kaniz-lardan biriga muhabbat qo'yadir. Kaniz yosh bo'lg'anlig'i va balog'atka yetmaganligi uchun uni nikohiga ololmay vaqt kutadir. Shu kutib yurish yillarida Umarxon murodiga yetalmay vafot qiladir, boyag'i kaniz qiz balog'atka erishadir va bir husniga o'n husn qo'shulib otaning bolasi bo'lg'an Madalixonni ham o'ziga oshiq qiladir. O'z saroyida o'skan bu qizni yosh xon hamisha ko'z o'ngida yuritsa ham, biroq... Tarixning bizga xabar berishi-ga qarag'anda Madalixon shu qizning dardida necha yillar yona-dir. Chunki ulamolar bu go'zalni Madaliga ona maqomida hisob-lab, nima uchundir xonning orzusig'a ko'ndalang keladilar:

«Otangiz, agarchandi<sup>2</sup>, kanizni o'z nikohlariga olmagan bo'lsalar ham, va lekin balog'atka erishkach olarman, deb niyat qilg'anlar. Binobarin bu kaniz sizga ona maqomida, shari'at ruxsat bermaydir!» – deydirlar.

Madalixon bu fatvodan keyin dardini ichiga yutishg'a maj-bur bo'lib, ammo, ikkinchi tarafdin, o'zining orzusig'a qarshi borg'an ulamoni sekin-sekin «ilmiy» ishlardan olib ular o'rnig'a yangilarini qo'ya boshlaydir. O'z orzusig'a zamin hozirlag'ach, bir necha yilni o'tkazib, yana ulamog'a shu to'g'rida fatvo so'rab murojaat qiladir. Tabi'iy, yaqindag'ina og'zi oshqa yetkan yangi ulamolar o'z valiyi ne'matlari bo'lg'an Madalixong'a xiyonat qilmaydirlarda:

«Ba nazdi mujtahidini kirom asli e'tibor aqdi shar'iydir<sup>3</sup>. Otangiz marhum – nikohlanaman deb aytkan bo'lsalar ham nikohlandim, deb aytmaganlar. Bas, amiralmo'minin<sup>4</sup> mazkurani xud nafslari<sup>5</sup> aqdi shar'-y<sup>6</sup> qilsalar joiz va durustdir. Vallohi

<sup>1</sup> **Silsila** (arabcha: zanjir; qator, saf; tizim) – 1) ma'lum tartibda ketma-ket tizilgan narsalar. 2) birin-ketin sodir bo'luvchi hodisalar tizmasi, zanjiri. Bu yerda ko'chma ma'noda **davomiylikni** bildirgan.

<sup>2</sup> **Agarchandi** – haqiqatan, darhaqiqat.

<sup>3</sup> **Ba nazdi mujtahidini kirom asli e'tibor aqdi shar'iydir** – hurmatga loyiq din allomalarining nazaricha, asosiy e'tibor shariat qonunlariga qaratilishi kerak.

<sup>4</sup> **Amiralmo'minin** (arabcha: mo'minlar hukmdori) – ilk islom davridagi xalifalarning unvoni; ilk daf'a ikkinchi xalifa Umarga berilgan, keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan atalgan.

<sup>5</sup> **Xud nafs** – o'z(lar) uchun.

<sup>6</sup> **Shar'iy** (arabcha: shariatga (diniy qoidaga) tegishli, mansub) – shariat aqidalari, qonun-qoidalariga mos keladigan; shariatga ko'ra qonuniy.



a'lam bissavob» deb fatvonomani «binni mufti marhum», «binni mudarris marhum, «binni Ho'qandiy marhum» – muhri bahaybatlari bilan qalashdirib beradirlar va Madalixon to'y va tomo-shalar bilan murod-maqsadig'a yetadir...

Kimlarning vositasi bilandir mazkura go'zal kanizning ta'ri-fi Buxoro amiri – amir Bahodir – (Botur)<sup>1</sup> xong'a yetib ul ham ilgariidan haligi kanizga g'oyibona oshiq bo'lg'an edi.

Ammo qaysi yo'l bilan bo'lsa ham kanizni qo'lg'a kirgizish fikrida bosh og'ritib, nos chakib yurgan Bahodirxon qulog'ig'a bu xabari jonso'z yetib dumog'idan dud chiqadir va darhol Buxoroning zabardast ulamo, mufti, a'lam<sup>2</sup>, hokazo va alohozalqiyos<sup>3</sup> peshvolarini o'z huzuriga chorlab, darg'azab voqi'ani so'zlaydir va ulardan darhol bir «fatvoyi bahaybat»ni talab qilg'anida ulamoyi kirom<sup>4</sup> ham daron botahorat-betahorat, masalani eshitar-eshitmas fatvo yozadilarkim:

«Bir jamoa mo'minlarga amir bo'lg'an zotning vazifasi shar'iysi shuldurkim, islomda ustivor turg'ay, ahkomi islomni<sup>5</sup> kamokon<sup>6</sup> ijro qilg'ay. Har bir amirikim arkoni islomdan zarracha yuz o'gursa, ul kimarsa<sup>7</sup> jamoasi islom ustiga amir emas sharirdir<sup>8</sup>. Nauzanbillahkim<sup>9</sup>, Farg'ona va Turkiston mamlatining alhol<sup>10</sup> amiri bo'lg'an Muhammadalixon volidi<sup>11</sup> ning mankuhasi<sup>12</sup>, ya'ni volidai ayni va rizo'isini<sup>13</sup> o'z aqdig'a olibdir, nauzanbillahi, nauzanbillahi. Oyat va ahodisi sharifa va ba chahori mazhab<sup>14</sup> va ba nazdi mujtahidini kirom va ulamoi zul-eh-tirom<sup>15</sup> muttafaqun<sup>16</sup> alayhi kofirdir. Kazolika<sup>17</sup> o'shandog'

<sup>1</sup> Amir Bahodir (Botur) – Mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri Nasrullaxonning (1806-1860) laqabi.

<sup>2</sup> A'lam (arabcha: eng bilag'on, eng dono) – 1) shariat qonunlari bilimdoni; 2) shariat qonun-qoidalari yuzasidan berilgan fatvoni tasdiq yoki rad etuvchi diniy arbob; bosh mufti.

<sup>3</sup> Alohozalqiyos – shular kabi, shularga o'xshash.

<sup>4</sup> Ulamoyi kiromi – mashhur, tanilgan ulamolalar.

<sup>5</sup> Ahkomi islom – islomning asosiy ustunlari, ruknlari.

<sup>6</sup> Kamokon (forscha) – bekam-u ko'st, to'liq, batafsil, mukammal.

<sup>7</sup> Kimarsa – kimsa.

<sup>8</sup> Sharir (arabcha) – yaramas; yomonlik qiluvchi; zararkunanda.

<sup>9</sup> Nauzanbillah (arabcha) – Olloh asrasin.

<sup>10</sup> Alhol (arabcha) – hozirda, shu paytda, ayni vaqtda.

<sup>11</sup> Volid – ota, padar.

<sup>12</sup> Mankuha (arabcha) – nikohlangan; nikohdagi (xotin), shar'iy xotin, justfi halol.

<sup>13</sup> Volidai ayni va rizo'isini o'z aqdig'a olibdir – o'z va emizgan onasini olibdir... (muall.).

<sup>14</sup> Ba chahori mazhab – sunniylikning to'rt mazhab, ya'ni hanafiya, malikuya, shofi'iy, hanbaliya mazhablari.

<sup>15</sup> Zul-eh-tirom – ehtiromga loyiq; ehtiromli; ehtirom egasi.

<sup>16</sup> Muttafaqun (arabcha) – kelishilgan, ta'kidlangan, e'tirof etilgan.

<sup>17</sup> Kazolika – shuning uchun, shu sababli, shu boisdan.

murtadning qatli, avvalo, digar<sup>1</sup> islom amirlariga va ba'daz<sup>2</sup> barcha mo'minlarga farzi ayndir!»

Darvoqi' «xolisona» bu fatvoga amir Bahodirxon «betarofona» qiymat berib, «din yo'lida xolis bir «jihodi akbar»<sup>3</sup> deb jami'i qo'shunlari bilan Farg'ona ustiga yurish qiladir. Amiri Bahodirning bu «xolisona» jihodi Turkiston xonlig'i tomonidan qanday muqovamatlarga<sup>4</sup> uchradi va ikki tarafdan qancha boshlar kesildi, albatta, bu to'g'rida bizning ishimiz yo'qdir. Faqat bu mojarodan bizga keraklik nuqta shundakim, natijada Madalixon shikast topdi, ham amiri Bahodirxon tomonidan qatl qilindi. Madalixong'a fatvo yozib bergan Qo'qon ulamolaridan bir nechalari had uruldilar<sup>5</sup> va bir nechalari qochib qutuldilar. Amiri Bahodirxon bo'lsa Farg'ona hukumatiga o'z kishisini qo'ydi, fath-u nusrat<sup>6</sup> bilan kanizni olib Buxorog'a qaytdi.

Maqsadg'a kelsak, Madalixong'a fatvo yozib berishda ishtirok qilg'an va Bahodir tomonidan had urulg'an ulamolarning biri shu bizning Solih maxdumning otasi edi. Had urulg'andan so'ng ko'b yasholmadi, o'ldi va shuning bilan bu oilaning burung'i imtiyoz va sharafi ham bitdi. Chunki mundan so'ng Turkiston taxtiga o'lturgan xonlarning hammalari deyarlik Buxoro amirining himoyasida kabi edilar. Va Madalixonning fatvosiga ishtirok qilg'an ulamolar hamisha e'tiborsiz, mardud bo'lib<sup>7</sup> qoldilar.

### III Fasl. MAXDUMNING UYLANISHI VA MAKTABDORLIG'I

Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshliq talaba edi. Otasi marhum bo'lg'andan so'ng o'zidan bir necha yosh kattaroq og'asi Marg'ilong'a imom bo'lib oilasi bilan ko'chib ketdi. Solih maxdum onasi va o'n olti yoshliq Na'ima ismlik singlisi bilan Qo'qonda qo'ldi. Birar joydan kelim<sup>8</sup> bo'Imag'anliqdan bu oila

<sup>1</sup> Digar (forscha: ikkinchi, o'zga, yot) – boshqa, o'zga: keyingi; boshqacha. Bu yerda boshqa ma'nosida kelyapti.

<sup>2</sup> Ba'daz (forscha) – keyin, so'ng, so'ngra. Bu yerda Kevin, shuningdek ma'nolarida kelgan.

<sup>3</sup> Jihodi akbar – 1) din uchun qilingan muqaddas urush; gazovat; 2) katta jang, katta urush (ko'chma ma'noda).

<sup>4</sup> Muqovamat (arabcha) – qarshilik, qarshi xatti-harakat.

<sup>5</sup> Had urulmoq – o'z vazifasidan, unvonidan, kasbidan, lavozimidan chetlatilmoq; huquqsizlantirimoq.

<sup>6</sup> Fath-nusrat, fath-u nusrat, (arabcha+arabcha) – zafar, g'alaba; zafar tantanasi. Fath – ochish, ochilish; egallash, zabt etish, o'ziga bo'ysundirish; g'alaba. Nusrat – yordam; g'alaba.

<sup>7</sup> Mardud (arabcha): qaytariluvchi, rad etiluvchi; foyda; ma'sul) – quvilgan, rad etilgan. Mardud bo'lmoq – haydalmiq, quvilmoq, vazifasidan ozod etilmoq.

<sup>8</sup> Kelim – kelib turadigan daromad, foyda.

ko‘b tanglikka tushib oxirda Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to‘ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo‘ldi.

Albatta, Solih maxdum og‘irroq kasbni uhda qilolmas, imoratka bo‘lsa, soqoli chiqmag‘anliqdan yarolmas edi. Ko‘b ozor chekib nihoyat qorindosh-urug‘ va mahalla kishilarining kengashlari bilan o‘z uyiga maktab ochdi, mahalladan besh-o‘nta bola yig‘di va yeng shimarib maktabdorliqqa boshladi.

Bir necha yil maktab rivojga minmadi, ya‘ni bolalar o‘n besh-yigirmatadan narig‘a o‘tmay, «panjshanbalik» arang it azobi ro‘zg‘org‘a yetib turar edi. Maxdum va oilasining shundan boshqa daromad manba‘lari bo‘lmag‘ani uchun, har holda, yana shunga qanoat qilmoqqa majbur edilar.

O‘g‘ul yigirmaga, qiz o‘n beshka yetdimi – onalarning dardi kelin va kuyav savdosi bo‘lib qoladir. Shunga o‘xshash maxdumning onasi Mohlar oyimning katali go‘yo «dard ustiga chipqon» edi: maxdumning yoshi yigirmadan oshti, Na‘ima ham o‘n sakizga to‘ldi, ya‘ni kelin ham kerak, kuyav ham. Na‘ima to‘g‘risidan tashvish yo‘q, husn, odob, yumish, hammasidan ko‘ngil to‘q, bek bo‘lmasa – bekszoda, mudarris bo‘lmasa – mukarrir<sup>1</sup>.

Ammo maxdum masalasi bir oz mushkilroq edi: topish, tutish ma‘lum, otasidan qolg‘ani faqat ichki-tashqi havli, mundan boshqa hech gap. Bas, Mohlar oyim o‘z tirikligida maxdumning «boshini ikki» qilmasa, o‘zidan so‘ng uning uylana olishi amri-mahol. Shuni ko‘zda tutib Mohlar oyim maxdumning uylanishiga mazkura Na‘imani vosita qilmoqchi bo‘ldi. Ya‘ni Na‘imani uzatib evaziga uzatilgan joydan kelin olmoqchi edi. Qarshi quda bo‘lmoq uchun qizliq va o‘g‘ullik havlini uchratish va buning ustiga «nasl-u nasabda tekislik» olinadig‘an kelinning silliqina bo‘lishi – ana shunday mushkilotlar<sup>2</sup> orqasida ikki yil, chamasi, Na‘imaning umri sarg‘ayib o‘tdi. Yurt emasmi, degandek yurtchilikda yurak og‘rig‘ig‘a davo topilmay qolmas. Shunga o‘xshash Mohlar oyimning yarasi ham nihoyat uchunchi yilda davosini topdi:

Xon o‘rdasining mutavaffo<sup>3</sup> mirzolaridan bittasining madrasada o‘qub yurg‘an o‘g‘li bor edi va uyida chaqich chaynab o‘lturgan o‘n olti yoshliq qizchasi ham bor edi. Bu oila Mohlar

<sup>1</sup> Mukarrir (*arabcha*: takrorlovchi,) – madrasada amaliy mashg‘ulot olib boruvchi muallim.

<sup>2</sup> Mushkilot – qiyinchilik.

<sup>3</sup> Mutavaffo (*arabcha*) – vafot etgan, qazo qilgan.

oyimning taklifini ma'al mamnuniyat<sup>1</sup> qabul etdi. Chunki «o'x-shatmay uchratmas» degandek narigi taraf ham Mohlar oyimning bittasi edi. Sovchilar Na'imani yoqtirib Mohlar oyimning taklifini qabul qilib ketdilar. Mohlar oyim marhum mirzoning uyiga qiz ko'rgali borib ul ham «qizi jajjigina ekan» deb keldi. Kuyavlar ko'rulib ular ham zararsiz topildilar. Shart-u sharoit so'zlashildi: ikki orada qalin-palin degan gaplar yo'q, har kim o'z ulushiga tushkan osh-suvini qiladir, kelinni o'rab-chirmab oladir, vassalom.

«Hay etti, huy etti, ikki koski<sup>2</sup> to'y etti» deganlaridek har ikki to'y ham bir hafta ichida o'tti, Na'imaxonim u yoqqa ketib, Nigorxonim bu yoqqa keldi. Shunday qilib Solih maxdum xotinliq bo'ldi.

Solih maxdumning maktab ishi ham uchunchi yildan boshlab bir oz jonlang'an, bolalar ham o'ttuz-qirqqa yetkan edilar.

Solih maxdum o'ttuz yoshlarga borg'anda maktabdorlig'i ham yaxshig'ina shuhrat topadir, shogirdlar soni bir yuzga yetadir. Mehmonxona torliq qilg'anliqdan maktab uchun maxsus bino yopadir<sup>3</sup>, imlo, insho va husnixat mashqi uchun alohida xona ayiradir. Maxdum yolg'in<sup>4</sup> shuning bilangina qanoatlanmay xotini Nigorxonimni ham ishka soladir, ya'ni uning savodini tuzatib «otin bibi»<sup>5</sup> qiladir.

Ikki-uch guzarining qizlari Nigorxonimning sabog'iga yig'iladirlar. Qisqasi, maxdum maktabdorliqda yaxshi shuhrat qozong'anidek, uy-ro'zg'orini, yurishturish, kiyim-solim va boshqa taraflarini ham tuzatib oladir.

Qirq yoshlarida mahallaga imom bo'ladir va maktabini yana ham kengaytirib shu dahaning har bir tabaqasi ichida «ustoz mulla Solih maxdum» bo'lib taniladir. Masalan, o'zida savod chiqarg'an kosib, savdogar, mullabachcha (madrasa talabasi) va, shuningdek, yangi bo'g'imlarga ustozlik unvonini oladir. Hatto keyingi vaqtlarda uning shogirdlaridan xon o'rdasigacha borib kirganlari bordirkim, maxdumning bu muvaffaqiyatini boshqa boblarimizda o'qursiz.

<sup>1</sup> Ma'al mamnuniyat (*arabcha*) – ko'ngli to'lgan, qanoatlangan, xursand, minnatdor holda.

<sup>2</sup> Koski – yaramas, buzg'unchi, buzuq kabi haqorat ma'nosida qo'llanadi.

<sup>3</sup> Bino yopmoq – bino qilmoq, qurmoq, barpo etmoq.

<sup>4</sup> Yolg'in – faqat, yolg'iz.

<sup>5</sup> Otin (bibi) – eski maktablarda qizlar o'qituvchisi; din va shariat bilimdoni.

#### IV FASL. MAXDUMNING BA'ZI XISLATLARI

Yuqoridan o'qug'uchig'a bir daraja onglashilg'an bo'lsa kerakki, yaqin yigirma yillardan beri maxdumning kelimi shahar yoki qishloq so'rab turg'an bir bekcha bo'lasa-da, undan quyi-roq, har holda shahar madrasasida dars to'liq qilib, vaqfni o'z qabzaga olg'an<sup>1</sup> bir mudarrisning tushimidan, albatta, ko'b. Kelimning shu yo'sun yaxshi bo'lishig'a qaramasdan uning tabiatida harchand tirishilsa ham, maxtab bo'lmaydirg'an xususiyatlar bor: xasislikka o'xshag'an holat, tama'girlik kabi odat, ichqoraliq singari harakat va amsoli<sup>2</sup>...

Yosh chog'ida otasi o'lib, qattig'chiliqda o'sdi, uning ba'zi yarashmag'an harakatlari, balki, o'sha qattig'chiliqning ruhka singib qolg'an yomon ta'siridir. Har holda bizning mundagi vazifamiz maxdumni tahlil qilish emas, balki uning shaxsiga xiyonat va bo'hton qilishdan saqlanib, ya'ni ortdirmay va kamitmay o'qug'uchig'a butun taqdim eta bilishdir.

Oyni etak bilan yashirib bo'lmaydir. Maxdumning xasislikka o'xshash holatlari, albatta, bor edi. Maxdum topib-tutmag'an yillarda bu ishni yo'qliqdan qiladir, desak-da, keyingi vaqtlarda ham shu odatini tark etmagani uchun tabiatida bir muncha xasislik bor ekan, deymiz.

Ko'ylak-ishtonning aksar yetti-sakkiz joyidan yamog'i bo'ladir. Yetti qishdan beri guppi – chopon yangilagani ma'lum emas, faqat qish kelib ketkan sayin alak<sup>3</sup> guppining yengi o'zgaribkina turadir va astari yil sayin yangidan yangi yamoqlar bilan boyiydir, shu guppi butun umrida birgina martaba va shunda ham maxdumdan beruxsat, ammo Nigor oyimning zo'ri bilan tog'orag'a tushib cho'mildi. Bu kunda bo'lsa to'rt yil burung'i g'usli<sup>4</sup>, yetti yillik tusi, turlik-turlik yamog'i bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasig'a sodiqona xizmat qilish uchun bo'g'joma<sup>5</sup> ichida o'ziga kuch yig'ib yotadir. Mahalla kishilari maxdumning bu choponig'a «moltopar» deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilg'an kun maxdumga sezdirmay «moltopar savdodan qay-

<sup>1</sup> Qabzaga olmoq (*arabcha*: changak; hovuch; tutqich, qo'lga kiritish) – qo'lga kiritgan, egallagan.

<sup>2</sup> Amsol – shu kabi.

<sup>3</sup> Alak – paxta ipdan qo'l do'konda to'qilgan mato; silliq bo'z.

<sup>4</sup> G'usl (*arabcha*: yuvib tozalash, butun a'zoga suv tegizib yuvinish; tahorat olish) – pok bo'lish uchun butun badanni maxsus tartibda yuvish; ustidan suv quyib yuvinish, cho'milish. Bu yerda ko'chma ma'noda choponning kirli-gi tasvirlanyapti.

<sup>5</sup> Bo'g'joma – kiyim-kechak, kiyimlik gazlamalar, tugib qo'yiladigan katta mato; choyshab.

tibti... Hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang, yana o'n yillingmi, Mamarayim!» deb kulishadirlar.

Qisqasi: besh-olti qayta boshlatilib qo'nji bir qarichg'a kelgan aybaki<sup>1</sup> mahsi, charmi ust-ustiga uyulib yerdan uch ellik chamasi ko'tarilgan ikki chorak vaznlik kafsh, yoshi mahalla kishilarining ko'blariga ma'lum bo'lmag'an, harchand ehtiyot qilinsa ham, necha joyidan popiltirig'i osilg'an oq bo'z salla mahalla kishilarining ermaklaridandir. Bulardan boshqa hayit kunlari va to'ylardagina kiyilardirgan banoras to'ni, sovuq qattig'roq bo'lg'anda ichidan kiyadirgan adras guppisi ham bor. Mahalla kishilari banoras<sup>2</sup> to'nini «zarurat» deb atag'an bo'lsalar ham, adras guppiga hali nom qo'yg'uncha yo'qlar, chunki buning dunyog'a kelganiga faqat to'rt-besh yilgina bo'lg'andir.

Kezi kelganda maxdumning yozlik kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik: yo'lluq, qizil qalami bo'zdan yaxtak<sup>3</sup>, oq bo'zdan jihak yoqaliq keng ko'yлак (chunki tor bo'lsa yirtiladir) va lozim (ya'ni ishton) hamda sarpoychan kiyishka yengilcha sag'ri kafsh<sup>4</sup>, ammo salla qishin, yozin bitta.

## V Fasl. OILA VA KISHILAR BILAN MUOMALA

Maxdum oilasini ham kiyim-kechak vajidan o'zi kabi tutar edi. Kiyim-kechakdagina emas, hatto oziq-ovqat to'g'rilarida ham uning anchagina kelishimsiz qiliqlarig'a yo'liqilar edi. Masalan, bir oy to'lmasdan kir yuvishg'a ruxsat bermas, agar Nigor oyimning bir oysiz kir yuvg'anini ko'rib qolsa, «kiyimni tog'orada churutasan!» deb g'ovg'a solar edi. Ikki haftasiz palovni ko'rmaslar (ozodliq oshlari, albatta, mundan mustasno), ko'b ovqatlari ubra<sup>5</sup>, tuppi<sup>6</sup>, mastaba, qo'g'urma sho'rba bo'lar edi.

Nigor oyimning qozoni yo'qcha, yelcha go'shtni faqat palov sharofati bilangina ko'rar edi. Lekin maxdum ba'zi narsalar bilan oshxonani yaxshig'ina mo'liqdirar, masalan: shalg'am, qovoq,

<sup>1</sup> **Aybaki** (*arabcha+forscha*: aybi, nuqsoni bor) – sifati past, jun charm.

<sup>2</sup> **Banoras** (Hindistondagi Banoras shahri nomidan olingan) – materiali, to'qilishi va pishiqligi jihatdan beqasamga o'xshash, ammo gullari bilan farqlanuvchi, qo'lda to'qilgan gazlama.

<sup>3</sup> **Yaktak** (*forscha*: bir qavat, astarsiz kiyim) – uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'yagi.

<sup>4</sup> **Sag'ri kafsh** – (sag'ri – ot, eshak, qoramol kabilarning orqa oyog'ining ustki qismi) – otning sag'ri terisidan tayyorlangan charm kovush.

<sup>5</sup> **Ugra (ubra)** – yupqa yoyilib, uzun va mayda qilib kesilgan xamirdan tayyorlanadigan taom.

<sup>6</sup> **Tuppa (tuppi)** – suyuq osh uchun ugraga nisbatan enliroq qilib tayyorlanadigan uzma yoki kesma xamir solib pishiradigan suyuq osh.



lavlagi. Bu to'g'rida xotini harchand rad qilsa ham, qoplab shalg'am, yigirma-o'ttuzlab qovoq xarid qilishini qo'ymas – «shalg'am – Bibi Fotimai Zuhраниng<sup>1</sup> duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning mo'jizalari<sup>2</sup>» deb bahosi arzon, va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi. Har hafta bir-ikki martaba qovoq somsa yopdirmay qolmas, ammo – «Yog'ni kam sol, qovoqning ta'mini buzadir!»,– deb ta'kidlashni ham unutmas edi. Uyda non yopilmag'anidek bozordan ham sotib olinmas, chunki, panjshanbalik non yetib, ortib yotar, hatto ba'zi vaqtlarda bozorg'a ham chiqar edi.

Maxdumning o'qug'uchi bolalar bilan muomalasi juda yaxshi edi. Savog'ini bilmagan yoki sho'xliq qilg'an bolalarni har qancha so'kib, koyisa, do'q urib, davara qilsa ham urmas, bu jihat bilan butun Qo'qon bolalarining muhabbatlarini o'ziga jalb etkan edi. Ammo «ozodliq»<sup>3</sup> maqalasida bolalardan hech kimni ham afu etmas, boy bolasig'a «ozodliq» lozim bo'lg'an bo'lsa, albatta, undirishka, kambag'al bolasidan mumkin qadar uzib olishg'a harakat qilar; bolalar Haftiyak<sup>4</sup>, Qur'on, So'fi Olloyor<sup>5</sup> va shunga o'xshash kitob boshlasalar, ozodliq majburiy, maktabdan ma'zun<sup>6</sup> bo'lg'anlarning ziyofat qilib maxdumga sarupo berishlari qoidada bor bo'lsa ham, lekin aksar bolalar bu to'g'rida domlani – «ana-mana» bilan aldab ketarlar, saxiyoq otalar bu marosimni ado etib «ustoz»ni rozi qilmasalar, ammo ko'bhilik maxdumni ranjitar edilar. Panjshanbalik bo'lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa «Qulyog'a quymoq – Ammaga bo'-

<sup>1</sup> **Fotima-i Zuhra** (taxm. 605/606-632/633) – Muhammad (s.a.v.) ning kenja qizi. Fotima go'zal bo'lgani uchun nomiga Zahro ismi ham qo'shib aytiladi.

<sup>2</sup> **Yunusning mo'jizasi** – qovoq haqida «Qur'on» kitobining «Soffat» surasining 146-oyatida ma'lumot berilgan. Ushbu oyatlar mazmunida Alloh taolo Yunus alyahissalomning nahang (ayrim manbalarda kit deyilgan) tomonidan yutib yuborilishi, so'ngra uning qornidan butun chiqishi va quruqlikda uning ustiga Alloh taolo soya bo'lishi va uning qorni to'q bo'lishi uchun qovoq daraxtini o'stirib qo'yanligi bayon qilingan.

<sup>3</sup> **Ozodlik**– eski maktabda har payshanba kuni domlaga yoki o'tinbibiga o'quvchilar tomonidan keltiriladigan haq; payshanbalik (pul, non, don kabi).

<sup>4</sup> **Haftiyak** (*forscha*: yettidan bir) – Qur'onning yettidan bir qism suralari tanlab olib tayyorlangan va o'tmishda diniy maktablarda o'qish kitobi vazifasini bajargan alohida kitobcha.

<sup>5</sup> **So'fi Olloyor** (1644-1724) – tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. U «Maslak ulmuttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Maxzan ul-mute'in» («Itoatkorlar xazinasini») asarlarini forsiy, «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti»), «Favz un-najot» («Najot tantanasi») masnaviyalarini turkiy tilda yaratgan. «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ojizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelgan.

<sup>6</sup> **Ma'zun bo'lmoq** (ma'zun (*arabcha*) – ruxsat, izn olmoq) – biror faoliyatni boshlash uchun ustoz, murabbiy yoki ustadan ruxsat olmoq; shogirdlik maqomining tugashi.





issig‘ bir domla edi. Yoshi ellidan oshqan, soch va soqolida bir muncha oqlar ko‘rinar edi. Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘skan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini bir oz qisib qarar, odat qilg‘andan bo‘lsa kerak, gap orasida «habba» degan so‘zni ko‘proq ishlatar edi. Domlanning bu «habba»si nima ma‘noda qo‘llanilar, o‘zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to‘g‘rida izoh ham so‘ramag‘an edilar. Har holda «habba – habhali» yoki «ha, barakalla» bo‘lsa kerak. Chunki ul bir narsadan hursand va rozi bo‘lg‘anda aksar «habba» deb yuboradir.

Shu yergacha bir necha sahifalarni maxdumning ta‘rifi bilan to‘ldirdiq. Ehtimolki, domlanning g‘iybatini ham qildiq va qilarimiz. Lekin shunidan xotirjammizki, yo‘qni yo‘ndirmadiq, maxdumning sha‘nida bor gaplarnigina yozdiq va yozarmiz. Maxdumning hamma nuqsonini yuqib ketarlik bir jumladan so‘ng yana o‘z ishimizda bo‘lamiz: nima bo‘lg‘anda ham maxdum o‘z zamonasining eng olding‘i domlalaridan, Qo‘qon aksariyatining savodxon bo‘lishlarig‘a sababchi ustozlardan, hatto ulug‘ xizmatlarga kishi yetishdirib berguchi nodir muallimlardan edi.

## VI Fasl. NIGORXONIM

Nigorxonim boshda erga yolchimadi. Avvalo, erining faqirlik‘i, boyig‘andan so‘ng bo‘lsa, uning zarbulmasal bo‘larliq<sup>1</sup> xasisligi bechorani ko‘b yig‘latti. «Xotin kishining boshi uy ichining og‘ir toshi» emish... Hozir o‘zi qirq yoshqa kirgan bo‘lsa, yigirma besh yildan beri shu mumsik<sup>2</sup> er bilan tiriklik qilib keladir. Bu kun o‘n yetti yoshliq Ra‘no kabi qizg‘a, sakkiz yoshliq Mahmud (Ra‘no bilan Mahmud orasida ikki bola nobud bo‘lg‘an), olti yoshliq Mansur va beshikdagi Mas‘udlarga ona bo‘ldi.

Nigorxonim Qo‘qonning ko‘b xotinlariga qarag‘anda sabrlik va qanoatlik ekan. Dunyoda o‘z o‘g‘lining xasisligiga chidalmagan ona bo‘ladimi, holbuki maxdumning onasi – Mohlar oyim o‘g‘lining bu qadar ixna<sup>3</sup> va siqilqig‘ig‘a toqat qilolmay noroziliq yuzasidan Marg‘ilondag‘i o‘g‘lining yonig‘a ko‘chib ketib

<sup>1</sup> **Zarbulmasal bo‘lmoq** (zarbulmasal (*arabcha*) – turli masallar, maqollar; ramzli gap, hikoya; masal) – mashhur bo‘lmoq, tanilmoq; kulgi bo‘lmoq.

<sup>2</sup> **Mumsik** (*arabcha*) – o‘ta ketgan xasis, baxil, ziqna.

<sup>3</sup> **Ixna** (*forscha*) – tashqi ko‘rinishiga e‘tibor bermaydigan.

o'sha yerda vafot etdi. Nigorxonim ersa tishni tishka qo'ydi, erimdan yayrab-yashnamag'an bo'lsam, qizimdan va oldimg'a qo'yg'an o'g'ullarimdan yolchirman, deb umidlandi. Darhaqiqat, sabrlik bu xonim hozirdanoq shu o'z oldig'a qo'yg'an bolalarining biri va to'ng'uchi bo'lg'an Ra'nosining tufaylidan bir qadar ro'shnoliq ko'rib boshladi va o'ynig' o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug' ekaniga ishonadi.

Bir yamoqchi yoki mardikorchi o'z xotinini uradir, so'kadir, tepkilaydir. Bu hol ularda aksar faqirliq avjig'a mingan kezlarda voqi' bo'ladir. Agar yamoqchi kekirarlik darajada tomoqni bopta<sup>1</sup> qilsa, ishi o'ngidan kelib istiqboli bir muncha ta'minlangandek bo'lsa, darhol vaziyat ishonmasliq ravishda o'zgarib ketadir: gap-so'z joyida, xotinni urish o'rnig'a orqasini silash, so'kish o'rnig'a yalinish va arzi muhabbat. Xotin ham kechagi kaltak zarbini unutkan, kina o'rnig'a sadoqat: go'yo aytarsizkim, Yusuf Zulayholarmi deb.

Yuqori tabaqa oilalarga kirib qarasaq, munda tamoman boshqacha manzara ko'ramiz: qorin to'q, birar narsaga ehtiyoj yo'q, istiqbol ta'min va lekin boyag'i foji'a bularda kuchlirak, shuning kabi bu foji'alar muvaqqatiy<sup>2</sup> ham emas, sababini topish ham qiyin. Yaxshi, yamoqchi-ku yaramas tuzulishka qarshi bo'lg'an kekini ko'zi tinib xotinidan olg'an edi. Ammo keyingilarning turmush sharoitlari yaxshi, hamma narsa o'z orzularicha, bas, shu holda ularning uy mojarolari va bola-chaqani it kabi siqishlari nimadan?..

Shunga o'xshash bizning maxdumning ham g'oyasi birni ikki qilish, beshni o'n qilish edi. Yaxshi kechinish uchun turmas, ammo ko'paytirish uchun yashar edi. Nigorxonimni urmas va lekin urg'andan besh battar qilib siqar edi. Ikki yuz tillodan ko'b oqchasi<sup>3</sup> (bu oqchalarni husuli<sup>4</sup> to'g'risida keyin so'z bo'lur) va savodlik bo'lg'an bolalar ziyofatidan kiygan ikki sandiqcha sarposi bor edi. Oltindan sarf qilmag'anida ham, loaqal, shu kiyimlardan na xotinini va na bolalarini foydalantirar va na o'zini zixnaliqdan qutqarar edi. Buni ham qo'yib turayliq, Nigor oyim yigirma-o'ttuz qizni o'qutib ulardan tushkan «ozodliq» va

<sup>1</sup> **Bopta** – to'g'ri keladigan, munosib, bop, mos.

<sup>2</sup> **Muvaqqat(iy)** (*arabcha*: muayyan vaqtga belgilangan; vaqtincha) – vaqtinchalik, doimiy.

<sup>3</sup> **Oqcha** – aqcha, pul, boylik.

<sup>4</sup> **Husul** – manbasi, qayerdan kelganligi; hosil bo'lish.

«panjshanbalik» pullarga ham ega bo‘lolmas, har kun deyarlik muhtarak maxdum pochchag‘a hisobini batamom topshurib turishqa majbur edi. Maxdum buning evaziga har yil bozorning eng dag‘al bo‘zidan bir par ko‘ylak, lozim olib berar, yangi guppi bilan yozliq mursakni<sup>1</sup> bo‘lsa Nigor oyim besh-olti yilsiz ko‘rmas edi.

Nigor oyim qisqa bo‘liq<sup>2</sup>, pista po‘choq targ‘il<sup>3</sup> ko‘zlik, zarcha tanlik<sup>4</sup>, yuzidagi onda-sonda chechak o‘runlari bo‘lma-g‘anda husndor bir xotin edi. O‘z bolalari bilangina emas hatto shogirdlari bo‘lg‘an qizlar bilan ham juda yumshoq muomala qilar, ortiqcha achchig‘lang‘an kezlarda «beting qursin» deb qoshini chimirib olar edi. Eriga o‘xshash «ozodliq» uchun bolalarni siqmas, bil‘aks «bo‘shlig‘i» uchun o‘zi maxdum tomonidan siqilar edi. Oz va ma‘noliq qilib so‘zlar, xotinlar bilan muomalasini boshqa otinbibilardek yuqoridan turib qilmas, soddacha suhbatlashar edi. Xotinlar maxdum domlaning ba‘zi qiliqlaridan kulishsalar ham Nigor oyimning orqasidan g‘iybat so‘zlamaslar, oldida qanday hurmatlasalar, keyinidan ham o‘shancha ehtiromlab, uning maxdumdek ziqna kishining qo‘lig‘a qaram bo‘lg‘anig‘a achinib: «peshana-ya aylanay, qolu balo<sup>5</sup>» – deyishar edilar.

## VII Fasl. RA‘NO

Ism bilan jism aksar bir-birisiga muvofiq tushmaydir. Menim yosh vaqtim, ayniqsa, go‘zallik qidirg‘an mag‘rur chog‘larim edi. Oilamizdami, boshqa yordami baharhol<sup>6</sup> xotiramda yaxshi qolmag‘an, Lola otlig‘ bir qizning chevarligi to‘g‘risida so‘z bo‘ldi. Majlis ahli-menga yaqin, ya‘ni ular oldida husndan bahs ochish uyat bo‘ladirg‘an kishilar edilar. Shuning uchun menga Lolaning chevarligidan ko‘ra muhimroq bo‘lg‘an «husn»i masalasida izohot<sup>7</sup> so‘rashning imkoni bo‘lmadi. Lekin Lola ismining ostida bir malakni ko‘rgan: «Lolaning ismiga o‘xshash husni ham bor», – deb o‘ylag‘an edim. Shu kundan boshlab Lola-

<sup>1</sup> Mursak – ayollar kiyadigan yangi kalta ustki milliy kiyim; yengsiz kamzul.

<sup>2</sup> Bo‘liq – yaxshi o‘sgan, durkun; to‘lishgan; to‘la, semiz. Bu yerda durkun ma‘nosida kelgan.

<sup>3</sup> Targ‘il ko‘zlik – ko‘zi buzoq ko‘ziga o‘xshash.

<sup>4</sup> Zarcha tanlik – sariq, sarg‘ish badanli.

<sup>5</sup> Qolu balo (*arabcha*: ahdī misoq) – taqdir, qismati azal.

<sup>6</sup> Baharhol (*forscha*) – har holda, har qalay.

<sup>7</sup> Izohot (*arabcha*) – izohlar, sharhlar, tushintirishlar.

ni ko‘rish hajriga tushdim. Bo‘yi yetkan qizlarni ko‘ra olish bu kunlarda ham amri mahol bo‘lg‘anidek, mundan o‘n yillar ilgari yana mushkilroq edi. Necha vaqt «hijron o‘tida yonib» ko‘cha poylab, nihoyat, Lolani suv olish uchun ko‘za ushlab ko‘chaga chiqqan holatda uchratdim. Burnidagi buloqisidan<sup>1</sup> boshqa (agar buloqi husnga qo‘shilsa) «Lola»likka arziydirgan hech gap yo‘q edi.

Yaqindag‘i bir boladan suv olg‘uchining kim ekanini so‘rag‘an edim:

– Lola opam, – dedi.

Bolaning talaffuzi menga «Mola opam» bo‘lib eshitildi. Bir necha kunlar bu qizning otini «Lola» deb qo‘yg‘anlari uchun achchig‘lanib yurdim. Chunki, afu etasiz, o‘sha kezlarda achchig‘lanishg‘a haqqim bor edi...

Ammo Ra‘noning ismi – jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushkan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san‘at bo‘lg‘anda edi, so‘z bilan biljirab o‘lturmas, shu o‘runda sizga Ra‘noning rasmini tortib ko‘rsatar, qo‘yar, faqat menga Ra‘no gulining suvigina ko‘proq kerak bo‘lar edi.

Solih maxdum xasis, ta‘magir, har holda sajiyasi e‘tibori bilan uni yaxshilar qatorig‘a qo‘yib bo‘lmaydir. Va lekin tabiat xasis emas, tikandan gul, aridan bol yarata beradir. Shunga o‘xshash tikanlik yog‘ochdan xush islik, latif<sup>2</sup> ko‘runishlik Ra‘no yaratilg‘an edi.

Bizning o‘zbeklarda, ayniqsa Qo‘qong‘a maxsus bir tus, sariqqa moyil bir tus bor. Lekin bu tusni kesdirib sariq deb bo‘lmaydir. Chunki biz og‘riq kishining tusini sariq deymiz. Zarcha, za‘far<sup>3</sup> tuslari ham bunga dag‘alliq qiladirlar. Ta‘birimiz qo‘pol tushmasa bu go‘zal qiz, och ra‘no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilg‘an edi. A‘zoda o‘skan tuklarga ham haligi tusning ta‘siri bo‘ladir. Ra‘noning sochi gungurt<sup>4</sup> – qora, ya‘ni quyoshsiz joylarda qora ko‘rinsa ham, quyoshda bir oz sarg‘ish bo‘lib ko‘rinar edi. Shunga o‘xshash Ra‘noning ko‘zida ham buning asari ko‘ruladir: mudavvarga<sup>5</sup> moyilroq jodu ko‘zi kishiga qattiq qara-

<sup>1</sup> **Buloqi** – burunni teshib taqiladigan zirak, ziyinat buyumi.

<sup>2</sup> **Latif** (*arabcha*: iltifotli, xushmuomala; yumshoq, muloyim; yoqimli) – go‘zal, chiroyli va nozik.

<sup>3</sup> **Za‘far** (*arabcha*) – sariq gulli o‘simlik.

<sup>4</sup> **Gungurt** – qora-sariq tusdagi, qo‘ng‘ir.

<sup>5</sup> **Mudavvar** (*arabcha*) – aylana, yumaloq. Bu yerda **ko‘zining shakli ta‘riflanayapti**.

g'anda qoralıqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipraklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham, ko'ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidg'a<sup>1</sup> berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg'an nafis irinlarining<sup>2</sup> yuqorig'i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas, kishiga kulib qarag'anda qizil olma ostlarida ikkita zamma<sup>3</sup> ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilg'an holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuy, sanoqsiz kockillar Ra'noning orqa, o'ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari, har holda bu qiz yolg'iz Qo'qonningg'ina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shulib maxtaladirg'an go'zallaridan edi.

Ra'no Nigor oyimning to'ng'uchi, bu yil o'n yetti yoshni to'lduradir. Savodni otasidan o'qub, o'n to'rt yoshida ibtidoiy maktab pro'g'ramida<sup>4</sup> bo'lg'an barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan – «Haftiyak», «Qur'on», «Chahor kitob<sup>5</sup>», So'fi Olloyor, «Maslaki muttaqin»<sup>6</sup>, adabiyotdan – Navoiyning barcha asarlari, devoni Fuzuliy<sup>7</sup> ma'a Layli Majnun; Amiriy<sup>8</sup>, Fazliy va shulardek chig'atoy-o'zbek katta shoirlarning asarlari; forsiydan – Xoja Hofiz Sheroziy<sup>9</sup> va Mirzo Bedil<sup>10</sup>, xusnixat, insho va boshqalar. Bu kunlarda bo'lsa bir tomondan qizlarga'asaboq berib onasiga ko'maklashsa, ikkinchi tarafdin otasida

<sup>1</sup> **Munaqqid** (*arabcha*) – tanqid, tanqidchi.

<sup>2</sup> **Irin** – lab, dudoq.

<sup>3</sup> **Zamma** (*arabcha*: qo'shish, biriktirish; zichlash) – arab tili va yozuvida «u» unlisi o'rnida qo'llanadigan, vergul shaklidagi belgi.

<sup>4</sup> **Pro'g'ramida (programma)** (ruscha) – dastur, taqvim.

<sup>5</sup> «**Chahor kitob**» – ushbu asarning muallifi aniq ma'lum emas. XV asrlarda ham maktablarda bu kitob o'qitilgan.

<sup>6</sup> «**Maslak ul-muttaqin**» («Taqvodorlar maslagi») – So'fi Olloyorning asari.

<sup>7</sup> **Muhammad Sulaymon Fuzuliy** (1498-1556) – Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri. Ozar, fors va arab tillarida ijod qilgan. «Muhabbatnoma», (yoki «Farzandi dilband») devoni bor. Asosiy asarlari: «Matla' ul-e'tiqod» (falsafiy risola), «Hadiqat us-suado» («Baxtiyorlar bog'i»), «Suhbat ul-asmor» («Mevalar munozarasi»), «Shikoyatnoma», «Bang-u boda» («Bang va boda»), «Anis ul-qalb», («Qalb do'sti»), «Yetti jom» yoki «Soqiynoma», «Rindu Zohid», «Sihhat va Maraz» («Sog'lik va bemorlik»)

<sup>8</sup> **Amiriy** – Amir Umarxon (1787-1822) – Qo'qon xoni (1810-1822), zullisonayn shoir.

<sup>9</sup> **Xoja Hofiz Sheroziy** (taxalluslari) – asl ism-sharifi Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad (1326-1389) – fors shoiri.

<sup>10</sup> **Mirzo Bedil** (taxallusi) – asl ismi Mirzo Abdulqodir (1644-1721) – shoir, mutafakkir. Asarlari: «Irfon» («Bilim»), «Komde va Mudan», «Nukot», «Tilsimi hayrat» (1669), «Muhiti a'zam» («Buyuk okean»), «Turi ma'rifat» («Ma'rifat tog'i»), «G'azaliyot», «Ruboiyot».

kofiya (arab nahv<sup>1</sup> va sarfi<sup>2</sup>) hamda Shayxi Sa'diyning «Guliston» -idan<sup>3</sup> dars oladir va shuning qatorida o'zi yaxshi ko'rgan chig'atoy-o'zbek shoirlarining badi'a asarlaridan alohida bir majmu'a tuzib yuriydir. Ba'zan «ovlog'roq joylarda» o'zicha manzumalar to'qusa ham, biroq bularning isi o'zidan chetka chiqmaydir. Agar to'qug'an she'r yoki manzumasi<sup>4</sup> o'ziga ma'quldek tushsa, faqat bir kishigagina ko'rsatib oladir. Va ul kishi ham bu sirni chetka chiqarmaydirg'an ishonchlik o'z kishisi.

Qisqasi, biz yuqorida Ra'noning she'riy bir husnini ko'rganimizdek uni fazl va zakovatda ham o'tkan xon zamonlari asri-ning nodir uchraydirgan yakto<sup>5</sup> fozila<sup>6</sup> qizlaridan sanaymiz va sanashg'a ham o'zimizda majburiyat his etamiz.

Ra'no qancha jiddiy bo'lsa ham yana unda bolalik tabi'ati butun ko'yi saqlanadir: ukalarining o'yunig'a komil huquqli bir a'zo tariqasida ishtirok etadir, onasining ko'zini chalg'itib o'qug'uchi qizlar bilan janjallashib oladir, qizlar saboqlarini bilmasalar arazlab, ularni o'qutmay tashlab ketkan chog'lari, arzimag'an gapdan tez mutaassir<sup>7</sup> bo'lg'an kezlari ko'b bo'ladir. Ra'no o'zining munday harakatlariga qarshi onasidan yaxshiyomon mukofot olmasa ham, ko'pincha otasidan tanbih eshitadir. Koyish eshitkani uchungina emas, uy-ro'zg'or to'g'rilarida onasini siqib ushlaganidan va fohish tangligidan<sup>8</sup> ranjib otasini uncha xushlamaydir. Otasidan achchig'lang'an kezlarda onasig'a jiddiy qilib: «Hamma ayb o'zingizda, otamdan ko'ra tuzukroq erni topib tegsangiz, munchalik qiynalishib yurmas edik», – deb bo'g'ilg'an Nigor oyimni kulduradir.

Qattig' ranjigan bir kun otasi – Solih maxdumga bag'ishlab qiziq bir hajv yozg'an va «o'z kishisiga» ko'rsatib uni kuldurgan edikim, biz kulgulik uchun bu o'rung'a bir necha misra'ini

<sup>1</sup> **Nahv** (arabcha: tomon; chekka, burchak) – arab tili tilshunosligining sintaksis bo'limi.

<sup>2</sup> **Sarf** (arabcha: turlanish, tuslanish) – arab tili tilshunosligining morfologiya bo'limi.

<sup>3</sup> **Sa'diy Sheroziy** (taxallusi) – asl ism-sharifi Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin (1203/1210-1292) forsig'o'y shoir, adib va mutafakkir. Asarlari: «Bo'ston» («Sa'diyнома»), «Guliston», «Tayyibot» («Latif g'azallar»), «Badoe'» («Yangi g'azallar»), «Xavotim» («Xotima g'azallar») va «G'azaliyoti qadim» («Eski g'azallar»), «Sohibiy», «Guliston», «Bo'ston», «Arab qasidolari», «Fors qasidolari», «Tarjibband».

<sup>4</sup> **Manzuma** (arabcha: she'riy asarlar; tizim) – nazm bilan yozilgan asar; she'riy asar.

<sup>5</sup> **Yakto** (forscha) – bir-birgina, yolg'iz; tengi, o'xshashi yo'q. Hech kim, hech narsa tenglasholmaydigan, tengi yo'q, misli ko'rilmagan.

<sup>6</sup> **Fozila** (arabcha: fozil ayol) – ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima.

<sup>7</sup> **Mutaassir** (arabcha) – biror narsadan ta'sirlangan ta'sirlanuvchan.

<sup>8</sup> **Fohish** (arabcha) – chegaradan chiqqan, haddan ortiq; bema'ni; axloqsiz, beadab.



ko'chiramiz:

*Yog'lar to'kilsa yerga, yotib yalar taqsirim,  
Bo'lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsirim.*

*Menim uchun bir zirak, Ra'nobonug'a jevak,  
Desa oyim – «Ne kerak?!» yumma talar taqsirim.*

*«Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas,  
Jevak<sup>1</sup> taqish farz emas!» g'avg'o solar taqsirim.*

Muhtaram o'qug'uchini qahramonlarimizning bir qismi birlan tanishdirishni shu yerda to'xtatamiz. Ularning ichki va tashqi tabiatlari yaxshi yeshilmag'an bo'lsa, hikoyamizning davomida yana ham ochilib va kengayib borar, deb ortiqcha tafsiyaga kirishmadik.

## VIII Fasl. BIR O'RDALIQ

Maxdumning havlisi uch qabat<sup>2</sup> edi. Ko'chadan birinchi qabatda mehmonxona, maktabxona va mashqxonona edi. Ikkinchi qabatda murabba<sup>3</sup>, yarim tanob<sup>4</sup>, chamasi, boqcha: bunda shaftol-u, olma, anjir kabi mevalik daraxtlar va bir necha kekxa so'ri toklar qulp urib<sup>5</sup> o'sqan edilar. Maxdumning bolalar kuchidan yaxshi foydalang'ani uchun bo'lsa kerak, boqchanning har bir qarishi bo'sh qolmag'an, unda har turluk ko'katlardan bor edi. O'rtadag'i so'rining osti bir yarim gaz ko'tarilib ishlangan sufa<sup>6</sup>, sufaning uch tarafiga yoz gullari ekilgan, rayhon va boshqa chechaklar atrofka o'z atriyoqlarini ongqitib yotar edilar. Birinchi qabatdan kirgach boqchanning sufasiga hamda ichkariga yuruldigan yo'lkalar bor edi.

Hozir mezon oyining ikkinchi haftalari, boqchanning mevalari yetilinqirag'an, ayniqsa so'ridagi qora husayni uzumlardan go'yo bollar tomib yotar edi. Yo'lkalarga suv sepilgan, sufaga gilam solinmasa ham gullik kiyiz to'shalib, uch tarafiga

<sup>1</sup> Jevak – xotin-qizlar bo'yniga taqadigan ziynat buyumi.

<sup>2</sup> Qabat – qism.

<sup>3</sup> Murabba' (arabcha) – to'rt burchakli, to'rtburchak; to'rtlik, to'rtlangan. Bu yerda to'rtburchak shaklida ma'nosida kelgan.

<sup>4</sup> Tanob – O'rta Osiyo xonliklarida: tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng yuzga (er) o'lchov birligi.

<sup>5</sup> Qulp urmoq – gurkirab, avj olib ko'karmoq; yashnamoq, gullamoq, gullab-yashnamoq.

<sup>6</sup> Supa (forscha: toshdan qilingan do'ng, tosh o'rindiq, tokcha; ayvon) – hovli, bog' va umuman ochiq yerda o'tirish, yotish-uvush uchun tuproqdan chorburchak shaklida ko'tarib qurilgan joy.

ko'rpachalar yozilg'an edi.

Maxdum etni uyga berib chiqq'andan keyin ikki soat, chamasi, husnixatdagi bolalar bilan shug'ullandi, oradan «abjad»<sup>1</sup> so'zini durust yozib chiqarg'an bir bolaning qo'lini bog'lab uyiga yubordi. Bola uyidan «qo'l yeshar» olib kelgandan so'ng hammaga javob berib bu kungi vazifasini tamomladi.

Maxdum mashqxonadan chiqib ichkari kirishga adim uzg'an holatda darbozadan sipohi<sup>2</sup> kiyimda bir kishi kirdi va maxdumga tabassum bilan salom berib yaqing'a yurib keldi. O'rdaning devonxona xizmatchilari kiyimida bo'lg'an bu kishini maxdum o'z umrida birinchi martaba ko'rar edi. Javob salomdan keyin sizlanib mehmonni mehmonxonag'a boshladi. Mehmon ham takallufflanmay domlarning orqasidan mehmonxonag'a kirdi, o'tturishdilar, so'ng fotiha o'quldi. O'rdaliq tabassum ichida maxdumga qarag'andan so'ng yig'ishtirinib oldi:

– Xato qilmasam janoblari mirzo Anvarning ustozlari bo'lsalar kerak?

– Faqir...

– Uy ichlari bilan xo'b salomatmilar?

– Alhamdulillah<sup>3</sup>.

Maxdumga kutulmagan ravishda mehribon muomala qilg'uchi bu o'rdaliq qirq yoshlar chamasida, uzun bo'yliq, qora uzun soqolliq, simobi<sup>4</sup> sallasining peshini tushirg'an qoracha tuslik bir yigit edi.

– Kaminalari ham, – dedi o'rdaliq, – mirzo Anvar bilan birga devonxonada ishlayman. Balki, quloqlarig'a chatilg'an bo'lsa kerak, ismim Sultonali mirzo...

– Xo'b, xo'b, – dedi kulib maxdum, – Anvardan eshitkanim bor edi, janoblarining tavsiflarini eshitkanman. Nachuk, xudo yorlaqadi? Faqirxonag'a tashriflari bilan bisyor xushnud bo'ldim.

– Adabsizlik bo'lsa ham, – dedi mirzo Sultonali, – muborakxonalari'ga bostirib keldim. Bunga ham burodarim mirzo Anvarning muhabbati majbur qildi.

Sultonalining bu keyingi so'zi maqsadni bir daraja domlag'a

<sup>1</sup> *Abjad (arabcha)* – eski usuldagi maktablarda o'qitilgan boshlang'ich ta'lim.

<sup>2</sup> *Sipohi(y) (forscha)* – askar, jangchi.

<sup>3</sup> *Alhamdulillah(h) (arabcha)* – Oллоhga shukur, Xudoga shukur.

<sup>4</sup> *Simobi(y) (forscha: simobday)* – simob rangidagi, kumushrang; kumushsimon oq yaltiroq.

onglata yozdi. Kayflanish, huzurlanish maxdumning yuzida o‘runlashqan edi. Ko‘zini qisinqirab Sultonoliga qaradi.

– Xo‘b, xo‘b, – dedi maxdum, – mulla Muhammad Rajab marhumning o‘rnig‘a bosh munshiy<sup>1</sup> ta‘yin qilindimi, qo‘lim tegib bu to‘g‘rida Anvar bilan so‘zlasholmadim?

– Hozir ta‘yin qiling‘uncha yo‘q, erta-indin ta‘yin qilinar, deb turamiz. – Ko‘b yaxshi, nomzadlar bordir?

– Bor, dedi Sultonali, – bir necha nomzadlar hazrati xong‘a manzur qiling‘anlar, jumladan shoir Madhiy, mulla Shahodat mufti va boshqa yana bir nechalar. Masmu‘ingiz<sup>2</sup> bo‘lsa kerak, garchi o‘zi rizoliq bermasa ham, bir necha mirzolar shogirdingiz mirzo Anvarning ham nomzadini xolis ariza bilan janobga manzur qilg‘an edik. Umid Xudodan, yorlig‘<sup>3</sup> mirzo Anvarga qoyim bo‘lur<sup>4</sup>, deb turamiz.

Maxdum soqolini tutamlab shipka qaradi. Go‘yo Sultonaning keyingi ikki jumlasiga qaysi yo‘sun muqobala<sup>5</sup> qilishdan ojiz edi.

– Bir necha yaxshilarning Anvarga bo‘lg‘an husni tavajjuhlarini<sup>6</sup> eshitkan edim, – dedi maxdum minnatdor ohangda, – ammo faqirg‘a shunisi mushkilroq ko‘rinadirkim, basharti Anvar bosh munshiylik vazifasiga yorlig‘ olg‘undek bo‘lsa, bu lavozimotni ado qila olurmi, kaminaning nazarimda bosh munshiylik, alalxusus<sup>7</sup>, ul janobning huzurlarida behad ulug‘ va mushkil ko‘rinadir?

Sultonali yengilcha kulib qo‘ydi:

– Bosh munshiylik lavozimoti borasidagi fikringiz, darhaqiqat, to‘g‘ri, – dedi, – ammo mirzo Anvarning uhda<sup>8</sup> qila olishi muhaqqaqdir<sup>9</sup>. Zero, Anvarning bu boradagi iste‘dodi janoblari-dan ko‘ra kaminaga ma‘lumdir, bu to‘g‘ridan xotirjam bo‘lsinlar.

<sup>1</sup> **Munshiy** (*arabcha*: asoschi, yaratuvchi; quruvchi; muallif, tuzuvchi, yozuvchi) – Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib.

<sup>2</sup> **Masmu‘ bo‘lmoq** – xabardor bo‘lmoq, eshitmoq.

<sup>3</sup> **Yorlig‘ (yorliq)** – biror amal, unvon, suyrug‘ol va shu kabilar berilganligi haqidagi rasmiy hujjat/

<sup>4</sup> **Qoyim bo‘lmoq** – berilmoq; tegmoq; nasib qilmoq.

<sup>5</sup> **Muqobala** (*arabcha*) – taqqoslash, solishtirish; uchrashuv; qabul qilish; o‘rmini to‘ldirish, qoplash. **Bu yerda qarshilik qilmoq ma‘nosida kelgan.**

<sup>6</sup> **Tavajjuh** (*arabcha*: biror kishiga murojaat qilish, yuzlanish; biror tomonga yurish, jo‘nab ketish) – 1) xayrixohlik bilan yuzlanish, qarash (**bu yerda shu ma‘noda kelgan**); 2) diqqat-e‘tibor.

<sup>7</sup> **Alalxusus** (*arabcha*) – xususan, ayniqsa.

<sup>8</sup> **Uhda** (*arabcha*) – mas‘uliyat, javobgarlik; kafillik. **Bu yerda eplay olmoq ma‘nosida kelgan.**

<sup>9</sup> **Muhaqqaq** (*arabcha*) – amalga oshirilgan; shubhasiz; muqarrar; to‘g‘riligi isbot etilgan, aniq, chin. **Bu yerda aniq, rost, shubhasiz ma‘nolarida kelgan.**

– Darvoqi’, Anvarga ko‘b mehnatim singgan, – dedi maxdum mahtang‘ansumon, – bir qarish yoshidan boshlab kamining ta‘limida o‘sti, o‘z qo‘limda tarbiya topqan necha yuz, balki, minglab shogirdlarim ichida ko‘b tavajjuhim shu bolag‘a bo‘ldi. Ushbu sababdan ham munchalik musta‘id<sup>1</sup> bo‘lg‘an bo‘lsa ajab emas, deb o‘yayman... Va lekin holog‘i<sup>2</sup> so‘zim shuning uchundirkim, fazli va iste‘dodi kofiy<sup>3</sup> bo‘lsa ham yoshliq, kam tajribalik qilmasmukin, deb mulohaza qilurman.

– Bo‘stoni ma‘rifat va gulshani haqiqat, – dedi Sultonali, – Imomi A‘zam<sup>4</sup> rahmatullohi alayhi<sup>5</sup> o‘n yoshlarida darsgo‘lik qilib va hokazo kutubi mutabarraka ta‘lifotig‘a ham ibtido qilg‘an ekanlarkim<sup>6</sup>, bu karomat janoblaridan po‘shida<sup>7</sup> emasdir. Bas, indal‘uqalo<sup>8</sup> yoshliqning hech bir nuqs va ahamiyati yo‘q, ammo fazl-u zakovat lozimdir. Masalan, kaminangiz tahsilda «Aqoid»g‘acha bordim va qariyb o‘n yildan beri mirzoliq qilurman. O‘z hunarimda yaxshi tajriba ham ortirdim, shuning birla birga nafsilamrni<sup>9</sup> iqror etishka majburmankim, shogirdingiz mirzo Anvardan ko‘b daraja quyidaman: tahrirda<sup>10</sup>, taqrir<sup>11</sup> va fairoiz<sup>12</sup> da Anvaringizning yordamig‘a muhtojman. Holbuki yoshim undan barobar katta, men o‘qug‘an darslarni, ehtimol, Anvar o‘qumag‘an... Anvarning zakovatiga yolg‘iz men emas, marhum munshiy mulla Muhammad Rajabning o‘zi ham tahsin qilar, ajoyib o‘g‘lon deb qo‘yar edi. Menim mirzo Anvarni bu

<sup>1</sup> **Musta‘id** (*arabcha*) – qobiliyatli, uddaburon, bilimli.

<sup>2</sup> **Holog‘i** – haligi, boyagi.

<sup>3</sup> **Fazli va iste‘dodi kofiy** – yetarli darajada fozil va iste‘dodli.

<sup>4</sup> **Imomi A‘zam**– Abu Hanifa No‘‘mon ibn Sobit al-Ko‘fiy (699-Bag‘dod) – hanafiylik mazhabi asoschisi. Asarlari: «Kitob as-salot» («Namoz ahkamlari kitobi»), «Kitob almanosik» («Haj kitobi»), «Kitob ash-shurut» («Shartnomalar haqida kitob»), «Kitob alfaroiz» («Meros ilmi haqida kitob»), «Kitob al-olim val-mutaallim» («Ustoz va shogird haqida kitob»), «Kitob al-fiqh al-akbar» («Katta fiqh kitobi»), «Kitobi al-vasiya» («Vasiyatnoma kitobi»), «Adab al-kadi» («Qozining odobi»), «Annafaqot» («Nafaqalar»), «Faroiz» («Meros ilmi»).

<sup>5</sup> **Rahmatullohu alayhi** (*arabcha*) – uni Olloh rahmatiga olsin.

<sup>6</sup> **Kutubi mutabarraka ta‘lifotig‘a ham ibtido qilg‘an ekanlarkim** – tabarruk kitoblar yozishni ham boshlagan ekanlar.

<sup>7</sup> **Po‘shida** – yashirin, maxfiy.

<sup>8</sup> **Indal‘uqalo** (*arabcha*) – oqillar nazdida

<sup>9</sup> **Nafsilamr** (*arabcha*: haqiqatda) – haqiqatga mos; to‘g‘ri, rost.

<sup>10</sup> **Tahrir** (*arabcha*: ozod qilish; tuzatish, muharririk qilish; yozish,) – yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash. **Bu yerda xato tuzatish ma‘nosida kelgan.**

<sup>11</sup> **Taqrir** (*arabcha*: qaror qilish; qaror berish; ma‘ruza, hisobot; bildirish, xabar berish) – xat, maktub, noma; yozma asar. **Bu yerda noma vozish ma‘nosida kelgan.**

<sup>12</sup> **Faroiz** (*arabcha*: hisob, o‘lchov) – fiqh ilmida bajarilishi shart bo‘lgan amallar haqidagi bo‘lim, jumladan, shariatning merosni taqsim qilish haqidagi qoidalariga oid bilimlar. **Bu yerda shu ma‘noda kelgan.**

o'ring'a sa'i qilishim bo'lsa bir g'araz yuzasidan emas, xolisonadir. Agar g'arazg'a hisoblansa, masalan: «Birarta noahlning qo'l ostida ishlagandan, ahlining jag'ida tishlangan ma'qul» so'ziga binoandir. Lekin mirzo Anvar nima uchundir biz bir necha mirzolarning ra'yimizga qarshi tushib, bizdan ranjib yuriydir. Hatto janobg'a bir ariza kirgizib, menim nomzadim yanglish ko'rsatilidir, men bu vazifani uhda qilolmayman, deb uzr bayon qilmoqchi emish. Uning bu yo'sun inodi<sup>1</sup> nima uchun, bilalmadik. Faqir, og'aynilar tarafidan garchi adabsizlik bo'lsa ham, huzurlariga iltimos uchun keldim. Avvalo, mirzo Anvarga otaliqlari, soniyat ustozliqlari bor. Siz janob targ'ib qilsangiz va kengash bersangiz qabul qilar, deb o'yladiq.

Habba! – dedi maxdum xursandlik bilan, – bu to'g'rida yaxshi so'zlashmag'an edik, so'zlasharmiz, inshoolloh, ko'nar.

– Salomat bo'lingiz taqdir. ●

Maxdum soqolini ushlab ko'zini qisdi:

– Boya peshin asnosida, – dedi, – qavmlar kaminadan istifso<sup>2</sup> qilishdilar kim: «O'g'lingiz Anvar munshiy ta'yinlanar emish, ushbu axbor to'g'rimi?» – deb... Mazmuni shaharga ham mashhur bo'lg'an ekan-da?

– Balki, – dedi kulib Sultonali va bir ozdan keyin ohista sir yo'sunida qilib so'zladı, – o'rda ichida bir nechalirimiz ustoz mulla Muhammad Niyoz domlag'a<sup>3</sup> va haramdan Og'acha oyimg'a<sup>4</sup> Anvar to'g'risida iltimos qilishdiq. Shuning uchun mirzo Anvarning bosh munshiy ta'yin qilinishig'a shubha qilmaymiz. Faqat uni ko'ndirilsa, bas.

– Va lekin, – dedi maxdum nihoyatda ochilg'an qiyofatda, – bu tadbirlaringiz beandoza ma'qul bo'libdir, ya'ni masalan, janobg'a domla shog'ovul<sup>5</sup> va malika xonimlarni vosita qilishlaringiz...

– Biz ham shunday o'ylaymiz. Endi umid xudodan, natija ham orzumizcha bo'lg'ay.

– Inshoolloh.

<sup>1</sup> Inod (*arabcha*) – o'jarlik, bo'yin tovlash, o'jarlik, qiyqlik.

<sup>2</sup> Istifso (*qilmoq*) (*arabcha*: so'rov, so'rab bilish; xabar olish) – izoh talab qilish, so'rab bilish.

<sup>3</sup> Muhammad Niyoz domla – Xudoyorning shog'ovulboshisi – ilmiya vaziri, «Tarixi Shahrxiy»ning muallifi, shoir (muall.).

<sup>4</sup> Og'acha oyim – Xudoyorning suyuqlik xotuni (muall.).

<sup>5</sup> Shig'ovul – O'rta Osiyo xonliklarida elchilarni kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs.

– Demak, mirzo Anvarni ko‘ndirish vazifasi odobsizlik bo‘lsa ham sizga qoldi-da, taqdir?– deb Sultonali takror so‘radi.

– Xotirjam’, – dedi maxdum qanoat bilan, – albatta, noinsofni ko‘ndirsamiz kerak.

Shundan so‘ng Sultonali o‘zining bu yerga kelganini Anvarga bildirmaslikni ta‘kidlab o‘rnidan turdi. Maxdumning aztahidil<sup>1</sup> «mohazarimiz<sup>2</sup> bor edi» deb qistashig‘a qarshi uzr aytib xayrlashdi. Maxdum aksar o‘z uyiga kelguchi kishilarga qilmaydirg‘an favqulodda bir takalluf bilan uni darbozag‘acha uzatib chiqdi.

### IX Fasl. O‘pka va hazil

Istiqlolning shirin xayollarig‘a ko‘milgan holda maxdum asr namozi uchun tahorat olar edi. Tahoratda tartibni rioya qilish shunnat<sup>3</sup>, ammo maxdum tarki sunnat qilmoqda. Hatto o‘quladirdg‘an duolarni ham o‘runsiz ishlatmakda edi. Maxdum shu yo‘sun betartib tahoratlanib ichkariga kirdi. Nigor oyim oshxonada mantilarni qasqong‘a terib qozong‘a uyar, Ra‘no bo‘lsa ayvonda kichkina ukalari orasida o‘lturar edi.

Dadasi yo‘lakdan ko‘rinish bilan Ra‘no Mas‘udni ko‘tarib turdi. Va qoziqdag‘i salla va choponni olib ayvon muyushig‘a keldi. Bolalar ham dadalari oldida adablanishdilar.

– Anvar akang kelmadimi, sufa yolg‘iz, – dedi maxdum, chopon, sallani kiya-kiya, – asrga borib kelgunimcha, sen sufaga chiqib tur-chi, Ra‘no.

– Xo‘b.

Otasi chiqib ketkach, Ra‘no qo‘lida ukasi bilan tashqarig‘a yo‘l soldi. Uning ketidan Mahmud va Mansurlar ham chopishdilar.

– Ra‘napa, Ra‘napa!– deb Mansur yig‘i aralash o‘zidan chopib o‘tmakchi bo‘lg‘an Mahmudning ustidan Ra‘no opasig‘a arz qildi. Ra‘no boqchanning sufasiga yeta yozg‘an edi. Mansurning yig‘i shovquni yana ham kuchayib raqobat o‘ti yonib ketkach, Ra‘no to‘xtab Mahmudni koyishka majbur bo‘ldi:

– Mahmud, Mahmud, esi yo‘q Mahmud!

Mahmud to‘xtadi, ammo Mansurdan olding‘a o‘tkan edi,

<sup>1</sup> Aztahidil (forscha) – butun qalbning, yurakning tubidan; astoydil.

<sup>2</sup> Mohazar (forscha: barcha bor narsa; tayyor taom) – tayyor, hozirlangan taom.

<sup>3</sup> Sunnat (arabcha) – hadislarda targ‘ib etilgan, ibodatda ham, muomalada ham qo‘llanuvchi amallar.

Mansur bu mag'lubiyatka chidalmay asabiylashib, yerga o'lturib oldi va dunyoni buzub faryod qo'pordi. Ra'no kelib Mansurni turg'izdi va kiyimiga o'lturgan changlarni qoqti:

– Yig'lama, opasi, yig'lama, – dedi, – hali dadasi Mahdumni dum-dum! Qarab tur-chi, sen Mahmud, otang kelganda aytmasammi?!

Mansur «Ra'anpa»sining himoyasidan so'ng uning yetagida sufaga qarab yurdi. Ammo Mahmud ancha ezilgan edi:

– Dadam yima<sup>1</sup> qilardi?– deb so'radi turg'an joyidan.

– Kelsin-chi, hali... Tunovi kungi chiviq esingdan chiqdimi?

Mahmud javob beralmadi. Uning ko'zida achchig' aralash qo'rquv bor edi. Ra'no kichkina ukasi bag'rida sufaga chiqib o'lturdi. Mansur «Ra'napa»sining yelkasiga suyanib, yo'l ustida serrayib qolg'an Mahmudga g'olibona bir turda istehzo qilar edi. Mahmud bu holga ortiq chidab turolmadi. O'zining yengilishiga sababchi bo'lg'an Ra'nodan o'ch olmoq maqsadida:

– Mullatani xotini, mullatani xotini... ey, ey, ey!

Ra'no kuldi:

– Qarab tur, qarab tur, sen adabsiz, – dedi va Mahmudga hujum qiladig'andek qo'zg'alib qo'ydi.

– Bildim, bildim: mullatani xotini, mullatani xotini! – dedi Mahmud va ichkariga qarab qoqti.

Ra'no kulimsirab, Mansurga qaradi:

– Shundaymi, men mullatani xonimi-a?– deb so'radi.

Mansur javob o'rnig'a yo'lakka qaradi va so'yunchi ichiga sig'mayg'an holda sufaning zinasiga yugurdi va qichqirdi:

– Mullata, mullata telli, telli!

Ra'no ham yo'llakka qarab qizarinib ketdi va oldig'a tushib tartibsizlangan sochini orqasig'a tashlab tuzatindi. Yo'lakda ko'ringan yosh yigit («mullata») sufaning yo'li bo'yincha kelmakda edi. Qora chiviq<sup>2</sup> beqasamdan harir to'n kiygan mavzun qad Anvar birinchi qarashdayoq ko'zga do'ndiq va ko'rkam ko'rinar edi. Qora surmalik ko'zi Ra'noda ekan, o'ziga yugurib kelguchi Mansurga yo'l ustida cho'nqayib quchog'ini ochti. Mansurning yuzidan o'pkach ko'tarib sufaga yurdi. Anvarni qarshilamoq uchun bo'lsa kerak Ra'no ham o'rnidan turib sufaning zinasiga

<sup>1</sup> Yima – nima (muall.).

<sup>2</sup> Chiviq – mayda chiziq-chiziq yo'lli (gazlama).



yaqinlashdi, va tabassum aralash:

– Hormang, – dedi.

– Sog‘ bo‘ling.

Anvar sufaga chiqib Mansurni yerga qo‘ydi. Kafshini yesha-yesha Ra‘no tomong‘a engashib, o‘ziga talpinib turg‘an Mas‘udning yuzidan o‘pti va uni Ra‘nodan oldi. Mas‘ud Anvarning qo‘lig‘a o‘tkach sapchib guvrandi<sup>1</sup> va qiyqirib tovlandi. Ra‘no ikki qo‘lini uzatib: «Kel menga, kel», – dedi. Mas‘ud buralib Anvarning bag‘rig‘a siqildi. Kulishdilar. Anvar bolani o‘pib so‘ydi.

Ra‘no Mas‘udni yandi: «Sen qarab tur, biji bola», – dedi. Anvar bolani ko‘targancha ko‘rpasiga o‘lturdi. Chap tizasiga Mansur yopishdi va uning yonig‘a Ra‘no qo‘shildi. Shu yo‘sun ikki orada bir muncha vaqt Mas‘udni so‘yishdilar: Anvar bolani Ra‘nog‘a bergandan keyin simobi shohi sallasini olib yostiqqa tashladi va ro‘ymoli bilan qop-qora bo‘lib chiqa boshlag‘an murtini tuzatdi. Ra‘no qarshida tik turar edi.

– Tinchlikmi?

– Betinchlik, – dedi kulib Ra‘no.

– Ayni muddao ekan bo‘lmasa... Ha, aytkandek, – dedi Anvar o‘lturgan sufasiga ishorat qilib, – bu kun joy katta soling‘an?

– Mehmon kelar emish.

– Yolg‘oning qursin, Ra‘no, – dedi Anvar kulimsib, – qanday mehmon?

– Men qayoqdan bilay, qanday mehmon... Fotihaga kishilar kelar emish, deb eshitdim.

– Fotihasi qanaqa?

– Bilmasam qanaqa?

Anvar o‘ylanib yana kulimsidi:

– Sening fotihang bo‘lmasin?

– Menim qanday fотиham bo‘lsin, men hali tirik-man.

– Teskariga burma, Ra‘no, balki, seni erga bermakchidirlar?

Ra‘no qizarib turdi-da, yana gapni kulgulikka oldi:

– Meni kimga berar emishlar?

– Senimi?– dedi kulib Anvar, – sendan xondan boshqa kim olsin?

<sup>1</sup> Guvrannoq – noaniq, tushunib bo‘lmaydigan ovoz chiqarmoq; noaniq gapirmoq; o‘ldirarmoq.

Ra'no qo'lidag'i ukasiga qarag'an holda:

– Siz shunga maslahat bersangiz... Men qandog' qilay, – dedi va Mansurni chaqirdi:

– Tur, Mansur, ketamiz.

Ra'noda achchig'lanish namoyishi bor edi. Anvar Ra'nodagi bu o'zgarishdan o'ngg'aysizliqqa tushdi:

– Ra'no, – dedi. Ra'no zinadan tushib boshlag'an holda to'xtadi, – chinini so'zla, mehmon kelishi aniqmi?

– Mehmon kelishi aniq ham keldi, – dedi Ra'no jiddiy.

Anvar ajablandi:

– Mehmon keldi?

– Keldi.

Anvar tevarakka qarandi:

– Qani mehmon, – dedi.

Ra'no qo'li bilan Anvarning o'ziga ishorat qildi:

– Ana mehmon, – dedi.

Anvar kuldi:

– Men mehmonmi?

Ra'no jiddiy ravish bilan:

– Albatta, siz bizga mehmonsiz.

Anvar yana kuldi. Biroq uning bu so'ngg'i kulishida kuchlanish bor edi:

– Men sizga mehmonmi?

Ra'no kulimsib yer ostidan Anvarga qaradi va qo'lidag'i xarxasha qilib boshlag'an bolani ovitish uchun tebrandi.

– Bilmasam...

Ra'noning yuzidan boyag'i jiddiyat yo'qolg'andek edi. Anvar ham ma'noliq hazilni tashlab chin hazilga o'tdi:

– Mehmonning qorni och, Ra'no, – dedi, – albatta, qadrlik mehmon uchun tansiqroq taom pishirg'andirsiz, deb o'ylayman. Bu kungi taomingiz ismini lutfan marhamat qilsangiz edi.

– Mehmonning vazifasi, – dedi Ra'no javoban, – izzati bilan o'lturish va oldig'a qo'yg'an narsani maxtab-maxtab yeyishdir...

– To'g'ri aytasiz, otin bibi, – dedi Anvar, – biroq bu kungi mehmondorchilig'ingiz ham kechagidek ubra bilan bo'lsa, maxtab-maxtab qo'lingizg'a qaytarib berishim ham aniqdir. Ra'no butun tovshini qo'yib kulib yubordi:

– Bu kun qo'g'urma sho'rbag'a, – dedi Ra'no kulgi ichida, – qattig' non to'g'rab yeysiz, jaz o'rnig'a shalg'am chaynaysiz.

– Ofarin, – dedi Anvar, – bu kungi mehmondorchilig‘ingizdan qariyb mamnun bo‘ladirg‘ang‘a o‘xshayman. Agar mumkin bo‘lsa shuni ham bilsamki, bu kungi shalg‘am sho‘rba katta otin bibining qo‘llaridan tanovul qilinadirmi yoki kichik otin bibining?

– Mehmon uchun buning farqi yo‘qdir...

Bir oz yanglishasiz, Ra‘nobonu, – dedi Anvar, – chunki qo‘ldan qo‘lning katta farqi bor.

Farqi bo‘lsa... Bu kun kichik otin bibining qo‘llaridan shalg‘am sho‘rba tanovul qilasiz.

– Bu holda, afu etasiz, Ra‘nobonu... Basharti kichik otin-bibining qo‘llaridan tanovul qiladig‘an bo‘lsa, shalg‘am sho‘rba emas, bizning uchun qush sho‘rbadir.

Bunga qarshi Ra‘no nimadir aytmoqchi bo‘lg‘an edi, tashqaridan oyog‘ tovshini sezdi, Anvarga bir kulib qaradi-da, Mansurni yetaklab ichkariga chopdi.

## X Fasl. XAYRIXOH BIR ODAM

Ra‘no ichkariga qayrilmasdan boqchag‘a maxdum kirdi va tashqarini chaqirdi:

– Marhamat, Shahidbek, marhamat!

Ra‘no ichkariga kirishi bilan domlaning orqasidan harsillagan, gursillagan elli yoshlar chamaliq semiz bir kishi ko‘rindi. Ko‘k sallasi manglayining usti bilan o‘ralib, o‘siq qoshi qovog‘ig‘a yotqan bu bekning belidagi kumush kamari benihoyat o‘sib tushkan qornini yuqorig‘a ko‘tarib turish vazifasini ado qilardi.

Eshik ostida Shahidbek bilan maxdum oralarida onglashilmasliq yuz berdi:

– Siz yuring!

– Siz yuring!

– Men rozi!

– Adabsizlik bo‘ladi-da, xrrr?

Ortiqcha takallufni Shahidbekning o‘zi qabul qilsa ham, go‘шти qabul qilmas edi. Takalluf lanib o‘ltursa borg‘an sayin o‘ziga behuzurlik ortar edi. Shuning uchun maxdumning oldig‘a tushib jo‘nadi va yo‘l ustida: «Mirzo Anvar ham kelgan ekan, xrrr?» – deb qo‘ydi.

Anvar ularni qarshi oldi, sufaga chiqdilar. Shahidbek Anvar

bilan entika-entika ko‘rushkach, joy ko‘rsatilmasdan sufaning to‘rig‘a o‘lturib oldi. Chunki zinadan chiqishda ancha ezilgan, takallufgacha kutishka toqati qolmag‘an edi. Fotihadan so‘ng o‘lturgan yerida ust to‘nini yeshdi, belidan kamarini olib yonig‘a qo‘ydi, sallasini chiqarib yostiqning ustiga tashladi va ro‘ymoli bilan manglayodag‘i<sup>1</sup> terlarini artib o‘zini yelpidi:

– Xo‘b salomatmisiz, mirzo, xrrr?

– Shukur, o‘zlaridan so‘rasaq?

– Alhamdulillah.

So‘ngra maxdum Anvardan hol so‘radi:

– Bir oz kechikdingizmi, Anvar?

– Zarurroq ishlar bor edi.

– Sarmunshiy<sup>2</sup> qazo qilib, – dedi Shahidbek, – hamma og‘irliq sizning ustingizga tushkan bo‘lsa kerak, mirzo, xrrr?

– Shunday, – dedi Anvar, – lekin ba‘zi vaqt viloyatlarga oshig‘ich yuboriladirg‘an noma va farmonlar chiqib qoladir. Shunday kezlarda hatto tunab ishlashka ham to‘g‘ri keladir. Shahidbek qayta boshdan manglayig‘a terilib qolg‘an terlarini artdi:

– Iloji yo‘q, iloji yo‘q?

Anvar yer tegidan maxdumga ko‘z qirini tashlag‘ach, o‘rnidan turub to‘nini yeshdi va zinaga borib kafshini kiya boshlag‘an edi, maxdum buyurdi:

– Ichkariga kirib, xabar oling, taom tayyor bo‘lg‘an bo‘lsa, olib chiqsangiz ham ma‘qul.

– Xo‘b.

Anvar ichkariga ketdi. Uning orqasidan kuzatib turg‘an Shahidbek maxdumga qaradi:

– Mirzoning tarbiyangizda kelganiga ko‘b bo‘lg‘an chiqar?

– Qariyb o‘n to‘rt yil.

– O‘z farzandlaridek bo‘lib qolg‘an-da?

– Undan ham afzal.

– Ojizalari ham yetib qolg‘an bo‘lsa kerak?

– Inshoolloh.

– Xudo yosh bersin, – dedi Shahidbek, – mirzoni o‘zlariga domod<sup>3</sup> qilsalar ham bo‘lar ekan, xrrr?

<sup>1</sup> Manglayo – manglay.

<sup>2</sup> Sarmunshiy (forscha+arabcha) – amir, xon saroyida bosh munshiy, bosh kotib.

<sup>3</sup> Domod (forscha) – kuyov.



– Ushbu mulohazamiz ham yo‘q emas, – dedi maxdum. – Modomiki, bolani yoshlig‘idan o‘z farzandimizdek parvarish qildi, endilikda o‘zimizga domod ham bo‘lsin, deb o‘zimizni so‘ratg‘uchi ko‘b oliy nasab xonadorlardan qat‘iy nazar qilib kelamiz?

– Barakalla, – dedi Shahidbek, – asli insof shudir. Ikkilanchi, domodliq uchun nasabdan ilgari ilm-u adab, fazl-u kamol lozimdirkim, bu ham o‘zlaridan maxfiy emas, xrrr?

– Habba, – dedi maxdum ko‘zini qisib, – biz ham shu gaplarni mulohaza qilib qoldiq.

Shahidbek maxdumning mahalla ahllaridan bo‘lib, Xudoyorxon zakotchilarining biridir. Mundan ilgari Shahidbekning maxdum bilan uncha yaqinlig‘i yo‘q va hatto o‘zg‘an yillarda mahalla kishilaridan ba‘zilarini maxdumning imomatiga<sup>1</sup> qarshi qo‘zg‘atib yurg‘an edi. Domlar bilan do‘stlashish tarixi ersa ikki-uch kundan beridir. Chunki shu kunlarda Anvarning sarmunshiy bo‘lish ehtimoli shaharning katta-kichiklari orasida so‘zlashilib qoldi. Shu ehtimol natijasida maxdumning do‘st va dushmanlari o‘ylashg‘a majbur bo‘ldilar. Jumladan, bizning Shahidbek maxdum bilan aloqasini tuzatmagan holatda Anvar munshiy ta‘yinlanib qol-sa, birar «foji‘a» bo‘lish ehtimoli bor edi. Shahidbek fikricha, go‘yo maxdum Anvarga: «Falonchibek falon vaqtda menga munday adovat qilg‘an edi. Endi fursat kelganda sen uni zakotchilikdan bekor qil», – deb buyurar, Anvar ham ustozining so‘zini yerda qoldirmay sarmunshiy bo‘lg‘an kunidayoq Shahidbekni xizmatdan bo‘shatdirar edi?

Shahidbek Anvarning sarmunshiy bo‘lishini, tabi‘iy, xohlamas edi. Ammo Anvarga qarshi bir ish qilish kuchiga ham molik emas edi. Garchi, hozirda Anvarning sarmunshiy belgilanishi bir ehtimol bo‘lsa ham, Shahidbek har ehtimolga qarshi chora ko‘rib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Mundan uch-to‘rt kun ilgari maxdumga yaqinlashish andishasida, avvalo, unga iqtido qilib<sup>2</sup> namoz o‘qudi (ilgari maxdumning orqasida namoz o‘qumas edi). Huftan namozidan keyin halqaga kirib maxdumning tilovatiga soe‘ bo‘ldi<sup>3</sup>. Ikkinchi kun ertalabki namozdan so‘ng maxdumga salom berdi va undan ahvol so‘rab:

<sup>1</sup> **Imomat** (*arabcha*: imomlik) – imom ishi, mashg‘uloti; imomlik.

<sup>2</sup> **Iqtido qilmoq** – namozda imomga taqlidan harakat qilmoq.

<sup>3</sup> **Soe‘ bo‘lmoq** – sherik bo‘lmoq.



«Eshitib xursand bo'ldim, har nachuk sarmunshiyning o'z kishilarimizdan bo'lg'ani yaxshi; bu to'g'rida o'rdaliq og'aynilarg'a iltimos ham qilib qo'ydim», – dedi.

Maxdum o'z ishida qancha pishiq bo'lsa ham, lekin do'st bilan dushmani ajratolmas, yana to'g'risi – necha yillik adovatlarni ikki og'iz shirin so'z yoki besh pul manfaat evaziga unutilib yuborg'uchi edi. Bunda ham shunday bo'ldi:

«Bachchataloq<sup>1</sup> adovatni tashlab shaytong'a hay beribdi. Anvarning sarmunshiy bo'lishig'i so'yubindir, shaytoni zo'r bo'lsa ham, insofi chakki emas», – deb Shahidbekka do'stona muomala qildi va Anvarning ishi to'g'risida bilganini so'zladi; hali asr namozig'a chiqqanda yana Shahidbek bilan uchrashib so'zlashdi va Anvar «ahmoq» ning bu ishka norozilig'idan shikoyatlandi.

Shahidbek bir oz o'ylag'andan keyin: «Men o'zim mirzo Anvar bilan bir so'zlashay bo'lmasa?» – dedi. Chunki basharti Anvar bosh munshiy bo'lib qolsa va bunda o'zining ham ishtiroki bo'lsa, albatta? Ha, deya. Shu mulohazada Shahidbekning ko'zi allaqancha joylarni ko'rib oldi.

– Mirzoning uyda bo'lish vaqtini aytasangiz, o'zim oldig'a kirar edim, – dedi.

Anvar: «Bekor gap, anchayin bo'lmag'ur gap», – deb maxdumning bu to'g'ridag'i savollariga ahamiyatsizgina qilib javob berar va shuning uchun maxdum ham bu kungacha masalaga ishonchsiz qarab kelar edi. Alhol ersa bu gap butun Qo'qon xalqi og'zida so'zlanib qoldi va buning ustiga Sultonali mirzo maxdumning jiddiy iltimos ham qilib ketdi. Shu sabablarga binoan maxdumning nazarida Anvarni ko'ndirish masalasi jiddiylashkan va Shahidbekning haligi so'zidan keyin o'z yonig'a ko'makchilar, kengashchilar olish luzumini<sup>2</sup> ham his etkan edi. Shu mulohaza bilan Shahidbekning haligi taklifini ma'lamnuniyat qabul qildi:

– Habba? Alhol Anvar uyga kelgan bo'lsa kerak; lozim topsangiz, men bilan birga marhamat qilingiz, – dedi.

Shahidbek Anvar bilan so'zlashkali va uni ko'ndirgali kelgandek ko'rinsa ham, aslida g'arazsiz odam emasdir.

<sup>1</sup> **Bachchataloq** (bachcha+taloq) – 1) taloq qilingan xotindan tug'ilgan bola. Taloq qilinganning bolasi; 2) yengil koyishni ifodalovchi so'kish shakli. Bu yerda shu ma'noda kelgan.

<sup>2</sup> **Luzum** (arabcha) – zarurat, ehtiyoj, muhtojlik.

## XI Fasl. MAXDUMNING TAHDIDI

Anvar o'rtag'a dasturxon yozib, ikki lagan manti chiqarib qo'ydi, uch kishi qamti o'lturib, manti tanovul qilishdilar. Taom asnosi Shahidbek sekin-sekin maqsadg'a yondashib keldi.

– Xalq og'zida duv-duv gap, – dedi manti chaynab, – go'yo siz marhum sarmunshiy o'rnig'a nasb qilinar<sup>1</sup> emishsiz, deb... Bu haqiqat gapmi yoki ovozami, yaxshi payqolmadik. Bu so'zning haqiqatini hozir o'zi sizdan eshitamiz-ku va lekin sizga xayrixoh bo'lg'an taqsim va mendek kishilarni bu shoyi'a<sup>2</sup> benihoyat xursand qildi, xrrr... Darhaqiqat, bu martabaga nihoyatda layoqatingiz bor ekanini o'rda arboblardan ham eshitamiz...

Shahidbek so'zni shu joyg'a keltirib maxdumga qaradi. Maxdum soqolidag'i xamir ushug'ini olib, mehmonni laganga targ'ib qildi.

– Kecha va o'tkan kunlarda, – dedi maxdum lagandan olg'an mantisini qo'lida ushlagan ko'yi, – bu shoyi'alarg'a men ham ishonmag'andek edi. Ammo bu kungi dovruq meni ham tajjubka qo'ydi. Voqi'an Anvar sarmunshiylikka mansub qilinsa, ne g'aroyiblig'i bor? Alhamdulillah, fazli kofiy, aqli solim<sup>3</sup>, iste'dod bo'lsa bor, inchinin...

Anvar qo'li laganda ekan, kulimsib qo'ydi. Shahidbek kech harorati va manti issiqlig'i ta'sirida yana o'bdan terlagan edi. Ro'yoli bilan manglay va bo'yin terlarini artar ekan, Anvarga qaradi:

– Xo'sh, mirzo Anvar?

– Shunday gaplar bor, – dedi Anvar, maxdumga ko'z qirini yuborib, – ammo bu gaplar mening xohishim va rag'batim xorijida<sup>4</sup> bo'lmoqda. Shuning uchun bu shoyi'alarg'a ahamiyat berishka arzimaydir.

Shahidbek maxdum bilan ko'z urushdirib oldi.

– Ya'ni so'z sarmunshiylikni xohlamaysiz?– deb so'radi.

– Albatta.

– Sabab?

<sup>1</sup> Nasb qilinmoq – tayinlanmoq, saylanmoq.

<sup>2</sup> Shoyi'a – tarqalgan xabar, yangilik.

<sup>3</sup> Solim – joyida.

<sup>4</sup> Xorij (*arabcha*) – chiquvchi; chetga chiqish; tashqi, tashqaridagi. 1) biror narsadan xoli, ozod, bo'sh;

2) xorijiy mamlakat; chet el. Rag'bat xorij – xohishimdan tashqari.

– Sababi shulki, – dedi Anvar, – men buningdek mas’ul, ayniqsa, tantanalik vazifalarga havaskor emasman.

– Albatta, shunday-ku, – dedi Shahidbek, – ammo kishi, alalxusus sizga o’xshash yigitlar hamisha bir o’runda o’lturib qolmaydirlar. Tajriba, iste’dodlari o’skan sayin, yuqoriroq martabalariga mina boradirlar. Shuningdek, sizni ham yuqori martabaga ko’tarmakchiga o’xshaydirlarkim, xrrr... buni sizning havaskorlig’ingiz emas, fazlingiz taqozo qilib, bunda siz asosan har qancha qarshi bo’lsangiz ham, xrrr... layoqatingiz yana sizni bu xizmatni qabul qilishka majbur etadir.

– Kishilar mubolag’a qilg’andek menda iste’dod yo’q, – dedi Anvar, yerga qarag’an holda. – Undan keyin o’rdag’a kechagina borg’an menga o’xshash yoshlarning: «Bosh mirzo bo’laman», – deb umidlanishlari ayni bir kulgidir. Ya’ni, demakchimanki, bu vazifa tama’ida o’n, yigirma va, balki, o’ttuz yillab ko’zini to’rt qilib kelgan munshiylar, mufti va shoirlar bor. Ularning yonida menga o’xshash bir yosh tajribasizning ham tama’lanishi kulgi emasmi? Ayniqsa, o’rdadag’i urfi-odatlarini va tajribalarni o’z ko’zidan va boshidan kechirib turg’an kishilar tomonidan bu shoyi’ani durust deb ishonilishiga tajjub qilaman... Shahidbek qo’lini artar ekan kuldi:

– Shu ishonchsizlig’ingizning o’zi ham bir bolaliq.

– Bolaliq, bolaliq, – deb qo’ydi maxdum.

Manti tanovul qilinib bitdi. Maxdum laganlar tegini ichibyaladi. Fotihadan so’ng lagan va dasturxonlarni ichkariga eltmakchi bo’lg’an Anvarni Shahidbek to’xtatdi:

– Laganlarni qo’yib turing-chi, mirzo, ilgari haligi masalani yeshaylik.

Anvar qo’lidag’i dasturxon va laganni sufa labiga qo’yib o’lturdi maxdum gulduros bilan kekirib, ustidan «alhamdulillah» ham deb oldi.

– Xo’sh, mirzo Anvar?

– Gap boyag’icha, bek aka, – dedi Anvar, – bu masala ahamiyat berishka arzimaydir.

Shahidbek maxdumga qaradi.

Maxdum Anvarni jerkti:

– Arziydirmi, yo’qmi, axir, so’zga quloq ber-da, Anvar bolam.

– Xo’b, marhamat qilsinlar.





– Eshitishimizga qarag‘anda, – dedi qo‘lini o‘ynatib Shahidbek, – janobg‘a manzur qiling‘anlar orasida sizning nomzadingiz bor ekan.

Anvar kulimsidi:

– Bor deb eshitdim.

– O‘rdadag‘i ishonchlik kishilarning so‘zlariga qarag‘anda, yorlig‘ sizning otingizg‘a bo‘lar emish.

– «Bo‘ldi» bilan «bo‘lar emish» orasida katta farq bor.

– Xo‘b, – dedi o‘zini yelpib Shahidbek, – biz bu ikkisini bir yoqqa qo‘yayliq-da, ikki oradan «basharti bo‘lsa» fe‘lini olayliq, xe-xe-xe... Basharti yorlig‘ sizning ismingizga bo‘lib qolsa, siz shunda nima qilasiz?

Anvar kulib maxdumga ko‘z qirini tashladi.

– Siz bu «basharti bo‘lsa»g‘a ham ishonmang, bek aka.

Maxdum xo‘mrayib Anvarga qarab qo‘ydi.

Shahidbek yana so‘radi:

– Axir, shu ehtimolga qarshi javob bering-da, xrrr.

– Men iste‘fo va uzr arizasi berar edim...

– Hamoqat!<sup>1</sup> – dedi maxdum va teskari qarab oldi.

Shahidbek taassuf qilg‘an kabi boshini chayqadi:

– Bu so‘zingiz bilan boyag‘i gapingizga qarshi bordingiz.

Boya «mendan boshqa bo‘ladirg‘anlar ham bor, men bu ishka umidlanmasam ham bo‘ladir», degandek qilg‘an edingiz, hozir ersa boshqa narsani aytasiz, xrrr.

– Kufroni ne‘mat<sup>2</sup>, non tepkulik, – dedi maxdum. Anvar yana kulimsidi, ammo jiddiy tus olg‘an edi:

– Xayr, kishilar o‘ylag‘andek, menim mirzoboshiliqqa iste‘dod va layoqatim ham bo‘lsin, agar yorlig‘ bersalar, bu vazifani qabul ham qilayin, – dedi, – ammo anovi – yigirma-o‘ttuz yildan beri shu mansabning qayg‘usida kelgan kishilar tinch yotadir, deb o‘ylaysizmi, har zamon oyog‘imdan chalmaydirlar, deb ishonasizmi? Mana shu andishada tuban va ahamiyatsiz bo‘lsa ham, hozirg‘i xizmatimni a‘lo ko‘raman va shu mulohaza bilan taqsim aytkanlaridek, kufroni ne‘mat qilmoqchi bo‘laman.

Shahidbek maxdumga qaradi, maxdum Anvarga qarshi chiqdi:

<sup>1</sup> **Hamoqat** (*arabcha*) – ahmoqlik, tentaklik; jahl, g‘azab.

<sup>2</sup> **Kufroni ne‘mat** – ne‘mat qadrini bilmashlik; ko‘mamaklik.

– Sen o‘z ishingni bilib qilsang, vazifangda sustlik ko‘rsatmasang, – dedi, – senga butun olam dushman bo‘lg‘anda ham bir mo‘yingni<sup>1</sup> xam qilolmas. Chunki haq hamisha g‘olibdir, haqsizlik ersa mag‘lub. Tuhmat va bo‘hton xavfida ma‘rakadan<sup>2</sup> yuz o‘gurish – yigitlarning ishi bo‘lmas. Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: «Chumchuqdan qo‘rqib, tariq ekmagan» deb qo‘rqoq kishilarni masxara qiladirlar. Shunga o‘xshash sen ham chumchuqdan qo‘rqib, tariq ekmaguchilar xilidan bo‘lsang... men yanglishib yurg‘an ekanman-da, bolam!

– Haqiqat... – deb kuldi Anvar va bir oz o‘ylanib to‘xtaldi. – Haqning haqsizliqqa g‘olib kelganini og‘izda eshitsam ham, shu choqqacha amalda ko‘ralmadim, – dedi, – masalan, mendan ham o‘zingizga ravshanroqdikim, mirzolaridan Sayidxon, mulla Siddiq va Mo‘minjonlarning boshig‘a qanday falokatlarni solmadilar, holbuki haqiqatda ular xon o‘ylag‘ancha xiyonatchi kishilar emas, faqat bu uchavining yomonliklari bir necha adovatliq mirzolarining to‘quma tuhmat va bo‘htonlari edi<sup>3</sup>. Ayniqsa o‘zim bir necha yildan beri o‘rdada ishlab, shuningdek o‘zora fisqu fasodlarni har kun uchratmaktaman va shuning uchun bulg‘anch bir muhitda munday tashlandiq vazifani o‘z ustimga olishdan hazar qilaman.

– Sening misoling, – dedi maxdum, – nodirai voqi‘adir<sup>4</sup>... Agar shunday hodisalarni o‘ylab tursang, o‘rdada emas, hatto

<sup>1</sup> Mo‘y (*forscha*) – soch tolasi, tuk; yung. Inson va hayvon terisida o‘sib chiqqan, shox moddasidan iborat bo‘lgan tuk, qil.

<sup>2</sup> Ma‘raka (*arabcha*) – jang, urush; yig‘in. 1) motam marosimlarining yig‘indisi va ularning har biri; 2) to‘y, tomosha va shu kabilar munosabati bilan bo‘ladigan yig‘in, marosim; 3) jang mayloni; jang (*ko‘chma ma‘noda*). Bu yerda shu ma‘noda kelgan.

<sup>3</sup> Bir vaqt Xudoyor, «odil podshoh» bo‘lmoq niyatida mazkur uch mirzoni maxfiy ravishda viloyatlarga jo‘natib, ularga: «Zolim beklarim, poraxo‘r qozi va boshqa amaldorlarim bo‘lsa, menga bilib beringiz, men ularning jazolarini beraman», deb buyuradi. Sayidxon, mulla Siddiq va Mo‘minjon – bu uchavi viloyat, tumanlarda necha vaqt maxfiy kezib, bek, qozi, umuman, mansabdorlarni tekshirib chiqadirlar. Ularning to‘g‘ri baho berishlari natijasida ma‘murlardan qariyb to‘qson foizi zolim va poraxo‘r ko‘rsatiladirlar. Xon bu holg‘a hayron bo‘lib, o‘rdadan bir necha kishilarga sirni ochadir. Bu kishilar boyag‘i uch mirzoning raqiblaridan bo‘lib, xong‘a ig‘vo qiladirlarkim: «Mirzolar o‘zlariga pora berguchilarni yaxshi ko‘rsatib, bermaguchilarni yomon ko‘rsatadirlar. Yo‘qsa, sizning ovoni adolatingizda shunchalik yomonlar bo‘ladimi? Bu ko‘mamaklar nafs so‘ziga kirib, janobingizning aksar sodiq qullaringizni sizdan yuz o‘gurishlariga va saltanatingizga rahna solishg‘a sababchi bo‘lmasinlar», deb. «Odil podshoh» bu ig‘vog‘a laqqa uchib mazkur uch mirzoning quloq-burunlarini kesib, o‘zlarini o‘rdadan haydashka va ular ko‘rsatgan o‘n foiz yaxshi kishilarni ham ishdan olishg‘a buyuradir. Anvar esa yuqorida shu voqi‘ag‘a ishorat qilmoqdadir (muall.).

<sup>4</sup> Nodir(a) (*arabcha*) – siyrak; kam uchraydigan, kamyob. 1) kam topiladigan, noyob; 2) qimmatbaho, bebaho, asl; 3) kam uchraydigan (*ko‘chma ma‘noda*). Bu yerda shu ma‘noda kelgan. Nodirai voqea – juda kam uchraydigan voqea.

ko'chada ham yurishing maholdir. Baxting bunchalik kulgan ekan, jabonat<sup>1</sup> bilan davlat qushini qo'ldan uchurish kufroni ne'mat, bolam!

– Ha, taqdir, – dedi Shahidbek, – ayni hikmat so'zlaysiz... Ukam mirzo Anvar, baxt degan narsa yigitka butun umrda faqat bir martaba qaraydir, xrrr, agar shunda mahkam tutib qolsangiz, xo'b, bo'lmasa hamisha o'tning keyingi oyog'isiz-da.

– Tilak va tashviqotlaringiz xolisona bo'lg'ani uchun ta-shakkur aytaman, – dedi Anvar, – yana shu holda meni ma'zur ko'rasiz...

Maxdum yana qishishdi, o'ng ko'zini qisib, bir yoqlama Anvarga qaradi. Chunki ul juda achchig'i chiqqan kezlarda kishiga shu xilda qarar edi.

– Men kim, Anvar?

– Siz... Siz ustozim...

– Bas, ustozingning, – dedi maxdum, – shu kungacha qaysi ta'limidan zarar va qaysi kengashidan zoyog'lig'<sup>2</sup> tortding?

– Nafdan boshqa hech. Lekin o'z umrimda bir gustoxlik<sup>3</sup> qilmoqchiman.

Maxdum yana achchig'lanib, bir-ikki tamshandi:

– Boshqa narsaga gustohlik qilsang qil, illo hozirg'i inoding ayni hamoqat! – dedi qo'lini paxsalab<sup>4</sup>, – agar men senga ustoz va ota bo'lsam, bu ishka quloq qoqma, illo o'zing bil, tuzukmi?!

Anvar indamadi, chunki maxdum keyingi jumla bilan ma'lum bir tahdidgacha borib yetkan edi.

– Qizishmang, qizishmang, – dedi Shahidbek, – mirzo Anvar siz o'ylag'an yigitlardan emas. Albatta, mirzo Anvar aytkandek, xrrr... o'rdada o'shanday gaplar ham yo'q emas va lekin men azmoyishchi<sup>5</sup> bo'lsam, xrrr, shuni aytib qo'yayki, o'rdadag'i kattadan-kichik mirzo Anvarga hurmat bilan qaraydir. Chumolini og'ritmag'an kishiga kim ham adovat qilsin-xrrr...

– Habba! – dedi maxdum, – endi nima qoldi; orada

<sup>1</sup> *Jabonat(arabcha)* – yuraksizlik, qo'rqqoqlik.

<sup>2</sup> *Zoyog'lig' tortmoq* – zarar ko'rmoq.

<sup>3</sup> *Gustox (forscha: beadab; dadil, qo'rqmas)* – odobsiz, beadab, beandisha; surbet, betakalluf. *Gustoxlik* – odobsizlik, beadablik, andishasizlik; surbetlik;

<sup>4</sup> *Paxsa (forscha)* – pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qavati, qatori. *Paxsalamoq* – paxsa urmoq, devor urmoq. **Bu yerda qo'lning harakati paxsa urishga o'xshatilyapti.**

<sup>5</sup> *Azmoyish (forscha)* – sinov, tekshirish; tajriba; o'ylash, fikr. Sinash, bilish maqsadidagi xatti-harakat. **Bu yerda mening bilishimcha, eshitishimcha ma'nolarida kelgan.**

go‘daklik xavfidan boshqa hech gap yo‘q... Oyig‘a qirq tillo vazifa, anvoi hadyai shohona<sup>1</sup>, yana – eldan ko‘riladigan obro‘, hurmat, hay, hay, hay...

Maxdumning keyingi jumlasini Anvarni kulimsitdi. Kuchlanib jiddiyatini saqlag‘an holda:

– Hozircha meni bosh munshiy qilib yorlig‘ berganlari yo‘q, – dedi, – shuning uchun bu to‘g‘rida so‘zlashish, manga qolsa, hali ertaroq ko‘rinadir.

– Men ham buni bilib turibman, bolam Anvar – dedi maxdum. – Basharti bu martabani Xudoyi ta‘olo senga nasib qilsa, haligidek bolaliq aqling bilan nobud qilib qo‘ymag‘il, deb so‘zlayman. Eshitishima qarag‘an-da, janobg‘a bir ariza yozib, uzr bayon qilmoqchi emishsan?

– Kim aytdi?

– Kim aytkanini qo‘yaber, ammo boyag‘i harakatlaring bu kori baddan<sup>2</sup> ham qaytmaslig‘ing‘a bizni ishontiradir. Darhaqiqat, ushbu xabar to‘g‘rimi?

– Sizga arz qilg‘an kishi, balki, bilib so‘zlagandir... Basharti siz bu fikrimni ma‘qul topmasangiz... albatta, majburman.

– Habba, – dedi maxdum tamom ochilg‘an qiyofatda, – go‘daklik lozim emas, jabonat ko‘b mazmum<sup>3</sup> sufat, «Osilsang ham, baland dorg‘a osil» maqoli ko‘b purhikmat so‘z.

Maxdum shu gapni aytish orasi qone<sup>4</sup> va mag‘rur Shahidbekka qarab oldi. Chunki ul bu mag‘ruriyatka ikki jihatdan haqli edi: «Basharti siz ma‘qul ko‘rmasangiz...» – deb Anvar o‘z rizolig‘ini maxdumning yolg‘iz shaxsi bilan bildirdi, ham shu jumla bilan ustozidan boshqalarning o‘z ra‘yiga qarshi bora olmasliqlarini onglatdi.

Yaxshig‘ina tushurilgan manti va odatdan tashqari entikib, halloslab ko‘b so‘zlash natijasida Shahidbek charchab, yostiqqa suyanib qolg‘an edi. Shuning uchun ul ikki oradag‘i onglashishni yonboshlag‘an ko‘yi tabrik etdi:

– Balli, mirzo, balli, gap shunday bo‘lsin, xrrr...

Bir-ikki piyola choy ichishkandan so‘ng, maxdum bilan Shahidbek fотиha o‘qub, shom namozig‘a qo‘zg‘alishdilar. Anvar

<sup>1</sup> Anvoi hadyai shohona – har xil shohona hadyalar.

<sup>2</sup> Kori bad – yomon ish, bo‘lmag‘ur niyat.

<sup>3</sup> Jabonat ko‘b mazmum sufat – qo‘rqoqlik juda yomon illat.

<sup>4</sup> Qone’ – qoniqish, rozilik.

Shahidbekni o'rtta eshikkacha kuzatib bordi. Shahidbek Anvar bilan xayrlashar ekan:

– Inshoolloh, yorlig' olarsiz, deb o'ylayman... Bir necha zakotchilar<sup>1</sup> to'g'risida siz bilan kengashadigan gaplar ham bor. O'z farzandimizdek yigitsiz, sizning mirzoboshi ta'yinlanishingiz bizga ayni muddao, – dedi.

– Yovda bo'lsa, tezagi tegar emish. Anvar o'z bolangiz-da.

Anvar ularning so'ziga qarshi majhul<sup>2</sup> bir vaziyat saqlag'an holda bosh qimirlatib sufaga qaytdi.

## XII Fasl. BAXMALBOFDA FAQIR BIR OILA

Anvar 1267<sup>3</sup>-nchi hijriya miyonalarida Qo'qonning Baxmalbof mahallasida<sup>4</sup> faqir bir oilada dunyog'a keldi. Onalar tuqqan bolalarini sizga: «Tilab-tilab olg'an falonim» –deb; otalar: «Xudoy bergan o'g'ulcha», – deb taqdim etadirlar. Ammo bizning Anvar bo'lsa onasining «tilab-tilab olg'ani» emas va otasi ham uni «o'g'ulchag'a» hisoblamag'an edi. Otasining kasbi bo'yoqchilik, hamisha yarim belidan nil<sup>5</sup> suviga cho'milib yotqan bir kambag'al va bir qarich, ikki qarich bolalardan beshtasiga dada edi. Shu besh bolaning yonig'a izzatsiz, hurmatsiz oltinchi «mehmon» bo'lib, bizning Anvar qo'shildi. Ya'ni Anvar tilab oling'an bola emas, dadasi bilan onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliqlarig'a xizmat qilg'uchi bo'lib tug'ildi. Bola tilab olinsa, so'yinch-quvonch, novorachisurnaychi va shunga o'xshash cho'zma-chalpak, is-charog' marosimlari nuqsonsiz ijro etiladir. Ammo Anvarning dunyog'a kelishi munday marosim, tantanalar va orzu-havaslar bilan busbutun aloqasiz edi. Masalan, onasi o'z yonig'a doya chaqirib takalluflanmadi, to'ng'uch qizi Nodiraning ko'magida tug'di; bolalarini qo'ni-qo'shnig'a so'yinchi uchun chiqarmadi. Chunki qo'shnilarning: «Qaysi holing'a tug'ding?» yoki «O'zi o'lgur it mijozmi?» – deb ta'na qilishlaridan cho'chidi.

<sup>1</sup> Zakot (*arabcha*) – O'rtta Osiyo xonliklarida: chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq. Zakotchi – zakot yig'uvchi.

<sup>2</sup> Majhul (*arabcha*) – noma'lum, noaniq.

<sup>3</sup> Milodiy yil bilan hisoblanganda 1850-1851-yillarga to'g'ri keladi.

<sup>4</sup> Baxmalbof mahalla — duxoba to'quydurg'anlar mahallasi (muall.).

<sup>5</sup> Nil (*forscha* yoki *hindcha*: ko'k bo'yoq modda, indigo) – ba'zi o'simliklardan kimyoviy yo'l bilan ajratib olinadigan ko'k bo'yoq.

Shu holda yetti-sakkiz kunlab Anvarning dunyog‘a «tashri-fi» sir bo‘lib kechti. Anvar ohorliq yangi yo‘rgak ko‘rmaganidek, og‘alaridan birining eski beshigiga to‘qquzinchi kun belandi emas, tiqildi.

Anvarning «chillasi charog‘ ko‘rmagan» bo‘lsa hech boki<sup>1</sup> yo‘qdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir, chunki yangi «qadrlik mehmon»ga ot qo‘yish na otasining esiga va na onasining xotirig‘a kelgan edi. Oradan yigirma kun o‘tsaku, bolag‘a ism qo‘ymasalar, deb ota-onani ayblash og‘ir. Balki, Salim bo‘yoqchining tiriklikdan qo‘li bo‘shamag‘andir. Anorbining bo‘lsa olti bolaning xarxashasidan qulog‘i tinchimay miyasi suyulganidir, har holda bu «qadrlik» bolaning oti muhtaram mahalla imomi tarafidan qo‘yilmag‘anidek, ota-ona tomonlaridan ham nasib bo‘lmadi. Ism qo‘yish vazifasini yigirma ikkinchi kunlarda o‘n ikki yoshliq Nodira ado qildi.

Nodira o‘z yaqinlaridag‘i maxdumlardan birining bolasini yaxshi kiyimi, ayniqsa, yoqimliq eshitilgan «Anvar» ismiga suqlanib, havaslanib yurar edi. O‘ylab-netib turmadi-da, yangi chaqaloq ukasining otini ham «Anvar» deb atadi va beshikda chalqancha yotib, nursiz qora ko‘zlari bilan dadasining faqir hayotig‘a «ramz qo‘yg‘an» bu chaqaloqning tevaragidan aylanib: «Anvarjon, Anvarjon!» – deb xitob qila boshladi. Shuni ham aytib qo‘yish kerakki, Anvarning dunyog‘a kelishini birdan-bir tabrik etib so‘yingan shu Nodira edi. So‘ngroq yana unga onaliq martabasida bo‘lib kelguchi yana shu Nodiradir.

Shu yo‘sun Salim bo‘yoqchining mavridsiz laylaklari ichida bemahal g‘urrak<sup>2</sup> bo‘lib Anvar ham yashay boshladi. Bolalari ko‘paygan sayin Salim akaning ishi ham keyinga ketkanidek, kundan kun ehtiyojdan ehtiyojg‘a o‘tib borar edi. Anvar uch yoshqa kirganda, besh yillardan beri Salim akaga yopishib olg‘an bobosir<sup>3</sup> kasali uning yoqasidan olib yiqitishg‘a muvaffaq bo‘ldi. Ya‘ni Salim aka qonsirab, darmonsizlanib yotib qoldi. Muolajaga pul kerak, mundan ham ilgari oilaning umumiy kasali bo‘lg‘an oziqqa ham shu narsa kerak. Salim bo‘yoqchi sarmoyasidagi nil, tuz va shunga o‘xshash dastmoyalarni sotib muolaja

<sup>1</sup> Hech boki – hechqisi, zarari.

<sup>2</sup> G‘urrak (arabcha: qashqaldoq) – kaptarsimonlar oilasiga mansub, musichaga o‘xshash qush; oddiy g‘urrak yoki qumri.

<sup>3</sup> Bobosir – kamqonlik kasalligi.

qildirg'an bo'ldi. Dard ancha ulg'ayg'an edi. Bu chiqimlar foyda o'rnig'a zarar keltirdilar. Do'kon dastgohini sotib ro'zg'or qildi. Bular ham bitkandan keyin bu oilaning og'ir kunlari boshlandi. Ochliq, yalang'ochliq, ayniqsa kasal boqish.

Shu qish ayniqsa qattig' kelgan edi. Sovuqdan saqlanish uchun ularning hozirliklari yo'q. O'pkasiga sovuq tegdirib Salim akaning to'rtinchi bolasi o'ldi. Ko'klamga chiqar-chiqmas Salim bo'yoqchining o'zi ham dunyo bilan vido'lashdi. Buning ustiga Anvar, yana ikki og'asig'a qizamiq toshib bir bola munda ham o'lib berdi. Shu yo'sun olti oy ichida Anorbibi eridan va ikki bolasidan ayrilib, to'rt go'dak orasida tirik beva bo'lib qoldi. Nodiraning bo'yi cho'zilib qolg'an, har nachuk bir joyini topib ketar, ammo uchta yosh bolaning ishi qiyin edi. Eridan bolalarning tarbiyasiga yararliq hech gap qolmag'an, bir-ikkita xum, uch-to'rtta mo'ndi<sup>1</sup> va shunga o'xshash rezrov, boshqa bir balo ham yo'q. Anorbibi mehnat bilan yaxshab, yetti-sakkizni tug'ib, yoshi ham qirqlarg'a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo'lib qolg'an, shuning uchun birartaga tegib olishi to'g'risida o'ylash ham behuda.

Anorbibiga o'xshash tul xotinlarning qiladigan ishlari har kimga ham ma'lum: mahallada dasturxonchilik, boylar eshigicha oqsochliq, hunarmandroq bo'lsa – kinnachilik va hokazo. Anorbibi shu hunarlarning hammasiga ham qobiliyat e'lon qilib, bolalarini boqish fikriga tushdi. Va bu orada qizi Nodirani bir bo'zchi bolasig'a uzatib, yukini ham bir oz yengillatdi.

### XIII Fasl. TANIYSANMI SHU JAJJI QIZNI?

Falakmi kajraftor<sup>2</sup>, turmushmi bemaza, har holda Anvarlarning tole'i yana pastlik qildi. Bir kun Anorbibi biravnikida yumush qila turib to'sindan og'rib qoldi, bir soatning ichida tilidan ham ayrildi. Zambilga solib o'z uyiga keltirib tashladilar.

Bolalarning fig'oni falakka chiqdi. Kuyavi tabibga yugurdi. Natijada yurak falajiga yo'liqqani ma'lum bo'lib, shu kun kechasi hatto uch go'dagi to'g'risida bir og'iz vasiyat qilolmay vafot etdi. Mozorg'a eltdilar. Tobut oldida ikki og'asi bilan olti yoshliq

<sup>1</sup> Mo'ndi (*forscha*: og'zi siniq ko'za) – sopol ko'za turi: og'zi tor, qorni keng shaklda, dastasiz bo'ladi (suyuqlik solib qo'yishda foydalaniladi).

<sup>2</sup> Kajraftor (*forscha*) – teskari yuruvchi; makkor. Charxi kajraftor – teskari, noto'g'ri ish qiladigan dunyo. (zamona yoki taqdiridan shikoyat qilib aytiladigan ibora).

Anvar ham yig'lab bordi.

O'n bir yoshliq Temur, to'qqiz yoshliq Qobil va Anvarlarni tarbiya qilish og'irlig'i Nodiraning ustiga tushdi. Marhuma onasining yodgorlari bo'lg'an bu uch bolani begonalar qo'lida xor qilib qo'yishni Nodira istamasa ham, erining faqirlig'i bunga mone' edi. Ta'ziya kunlari o'tkandan keyin o'g'ulliqqa deb so'rag'anlarga ikki bolani berib yubordi va Anvarni o'zi bilan olib, onasining qaqir-ququrlarini bir aravaga ortib erining uyiga keldi.

Nodira onasi o'rniga Anvarning boshini siladi, yuvib-taradi va Anvarning istiqboli uchun qayg'irdi. Otasi va o'z erining kasblariga yaxshi baho bermagani uchun Anvarni boshqa kishi qilmoq fikriga tushti. Uni o'qutmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi va shu yo'sun mullaliq darajasiga yetkuzib, otasining uyiga charog'chi<sup>1</sup> qilmoqchi edi. Anvarni o'zlari turg'an mahal-ladan bir guzar nari bo'lg'an Solih maxdumning maktabiga berdi. Anvar «taxta»dan o'qush boshladi, zehning tinqilg'idan bo'lsa kerak, o'n bir yoshida savodi chiqayozdi. Biroq o'qishda qancha baxtli bo'lsa, peshanada o'shancha baxtsiz edi. Shundog'ki, Nodira ikki bolaliq bo'lg'an edi. Eri: «Ukangga yedirib-kiydiraymi yoki o'z bolalaringnimi? Ukangni kishiga shogird berib yubor», – deb Nodirani qistashg'a turdi. Bechora Nodira og'ir holda Anvarni kishiga shogird berib, o'qushini zoe' qilish-g'a ko'zi qiymaydir, eriga muqobala uchun hech bir mantiq topolmaydir. Chunki erining holi o'ziga ma'lum. Shu yo'sun yana bir yil o'tib, Anvar to'g'risida eri bilan achchig'-tiziqlik bo'lg'an bir kun paranjisini yopinib ko'chaga chiqdi va to'g'ri Solih maxdumning uyiga bordi. Shu vaqtlarda Solih maxdumning onasi Marg'ilong'a ketmagan edi.

Nodira Mohlar oyimg'a yig'lab hasrat qildi. Hamma sargu-zashtlarini birma-bir so'zladi. Shu bola uchun eridan chekkan nizolarini chizib:

– Ulug' dargohlaringizga shu yatim bolaning umri zoe' bo'l-masmikin, o'qushi juvanmarg qilinmasmikin, deb keldim. Bir parcha nonlaringizni ayamay, yatim boshini silasalarigiz, deb keldim, – dedi.

«Qush tilini qush biladir» deganlaridek, Nodiraning samiy arzi bandachiligi Mohlar oyim bilan Nigor kelinning yukla-

<sup>1</sup> Charog'chi (chiroqchi) – uy-xonadon chirog'ini yoqib, uning an'analarini davom ettiruvchi, otana xotirasini saqlovchi avlod.



rini ezdi va shu onda Mohlar oyim maktabxonadagi bolalar ichidan Anvarni chaqirtirib oldi. Anvar kelishkan, do'ndiq bola edi.

– Domlasi maqtaydirg'an o'zimning zehnlilik bolam-ku, – dedi Mohlar oyim Anvarni ko'rish bilan va Nodiraga taskin berdi.

– Xo'b qizim, xo'b, pochchasi boqmasa boqmasin, men o'zim boqaman, o'qutib katta mulla qilaman.

Anvar pochchasining keyingi kunlardagi dag'al muomalalari sababini o'ylab, xafalanib yurar edi. Mohlar oyimning haligi so'zi bilan masalaga tushundi va yatimona boshini quyi soldi. Bu holdan opasi ta'sirlanib, ko'ziga yosh oldi.

– Yig'lamang, juvon, – dedi Mohlar oyim, – yo'qlik qursin – yo'qlik. Pochchasi kambag'al bo'lsa, unda ham gunoh yo'q, hamma gap taqdiri azaldan. Yaxshi, bu kundanoq bola siznikiga bormaydir, o'z yonimda o'g'lim bo'lib yotadir. Oting nima, katta yigit?

– Anvar...

– Oh, oting ham o'zingga o'xshash chiroylik ekan... Manovi do'ndiq qizni taniysanmi?

Shu o'rtada o'ynab yurg'an olti yoshlar chamaliq Ra'no yugurib kelib, Mohlar oyimning bag'rig'a kirdi. Anvar o'zidan ham do'ndiqroq Ra'noga qarab kuldi:

– Ra'noxon, – dedi.

Mohlar oyim Ra'noni bag'ridan chiqarib buyurdi:

– Bor, Anvar akangga salom qil!

Ra'no kelinlarcha Anvarga salom qildi va jazm qilg'andek Anvarning yaqiniga borib to'xtadi.

– Ko'rish, Anvar! – dedi oyim.

Anvar Ra'noni bag'rig'a olib quchoqladi. Shu holda Mohlar oyim kulimsidi.

– Agar o'lmasam, shu do'ndiq qizimni berib, Anvarni o'zimga kuyav qilaman.

Anvar uyalib bag'ridag'ini bo'shatib yubordi. Xotinlar kulishdilar. Shu yo'sun Nodira Mohlar oyimdan juda xursand bo'lg'ani holda uyiga qaytib ketdi.

O'z uyida bir nonxo'r ortishi maxdumga, albatta, yoqmas edi. Biroq, onasining ra'yini qaytarishdan ham o'jiz edi. Shundog' ham bo'lsa: «Tomog'i-ku, yengil, kiyimi og'irroq. Kiyimini opasining ustiga qo'ymabsiz-da» – dedi. Mohlar oyim: «Kiyimi

bir gap bo'lar. Kishilar masjid, madrasa solg'anda, bir bir yatim boqsaq, arzimaydimi? Senga og'irliq qilsa, o'z bisotimdan kiyin-tirarman, bolam», – dedi.

Anvar o'n ikki yoshida uchunchi oilani ko'rdi. Lekin bu oxirg'isi Anvar uchun har jihatdan ham qulay bo'ldi: o'qushini davom etdirar, qorni panjshanbalik nonlar bilan to'q, ust-boshi yamoq bo'lsa ham yalang'och emas edi. Bu uchunchi oilaga ko'chishda Anvarni eng xursand qilg'an narsa maktabdagi bolalarning ozor berishlaridan qutilishi va domlarning asrandi o'g'li maqomini olishi bo'ldi. Bolalar uni ehtirom qilmasalar ham, unga burung'icha yomon muomala qilishdan hayiqib qoldilar. Anvarga bu uyda ortiqcha yumush ham yo'q, chunki har qancha uy xizmatlari maktab bolalaridan ortmas, o'qushdan bo'shag'an vaqtini Ra'noni o'ynatib kechirar edi.

O'n uch yoshida maktab pro'g'rammasini bitirib, yosh bo'lsa ham, xalfalik<sup>1</sup>, ya'ni domlag'a ko'makchilik qila boshladi. Va har kun bolalar ozod bo'lg'andan keyin maxdum unga kofiyadan<sup>2</sup> dars berar va «Gulistoni» Sa'diydan bir necha band o'qub, ma'nosi bilan yodlatar edi.

O'n besh yoshida maktabni yolg'iz o'zi idora qilish darajasiga yetkanidek, yaxshig'ina forsiyxon va bir daraja arab tiliga oshno bo'ldi. Maxdum mundan bir necha vaqt ilgari Anvarni madrasaga uzatish to'g'risida so'zlanib yursa ham, hozir bu gapni og'zig'a olmay qo'ydi. Chunki maktab ishida yalqovlanib Anvarga suyanib qoldi va madrasa masalasini unutdirish maqsadida, arab, fors nahv-sarfidan o'zi dars berishka kirishdi.

Maxdum Anvarga shu jihat bilan inoq edi. Ammo Mohlar oyimning Anvar bilan muomalasi xolis va samimiy bo'lib, ul Anvarga o'z bolasidek mehribon va har vaqt: «Ko'nglingni buzma, Anvar yigit, ko'rasanmi shu jajji qizni? Albatta senga berdiraman!» – der edi. Lekin Mohlar oyim va'dasiga yetalmadi. Maxdumdan arazlab Marg'ilon ketishka majbur bo'ldi. Biroq, ketar chog'ida ham Anvarni unutmadi. Nigor kelinni o'z yonig'a chaqirib: «Kuyavlik uchun Anvardan yaxshiroq yigitni topolmassiz, Ra'nog'a xudoyim umr berib, bo'yi yetsa, albatta Anvarga berdirgin», – dedi.

<sup>1</sup> Xalfa (*arabcha*: bir-birining ortidan borish, ergashish; o'rin almashish) – eski maktabda o'quvchilarga boshliq qilib tayinlangan, maktabdor domlaga ko'maklashadigan o'quvchi

<sup>2</sup> Kofiya – arab tili grammatikasi.

#### XIV Fasl. CHIN O'RTIQ

Anvar yoshlig'ida bo'shangg'ina bir bola edi. O'z tenggi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab-kulmas, hamisha uning ko'zida bir mung yotar edi. Bu holat balki oila baxtsizligidan, ota-ona bag'rida yayramag'anliqdan tug'ilg'andir, desak, uning ikki og'asi munday emas edilar. Bir onadan necha xil bola tug'iladir, deganlaridek, Anvarning yaratilishi og'alarig'a nusbatan boshqacha edi. Maxdumning uyida tura boshlag'ach, Anvarda bir oz o'zgarish ko'rildi. Shunda ham bolalar bilan aloqasini eskicha yurutib, faqat Ra'no yonidag'ina o'yin-kulki bolasig'a alishinar, Ra'noni yetaklab boqchag'a, ko'chadagi katta suv bo'ylarig'a chiqib hamrohini boqchadag'i gullarning ismi, uchi, yurg'an qushlarning nav'i<sup>1</sup>, katta oqar suvlar va ayniqsa Ra'no kabi yosh qizchalar uchun bu suvlarga yiqilish xavfi va, shuningdek, boshqa masalalar bilan uni tanishdirar, ko'chada o'lik ko'targanlarni ko'rsa, birarta bolaning otasi yoki onasi o'lganligini so'zlab, buning orqasidan: «Menim ham onam o'lganda o'shandoq qilib ko'targan edilar... Men ham shu boladek mozorg'a yig'lab borg'an edim», deb qo'yar edi. Ra'no ham Anvarning so'ziga diqqat bilan quloq solar va ko'pincha hisobsiz savollar ila uni ko'mib tashlar, lekin Anvar zerikmas, har bir so'roqqa javob berib, Ra'noni qanoatlandirishg'a tirishar edi.

Anvar yosh bo'lsa ham jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushkan baxtsizlikdan ham mutaassur bo'lg'uchi edi.

Bola chog'idanoq eng yaxshi ko'rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi. Maxdumning oilasiga kelib tura boshlag'andan so'ng boqchaning gulzor qismini o'z idorasi ostig'a oldi. Gullarni sug'orish, o'tlarni yulib, tozalash vazifalarini o'zi bajardi. Gullardan hech kimga uzdirmas, bir bolaning uzib olg'anini ko'rsa, o'z xafa bo'lg'anidek, bolani ham xafa qilar edi. Bolalarning daragi bilan har kimning uyida bo'lg'an yangi gullardan ko'chat va urug' olib, yildan yilga gulzorni boyitdi. Yoz kunlari kelsa, bolalarni kapalak va oltin qo'ng'uz tutib kelishka buyurar; qiynamay, ozor bermay kapalak tutib kelganlarga sabog'ini o'qutib qo'yish bilan mukofot berar, kapalak va oltin qo'ng'uzlarni gul-

<sup>1</sup> Nav'i – turi, zoti.

zorga uchurib yuborar, agar ular gullarga qo‘nib qolsalar, o‘zida yo‘q so‘yunar edi. Shuning uchun aksar yoz kunlari maxdumning boqchasi oq, nimrang, olan<sup>1</sup>, zangor, malla, lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko‘rinishka kirar, Anvarning o‘qushdan bo‘shag‘an kezlari gullar ichida va shu kapalaklar orasida kechar edi.

Anvar har kim uchun ham so‘yimlik va xushmuomalasi barchaga barobar edi. Ammo, ayniqsa xush ko‘rgan kishilaridan birinchisi Ra‘no va ikkinchisi maktabdagi shogirdlardan saboq-dosh sherigi Nasim ismlik bola edi. Nasim bilan Anvar juda yaqin do‘st, bir-birini onglag‘uchi sirdosh o‘rtoq edilar. Garchi Nasimning otasi Qo‘qonningg‘ina emas, butun xonliqning tanilg‘an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmaligi yer bilan ko‘kcha, lekin yosh do‘stlar buning farqig‘a yetmaslar, Nasim: «Xonning mirzaboshisining<sup>2</sup> o‘g‘liman», – deb havolanmag‘anidek, Anvar ham: «Salim bo‘yoqchining yatimi, Solih maxdumning asrandisiman», – deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatka kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarni yirtiq bo‘z kiyimlar ichida va Nasimni shohi adraslar bilan g‘arq holda ko‘rib, albatta «bu gadoybachcha bilan bekbachchaning o‘zaro nima munosabatlari bor?» – deb taajjublanar, lekin do‘stlar hali buning ayirmasini idrok qilmaslar edi.

Aksar juma kunlari maxdumdan izn olib, Anvar shu o‘rtoq‘ining uyiga borar, kechkacha Nasim bilan «suhbatlashib» qaytib kelar edi. Anvar shu munosabat bilan Nasimning otasi Muhammad Rajab poygachining iltifotiga noil ham bo‘ldi. Nasim o‘rtog‘i Anvarning yatimlig‘ini otasig‘a bildirib, majbur qilg‘an bo‘lsa kerak, bir necha hayit mavsumlarida Muhammad Rajabek Anvarga kiyimlar ham berdi. Bu iltifot ikki do‘stning aloqalarini bir-birlariga yana qattig‘roq bog‘ladi, ayniqsa, maxdumning dimog‘ini chog‘ qildi. Zero Anvarning Muhammad Rajab kabi bir kishining o‘g‘li bilan do‘stlashishi bir kamolat bo‘lg‘anidek, do‘stliqning hatto sarpolar kiyishkacha borib yetishi maxdumning nazarida yana ayni fazilat edi... Shu sarpo kiyish voqi‘asidan so‘ng maxdum Anvarga boshqacha qarab qoldi va ichidan: «Sen odam bo‘ladirg‘an ko‘rinasan», – deb qo‘ydi.

<sup>1</sup> Olan – qizil.

<sup>2</sup> Mirzaboshi O‘zbek xonliklarida (asosan Qo‘qon xonligida) mirzaxona (amir va xonlarning mirzalar yozuv-chizuv ishlari olib boradigan idorasi) boshlig‘i.

Baxtka qarshi, bu do'stliq aloqasi uzoq davom etalmadi. Bir kun oradag'i do'stliq rishtasini o'lim yag'mogari<sup>1</sup> kelib uzdi. Nasim o'n besh yoshlar chamasida chechak<sup>2</sup> kasali bilan og'ridi va o'sha kezlarda davosiz hisoblang'an bu kasaldan o'nglalmay vafot qildi. Muhammad Rajabbek va oilasi uchun bu musibat, albatta, og'ir edi. Biroq ulardan ham Anvar uchun og'ir bir hasrat bo'ldi. Hatto ko'z yoshini marhumning ota-onasidan ham ko'broq Anvar to'kdi desak, mubolag'a qilmag'an bo'lurmiz. Uch kun maktab va maxdumni unutilib, Muhammad Rajabbek havlida turib qoldi. Har oqshom Nasimning qabri ustida bir soatlab yig'lab o'tturdi. Bu yoshning samimiy chin do'stlig'i va o'rtog'i-g'a sadoqati har kimni taajjubka qo'ydi.

Anvarning birinchi martaba marhum do'stiga atab yozg'an marsiya<sup>3</sup> si motamlik ota-onani yana bo'zlatqan edikim, biz marsiyadan bir necha misra'ini quyida ko'rsatamiz:

*Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi pir-u juvon yig'lar,  
Emas pir-u juvon, balki hamma ahli jahon yig'lar.*

*Ajal yag'mogari bog'i zako<sup>4</sup> ichra uzib zanjir,  
Rahmsiz ezsa ma'sum lolalarni, chun xazon yig'lar.*

*Nasimim ketdi olamdin meni qayg'u aro tashlab,  
Ko'zimdin oqsa xun hech bir ajab yo'q, chunki qon yig'lar.*

*Jahonda erdi tanho men yatimga hamnishin<sup>5</sup>, dildor,  
G'ariblikning diyorida adashkan notavon yig'lar...*

Mulla Muhammad Rajabbek poygachi o'g'lining sodiq do'stiga shu kundan e'tiboran boshqacha qarab qoldi. Bir jihatdan ma'sumiyat, ikkinchidan ko'rinib turg'an iste'dod Muhammad Rajabbekni Anvarga iltifot etishka majbur qildi. Garchi Anvarning yuqoridag'i marsiyasi bolaliq xarxashasidan iborat edi ersa-da, yana uning istiqbolidan xabar olish uchun yaxshi mezonliq vazifasini ham o'tar edi.

Mulla Muhammad Rajabbek, avvalo, o'z iltifotini Anvar-

<sup>1</sup> Yag'mogar – jodugar.

<sup>2</sup> Chechak – badanga suvli pufakchalar toshirib, isitma chiqaradigan, ko'pincha bolalarda uchraydigan og'ir yuqumli kasallik.

<sup>3</sup> Marsiya (arabcha: motam she'ri) – 1) biror shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan motam she'ri; 2) Sharq she'riyatidagi adabiy janrlardan biri.

<sup>4</sup> Bog'i zako – aql-idrok bog'i.

<sup>5</sup> Hamnishin (forscha: birga o'tiruvchi) – o'zaro suhbat, o'tirish, ulfatchilik kabilar birga bo'luvchi shaxs.

ning marsiyasidan bir baytini Nasimning qabr toshig'a olish bilan boshladi. So'ngra Anvarning: «Dunyoda man yatim o'rtog'ingg'a tanho sirdon va dildor (ko'ngil ko'targuchi) eding. Bu kun men sendek do'stdan ayrilib, yana g'urbat diyorida notavon yig'layman!» – deb afsus va nadomat qilishig'a qarshi, ya'ni Anvarning yatimlik va g'aribligiga yo'l qoldirmasliq uchun mulla Muhammad Rajabbek o'g'lining sodiq do'stiga o'z otalig'ini ko'rsatmakchi bo'ldi. Anvar uch haftagacha xatmi qur'on<sup>1</sup> kechlari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirg'i xatmi qur'on kechi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so'radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O'qushingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlaning uyida turasizmi?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo'q.
- Ilmi hisob o'qug'aningiz bormi?
- Yo'q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar, deb o'ylayman.
- Agar men bir domla ta'yin qilsam, hisob o'qiysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o'qiyman.
- Xo'b, bo'lmasa, erta kechka domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin.

– Xo'b, taqsir.

Ertasi kuni maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so'zlashib, Anvarni o'rda xizmatiga olish fikrida bo'lg'anlig'ini, buning uchun arabcha, forsiychadan yana ham chuqurroq ma'lumot olishi lozimlig'ini va hisob o'rganishi kerakligini aytdi. Maxdum Muhammad Rajabbekning Anvarga munchalik marhamati uchun bir oz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchilik sababiga yaxshi tushunganligi jihatdan, avvalo, bekning yatimparvarligi, so'ngra Anvarning zako va iste'dodini maxtadi. Anvarni odam qilish yo'lida chekkan o'z mashaq-

<sup>1</sup> Xatmi qur'on – (xatm (arabcha) tugatish, tamom qilish, oxiriga yetkazish) – Qur'onni to'liq o'qib tushirish. Ramazon oyida, tarovih namozida Qur'onning avvalidan oxirigacha tilovat qilib chiqilishi ham xatmi Qurondir.

qatlarini ham shikoyat yo'sunida so'zlab chiqq'ach, bu kunlarda ehtimomi tom<sup>1</sup> birlan Anvarga fors va arabiydan dars berib turg'anini va alhol ham Anvar forsiycha tazkira va tahrirlar yoza olishini bayon qilib, necha xil uzrlar ichida o'zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya'ni Anvarning ilmi hisob o'rganishi uchun boshqa muallim kerak bo'lur, dedi. Muhammad Rajabek bu to'g'rig'a o'zi domla topmoqchi bo'lib maxdumga ruxsat berdi.

## XV Fasl. MAXDUMNING BAXTI

Shu kundan boshlab Anvarning hayotida yangi sahifa ochiladir. Ya'ni maxdum Anvarga ilgarigicha – istiqboli qorong'u bir yatim, deb qaramay, balki Anvar kabi o'z o'g'li bo'lmag'anig'a o'kuna boshlaydir. Darhaqiqat, uning o'kunishiga arziydirgan chigil masalalar ham tug'iladirkim, masalan: Anvar o'rda xizmatiga kirib qolsa, oyig'a besh tillo, o'n tillo naqdina daromad qilib tur-sa, bu mablag'lar...

Shunday istiqboldag'i bu «mablag'lar» masalasi maxdumning ichini ari bo'lib talaydir. «O'n yoshdan beri o'qutib, yedirib, kiydirib kelaman; albatta, daromad manim haqqim bo'lur», deb o'ylasa ham, bu hukmidan o'zi uncha rozi bo'linqiramaydir. Har holda masala chigil...

Mohlar oyimning Ra'noni Anvarga berish to'g'risidag'i «ahamiyatsiz» so'zlari o'sha vaqtlarda maxdumning ensasini qotirg'an bo'lsa, hozir shu haqda chinlab o'yladig'ina emas, balki «haligidek Anvarning baxti ochilib ketsa, nima malomati bor. Yatimlik ayb emas, inson uchun fazl-u kamol lozim, kulib turg'an baxt hojat, nasl-u nasabning hech ahamiyati yo'q. Ra'noning husniga har kim ham tahsin qilur: Anvar, albatta, yo'q demas... Bu borada mol va jonni bir qilishdan boshqa maslahat yo'q» degan qarorg'a daf'atan kelib qoldi. Mundan birar oylar ilgari Nigor oyimg'a: «Anvar balog'atg'a yetayozdi. Sen bilan Ra'noga shar'iy nomahram, undan qochishlaring lozim», – degan bo'lsa ham, bu buyruq hozirg'acha amalga oshmag'an edi va bundan keyin ham amalga oshmaydirg'an bo'ldi. Zero, maxdumning fikricha, Anvarga og'ir tuyulish ehtimoli bor edi...

Anvar Muhammad Rajab poygachi tarafidan belgilangan bir

<sup>1</sup> Ehtimomi tom (tom (arabcha) – to'la, to'liq, butun; mukammal) – butun imkoniyat.

muftida hisob, insho (tahrir) qoidalarini o'rgana boshladi. Maxdum ham jon otib arab va forsiydan ta'limni kuchaytirdi. Anvar bir yil ichida hisobni o'rgandi. Va boshqa darslarida ham yaxshi muvaffaqiyat qozondi, ham shu ko'klamdan e'tiboran har kun o'rdag'a borib, Muhammad Rajab munshiy qo'l ostidag'i mirzolar yonida daftardorlik<sup>1</sup>, nomanavislik<sup>2</sup> usullarini tajriba qila boshladi. Bir yil, chamasi, maoshsiz tajriba ko'rdi. Shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o'z kissasidan uch-to'rt tanga choy puli berib turar edi. Anvar shu arzimagan uch-to'rt tangani ham maxdumning qo'lig'a keltirib berar va hafta sayin o'ziga ustozining umidini kattaroq bog'latib borar edi.

Anvar bir yillik tajribada o'rdadag'i daftardorlik, forsiycha va turkcha nomanavislik hunarlarini tamoman deyarlik o'rganib tajribalik mirzolar qatorig'a kirdi. Sarmunshiyning og'zidan chiqqan ma'noni tartibka solib noma, yorlig' va boshqacha bir tazkirani tahrir qila olar, mirzolar jumlani g'alat ifoda qilib, sarmunshiydan aksar tanbeh eshitkanlarida, Anvar bunday tanbehka juda siyrak uchrar edi.

Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo mohona<sup>3</sup> bilan maoshliq mirzolar qatorig'a o'tdi.

Mohonadan tashqari soliqlardan ham darxonliq qog'oz<sup>4</sup> oldi. Soliqlardan darxonliq maxdumning ro'zg'orig'a katta yengillik edi. Chunki so'ngg'i yillarda xonliq tomonidan xalq ustiga tushkan va tushib turg'an soliqlar behad va to'lab bo'lmasliq edikim, bu haqda kelasi boblarimizda so'z bo'lur. Shu xursandlik barobarida birinchi oyning yetti tillosi yaxlit holda maxdumning qo'lig'a tegishi go'yo to'y ustiga to'y edi. Domlaning yetti tilloni olg'andag'i holini tasvir qilish, albatta, qiyindir; ko'zlari g'ilaylashqan, aftida qiziq o'zgarish ko'rilib, og'zining tanopi uzoq sayohatni ixtiyor qilg'an: «Habba... Hosiling durust, Anvar bolam, lekin pulga ehtiyot bo'l, bo'tam!» – degan edi. Yetti tilloning qo'ldan chiqish xabari Nigor oyimning qulog'ig'a

<sup>1</sup> **Daftardor** (*forscha*: daftar + lik: biror narsaga ega ma'nosilagi qo'shimcha) – 1) O'rta Osiyo xonliklarida davlatning kirim-chiqimlari hisobini olib boruvchi lavozimli kishi; 2) idoraga kelgan-ketgan xat-hujjatlarni jurnalga yozib boruvchi va yozuvchizuv ishlarini bajaruvchi xodim, kotib(a). **Daftardorlik** – O'rta Osiyo xonliklarining rasmiy muassasalarda idoraga daxldor yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanish va o'sha mansab nomi.

<sup>2</sup> **Noma** – (noma (*forscha*) – xat, maktub) – 1) rasmiy yozishma, maktub, xat. **Nomanavislik** – xattotlik, xat yozish san'ati, kasbi, mashg'uloti.

<sup>3</sup> **Mohona** (*moyana*) – oylik, maosh.

<sup>4</sup> **Darxon** (liq) **qog'oz**, **tarxon** (*mo'g'ulcha*: – temirchi; ozod kishi) – soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan; imtiyozli. Daxlsiz haqidagi hujjat.



yetishkach, Anvardan ranjidi: «Hamma pulingni domlangg'a chakki beribsan, Anvar, ust-boshingni, ko'rpa yostig'ingni, ortib qolsa, Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani, koshki, bilsa!» – dedi.

Maxdum yetti tillo «naqdina»ni olib qancha shodlang'an bo'lsa, o'shanchalik tashvishka ham tushdi. Uning fikricha, zamona yomon, buzuqilar benihoyat; mumkinki, Anvarni o'zidan aynatib og'zi oshqa yetkanda, boshini toshqa tegdir-salar... Ra'noni Anvarga nikohlab boshini bog'lab qo'yaymi, deb o'yladi. Biroq, Ra'no hali o'n bir yoshda edi. Ikkinchi kun Anvar ishdan qaytib kelgach, maxdum uni boqchag'a olib kirdi. Boqchadan kungay<sup>1</sup> ham ko'krak bir o'runni ko'rsatdi:

– Ana shu yerga senga atab bir uy, bir ayvon, oshxona va axtaxonasi bilan imorat solsam deyman... Habba, Anvar?– deb so'radi.

Anvar kuldi:

– Imoratka elli tillodan kam pul yetmaydir. Manim bo'lsa bir tiyin pulim yo'q. Bo'lading'ani ham fotiha berguningizcha, albatta, sizniki va oyimlarniki, – dedi.

– Habba... himmatingga!– deb yubordi maxdum, – albattaku, shunday va lekin o'sha niyatlaringdan keyin boyag'idek alohida pul yig'sang deyman-da... Albatta, bu gap uch-to'rt yilsiz emas-da.

Shu vaqt Ra'no narida bola ko'tarib turar edi. Maxdum Ra'noni o'z yonig'a chaqirib, unga ham haligi o'runni ko'rsatti:

– Habba... mana shu yerga Anvar akangga uy solib beramiz, Ra'no. Bu senga qalay o'xshaydir, qizim?

Ra'no otasining so'ziga tushunmadi:

– Anvar akamning yotadiring'an mehmonhonasi bor-ku, – dedi.

– Xe-xe-xe, bolasan, qizim, bolasan, – deb kuldi maxdum, – Anvar akang tokay mehmonxonada yotadi deysan. Axir bir kun uyulanadi, bamisoli sen bo'lsang erga tegasan... Axir uy kerak-da, qizim.

Bu so'zdan Anvar qizarib ketdi. Ra'no Anvarga qarab oldi va dadasiga achchig' qilg'an kabi burulib ichkariga jo'nadi. Maxdum Anvarga ustaliq bilan bir ma'noni onglatib, ta'minot

<sup>1</sup> Kungay – quyoshga qaragan, quyosh tik tushadigan.

berganidek, buzuqilarning vasvasasiga qarshi dam ham solg'an edi... Bu dam solish Anvarga ham ta'sirsiz qolmadi. Shu kungacha Ra'noning yosh, ma'sum husniga umidsiz qaraydirg'an bo'lsa, bundan keyin unga umid va istiqbolning shirin xayollari bilan termuladirg'an bo'ldi.

Maxdum o'zining chekkan tashvishida haqli bo'lib chiqdi. Anvarning tevaragida «xolis» maslahatgo'lar ham ko'rinib qoldilar. Ayniqsa bu «xolis»lardan biri pochchasi edi. Pochchasi yetti tillo daragini eshitib entikdi. Erining tazyiqi ostida Nodira ham kengashka turdi.

– Pochchang, bizning havlig'a kelib tursin, o'zim uylantirib qo'yaman, – deydi.

Anvar boshqalarning kengashiga quloq solmag'anidek, opasining so'ziga ham iltifot qilmadi. Maxdum javob bermaguncha bu uydan ketmasligini bildirib, faqat pochchasig'a yordam berib turish va'dasi bilan opasini tinchitdi.

Anvar ikkinchi oy maoshidan uch tilloni o'zida qoldirib, uyga kiyim-kechak olish uchun izn so'rag'an edi, maxdum: «Shu ish chakkida, bolam. Xayr, bundan so'ng shu noma'qulchilik bo'lmasin!» – deb arang ko'ndi. Anvar Nigor oyim, Ra'no va o'ziga kiyimliklar sotib oldi. Nigor oyim sholpar<sup>1</sup>, Ra'no atlas kiydilar.

Nigor oyim Anvarning pinjiga kirib olib, o'z yo'lig'a sola boshladi. Maoshining hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o'xshash kam-ko'stlarga ham yaratib turishg'a undar edi. Anvarning andishasini rad qilib: «Har qancha bersang ham, dadasi ola beradir. Lekin berganingni sen bilan bizga mis ham yumas. Shunday bo'lg'andan keyin, ishni o'ylab qilish kerak», – der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattig' botina olmaslig'ini sezar edi. Shunday bo'lsa ham Anvar yetti-sakkiz oyg'acha topqanini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabiatini bir zarra o'zgartmas, hamon eski tos, eski hamurom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqag'an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovig'an oshni yer, uyda issig' non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag'acha kafolatni o'z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar

<sup>1</sup> Sholpar (forscha) – yungdan to'qilgan, junli mato.

ham bu holdan siqilib, Nigor oyimning kengashicha ish qilmoqqa majbur bo'ldi. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a'lo ko'rdi. Uyga go'sht va boshqa masallig' olib berib, xohlag'an taomini buyurib turdi; o'zi yaxshi kiyinganidek, Nigor oyim, Ra'nolarni ham yaxshi kiyintirdi. Nodirda opasig'a, jiyanlariga kiyimlar olib berdi; ikki tilloni Marg'ilonida og'rib yotqan Mohlar oyimg'a sovg'a-salom qilib yubordi.

Bu o'zgarish maxdumni dovdiratib qo'ydi va qo'rqapisa: «Bu oy xarojatlabsizmi, bolam?» – deb so'rag'an edi, «Kamko'stlarni tuzatib oldiq», – degan javobni berdi. Ikkinchi oyda, ko'rpa-yostiqlarni tuzatib, maxdumning ko'zi to'rt bo'la bergach, ikki tilloliq «xolis» duo ham olib qo'ydi. Lekin maxdum bu holdan ancha shoshqan edi. Birar shayton yo'ldan ozdirdimi, deb astag'firulloh o'qur edi. Anvarning eskicha ochiq yuz bilan muomala qilib faqat «naqdina» vajhidangina<sup>1</sup> dam bo'lib qolishi, topqanini «bemaza» ovqatlarg'a, kiyim-kechak va boshqa «behuda moloya'nilarga»<sup>2</sup> sarf qilishi maxdumni ko'b tanglikka solg'an edi.

– Bo'tam Anvar, – dedi bir kun maxdum, – dunyo degan ko'b noyob narsa; kishining bir kuni bo'lsa yig'lab-sixtab o'tib keta beradir, illo, zar qadriga yetish kerak... menda bo'lsa o'zingda turg'andek gap, bolam.

Bunday «mutassir» nasihatlar ham Anvarga kor qilmadi. Chunki Nigor oyim va Ra'nolar bilan bu to'g'rida qat'iy bitishib qo'yg'an edi. Shu bilan birga maxdumning oyliq vazifasini ikki tillodan ham kamaytirmadi. Inson har narsaga qobil... bora-bora maxdum shunga ham qanoat qiladirg'an bo'lib, hisob-kitobni esidan chiqardi. Biroq, oy sayin ikki tilloni olg'anda «qolg'ani» to'g'risida bir oz yuragi achishib qo'yar edi.

## XVI Fasl. XONNING ILTIFOTI

Devonda rasmiy mirzo bo'lishning uchinchi yilida Anvar juda katta e'tibor qozong'an edi. Ayniqsa, turkiy tahrirda mirzolarning har birisidan ustun: chiroylik uslubi, oson tarkib<sup>3</sup> va

<sup>1</sup> Vajh (arabcha) – sabab, asos.

<sup>2</sup> Moloya'ni – keraksiz, qiymatsiz ashyolarning umumiy nomi.

<sup>3</sup> Tarkib (arabcha: biriktirish, birikma, biriktirib hosil qilish; hay'at, xodimlar) – ma'lum bir butunlikni tashkil etuvchi qismlar, unsurlar majmui. Bu yerda gaplar jumalarni to'g'ri tuzish ma'nosida kelgan.



ifodasi bor edi. Buni mirzolardan boshlab saroy shoirlari, saroy muftilari, bosh munshiy Muhammad Rajabbek, hatto xonning o'zi ham e'tirof qilar edilar.

Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshiylarning eshitemagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumlariga aksar vaqt tushunmas: «Enalaring arapqa tekkanmi?» – deb mirzo, muftilarni koyir edi<sup>1</sup>. Ammo, Anvarning yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va «Shu bala barilaring'dan ham o'qug'anraq chiqar!» – deb, boshqa mirzolarning yuragiga o't yoqar edi.

Muhammad Rajab munshiy keyingi kunlarda muhim tazkiralari tahririni Anvarga topshiradig'an bo'ldi. O'zi birar joyg'a ketadigan bo'lsa, devon idorasini Anvar qaramog'ig'a qoldirar, har bir to'g'rida ham boshqalardan ko'ra Anvarga ishonar edi. Zero Anvar har bir ishni to'g'ri va xolis ado qilar, vazifasidan tashqari ishlarga kirishmas, oladig'an maoshidan ortiqcha tamaga tushmas edi. Bu o'runda Anvarning bir xususiyatini ataynoq yozib o'tishka burchlimiz: o'rus istibdod idorasi yonidag'i musulmon qozixonalari va ulardagi mirzolari har kim xotirlaydir. O'sha mirzolarning unar-unmaska «qalam uchi» so'rashlari, kichkina ishni ulug'latib mazana<sup>2</sup> chiqarish harakatlari ham bizga ma'lumdir.

Shu qozixona mirzolari, baayni hikoyamizning mavzu'i bo'lg'an Xudoyor saroyi munshiylarining kichkina nusxalari edilar. Xong'a yoziladig'an arzi dodlar saroy mirzolaridan tashqarida tahrir qiling'an bo'lsa, aksar vaqt ishka oshmas edi. Ya'ni chetda yozilg'an ariza qabul qilinsa ham, ariza egasi qalam uchini begona qilg'ani uchun arizani xong'a va sarmunshiyga ko'rsatmay, yirtib tashlar edilar. Ariza egasi natija so'rasa: «Arizangizni savodsiz kishi yozg'an ekan, janob iltifotsiz qoldirdilar» – deb savodliq kishidan boshqa ariza yozdirib berishka maslahat ko'rsatar edilar. Ariza berguchi ikkinchi martaba hara-

<sup>1</sup> Xudoyor qipchoqlar ichida o'skani uchun tili o'zbekchadir. Enalaring so'zidagi «ng» harfini «ng'» ravishida qalin so'zlaydir. Bu kungi farg'ona o'zbeklarida ham (ayniqsa qishloqlarda) yumshoq «ng» o'mida qalin «ng'» ishlatish ko'b eshitiladur. Hozirgi isloh qiling'an harfimizda bu qalin «ng» ning maxsus shakli yo'qdir. Yozg'anda (n-g') harflaridan bir tovush yasalsa ham biroq o'qug'anda har kim buni o'z maxrajidan chiqarolmas, yanglish o'qur. Bu qalin «ng» o'zbekcha bir necha so'zdagina ishlatilmay ko'b (ellilab) so'zda iste'mol qiling'ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji bor. Masalan mashhurlari: zang', pang', lang', darang', qalang'i-qasang'i, dang', to'ng'uz, shang'i, to'ng'illamoq, to'ng', to'ng'uch va ang'iz, ting' boshqalar... Eski «ning» «ng» ravishida isloh qilingan. Bu yo'g'on «ng'» ham «g» harfining ustiga uch nuqta qo'yulib yozilsamikin... (muall.).

<sup>2</sup> Mazana – shirinkoma, dalollik haqi.

jatlanib, saroy mirzolarining o‘zlaridan yozdirishg‘a majbur bo‘lar edi. Mundan boshqa, bir-birlari ustidan xong‘a shikoyat qilish, o‘zaro bitmas adovat ham davom etib, aksar bir-birlarining tegiga «suv ham quyib turar» edilar. Yana aksariyat mirzolar xonning xufiyalik xizmatini ham ado qilib, shaxsiy adovat yoki xong‘a yaxshi ko‘runish uchun fuqarodan nechalarning gunohsiz qonig‘a cho‘milib, mudhish foji‘alarg‘a ham sababchi bo‘lar edilar. Shuning uchun xalq ayniqsa, kambag‘allar saroy mirzolarig‘a nafrat bilan qarar, ular yonig‘a yaqinlashishdan qo‘rqar, ilojsizlikdan ikki bukulib salom berar edilar.

Lekin Anvar ta‘mani, shaytanatni<sup>1</sup>, adovatni ayniqsa, xufiyalikni bilmas, devonda o‘ziga topshirilg‘an vazifanigina ado qilar, alaxusus mazlumlar dodnomasini xong‘a eshitdirishka va yaxshi natijalantirishka tirishar edi. Ul o‘zining shu to‘g‘rilig‘i soyasida hamisha anovi mirzolarining ishiga biloqasd<sup>2</sup> xalal berib, chirishni<sup>3</sup> buzub turar, ham shu va boshqacha sabablardan ularning adovatiga yaxshig‘ina hadaf<sup>4</sup> ham bo‘lg‘an edi. Biroq Anvarning homiysi – Muhammad Rajabbek katta e‘tibor va nufuzga molik, ham xong‘a inobatlik, shuning uchun mirzolar Anvarga qarshi hech narsa qilolmas edilar. Mirzolar orasida Anvarga tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lg‘an Shahodat mufti kabi keksa mirzolar yashag‘anlaridek uning iste‘dod va zakosiga xolis maftun bo‘lg‘an Sultonali kabi mirzolar ham bor edilar.

Shu yo‘sun tajriba yilidan tashqari besh sana saroyda ishlab kelar edikim, mundan o‘n besh kunlar muqaddam sarmunshiy Muhammad Rajab poygachi bir haftagina og‘rib, vafot etdi. Anvar o‘ziga samimiy mehribon bo‘lg‘an bir kishidan ayrildi. Necha yillardan beri Muhammad Rajabbekning o‘lumini yoki boshqacha bir falokatini kutib, undan so‘ng bosh munshiylikka o‘zini chog‘lab yurg‘an Shahodat mufti xizmat bilan qishloqqa chiqib ketkanligi uchun, muvaqqat ravishda bosh munshiylik vazifasini Anvar ado qila boshladi. Va shu bir necha kun ichida Anvarning bosh munshiy bo‘lish shoyi‘asi yurib qoldikim, hozirga bu to‘g‘rida bir mulohaza aytish qiyindir. Chunki bu mansabga intilguchi kazo va kazolar, shoir va fuzalolar ko‘bdir.

<sup>1</sup> *Shaytanat* (arabcha) – makkorlik, firibgarlik, shaytonlik.

<sup>2</sup> *Biloqasd* – to‘satdan, kutilmaganda; noiloj; qasddan emas.

<sup>3</sup> *Chirish* – o‘zaro kelishuv, suhbat.

<sup>4</sup> *Hadaf* (arabcha: nishon; mo‘ljal; marra, so‘nggi nuqta) – erishish, qo‘lga kiritish ko‘zda tutilgan, harakat yo‘naltirilgan narsa; maqsad.

## XVII Fasl. ANVARNING ANDISHASI

Anvar Shahidbek bilan maxdumning soʻzlariga qarshi majhul bir aziyatda bosh qimirlatib sufaga qaytdi. Ularning chiqib ketishlarini kutib turgʻandek ichki eshikdan Raʼno koʻrindi. Har zamon titrab, uchib ketishka hozir turgʻan boshidagʻi sarigʻ atlas parchasini (roʻymolni) bir qoʻli bilan bosib ushlagan edi. Anvar Raʼnoni shu holda koʻrib, sufa yonidagʻi ochilgʻan gullar ustida toʻxtadi. Raʼno kelar ekan, oʻpkalik koʻz bilan Anvarga kulimsib qarar edi. Kelib sufa labida turgʻan boʻsh laganlarga taqildi.

– Bu kungi mehmondorchiligʻimizdan rozi boʻlgʻan oʻxshaysiz, Anvar aka, – dedi qayrilib Raʼno.

– Juda rozi boʻldim, – dedi Anvar va Raʼnoning yonigʻa keldi, – ayniqsa, sening qoʻling bilan tugilgan mantilardan juda mamnun boʻldim, Raʼno.

Raʼno laganlardan qoʻlini olib, Nirsagi bilan sufaga suyandi:

– Manim qoʻlim bilan tugilgan mantilarni qayoqdan bildingiz?

– Qayoqdan bildingiz?– deb Anvar kuldi, qoʻlida bir dona qashqar guli bor edi, – ayniqsa, sening qoʻling nimaga tekkan boʻlsa, men oʻshani darrav sezaman.

– Men tukkan mantilar qanday ekan?

– Tanimaydi, deysanmi?

– Tanimaysiz.

– Choklari diqqat bilan chimtilgan, toʻrt burchagi ikkiga qovishtirilgʻan, doʻndiq... Tanimaydi, deb oʻylaysanmi? Men nuqul sen tukkan mantilarni tanlab yedim...

– Mazaliq ekanmi?

– Mazaliq nima degan soʻz, – dedi Anvar, – mana shu qashqarning qizil guli yodingdami, biz bu gulni keltirib oʻtquzgʻan yilimiz pushti ranglik boʻlib ochilgʻan edi. Ikki yil oʻtmay qizil tuska kirdi. Bilasanmi bu nimadan?

Raʼno Anvarning jiddiy qilib bergan bu savoliga tushunmadi:

– Oftob qizartirgʻandir.

– Yanglishasan, Raʼno, – dedi Anvar, – men bu gulning qizarish sirrini ham bilaman, buning qizarishigʻa ham sen sabab, sening qip-qizil labing...

– Hazilni qoʻying, – dedi shu guldek qizargʻan Raʼno, – Shahid semiz nima uchun kelgan ekan, sizni mirzaboshi qilmoq-

chilar, shekillik?

– Bu gapni qo‘y, Ra‘no, ishonmasang oynag‘a qara, sening labing bilan shu qizil gul rangi orasida farq bormi, mana qara?..

Anvar tomonidan labiga tegizilgan gulda Ra‘no o‘zini olib qochdi:

– Hazil o‘lsin... Sizni mirzaboshi qilmoqchilarmi?

– Meni har balo qilmoqchilar... Lekin bo‘lmag‘an so‘z.

– Nega bo‘lmag‘an so‘z, shaharga ovoza bo‘lg‘an emishku?

Anvar orqasi bilan sakrab sufa labiga oyoq solintirib o‘lturdi. Ra‘no boyag‘icha uning yonida sufaga suyandi.

– Ovoza haqiqat emasdir.

– Shamol bo‘lmasa, terakning boshi qimirlamas emish. Balki, sizni mirzaboshi ta‘yin qilurlar.

– Meni mirzaboshi ta‘yin qilsalar yaxshimi, Ra‘no?

– Yaxshimi, yomonmi, men qaydan bilay?

– Yomon, Ra‘no.

– Nega yomon?

– Iflos ish. Agar boshqa kasb topsam, o‘rdani butunlay tashlab ketar edim.

– Iflos ish?.. Sizning bek pochchangiz ham shu xizmatni qilar edi-ku?

– Men bek pochcha bo‘lolmayman, Ra‘no. O‘rdadag‘i to‘kulib turg‘an gunohsiz qonlar, doim tevarakdan eshitilib turg‘an oh-u zorlar manim yuragimni ezadir, tinchlig‘imni oladir. Yana men mirzaboshi bo‘lib qolsam, bu oh-u zorlarning, to‘kilgan ma‘sum qonlarning ichida bilfe‘l<sup>1</sup> suzarman. Bu vaqt manim azobim bevosita bo‘lur. Balki, bunda ishtirok ham qilarman. Chunki xong‘a yaxshi ko‘runish uchun ko‘b ishlarni uning istagicha ko‘rsatish, zulm pichog‘ini qayrab berish, shu mansabda uzoq yashamog‘imning asos shartidir. Lekin men bunday vijdon-sizlik uchun yaratilmag‘an o‘xshayman. Madh-u sano, olqish va duo zamiriga yashiring‘an zulmdan faryod, haqsizlikdan dod ma‘nolarig‘a malham bo‘lish, albatta, manim qo‘limdan kelmas. Chunki «soyaboni marhamat» vijdon kengashiga quloq sog‘uchi «ahmoq»lardan emasdir. Dadangning fe‘li senga ma‘lum, Ra‘no. Dunyoda «manfaat»dan boshqani ko‘rmaydir. Manim nima

<sup>1</sup> Bilfe‘l (*arabcha*: haqiqatan, aslida) – o‘zicha, o‘zboshimcha; mustaqil ravishda, bevosita. Bu yerda bevosita ma‘nosida kelgan.

uchun bu mansabdan qochqanlig'imning farqig'a bormay: «Kufroni ne'mat qilasan, oyig'a falon tillo» deb daf'atan qo'r-qoqlig'img'a hukm chiqaradir. Dadangga boyag'i uzrlarni ko'rsatish toshning qulog'ig'a azon aytish bilan bir bo'lg'ani uchun sukut qildim. Agar orada bir kishi bo'lmasa edi, garchi, bosh mirzoliq hozir bir xayol ersada, o'shanda ham shu ovozag'a bo'yin sunmas edim, Ra'no.

Ra'no Anvarning ko'ziga to'g'ri tikilib, so'zni tingladi. Uning tusida Anvarga achinish vaziyati bor edi:

– Yaxshi niyat bilan mirzoliqni qabul qilsangiz, – dedi, – aholidan yordam qo'lingizni yig'masangiz, shu holda barcha gunoh sizning bo'yingizdan soqit bo'ladir, Anvar aka.

– To'g'ri, – dedi Anvar, – lekin gap bunda emas, Ra'no, men shunday bo'lishini tilar edim. Boshqalar men tilagancha qilmaydilar, binoan alayhi<sup>1</sup>, mas'uliyat manim bo'ynimdan soqit bo'ldi, deb tinchlanish mumkin emasdir. Sen tamoman boshqacha tushungan bir masala, sening harakating va istaging aksicha natijalanib tursa, ruhan ezilasan, vijdonan azoblanasan. Mana, asli mushkilot shu nuqtadadir. Yo'qsa gardandan soqit qilib qo'yish har narsadan ham qulay vazifa, ammo ma'naviy mag'lubiyat og'ir masala, Ra'no.

Ra'no Anvarning maqsadig'a tushundi, shekillik, bir necha vaqt jim qoldi va qarshisidag'i yigitning o'ychan yuziga bir-ikki qarab oldi.

– Demak, mirzoboshiliqni qabul qilmaysiz?

– Agar topshirsalar, qabul qilaman.

– Shunchalik mushkilot ichida?

– Chunki otang buni mendan talab qiladir.

– Otamning qanday biyligi bor?

Ma'sum bu savoldan so'ng Anvar entikib qo'ydi va Ra'noni bir fursat ko'zdan kechirib turdi:

– Juda katta biyligi<sup>2</sup> bor, – deb yana entikdi.

Ra'no qaytib so'ramadi. Go'yo ul ham bundagi biylikka tushungan edi. Sekingina laganlarga qo'lini yuborib, Anvarga bo'shtobroq qaradi:

– Choy ichasizmi?

<sup>1</sup> Binoan alayhi (alayhi (*arabcha*) – unga, shunga) – shunga binoan, shu asosda, binobarin.

<sup>2</sup> Biylik – 1) urug' yoki qabila boshlig'i vazifasini ado etishlik; 2) egalik, idora qilish huquqi; hukmronlik, xo'jayinlik; erk, ixtiyor (*bu yerda shu ma'noda kelgan*); 3) xohish, iroda, buyruq.



edi. Baharhol, bu xabarga aql bovar qilmaydir...

– Ha-a, taqsir, – dedi Samad bo‘qoq va Shukur so‘fini tirsagi bilan turtti, – bu bala kim-u, o‘rdag‘a mirzaboshiliq kim. Zamoning zayli minan, boyag‘idek Mamarajab mirzaboshining yordamida o‘rdag‘a kirishib qog‘anda... Boyag‘idek oppoqqina bo‘lsa, Mamarajab o‘z yonig‘a og‘anda...

Imom bo‘qoqning so‘zini tinglagan holda, ikki ko‘zini yerga qaratgan edi.

– Yurtning so‘ziga qarab aytayapman-da, – dedi Shukur so‘fi, yengilga ohangda, – harchi bir necha kundan beri katta-kichikning og‘zida shu gap.

– Ko‘bchilikning og‘zini tikib bo‘lardima, so‘fi?..

Samad bo‘qoqning bu so‘ngg‘i g‘iyqillashida tomog‘i ostidag‘i yo‘g‘on tomirlari turtib chiqdi.

Imom hamon ikki ko‘zi yerga bo‘lg‘ani holda kichkina boshini qimirlatdi:

– O‘rdadan birar kishi masxara uchun xabar tarqatqandir.

– Ha-a, taqsir.

Shu holda jilovxonag‘a to‘rtinchi kishi kirib keldi. Bunisi jikkak, qirq bilan elliyning orasi, yelkasi turtib chiqq‘an Safar bo‘zchi ismlik edi. Imomga salom berib, so‘fining yonig‘a o‘lturdi va so‘zga bir oz quloq solg‘ach, tushunar-tushunmas bahska aralashib qoldi.

– Inshoalloh, shu yigit mirzaboshi bo‘lar, – dedi Safar bo‘zchi suhbatning ruhini bilmagan holda, – o‘zi ajab zukko yigit, fuqoroparvar bola: bo‘g‘ani ma‘qul, a, labbay, taqsir?

Imom yerga qarag‘an holda boshini qimirlatib qo‘ydi.

Samad bo‘qoq xo‘mrayib Safar bo‘zchig‘a qaradi:

– E, akillay berasanda, Safar, – dedi bo‘qoq, – biz nima deyapbiz-ku sen nima deyapsan.

– Xo‘sh, nima deyapsanlar?

– Ovoza gap deyapmiza, mirzaboshiliqqa katta milla<sup>1</sup> kerak deyapmiz-a.

– U milla emas ekanmi?

– Milla bo‘lsa ham, xashaki millalardan-da.

– Ashunga qog‘anda chalg‘ibsan, Samad, – dedi Safar bo‘zchi, – xat bitishka kelganda qo‘yavur, kambag‘alga qayishqanini

<sup>1</sup> Milla – mulla.

ko'rsang, ha, bo'ldi deysan.

– Zantalag'ing<sup>1</sup> kimga qayisha qopti?

– Hammaga, hammaga, – dedi Safar, – meni o'zimga ham yordam qildi-da, yashag'uring.

– Ha-a, xo'sh?

– Bultur ana shu kezda, – dedi Safar engashinqirab, – bozorg'a sakkizta bo'z olib tushkan edim. Birarta mushkit<sup>2</sup> ig'vo qildimi, zakotchining tomog'i taqilladimi, harchi falakat, qo'ltug'imdag'i bo'zni yoppa oldi, qo'ydi; «otang yaxshi, onang yaxshi, kosibman, savdogar bo'lsam, uyim kuysin»... Asti qo'ysa-chi... Bir yillik zakoting deb ko'tardi-ketti. Qo'lingdan nima keladi, Samad. Xafaligim oshib, uyga quruq qaytdim. Mayda-chuyda kutib o'lturgan bola-chaqaning quti uchti. Mol ketti – jon ketti, ishka ham qo'lim bormaydi. Endi bo'lar ish bo'lg'an desang yurak achiydi, dastmoya ham g'altakka chiqadig'an. Arza-parza bittirsammi deyman. Ko'chada unga-bunga kengash solsam, arzang ma'qul deyishdi. Shu yaqinda, o'zi o'rdada turadig'an bir arzachi bor emish. Ketkan ustiga ketkan deb do'kon tegi yarimta bo'z bor ekan, qo'ltug'img'a tiqib oldim. Ana shu toblarda so'rog'lab arzachi mirzonikiga borsam, hozir o'rdadan kelib, endi to'nini yeshib turg'an ekan. Yosh, navqiron yigit, «salom, alik», «horma», «bor bo'l». «Shunday, shunday gap: bir parcha arza bittirsam, deb kelgan edim». O'rdaliqqa gap uqdirish qiyomatdan keyin, taqsir. Lekin bu yigitda gavrlilik<sup>3</sup> siyoqi yo'q, Shukur so'fi. Gapka qonib olib, quloq qoqmay «xo'b». Arzaning bir yeriga zakotchining oti tushar ekan, necha qayta so'rasa, ham bilmadim, undan keyin afti basharasini uqdirib edim, tasmollab bittasini yozdi, chog'i: «Endi keta bering, arzani o'zim topshiraman»,– deydi. Javobini ham ikki kundan keyin o'zidan olar emishman...

– Manavi osonliqni qarang, taqsir. Duo qilib qalam uchisiga bo'zni berdim, olmaydi: «Yopiray, ozsindiyov, qurg'ur» – deb qo'rqdim. «Arza o'runlasa, yana xizmat qilarmiz, mirzaboshi». Yana yo'q: «Toza falakat bosti» –deb tursam: «Arzaga haq olmayman, bo'zingni olib ketavur», – degani ekan. Baraka top-

<sup>1</sup> **Zantalok** (*forscha+arabcha*: taloq qilingan (bo'lgan) xotin) – 1) xotin taloq; 2) Qurib ketkur, qurg'ur; la'nati, savil. **Bu yerda shu ma'noda, ya'ni so'kinish ma'nosida kelgan.**

<sup>2</sup> **Mushkit** – chaqimchi; hasadgo'y.

<sup>3</sup> **Gavir** (*forscha*: zardushtiy; otashparast) – g'irrom, shayton (ko'chma ma'noda). **Gavirlilik** – g'irromlik, shaytonlik.

qurni qarang, taqdir. A, shundaqa odam ham bo'ladimi, Samad og'a. «Oltin olmasang, duo ol» deb qo'limni ochtim. Ha, endi buni qo'yavuring. Ertasi kechqurun gula to'g'rilab o'ltursam eshikni birav taqillatadi.

– Ha, kelavuring.

Do'konxonaga bo'z qo'ltuqlag'an bir kishi kirdi.

– Safarboy sizmi?

– Ha, biz.

– Arza berganmidingiz?

– Bergan edim.

– Otangizning oti nima?

– Mamatboy.

Qo'ltug'idag'i bo'zni oldimg'a tashladi. Xudda kechagi bo'zlarim: tappa-taq sakkizta.

– Bo'zlarinigizni oldingiz-a?

– Ha, oldim.

– Xayr.

– Xo'sh.

– Bu yaxshiliq arzadan ham burun mirzaboshidan bo'ldi, deb o'yladim. Balalarning kengashi bilan ikki bo'zni ko'tarib shom paytida mirzaning uyiga bordim. Chaqirdim, chiqdi. Minnatdorchilik bilan ikki bo'zni uzatdim; asti olsachi: «Yaxtakka bo'zim bor, ketavuring», – deydi. «Sotib, pulini beraymi», – desam: «Pulim ham ko'b» – deydi. Aqalli bittasini ham olmadi. Yana duo qilib bo'z bilan qaytdim. Farishta ham shunchalik bo'lar, deb o'ylab qoldim, Shukur so'fi! A, shunday yigit mirzaboshi bo'lmay kim bo'lsin, Samadboy! Ko'bni duosi ko'l deganlar: ishonmasanglar, ana taqdirimdan so'ranglar!

Hikoyani eshitish asnosi imomda bir g'ijinish vaziyati bor edi. Hikoya bitkach, zaharxanda bilan Samad bo'qoqqa qaradi, dami kesilayozg'an bo'qoq bundan ruhlandi.

– Yolg'onni ham yamlamay yutadig'an bo'libsanda, Safar, – dedi bo'qoq.

Safar bo'zchi to'sindan o'zarib ketdi. Rangi o'chin-qiradi:

– Azbaroyi xudo, qasammi?

– Ikkita bo'zni ikki qo'llab oborsang, – dedi Samad bo'qoq, – qaysi ahmoq olmay qaytarar ekan? Yolg'onni sal kishi ishonadig'an qilib gapirish kerak, Safar!

– Azbaroyi xudo, olmadi!– dedi Safar va asabiylashib

o'rnidan turib ketdi, – shu ka'batulloning ichida o'lturib yolg'on gapirgan odam musurmon emas, kishining qasamig'a ishonmag'an ham yetti mazhabda mo'min emas!

Safar akaning aztahidil achchig'lang'anini sezgan imom orag'a tushti:

– Bunday yaxshiliqni har kim ham qila oladir, Safar aka, – dedi, – shuning uchun mirzoboshining sizga qilg'an yaxshilig'ig'a men ishonдим. Ammo bizning bahsimiz uning beva-bechoraga qilg'an yaxshilig'i to'g'risida bo'lmay, bu odam o'rdadag'i mirzolarig'a boshliq bo'la oladirmi, ya'ni o'shandog' katta ishning uhdasidan chiqadirmi, ustidadir.

– Barakalla, taqsir, – dedi Safar bo'zchi turg'an yeridan, – menga qolsa, inshoollo, uhdasidan chiqadi!

Imom Safar bo'zchig'a tushuna olmay, bir oz tikilib turg'andan keyin so'radi:

– Uning uhda qilishini siz qayoqdan bilasiz?– Xudoy bildirsa, bilaman-da taqsir?

– Xo'sh?

– Axir, ko'bachilikning duosi ko'l-da, taqsir!

– Ko'bachilikning duosi ko'l bo'lsa yaxshi, – dedi imom, – ammo bu xizmatka uning ilmi kofiyimi?

– Kovfiy, taqsir, kovfiy!

– Axir, siz kofiyligini qayoqdan bilasiz?

– Axir... Kovfiy emasligini siz ham qayoqdan bilasiz, taqsir.

– Kofiy emasligini men shundan bilamanki, – dedi imom achchig'ini ichiga yutqan holda, – bunday mansabga minadigan kishi Buxoroyi sharifda tahsil ko'rmagan-da ham, loaqal, Xo'qand madrasalarida o'qug'an bo'lishi kerak, ammo sizning mirzoboshingiz savodxonliqdan boshqani bilmaydir.

– Bilmaganini siz qayoqdan bilasiz, taqsir?

– Chunki men uni o'z qo'limda o'qutqanman... bir yatim bola edi.

– Xudoning berishi, taqsir, – dedi Safar, o'ylab-netib turmay, – janobingiz Buxoroyi sharifda necha yil o'qub, nihoyati mahallaga imom bo'ldingiz... Xudoy bermasa, shunday, taqsir. Ul bo'lsa madrasa ko'rmasdan mirzalarning mirzasi bo'lmoqchi; xudoy bersa, shunday, taqsir.

Safar bo'zchining bu so'zidan imomning qonsiz rangi yana

qonsizlang'an, olaminchoq ko'zi allanuchka holatka kirgan edi.

– Ablah odam ekansan!– dedi.

– Siz ham ahmoq mulla ekansiz!– dedi Safar bo'zchi.

Imom g'azabi bilan o'rindan turib Safar bo'zchig'a xezlang'an edi, uni Samad bo'qoq ushlab qoldi.

– Padar la'nat, adabsiz!– dedi Samad, – domlag'a shunday so'zni aytasanmi-ya? Safar bo'zchi turg'an o'rindan siljimadi.

– Cho'zma kekirtagingni, bo'qoq, – dedi, qani qo'yib berchi taqsiringni, yoqalashsin-chi men minan! Andishaning otini qo'rqqoq qo'ydingmi?

Shukur so'fi o'rnida baqa bo'lib qolg'an, imom bo'lsa go'yo hujum qilmoqchidek Samad bo'qoqni itarar edi. Samad bo'qoq g'iybatdan boshqa ishka yaramag'ani uchun, imomning yordamig'a yetish chamasi yo'q edi.

– Shu adabsizlig'ing bilan, – dedi Saman nasihatomuz, – yana domlaning orqasida namoz o'quysanmi, Safar, a!

– O'qumasam qutilamanmi senlardan!

– O'qumasang bor, jo'na!!!

– He...– deb so'kindi Safar bo'zchi va jilovxonadan chiqib jo'nadi. Uning orqasicha: «Padar la'nat johil», – dedi imom va ilgarigi o'rnig'a bordi. Bir necha vaqt uchavlari ham so'zsiz o'lturdilar.

– Bir it-da, taqsir, xafa bo'lmang.

Imom javob bermadi. Yana bir necha kishi kelib qo'shilg'ach, Shukur so'fi mezanaga<sup>1</sup> chiqib azon aytdi. Asrni o'qush uchun masjidga kirdilar.

## XIX Fasl. IFLOS BIR MOZIY

Imomning ta'bi juda sustlandi. Shom va xuftan asnolarida ham hech kim bilan so'zlashmadi. Safar bo'zchining «Buxoroyi sharifda necha yil o'qub kelib, nihoyati mahallaga imom bo'ldingiz. Xudoy bermasa, shunday bo'ladi, taqsir» degan so'zi zaharli xanjar kabi uning yuragida yangidan yangi jarohat ochar edi.

Darhaqiqat, Safarning bu so'zi imomning eski jarohatini mudhish tuzlab tashladi. Bu jarohat shu kungacha ichdangina

<sup>1</sup> Mezana (arabcha: azon aytiladigan minor) – masjid minorasining muazzin azon aytadigan yuqori qismi.

fasodlanib<sup>1</sup> yurg'an bo'lsa, bu kun Safar bo'zchi kabi bir «bema'ni» bu yarani rahmsiz suratda yorib yubordi. Samad bo'qoq va Shukur so'fi kabi bemazalar oldida imomning o'bro'sini to'kdi. Bu bir yoqdan. Ikkinchi tarafdan Safarning «ul bo'lsa, madrasa ko'rmasdan mirzolarning mirzosi bo'lmoqchi...» jumlasini yana dard ustiga chipqon. Ya'ni imomning hasad o'ti to'rt tomondan puflandi, go'yo ul ikki olov o'rtasida qolg'andek bo'ldi.

Anvarning bosh munshiylikka yaramaydirg'anlig'ini, ilmsiz, fazlsizligini nega buncha isbot qilishg'a tirishdi? Safar bo'zchi kabi bir «ablak» bilan bahslashib, o'ziga nega buncha xafalik orttirdi? Garchi, Anvarga xolis qiymat bermakchi bo'lg'anida ham buni Safar kabi ilmsiz, nodon bir kishiga tushundirmoq uchun qanday hojat bor edi? Buning sababini so'zlashdan ilgari imom afandining o'tkan tarixig'a bir oz ko'z tashlab olishg'a majburmiz. Chunki busiz o'qug'uchimizni ta'min qilish mumkin emasdir.

Hozirg'i imomimiz – mulla Abdurahmon mundan yigirma yillar muqaddam, qisqag'ina, ahamiyatsizg'ina «Rahmon» ismi bilan atalar edi. Abdurahmonning otasi ulamo naslidan, ammo bu sharaf nima sabab bilandir, uning otasig'a nasib bo'lmag'an, biroq Abdurahmonning amaklari ota kasbini ushlab tahsil ko'rgan joylari Buxoroda katta mudarrislardan sanalar edilar. Abdurahmon yosh bola ekan, otasi o'lib, onasi va ota tomonlari tarbiyasida qoldi. O'n besh yoshlarg'acha Solih maxdum maktabida savod o'qug'ach, mudarris amaklaridan Buxoroi sharifka kelib tahsil qilishg'a da'vat xati oldi. Xatda Abdurahmonning bobo kasblari ulamolliq ekanini, shuning uchun boshqa kasblarga urinib umrini zoe' qilish abasligi<sup>2</sup>, o'z tarbiyalarida tahsil ko'rish luzumi so'zlanar edi. Bu da'vat Abdurahmonning onasig'a va boshqa yaqinlarig'a juda ma'qul tushib, uni Buxorog'a jo'natish qarorig'a keldilar. Abdurahmon ham istiqboldag'i mudarris, muftilik shirin xayollari ichida Buxorog'a safar qildi.

Katta amak Buxoroning «Xo'ja Porso» madrasasining mudarrisi bo'lib, Abdurahmon shu kishining tarbiyasiga kelgan edi.

<sup>1</sup> Fasod (*arabcha*) – chirish, yiringlash; buzuqlik, axloqsizlik. Fasodlamoq – 1) gazak olib, fasod hosil qilmoq, fasod bog'lamoq, yiringlamoq (yara haqida). 2) og'irlashmoq, chigallashmoq (ish, jinoyat haqida).

<sup>2</sup> Abas (*arabcha*) – behuda, foydasiz, natijasiz, bekor.

Abdurahmon silliqqina bola, madrasa mulla-bachchalari, albatta, shunday silliq bolag'a o'ch... Shunga binoan domla mudarris garchi madrasadan hujra berish mumkin bo'lsa ham mazkur ishonchsizliq majburiyatida Abdurahmonni o'z mehmonxonasig'a joylashtirdi. Shu holda Abdurahmon tahsil boshladi.

Domla mudarris «zamona buzuqlig'ini» nazarga olg'ani uchun Abdurahmonni haligi to'g'risida juda qattig' nazorat qilar edi. Biroq, domlalarning bunday buzuqliqqa qarshi bora olishlari mumkinmi edi? Ularning o'zlari shu «mahram» balosig'a giriftor, ya'ni buzuqliqqa manba' bo'la turib ham yana «zamona buzuqlig'i»dan shikoyat qilishlari o'sha vaqtlardag'i «madrasa mantiqi»g'a hech bir bahssiz sig'a olur edikim, bu to'g'rida menga osila ko'rmangiz. Kishining bolasini buzish har bir sallasi muazzam, ilmi «favqalodda», o'zi «varasatulanbiyo»<sup>1</sup> sanalg'an zotlar nazarida va vijdonida ma'fu, ammo o'z o'g'lig'a boshqalar o'shandog' hayvonlikni qiladiring'an bo'lsa: «Zamona buzuq, ehtiyot shart!»

Shu yo'sun domla mudarris burodarzodasini yaxshi ehtiyot bilan, hatto shomdan keyin darbozaga qulf solib tarbiya qilar, madrasadagi oti yomong'a yirtilgan xoh yosh, xoh keksa umuman, talabalar majlisiga yaqinlashdirmas edi.

Kishi, avvalo, moxov yoki pes bo'lmasin: bo'ldimi, betdan bo'lmasa – yelkadan, qo'ldan suv ochmasa – oyoqdan, har holda oqaberadir. Shunga o'xshash jamiyat ham bir kasal bilan og'ridimi, uning har bir tabaqa yoki sinfiga, yana to'g'risi, fardiga<sup>2</sup> shu kasal siroyat<sup>3</sup> qilmay qolmaydir. Domla mudarris burodarzodasini madrasa mullabachchalaridan har qancha ehtiyot qilsa ham, yana amniyat<sup>4</sup> ostida emas edi. Madrasadan tashqarida ham Abdurahmonni ko'z ostig'a olg'uchi «mullabachchalar» yo'q emas edilar, masala chetlarning ko'z olaytirishig'a yetkanda, tabi'iy, domla mudarrisning qo'lidan hech ish kelmay qoldi.

Domla nazoratni eskicha davom etdirib, xotirjam yurg'anda bir necha juvonboz savdogarlar Abdurahmon bilan aloqa qilib qo'yg'an edilar. Domla mudarris erta-kech Abdurahmonni ko'z

<sup>1</sup> Varasat ul-anbiyo – o'zlarini payg'ambar avlodi hisoblaydiganlar. Bu yerda qo'sh-tirnoq ichida kelganligi tufayli aynan teskari ma'noda tushunish kerak.

<sup>2</sup> Fard (*arabcha*) – 1) bir, bitta, yakka, yolg'iz. 2) Sharq mumtoz she'riyatida bir bayt (ikki misra) dangina iborat bo'lgan kichik, mustaqil she'r.

<sup>3</sup> Siroyat – ta'sir qilish, ichiga olish, yuqish. Bu yerda yuqmoq ma'nosida kelgan.

<sup>4</sup> Amniyat (*arabcha*: omonlik; kechirim) – xavf-xatardan omonlik; xavfsizlik, bexavotirlik.

o'ngidan yubormas, xuftandan keyin darbozaga qulf solar, Abdurahmonni mehmonxonada yotquzib, so'ngra o'zi ichkariga uxlag'ali kirar; ziyofatka boriladig'an bo'lsa, o'zi bilan birga olib yurar edi. Yana shu holda Abdurahmonni qanday qilib buza olsinlar? Tassuf, buzg'an edilar. Bachchabozliqqa maxsus hunar va nayranglar ijod qilg'an omilkor savdogarlardan bir nechasi «Abdurahmoncha»ni yo'ldan ozdirg'an edilar.

Domla mudarris xotirjam ichkariga uxlag'ali kirgandan keyin mehmonxonaning ko'cha tomon darichasiga kichkina bir kesak tiq etib tegar, go'yo yeshinib yotqan Abdurahmoncha bu ishoradan so'ng turib kiyinar va sekingina darichani ochar eshik ochilg'an ko'chadan bir o'rim arqon to'p etib mehmonxonag'a tashlanar edi. Abdurahmoncha arqonning bir uchini mehmonxonaning darchasiga bog'lab, ikkinchi uchiga o'zi osilib ko'chaga tushar, arqonni bo'y yetarlik qilib yashirg'ach, narida kutib o'lturgan «odam o'g'risi» bilan birga bazm o'rnig'a jo'nar edi. U yerda bo'lsa besh-o'n «oshiqlar» Abdurahmonchani kelishi on bilittifoq «Buxoro amirligi»ga ko'tarib, amr-u farmonig'a itoat qilurlar:

«Mulla Abdurahmonjon, janobi oliy, garam, az sarashon gardam, balongni olay!<sup>1</sup>» kabi madh-u sanolarga «Abdurahmoncha» har bir ishni o'z tilagicha yuritar: may uchun soqiy bo'lar, zaifona ko'ylak, lozim va boshig'a kokil kiyib o'n olti yoshar qiz suratiga kirar; choyg'a labini tegizib «tabarruk» qilar; dutor, tanburga yo'rg'alab o'yunchi bo'lar; boshidag'i kokil bilan «oshiqlar»ni rahmsiz chamchilab sitamgar va zolimga aylanar, eng oxirda... Qisqasi bu bobdagi bor choramiz uchun ham yararliq holg'a kelgan yoki keltirilgan edi.

Uch yilgacha shu yo'sun «oshiqlar» ko'nglini ovlab kelib, bir kun sir ochilib qoldi. Domla mudarris bu nomuska chidalmay Abdurahmonni o'z uyidan quvladi. Abdurahmon tavba qilib, domla mudarrisdan, loaqal, madrasada turishni so'radi. Vositavasoit bilan izn hosil qilib, madrasada istiqomat qila boshladi. Endi ishrat navbati madrasa jigar so'xtalariga<sup>2</sup>... Ikki yil, chamas, madrasa afrodi<sup>3</sup> orasida chandir kabi sakkiz tarafdin tishlanib

<sup>1</sup> Garam, az sarashon gardam(tojik), balongni olay – aylanay, boshingga jonim fido, dardingni olay.

<sup>2</sup> Jigar so'xta – yoqimsiz, turqi xunuk. Bu yerda oshiq-u beqaror ma'nosida kelgan.

<sup>3</sup> Madrasa afrodi – madrasadagi shaxslar.



yurgʻandan keyin soqol-murti chiqib husn sarmoyasi zavolga yuz tutdi va kundan kun «bozor kasodlanib» xaridor ozaydi. Abdurahmon uch yil boʻyi savdogarlar orasida «axloq tuzatkan» boʻlsa, yana ikki yil madrasada turib tuzalgan axloqni «kamolotka» erishdirdi. Shuning uchun anvoʻi erkalikka, necha xil mukayifotka<sup>1</sup>, rang-barang «izzat, hurmatka» oʻrgangan koʻngli bu xaridorsizlik balosigʻa tuz sepkan yaradek achir edi. Koʻbni koʻrgan bu kichik bosh baʻzi uyat nayranglarga ham urinib koʻrar, masalan «vaqtsiz chiqqan» soqol-murtlarini moʻychinak<sup>2</sup> bilan terib, har kun oʻn qayta oynaga qarar, yangi xaridor topish maqsadida kun sayin bozor-rasta, koʻyguzarlar sayriga chiqar edi...

Maʼlumdirkim, doʻndiqchalar, avvalo, oqchasi koʻb, bel ogʻrigʻi koʻrmagan boylargʻa nasib boʻlurlar. Ular zerikib tashlagʻach, oʻrta hol «tashna»lar domigʻ<sup>3</sup> tusharlar. Soqol-murti chiqib davangilikdan<sup>3</sup> xabar kelgach, uchunchi tabaqa, yaʼni boʻyi yoʻgʻon, gʻoʻlaburlar<sup>4</sup> istifodasiga<sup>5</sup> kecharlar. Shunga oʻxshash bizning Abdurahmon ham moʻychinak ushlagan davrida shu uchunchi tabaqa – choyxonanishin, tavkargir<sup>6</sup> va boboyi banglar orasidan oʻziga zamin topdi. Uning bu uchunchi davridagi ahvolini yozishgʻa qalam maʼzurdir. Shu yoʻsun bu keyingi tabaqa orasida ham uch yil, chamasi, ish koʻrgach, ajoyib bir dunyodiyda, misli ozshaloq<sup>7</sup>, hamma sharoitlari bilan madrasalik bir bezori va chapan holda bachchalik davri bilan vidoʻlashdi. Chunki, bashara nongʻa chumoli yopishqandek soqol-murt bilan toʻlib, moʻychinakka soʻz berarlik boʻlmadi.

## XX Fasl. HUSHYORLIQ

Hozir Abdurahmon oʻzining yaqin moziysida usti shirniga belangan ot tezakdan boshqa bir narsa koʻrmaganidek, istiqbolida ham epaqaliq bir hol tasavvur qilolmas edi. Bir necha oylar nihoyatda ruhsiz, kayfsiz va darsiga ham havsalasiz davom etib yurdi. Goʻyo bu kunlarda benihoyat ichkulukdan soʻng bosh

<sup>1</sup> Mukayifot – mukofot.

<sup>2</sup> Moʻychinak (*forscha*) – qosh, kipriklarni terish uchun ishlatiladigan kichkina qisqich.

<sup>3</sup> Davangi (lik) (*forscha*) – besoʻnaqay, beoʻxshov, qoʻpol.

<sup>4</sup> Gʻoʻlabur (*forscha*: gʻoʻladay qilib kesilgan; gʻoʻla kesuvchi) – chorpahil, baquvvat (odamlar).

<sup>5</sup> Istifoda (*arabcha*) – foydalanish; foyda olish, ishlatish.

<sup>6</sup> Tavkargir – qimorda yutuqdan choʻtal oluvchi; choʻtalchi.

<sup>7</sup> Misli ozshaloq – satang ayollar kabi.

og'rig'i davrini kechirar edi. Shu yo'sun ko'b vaqt ruhiy xastaliq kechirib kutilmaganda jonlanib ketdi. Ya'ni «Aqoid»ning<sup>1</sup> sharhiga yaxshi tushunish uchun besh barmog'ini og'zig'a tiqqandek yeng shimardi.

Yuqoridag'i ruh tushish davrida ul moziysidag'i kabi erkalik, amr-u farmon va shuhrat uchun qayg'irgan, ko'b bosh og'ritib endigi shuhratni mo'ychinak iste'moli bilan emas, balki aqoid, sharh va havoshiy<sup>2</sup> vositasida topmoqchi bo'lg'an, ya'ni fardi g'oyasig'a<sup>3</sup> diniy olimliq libosini kiydirish fikriga kelgan edi. Besh yil «g'oya» uchun qattig' berilib, rutubatlik<sup>4</sup> hujrada zaxlab, salomatligi uchun umr bo'yi arimaydirg'an orig'liq, rangsizlik ortdirib yigirma sakkiz yoshida «xatmi kutub» qilishg'a<sup>5</sup> muvaffaq bo'ldi. Besh yilliq o'zgarishdan so'ng domla mudarris Abdurahmonning eski gunohlarini kechirgan edi. O'z yonidan bir muncha sarf etib, Abdurahmon uchun xatm to'yi qilib berdi.

Mulla Abdurahmon Qo'qon safariga hozirlanar edi. Ko'ngli Qo'qonda o'zini kutib turg'an ulamolliq shuhratiga; muftilik, qozi va a'lamlik mansabiga oshiqinar edi. Uning fikricha, Qo'qondag'i qarindosh-urug'lar ham yosh olimning istiqbolig'a hozirlik ko'rgandek edilar.

Shu yo'sun oshiqlar yor vasliga oshiqqandek mulla Abdurahmon ham o'z shahriga yelib-yugurib yetdi. Ul o'ylag'ancha istiqbolg'a butun Qo'qon ko'chib chiqmasa ham, qarindosh-urug'dan uch-to'rt kishi, mahalla keksalaridan ikkita savobtalab chol darboza yonida kutib oldilar. Bu soddacha istiqbol qilinish Abdurahmonning Buxoroda turib qilg'an shirin xayolig'a birinchi zarba edi. Uyiga borib tushti. Bir necha kungacha fotihaxonliq, hordiq chiqarish marosimlari davom etdi. Lekin bundan ham qanoatlana olmadi, bil'aks, jini otlandi. Chunki ziyorat qilg'uchilarning aksarisi mertuq-sertuq qavm-u qarindoshlar, uzoqyaqin ko'z tanish madrasa talabalari va bir necha mahalla imom-

<sup>1</sup> Aqoid (*arabcha*: aqidalar, qoidalalar) – e'tiqod qilinadigan narsalar. Bu yerda dinga oid alohida kitob nazarda tutilgan.

<sup>2</sup> Havoshiy (*arabcha*: hoshiya) – diniy kitoblardagi imlo va qoidalarga berilgan sharhlar.

<sup>3</sup> Fardi g'oyasi – Parvardigorning birligini anglash, tushinish g'oyasi. Bu yerda Ollohning yakka-yu yagonaligi g'oyasini diniy ilmlar bilan isbotlash nazarda ifodalangan.

<sup>4</sup> Rutubat (*arabcha*: namlik, zaxlik) – 1) biror narsadagi namlik, zaxlik; 2) g'am, musibat (*ko'chma ma'noda*). Rutubatli – 1) nam, zax; 2) g'am-g'ussali, kishi erkini bo'g'adigan; iflos, chirkini (*ko'chma ma'noda*).

<sup>5</sup> Xatmi kutub qiltmoq – madrasani tamomlamoq, ta'lim olishni tugatish.



lari bo‘lib, ul kutkan asosiy moyalar<sup>1</sup>, ya‘ni mudarris, peshvolar, mufti-ulamolar va bekdodalar, boobro‘ ashrof va boyonlar ziyoratchilar orasida aqalli ko‘z og‘rig‘i uchun ham ko‘rinmadilar. Bu ikkinchi zarba edi.

Ziyorat qilishg‘a «qo‘li tegmagan» ba‘zilar uzr maqomida o‘z uylariga «maxsus ziyofat» bilan chaqirarlar, deb kutdi. Baxtka qarshi, bu umid ham bo‘sh chiqdi. Bir necha qarindoshlarning titrab-qaxshab qilg‘an ziyofatlari bilan «uydan uyga o‘tib ne‘matlar ichida suzib yurish» xayoli ham «bir xayol» bo‘lib qoldi. Bu uchunchi zarba edi.

Bir oy o‘tmay qavm-u qarindoshlarningda ziyofatlari nihoyatiga yetib, beva onasining tuppasiga qanoat etishka majbur bo‘lib qoldi. Buxoroda o‘ylag‘ancha birar madrasaning mudarrisligi yoki bu topilmag‘anda mukarrifligigina emas, hatto narigi mahallaning imomatini olish ham qiyin keldi. O‘zidan ikki mahalla narida bo‘lg‘an hozirg‘i masjid imomatiga ta‘yin qilmoqchi bo‘lg‘an edilar, bunga ham moni‘ chiqdi; mulla Abdurahmon alhol sunnatni bajo keltirmagan, ya‘ni, uylanmay, tarki sunnat qilg‘an kishining imomatida nuqs bor, deyishib, mahalladagi ba‘zi taqvodorlar e‘tiroz qildilar. Shundan keyin bir necha yor-do‘stlar, to‘y chiqimini o‘zaro ustlariga olishib, uni uylan-dirish fikriga tushtilar. Buxorodag‘i «xayollar» zer-u zabar bo‘lg‘an<sup>2</sup> holda, mulla Abdurahmon uylanish sharti bilan haligi mahalla imomatiga o‘tdi. Hozir shunchalik past ishka ham bo‘yin egish zarurati bor edi...

Mulla Abdurahmonning sovcilari ibtadaan<sup>3</sup> Solih maxdumning qizi – Ra‘no uchun bordilar. Chunki Ra‘noning husni bu dahada mashhur, undan keyin Abdurahmonning o‘zi Solih maxdumda savod o‘qub yurg‘an fursatda yosh Ra‘noni ko‘rgan, uchunchidan – yosh olim keksa domlaning qiziga uylansa, yana bir husn bo‘lar edi. Ayniqsa, mulla Abdurahmon hanuz Ra‘noning erga berilmaganligi xabarini eshitkach, bu tasodifni istiqbolining xayrlik follari sirasiga kiritdi. Ra‘no bu o‘n yil ichida yana

<sup>1</sup> *Moya* (forscha: xamirturush, achitqi; zardob; manba; mablag‘) – biror narsaning asosini tashkil qilgan modda, narsa; o‘zak. **Bu yerda aslzodalar nazarda tutilgan.**

<sup>2</sup> *Zer-zabar, zer-u zabar* (forscha: ostki-ustki, ostida, ustida) – arab yozuvida unilarni ifodalash uchun undosh harfning osti va ustiga qo‘yiladigan diakritik belgilar. *Zer-u zabar qilmoq* – o‘stinustun qilmoq; tor-mor etmoq, yo‘q qilmoq. **Bu yerda ko‘chma ma‘noda puchga chiqarmoq ma‘nosida kelgan.**

<sup>3</sup> *Ibtadaan* – dastlab, avvalo, eng birinchi.



yetilgan bo'lsa kerak, deb to'yni kutmayoq uning xayoliy siyomosini quchoqlay boshladi. Maktabdor domlalar'ga qarag'anda o'z ilm va martabasini allaqancha yuqori qo'yg'anliqdan, Solih maxdumning quloq qoqmay domod qilishig'ga ishonar va bu kunmi, ertami, Ra'noni chindan og'ush etish uchun oshiqar edi. Lekin taqdir bunda ham uni aldadi. Sovchilar Nigor oyimdan bo'lmag'an uzrni olib keldilar: «Qizlari hali yosh emish, endi o'n ikki yoshqa kirgan emish...»

Mulla Abdurahmon xotinlar so'ziga ishonmay Solih maxdumning o'z oldig'ga mahalladan bir-ikkita keksani sovchi qilib yubordi. Bu sovchilar ham yana achchig'roq javob bilan keldilar. «Solih maxdum qizini o'rdada mirzolik qiladirg'an Anvar ismlik bir yigitka fotiha o'qub qo'yg'an ekan. Fotiha qilmag'anda, albatta, sizga berar ekan, ko'b afsus chekti».

Bu javobdan keyin Abdurahmonning dami ichiga tushib, o'z taqdirig'ga la'nat o'qudi. Ammo ko'nglida Ra'noni oladirg'an Anvar ismlik yigitka qarshi bir kek tug'ildi. Bu javob chindan to'g'rimi, nayrangi yo'qmi, deb o'rdada xizmat qiladirg'an Anvar otliq mirzoni so'rashtirdi. To'g'rilig'ini bilish ustiga hatto bu Anvarni kimligini ham xotirladi: o'zi Buxorog'ga ketar oldida Solih maxdumning maktabida o'qub yurg'an o'sha yatim bola emish. Uch-to'rt yillardan beri o'rdada mirzoliq qilib, necha tillo mohona olar emish... Bu so'rashtirib bilishdan keyin Abdurahmonning ichi yana yonib ketdi; Buxoroda xatmi kutub qilib kelgan bir «olim», aqalli bir mahalla imomatiga xarxashasiz o'talmasin-da, uning harom tukiga arzimagan bir besavod yatim va badnajot isqirt o'rdadan falon tillo vazifador bo'lsin va shu tufaylda Ra'no kabi bir qizni ham o'ziniki qilsin: bu, ayniqsa, kishi chidarlik gap emas edi...

Mulla Abdurahmon butun kamolatini ishka qo'yib, imomat va xatiblikka shuru' qildi<sup>1</sup>. Har kun qavmlarig'an amri ma'ruf<sup>2</sup>, nahyi anilmunkar<sup>3</sup> aytib, xususan, har hafta juma kuni amri ma'rufni kengroq doirada yuritib, ko'blarning ko'nglini eritishka muvaffaq ham bo'ldi. Izhori fazl niyatida qiling'an bu ko'z

<sup>1</sup> **Shuru'** (*arabcha*) – kirishish, boshlash. **Shuru' qilmoq** – biror narsaga kirishmoq; biror narsani qila boshlamoq.

<sup>2</sup> **Amri ma'ruf** (*arabcha*: yaxshilikka buyurish) – 1) savob ishlarga, bajarilishi islomiy amallarga da'vat etish; 2) shunday ishga bag'ishlangan marosim, ma'raka.

<sup>3</sup> **Nahyi anilmunkar** – (*arabcha*: yomonlikdan qaytarish) – gunoh ishlarni qilmaslikka da'vat etish; 2) shunday da'vatlarga bag'ishlangan marosim, ma'raka.

bo'yash ko'blarning diqqatini o'ziga jalb etib, hatto uning amri ma'rufini tinglash uchun juma kunlari chet mahallalardan og'ib, kishilar kela boshladilar. Bu muvaffaqiyatdan chatnayo'zg'an mulla Abdurahmon kuchangandan kuchanar, ayniqsa, orada xong'a tegishlik hukumatdor beklardan ko'rinib qolsa, jannat va jahannam ustidagi masalani darhol xong'a itoat, beklarga hurmat bilan ayriboshlab olar edi. Hammabop bo'lishg'a qarag'anda, ayniqsa, xonbop bo'lishg'a tirishar edi. Uning bu jonbozlig'i boshqa to'g'rilarda birar amaliy natijaga erishmasa ham, faqat bir vajida nihoyatda yaxshi samara berdi. Uning «daryoi fazli»<sup>1</sup>ga maftun bo'lg'an savdogarlardan biri qiz qarindoshini berib o'ziga kuyav qildi. Yaxshi oilaga kuyav bo'lg'anidek, shahardagi boshqa davlatmandlar bilan ham aloqa bog'ladi va ularning ziyofatlari vositasida ba'zi madrasalarning mudarrisleri, mukarrirlari bilan ham tanishdi, qisqasi, biroz burji ko'tarilayozdi. Faqat endi o'rdag'a yaqin lasha olsa... Ammo hanuz bu muyassar emas-da.

Imomning ko'ngli Anvar qarshisig'a ozg'ina kirlik ekanini o'qug'uchi yuqoridan ongladi.

Uning ko'nglidagi shu ozg'ina kir Anvarning ko'ta rilishiga tinchsiz edi.

– Nodon Anvar o'rdadan quvlanish yerida sarmun shiylilik masnadiga minmakchi.

Xolis muhokama ko'pincha muhokama bo'lib qoladir. Ammo g'arazlik fikr aksar so'zlaguchini sharmanda qila dir. Shunga o'xshash, mulla Abdurahmon ham muhokama siga ozg'ina g'araz aralashtirib, Safar bo'zchining achchig' haqoratig'a hadaf bo'ldi.

Shunday, ul Anvarga kekli edi. Shuning bilan birga Anvarga qarshi amalda bir ish qilish kuchidan ham mahrum edi. Balki, siz: «Endi Imom afandi uylanib olibdir, Ra'noga ehtiyoji qolmabdir, bas, shu holda kek saqlashg'a qanday mantiq bor?» – dersiz. Bu juda sodda muhokama. Aslida bu kek Ra'no bilan boshlang'an bo'lsa ham, hozirda doirani boshqacha ushlagan. Masalan, deysizmi? Masalan, Safar bo'zchi juda bilib so'zladi: «Siz shuncha yil Buxoroda o'qub kelib, nihoyati mahallaga bir imom bo'ldingiz, ul bo'lsa...»

Bitishka mahkum bo'lg'an kekni mana shu «necha yil

<sup>1</sup> Daryoi fazli – fazilatlar daryosi. Bu yerda ko'chma ma'noda nasihatlar ma'nosida kelgan.

Buxoroda o'qub kelganlik yoki Buxorog'a bormasa ham kimsan faloniy bo'lg'anliq» saqlab turar edi. Agar siz sodda bo'lsangiz, masalaga Safar bo'zchi kabi qarab «xu doy bersa, shunday» dersiz, yana gapga tushunmassiz. Abdurahmon kabi kishilarning tabiatiga tushunish, albatta, qiyin va tushunmagan ma'qul.

## XXI Fasl. YORLIG' BERISH MAROSIMI

Yorlig'ning kimnin ismiga yozilg'anlig'ini ertalabdan o'rdada har kim sezib qoldi. Devonda eski odaticha o'z ishini qilib o'rturg'uchi Anvarning yonig'a dam-badam mirzo va g'ayri saroy xodimlari kelib, ohistag'ina uni tabrik etib ketar edilar. Anvar tabriklarga iltifotsiz, oddiy vaziyatda, xong'a eshitdirilishi zarur, atrof hokimlaridan bu kun kelgan noma va arizalarning muhimini ahamiyatsizidan ajratib, xudaychiga<sup>1</sup> topshirish uchun tayyorlar, ba'zilarini birinchi xonada oldig'a dovot-qalam qo'yib daftar ustida o'lturgan mirzo, muftilarga havola qilar edi.

Sarmunshiy xonasida Anvardan boshqa yana ikki nomanavis bor edi. Bu ikkisi qog'ozg'a mixlangandek gap-so'zsiz savag'ich qalamni qirr-qirr qog'oz ustida yuritib turar edilar. Bu qovoqtumshug'i osilib ketkanlarning bittasi Shahodat mufti bo'lib, nomzadi xong'a manzur qiling'anlardan edi. Ikkinchisi shoir «Madhiy»ning sarmunshiy bo'lishini orzu qilg'an Kalonshoh otlig' yana bir peshqadam mirzo edi.

Birinchi xonadagi o'n beshka yaqin mirzolar ham turli turli vaziyatda: Sultonali mirzog'a o'xshag'anlar yer ostidan yonidag'isig'a kulib muomala qilar va ba'zilar Shahodat mufti kabi to'nini teskari kiyib olg'an ko'rinar edi. Anvar yonidag'ilarining bu o'zgarishlaridan siqilg'an sumon har bir arizani ko'rib chiqish orasi ularga qarab olar edi. Qarshisidagi ikkisi go'yo mum tishlag'an kabi so'zsiz edilar.

– Bu kundan meni mazax<sup>2</sup> qilib boshladilar, – dedi nihoyat Anvar, – go'yo men sarmunshiy bo'lar emishman...

Shahodat mufti savag'ich qalamini dovotka bir-ikkita tiqib olg'ach, ko'zi qog'ozda ekan, javob berdi:

– Bo'lsangiz, ajab emas...

– Yo'q, – dedi Anvar ariza buklab, – siz qishloqda bo'lg'a-

<sup>1</sup> **Hudaychi** – xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor.

<sup>2</sup> **Mazax** (*arabcha*) – hazil; ermak; maskara, kulgi; istehzo. **Bu yerda istehzo ma'nosida kelgan.**

ningiz sababdan kelguningizcha ishlar to'xtab qolmasin deb vazifamdan tashqari ishlarga urindim. Ertadan bu vazifani o'zingiz olingiz, taqsir, men bu mazoxlarga chiday olmayman.

Shahodat mufti qariyb butun ko'kragini yopqan bahaybat moshguruch soqolni qalam bilan taradi.

– Mazox bo'lmasa kerak, – dedi bilintirmaydigan entikib, – alhol yoshsiz, muhafazangiz butun, zerikish sizning uchun ayb bo'ladi... Biz endi bu ishni ko'b qilib zerikkanmiz...

– Albatta, – dedi muftining yonidag'i Kalonshoh mirzo ko'zini qog'ozdan olmagan holda, – mazoxlarga quloq solish kerak emas.

Anvar tabriklarni bir qadar haqiqatka yaqin ko'rar edi. Ammo ularga «mazox» deb ta'bir qilishi, o'zini ma'lum o'ng'aysizliqdan qutqarish va ularga ham yengillik berish uchun edi. Biroq Kalonshoh mirzoning keyingi so'zi yana uni ezib, ochiqdan ochiq bo'lg'an bu adovatka qarshi qanday muqobala qilishdan o'jiz keldi. Shu holda birinchi xonaning dahlizidan xudaychi ko'rindi va turg'an joyidan Anvarni chaqirdi:

– Mirzo Anvar!

Anvar, xudaychi uchun ajratqan arizalarni qo'lig'a olib o'rnidan turdi:

– Arizalar tayyor... Huzuringizga chiqarmoqchi bo'lib turg'an edim<sup>1</sup>. Xudaychi boshini chayqadi:

– Arizalarni hozircha qo'yib turingiz, – deb yerga ishorat qildi, – o'zingiz men bilan birga kelingiz.

– Qayoqqa, taqsir?

– Huzuri muborakka<sup>2</sup>.

Mirzolar bir-birlariga qarashib oldilar. Shahodat mufti bo'z-rayib hamrohiga qaradi. Anvar esa qo'lida arizalari bilan hayrat ichida edi. Dahlizda uni kutib turg'an xudaychi yana tanbeh qildi:

– Men sizga aytaman, Anvar.

Anvar, qo'lidag'ini o'z joyig'a qo'yib xudaychi orqasidan chiqdi. Xon taxtda edi. O'ng taraf kursida Abdurahmon oftobachi<sup>3</sup> va so'lda shoir mulla Niyoz domla qo'l bog'lab o'lturar edilar. Birinchi xonadan Xudoyor huzuriga kiradigan eshik-

<sup>1</sup> Ariza va boshqa gaplar xong'a faqat xudaychi tomonidan taqdim qilinadir (muall.).

<sup>2</sup> **Huzuri muborakka** – muborak zot huzuriga. Bu yerda **xon huzuri nazarda tutilgan**.

<sup>3</sup> **Mashhur oftobachi** – Musulmoqulning o'g'li (muall.). **Oftobachi** – xonlar saroyida xon, amir va uning mehmonlari qo'l yuvayotganda ularga oftoba tutuvchi lavozimli shaxs.

ning ikki yonida oybolta ko'targan ikki jallod surat kabi qotqanlar, ular qatorida xon ulug'lari – a'yon va saroy beklari chizilishib o'lturg'anlar edi.

Xudaychi «huzuri muborakka» ta'zim qildi...

– Chaqirding'ma?– dedi xon.

– Taqsir.

– Izn beramiz.

Xudaychi qulluq qilg'an ko'yi orqasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turg'an Anvarni «huzuri muborak» sari yo'lg'a soldi.

Anvar «huzuri muborak»ning eshigida to'xtab, ta'zim ado qildi va uning yonidag'ilarg'a ham yarim ta'zim ishorasini berdi.

– Ishlaring yaxshima, mirza?– deb so'radi xon.

– Duolari barakasida, qiblagoh, – dedi Anvar.

Xon mulla Niyoz domlag'a qaradi:

– Bu jigit bizning mirzalar orasida o'bdan ko'rinadi, – dedi.

Domla Niyoz o'rnidan qo'zg'alib oldi.

– Fayzi shohanshohiy.

– Men bu jigitni mirzaboshi qilmaqchi bo'ldim, – dedi xon va tizasi tegidan bir qog'oz olib, domla Niyozg'a uzatti,

– O'qung', domla.

Domla Niyoz o'rnidan turib, qog'ozni olib o'pdi, Abdurahmon oftobachi va unga ergashib birinchi xonadagi a'yonlar barobar o'runlaridan turishdilar.

Domla Niyoz turg'an ko'yi yorlig'ni o'qudi:

«Ba ismi subhonahu<sup>1</sup>. Anrullohi farizatun va amruno vobij<sup>2</sup>. Bizkim Farg'ona mamlakatining xoqoni sulton ibni sulton, a'ni Sayid Xudoyorxon so'zimiz: Julusi solisamizning<sup>3</sup> uchunchi sanasi mutobiqi<sup>4</sup> 1287-nchi hijriya<sup>5</sup> mohi safarning<sup>6</sup> 25-nchisi, ushbu yorlig'imizni berdik xo'qandlik mulla mirzo Anvarg'akim, mazkur mulla mirzo Anvar binni Salimboy sar'i sharif uzra ustivor turub, amrimizga inqiyod etib<sup>7</sup> devonbegi unvon

<sup>1</sup> Ba ismi subhonahu (*forscha+arabcha*) – yagona Olloh nomi bilan.

<sup>2</sup> Anrullohi farizatun va amruno vobij (*arabcha*) –Allohning amri farzdir, bizning amrimiz vajibdir.

<sup>3</sup> Julusi solisa (*arabcha*) – taxt egasi bo'lishning.

<sup>4</sup> Mutobiqa (*arabcha*) – muvofiq, to'g'ri keladigan; mos, uyg'un.

<sup>5</sup> 1287-nchi hijriya – milodiy 1872-yil.

<sup>6</sup> Hijriya mohi safarning – hijriy yil hisobida safar oyi. Safar (*arabcha*) – safar oyi Qamariya yil hisobida 29 kundan iborat ikkinchi oyning *arabcha* nomi.

<sup>7</sup> Inqiyod etmoq (*yoki qilmoq*) (*inqiyod arabcha*) – rioya qilish, ergashish; itoat, tobelik) – bo'ysunmoq, itoat qilmoq, bo'yin egmoq.





digar sadri munshiylik umuri<sup>1</sup> vazoyifalarimizni kama yanbag‘i<sup>2</sup> ado qilg‘ay deb. Adoyi hadama asnosi<sup>3</sup> biz amiri vazifa mutlaqal‘inon<sup>4</sup> dorussaltananing<sup>5</sup> haqqi shar‘iysig‘a xiyonat qilishdin ijtinob<sup>6</sup>, adolatimiz oyinasini danoat g‘uboroti<sup>7</sup> bilan xalaldor aylashdin parhez, arzi dodi fuqaromiz sur‘ati istimo‘ida<sup>8</sup> ihmol<sup>9</sup> va sustlik ko‘rsatmay intishori<sup>10</sup> adolatimiz ko‘shishida subhi shom mashg‘ul va mabzul<sup>11</sup>, diqqat va e‘tibori tom qilg‘ay deb va yana mazkur ismiga yorlig‘ maktub bo‘lmish itoatiga afrodi devonxonamiz ma‘murlar deb, muhri shohonamiz bilan ushbu yorlig‘ni ta‘kid va taqrir etdik».

Domla Niyoz yorlig‘ni tugatib, qog‘ozni manglayig‘a ko‘tardi va ikki qo‘llab Xudoyorg‘a uzatdi.

Xudoyor yorlig‘ni olib qarshida bosh bukib turg‘an Anvarga ishorat qildi. Anvar yugurib kelib, yorlig‘ni olib o‘pti va uni sallasiga sanchib, orqasi bilan yurib, ilgari o‘rnig‘a borib to‘xtadi.

Domla Niyoz Anvar tarafidan duog‘a qo‘l ochti.

– Davlati shahanshohi ro‘z-baro‘z afzun, dushmanovi amir al-mo‘minini sarnigun boshad. Olohi taolo soyai zillallahiro, az sari raiyatoni kam nakunad<sup>12</sup>...

*Hudonavdo, bigardoniy baloro,  
Zi ofatho, nigah doriy tu moro.  
Ba haqqi hardu giso‘i Muhammad,  
Zabun gardo zabardastoni moro<sup>13</sup>.*

<sup>1</sup> Devonbegi unvon digar sadri munshiylik umur – ikkinchi devonbegi lavozimi ishlarini.

<sup>2</sup> Kama yanbag‘i (*forscha*) – kam-u ko‘stsis, to‘liq, mukammal.

<sup>3</sup> Adoyi hadama asnosi – o‘z vazifasini bajarish vaqtida.

<sup>4</sup> Mutlaqal‘inon (*arabcha*) – mustaqil.

<sup>5</sup> Dorussaltana (*arabcha*) – mamlakat; xalq, yurt poytaxt. **Bu yerda xalq ma‘nosida kelgan.**

<sup>6</sup> Ijtinob (*arabcha*: uzoqlashish, saqlanish) – o‘zini tortish, tiyilish.

<sup>7</sup> Danoat g‘uboroti – pastkashlik, haromxo‘rlik illat (ko‘chma ma‘noda).

<sup>8</sup> Istimo‘id (*arabcha*) – eshitish, tinglash; hal qilish/

<sup>9</sup> Ihmol (*arabcha*) – loqaydtlik, bilib-bilmaslikka olish, eshitmastlik.

<sup>10</sup> Intishor (*arabcha*) – balanlashish, yuksalish, yoyilish.

<sup>11</sup> Mabzul (*arabcha*) – bag‘ishlamoq, harakat qilmoq.

<sup>12</sup> Davlati shahanshohi ro‘z-baro‘z afzun, dushmanovi amir-al-mo‘minini sarnigun boshad. Olohi taolo soyai zillallahiro, az sari raiyatoni kam nakunad – Shahanshohning davlati kundan kunga ortaverib, uning dushmanlari yo‘q bo‘lsin. Alloh taolo o‘z soyasini fuqaro boshidan kam qilmasin.

<sup>13</sup> Ey xudo, sen balolarni qaytarg‘uchidirsan,

Ofatlardan bizni saqlag‘uchidirsan.

Muhammadning ikki kokili hurmatiga,

Bizga g‘olib kelguchilarni zabun qil. (muall.).

Duo asnosi ayniqsa birinchi xonadagi a'yonning yig'i va riqqat ohanglik «omin, omin» sadolari «huzuri muborak»ni titratdi. Duodan keyin xudaychi ikki to'n keltirib, kimxobni domla Niyozga va qora baxmaldan tikilgan mirzaboshiliq xil'atini Anvarg'a kiydirdi. Kimxobni kiyib olg'ach, mulla Niyoz «saxovatda Xotami toydan, adolatda No'shirvoni odildan» ortig'roq ul janobning haqqig'a yana yangi duo va sanolar to'qudi, go'yo «amir al-mo'minin»ni ko'mdi va o'zi ham qaynadi. Bundan so'ng marosim itmomiga<sup>1</sup> yetib, Anvar sekin-sekin orqasi bilan yurib birinchi xonaga va undagi a'yonning tabriklariga ko'milib, dahlizga chiqdi.

Anvar devonxona sahniga yetkanda ichkaridagi kattadan kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilg'ali o'runlaridan qo'zg'aldilar. Hozir ba'zilarining ustida boyag'i «onglashilmovchiliqlar» go'yo bo'imag'andek, hatto mulla Shahodat mufti ham hech narsani ko'rmagandek, o'z umrida birinchi martaba Anvarning hurmatiga o'rnidan turdi.

– Muborak, muborak! Borakallo, mirzo Anvar!– dedi.

Ba'zi munshiylardagi yarim soatliq bu o'zgarishdan taajjub qilinmasinkim, buning sababi oddiy va ochiqdir. Sarmunshiy – demak, agarchi soqoli ko'ksini tutqan Shahodat mufti kabilarining bo'lsa ham xo'jasidir. Shu soatdan boshlab ularning taqdiri shu bir kishining qo'lidadir.

Anvar samimiy va riyo aralash tabriklardan ancha o'ngg'aysizlang'an edi. Boshidag'i yorlig'ni qo'lig'a olib, o'zo'zidan taajjublannamo atrofidagi mirzolar g'a qaradi:

– Janobning amirlari bilan, – dedi Anvar ularga xitoban, – eng og'ir va javobgarlik bir xizmatni o'z ustimga olishqa majbur bo'ldim. Bu majburiyatim o'zimga e'timod<sup>2</sup> qilg'animgdan emas, balki, sizningdek otalarim, og'alarimg'a takyagoh<sup>3</sup> deb ishong'animgdandir. O'ylaymankim, bunday majburiyatda qolg'an bir ukangizni, albatta, yerga qaratmassizlar va undan marhamatlarini ayamassizlar... Men sizlarning soyalaringizda tarbiyalandim, menga o'z shogirdlaringizdek muomalada bo'lib keldingizlar. Bu kun men rasman sizlarga boshliq bo'lish majbu-

<sup>1</sup> **Itmom** (arabcha: tamomlash, yakunlash; tamom bo'lish) – so'ng, oxir, nihoyasi.

<sup>2</sup> **E'timod** (arabcha: tayanch, suyanish; ishonish, ishonch) – samimiy, to'g'ri, odil deb hisoblab, qattiq ishonish, shunga asoslangan ishonch. **E'timodli(I)** – e'timod qilsa, ishonsa bo'ladigan; ishonchli.

<sup>3</sup> **Takya** (arabcha) – turar joy, makon, manzil.



riyatida qolg'an ekanman, yana hech ahamiyat yo'qdir. Maqsad: mundan keyin ham menga kechagi Anvar kabi takallufsiz muomalada bo'lishlaringiz va hurmatlar bilan meni ranjitmasliklaringizdir. Chunki sodda muomala yaqinlik va mehribonlik belgisidir.

– Bu kungacha biz sizni marhum mulla Muhammad Rajab-bekning shogirdi bo'lg'anlig'ingiz uchun ehtirom qilmadiq, – dedi javoban Sultonali mirzo, – balki, sizning iste'dodingizni hurmat qildiq. Mundan so'ng ham bosh mirzoling'ingizni emas, mirzo Anvarlig'ingizni ehtirom qilarmiz.

Mulla Shahodat mufti yer ostidan Sultonliga xo'mrayib qaradi va nos otib o'z joyig'a borib o'lturdi.

– Siz hamisha meni mubolag'angiz bilan uyaltirasiz, mulla Sultonali aka, – dedi Anvar.– Agar menga hurmat lozim bo'lsa, mubolag'a bilan emas, yana takror aytaman, bir qarindoshingiz qatorida takallufsiz muomala qilish bilan bo'lsin.

Fotihadan so'ng har kim o'z ishiga o'lturdi. Anvar ham baxmal to'nni yesha boshlag'an edi, yonig'a Sultonali mirzo keldi:

– Anvar, siz uyga borsangiz yaxshi edi.

– Nima uchun?

– Yorlig' olg'aningizni xabar qilish uchun shaharga hozir jarchi chiqar. Uyingizga sizni muborakbod qilg'ali kishilar kelsa...

– Avvalo, menim uyim yo'q. Undan keyin meni muborakbod qiladiring'an tanishlarim ham yo'q, – dedi Anvar qo'l siltab, – bundan xotirjam bo'lingiz.

–Yoshliq qilasiz, Anvar.

Anvar javob berish o'rnig'a kulimsirab qo'ydi va joyig'a o'lturib, arizalar ko'ra boshladi.

## XXII Fasl. ADRAS TO'N VA ISSIG' NON

### «FOJI'ASI»

Yorlig' olishning ikkinchi soatlarida butun shaharga bu xabar tarqalib ketdi. O'rda jarchisi bozor va urunish joylarda to'xtab:

– Ayyuhannos!<sup>1</sup> Bilmagan bilsin, eshitmagan eshitsin:

<sup>1</sup>Ayyuhannos (arabcha: ey odamlar) – odamlar-u odamlar. Olomonga qarata qilinadigan xitob, nido.

*Vaqtiki ajal paymonasi to'ldi,  
Munshiy mulla Muhammad Rajabbek o'ldi!*

*Fazl bog'ida ochilg'an bir gul,  
Ya'ni gul shoxig'a qo'ng'an bulbul.*

*Ba nomi mulla mirzo Anvar,  
Kamolig'a musallamdir<sup>1</sup> aksar.*

*Huzuri muborakdan olib yorlig',  
Maydoni qalamkashlikda qilur suxandonlig'.*

*Har kimsaningkim baxti kulsa,  
Shohiga jon-u dil ila xizmat qilsa.*

*Lutfi shohonaga sazovor bo'lg'ay,  
Atrofi zar-u zavar ila to'lg'ay!..*

Manzumasi bilan jar solib yurar edi. Kechagi xabarlariga kulgi va mazox tariqasida qarag'an shahar ulamo va ashroflari bu kungi haqiqat oldida har zamon yoqa ushlab: «Tavba, bu qanday bemazalik? Bir benom-u nishonga buncha iltifot!» der edilar. Shaharning aksariyat qismi bo'lg'an kambag'al kosiblar bu masala ustida bir xildaroq fikr qilib «kim bo'lsa ham o'zi insoflik bo'lsin, nima deding-a, Mamarayim?» kabi sodda jumla bilan o'z orzularining nimada ekanini gavdalantirar, ammo Anvarga ishi tushib, uning shafqatini ko'rgan Safar bo'zchi kabilar bu xabardan juda ham xursand: «Qilmishidan topti bu yigit, bo'g'ani juda ma'qul» deb, yangi mirzoboshining ta'rifini qilar edilar.

Maxdum bu xabarni ilgaridan kutib turg'an bo'lsa ham yana shoshib qoldi. So'yinchiga kelgan yigitni to'xtatib qo'yib, darhol ikki bolani mehmonxonani supurib joy solishqa buyurdi va boshqa bolalarni yoppa ozod qo'yib yubordi. Alpang'-talpang' ichkarriga kirib, o'qug'uchi qizlar ichida Nigor oyimni o'z yonig'a chaqirdi:

– Hay, – dedi, – Anvaringdan kishi keldi, sandig'ingni ochchi!

Nigor oyim maxdumning shoshib aytgan bu so'ziga tushunmadi.

– Anvardan nima uchun kishi keladi, sandiqni nega ochay?

– Hay, ahmaqсан, – dedi maxdum entikib, – Anvar yorlig'

<sup>1</sup> Musallam (arabcha) – qoyil qolmoq.

olg'an, so'yinchiga yigit keldi; sandiqni ochib, shunga bir narsa berib yuborayliq, deyman, tez bo'!

Nigor oyim ham shoshilinqiradi, uyga kirib, sandiqning kalidini topolmay to'rt tomonni izlar, maxdum dahlizdan turib uni koyir edi. Kalid topila bermagach, maxdumning toqati tugadi, chiqib qizlar ichidan Ra'noni chaqirdi.

– Topdim, topdim!– dedi Nigor oyim.

Maxdum uyga qaytib kirdi. Nigor oyim sandiqni ochib so'radi:

– Qanday to'ndan olay?

– Bo'zdan ol, bo'zdan.

Shu vaqt Ra'no ham uyga kirdi. Maxdum qizig'a qarab kuldi:

– Baxting-da, qizim, – dedi, – Anvar akang sarmunshiy bo'libdir. Ra'no kulimsirab chetka qaradi:

– Meni nega chaqirg'an edingiz?

– Sandiqning kalidini bilasanmi, deb chaqirg'an edim, kalid topildi. Nigor oyim bir bo'z to'nni olib, eriga ko'rsatti:

– Shunisi bo'ladimi?

– Ha bo'ladi, tashla.

– O'rdadan kelgan kishiga shu to'nni berib bo'larmikin?

Ra'no ham bo'z to'nga e'tiroz qildi:

– Berib bo'lmaydi, uyat. Maxdum o'ylanib qoldi:

– Bo'lmasa, – dedi ikkilanib, – jo'nroq adrasdan olchi...

Nigor oyim bir adras to'n olib maxdumning qo'lig'a berdi. Maxdum to'nni yoruqqa solib ko'rdi:

– Yo'q, adras hayf, Ra'no, – dedi to'nni taxig'a solib, – haligi bo'zni beravur.

– Bo'z to'n bergandan, bermagan yaxshi, – dedi achchig'lanib Ra'no, – arzimagan narsa uchun Anvar akamni uyaltirasizmi?

Ra'noning yonig'a Nigor oyim ham qo'shuldi:

– Kishi uyalg'ulik bo'lmasin, Ra'no.

– Hayf-da, hayf, – dedi maxdum, adras to'nni salmog'lab ko'rib, boyag'i shoshilish holati hozir yo'q, ammo yuzida achinish vaziyati bor edi.

– Uvol-da, uvol, qizim, ipagi juda quyuq ekan.

– Ipagi quyuq bo'lsa, hech narsa qilmas, – dedi asabiylanib Ra'no. – Kishining izzati-nafsi undan ham quyuq.

– Xayr, xayr, – dedi maxdum, adras to‘n bilan vido‘lashqandek.

– Sen Ra‘no, sochlaringni yuvib sal odamshavanda bo‘lib yursang, bo‘lmaydimi, qizim?

Maxdum shu so‘zni aytib chiqdi. Ra‘no maxdumning orqasidan nima uchundir kulib yubordi. Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi:

– Hay, Ra‘no!– dedi havlida ketib borg‘an maxdumga, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg‘a vaqt oz, bozordan issig‘ non oldirasizmi?

Bu gap maxdumga adras to‘nning alami ustidan tuz sepkan ta‘sirini berdi.

Havli o‘rtasida bosh qashinib qoldi va ko‘zini qisib, xotinig‘a qaradi:

– Juda qattig‘mi?– deb so‘radi.

– Juda qattig‘, hatto ushatishka ham qo‘lning kuchi yetmas.

Javob yana falokatliroq edi. «Xo‘b, non oldiraman» deyishka ham maxdumning majoli qolmag‘an holda boshini quyi solib, javobsiz tashqarig‘a jo‘nadi. Mehmonxona sahnida kutib o‘lturgan yigitka o‘z qo‘li bilan adras to‘nni kiydirdi. Yigit darbozadan chiqquncha ham maxdumning ko‘zi «hayf ketkan» adras to‘nda, hatto undan Anvarning kelayotqan xabarini so‘rashni ham unutkan edi. Havli supurg‘uchi bola suv sepmay changitib yuborg‘ani uchun uni «ablak, kuchuk!» deb koyidi. Mehmonxonada ko‘rpacha yozib turg‘an bolaning yonig‘a kelib, ko‘maklashdi va bolaning uquvsizlig‘idan ranjib, buni ham birmuncha achitib oldi.

– Sen chopib guzarga chiq, – dedi bolag‘a, joy solinib bo‘lg‘andan keyin.– Katta tolning tegida Sovur novvoyning do‘koni bor. «Maxdum domlag‘a yigirma dona non kerak ekan. Narxi qanchadan?» deb darrav so‘rab kel. «Maxdum domlag‘a» degin, «Arzon qilib aytar emishsiz, puli naqd emish» degin... «Yangi mirzaboshining o‘rdadan mehmonlari kelar ekan» degin... Yugur!

Bolani narx bilishka jo‘natib, havliga chiqdi. Havlidagi bola suvni ko‘b sepib, yerni loy qilib yuborg‘an edi, yana koyidi va darboza oldi – ko‘chaga ham suv septirib, ichkari kirdi.

– Qizlarni ozod qo‘yibsan, yaxshi, – dedi maxdum Nigor oyimg‘a.– Biz-ku shu xabarni kutib turg‘an edik. Shunday bo‘lg‘andan keyin, non-poningni to‘g‘rilab turmayсанmi; un bo‘lsa-

ku, bor, ablah, qani menga uch-to'rtta noningdan olib ko'rsatchi.

Ra'no onasining so'zi bilan qutidan besh-olti dona non olib dadasining qo'lig'a berdi. Darhaqiqat, bir-biriga o'xshamag'an nonlar tarashadek qotib qolg'an edilar. Maxdum urunib ko'rib, bittasini ham sindirishg'a kuchi yetmadi.

Ra'no, yuzini chetka o'gurib, kulib turar edi.

Maxdum urina-urina nihoyat o'zi ham kuldi.

– Zor qolg'uring juda ham qotipti-da, kun ham issiqda, Ra'no?

Bu so'zdan Ra'no battarroq kulib yubordi. Nigor oyim ham kulimsidi:

– Axir, o'zingiz kechagina men xamir qilay desam, koyidingiz, – dedi Nigor oyim.– Biz-ku, mayli, kuni bo'yi ishlab kelgan Anvarga jabr. Shunchalik ro'zg'or qilib, loaqal, yumshog'roq non yedirmasak... Kishi jufta uyaladi.

– Men issiq nonga bola yubordim, – dedi maxdum qattig' nonlarni Ra'noga berib.– Anvarga jabr bo'ladir, deb o'ylasang mundan keyin o'ziga loyiq, oz-oz non yopib tur. Sen bilan men bo'lsa, qattig' nonni ham yeya beramiz: jazzasi choyg'a bo'ktirish-da.

Maxdum aytmasa ham Nigor oyim Anvar bilan Ra'noga yashirincha yumshoq non yopib berar, faqat bu kun o'sha nondan bir-ikkita qolg'an edi. Maxdum endi non sotib olishni bo'ynig'a olib, tashqarig'a chiqdi. Narx bilib kelgan bolag'a yigirma pul berib, orqasi kuymaganini olish sharti bilan nong'a yubordi.

Anvarning «tanishsizlik va uysizlik» fikrining aksicha fotihaxonlar ham ko'rinib qoldilar, ikkinchi, uchunchi durkum fotihaxonlar kelgandan so'ng, maxdum Anvar oldig'a kishi yuborib, uni chaqirtirib kelishka majbur bo'ldi.

Shu kun kechkacha shaharning hamma tabaqalaridan ham fotihaxonlar kelib turdilar. Hatto Anvarning nodonlig'idan kulib yoqa ushlagan ulamolalar, boy va ashroflar muborakbodchilarning aksariyatini tashkil etar edilar. Chunki bu keyingi tabaqa zamonasozlik, muvoso<sup>1</sup> va tadbir orqasida yashag'uchidirlar. Anvar o'zini tabrik qilg'uchi ulamo va ashroflar yuzidan ochiq ravishda riyo, shaytanat va tama' o'qur, kambag'allardan sodda samimiyat ko'rar edi.

<sup>1</sup> Muvoso (arabcha) – murosa, kelishish.

### XXIII Fasl. KITOB SO‘ZI

Asrdan biroz ilgariroq edi. Maxdum darboza yonida muborakbodchi mudarrislardan birini ikki buklanib ta‘zim qilg‘an holda uzatar edi. Hazrati mudarris xayrlashqan joyida yana to‘xtab tomoq qirib oldi.

– Hay, mulla Solih, yana bir gapni sahv<sup>1</sup> qilibman, – dedi hazrati mudarris. Solih maxdum yugurib hazratning yonig‘a keldi. – Mirzoga aytishni ep ko‘rmadim; masalan, rivoyat va hokazo masalalarga hojat tushsa, bizdan begona qilmasin... Janobingiz ham shuni ta‘yinlab qo‘yasiz.

– Xo‘b, taqsir, xo‘b.

– Faromush qilmassiz, albatta?

– Xotirjam‘ taqsir.

Maxdum ulamo, amaldor va g‘ayrilardan shuning kabi siporishlarni<sup>2</sup> to‘rt-besh soatdan beri qabul qila-qila juda miyasi suyulg‘an edi. Hozirg‘i iltimosni ham o‘shalar qatorida bo‘yning‘a olib, hazrat mudarrisni jo‘natdi.

Nari-beri bo‘z sallasini boshig‘a chulg‘ab, sarpoychan kafshini shap-shub bosib, darbozadan ichkariga kirib bormoqda bo‘lg‘an Safar bo‘zchini maxdum to‘xtatdi:

– Xo‘sh, xo‘sh, uka, – dedi Safar bo‘zchig‘a.

– Yo‘l bo‘lsin sizga?

Chunki maxdum muborakbodchi kambag‘allar u yoqda tursin, hatto ulamo va boylardan ham hozir zerikkan edi. Bu zerikishka ikkinchi martaba non oldirishning ham aloqasi bor edi. Safar bo‘zchi ostona yonidan maxdumga qiyshayib qaradi:

– Labbay, taqsir?– dedi.

– Yo‘l bo‘lsin, sizga?

Mirzo Anvar inimga xudo martaba ato qilg‘an emish deb eshitdim, – dedi Safar bo‘zchi, – pirimni ziyorat qilay, deb kelyappan...

– Kelganingiz ma‘qul, illo o‘zi hozir juda charchab qolg‘anda, chetdan duo qilib tursangiz ham kifoya, uka.

Safar bo‘zchi boshini qashib, yana maxdumning aftiga qarab qo‘ydi:

– Ziyorat qilib chiqa beraman, taqsir. Boshqa gap yo‘q,

<sup>1</sup> Sahv (arabcha: e‘tiborsizlik, parishonxotirlik; xato, xatolik) – yo‘l qo‘yilgan xato, kamchilik.

<sup>2</sup> Siporish (forscha) – topshiriq, vazifa, buyurtma; farmoyish, amr; tavsiya, kafolat; o‘git, nasihat. Bu yerda iltimos ma‘nosida kelgan.



taqsir.

Maxdum Safar bo'zchining ilgarisiga o'tdi:

– Mayli-ku, uka, ranjitasiz-da.

– Sadag'asi ketay mirzoning, – dedi Safar bo'zchi maxdumning qatorig'a borib, – baraka topqurning o'zi ranjiydirgan yigit emas, xoksor-da, taqsir, ko'rsangiz bilarsiz-ku, men minan juda qadrdon-da, taqsir.

Maxdum asabiylashibroq Safar bo'zchining betiga qaradi. Safar bo'zchi ham maxdumga bir oz tikilib turg'ach, iljaydi.

– Ko'rsangiz bilarsiz, men minan juda qadrdon-da, taqsir, – dedi yana va maxdumga iltifot qilmay, ichkariga yuriy berdi. Bir necha martaba kelib Anvarning mehmonxonasig'a o'rganib qolg'an, shunga binoan bu to'g'rida maxdumning yordamig'a muhtoj ham emas edi.

Anvar mehmonxonada Shahidbek va yana bir sarkardanamo bila so'zlashib o'lturar edi. Safar bo'zchini dahlizda ko'rib o'rni-dan turdi. Ikkisi necha yillik qadrdonlar kabi samimiy ko'rish-dilar. Safar bo'zchi ko'zida yoshi bilan Anvarni tabrik qildi. Anvar unga o'z yonidan joy ko'rsatib o'lturishdilar. Safar bo'z-chining fotihasisiga anovi ikki bek arang qo'l ko'tarib qo'ydilar.

– Zakotchidan tinchmisiz?– deb Anvar kuldi.

– Xudoyg'a shukur, davlatingizda, mirzam.

– Bozorlar yaxshimi?

– Bir nav'i... Garchi tiriklik tebranib turadi, uka.

Safar bo'zchining boyag'i harakatidan achchig'lanib tash-qarida qolg'an maxdumning kimni ham bo'lsa ichkariga taklif qilg'an tovshi eshitildi. Safar bilan Anvarning so'zlari bo'linish-ka majbur bo'ldi.

Mulla Abdurahmon Anvar bilan yonma-yon o'lturg'uchi «do'sti» Safar bo'zchini mehmonxonaning dahliziga kirishida-yoq ko'rib qoldi va sariq tusi bo'zarib ketkan holda ichkariga qadam uzdi. Safar bo'zchining hurmati uchun, loaqal, qimir etmagan beklar ham mulla Abdurahmonning istiqbolig'a qo'z-g'alishdilar. Maxdum mulla Abdurahmon bilan Anvarni bir-birlariga tanishdirdi.

– Balki, xotirlarsiz, mirzo Anvar, – dedi maxdum, – siz manim qo'ling'a kelgan yillaringizda mulla Abdurahmon akangiz ham bizning maktabda o'qur edilar.

– Xotirimda. Xo'b salomatmilar, taqsir?

– Alhamdulillah, – dedi Abdurahmon va yer ostidan Safar bo‘zchig‘a qarab qo‘ydi, – martabalari muborak bo‘lsin.

– Qutlug‘, taqsir, qani, marhamat qilsinlar.

O‘lturishdilar, fotihadan so‘ng yana bir daraja ahvol so‘ra-shildi. Hozirgi tasoduf juda qiziq tushkan edi. Mulla Abdurahmon bu uchrashishdan nihoyatda o‘ngg‘aysizlang‘an. Anvarni tabrik etish uchun og‘iz ochishg‘a qodir emas va har zamon qarshisidag‘i «bema‘ni»ga qarab qo‘yar edi. Shu holda bir necha fursat so‘zsiz o‘lturishkandan keyin, Anvar ko‘bchilikni dastur-xong‘a taklif qildi va Shahidbek mulla Abdurahmonni so‘zga tortdi.

– Nima lavozimotdalar, taqsim?

– Imomatda, – dedi Abdurahim va yer tegidan Anvarga ko‘z yuborib oldi, – Buxorodan kelganimizdan beri imomatdamiz... Madrasada ham birmuncha mukarririligimiz bor...

– Ko‘b yaxshi ekan, imomatlari qaysi mahallada?

Bizning mahallada, – dedi so‘zga aralashib Safar bo‘zchi, – taqsimning ilmlari juda daryo, o‘zlari Buxoroda xatim kitob qilg‘anlar.

Shahidbek go‘yo ko‘ngil uchun yana:

– Ko‘b yaxshi ekan, – dedi.

– Mulla Abdurahmonning ilmi darhaqiqat yaxshi bo‘lg‘an deb eshitaman, – dedi maxdum.

Safar bo‘zchi mulla Abdurahmonning tilagiga qarshi yana so‘zlab ketdi:

– Yaxshiliqqa kelganda– yaxshi, biroq taqsimning tole‘lari bir oz pastlik qilib turadi. Bo‘lmasa, mudarrislik, muftilik, mirzolik – bularning bariga ham taqsim yetuk... Faqat tole‘ pastda, bek bobo. Mana endi mirzam otaliq qilib, o‘rdadan birar ish topib bersalar, taqsiming‘a ham oftob tegsa, ajab emas. O‘zlari ham bir haftadan beri mirzamning haqlarig‘a duoda edilar... a, taqsim, shunday emasmi?

Mulla Abdurahmon Safar bo‘zchining qarshisida hozir har bir rizolatka ham bo‘yin egar edi. Manglayidag‘i terini artib besaranjom ahli majliska qarab chiqdi va g‘uldirang‘ansumon:

– Shunday, – deb yubordi.

Maxdum Safar bo‘zchini mulla Abdurahmon tarafidan vositachilik uchun jo‘rttaga kelgan, deb o‘yladi.

– Mulla Abdurahmon o‘zimizniki, – dedi maxdum, –

albatta, mirzo Anvar qo‘lidan kelgan yordamini ayamas.

– Albatta, munshiy tariqasida o‘rdaga olinsa ham bo‘ladi, – dedi utta<sup>1</sup> bek.

Anvar va‘da berib qo‘yishni ep bilmaganlikdan, so‘zsiz ulturar edi. Mulla Abdurahmon har zamon manglay terini artib olar edi. Safar bo‘zchi tunovi kungi adabsizlikni taqsimning ko‘nglidan chiqardim, deb mulla Abdurahmonning ko‘zini uchratishka va ozgina bo‘lsa ham taqsimdan minnatdorchiilik olishg‘a tirishar edi. Bir muncha vaqt shu ko‘yi so‘zsiz o‘lturishkandan keyin beklar fotiha o‘qub qo‘zg‘almoqchi bo‘ldilar. Safar bo‘zchining yana og‘zini ochib yuborishdan qo‘rqib, hatto qimir etmay o‘lturgan imom ham beklarning fotihasiga qo‘shulishib o‘rnidan turdi. Safar bo‘zchi ham mirzoning haqiga duo qilib imomga ergashti. Chunki imom bilan birgalashib ketish orzusi, shu bahonada tunovi kungi past-bala<sup>h</sup>d gaplarni mulla Abdurahmonning ko‘nglidan chiqarish niyati bor edi.

Anvar bilan xayrlashib, to‘rt kishi barobar ko‘chaga chiqdilar. O‘ttuz qadam chamasi birga borib, Shahidbek o‘z havlisiga buruldi. Yana bir oz borg‘andan so‘ng ikkinchi bek ham boshqa ko‘chaga kirib ketdi. Mulla Abdurahmon ham Safarboy «do‘sti» bilan birga yurishni xohlamadi, shekillik, tez-tez adim tashlab hamrohlik aloqasini uzmoqchi bo‘ldi. Bunga qarshi Safar aka uch hatlab bir bosib, Abdurahmonning yonidan chiqdi. Bu holdan yana imomning fe‘li aynab, yo‘l ustida birdan to‘xtadi va Safarning aftiga bir turli mushuk qarashi qildi:

– Nega to‘xtadingiz, boravuring.

Safar bo‘zchi Abdurahmonning to‘xtag‘anidan xabarsiz ikki-uch adim nariga o‘tkan edi:

– Birgalashib boramizda, taqsir.

– Men siz bilan yurishni xohlamayman, jo‘nang, jo‘nang!

Safar bo‘zchi tushunolmay bir oz qarab qoldi:

– Nega, taqsir?

– Nega deydi-ya, ahmaq odam...

– O‘zlaringizni aytishlaringizga qarag‘anda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir ro‘ymolni yuvib qurutqancha ekan, – dedi Safar bo‘zchi, – bizlar bo‘lsa, to‘rt kundan beri shaytonni apichlab yuruymiz... Shunisi ham kifoya-da, taqsir.

---

<sup>1</sup> Utta – o‘sha yerdagi; narigi; anavi.

– Astag‘firullo, – dedi imom, – siz o‘sha kuni manim ustimga uch kunlik gap qildingizmi?

– Shaytonning ishida, taqsir, – dedi Safar, – axir, yana manim aytkanim bo‘ldi-ku, men bunga bir narsa deyaqmanmi? Nedir, kinani qo‘yayliq deyaqman-da.

Mulla Abdurahmon istig‘for<sup>1</sup> aytib yo‘lg‘a tushti. Safar bo‘zchi ham muloyimg‘ina uning yonida qo‘l qovushtirib jo‘nadi.

– Xo‘sh, kinani tashlag‘an bo‘lsangiz, – dedi yo‘lakay imom, – nega boya ularning oldida og‘zingizg‘a kelganini o‘tladingiz?

– Yaxshiliqdan boshqa hech gap aytmadim. Faqat ilmingizni maqtadim.

– Boshqa gap aytmadingizmi?

– Nima dedim, axir? Shunchalik ilmlari bo‘lsa ham, tole‘lari ozg‘ina pastlik qilib turadir, dedim. Bu to‘g‘ri gap emasmi, taqsir?

– Men sizga mirzodan xizmat so‘rab bering, deb vakolat bergan emas edim-ku.

– Vakolat-ku, yo‘q... Axir, tokay ilmingizni xor qilib masjidda yotasiz... Axir, biravni uka, biravni aka deb siz ham tuzukroq ishka qatishing-da, taqsir.

– Astag‘firullo... Balki, menga podshohliqdan ham shu imomat yaxshidir.

– Be-e-e, go‘rnimi, taqsir, – dedi Safar bo‘zchi, – u gapni qo‘ying, nafsilamri gap yaxshi. Shahardagi birarta mudarris domlani o‘shandaqa mirzoboshi ko‘tarsalar yo‘q dermi?.. Voy-boyov, taqsir, sizga ham o‘rdadagi bir mirzolikni bersa, deb: «Sizning haqingizga taqsim duoda bo‘ldilar», – dedim-da. Manim xolisligimni shundan ham payqasangiz bo‘lar edi, uka.

– Astag‘firullo, – dedi yana imom, – darhaqiqat, men uni shunday, deb duo qilg‘anmidim... Yolg‘onning nima keragi bor?

– Taqsim bo‘lsangiz ham, hali yoshsiz-da, – deb kuldi Safar.– Basharti rostini so‘zlab: «Sizning mirzoboshi bo‘lishingizni taqsim ko‘rilmagan edilar», – desam, xursand bo‘larmidingiz, vax-xax-xax, xex-xex-xex... Yo‘q, taqsir, o‘zingiz ham Buxoroda o‘qug‘an bo‘lsangiz kerak: kitoblar ikki joyda

<sup>1</sup> Istig‘for (arabcha: gunohni kechirishni, afv etishni so‘rash) – Xudodan gunohni kechirishni so‘rash, qilgan gunohlariga tavba izhor etib, «astag‘firulloh!» deyish.

yolg'on aytishni ma'qul degan ekanlar; bittasi— er-u xotinning orasida, ikkinchisi— ikki mo'minni bitirish uchun. Buni xudo rahmati domlam o'qub berar edilar. Shu gap qulog'imda qolg'an ekan, men durug'<sup>1</sup> aytkan bo'lsam, kitob so'ziga amal qildim-da, ikki mo'minni bitishtirish uchun so'zladim-da.

Mulla Abdurahmon yana og'iz ocholmadi. Chunki Safar bo'zchi «kitob so'zi» bilan uni yengib qo'ydi. Mahallaga kelib yetdilar. Safar bo'zchi kinani tamoman ko'nglidan yuvib tashlag'an edi. Shomni mulla Abdurahmon orqasida o'qush uchun masjidga kirdi. Jilovxonadagi namoz kutib o'lturgan qavmlar ichidan Samad bo'qoq, Shukur so'filar ham ko'rinar edilar. Safarning imom bilan birga masjidga kirishidan taajjublangan Samad bo'qoq uni turtib so'radi:

– Yarashdinglarmi?

– Kina degan ro'molni yuvib quritquncha, – dedi Safar bo'zchi, – yangi mirzoboshining uyidan domla bilan birga fotiha o'qub kelamiz. Hali eshitdingmi, o'sha manim mirzam yorlig' opti-ya.

Samad bo'qoq indamay chetka burulib ketdi. Shukur so'fi shom namozi uchun takbir tushura boshladi.

## XXIV Fasl. SHOIRNING SIRRI

O'n besh kunning ichida maxdunning mehmonxonasi rasmiy bir mahkamaga aylanayozdi. O'rdag'a ariza bilan murojaat qiladig'an har kim, hatto rasmiy kishilar ham avval maslahat so'rash uchun Anvarning yonig'a kelar edilar. Kunduzlari o'rda devonini boshqarish, ertalab va kechqurun o'z uyida xususiy kishilarni qabul qilish, albatta, Anvar uchun og'ir edi. Ammo bu og'irliq burundan sarmunshiy bo'lg'an kishining ustidagi qonuniy vazifasi hisoblanib kelganlikdan kishilarni uyda qabul qilishg'a Anvar majbur edi. Bu xususda kambag'allarning beradigan zahmatlari Anvarga uncha og'ir tushmasa ham, beklar, ulamo va boylarniki aksar chuchmal va mashaqqatli bo'lar edi. Chunki kambag'alning kengash so'rab kelishi juda muhim ishlar ustida, masalan: bir bekning qilg'an zulmi ustidan shikoyat, juda kambag'al bo'lg'ani uchun soliqlardan darxonliq so'rash va hokazo... Keyingilar esa, masalan: bir mudarris ikkinchi mudarris ustidan

<sup>1</sup> Durug' (arabcha) – yolg'on, aldov gap.

shikoyat qilib, bu to'g'rida domla Niyoz Muhammad shog'ovul-boshining qulog'ig'a andakkina ting'illatib qo'yishni so'rar; bir zakotchi ikkinchi bir zakotchining xiyonatidan «xolisona» shikoyat qilar, bir savdogar o'zining juda faqirlik'idan hasratlanib, zakotdan ozod qilinishini so'rar; agar zakotdan qutqazib yuborsa, Anvarning «ko'nglini to'latish»ka hozirligini ham bildirar edi. Anvar bu keyingi iltimoschilardan goh achchig'lanib, goh kular, har holda bir necha daqiqaliq va'dalar bilan ularni jo'natquncha esi ketar edi.

Bu so'ngg'ilarning tashriflari Anvarga qancha behuzurlik bersa, maxdumga o'shancha mag'ruriyat va lazzat bag'ishlar, hatto Anvar o'rdada bo'lg'an kezlarda ham ularni mehmonxonag'a qabul qilib, Anvar kelguncha unga qancha siporishlar va aksar siporishchilarning o'zlarini to'plab turar edi. Yuqorida Safar bo'zchi bilan voqi' bo'lg'anidek, maxdum ariza va kengashka kelguchi kosib va to'ni eskilar ila chiqisha olmas, o'lguncha ularni yomon ko'rib, «mirzo bu kun kelmaydi, siz bilan gaplashishka fursati yo'q, bema'ni bo'lmang» kabi gaplar bilan kambag'allarni eshikdan qaytarishg'a tirishar edi. Anvarning birarta kambag'al bilan «ezilishib» o'lturganini ko'rsa, ichidan achchig'lanib: «Kullushay'in yarji'u ilo aslihi... past hamisha pastligini qiladir... Sut bilan kirgan – jon bilan chiqar, maqoli ko'b to'g'ri so'z»,– deb o'ylar va ensasi qotib, chetka qarar edi.

Maxdum shu kungacha Anvar bilan Ra'nolarning to'ylarini qilishg'a shoshilmasdan kelar edi. Ammo bunda bir qancha sabablar bo'lib, jumladan – Anvarning Ra'noga qattig' bog'lang'anini yaxshi sezganligi va shuning orqasida Anvardan «xotirjam»ligi edi. Shoshilmasliqning ikkinchi, ham kuchlik sababi mumkin qadar to'yni uzoqqa cho'zib, shu vositada Anvarni sog'ish... Chunki to'y qilinib Ra'no Anvarga berilsa, bu daromadning qat'iyati kesilish ehtimoli bor edi.

Anvar bosh munshiylik darajasini olg'andan keyin maxdum ilgari «siyosat»ni yana davom etdirish va etdirmaslik to'g'risida ikkilanib qoldi. Zero Anvar hozir butun shaharga dong'i tortqan, shaharning ulamosi, ashrofi, bek va bekbachchasi Anvarni taniydir; Anvarga mazkur oliy tabaqalarning har qaysisi ham o'z qizini berib, kuyav qilishg'a tayyor. Bas, shu holda yana maxdum eski tadbir bilan amal qilsa mumkinmi?

Maxdum noiloj sarmunshiy bo'lishni yigirmanchi kunlarida Nigor oyim bilan kengashib, mirzo Sultonliga murojaat qilish majburiyatida qoldi. Toki mirzo Sultonali Anvarning rizolig'ini olib bersin.

Anvar kechqurun o'rdadan qaytishg'a hozirlanar edi. Xon a'yonlarga ruxsat berib haramga kirgan, o'rdaning kunduzlik xodimlari tarqalishib, faqat kecha beklari, xon soqchilari, doimiy xodimlar qolg'an edilar. Eng keyinga qolib Anvar bilan Sultonali mirzo ham o'rdadan chiqdilar. Ularning orqasidan o'rda darbozasi yopildi.

Sultonali mirzo Anvarning tashqi ahvoli bilan yaxshi tanish bo'lsa ham, uning ichki sirriga voqif emas, chunki Anvar xususiy hayoti, ayniqsa, Ra'noga aloqasidan hech kimga og'iz ochmas edi. Anvar maxdum havlisida turishini joysizliqdan yoki yoshliqdan shunda o'sib o'rgangandan, deb yurg'an Sultonali mirzo bu kun ertalab o'z uyiga kelgan maxdumning so'zidan keyin bir oz haqiqatka tushungandek bo'ldi. Ayniqsa maxdumning hech bir muqaddimasiz «Ojizamiz bilan Anvarning to'ylarini qilmoq niyatimiz bor edi. Shu to'g'rida janobingiz mirzo Anvardan to'yg'a urinishimiz uchun bir kalima javob olib bersangiz» deb, to'g'ridan to'g'ri faqat to'y vaqtini belgilashni so'rashi Sultonali mirzoga yana boshqa sirlarni onglatqan edi.

Ikkisi yo'l bo'ylab so'zlashib borar edilar:

– Manim so'zimga kirsangiz, albatta, bir ot olingiz, – dedi Sultonali mirzo, – ayniqsa, sizga endi piyoda yurish kelishmaydir.

Anvar boyag'icha yana kuldi.

– Ot minishning nima hojati bor, modomiki, tayyor oyog'otimiz bo'lg'anda...

– Ma'qul-ku, mendan so'ng yaxshi emas-da.

– Hozir yaxshi emas ekan, – dedi Anvar, – men bu xizmatdan tushkandan so'ng piyoda yurish yaxshi bo'ladimi?

– Nega tushar ekansiz... Ko'b yillar shu vazifada qolasiz. Anvar kulib qo'ydi:

– Lekin, manimcha, bir yil ham qololmasman... Agar og'am bo'lsangiz, xudodan so'rangki, bo'ynimg'a birar bo'hton ortilmay, azl qilinayin<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> *Azl* (*arabcha*) – bo'shatish, chetlatish: azl qilmoq (etmoq) – bekor qilmoq, chetlatmoq, bo'shatmoq (ishdan, mansabdan).

– Bo‘limg‘an vasvasalarga tushasiz, Anvar.

– Shahodat muftingnizning aftiga sira qaraysizmi, shoiringizning pichinglarini payqaysizmi? Agar shu jonivorlar mendan sarmunshiylikni tinchlik bilan olsalar, o‘zimni juda ham baxtlik kishilardan sanar edim... Shunchalik zo‘r xaridorlari turg‘an bir zamonda bu vazifani menga kelib to‘xtag‘anig‘a hanuz aqlim bovar qilmaydir... Bu voqi‘a yo meni o‘ta baxtiyorliqqa yoki foji‘ bir falokatka olib borar. Siz aytkancha vasvasamga, yoxud boshqa bir badbinligimga binoan keyingi ehtimol...

– Na Shahodat mufti va na shoirning qo‘lidan bir pullik ish kelsa, mendan domangir<sup>1</sup> bo‘la beringiz, – dedi Sultonali, – sizning sarmunshiy bo‘lishingiz har holda bir haqiqat edi. Negaki, ko‘b yillardan beri xiyonat, ig‘vo bilan kun kechirib yetti yoshliq go‘dakning ham nazarida ikki pullik obro‘si qolmag‘an muftining sirrini yolg‘iz mengina emas, butun shahar, hatto xonning o‘zi ham biladir. Bas, bu jihatdan uning yorlig‘ ololmaslig‘i aniq edi. Domla Burhon maxdumning bo‘lsa, shog‘obul domla bilan oralari buzuq; agar xon yorlig‘ni uning ismiga buyurg‘anda ham shog‘ovul domla yozmas edi. Mundan boshqa domla Burhonning loqaydligi, devonxonani ost-ust qilishi bo‘ladirg‘an savdo... Shoir «Madhiy»ning bo‘lsa yana ahvoli ma‘lum; xonni maxtash, o‘ziga yoqmag‘anni hajv qilish, xotinbozliq, bachchabozliq bilan ovora bir beta‘yin. Mundan tashqari, «Madhiy»ning yorlig‘ olomalig‘iga yana bir sabab bor edikim, bu sirni o‘rdadan faqat biz bir necha kishilargina bilar edik...

– Xo‘sh?

– Buni so‘ramang-da, kulmang.

– Xo‘sh, xo‘sh?

Sultonali mirzo kuldi va tovshini sekinlatib dedi:

– Shoir haramdagi kanizlarning biri bilan aloqa bog‘lag‘an ekan...

– Xo‘sh, undan so‘ng?

– Bu holni sezgan ikkinchi bir kaniz xonni bu aloqadan xabardor qiladir. Xon kanizni haramdan haydaganidek, shoirni ham huzuriga chorlab, o‘bdan og‘iz-bo‘g‘zig‘a, hatto enasining o‘sma-surmasigacha qoldirmaydir... Shoir arang tavba qilib

<sup>1</sup> **Domangir** (*forscha*) – etakdan tutuvchi. Birovdan xafalik joyi, ginasi bo‘lgan, o‘pka-gina qiluvchi; da‘vogar. **Domangir bo‘lmoq** – gina qilmoq, xafa bo‘lmoq.



qutiladir.

Anvar kuldi:

– Shuning uchun unga yorlig‘ berilmadi, deysiz?

– Albatta. Shoirning esi bo‘lsa bo‘yini boshqqa uzatmay, saroydan haydalmaganiga ham shukur qilsa, bo‘lar edi. Bino-barin, sizning xayollaringiz tamoman o‘runsiz. Yaxshi, hozir ko‘nmasangiz ham, piyoda yurib zerikkaningizdan keyin ot minishka majbur bo‘larsiz. Shuning uchun buni qo‘yib turayliqda, otdan ham zarurroq masalaga o‘taylik, masalan, boshingizni ikki qilish uchun, albatta, vaqt yetkandir, deb o‘ylayman?

– Qayoqdag‘i gaplarni topasiz, Sultonali aka.

– Hazili yo‘q. Uylanish sizga ham farz, ham qarz. Bunga qolg‘anda, albatta, bir uzr ko‘rsatalmassiz.

Anvar kulimsib qo‘ydi:

– Uylanishni ham bekor bo‘lishg‘acha to‘xtatib tursaq, deyman.

– Ana gap, – dedi Sultonali, – balki, umr bo‘yi shu vazifada qolib ketarsiz. Shu holda butun umr xotinsiz yurish, xax-xax...

– Kim bir vazifada umr bo‘yi qolg‘an bo‘lsin.

– Qolg‘anlar ko‘b. Masalan, Muhammad Rajabbek marhum; Muhammadalixon zamonidan beri devon bilan olishib kelar edi. Men sizga jiddiy aytaman: shahardan kimning qizini yoqtirsangiz ham, biz olib berishka harakat qilamiz.

– Rahmat...

– Chindan so‘zlayman, Anvar.

Anvar yarim jiddiy Sultonaliqa qaradi va uning o‘zidan javob kutkanini sezib:

– Xo‘b, men bu to‘g‘rida domla bilan kengashib, sizga javob berayin, – dedi.

– Bu kun ertalab domla biznikiga kelgan edi, – dedi Sultonali jiddiy turda, – domlaning so‘z daromadiga<sup>1</sup> qarag‘anda, sizni o‘ziga kuyav qilish fikri borg‘a o‘xshaydi. Sizning rizolig‘ingiz bilanmi, yo‘qmi, bunisini bilalmadim...

Anvar qizarindi. Javob berish o‘rnig‘a «natija?» degandek qilib unga savol nazari bilan qaradi.

<sup>1</sup> Daromad (forscha: kirim; foyda; boshlanish, ibtido) – 1) savdo-sotiq. mehnat. Ishlab chiqarish sohalariga yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan sof pul va boshqa xil tushumlar; kirim; 2) muqaddima, kirish; 3) biror maqsadni anglatish uchun shu maqsad atrofida uzoqdan boshlangan gap (bu yerda shu ma‘noda kelgan); 4) biror joyga kiriladigan yo‘l, eshik, yo‘lak.

– Domlanning gapiga qarag‘anda, boshqa taraflar bitkan ko‘rindi, – dedi Sultonali davom etib, – faqat ul manim vositamda to‘yni boshlash uchun sizdan izn olg‘ali kelgan ekan. Men bu to‘g‘rig‘a sizdan javob olib bermakchi bo‘ldim.

Anvar kuldi. Ammo bu kulish uning boyag‘i kulgularidan tamoman boshqa, ya‘ni baxtiyorliq kulgusi edi.

– Yaxshi, – dedi Anvar va o‘n qadam, chamasi, so‘zsiz bordi.– Yaxshi, men ertagacha o‘ylashib, sizga javobini beraman.

– Ma‘qul, agar bu kun domlag‘a uchrashsam, javobni ertaga olaman deyaymi?

– Albatta.

– Xayr, xudoning panohiga, Anvar.

– Xo‘sh, Sultonali aka.

Ikkisi ajralishdilar.

## XXV Fasl. HAYOT SHAM’I

Necha yillar Anvarning ko‘nglini mashg‘ul etkan bir muammo nihoyat orzug‘a muvofiq hal qiling‘andek, ya‘ni shubha ichida qizarg‘an muhabbat g‘unchasi visol xabari bilan ochilayozg‘andek va quruq tomosha bilan kechkan uning oy, yillari bu kun Ra‘no gulini iskash bashoratiga noil bo‘lg‘andek edi. Darhaqiqat, buncha yillardan beri maxdumning eshigida qolishi, opasi Nodiraning: «Men seni onamning uyiga charog‘chi bo‘larsan, deb so‘yingan edim. O‘z istiqboling uchun qayg‘irmay, bir kishini semirtirib yurishing aqlli yigitning ishi emas, Anvar» kabi ta‘nalariga bo‘yin egishi va hatto shu uydan siljimaslik fikrida o‘zi tilamagan vazifalarga ham urinishi yana shu bashoratni olish uchun emasmi?

Istiqbol so‘zini har kim har turlik tushunadir. Anvar o‘z istiqbolini yolg‘iz muhabbat orqaliq ko‘rar edi. Ota-onaning charog‘ini yoqish uchun, avvalo, o‘ziga bir sham‘i hayot topmoqchi va o‘zi sham‘siz turib ota-onag‘a charog‘ yoqishni aslo tasavvur qilolmas, ya‘ni istiqbol Anvarning fardi hayotida<sup>1</sup> yolg‘iz muhabbat edi.

Yigitlar o‘z istiqbollari qayg‘usida yangi bino, yangi ro‘zgor tuziydirlar va hatto dunyoda xayoliy ham bo‘lmag‘an rafi-

<sup>1</sup> Fardi hayot – shaxsiy, ichki, yashirin hayot.

qalari uchun kiyim tikdiradirlar... Anvar ersa, avvalo, Ra'no kabi bir rafiqag'a ega bo'lmoqchi va shu vositada boshqa masalalarga qaramoqchi edi.

Anvar Sultonali mirzoga boyag'i va'dani berib, bu xabar bilan yuragi shopiring'an holda uyga keldi. Mehmonxonada o'zini kutib o'lturganlar bilan nari-beri ishni bitirib, ichkari kirdi. Uning bu kirishi har kundagidek kishi bilmas, tasodufiy emas, Ra'noni ko'rishdan boshqa yana ma'lum bir ma'noni Ra'nodan o'qush uchun edi.

Ra'no ayvonning ustuniga suyanib kitob o'qur, Nigor oyim o'choq boshida ovqat pishirish bilan mashg'ul edi. Ra'no o'ziga qarab kelguchi Anvarga yer ostidan kulimsib olg'ach, bir oz ko'rinib turg'an oyoq uchlarini sarig' atlas ko'ylagi bilan yashirdi, atlas ko'ylakni yaxshig'ina turtib turg'an sirlik ko'kragi ustiga yon o'rim sochlarini olib tashladi. Anvar yaqinlashg'ach, sekingina kitobdan ko'zini olib, «hormang» dedi, yana kitobka yuz o'girdi. Anvar keldi va uning qo'lidag'i kitobka qaradi.

– Umar Xayyom, – dedi va Ra'noning qarshisig'a, havliga oyog' solintirib o'lturdi. – Qani, o'quchi eshitaylik.

Ra'no kitobni sekingina yopib, Anvarga uzatdi:

– Siz o'qung, men eshitay.

– O'zing o'qi, baxilsan-da.

– Men to'g'ri o'qiy olmasam, tunovi kungidek kulasiz.

– Jo'rttaga xato o'qub, o'zing kuldirding... O'qi, Ra'no

Ra'no kitobni yerga qo'ydi:

– Men o'qib zerikdim...

– Manim uchun o'qib ber, deyapman.

Ra'no yo'lakka ishorat qildi:

– Dadam kelib qoladi.

– Qayoqdan bu qadar uyatchan bo'lib qolding?

Ra'no tabassum bilan javob berdi va unda biroz qizarinish belgisi bor edi. Anvar bu holdan bir narsa sezgandek, so'zni boshqag'a burdi:

– Kun issiqmi, terlabsan, Ra'no?

Ra'no burni ustidagi bilinar-bilinmas marvarid rezalarini<sup>1</sup> ro'yoli bilan arttdi.

– Terlashim issiqdan emas, – dedi kulimsirab Ra'no, –

<sup>1</sup> Reza (forscha: ushoq, parcha; yog'och qirindisi) – 1) uncha katta bo'lmagan; mayda, kichik; 2) mayda narsa (suv yoki ter tomchilari haqida). Bu yerda shu ma'noda kelgan.

boshqa narsadan...

– Nimadan, qani?

Ra'no bir oz eski kulavich va munaqqidlik holatiga kirdi:

– Siz beklashkaningizdan<sup>1</sup> beri... sizni ko'rsam uyala-  
dirg'an bo'lib qolibman. Terlashim ham sizdan uyalg'animg'a...

– Kesatuq hunaring esingdan chiqdimi, deb turg'an edim.  
Har nachuk yodingda ekan. Tag'in, xo'sh?

– Xon janobning munshiyalar munshiysi bo'lg'an bir yigit-  
ning salobati borlig'ini kim inkor etsin. Albatta, bu to'g'rida  
kanizingizga haq berarsiz deb o'ylayman.

– Xo'b, haq berdik, – dedi kulib Anvar va o'rnidan turdi.–  
Basharti, kanizimiz uyalmasalar, bizning ham bir amrimiz bor:  
amr qilsaq, uyalmasmikinlar?

– Amringizga mahjubi inqiyod etishka<sup>2</sup> kanizingiz hozir.

– Kanizlarning o'z xo'jalari bilan o'lturib muomala qilish-  
lari mumkinmi? Amrga inqiyod etishdan ilgari shu to'g'rida  
javob bersangiz...

Ra'no irg'ib o'rnidan turdi, go'yo kanizlardek, ikki qo'li  
yonida va boshi ko'ksida afu so'radi:

– Inson mushtaq as nisyonast<sup>3</sup>... Kanizi betamiz<sup>4</sup> hamisha  
afu<sup>5</sup> atog'a loyiqdir, chunki zarxarid<sup>6</sup> xo'jasig'a sodiqdir.

Anvar, ochiq va o'yun-kulgini bir daqiqa ham qo'yib  
turolmag'an parining san'atkor shu vaziyatiga kulimsiragan  
ko'yi ancha qarab turdi, ham o'zining xo'jaliq ro'lini buzmay:

– Men sufada bo'laman, fursat topib yonimg'a chiq, senga  
aytadirg'an maxfuy bir so'zim bor, – dedi.

Ra'no kanizlar kabi bosh bukib «hozirman» ishorasini berdi  
va tabassumga moyil jodu ko'zlari bilan Anvarga ohista bosh  
ko'tarib qaradi... Anvar o'zini zavq ham kulgidan to'xta-  
tolmag'an holda tashqarig'a burulib jo'nadi. O'choq boshida  
mashg'ul Nigor oyim ham qizining keyingi harakatidan kulib,  
Anvarga qaradi. Lekin, Ra'no bilan Anvarning doimiy shuning-

<sup>1</sup> Beklashkaningizdan – bek bo'lganingizdan.

<sup>2</sup> Mahjubi inqiyod etmoq (yoki qiltmoq) – (majhub (arabcha) – yashirincha+inqiyod (arabcha) – rioya qilish, ergashish; itoat, tobelik) – yashirincha ahd qilmoq, yashirincha ergashmoq; yashirincha rioya qilmoq.

<sup>3</sup> Inson mushtaq as nisyonast – inson ba'zan xayolparastlik qilishi mumkin.

<sup>4</sup> Betamiz (forscha) – o'z aqli, farosati bilan bir ish qilolmaydigan.

<sup>5</sup> Afu – kechirim.

<sup>6</sup> Zarxarid (forscha: sotib olingan qul yoki kaniz) – 1) pulga sotib olingan, oltinga teng; 2) pulga, tilla yoki kumushga sotib olingan qul yoki kaniz. Bu yerda tengi yo'q ma'nosida kelgan.

dek o‘yunlarig‘a tushunib qolg‘ani uchun bu to‘g‘rida gap aylantirmadi:

– Oshim pishib qoldi, Anvar, – dedi o‘choq boshidan kulimsib, sufada bo‘lasizmi?

– Bo‘laman.

– Otangiz asr namozidan chiqib, bir joyg‘a borib kelaman, degan edilar. Sizning oshingizni suzub chiqara beraymi?

– Mayli.

– Tashqarida bolalar ko‘rinsa, aytib yuboringiz-chi!

– Xo‘b.

Anvar maxdumning qayoqqa borib kelishini o‘ylag‘an holda tashqarig‘a chiqdi.

Shomdan bir oz ertaroq edi. Yengilcha bir shamol sufa atrofidagi gullarni erinibkina qimirlatar va bu qimirlatishdan rayhonlarning o‘tkur isi o‘qtin-o‘qti dimog‘qa kelib urinardi. O‘n ikki-o‘n uch kunlik oy ko‘kning sharqi-janubi qismidan tussizgina bo‘lib ko‘tarilib kelmakda, quyosh botqan sayin uning chehrasi har zamon ochilib bormoqda edi. Shahar podasi qaytib, tevarakdan sigir va buzoqlarning ma-a-a-mu-u-u-lari, qo‘zichoq va qo‘ylarning ba-a-a-bu-u-u-lari eshitilib turar edi.

Anvar sufada o‘rda yumishlaridan ba‘zisini tahrir qilish bilan mashg‘ul ekan, ichkaridan Ra‘no chiqib keldi. Go‘yo Anvar Ra‘noning kelishidan xabarsizcha o‘z ishiga qattig‘ berilgan edi. Ra‘no ohistag‘ina Anvarning yonig‘a kelib, sufaga suyandi, ikki qo‘li bilan iyagini ko‘tarib, oraliqdan Anvarning tahririga qaradi. Anvar ham muloyimg‘ini kulimsib Ra‘noga ko‘z qirini tashlab olg‘ach, go‘yo iltifotsiz yana qalamini qoralab, qog‘oz ustiga bir-ikki kalima yozdi. Ammo uchunchi kalimaga o‘tkanda qalami qo‘lida o‘ylanib qoldi va boyag‘idek yonidag‘ig‘a kulimsib qaradi. Ra‘noning ham ko‘zi unga to‘qnashib bir oz bir-birlariga kulimsiragan holda tikilishdilar...

– Nega to‘xtadingiz, yoza bering.

– Sening qilg‘an ishing doim shunday, Ra‘no.

– Masalan?

– Masalan... Hamisha ish chog‘ida kelib, fikrni bo‘lasan.

– Men orag‘a so‘z aralashtirdimmi?.. Yoza bering, men shunday qarab turaman.

Anvar Ra‘noga o‘nglanib o‘lturdi:

– Foydasi yo‘q, endi fikrni o‘g‘irlading.

– Men fikr o‘g‘risi emasman... Qani yozing.  
Anvar qo‘lidag‘i yozilg‘an qog‘ozni qo‘yib, ikkinchi oq qog‘oz oldi:

– Endi boshqa narsa yozaman?

– Mayli yozing.

– Sen ham javob yozasan, xo‘bmi?

– Xo‘b.

– Tunovi kundagidek javob topolmasang, nima qilay?

– Ra‘no sufaga oyog‘ solintirib o‘lturib oldi.

– Yuzimga bir shapaloq uring, lekin saj‘ qofiyasi oson bo‘lish sharti bilan.

– Ma‘qul, – deb kuldi Anvar va Ra‘noga qarag‘an holda o‘ylandi.

Bu o‘ylanishdan Ra‘no qoshlarini chimirib e‘tiroz etdi:

– Ko‘b o‘yلامang.

Anvar javob berish o‘rnig‘a qalamini qoralab yozdi:

*Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylosi,  
Nasib o‘lmish menga gulshan aro gullarning «Ra‘no»si.*

Anvarning qalamidan qog‘ozga tushib borg‘an so‘zlarni ta‘qib etkan Ra‘no, qog‘ozdan ko‘zini olib qizardi va bosh chayqab teskariga qaradi.

– Qani javob, Ra‘no?

Ra‘no shu ko‘yi bir oz Anvarga qaramay turdi va qayrilib uning qo‘lidan qalam-qog‘ozni oldi-da:

– Uyat qilmaysizmi?– deb so‘radi.

– Manim yozg‘animni sen uyat qilmasang, men ham sening yozg‘aningni uyat qilmayman. Lekin shart shuku, manim ikki yo‘limg‘a ayni javob bo‘lsin.

Ra‘no yana bir oz o‘ylanib, Anvardan yashirincha yozdi:

*Agar or etsa Layli haqlidir qaysning jununidin‘,  
Ne baxt, Ra‘no xaridoring talab ahlining «Mirzo»si.*

Ra‘no yozuvni Anvarning oldig‘a tashlab, qizarg‘an va kulimsiragan holatda chopib gullar yonig‘a ketdi. Anvar javobni o‘qub zavqlandi:

– Ofarin, Ra‘no, lekin biravning ustidan ortiqchar mubolag‘a qilibsan

<sup>1</sup> Junun (arabcha) – jinnilik, telbalik; devonalik.

Ra'no gullar yonidan Anvarga jiddiy qaradi:

– Siz ham mubolag'a qilg'an edingiz.

– Maniki mubolag'a emas, – dedi Anvar, – masalan, sen hozir gullar yonidasan, ham chindan-da, gullarning ra'nosisan... Mana, men yana yoza boshladim; javobg'a hozirlan, Ra'no. Ra'no yugurib Anvarning yonig'a keldi va uning qalamidan tomg'an so'zlarni o'qub bordi:

*Hamisha xavfda ko'ngrim bu muhabbat intihosidin<sup>1</sup>,  
Meni ham etmasa majnun<sup>2</sup> debon Ra'noning savdosi.*

Ra'no keyingi misra'ni o'qub o'ylanib qoldi. Anvar hozirgi Ra'noning o'ychan ko'ziga anchagina tikilib turg'ach, kulimsidi:

– Javobi qiyin keldimi, Ra'no?

– Qalamni bering, – dedi Ra'no o'pkalagan qiyofatda qo'l uzatib, – o'ylag'ali ham fursat bermaysiz.

Yozdi:

*Muhabbat jomidin no'sh aylagan<sup>3</sup> ahli zako<sup>4</sup> bo'lmish,  
Fununi tilda<sup>5</sup> majnundir kishining kuysa safrosi<sup>6</sup>.*

– Yengding, Ra'no, yengding, – dedi Anvar, – lekin keyingi misra'da bir xato qilding...

– Masalan?

– Tibning aytishicha, safro emas, qon kuysa, kishi jinni bo'ladir...

– Qonning buzulishig'a avvalo safroning kuyishi kerak, safro kuymay turib qon buzulmaydir... Xo'sh, yana yozasizmi yoki yengildingizmi?

– Yengildim...

– Yengilgan bo'lsangiz, yutug'imni bering.

Anvar yuzini tutib berdi. Ra'no bo'shqina uning yuziga urib qo'ydi.

– Agar shu gal ham yengsam, – dedi Anvar achinib, – men seni urub o'turmas edim...

– Nima qilar edingiz?

<sup>1</sup> **Intiho** (arabcha) – oxir, nihoya.

<sup>2</sup> **Majnun** (etmoq) (arabcha:– jinni, devona) – ishq, muhabbat yo'lida devona bo'lmoq.

<sup>3</sup> **No'sh** (aylamoq) (forscha: ichish; shirin ichimlik) – shirin ichimlik ichmoq; may ichmoq.

<sup>4</sup> **Ahli zako** (zako (arabcha) – aql; farosat) – donolar davrasi.

<sup>5</sup> **Fununi tib** (arabcha+forscha) – tibbiyot fanlari.

<sup>6</sup> **Safro** (arabcha: sariq rang; oqimtir; o't) – odam jigaridagi bezlar orqali muntazam ishlab chiqiladigan ko'kimtir sariq suyuqlik; zarda, o't.

- Endi foydasi yo‘q.
- Ayting-da, agar menga ham ma‘qul bo‘lsa, urg‘anim hisob emas, bo‘shqina urdim-ku.
- Lekin sen uni qilolmaysan...
- Nega qilolmayman, qani ayting-chi.
- Qilolmaysan... – deb kuldi va bir oz aytishka kuchlanib turdi.– Men... men sening yuzingga qo‘lim bilan emas, og‘zim bilan urar edim...

Ra‘no qizarib yerga qaradi. Yuzga og‘iz bilan urishni ul o‘z umrida birinchi martaba eshitkanligi uchun qizarishqa va yerga qarashg‘a haqli ham edi. O‘zining yozg‘an muhabbatka oid she‘rlari va Anvarga bergan haligidek javoblari bilan chin bir mahbuba va ma‘shuqa bo‘lib ko‘rinsa ham, lekin keyingi gaplarga hanzuz oshna emas va yuzga og‘iz bilan urishlardan tamom begona edi. Bu gap Anvarning ham birinchi jasorati bo‘lib, ikkisida shu «yangilik»ning o‘ngg‘aysizlig‘ida qoldilar.

Gumbazi<sup>1</sup> nilgun<sup>2</sup> qandilida<sup>3</sup> sham‘i kofuriylar<sup>4</sup> yoqila boshlag‘an edi. Oy ham bir oz nurlanib, turmushka yangi qadam bosqan bu ikki yoshninn hozirgi hollaridan kulimsigandek ko‘rinar edi. Boyag‘idan bir muncha kuchaya tushkan shamol gulni gulga quvishtirib, go‘yo bu ikki yoshg‘a: «Siz ham man shu gullar kabi qovishing», – degandek bo‘lar edi. O‘ngg‘aysizlikda qolg‘an Ra‘no xijolat aralash Anvarga kulimsib bosh ko‘tardi.

- Men sizning «amringizga» muvofiq chiqq‘an edim.
  - Amringa muvofiqmi?– dedi Anvar va Ra‘noning ko‘ziga to‘g‘ri qarab iljaydi:
  - Shomdan keyin.
  - Nima shomdan keyin?
  - «Amringa» muvofiq chiqishing.
  - Hozir-chi?
  - Hozir mumkin emas.
- Ra‘no o‘pka bilan Anvarga qaradi va turib ichkariga jo‘nadi.

<sup>1</sup> **Gumbaz** (*forscha*) – qubba, ravoq.

<sup>2</sup> **Nilgun** (*forscha*) – moviy, ko‘k.

<sup>3</sup> **Qandil** (*forscha*) – chiroq, chilchiroq, sham, shamchiroq

<sup>4</sup> **Sham‘i kofuriy** – yorug‘lik tarqatuvchi chiroq. Bu yerda yulduzlar ma‘nosida kelgan.



## XXVI Fasl. NEGA YERGA QARAYSAN, RA'NO?

Kuchlik shamol ko'tarilib, boqchadagi har narsani to'rt tarafka buka boshladi. Ko'cha changlari ko'kka ko'tarilib, oy va yulduzlar nurini xiraroq bir holg'a qo'ydilar. Chigirtkalar chirillashi, kecha hasharotlarining nag'masi kuchlik shamol tovshi bilan kesildi. Sufa ustidagi so'ri har zamon to'rt tomong'a chayqalib, o'z ostida o'lturg'uchilarning betlarini goh ko'rsatib, goh yashirib, ular bilan o'ynashqandek tevarakka husayni g'ujumlarini bir-ikki bora uzib tashladi.

Anvar o'zidan nariroqqa tushkan bir shingil uzumni olib yedi va bir-ikki g'ujumni hamrohiga uzatti:

– Ma, Ra'no...

– Men yemayman.

– Men ham senga yegin demayman.

Ra'no o'z yonidagi g'ujumlarni yig'ib, Anvarga berdi.

– Mana uzum yesangiz... Menda nima yumushingiz bor?

– Barakalla... To'kilgan uzumlarni yig'ib ber-chi menga.

Ra'no yana bir nechta g'ujumlarni terib uzatti.

– Qani, yumishingiz?

– Senda nima yumishim bo'lsin, Ra'no. Har kungi o'zing bilgan gap... so'zlashib o'lturarmiz; uzum to'kulsa, menga terib berarsan, deb chaqirg'an edim.

– Dadam huftandan qaytib qoladi. Gapingiz bo'lmasa, men ketaman.

– Huftan hali o'qulg'an emas, azon hozir aytili. Basharti dadamiz huftanni o'qumay kelib qolsa, buning hiylasi oson: darrav anavi gulning tegiga yashirinamiz.

– Basharti dadam bizni qidirib gulning tegidan topsa, nima qilamiz?

– Nima qilar edik? Sen uyingga ketasan, men bo'lsam mehmonxonag'a.

– Ikkavingiz gulning tegida nima qilib o'lturgan edingiz, deb so'rasa, nima javob beramiz?

– O'zimiz o'lturgan edik, deymiz.

– Nima uchun, desa-chi?

– Qizingiz o'yalg'ani uchun, deymiz.

Ra'no kulib o'rnidan turdi va sufadagi ko'zi ilg'ag'an g'ujumlarni terib Anvarga berdi:

– Xayr, yumishingiz bo'lmasa men ketdim, shamoldan

qulog'im bitti.

– Gapim bor, gapim, – dedi Anvar, – kel, aytaman. Ra'no qaytib keldi.

– Ayting.

– O'ltur.

Ra'no Anvarning qarshisig'a o'lturdi. O'lturishi bilan kuchlik shamol yurib boshidag'i ro'yomolini uchurdi va olib borib Anvarning betiga yopti.

– Xa-xa-xa, shamol sizdan o'chimni oldi. Qani, gapuring.

– Anvar ro'yomni qisimig'a oldi.

– Hozir gapiraman, lekin shartim bor.

– Ayting shartingizni.

– Achchig'lanmaysan.

– Xo'b...

– Uyalmaysan.

– Ra'no masalag'a tushungandek o'ylanib qoldi.

– Ro'yomlimni bering.

– Ro'yomling uchib ketdi... Shartimga ko'ndingmi?

Ra'no javob bermadi. Anvar Ra'noning ola-chalpoq ko'laga<sup>1</sup> ichida xayoliy bo'lib ko'ringan yuziga qaradi. Uning hayo ichida oliyliq kast etkan jodu ko'zi Anvarning hozirgi maqsadig'a tushunganlikni ifoda qilar edi. Birmuncha vaqt shu ko'yi so'zsiz qoldilar. Shamol dam ko'tarilib, dam bosilar edi. Shamol asnosi gullar ham kelinlar kabi har tomong'a egilishib salom berishib olar edilar.

Anvar o'zini sufaning qorong'u qismig'a oldi. Ra'noga aytmakchi bo'lg'an so'zi ehtimol uning o'ziga ham o'ngg'ay-sizliq berar edi.

– Tug'ilg'andan so'ng o'sish, o'skandan so'ng ikav-ikav bo'lib yashash bor, – dedi Anvar va bir oz to'xtalib oldi. – Juftlik yolg'iz kishilar orasidag'ina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor... Masalan, tog'lardag'i ohular, o'rmonlardag'i to'tilar, chamandagi bulbullar ham yolg'iz emas, jufay yashaydirlar... Seningcha, qanday, men uni bilmayman, ammo juftlanishning, manimcha eng muhim bir sharti borkim, ul ham ikki tarafning muhabbat zanjiri bilan bir-birlariga qattig' bog'lanishlaridir... Biz ikav yoshliqdan birga yashab kelamiz, oramizda maxfiy

<sup>1</sup> Ko'laga (ko'lanka) – soya.



sirlarimiz yo‘q va bizning o‘zaro sirlarimizga voqif bo‘lg‘an chet kishilar ham yo‘q. Shunga binoan sen bilan manim har bir to‘g‘rida ham ochiq so‘zlashmagimizga hech bir mone‘liq bo‘lmas, deb o‘ylayman... Agar yanglishmasam, ikkimizning bir-birimizga muomalalarimiz samimiy va yuraklarimiz tepishi hamohangdir. Yoki yanglish so‘zladimmi, Ra‘no?

Ra‘noning yerga qarag‘an ko‘zi sekingina Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. Anvar unga bir oz qarab turg‘ach, so‘zida davom etti:

– Sen eshitdingmi, yo‘qmi, bilmadim, ular ikkimizni juftlashdirmakchi bo‘lib, bu kun mendan kishi orqaliq to‘y vaqtini belgilashni so‘ratqan edilar, men ertaga javob bermakchi bo‘ldim... Seni bu yerda tutishim ham sen bilan kengashib, ertaga shuning javobini ularga aytishdir... Nega yerga qaraysan, Ra‘no?

Ra‘no boshini ko‘tarib kulimsidi va yuzini chetka o‘girdi...

– Sen uyal, uyalma, ular bizni juftlashdirarlar. Marhuma Mohlarbibining fotihasi yerda qolmas. Agar sen shunday yura beraylik, desang, men ham ularga sening javobingni aytaman...

– Gapir, Ra‘no.

– Yura beraylik, – dedi Ra‘no yuzini chetka o‘girgan holda, – ularga nima og‘irlig‘i bor?

Ra‘noning bu so‘zi Anvarning ustidagi yukni ko‘tarib tashlag‘andek bo‘ldi.

– Ikkimizdan boshqag‘a, albatta, og‘irlig‘i yo‘q... Lekin, sen aytkancha, qachong‘acha yura beraylik? Ularga bir muhlat ko‘rsatishimiz kerak, Ra‘no.

– Qarig‘unimizcha...

– Qarig‘unimizcha, deb muhlat so‘raymi?

– O‘lgunimizcha...

Anvar kuldi va surulib Ra‘noning yonig‘a keldi. Go‘yo uni o‘ziga qaratmoqchi bo‘lg‘andek, yelkasiga qo‘l yubordi...

– Menga qara, to‘g‘ri javob ber, Ra‘no.

Ra‘no qulog‘i ostig‘a tekkan issig‘liqdan cho‘chib yuzini o‘nglagan edi, tasodufan labi haligi issig‘liqqa uchrashdi... Ilojsiz kabi labini ikkinchi haroratlik labdan ajratolmay, bir necha soniy kutib qoldi. Kuchlik shamol qo‘zg‘alg‘an edi. Shamol, go‘yo ko‘maklashkan kabi orqadan esib, Ra‘noni Anvar tomong‘a mayl etdirar edi. Terak orqasida qolg‘an oy ham kuchlik yelning ko‘magida terak boshidan bularga mo‘ralab oldi. Ikki yoshning

hozirgi holini yaqindan tomosha qilmoqchi bo'lg'an tussiz bir yulduz ko'k sahnining yerga yaqinroq qismig'a uchib tushdi...

– Javob ber, Ra'no.

– Bu holda men javob beralmayman...

– Javob bermasang, men ham seni bo'shatmayman.

– Dadam kelib qoladi...

– Dadangdan bu kun javob oldim.

Ra'no Anvarning iyagi ostig'a so'l chakkasini qo'yib chetka qaradi.

– Siz xohlag'an vaqtda bo'lsin.

– Menga qolsa, ertaga...

– Mayli...

Anvar iyagi ostidag'i muloyimlashqan qizning yuzidan o'pti va uning to'zg'ig'an sochlarini to'g'rilab, hayotbaxsh kokilarning muattar bo'yini uzoq hidladi.

– Chin so'zla, men sening ra'ying bilan ularga javob aytmakchiman, Ra'no.

– Ko'klamga...

– Chiningmi?

– Chinim.

– Xo'b bo'lg'ay. Men ertaga, to'yimiz ko'klamga bo'lsin deb javob aytaman... Yerlar ko'k gilamlar bilan bejalganda, har tarafni binafsha chechaklari bosqanda, qushlar uya qayg'usini chekkanda biz ham to'y qilarmiz; chimildiqda baxt sozini tinglab, istiqbol kuyini kuylarmiz...

– Shundaymi, Ra'no?

– Shunday...

– Undan so'ng manim og'ushimda shuning singari dadang kelib qolishidan qo'rqib, kishi qo'lig'a tushkan qush bolasidek tipirchilamassan. Shu husning, shu malohating va shu latofating bilan tamom meniki bo'larsan, shundaymi?

Ra'no javob bermay, Anvarning og'ushidan o'zini qutqarib o'rnidan turdi. Sufaning zinasiga borib kafsihni<sup>1</sup> kiydi va Anvarning quvlashidan qo'rqib, sapchib yerga tushti...

– Javob aytib ket, Ra'no.

– Ha, shunday, – dedi Ra'no, gul yonida ro'yomolini to'g'rilab.

<sup>1</sup> Kafsih – kovush.

- Endi sizning oldingizga chiqmayman.
- Nega chiqmaysan?
- Negaki juda yomon kishi bo'libsiz... Men ayamga aytaman.

Anvar kuldi.

- Nimani aytasan?
- Hammasini aytaman.

Shu vaqt o'rta eshikdan kirib kelgan maxdum ularning so'zini bo'ldi, ichkariga ketib borg'an Ra'noni to'xtatib: «Anvar akangga choy berdingmi, qizim?» – deb so'radi.

## XXVII Fasl. ZULM O'CHOG'I

Xudoyorxon<sup>1</sup>ga 1283<sup>1</sup>-nchi yilda uchunchu martaba taxtka chiqish nasib bo'ldi. Uning oxir<sup>2</sup>ga saltanati xonliq istibdodining achchig' zulm va ta'addillarining jonso'z qora sahifalarini tashkil etadir. 1283-nchi hijriydan 1292-nchigacha bo'lg'an sakkiz yil, Xudoyorning erkin nafas olib, Farg'ona ustida o'zi tilagancha qamchi o'ynatqan va zulm tig'ini kambag'allar qoni bilan sarbast bo'yag'an so'ngg'i davridir. Mamlakatni obod qilish bahonasi bilan 1284-nchi yilda Qo'qon kosiblarini haqsiz – muft<sup>2</sup> ishlatib yangi rasta, karvonsaroy, paxtasaroy va kopponlar<sup>3</sup> bino qildirdi. 1285-nchi-yilda Qo'qonning Urganch mavze'ida mashhur Oqsaroyni soldirdi, uzoq joydan arig' qazitib kelib, Oqsaroy atrofini sug'ortirdi. Issig' kunlarda salqinlash, malika xonimlar bilan ishrat qurish uchun «Bog'i Eram» yasatdi. Onasi Hokim oyimning vasiyatiga muvofiq, 1286-nchi yilda «Hokim oyim madrasasi» deb mashhur madrasani, yana shu yilda Amir Umarxon tarafidan asosi qo'yilg'an ma'lum yangi o'rdani ham tevaragida bog' va gulzorlari bilan ishlatib bitirdi<sup>4</sup>.

1286-87-nchi yillarda «Ulug' nahr», «Xon arig'» deb mashhur arig'ni qazitdi. 1287-nchi yilda o'z nomidagi «Madrasai oliy»ni va «Daxmai shohon»ni, 1288-nchi yilda Qo'qonning eski qalandarxonasini buzib, yangidan ta'mir, ham o'lgan og'asi Sultonmurodxon ismiga madrasa bino qildirdi. Va ushbu yil o'g'li

<sup>1</sup> Milodiy 1864-1865-yillar

<sup>2</sup> Muft (*forscha*) – bepul, tekin.

<sup>3</sup> Koppon – ombor.

<sup>4</sup> Eski o'rda Shahruxxonning o'g'li Abdulkarimxon tarafidan 1145-hijriya miyonalarida bino qiling'an, Xudoyorning orzularig'a javob beralmaydirgan holga kelib eskirgan edi (*muall.*).

O'rmonxonning xatnasi uchun bir yuz yigirma kun osh berib, to'rt oyliq to'y e'lon qildi. Shundog'ki, har kun ikki yuz qozon osh damlanar, sakkiz yuz tanur non yopilar, ikki yuzlab uloq berilar, mamlakatdan to'yg'a kelguchi a'yong'a har kun minglab to'n kiydirilar edi.

Bu qadar saxovat, bunchalik dabdaba, albatta, xazinadagi oltinlar kuchi bilan bo'lg'andir, deb ba'zilarning ko'ngliga kelar. Xonlar va podshohlar xazinasidagi oltinlar manba'i ham fuqaroning bilak kuchidir. Lekin Xudoyorning saxovatpeshaligi va ma'muriyatparvarligi mehnatkashning xazinaga oltin suratida yig'ilg'an kuchidan emas, bevosita bilak kuchidan, ko'z yoshidan edi. Chunki Muhammadalixon davridan boshlang'an (1240) o'zaro taxt talashi, o'zbek-qipchoq janjali va boshqa to'polonlar xazinani yalab-yulqqan. Xudoyor 1283-nchi yil taxtka o'lturishida eshigi ochiq – bo'sh xazinagagina ega bo'lg'an edi.

Bu «ma'muriyat davri» sanalg'an besh-olti yillar Farg'ona fuqarolarining omhuzn<sup>1</sup>lari, qora kunlari bo'lg'an edi. Xudoyorning Sirdaryodan suv chiqarish mojarosini misol uchun olayliq.

Xonning ra'yi suv chiqarishg'a to'xtadi. Xazinaning bo'shlig'ini, o'ylang'an ishning nihoyatda ulug'lig'ini andisha qilmadi. Qalamravidagi<sup>2</sup> barcha shahar va qishloqlarg'a sarkorlar, cho'g'ollar tarqatdi. Ular xalqdan soliq yig'ishqa, yordam to'plashqa buyurilgan edilar. Bu ixtiyoriy ravishdagi hozirlikdan so'ng, «mamlakatimdagi har bir xonadon bitta ketman va bitta mardikor bersin!» deb istisnosiz umumiy bir farmon ham bo'ldi. Qamchisi ko'kda toblanib, xanjari zahar sochqan «xon hazratning buyrug'ig'a» kim qarshi bora olsin. Har bir oila, garchi, ro'zg'or boshlug'ini bo'lsa ham, bitta ketman bilan xon ta'yin qilg'an joyg'a yo'llay boshladi. Boylar bitta mardikor yollab berish ustiga ot yoki arava ham topishqa majbur edilar.

Eni olti, bo'yi (chuqurlig'i) besh gazdan o'n besh gazgacha qaziladig'an arig'ning uzunlig'i o'ttuz chaqirim va shu o'ttuz chaqirimliq arig' qazilib bitkanda, Namangan va Andijon tumanlaridan ikki ming botmong'acha yer sug'orilar edi. Shu yo'sun arig' qazila boshlandi. Lekin ishchi ko'b, oziq-ovqat yo'q edi. Boylar kishi yollab qutulg'anlar, o'ttuz chaqirimliq arig' xatiga

<sup>1</sup> Umhuzn – umumiy tashvishlar, barchaga kelgan g'am.

<sup>2</sup> Qalamravlar (*arabcha+forscha*) – qalami yuruvchi; ta'sir doirasi, hokimiyat chegarasi. Biror hukmdorning hukmi yuradigan hududi va uning qo'l ostida bo'lgan yerlar.

bola chaqasini och tashlab, ketman ko'tarib kelgan nuqul mehnatkash, kosib va dehqonlar chizilg'anlar edi. O'z yonlaridan sarf qilish uchun oqchalari, hukumat tarafidan beriladigan ovqatning salmog'i yo'q edi. Issig' quyosh ostida, giyohsiz cho'l bag'rida ketman odatdagidan ko'broq yem talab qiladir. Arig' qazuvchilarning ovqatdan sillalari qurib, iliklari puchaygan, yerdan o'n qadoq tuproq olib irg'itishqa emas, hatto ketmanning o'zini ko'tarishka ham darmonsiz edilar. Xon tarafidan ular ustiga ishboshi qilib belgilangan sarkorlar, ochliq yalqovlig'ini chinga hisoblab, quloq eshitmagan so'kishlar bilan bechoralarni tahqir etar, sulayib yiqilmag'uncha ketmanni tashlatmas edilar. Har o'n besh-yigirma kunda arig' boshig'a kelib turg'uchi xon, sarkorlarning si'oyati<sup>1</sup> bilan har bora bir-ikki mehnatkashni yalqovliqda, o'ziga itoatsizlikda ayblab, ko'bachilik ko'z o'ngida bo'g'izlatar va har gal kelib ketishida shuning singari mazlumlar qoni bilan yangi «Xon arig'»ni namlar turar, bu zulmni o'z ko'zlari bilan ko'rib turg'an bechoralar ochliqqa, darmonsizliqqa qaramay jon achchig'ida ishka yopishar edilar.

Shu yo'sun zulm zarbi ostida nihoyatda ulug' ish bir yilga ham qolmay itmomig'a yetkan<sup>2</sup>, ming chaqirimlar bo'ylab Sirning sirlik suvi kumush kabi oqqan, giyoh unmagan cho'llar mehnatkashlar qoni bo'lsa kerakkim, xonning ma'muriyatparvarligi, ya'ni uning madrasalar, to'rt oylab to'y berishi xazinada asrlardan beri yig'ilib yotqan oltinlarni sarf qilib emas, to'g'ridan to'g'ri fuqaroni muft, majburiy ishlatish yo'li bilan edi.

Xonning garchi zulm bilan bo'lsa ham solg'an madrasalariga, qazdirg'an arig'alarig'a tahsin qilg'uchi, «zolim bo'lsa ham ma'muriyatparvar ekan» deguchi ba'zi biravlar oramizda topilib qolur. Shuning uchun xonni «ma'muriyatparvar» qilg'an omillar ustida to'xtalib o'lamiz:

Xon ikki martaba taxtdan haydalib, anchagina tajriba ortdirg'an, uchunchi martaba taxtka o'lturishi madaniyatlik o'rus istibdodining Toshkandin olib Xo'jandga ham qo'l uzatqan sanalarga to'g'ri kelgan edi. Bu kungi sharoit tajribalik xonni boshqacha siyosat ushlashka majbur etar edi. Nihoyatda qattig' qo'lliq bo'lish, yuqori tabaqa hisoblang'an ulamoni, ashrofni

<sup>1</sup> Si'oyat – tuhmatchi; chaqimchi.

<sup>2</sup> Itmom (arabcha) – tamomlash, yakunlash tamom bo'lish; yakun, so'ng, oxir. Itmomiga yetmoq – oxirlamoq, tugamoq.

o'ziga qaratish lozim va taxtiga ajdaho kabi og'iz ochib kel-  
makda bo'lg'an o'ruslarga qarshi o'z madaniyatini qurib, javob  
berishi kerak edi. Shuning uchun mehnatkashni rahmsiz ishlatib  
madrasalar bino qilmoqda, arig'lar chiqarmoqda, saroy va  
rastalar, qalandarxona va o'rdalar yopmoqda edi. Abdukarim-  
xondan beri o'nlab xonlarga yarab kelgan o'rdani bo'zib, yangi  
o'rda bino qilishi o'z kayfiga qarag'anda ham o'ruslarga jonlilik  
ko'rsatish, yaltirasin sha'n-u shavkat bilan Farg'onani o'z qo'li-  
da saqlab qolish uchun edi.

O'chadirg'an charog' yoqin o'chadir, maqoli kabi Turkiston  
xonlarida siyrak ko'rilgan bu ma'muriyatparvarlik, bizga qolsa,  
shu omillardan tug'ilg'an va bunda samimiy hech narsa yo'q edi.

## XXVIII Fasl. HARAM

Yangi o'rda yuqorida yozg'animizdek, haqiqatan shukuhlik,  
xushmanzara bino qiling'an edikim, uning hozirgi xarobasidan  
ham ko'rsa bo'lur.

O'rda qo'rg'onining tashqari aylanasi (to'rt tomoni) ajoyib  
gulzorlar, anvo'i mevalik daraxtlar bilan ziynatlangan. Bu bog'ni  
maxtab Xudoyorning o'z shoiri Mulla Niyoz Muhammad:

*«Yasab qasre saodat davrida bog'i jahon oro,  
Muattar bo'ldi gulzoridin olam gunbazi xazro<sup>1</sup>».*

*Shahi voloki berdi zeb bog' ichra rayohindin<sup>2</sup>,  
O'shal kun tutdi yer sahnini bo'yi anbari soro<sup>3</sup>».*

*Yasarda tarhini<sup>4</sup> tarroh<sup>5</sup>lar andog' sakkiz gulshan,  
Bu gulshan har biridin topdilar yuz ming chaman oro.*

*Ki har ashjor<sup>6</sup> asmor<sup>7</sup>ini ta'mida shakar mazmar<sup>8</sup>,  
Ocharg'a shakkar og'zin muddailiqqa<sup>9</sup> nahad oro.*

<sup>1</sup> **Xazro** (*forscha*) – ko'kintir, yashil.

<sup>2</sup> **Rayohii** (*arabcha*) – rayhonlar, xushbo'y gullar

<sup>3</sup> **Bo'yi anbari soro** (*anbar* (*arabcha*) – xushbo'y modda) – kashalotlar (*frantsuzcha*: katta boshli baliq. Kitsimonlarning tishli, katta boshli bir turi, 60-70 tonnacha bo'ladigan ulkan sutemizuvchi dengiz hayvoni) tanasidan, oshqozon yoki ichaklaridan chiqadigan mumsimon xushbo'y modda (*parfyumeriyada* atir hidiga turg'unlik berish uchun ishlatiladi) – anbar hid kabi.

<sup>4</sup> **Tarh** (*arabcha*) – qurilish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi.

<sup>5</sup> **Tarroh** (*arabcha*) – me'mor; muhandis; loyihachi.

<sup>6</sup> **Ashjor** (*arabcha*) – daraxt, o'simlik.

<sup>7</sup> **Asmor** (*arabcha*) – meva.

<sup>8</sup> **Shakar mazmar** – shakar bor.

<sup>9</sup> **Muddaiy** (*arabcha*) – da'vogar, raqib.



*Xiyobon rastalardin bog' topdi zebi oroyish,  
Gulistonig'a bergandek chaman oro guli humro<sup>1</sup>.*

*Jahon bog'ida harna ne'matidir bunda ul mavjud,  
Nasib etkay senga yuz yilg'acha haq ey jahondoro...<sup>2</sup>»*  
deydir va Xudoyorg'a bu bog'da yuz yillab rohatlanmoq uchun duo qiladir.

Domla Niyoz Muhammad aytkandek, gulshanning uch tarafi xiyobon, rastalar va bunda ertadan-kechkacha xalq qaynashib turar edi. O'rda bog'ining eshigida doim qorovullar qarab turg'anliqdan, o'rdaga aloqasi bo'lmag'an kishilar boqqa kiralmaslar, faqat haftada bir kun, xonning ko'ngil ochish soatlarida, ba'zi mustasno zotlar uchun bog'ning yo'li ochiq bo'lur edi. Boqqa kirilgandan keyin, to'g'ridan yangi o'rdaning darbozasi, muhtasham muzayaqakor<sup>3</sup> toq va ravoqlar ko'zni qamashdirar, kishi go'yo o'zini xon huzurida, istibdod salobati ostida sezar va mutantan<sup>4</sup>, va muzayyan<sup>5</sup> qasrdan ruh olish o'rnig'a, bil'aks bir dahshat va xavf his eta boshlar edi. O'rdaning xishtin, kungirador<sup>6</sup> qo'rg'onlari osti bilan jazoyiri qilich taqing'an maxsus muhofiz<sup>7</sup> yigitlar aylanib, begona kishini qo'rg'on yaqiniga yo'latmaslar, ayniqsa, o'rdaning yuqori qismidan qo'yilg'an haram darbozasig'a yaqinlashish uchun, hatto o'rdaning o'z xodimlarig'a ham ruxsat yo'q edi. Haram darbozasidan yurg'uchilar yolg'iz xonning o'g'li – shahzoda, xonning xotin qarindoshlari, kanizlar, doya xotinlar, yana ba'zi «maxsus» yumishlarga xon tomonidan belgilangan zaifalargina edilar. Bu darbozadan xonning o'zi ham yurmas, chunki uning haramiga kiradigan yo'li o'z mahkamasi va shahnishin<sup>8</sup> orqaliq edi.

1287-nchi yilning sunbula<sup>9</sup> oyi, ya'ni erta kuzning ko'klam havosiga yaqin turg'an salqincha bir kuni. Kechki soat beshlarda

<sup>1</sup> **Humro** – qizil, qizg'ish

<sup>2</sup> **Jahondoro** (*forscha*: kuchli podshoh) – jahon hokimi, dunyoga hukmronlik qiluvchi.

<sup>3</sup> **Muzayaqakor** (*forscha*) – chiroyli yasalgan.

<sup>4</sup> **Mutant** (*arabcha*) – dabdabali.

<sup>5</sup> **Muzayyan** (*arabcha*) – ziyatlangan, bezalgan, naqshinkor.

<sup>6</sup> **Kungirador** (*forscha*) – ustunli.

<sup>7</sup> **Muhofiz** (*arabcha*) – saqlovchi, muhofaza qiluvchi, himoya qiluvchi, himoyachi, qo'riqchi.

<sup>8</sup> **Shohnishin** (*forscha*: faxriy joy, o'rin; boloxona) – podsho, xon kabi oliy hukmdor o'tiradigan, uning taxti qo'yilgan xona.

<sup>9</sup> **Sunbula** (*arabcha*: boshhoq) – burj nomi. O'n ikki burjning biri, Asad va Mezon burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida oltinchi oyning nomi. 22-avgust-21 sentyabr davriga to'g'ri keladi.

o'rdada ichida qaynab turg'an hayot bir oz tinchib tushti, darboza yonlaridag'i qorovullar ichkariga kishi kiritmay qo'ydilar. O'rdada xizmatchilari, masalan, beklar, mirzolar, yasovullar va shular singari «sayid»<sup>1</sup> xodimlari birin-sirin chiqib tarqala boshladilar. Birinchi darbozaning ikki biqinida turg'uchi qorovul yigitlar o'rdaning ulug' darajalik beklarini ta'zim bilan uzatar, mansabi quyiroq yasovullar bilan mutoyaba<sup>2</sup> qilishib qolar edilar. Sarkardalardan ba'zisi darboza tashqarisida xizmatchi tarafidan qantariilib turg'an otining yonig'a kelib, otni qarab chiqar, yaxshi boqmag'ani, yoki toza supurmag'ani uchun sayis<sup>3</sup>ni koyib olar va so'kunish orasi sayis ko'magida otig'a minib jo'nab ketar edi.

Darbozabonlar o'rdada zarur yumishi borlig'ini so'zlab, iltijo qilg'uchi har qanday kishini ham hozir ichkariga yo'latmaslar va asabiylanib koyib qaytararlar edi.

– Bu o'zi qanday odam, qulog'ig'a un bosqanmu!– deb jekirinib turg'an birinchi darbozabon uzoqdag'i kimgadir qarab qoldi, ko'zi o'sha tarafda ekan boyag'i so'zini takrorladi, – boravuringg', og'izni ochmang', sheri Yazdon<sup>4</sup> kelganda ham ichkari kiritmaymuz!

Iltijo qilg'uchi umidsiz darbozadan yiroqlashdi. Uning keticha darboza yonida banoras paranjilik bir xotin paydo bo'lib, ichkariga parvosiz kira berdi. «Sheri Yazdon»ni ham kiritmaydirgan darbozabonlar xotinni boshdan-oyog' kuzatib, indashmay qarab qola berdilar. Xotin ichkari kirib to'g'rig'a qarab yurdi, asl o'rdaning ulug' muhtasham darbozasig'a yaqinlashqandan keyin o'ngdagi ayri yo'lg'a burildi.

Xotin haram darbozasini chog'lab borar edi. Qo'rg'on ostidag'i soqchilar xoting'a yovosh-yovosh qarab olish bilan kifoyalana va uni tanig'andan parvosizcha o'z yonlaridan kechirar edilar.

Xotin haram darbozasi yonig'a yetib, ostonaga qadam bosqan chog'ida bo'sag'adag'i yigit «vish» etdirib qilichini qinidan sug'urdi.

<sup>1</sup> Sayid, sayyid (*arabcha*) – Muhammad payg'ambar avlodlariga mansub kishi. Bu yerda xonga yaqin shaxslar nazarda tutilgan.

<sup>2</sup> Mutoyiba (*arabcha*: hazil; qochirim; askiya) – bir-biriga qiziq, kulgili, hazilkashlik.

<sup>3</sup> Sayis (*arabcha*: otboqar, hayvonlarga qarovchi) – O'rta Osiyo xonliklarida: harbiy va xo'jalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni parvarish qiluvchi shaxs.

<sup>4</sup> Yazdon (*forscha*) – Oллоh, Tangri, Xudo. Sheri Yazdon – Oллоhning she'ri. Sahih xalifalarning to'rtinchisi – Umar ibn Xattob (634-644) ga berilgan laqab nisbat yoki unvon.

– To‘xtang‘!

Xotin to‘xtadi va yigitka qarab betidagi chashmbandini qiya ochti. Yigitning jiddiyati kulimsirashka mubaddal bo‘lib<sup>1</sup>, havodagi qilichini qaytarib g‘ilofig‘a soldi. Xotin yuzini ochqan ko‘yi ichkariga yurdi. O‘ttuz besh yoshlarda ko‘ringan bu go‘zal xotin haram xodimalaridan Gulshanbonu edi.

Gulshanbonu Xudoyorning ikkinchi davrida o‘z husni bilan bir necha martaba xonning iltifotiga sazovor bo‘lg‘an haram kanizlaridan edi. Xudoyor taxtni tashlab Buxorog‘a qochishg‘a majbur bo‘lg‘andan keyin, og‘asini g‘ayrisha<sup>2</sup>riy<sup>2</sup> ishlarda, jumladan, xotinbozliqda ayblab, taxtka mingan Mullaxon<sup>3</sup> o‘z da‘vosig‘a muvofiq Xudoyor haramidagi yuzlab xotinlarni o‘z yigitlari orasida xotinliqqa taqsim qilib yubordi. Shu jumladan, Gulshanbonu ham Mallaxon tarafidan Xudoyorg‘a qarshi urushda qahramonliq ko‘rsatgan bir yigitka in‘om qilinib, shundan beri o‘sha yigitning nikohida xotin edi. Xudoyor uchunchi martaba taxtka mingandan keyin, Gulshan xonning yonig‘a kelib, eski «qadrdonliq» nomig‘a haramdan bir xizmat so‘rag‘anida, «marhamatlik» xon Gulshanning arzini yerda qoldirmay, haram xodimlarining juda ozlarig‘a nasib bo‘ladirg‘an ulug‘ bir martaba ato qildikim, biz Gulshanga topshirilg‘an vazifaning nimadan iboratligin quyida ko‘rarmiz.

Gulshan darbozadan ichkari kirgandan keyin, paranji ostida bosilib tartibsizlangan sochlarini tuzatdi, chang o‘lturgan niliy rang tovor ko‘ylagining etaklarini qoqti, qo‘lidag‘i yoqut va zumurad ko‘zlik oltin uzuklarini to‘g‘rilab taqti va shundan so‘ng zinalardan yuqorig‘a qarab chiqa boshladi. Yigirmanchi zinadan keyin uzun – o‘rdaning eni qadar bir bo‘lak boshlanib, uning o‘ng-so‘lini o‘n chog‘liq buxori chakma eshiklar ziynatlagan edilar. Bu eshiklar haramdagi alohida havlilar va ular daromadini<sup>4</sup> ko‘rsatar edilar.

Gulshan uzun yo‘lakka chiqib, o‘ngdagi birinchi eshikni

<sup>1</sup> **Mubaddal** (*arabcha*) – o‘zgarish, almashinish. **Mubaddal bo‘lmoq** – o‘zgartirmoq, almashtirmoq.

<sup>2</sup> **G‘ayrisha<sup>2</sup>riy** (g‘ayri.. + shar‘iy) – shariatga xilof, shariat qonun-qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan.

<sup>3</sup> **Mullaxon** (Mallaxon) – 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo‘lgan o‘g‘li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag‘darib, o‘zini xon deb e‘lon qildi. Bu xon 1853-1863-yillarda Qo‘qon xoni bo‘lgan. 1863-yil 25-fevralda o‘ldirilgan. Undan keyin qisqa vaqt ichida Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o‘g‘li Shohmurod taxtga o‘tiradi. Shu yilning o‘zida uchinchi marta Xudoyorxon taxtga o‘tiradi.

<sup>4</sup> **Daromad** (*forscha*: kirim; foyda; boshlanish, ibtido) – biror maqsadni anglatish uchun shu maqsad atrofida uzoqdan boshlangan gap; 4) biror joyga kiritiladigan yo‘l, eshik, yo‘lak.

itardi. Ichkari tarafdin keksa bir xodima – eshik ochar xola ko‘rinib, Gulshanga salom berdi va: «Xush keldilar», – dedi. Gulshanni ichkari kiritib, eshikni bekladi. Bu, haramning kichkinagina suv havlisi edi. O‘rtadag‘i mis hovuzda ko‘m-ko‘k suv mavj urib, bir necha kanizlar hovuzdan suv olmoqda edilar. Havlining shimolidagi xodimalar turadig‘an kichkina bir uydan boshqa munda bino yo‘q, faqat janubda haligidek bir eshik bor edi. Suv havlisidagi bu hovuz haramning butun ehtiyojini o‘tar, uni haftada bir necha martaba maxsus soatlarda meshkoblar<sup>1</sup> tomonidan to‘ldirib turilar edi.

Gulshan paranjisini qo‘lig‘a olib, eshik tomong‘a yurdi. Eshik yonig‘a kelib sekin-sekin halqani chertti. Eshik ichkaridan ochilib, bunda ham eshik ochar xola ko‘rindi. Lekin bunisi yoshqina bir kaniz edi. Gulshandan parangi, chashmbandni olib: «Xush keldilar», – dedi. Bu haramning birinchi havlisi edi. Havlining to‘rt tomoni naqshinkor, oynaband, gul chakilgan darichalik, hammasi bir xil bichiqda tanobiy<sup>2</sup> (zal) uylar, har bir uyga maxsus dahlizlar va bir-biriga yamashdirib soling‘an xonalarni shu dahlizlar bir-biridan ajratib turar edilar. U qadar keng bo‘lmag‘an sahn ostig‘a xish to‘shalgan, havli yuzida to‘rt-besh-ta qizil sholdan ko‘ylak va boshlarig‘a sarig‘ sholdan ro‘mol o‘rab, oyoqlarig‘a bedonadan kafsh masxi kiygan yosh kanizlar sochilg‘an holda vazifalari orqasidan yurar edilar. Gulshan ular bilan ohista so‘rashdi va kanizlarning biridan yarim tovush ichida so‘radi:

– On hazratim?

– Shahnishindalar, – dedi kaniz, tovshini chetka chiqarmasliqqa tirishib.

Shahnishin– xonning xos hujrasi, xon ovqatlanadig‘an, uxlaydиг‘an ham xotinlarni qabul qiladig‘an uy bo‘lib, suv havlisining qatori bilan to‘taxt o‘rnatilg‘an mahkamagacha qator uch xona tanobiy uylardan iborat edi. Bu uylar shahnishinlikka muvofiq boshqa binolardan baland qilib soling‘an binolar orqasi, janubi xos oyimlar – yani xonimlar tanobiysi, g‘arbi – qisman tanobiy va qisman oshxona va haram xazinasi binolarini va boshqa havlilarga chiqish uchun daromadlarni tashkil etar edi.

<sup>1</sup> Meshkob (*forscha*) – meshda suv tashuvchi.

<sup>2</sup> Tanobiy (*arabcha+forscha*: katta umumiy xona, mehmonxona, zal) – umumiy bino, imoratda boshqalari nisbatan katta, maxsus bezatilgan va mehmonlar kutib olinadigan xona.

Gulshan, «shahnishindalar» javobidan soʻng, taraddudlangandek boʻldi. Bir oz ikkilanib turgʻandan keyin yana bir qayta sochini, roʻymolini, kiyimini tuzatib oldi va shahnishin tomongʻa buruldi.

– Oyixonim chaqiradirlar, – deb bir kaniz shivirladi.

Gulshan uch-toʻrt qadam bosqan edi, toʻrdagi tanobiydan chiqib kelgan kanizning haligi soʻzi bilan toʻxtadi va soʻzsiz kaniz tomongʻa buruldi. Gulshan kirganda dahlizning toʻrida uch nafar kaniz sanama<sup>1</sup> tikib oʻlturar edilar. Ular bilan salomlashdi. Ul salomlashqan asnoda ichkari tanobiydan olti yoshlar chama-liq, oq tuslik qora koʻzlik koʻrkamgina bir bola sarigʻ atlas koʻylagini hilpiratib chiqib keldi.

– Assalomu alaykum... Sogʻmilar, shahzodam, – dedi Gulshan koʻlini koʻkragiga qoʻyib, bolagʻa bukilingiragʻan holatda.

Shahzoda javobsiz kulimsirab, Gulshanga bir oz qarab turdida, ichkariga kirib ketdi.

Gulshan kafshandozda oyogʻini yeshib, gilamga chiqdi. Dahliz oʻn bir yogʻochliq katta munaqqash<sup>2</sup> uydan iborat boʻlib, taxmonida atlas va adras koʻrpa, koʻrpachalar uyulgʻan, toqchalari anvoyi xitoyi va qashqar chinnilari, buxoro mis va kumush idishlari bilan ziynatlangan edi. Gulshan kafshini yesha boshlagʻach yuqoridagʻi sanama tikuvchilar ham oʻrunlaridan turgʻan edilar, kelib koʻrishdilar. Ular koʻrishib boʻlgʻanda, boyagʻi kaniz ichkaridan chiqdi.

– Kirsinlar, – dedi Gulshanga.

## XXIX Fasl. OGʻACHA OYIM

Gulshan eshikka yurib kelib, roʻymol-lachagini tuzatti va ichkariga qadam bosti. Eshik ichkarisida qoʻl qovishtirib oʻlturgan kaniz oʻrmidan turib bukildi.

– Safo keldilar<sup>3</sup>.

Asl gilamlar, baxmal koʻrpachalar, oltin va kumush asboblar bilan ziynatlangan tanobiy uyning orqa va oʻngi deyarlik koʻzni qamashdirarliq shukuhlarga gʻarq boʻlgʻan edi. Tanobiyning havli tomonigʻa qurulgʻan uchta kichkina terazalarning oy-

<sup>1</sup> **Sanama** – 1) shaxmat taxtasi koʻrinishida oralatib gul tikish usuli; 2) shunday usulda tikilgan gul va shunday gulli buyum.

<sup>2</sup> **Munaqqash** (*arabcha*) – naqshlangan; naqshli, naqshdor; zar bilan tikilgan. **Bu yerda naqshli, naqshdor maʼnolarida kelgan.**

<sup>3</sup> **Safo** (*arabcha*) – tozalik, tiniqlik, begʻuborlik; samimiylik; xotirjamlik. **Safo kelmoq** – xush kelmoq.

nalari ham bundagi asl ashyolarning turlik nav'i qabilidan har ko'zi har rangda jilvalanar va ularning aksi ziyosi bilan shipga osilg'an oltin qandil alvon tusda tovlanar edi. Tanobiyning to'rida, ipak joynamoz ustida qiblag'a qarab o'lturgan oyim tizasiga yaslang'an shahzodani erkalab, yonig'a qayrildi. Eshikdan kirib, qo'l qovishtirib to'xtag'an Gulshan ikki bukilib salom berdi.

– Keling, Gulshan, – dedi oyim, – o'lturing, vaalaykum assalom.

Gulshan ta'zim bilan birinchi darichaning yuqorisig'a borib o'lturdi va duog'a qo'l ko'tardi.

– Oyi xonimning baxt va obro'lari ziyoda, shahzodamning umrlari uzun bo'lsin.

Eshik yonida tik turg'an kaniz duo asnosi o'lturib fotiha o'qushdi. Fotihadan so'ng yana o'rnidan turib qadaldi. Oyim hamon shahzodani erkalab joynamoz ustida o'lturar edi.

Jiyaklik atlas ko'ylak, Buxoro kundalidan<sup>1</sup> jelatka<sup>2</sup> na bo-shig'a sanama ro'yamol o'rag'an o'ttuz besh yoshlar chamaliq bu xonim – xonning mu'tamad<sup>3</sup> xotini Og'acha oyim va shahzoda esa xonning suyuklik o'g'li – O'rmonbek edi. Og'acha oyimning xitoy xonimlarinikiga o'xshash qora bodom ko'zi va umuman siymosi Turkiston qizi emasligini aytib turar, biroq tilida begonaliq sezilmas edi. Og'acha oyimning asli ismi Mas'uda xonim, ammo «Og'acha oyim» deb mashhur bo'lishi uning qashqar qizi bo'lg'anlig'idandir. Uyg'urlar bizdagi «xonim, bekach» deyish o'rnida «og'acha» deydirlar. Mas'uda O'sh atrofida turg'un bo'lg'an uyg'urlardan Ibodullaxo'ja deganning qizi, Xudoyor o'zining ikkinchi davlatida bunga uylangan edi.

Xudoyor taxtni tashlab Buxorog'a ketishka majbur bo'lg'andan keyin ko'b xotinlari unga vafosizliq bilan er qilib ketkanlari holda, shu Og'acha oyim erining horliq va muhtojlik kunlariga sherik bo'lib yurg'an va shu vafodorlig'i jihatidan xonning e'timodini qozong'an edi. Ikkinchidan, Og'acha oyim Xudoyorning haram xotinlari ichida aqllik, tadbirlik va shu soyada haramning barcha xonimlari va yuzlab kanizlari buning idorasiga topshirilg'an edilar. Yuzlab kundashlar orasidag'i jan-

<sup>1</sup> **Kundal**– zar iplar bilan to'qilgan qimmatbaho mato. Shunday matodan tikilgan narsa, kiyim.

<sup>2</sup> **Jilat(ka)** (fransuzcha: qiziqchi, masxaraboz) – yengsiz kalta kamzul, nimcha.

<sup>3</sup> **Mo'tamad** (*arabcha*) – ishonchli, e'timodli.

jallar og‘achaning islohi<sup>1</sup>g‘a kelib to‘xtar, haramdan har kimsa buning so‘ziga quloq solishg‘a majbur, hatto xonning o‘zi ham xotinlar orasidag‘i onglashilmovchiliqlarni Og‘achaning islohi<sup>1</sup>g‘a havola qilg‘uchi edi. Yangi kiyim berish vaqti yetkanda, kimga qanday kiyimlik lozim, kim qanday narsaga muhtoj – bu masala ham Og‘acha oyim tarafidan hal qilinib, xazinachiga buyurilar va hozirlanilg‘an kiyimliklar uning tomonidan taqsim qilinar edi. Bundan boshqa, kundalik oshxona ovqati ham Og‘achaning belgilashi bilan pishirilar, oyim va kaniz, doya va chevarlarning hammomga borishlari, beklarning to‘yig‘a chiqishlari va shunga o‘xshash lozim-omadalar ham bu oyimning ko‘rsatishiga muvofiq edi. Ba‘zan Og‘acha oyim mamlakat ishlariga ham oralashib olar, goho o‘z fikriga xonni unatib ham qo‘yar edi. Xudoyorning xotinlaridan kichik Shoh oyim<sup>2</sup> vafot etib, undan bir bola – O‘rmonbek yotim qolg‘an edi. Xudoyor O‘rmonbekni juda yaxshi ko‘rar va o‘ziga valiahd belgilagan edi. Kichik Shoh oyim o‘lgandan keyin O‘rmonbekni haramda e‘timodlik bo‘lg‘an Og‘acha oyimg‘a topshirdi. Shundan beri ul O‘rmonbekni o‘z bolasidek tarbiya qilib kelar va bu sababdan ham xonning nazarida uning qadri juda yuqori ko‘tarilgan edi.

Og‘acha oyim hanuz Gulshanga iltifotsiz, O‘rmonbek bilan so‘zlashmakda edi:

– Juda sho‘x bo‘libsan, o‘g‘lim. Men seni otaxoningg‘a chaqib bir urdiray.

– Budana<sup>3</sup> bersangiz sho‘xliq qilmayman.

– Budanalaringni o‘ldirib bitirding-ku, zolim, budanalarni yana qaydan olayliq.

– Men o‘ldirmadim, o‘zlari o‘lib butdilar.

– Ziyrakni nega urding?

– Ziyrak menga budana topmadi.

Og‘acha oyim eshik yonida tik turg‘an kanizg‘a qaradi:

– Kel, Misqol, – dedi va O‘rmonbekning orqasini siladi.–

Sen g‘umang bilan o‘ynab kir, budanani ertaga topdirarmiz.

Kaniz O‘rmonbekni yetaklab chiqqa boshladi.

– Olding‘a hech kim kirmasin, – dedi Og‘acha oyim.–  
Eshikni yopib chiq.

<sup>1</sup> *Isloh (arabcha)* – tuzatish, yaxshilash; ta‘mirlash.

<sup>2</sup> *Shoh oyim* – Shungon beringin qizi (muall.).

<sup>3</sup> *Budana* – bedana.

Ular chiqq'ach, Og'acha oyim Gulshanni o'z yaqinig'a chaqirib, joynamozdan ko'rpachaga surilib o'lturdi, takror: «Yaqinroq keling, Gulshan», – deb taklif qildi. Og'acha oyimning birar muhim so'zi borlig'ini sezgan Gulshanbonu qo'l qovishtirib, oyimning yaqinig'a borib tiz cho'kti.

– Shahardan nima xabarlar topdingiz, Gulshanbonu?

– Shahar xabarlari oyi xonimdan maxfiy emasdir.

– O'zingiz tinch turasizmi, uy ichingiz sog'milar?

– Shukur... Onhazratim va oyi xonimning soyai davlatlarida.

– Ishlaringiz qanday?– dedi kulimsirab Og'acha oyim.– Bizga kundashlar topib bo'ladimi?

Bu savoldan Gulshan boshini quyi soldi, Og'acha oyim kulimsigancha Gulshandan javob kutib turar edi.

– Siz bizga kundash izlasangiz ham, – dedi Og'acha oyim, – albatta, o'z ixtiyoringizcha emas, sayidning amrlari bilan; shuning uchun bu to'g'rida men sizni ayblay olmayman. Bu so'z bilan Gulshan bir oz xijolatdan chiqqandek bo'ldi.

– Albatta, oyi xonim...

– So'zimni yerda qoldirmaslig'ingizg'a ishong'anim vajidan, – dedi Og'acha jiddiy tus olib, – siz bilan bu to'g'rida maxfiy bir-ikki og'iz gaplashmakchi edim.

– Kanizingizning boshi ustig'a, oyi xonim.

Og'acha oyim devorg'a suyalg'an yostiqni tirsagi ostig'a tortib takya qildi.

– Men bu gapimni o'tkan kun Botirboshi xolag'a ham aytib qo'ydim. Lekin sayidning quloqlarig'a yetkurmaslik shartdir. Bu to'g'rida xoladan ham siz ehtiyotliroqsiz, deb ishonaman.

Chunki sizning men bilan eski qadrdonlig'ingiz bor.

– Cho'ringiz so'z ulashdirishni yomon ko'radir, oyi xonim.

– Albatta, shunday bo'lmog'i lozim, – dedi Og'acha oyim, – o'zgalardan ham sizga aytkulugi yo'q, Gulshan. Sayidning nikohlarida biz o'nlab kundashmiz<sup>1</sup>... Agar kanizlarni ham qo'shib hisoblansa, kundashlarning sanog'i bir yuzdan ortadir. Botirboshi xola, yana bir nechalar va atrofdagi beklarimizning tavajjuhlarini soyasida<sup>2</sup> sayidning haramlari uch-to'rt yilning

<sup>1</sup> Shari'atda to'rttadan ortiqcha xotin olish yo'qdir. Xudoyorning rasmiy nikohidagi xotini to'rttadan oshmas, ya'ni, yangi xotin oladigan bo'lsa, to'rtinchi xotinini kanizlikka kechirib, o'rniga yangisini qo'yib turar edi. Og'acha kanizlikka kechirilganlarni ham bunda qo'shib hisoblaydir (muall.).

<sup>2</sup> **Tavajjuh** (arabcha) – 1) xayrixohlik bilan yuzlanish, qarash; 2) diqqat-e'tibor; 3) xudoga yulvorish.



ichida bunchalik cho‘rilarga ega bo‘ldi<sup>1</sup>... Yangi va keng o‘rda-g‘a kelib yayrasharmiz degan edik, barakatlaringizda kundan kun battarroq siqilishib boramiz. Hatto ichkari havlilarda bir uyga sakkiz, to‘qquz kaniz joylashishg‘a to‘g‘ri kelib qoldi. Bu hol davom etsa, birar yillar ichida yana bir yangi o‘rda solishqa to‘g‘ri keladir. Bu, albatta, mumkin emas. Undan so‘ng sayidning hamma diqqatlarini haramga tortilsa, mamlakat ishi xalaldor bo‘lishida va buning uvolini bizlar ko‘tarishimizda shubha yo‘q. Mana shu andishalarga borib, siz bilan kengashmakchi edim... Bu andisham Botirboshi xolag‘a ham ma‘qul tushib, va‘da berdi. Siz ham shu gaplarni yaxshi o‘ylab, o‘z fikringizni menga so‘zlang-chi, Gulshanbonu.

Gulshan og‘acha oyimning maqsadig‘a tushunmagandek bir oz o‘ylanib turdi:

– Muddaolariga cho‘ringiz tushunmadi, oyi xonim.

– Tushunmagan bo‘lsangiz, – dedi Og‘acha, – mundan so‘ng haramga xotin va kaniz keltirilmasin, deyman.

Gulshan boshini quyi soldi. Chamasi, Og‘acha oyimning taklifi unga yoqmag‘ansumon edi. Darhaqiqat, og‘izdag‘i oshni oldirish har kim uchun ham bir xil emasdir.

– Biz kaminalarda nima gap, aylanay oyi xonim... Biz, harna qilsaq, onhazratimning buyruqlari bilan qilamiz... Biz onhazratning otqan o‘qlarimiz.

Og‘acha oyim Gulshanning ko‘ziga ancha tikilib qoldi. Lekin Gulshan ko‘zini undan qochirib yerga boqdi.

– Albatta, biz sayidning otqan o‘qlarimiz, – dedi Og‘acha oyim qizishqannamo.– Lekin, xo‘jam buyurdi, deb ishning o‘ngtersiga qaramay yugura berish ahmoqliqdir. Agar siz bilan men onhazratning xolis qullari bo‘lsa, sayidning davlatlariga raxna solmayliq, do‘sti nodonliq qilmayliq. Mana bu – xolis qulliq da‘vosida bo‘lgan bizning qo‘limizdan keladir... Zohiran, sayidga xiyonat ko‘rinsa-da, haqiqatda xolis do‘stliq, deb sizga bu taklifni qildim. Sayidni kunchilaydi, deb boshingizg‘a keltira ko‘rmangki, hozir ham men onhazratning bir yuzinchi xotini bo‘laman. Yuz xotinning bittasi bo‘la turib, kundashlik qilish o‘zi telbalikdir. Lekin, orada bir g‘araz<sup>2</sup> bo‘lsa, ul ham sizga

<sup>1</sup> Atof hokimlari xushomad tariqasida chiroylik qizlarni xonga yuborib turguchi edilar... (muall.).

<sup>2</sup> G‘araz (*arabcha*) – maqsad, niyat; manfaat. Bu yerda manfaat ma‘nosida kelgan.

aytkanimdek, xolis qulliq – chin davlatxohliqdir<sup>1</sup>, tushundingizmi, Gulshan?

Gulshan «biz sayidning otqan o‘qlarimiz» deb Og‘acha oyimni achchig‘landirg‘an edi. O‘z xatosig‘a tushungan Gulshan uzr aytdi.

– Men sizga bu gapni boshqa maqsadda aytdim, oyi xonim. Biz, dedim... albatta, biz...

– Agar siz bunda noiloj bo‘lsangiz, mendan yo‘l so‘rang.

– Pir bo‘lib qo‘limdan tutsangiz, onhazratimning o‘g‘urlarida boshim fido bo‘lsin.

– Gap shunday bo‘lsa, ikkimizning bu ishka ko‘maklashuvimiz yoki sukut qilishimiz davlatxohliq emas, dushmanlikdir, – dedi Og‘acha oyim. – Manim sizga kengashim – bundan so‘ng ustingizdagi xizmatka bir oz o‘ylashib qadam bosishdir.

– Meni itobga<sup>2</sup> tutsalar?..

– Buning tadbiri oson, – dedi Og‘acha. – Avval, shuki, sayidning ko‘zlariga oz ko‘rining, ko‘ringan chog‘ingizda suluk cho‘ri topolmadim, deb uzr ayting. Sizni, topolmabsan deb qiyin-qis-toqqa olmaslar, jazoga tortmaslar. Muhtojlikdan qo‘rqsangiz, men bor: men sizga qo‘limdan kelgan yordamni qilarman. Ma‘qulmi, Gulshanbonu?!.

Keyingi jumla bilan Gulshanning chehrasi ochilib ketdi.

– Xo‘b, aylanay, oyi xonim.

– Ahsan!

Dahlizda sanama tikib o‘lturgan kanizlardan biri – xazinador yugurib kirdi.

– Labbay.

– Opangg‘a ikki tillo ber, ustiga mursak<sup>3</sup> yop!

Ahsan ikki qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib, ta‘zim qilg‘andan so‘ng, chiqib ketdi.

– Shunday, odatingizcha, manim olding‘a kelib turavuring, keragingiz bo‘lsa tortinmay ayting.

Gulshan bosh bukib qulliq qildi. Eshik ochilib, qo‘lida adras munsagi bilan Ahsan kirdi va Gulshanning ustida to‘xtadi. Gulshan o‘rnidan turib oyimg‘a bosh egdi. Shu holda Ahsan munsakni uning ustiga yopib, qo‘lig‘a ikki tilloni ham uzatdi. Gulshan

<sup>1</sup> Davlatxoh (*arabcha+forscha*) – baxt-u omad tilovchi; xayrxoh; baxt istovchi.

<sup>2</sup> Itob (*arabcha*) – ta‘na, tanbeh, malomat; qiynoq.

<sup>3</sup> Mursak – ayollar kiyadigan yengi kalta ustki milliy kiyim; yengsiz kamzul.

ustida munsagi bilan ohistag'ina o'lturdi. Ahsan ham turg'an joyig'a cho'kkaladi. Gulshan duog'a qo'l ko'tardi. Ahsan omin, dedi. Duodan so'ng Gulshan va xazinador – Ahsan ohista-ohista orqalari bilan yurib, Og'acha oyimning huzuridan chiqdilar.

### XXX Fasl. XONIM OYIMLAR

Gulshan egnida munsagi bilan dahlizga chiqib, undagi kanizlar tomonidan «iltifotga loyiq ko'rilgani» uchun tabrik qilindi. Kafshandozda<sup>1</sup> kiyinar ekan, ko'zi to'g'ridag'i shahnishinda edi. Kanizlar bilan xo'shlab havliga tushdi.

Yuqorida so'zlanganidek, bu havlida xonning suyuqli xotinlari o'zlariga xos doya, chevar, kanizlar va qullari bilan turar edilar.

Og'acha oyimning qatoridag'i ikkinchi tanobiy xonning suyuqli xotini Roziya oyimg'a qarar edi. Roziya oyim garchi o'tkan yillardagina xonga nikohlangan bo'lsa ham, o'zining xayoliy husni bilan «sayid»ning iltifotini jalb etib, haramda birinchi mavqu'ga mingan xonimdir. Xizmatiga to'rt kaniz va ikki qul hadya qiling'an bu oyim asli koshg'arlik bo'lg'an Oxundjonboy deganning qizidir. Roziya xonim qizlik chog'ida Qo'qon boy-laridan Jonbobo otlig' bir kishiga tegib, bir bola tuqqandan keyin eri o'ladir. Bundan so'ng qo'qonliq Miyon Fazl Vahhob hazratka erga chiqadir. Gulshanbonug'a o'xshash xufiyalar «sayid»ning qulog'ig'a yetkirgan bo'lsalar kerak, bir kun xon, to'sindan arava yuborib, Roziya xonimni «mehmong'a» chaqiradi...

Xonning hukmiga qarshi Miyon Fazl Vahhob nima ham qila olsin. Roziya xonim xon haramida bir kecha qo'nib, ertasi uyiga qaytadir. Ul uyiga qaytib kelganda Miyon Fazl Vahhob Roziya xonimning qo'lig'a taloq xati topshirib, yetti arava mol bilan o'rdag'a jo'natadir... Miyon Fazl Vahhob bu ishni qo'rqqanidan qilg'anmi yoki xong'a achchig' tariqasidami, har holda bunisi hatto Roziya oyimning o'ziga ham qorong'idir<sup>2</sup>.

Gulshan Roziya oyimning daromadiga yetkanda ikki nafar

<sup>1</sup> Kafshandoz, kavushandoz (forscha: kavush yechuvchi) – uyning oyoq kiyimi yechib qo'yiladigan maxsus yeri; dahliz.

<sup>2</sup> Haram to'g'risidagi ma'lumotimizning aksarisi bu kunda ham hayot bo'lgan shu Roziya oyimdan olindi. Hozir to'qson yoshlarga yetkan bu kampir o'zining kuchlik xotirasi bilan bizga qiymatlik ma'lumotlar berdi. Hanuz saqlanib kelgan ba'zi xususiyatlari bilan bizni taajjubka soldi. Muhtarama Roziya oyimga va ikki orada vositachi bo'lib ustimga minnat qo'yg'an qo'qonliq do'stim Bosit Qodiriyga tashakkur va rahmatlar aytishka burchliman (muall.).

kaniz dahlizdan chiqib, bo'sag'aning ikki tomonida qo'l bog'lab va bosh bukib to'xtadilar. Shu holda ichkaridan go'yo yuzi sut bilan sug'orilg'andek oq, quralay ko'zi oysiz va bulutliq kechasidan ham qoraroq, qaddi sarv kabi mavzun, qora sochi taqimini o'pkan, ust-boshi ipak va oltinlar bilan g'arq bir xonim xiromon chiqib keldi. Boshidag'i hisobsiz kokillarini sanama tikilgan oq harir ro'ymol bilan ozorsizg'ina bog'lag'an, yoqa va etaklariga nafis jiyak biriktirgan xonatlas ko'ylak, Buxoro kundalidan qirg'oqlarig'a oltin uqa (qo'r) tutulg'an yengsiz jelatka kiyib, yoqut ko'zlik oltin tugmalarni bo'shqina solg'an, husnda misli oz bu nozanin xonning suyuqli xotini – mazkura Roziya xonim edi. Roziya xonim orqasidan sakkiz-to'qquz yoshlar chamaliq, ko'z va tishidan boshqa a'zosida oqi yo'q bir bola ko'rinib, xonimni ta'qib etdi. Bu yosh yugurdak qulcha xonimning har bir mayda xizmatlariga tayyor kabi oyog' olar edi<sup>1</sup>.

Roziya xonimg'a qarshi kelguchi Gulshan bukilib salom qildi. Roziya xonim ishorat bilan javob bergach, «esonmisiz» dedi va uning javobini ham kutmay shahnishin tomong'a qarab yo'l soldi.

Gulshan Roziya oyimning quyisidag'i dahlizga yuzlanib, undagi kanizlardan Qurbon oyimning sog'lig'ini so'rab o'tdi. Qurbon oyim tanobiysidan so'ng havlining kun botishig'a moyil bino Shodmon oyimg'a qarashliq va shu bilan haramning birinchi havlisidagi oyimlar hisobi bitadir<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qullar aksar tojik va habashdan bo'lib yetti yoshdan o'n ikki yoshg'acha edilar va haramda bundan yuqori yoshdag'i qullar saqlanmas, qul o'n ikki yoshg'a yetkanda, haramdan chiqarilib, o'rdadag'i birar xizmatka belgilanar edi, deydir Roziya oyim. Erligi olingan (bichilgan) qullar Xudoyorning onasi Hokim oyim – Jorqin oyimg'acha (1285-nci yilda vafot) faqat ikki nafar bo'lib: (Eshmat sarkor, Toshmat sarkor; har ikkavi habash) bular ham xondan tashqari haramga kiralmas ekanlar. Har kun ertalab xon onasig'a salom bergali kirganda haligi ikki nafar qul ham xonning orqasida kirib, Hokim oyimg'a salom bergandan so'ng yana xon bilan birga chiqishib ketar ekanlar (bu ikkisi Sheralixondan qolg'an, Hokim oyimga yaqin, qadrdon qullar bo'lg'anga o'xshaydir). Roziya oyimning aytishiga qarag'anda, shu ikki quldan boshqalarning erligi yo'qotilmag'an ekan. Bundan onglashiladirkim, Xudoyor harami to'g'risida yozguchi o'ruslarning qul (evnux) larni kaniz va xonimlar bilan aralash yurg'an holda ko'rsatishlari mubolag'adir. Roziya oyim yana tafsilga kirishib: «Xon birinchi martaba taxtdan haydalisida o'ziga qarashliq yosh qullardan bir nechasini Jizzaxka eltib o'qutdi va so'ngg'i davrida ularni ba'zi mansablarga qo'ydi. Ular: Shog'ulom jarchiboshi, Jamil Fayzullo va Mullacha xazinachilar, Davlat udaychi. Davlat sarkor va Shopsand qo'rboshilar, deydir. Bu qullar ham haramga kiralmanlaridek, erliklari ham joyida ekan (muall.).

<sup>2</sup> Roziya oyimning aytishiga qarag'anda, Xudoyor o'zining uch karra xonliq davrida shu xotinlarga a'ylangan:

1. Qozoq to'ra – Roziya oyim buning otasini aniq aytalmaydir. Lekin, o'zi qirg'izlardan edi, deydir. Fikrimizcha, Musulmonqulining qizi shu bo'lsami-kin?.. Xizmatida to'rt kanizi bo'lg'an;

2. Anbarchik to'ra – O'ratepada yuzbegi bo'lg'an Xudoyorbek vallahining qizi;

3. Katta poshsho oyim – qo'qonliq Xo'ja Kalon to'raning qizi, Nasriddin bekning onasi, xizmatida

yetti kaniz, to'rt qul;

4. Qo'qonliq oyim – Qo'qonning Sarmozor dahasidan, kimning qizi ekanini Roziya oyim bilmaydir. Xon birinchi martaba taxtdan quvlang'ach, erga tegib ketkan;
5. Qurbon oyim – g'uma (joriya) lardan, O'rmonbekning xazinachisi, xizmatida ikki qul, uch kaniz.
6. Gulzoda bekach – g'umalardan, xizmatida to'rt kaniz. Shahzodaxon ismlik bir qizi bo'lib, 1919-yilda O'shda o'lgan;
7. Shirin bekach – g'umalardan, xizmatida uch kaniz, ikki qul. To'ra poshsha ismlik bir qizi bo'lib, qo'qonliq Karomatxon to'raga berilgan;
8. Isfaralik oyim – isfaralik Habib eshonning qizi. Bundan Mohzodaxon ismlik bir qiz tug'ulib, qo'qonliq Safoxon to'raning o'g'li Isoxong'a berilgan (Mohzoda alhol tirik emish). Xudoyor ikkinchi xonliq davrida isfaralik oyimni g'arlikda ayblab, bahona bilan o'rdadan haydab yuborg'an.

#### **Xudoyorning ikkinchi xonliq davrida olg'an xotinlari:**

9. Munisxon poshsho – qo'qonliq G'ozixon to'raning qizi, xizmatida sakkiz kaniz, to'rt qul. Bundan Sayid Umarbek ismlik o'g'ul tug'ulg'an. Sayid Umarbek bu kunda Roshidon rayo'n, To'ra qishloqda turar emish;
10. Poshshobonu oyim – Qo'qonda mashhur Bahodirxon to'raning singlisi, Muhammad Aminbek bilan Chorolaxon poshshoning onasi, xizmatida to'qquz kaniz, besh qul;
11. Mas'udaxon (Og'acha oyim) Ibodullaxo'ja qizi, Fansurullobekning onasi;
12. Kishbibi (Qizoyim) – Xudoyorning tog'asi Gadoyboy dothoning qizi. Bu aslida Shomurodxonning xotini bo'lib, Shomurod o'lgandan keyin Hokimoyim Buxoroda o'g'li Xudoyorga Kishbibini nikohlab bergan, xizmatida besh cho'ri, uch qul;
13. Kichik Shohoyim – Shug'on hokimining qizi, O'rmonbekning onasi, bolaning chillasi chiqmay o'lgan;
14. To'xtaposhsho (Chindovulliq oyim) – Namangan tumani Chindovul qishlog'ining xo'ja qizlaridan, xizmatida to'rt kaniz, uch qul.
15. Katta Shohoyim – Dorboz hokimining qizi, xizmatida yetti cho'ri, katta Shohoyimdan Sayid Fansurullo ismlik o'g'ul tug'ulib, besh yoshida ekan, Marg'ilonda Po'ladxon o'ldirgan;
16. Gulandom bekach – g'umalardan, bundan Oftobxon ismlik qiz tug'ulib, Xudoyor vaq-tida, o'n uch yoshida o'lgan; 17). Mohbegim bekach – g'umalardan. Binyaminbekning onasi, xizmatida uch qul, uch cho'ri; 18). Gulqiz bekach – g'umalardan;
19. Asal bekach – g'umalardan. Uchunchi xonliq davrida;
20. Qorateginlik oyim – Qorategin hokimining qizi, xizmatida yetti cho'ri;
21. Bibiposhsho ekavotliq oyim – Namangan yuqorisida Ekavot qishlog'ining katta eshoni Xo'jam poshsho to'raning qizi, xizmatida uch cho'ri, ikki qul bo'lgan; bu oyimdan Sayid Fansurullo ismlik o'g'ul tug'ulib, uch yoshida Po'ladxon o'ldirgan;
22. Roziya oyim – (shu ma'lumotlarni berguvchi) Roziya oyimdan Sayid Umarbek otliq o'g'ul bo'lsa ham uch yoshida o'lgan;
23. Qambar poshsho – Xo'jakalon to'raning kichik qizi, Katta poshsho oyim o'lgandan keyin boldiz olgan, xizmatida uch kaniz.
24. Oynisaxon poshsho – Tursun otaliqning qizi;
25. Tuhfanisa oyim – Oltiariq' qozisining qizi; bu qizga uylangandan o'ttuz yetti kun keyin Xudoyor o'ruslarga sig'inib Toshkand kelgan;
26. Hamroh bibi oyim – qo'qonliq Nurmatboy deganning qizi;
27. Saidaniso (chimyonliq oyim) qirg'izlardan birining qizi.
28. Shodmon oyim – g'umalardan; xong'a suyuqli emish, xizmatida uch cho'ri, uch qul;
29. Gulbonu bekach – g'umalardan; xizmatida bir cho'ri, bundan Ozodaxon ismlik qiz tug'ulib, qo'qonliq Bahodirxon to'raga kelin bo'lgan;
30. Ruhafzo bekach;
31. Sayqal bekach;
32. Sanavbar bekach;
33. Arg'uvoni bekach;
34. Nigor bekach;
35. Ruzvon bekach.

Bu oltovi ham g'umalardan (joriyalardan)emish.

Bu yerda yozilganlar Xudoyorning tugal xotinlari hisobi bo'lmas, deb o'ylayman. Chunki Roziya oyimning xotiridan ba'zisi ko'tarilgan bo'lishi mumkindir. Biz Roziya oyimning yonida ekanmiz, o'rtoq Bosit:

Gulshan havlining kun botishi – oshxona va boshqa ro‘zgor uylari yoni bilan borib bir eshik orqali bizga ma’lum uzun yo‘lakka chiqdi. Yo‘lakda suv havlisidan chiqib kelgan bir kaniz Gulshanni ko‘rishi on qo‘lidag‘i suvlik kashkulni yerga qo‘yib yugurdi:

– Esonmisiz? Munsak muborak, ayamlar sog‘mi?

Gulshan qo‘l uchi bilan ko‘rishdi:

– O‘zing o‘ynab kulib yurubsanmi? Munixon poshsha oyim salomatmilar? Bibi poshsha oyim yozilib ketdilarmi?

– Shukur, shukur, bizning havliga kiring.

– Kirarman, – dedi Gulshan va ustidagi munsakni yesha berdi. – Sen manim kelganimni ularga aytma. Men o‘zim bir ozdan keyin chiqarman.

Kaniz orqasig‘a burilishi bilan yo‘lakning yuqori eshiklaridan biri taraqqatib ochilib, ichkaridan ikki yosh, oyog‘ yalan kaniz quvlashib chiqdilar. Gulshanni munsak bilan ovora ko‘rgan qizlar shu tarafka qarab yugurdilar.

– Gulshanjon, Gulshanjon! Esonmisiz, omonmisiz? Sarpa qutlug‘!

Sho‘x kanizlarning biri Gulshanning oldidan va ikkinchisi yonidan o‘rmlab, birining og‘zidan ikkinchisi «Gulshanjon, esonmisiz!» ni olib esankiratdilar.

– Bo‘ldi, bo‘ldi! Sho‘x baytal o‘lgurlar! – dedi Gulshan, – oyimlar eshitsa nima degan gap bo‘ladi?

Qizlar Gulshanning so‘ziga quloq solmay, kelgan taraflariga qarab uni sudradilar.

– To‘q baytal! Gulshanjon! To‘q baytal!

Gulshan achchig‘lansa ham yana ularning so‘z va harakatidan kulishka majbur edi.

– Qurib ketkurlar... Shuning uchun ham senlarning olding‘a kirgim kelmaydi-da!

So‘zga iltifotsiz, o‘yun bilan borg‘an kanizlardan biri Gulshanning qo‘lidag‘i munsakni titkilab o‘ziga tortdi:

– Qaysi go‘rdan olding, menga bersang-chi shuni!

– Ol, ol!– dedi Gulshan munsakni bo‘shatib, – o‘limlik

---

– Xon necha xotin olgan edi, oyi?– deb hazil tariqasida takror savol berdi. Roziya oyim mendan iymangan qiyofada:

– Xon qursin, uning olg‘an xotinalarining hisob-kitobi yo‘q, bolam,– dedi va manimcha juda to‘g‘ri so‘zni aytdi (muall.).

qilarsan!

– Albatta tobutimga yoparlar!

Yo‘lakning boshidag‘i eshikka yetdilar va uchisi birdan siqilishib, ichkariga kirdilar.

### XXXI Fasl. QIRQ QIZLAR

Gulshanlar kirgan havli «Qirq qizlar» deb atalar edi. Bunda xonning ko‘ngil ochishig‘a xizmat qilg‘uchi «Qirq qizlar» turar edilar. Bu havli undagi o‘yunchi, sozanda va navozanda kanizlarning sonidan olib «qirq qizlar» atalg‘an edi.

Xudoyorning haram kanizlari soni bir yuz elliy besh nafar bo‘lib, bulardan o‘n to‘rt nafar oq saroyda, sakkiz nafar shah-nishinda, ya‘ni xonning yotish turishig‘a maxsus, sakkiz nafar O‘rmonbekka qarag‘uchi, o‘n nafar doylar huzurida, yigirma besh nafar shu «qirq qizlar»da va qolg‘anlari har qaysi xonim oyimlarning xizmatida edilar.

Havli yuzida to‘p (koptok) o‘ynag‘uchi «qirq qizlar»dan yetti-sakkizi Gulshan oldig‘a-yugurdilar.

– Esonmisiz!

– Yelib yugurib hormang!

– Eringiz o‘lmadimi!

– Shahar yigitlari omonmi!...

Bu qizlar haligilardan qolishmaydirg‘an sho‘x edilar. Gulshan ham endi jiddiyat saqlab turmadi:

– Zerikmay o‘lturibsanlarmi? Ichlaringda tug‘ib qo‘yganlaring yo‘qmi? O‘ynash qilib tutilmadinglarmi?

Bu havli to‘rtta kichik va bitta zo‘r tanobiy uydan, ham «qirq qizlar»g‘a maxsus oshxona va boshqalardan tashkil topib, qizlar kichik uylarga joylashqan edilar. Ularning yasanig‘a kelganda, yuqoridag‘i kanizlarda ko‘rilgandek – qizil shol ko‘ylak, sarig‘ gullik qizil shol ro‘ymol, shuvamatos yoki adras jelatka edi. Hozirgi to‘p o‘yunig‘a ishtirok etuvchi qizlarning hammasi deyarlik yalan oyog‘ bo‘lib, yumishdagi va oshxonada osh pishirg‘uchi qizlar duranglik<sup>1</sup> bedona kafshlar<sup>2</sup> kiygan edilar. Aksariyat, yigirmadan oshqan qizlar, ichlarida o‘n olti, o‘n yetti yoshliqlari ham ko‘rinar edi. Bu qizlar mamlakatning har tarafi-

<sup>1</sup> Durang(lik) (forscha: ikki rangli) – mahsi yoki etikning chokiga ko‘pincha ikki xil rangli ip yoki ipak bilan tikigan gulli hoshiya, uqa.

<sup>2</sup> Bedona kafsh (kovush) – bir-ikki yashar molning terisidan tayyorlangan kovush.

dagi beklardan xong‘a hadya tariqasida yuborilg‘anlar, shuning uchun ular terma do‘ndiqlar edilar. Cho‘ri ismi bilan haramga kelgan kunlari har birlari ham xonning «iltifoti»ga bir-ikki martabagina «loyiq» ko‘rilib, so‘ngra «qirq qizlar» ichiga havola qiling‘an edilar. Ular hanuz ham shaharning mashhur xotinlari bo‘lg‘an Nusrat hofiz, Botirboshi xola, Tillo hofiz, Toji hofiz, Misqol hofiz, Xon og‘acha, Misoq og‘acha, Ulug‘ o‘yunchi, Shohbachcha, Rajabxon, Tosh hofiz va hatto marg‘ilonliq Zebixonlardan o‘yunga, sozg‘a, ashulaga ta‘lim olib kellarlar va shuning uchun har birlari o‘z hunarlarida yaxshi san‘atkor bo‘lg‘an edilar. Jum‘a kuni yetkanda bu havlidagi katta tanobiy tartibka solinar, «qirq qizlar» yangi kiyimlar kiyib upa-eliklar qo‘yarlar, turli ziynatlar taqib, ajoyib suratda bazmga hozirlanarlar edi. Jum‘a namozidan keyin xon ba‘zan yonida Roziya va Og‘acha oyimlar bilan bu havliga o‘tar va katta tanobiyning to‘riga qo‘yulg‘an maxsus kursiga o‘lturib, «qirq qizlar» bazmini ko‘rar edi...

Shu yo‘sun qizlar Gulshanni havli o‘rtasidagi to‘p o‘yuni-g‘a sudradilar. Gulshan o‘yung‘a ishtirok etishda tixirliq qilib ko‘rgan edi, qizlar zo‘r keldilar. Noiloj ul ham o‘ynamoqqa majbur bo‘ldi. Bir chekkada o‘lturib yeshindi. Shu qizlardek yalan oyog‘, bosh yalan bo‘ldi. Tovor ko‘ylagini ayab lippa urdi, yengini tirsagi yuqorisig‘acha shimardi va ichki kiyimini ham boldirig‘acha ko‘tardi.

Qizlar o‘zlari yasag‘an katta ipak koptokni Gulshanga berdilar:

– Marra besh-o‘n: har o‘nda bir aylanish; agar to‘pni marra-ga yetkarmay qochirsangiz, har birimizni apichib, havlini bir aylantirib chiqasiz!– deyishdi qizlar.

Gulshan shartni eshitib o‘ylanib turdi.

– Agar marraga yetkarsam?

– Biz apichib aylantiramiz!

– Qochinglar bo‘lmasa!– dedi Gulshan o‘rtag‘a tushib, – to‘pka tegsanglar, menga haduk bersanglar<sup>1</sup>, hisob emas!

Qizlar uning shartiga ko‘nib havlining tevaragiga tarqalishdilar. Gulshan o‘yinni boshladi. To‘p chiqag‘on edi. Gulshan birinchi o‘nni muvaffaqiyat bilan tamomladi. O‘n ikkinchi urush-

<sup>1</sup> Haduk bermoq – halaqit bermoq.



da birinchi o'n uchun aylangan edi, Gulshanning uzun sochlari atrofka tarqalib, hatto ko'ragi ham larzaga keldi... Qizlar qiyqirishib kuldilar. Ikkinchi o'nning aylanishi ham shu yo'sun kulgi berdi. Lekin uchunchi o'nning yerga sakkizinchi urulishida koptok qochti. Gulshan koptokni harchand quvlab yuqori chiqarishg'a urunsa ham bo'lmadi, yerda dumalab qoldi. Qizlar qiyqiriq ichida chapak urib yubordilar va Gulshanni o'rab oldilar. Gulshan chiqib qochishg'a xezlansa ham bo'lmadi, ul kutmaganda bir qiz orqadan kelib sakrab mindi...

– Xix, eshagim!

Qizlar kulishar edilar. Ikki qiz Gulshanning old o'rum sochidan ushlab yetakladi. Bu tomoshaga hatto uydagi va oshxonadagi qizlar ham qiziqsindilar. Birinchi qizni havli aylantirib chiqqan edi, ikkinchisi mindi... Shu yo'sun bechora Gulshan o'nlab qizni o'z ustiga mindirib, orqasi yag'ir bo'layozdi. Yana o'yun boshlandi...

Shomga yaqin osh tayyor bo'lib, qizlar o'z qo'shoqlari bilan uylariga kirdilar. Gulshan ham bir qo'shoq qizlarga qo'shulib, o'rtadagi uyg'a kirdi. Qizlarning o'zidek uyning polos va jihozlari ham besaranjom edi. Unda bir ro'yamol, bunda bir mahsi, narida yana bir narsa... Xullasi, uy ivirsib yotar edi.

Gulshan bu holdan ranjib qizlarni urushti:

– Senlarga hech son kirmadi<sup>1</sup>... Qachon ko'rsam, uylaring lo'lining xurjun solg'an yelkasi!

– Lo'lining xurjun solg'an yelkasi bo'lsa, – dedi Nozik otlig' bir qiz, – o'zing yig'ishtirib ber, Gulshan opa!

– Menmi, menga nima?

– Menga ham nima?

– Sening turadiring'an uying, – dedi Gulshan, – yig'ishtirsang, ko'ngling ravshan bo'ladi.

– Uy yig'ishtirilmasa ham ko'nglim ravshan, – dedi Nozik va yonidagi Tuhfaga qarab ko'ldi.

– Tuhfa, sening ham ko'ngling ravshanmi?

Tuhfa og'zini katta ochib, Gulshanning oldig'a keldi:

– Mana, o'z ko'zing bilan qara, opa: ko'nglim chilchirog' yoqqandek ravshan, ko'rdingmi?

– Ko'rdim, ko'rdim?– dedi Gulshan, yuzini chetka o'gurib.–

<sup>1</sup> Son kirmoq – odobli bo'lmoq, aqlli bo'lmoq, tuzalmoq.

Ko'ngling ravshanligi ustiga yana bir narsa ham tilabdir...

– Nima tilabdir, ermi?– dedi uchunchi yoqdan Qumri.

– Ko'ngildagini topar ekansan, opa! Menikiga ham qara-chi, nima tilar ekan?

– Seniki ham er, – deb kuldi Gulshan.– Bularga bir so'zni ayt-da, qoch! Osh keldi. Nozik, dasturxoningni yoz!

Nozik dasturxon yozdi. O'rtag'a ikki xitoy laganda palov qo'yilib, Gulshan bilan yetti qiz oshqa o'turdilar. Kengash-pengash bo'lmadi. Xuftandan keyin uylardagi qizlar birin-sirin katta tanobiyg'a yig'ila boshladilar. Ikki childirma qizitildi va dutor, tanbur, g'ijjak, chang kabi asboblari sozlandi. Qizlar o'zaro bazmga hozirlanar edilar va har kech ham bazm bilan ko'ngil yozar edilar. Darhaqiqat, erkaklar dunyosidan aloqasi kesilgan mazluma, oila hayotidan mahrum bechoralar shundan boshqa nima bilan ham ovinsin? Ularning ovinchog'i – kunduzlari o'yun, kechalari bazm va tunlari uyqu ham tush edi.

Qizlarga maxsus nazokat bilan soz chalinar edi. Sozga yo'l-boshchilik qilgan childirma yarim tovushda gumbirlar, qo'ng'uroqlari shing'irlar edi. Katta qandildagi chilcharog' muri ostida haram qizlarining husni yalyonar, o'rtada o'ynag'uchining mammalari maqom bilan silkinar va «Qirq qizlar"dag'i kundalik bazmga odat qilgan boshqa havli kanizlari bilan tanobiy borg'an sayin to'la borar edi.

O'yunchi qulliq qilib, sahnadan chiqdi. Uning o'rnig'a Nozik qo'zg'aldi. Nozik sahnaga chiqishi bilan childirma ham boshqa kuyga o'tdi: – Bak-bakang, bak-bakang...

Childirmaga sozlar zamlangandan keyin, ikki o'rtadan uzuq va sho'x bir kuy tug'ildi. Nozik o'rtada xiromon<sup>1</sup> bir tarafka o'tkan edi, qizlarning ba'zisidan soz kabi sho'x va nafis ohang eshitildi:

*Ochilg'anda lolalar, terib yurg'ay bolalar,  
Aytingiz-chi, xolalar, o'tkan do'ndiq sozmidir?*

*O'tkan do'ndiq sozmidir?*

*Termulg'anilmasa, pisandiga ilmasa,  
Rahmi aslo kelmasa, Menga qilgan nozmidir?*

*Chekkani jabrim ozmidir?*

<sup>1</sup> Xiromon (forscha) – latif, nazokatli yuradigan, viqorli qadam tashlovchi.

Nozik o'ynar, qizlarning ashulasiga a'zo harakati bilan tasdiq ishorasini berar va bunda nafis bir san'at ko'rsatar edi.

*Bag'rim o'tda yonadi, yorim mendan tonadi,  
Qulni yo'qqa sanadi, mendan yo arazmidir?  
Mendan yo arazmidir?*

*Yorim yuzi gul erur, zulflari sunbul erur,  
Lahza ko'rgan qul erur, yoki bul pardozmidir?  
Yoki bul pardozmidir?*

*Xummor ko'zing o'ynatib, oshiqni arzon sotib,  
Isyon loyig'a botib, jabr-u sitam bozmidir?  
Jabr-u sitam bozmidir<sup>1</sup>?*

*Tirnamag'il sen yaram, yig'latma ko'b, qil karam,  
Turgan o'rningdir haram, ya'ni shohim bazmidir!  
Ya'ni shohim bazmidir!*

*Oy-u yillar yig'lag'an, bag'ri har dam tig'lag'an,  
Hasratidan big'lag'an<sup>2</sup>, baxtsiz bir qiz Nazmidir!  
Baxtsiz bir qiz Nazmidir!*

Keyingi baytlar og'ir bir foji'ani tasvir qildilar: oylar, yillar yig'lag'an, hasratidan hushsiz yiqilg'an baxtsiz bir qizning jonso'z faryodini gavdalantirib ko'rsatdilar. Bu o'runda sho'x kuy lobarg'ina qilib bir hasratka tarjimonliq etdi. Yuqoridan boshlab o'ynoqi ruhda kuylab kelgan qizlar va doim nozu karashmada bo'lg'an o'rtadag'i o'yunchi ham bundagi og'ir ma'noni o'zicha olishqa tirishdilar...

*Oy-u yillar yig'lag'an, bag'ri har dam tig'lag'an,  
Hasratidan big'lag'an, baxtsiz bir qiz Nazmidir!  
Baxtsiz bir qiz Nazmidir!*

Bu «baxtsiz bir qiz» bazmdagi qizlarning har qayusig'a ma'lum edi. Faqat bu majlisda uning faryodi ishtirok etsa ham, o'zi ishtirok etmas, behisob faryodlar, fig'onlar, hasratlar bilan charchag'an bu qiz hozir tuproq ostida tinchib uxlar edi. Uning tarjimai holini «qirq qizlar»dan har kim bilganidek, hatto uni qo'msab yig'lag'uchilar hali ham topilar edilar. Darhaqiqat,

<sup>1</sup> *Boz (forscha)* – yana, tag'in.

<sup>2</sup> *Big'lag'an* – big'illag'an, hushsiz yiqilg'an (muall.).

ozodliqdan mahrum etilgan mazluma qizlarga necha asarlar qoldirib ketkan bir shoirani kim bilmasin, ko'pchilikning aytalmagan hasratini kuylarga solib bergan shoirani kim unutsin? Oshiqidan ayrilgan bir ma'shuqa, nomusiga to'qunilgan bir mazlumaning faryodi kimlarning yuragiga kirib o'turmasin?

Shunday... Mundan bir yillar ilgari shu «qirq qizlar» ichida Nazmi ismlik bir qiz o'lgan edi. Bu shu qizning to'qug'an baytlaridan biri edi. Qizlarning so'ziga qarag'anda, Nazmi Qo'qon qishloqlarining biridan, chiroylik qiz ekan. Nazmi xolasining o'g'li bilan sevishkan, hatto to'y kunlari ham yaqinlashgan ekan. Otasi juda kambag'al dehqon bo'lib, Xudoyorning necha yillik soliqlarini to'lamagan ekan. Xudoyor cho'g'ollari (zolim tabiatlik, rahmsiz soliq yig'uvchilar) qishloqqa chiqib, Nazmining otasini siqqanlar, urg'anlar... Qizidan boshqa mol topolmay, uch yillik soliq badaliga Nazmini tutib, Xudoyorg'a tortiq qilganlar. Xong'a Nazmining husni yoqqan, uni doya xotinlarga qo'shib hammomga yuborgan. Xudoyor bir-ikki kech bechoraning nomusiga tegib, so'ngra «qirq qizlar»g'a qo'shqan... Nazmi shunda ikki yil, chamasi, kuylab, yig'lab yurgan, «qirq qizlar»g'a ko'b yangiliklar bergan va oxirida o'zi sil bo'lib o'lgan... Nazmining oxirgi ikki baytidan so'ng bazm bitdi. Har kim o'z joyiga tarqadi.

### XXXII Fasl. NOZIK

Gulshan boyagi yetti qizlar yonida uxlamochi edi. Nozik bilan Tuhfa o'run yozar edilar. Qumri Gulshanga sho'xliq qilardi.

– Sen ahmoqsan, Gulshan opa!– der edi Qumri.

– Eringni yolg'iz tashlab biz «bo'ydoqlar» ichida nima ma'no topasan?

– Aljimag o'l!– dedi Gulshan.– Senlardan, albatta, ma'no topmayman... Senlarning o'ylaganlaring faqat...

– Bo'lmasa sen nimani o'ylaysan?

– Men tiriklik to'g'risida o'ylayman. Senlar to'qliqqa sho'xliq qilasanlar. Bir vaqt men ham xonim oyimlarga cho'ri edim. Biroq senlardek...

Hamma qizlarning quloq-ko'zi Gulshanning og'zida edi. O'runni yozib bitirgan Tuhfa so'radi:

– Sen o'ylamasmiding?

Gulshan bir oz javobsiz, kulimsirab turdi.

– O‘ylasam ham senlarcha har kimning oldida valdiramas edim... Bu o‘zi shaytonning ishi. Namoz o‘qusang, ro‘za tutsang, xayolingga bu narsa hech kelmas. Mana bittasi Zarifa, senlardek uyat so‘zga og‘iz ochmaydir.

– Va-xa-xa-xa!– deb kulib yubordi Qumri.

– Ayt-chi o‘zing, Zarifa, sen kecha qanday tush ko‘rding?

– Qurib ket, – dedi Zarifa yuzini chetka o‘gurib.

– Kishini ko‘rgan tushi bilan ayblamakchi...

Qizlar birin-birin kelib o‘runlari ustiga o‘lturdilar. O‘run qator va bir-biriga taqashtirib soling‘an edi. Gulshan o‘zi uchun chetroqdag‘i o‘runni tanladi.

– Ko‘ylak yeshar!– dedi Qumri turg‘an ko‘yi va ko‘ylagini yeshib tashladi.

– Ishton solar!

Qizlardan to‘rttasi Nozikni ta‘qib etdilar va shart-shurt bir-birining yalang‘och etiga urishib shartak olishdilar. Qip-yalang‘ach qizlar bilan kulgi boshlandi.

– Senlarning yoningda yotqan kishi gunohkor bo‘ladi, – dedi Gulshan boshini ko‘rpaga burkab.– Agar bilsanglar, har qaysing ikkita, uchta bolaning onasi bo‘ladig‘an yoshdasanlar.

– To‘g‘ri aytasiz, aylanay Gulshan, – dedi Qumri yalang‘och o‘zini sham‘ga solib.– Menga yana bir qarab ko‘ring-chi, balki, besh bolaning onasi bo‘lsam ham arzir.

Hamma kulishib yubordi. Ko‘rpani bir oz ochib qarag‘an Gulshan ham bu holdan ichi qotib kuldi.

– Sham‘ni o‘chir.

Qumri toqchadag‘i sham‘ni o‘chirdi. Uy qorong‘ilandi. Endi «nari yot, beri yot» bilan bir-birlarini itarib, surib ko‘rpani to‘rt tomong‘a tortishib janjallasha boshladilar.

– Uxlatasanlarmi, yo‘qmi?– dedi Gulshan jekirinib.

– Jim, jim, – dedi yarim tovush bilan Qumri.– Gulshan bizning uyga uxlag‘ali kelgan ekan.

– Uyida eri uxlatmag‘an bechorani.

– Men shuning uchun ham erga tegmayman-da, – dedi Qumri.– Er deganning oti o‘chsin, kishini uxlatmaydi.

– Uxla, bechora, uxla, – dedi Tuhfa, – «Qirq qizlar»dan saranjomingni olib ket.

Yana kulgi ko‘tarildi. Gulshan harchand o‘zini ushlasa ham,

yana qizlarning kulgisiga tortildi.

– Gap-so‘zda ham bir ma‘ni bo‘lishi kerak, – dedi Gulshan, – bo‘shdan bo‘shka hiring-hiring, bundan ko‘ra tinch uxlag‘an yaxshi.

– Ma‘ni o‘zi nima, Gulshan opa?

– Ma‘ning ma‘nisini so‘rama, Tuhfa, – dedi Qumri, – Gulshan opam javob bersin, bizning shu «qirq qizlar»da qamalib yotqanimizda ham ma‘ni bormikin?

– Uni qo‘yavur, – dedi qizlardan yana biri, – Gulshan opam erini yolg‘iz tashlab, biz ma‘nisizlarning ichida yana bir ma‘nisiz bo‘lib yotipti; shunda ham bir ma‘ni bormikin?

– Tovushlaring o‘chsin.

– Bor, bor, – dedi allakim.– Bizga hamroh topib keladi.

– Bizga hamroh topib kelganida ham ma‘ni bormi?

– Nega ma‘ni bo‘lmasin, bizga o‘xshash ma‘nisiz ko‘payadi.

Yana kulgi ko‘tarildi. Qizlarning «ma‘ni»dan boshlang‘an «payrav»larining keyingi jumlasini Gulshanga ham ta‘sir qilib hiringladi.

– Qirilib ket hammalaring... Endi ma‘nisizni ko‘paytirmayman, tinch uxlalar.

– Barakalla, – dedi Nozik.– Ana endi sizga ham ma‘ni kiripti.

– Bekor aytibsan, Nozik, Gulshan opamga ma‘ni kirganiga ko‘b bo‘lg‘an.

– Masalan, qachon kirgan?

– Anchadan beri... Erga tekkaningizga qancha yil bo‘ldi, Gulshan opa?

Qizlar yana shaqqillashib kuldilar.

– Bemaza gapni qo‘yinglar, uxlayliq.

– Uxlashni bir oz qo‘yib tur, Gulshan opa, – dedi Nozik.– Men senga mazalik bir hikoya aytsam eshitasanmi?

– Hikoyang qursin...

– O‘zi mazalik gap. Eshitmasang, bari bir uxlatmayman.

Gulshan ming‘illab o‘rnida ag‘darildi.

– Ayt, lekin cho‘zma.

– Cho‘zmayman. Senlar ham jim yot, ovsinlar!

Bir-birini qitig‘lab, hiringlashkan qizlar Nozikning so‘ziga quloq solmadilar.

– Tuhfa, Qumri! – deb hayqirdi Nozik.– Tinchimasanglar bo‘g‘aman, maylimi?

Nozikning tahdidiga quloq soluvchi yana bo‘lmadi. Nozik irg‘ib o‘rnidan turg‘an edi, qizlar ko‘rpaga yashirindilar.

– Og‘zingg‘a ayamay uraman, Navro‘z!

Ko‘rpa ichida qizlarning piqillashi eshitilsa ham, boyag‘i to‘polon bitkandek bo‘ldi.

– Uyg‘oqmisan, Gulshan opa?

– Gapuraver.

Qizlarga yana bir martaba tanbeh yasag‘andan keyin Nozik o‘z o‘rnig‘a kelib o‘lturdi.

– Bir kun ertalab biz hammomdan kelar edik, – deb hikoya boshladi Nozik, – bizga yo‘l ustidan bir yigit hamroh bo‘ldi...

– Eski dard, – dedi allakim, qizlar piqillashib yubordilar.

– Eski gap bo‘lsa, kishini eshitkali qo‘ymaysanlarmi?.. Men Gulshan opamga so‘zlab bermaktimman, senlar eshitmasanglar, uxlalaring yo bo‘lmasa, so‘zni so‘zga qovishtirlaring!

– So‘zlay ber, biz tinch yotamiz, – dedi Tuhfa, – Navro‘z, Qumri, Hamroh, jim yotda, axir!

– Shunday, Gulshan opa, yo‘ldan bizga bir yigit hamroh bo‘ldi. O‘zi qanday yigit deb so‘ra: surma qo‘yg‘andek ohu ko‘zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko‘k maysa mo‘ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi... Ustiga kiygan beqasam to‘ni o‘ziga shunday yarashqanki, biz qizlar ixtiyorsiz unga qarashdiq, a, shundaymi, Tuhfa?

Tuhfa tasdiq qildi, Gulshandan uyg‘oqliq javobini olib, Nozik davom etdi:

– Yosh, uyatchan yigitka o‘xshadi. Yigirma chog‘liq qizning o‘ziga tikilganidan uyalib, yerga qaradi... Bizni hammomga olib borg‘uchi Nasiba xola bilan Hanifa doya edilar. Ular bizni yigitka aylanishkan holda ko‘rib, tez yurishqa qistadilar. Biz yigitka qaray-qaray nochor qadam bosar edik. Yigitcha bo‘lsa bizdan qolishmay birga kelar edi. Biz o‘rda darbozasiga yetayozg‘an edik men qayrilib orqamg‘a qaradim. Yosh yigit hamon o‘n qadam narida kelar edi... Shayton vasvasa qilib ko‘nglimga bir gap keldi. Sekin-sekin surilib, qizlardan keyin qola bordim. Eng orqag‘a chiqq‘ach, boshimdag‘i ro‘ymolni olib, paranji ichidan yerga tashlab yubordim... Darbozaga yaqinlashgan edik, darbozani ochib darbozabonlar chetlashdilar. Ro‘ymolim yerga tushdi-

mi, yo'qmi – bilmas edim, lekin darbozadan tashqarida tushib qolishini tilar edim... Ish kutkanча chiqmadi, deb afsus qildim, chunki darbozadan o'n adim ichkariga kirgan edik, darboza yo-pilmasdan yana orqamga qayrildim. O'zimdаn besh qadam narida tushkan ro'ymolimni boyag'i yigit engashib yerdan olar edi. Men burulib yo'limg'a keta berdim...

– Opa, ro'ymolingiz tushti!

Yuragim orziqib to'xtadim. Yigitchа ro'ymolimni keltirdi, tusida bir oz kulimsish bor edi.

– Siznikidir?– deb so'radi.

– Meniki, – deb qo'lidan oldim, rahmat аytish ham esimdаn chiqqan. Do'ndiq yigit boshqa so'z аytmadi. Ro'ymolni mengа berib o'rdaning ulug' darbozasiga qarab ketdi. Men bo'shshg'anchа qizlar orqasidan haramga sudraldim. Men yigitni bir adim naridan ko'rdim, tovshini ham eshitdim, qo'li ham qo'limg'a tegdi, shekillik. Uxlamaysanmi, opa?

– Uyg'oqman, – dedi Gulshan.

– Xo'sh undan so'ng nima bo'ldi?

– Nima bo'lg'anini hozir so'zlab beraman... Yuragim o'yna-g'an holdа «Qirq qizlar»g'a kirdim, «opa, ro'ymolingiz tushti, siznikimi?» jumlasi qulog'im ostidan ketmaydi va suvrati ko'z o'ngimgа kelgan sayin, yuragim orziqadi. U yoqni o'ylayman, bu yoqni o'ylayman, o'yimning boshig'a yetalmayman, ammo yuragimgа bir parchа olov tashlang'an, yonaberadir. Ichimdagi shu o't bilan go'yo men mast bo'lg'anman, boshim shishkan, ko'zim ting'an, yurg'animni-turg'animni bilmayman. Nega ko'r-dim, negа qaradim? Nega ro'ymolimni tashladim, negа olib berdi, negа o'rdag'a kiraldi? Bu o'zi jin, meni jinni qilmoqchi... Oh, yana bir ko'rsam edi! Hammom borg'anlarning har biridan so'rayman: «Yo'ldag'i yigitni sen ko'rdingmi?» «Ko'rdim»... «Ko'rgan bo'lsalaring senlarning ham yuraklaring yonadimi, yana ko'rging keladimi?» «Yo'q». Shundan so'ng uning jin bo'lg'anlig'ig'a ishonib qolaman: men jingа tegishdim, jin meni chaldi, deyman. «Bizning o'rdada shunday yigit bormi?» «Yo'q». «Senlar ham uning orqamizdan o'rdag'a ergashib kirganini ko'rdinglarmi?» «Yo'q». Demak, meni jin chalg'an... Tuhfa bo'lsa: «Sen pari yigitka oshiq bo'lg'ansan», deb kuladi. Men uning so'ziga ishonaman. «Balki pari yigitdir, ul ham meni yaxshi ko'rgandir», deyman. Shundan keyin men kuta boshla-



dim. Agar yaxshi ko‘rgan bo‘lsa, meni o‘z yurtiga olib ketar, deb o‘yladim. Erta kutdim, kech kutdim, pari yigitdan darak yo‘q. O‘n besh kundan so‘ng yana hammomga<sup>1</sup> borish chog‘i yetdi. Men so‘yindim, balki, bu kun parilar yurtiga ketarman, deb o‘yladim. Shu orzuda hammadan ilgari men otlandim. Bordiq. Hammomdan chiqib pari yigit bilan uchrashkan joyg‘a yaqinlashqan edik, yuragim o‘ynay boshladi. Uchrashilganda qiladiring‘an ishoratlarni o‘ylab qo‘yg‘an edim. Agar chetdan turib o‘ziga imlasa, qizlardan ajralib qolmoqchi edim. Ma‘lum joyg‘a yetdik... Pari yigit yo‘q. U yoq-bu yoqqa, tor ko‘cha ichlariga qaradim, yana yo‘q. Badanimga sovuq ter chiqdi, qizlardan ajralib, yo‘lda to‘xtab qolg‘animni ham bilmayman. Bir vaqt Nasiba xolaning chaqirg‘an tovshi bilan ko‘zim ochildi va ne zaydda qizlarga yetib olg‘animni bilmadim. O‘rda darbozasiga yetkuncha necha qayta orqamg‘a qaradim, – dedi Nozik va uzoq tin olib, bir oz to‘xtadi. – Shunday, men pari yigitka oshiqman. Uch oydan beri oshiqman, Gulshan opa.

– Pari yigitka oshiqmisan, xe-xe-xe.

– Nega kulasan, Gulshan opa?.. Ishonmasang, Tuhfadan so‘ra.

– Oshiqlig‘ingg‘a kulmayman, – dedi Gulshan yana kulib. – Sen aytkan yigit pari emas. Nozik o‘rnidan sapchib turdi.

– Kim bo‘lmasa?

– Odam!

– Odam? Sen uni ko‘rganmisan?

– Ko‘rganman... O‘zi bizning o‘rdada... Hozir poygachining o‘rnig‘a kim o‘lturgan, bilasanmi?

– Bilaman, mirzo Anvar otlig‘ kishi.

– Sen oshiq bo‘lg‘an «pari yigit» shu...

Tuhfa birdan xaxolab yubordi. Bu kulgidan uyqug‘a borg‘an qizlardan ba‘zisi cho‘chib ketdi.

– Mirzo Anvarga oshiq bo‘lg‘an ekansan, Nozik.

Nozik hamon qotib turar edi...

– Shu qadar yosh yigit mirzoboshi bo‘lg‘anmi, Gulshan opa?

– Bo‘lg‘an.

– Bo‘lsa ham arziydi, – dedi Nozik, – o‘zi uylanganmikin?

<sup>1</sup> Hammom (*arabcha*: cho‘milish joyi, vanna) – cho‘milish, yuvinish uchun issiq va sovuq suvlari, bir necha issiq va sovuq xonalari bo‘lgan maxsus bino.

– Men qayoqdan bilay, uylanganmi, emasmi? Uylanmagan bo‘lg‘anda ham seni olmas.

Nozik bir-necha vaqt jim qoldi...

– Albatta, meni olmas, – dedi Nozik, uning tovshi-da shu choqqacha eshitilmagan bir siniqliq ohangi bor edi.– Albatta, sen aytkancha, meni olmas. Menga it tekkan, men...

Gulshan javob bermadi. Bir ozdan so‘ng qatordan pishil-lagan tovushlar eshitildi va bu pishillashni ora-chora piq-piq yig‘lag‘an tovush buzardi.

### XXXIII Fasl. YANGI «HUNAR»

Ichkaridan chiqib kelgan maxdum mirzoboshini kutib o‘l-turg‘uchilar ichida mulla Abdurahmonni ham ko‘rib qoldi.

– Baxayr, mulla Abdurahmon, baxayr... Vaalaykum assalom.

Solih maxdum mulla Abdurahmon bilan ko‘rishdi va uni kishilardan ayirib mehmonxonag‘a olib kirdi.

– Xo‘sh, habba... Xo‘b salomatmisiz?

– Alhamdulillah... o‘zlarining sihatlari?

– Parvardigorga ming qatra... Xo‘sh, qadamlarig‘a hasanot?

– Men tunovi kungi marhamatlari yuzasidan...– dedi mulla Abdurahmon, – basharti mirzo Anvar janoblari muvofiq ko‘rsalar, munshiylikka kirsammi, degan niyatda...

– Ko‘b yaxshi, ko‘b yaxshi, – dedi maxdum, – ne g‘aroyiblig‘i bor, ilmingiz kofiy, faqat insho... inshodagi nuqsoningizg‘a, albatta, Anvar ustozlik qilar, qarab turmas... Husnixat vajida sizga ta‘lim hojat bo‘lmasa kerak.

– Tahrir va inshoda ham ustozga muhtojlik oz, – dedi bir oz nafi oling‘an<sup>1</sup> qiyofada, – mirzo Anvar kabi bo‘lmasamiz ham, undan beriroq, taqdir...

– Yana yaxshi, yana yaxshi. Ammo, lekin devonxonadagi barcha mirzo, muftilarga qarag‘anda Anvarning tahriri fasihroq<sup>2</sup> emish, Bu, albatta, ta‘lim xosiyati... Kam-ko‘st o‘rganilsa, beshak manfaati bo‘lur. Xo‘b... Mirzo Anvarga o‘zlari tasodif kelmakchilarmi yoki men vosita bo‘lsam durustmi?

– Bilmadim... O‘zlari vosita bo‘lsalar ham ma‘qulmi, deb

<sup>1</sup> Nafsi olinmoq – ko‘ngliga olmoq, og‘rinmoq.

<sup>2</sup> Fasih (arabcha: gapga chechan, so‘zamol, notiq) – ravshan, ravon, aniq, yoqimli; adabiy (nutq haqida). Bu yerda mukammal degan ma‘noda kelgan.

o'ylayman?

– Vositalik ham durust, zero, xotirjam so'zlasharmiz, soniy sizning kamolatingizdan mirzoboshini qanoatlandirish zarurati ham bor, – dedi maxdum va bir oz o'ylab to'xtadi.– Habba, devonxona qavoidicha<sup>1</sup>, yangi mirzo malaka hosil qilg'uncha vazifa emas ekan. Bizning Anvar ham ibtido vazifasiz xizmat qilg'an edi.

– Mohonada ahamiyat oz, zero, maishatimiz imomat orqasida ta'min, taqsir.

– Habba, bu tarafdin ham tashvish oz ekan. Inshoda chobakdast<sup>2</sup> bo'lib olsangiz, vazifa vajhi oson... G'ayraz, bobi oliyg'a aloha, kalon va kalonzodalar<sup>3</sup> bilan robita<sup>4</sup> ham kishiga ko'b manfaat beradir. Bu jihati sizga ko'b g'animat, – dedi maxdum va tovshini sekinlatdi.– Imomat bilan bir joyg'a yetib bo'lmaydir... Ammo bu andishangiz benihoyat ma'qul. Siz o'zimizning farzandimizsiz; zero o'z bolalarimizning o'rda bilan aloqador bo'lishlari bizga ayni manfaat. Xotirjam, mulla Abdurahmon, men Anvarga sizning vajhingizni tushuntirurman. Albatta o'z yonig'a olur.

Abdurahmon maxdumga rahmat aytdi va ketish uchun qo'zg'aldi.

– Qay vaqt xabar olsam bo'lur ekan? Albatta, javob o'zlaridan bo'lsa kerak?

– Habba, ertaga ba'daz bomdod, – dedi maxdum.– Nega qo'zg'aldingiz, choy, non, mohazar...

– Rahmat, taqsir.

Maxdum mulla Abdurahmonni havligacha kuzatib chiqdi va xayrlashib, Anvarni kutib o'lturganlar yonig'a keldi. Har kimdan ahvol va kutish uchun sabab so'radi. To'ni yangiroqlarning bolalari qayerda o'qushini, basharti shu dahadan bo'lsalar, nima uchun bolalarini boshqa maktabka berganliklarini tekshirdi. Ayniqsa kutib o'lturg'uchilar ichidagi yamoq to'nlik, qo'li qadoq bir dehqon maxdumning diqqatini o'ziga jalb etkan edi.

– Ho'-o'sh, kim, hali siz qishloqdan kelgan ko'rinasiz, – dedi maxdum, – qani, ayting-chi, kasal nima?

<sup>1</sup> Qavoid (*arabcha*) – qonun, qoida, tartib, nizom.

<sup>2</sup> Chobakdast – mohir, usta; chaqqon, epchil.

<sup>3</sup> Kalon va kalonzoda – mashhur (katta) odamlar va ularning farzandari.

<sup>4</sup> Robita (*arabcha*) – aloqa, munosabat, bog'lanish.

Dehqon maxdumning hurmatiga o'rnidan turib, qo'l qovishtirdi:

– O'n uch tanop yerimiz bor edi, taqsir... Chamasi, yang'ish bo'g'anda, o'ttuz uch tanopqa haq sog'anlar. Men shung'a arza yozdirayma, deb...

– Himm, – dedi maxdum, – qishlog'ingizda oqsoqol yo'qmi?

– Bo'g'an minan, taqsir, quloq soladig'an emas. Maxdum yana bir martaba dehqonni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi.

– Ariza yozdirishqa chaqa kerak bo'ladi, uka. Chaqangiz bo'lmasa, ovoragarchilikka arzimaydi, inim...

Dehqon belini timiskilab, go'yo chaqasini ko'rsatadig'andek harakatlandi.

– Chaqasiz arzag'a kelib jinni bo'lg'anmizma, taqsir. Maxdum dehqonning chaqasi borlig'ig'a qanoat qilsa ham, Anvardan xotirjam emas edi. Chunki «zarnoshunos»<sup>1</sup> Anvarning shu dehqong'a o'xshash kambag'allar ishini bitirib berib, ulardan «chaqa» olmaslig'ini bilar edi. Hatto shu to'g'rida Anvarga «bu ishingiz zarnoshunosliq, bolam» deb nasihatlar qilsa ham bir natija chiqmag'an, shunga binoan «zarshunos»<sup>2</sup> maxdum yaqindan beri qiziq bir hunar ijod qilg'an edi. Maxdum ko'pincha kishilar Anvarga uchrashib tarqalg'uncha, yo'lakda o'lturib olar edi. Anvarga yo'liqib chiqqan har bir kishini to'xtatib, natijani bilar, ariza yozdirg'an yoki boshqacha bir kengash olg'an bo'lsa, haq bergan, bermaganligini so'rar, Anvar berilgan haqni olmay qaytarg'an chiqsa, darhol – «siz chaqani oz bergansiz-da, mo'l-roq bersangiz, albatta, olar edi. Xo'b, mayli, borini menga tashlab keting, o'zim uni ko'ndirarman», deb ariza yozdirg'uchining bor aqchasini qoqmalab qolar edi. Hatto ba'zi vaqt ikki og'iz so'z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar: «Mishiq oftobga tekin chiqmaydir, sizdan aqcha so'rashqa iymanganda, menga bir narsa tashlab ketsangiz, o'zim unga berib qo'yarman. O'zingizga berishka uyalibdir, deb aytarman. Habba, yana ishingiz tushishiga yaxshi-da», – der edi.

Shu yo'sun maxdum bir necha haftadan beri bu «hunar»ni o'ziga kasb qilib olg'an, Anvar ariza va kengashdan bir pul ishlamagan kunlarda, ul necha tangalarni yo'lakda o'lturib topar

<sup>1</sup> Zarnoshunos (*forscha*) – boylikning qadriga yetmaydigan.

<sup>2</sup> Zarshunos (*forscha*) – boylikni yaxshi ko'ruvchi, ziqna.

edi. Kishilarni jo'natib xotirjam bo'lg'ach, jaraq-jaraq aqcha bilan ichkariga kirib ketar, ichkarida bu kungi «daromad»ni sanab, bir pulni besh puldan, tangani chaqadan ajratib: «He, gap bilguncha ish bil, bachcha taloq», – deb o'zicha kular edi. Albatta, bu hunarni uy ichidagilardan yashirar, ayniqsa, Anvardan «behad» andisha qilar edi.

Maxdum asr namoziga ketkan paytda Anvar o'rdadan qaytib keldi. Maxdum shoshib va asrni chala o'qub kelsa ham, yana baxtlik odamlardan anchasi ishni bitirib tarqag'an edilar. Maxdum attang o'qub mehmonxona darichasidan qaytdi, asr azonini kech aytkan so'fidan ranjidi. Ichkarida yana bir necha kishi ko'ringani uchun eski odaticha, go'yo biravni kutkandek, yo'lakka kelib turdi. Bir ozdan keyin mehmonxonadan bir mullanamo chiqib keldi. Maxdum chiquvchini yoqtirmag'andek yer ostidan ko'zini g'ilaylatib qarag'ach, birdan vaziyatini o'zgartdi:

– Assalomu alaykum, kelgan ekanlar, taqsirim! Vaalaykum assalom! Xo'b salomatmisiz, Solih maxdum? Mirzo Anvarda andak yumishimiz bo'lur ekan... Yashag'uringiz, ko'b ziyrak bola: kichkina ariza yozdirib oldim... Xo'b salomatmisiz, maxdum? Maxdumning og'zidan har turluk takalluflar chiqsa ham, uning nima uchun ariza yozdirg'anini so'ramadi. Chunki bu odam shu o'rtaning eshonlaridan bo'lib, gadoydan xayr kutish ma'nosiz edi. Mundan boshqa, eshonni so'zga tutsa, «kelasi daromad»ning ham qo'ldan ketish ehtimoli bor, shunga binoan maxdum so'zni muxtasar qilmoqchi bo'ldi:

– Ko'b yaxshi, ko'b yaxshi, kelib tursinlar, taqsirim!

– Kelamiz, kelamiz... Mirzo Anvarga fотиha ham lozim. O'zingiz bir ziyofat qilib chaqiray ham demaysiz, maxdum... Men mirzoga aytdim: bu xizimatingiz bilan qutulmaysiz, bir ziyofat qilib chaqirasiz, dedim. Mirzo ko'b saxiy tabiat ko'rinadi. Qachon kelsangiz, ziyofatimiz tayyor, eshon pochcha, deydi. Bolalarning to'yini qilar emishsiz, deb eshitdim. Mirzodan so'rasam, kulgulik bilan to'g'ri javob bermadi. Kori xayrni<sup>1</sup> to'xtatmag'an yaxshi... Xo'sh, to'y qachon, maxdum?

Maxdum bu dur-u daroz<sup>2</sup> «bema'nilik»dan ancha toqatsizlang'an, ichkaridan kishi chiqib ketmasin, deb ko'zi besaranjom edi.

<sup>1</sup> Kori xayr – foydali, savobli ish.

<sup>2</sup> Dur-daroz, dur-u daroz (forscha) – uzundan uzoq, uzun, ko'p so'zli; ortiqcha, cho'ziq.

– To‘yni ko‘klamga boshlasaq, deb turibmiz!

– Fursatni uzoqqa olibsizda. Xayr, har narsa vaqti soatiga yetib bo‘ladir. To‘ylaringiz ham kichkina bo‘lmas deb o‘ylayman. To‘rt dahaning kazolari ham to‘yg‘a aytilsalar kerak, haram xonimlarini ham bir kun kutarsiz... Zero kuyav bolangiz kichkina odam emas. Birar ming to‘n ketishi bu yerda turg‘an gap. Albatta, to‘yg‘a kelganlarning qo‘llari quruq bo‘lmas... Haram xonimlari bo‘lsa yuz tilloliq sarposiz kelmaslar, qizingizg‘a cho‘ri hadya qilsalar ham ajab emas. Albatta, «daromadga yarasha buromad»<sup>1</sup>, degan gap bor...

Maxdum, mehmonxonadan yurib kelgan oyoq tovshini eshitib, yomonlag‘an otdak tipirchiladi. Eshon bo‘lsa, hamon bulbul kabi sayrab borar edi:

– To‘ydan qo‘rqish kerak emas. Kori xayrnikini Olloh taoloning o‘zi yetkirar ekan. Sizning to‘yingiz-ku, albatta, boshqalarnikidan ko‘b katta bo‘ladir. Yana shunday bo‘lsa ham tavakkal bilan qulochni keng yoza berish kerak. Xudo xohlasa, to‘y kunlaringiz o‘zim kelib turarman. To‘y ko‘rmagan kishi uchun, albatta, odam kutish qiyin. Lekin menga o‘xshash odamdan ikkitasi bir kunda besh ming kishini kuta oladir.

Mehmonxonadan chiqib kelgan bir xotin kishi edi, ularning yonidan shovillag‘ancha o‘tib ketdi. Maxdum olazarak goh eshong‘a, goh xoting‘a qarab qoldi.

– Ayollar bo‘lsa ichkaridan xotirjam bo‘lishsin... Bizning ayollar to‘yda xotin kutib juda omilkor bo‘lishib qolg‘an. To‘ydan birar hafta ilgari xabar berilsa, albatta, bosh usti, ayollarni yuboramiz... Xayolingiz parishon ko‘rinadi, maxdum, birar a‘zongizda alam<sup>2</sup> bormi, mulla Solih?

Haqiqatan ham maxdum hozir juda besaranjom bo‘lg‘an edi. Chunki mehmonxonadan ikkinchi oyog‘ tovshi yurib kelar edi.

– Yo‘q, bahuzur.

– Shunday, to‘yda odam kutishdan xotirjam bo‘lasiz. To‘ydan ilgari haligi ziyofatni unutmang-chi, mulla Solih. Shu bahonada mirzo Anvar bilan ham bir suhbatlashaylik...

Boyag‘i dehqon yo‘lakdagi ikki «hurmatlik» zotka ta‘zim qilib, darbozaga o‘tdi. Betoqat maxdum eshonning so‘ziga quloq

<sup>1</sup> **Buromad** (*forscha*) – chiqim, sarf-xarajat.

<sup>2</sup> **Alam** (*arabcha*) – og‘riq; dard; azob.



solmay:

– Siz to‘xtab turing-chi, uka, – dedi. Dehqon narida to‘xtadi. Eshon yana so‘zida davom etdi:

– Agar fursatingiz bo‘lsa, men shu hafta ichi bo‘sh edim, mirzo Anvar har qachon ham tayyor ekan. Takallufning uncha ham hojati yo‘q. Mantimi, somsami, ishqilib, og‘izg‘a yoqadiring‘anroq taom bo‘lsa kifoya... Vaqtini belgilab, maktab bolalaridan birini bizning uyga yuborsangiz bas.

– Xo‘b, taqsir.

– Bo‘lmasa, gap shunday bo‘lsin. O‘zingiz ham bizni yo‘q-lab uyga borsangiz, qadamingiz kira tilaydimi? Xayr, mulla, Solih, ko‘rguncha xudoyning panohiga.

– Xayr, taqsir, xayr.

Maxdum eshonni hatto darbozagacha kuzatib chiqishg‘a ham ensasi qotib, dehqon yonida to‘xtadi:

– Nima gap, ariza yozdirdingizmi, uka?

– Yo‘q, taqsir, – dedi dehqon, – taqsirim shu qovozni pitib berdilar, tanopchig‘a ko‘rsatadug‘an qog‘oz ekan.

– Ko‘b yaxshi, – dedi maxdum, – qalam uchi berdingiz-mi?

– Yo‘q. Chaqa bersam olmadi, taqsirim.

– Ozg‘ina ber...

Maxdum «ozg‘ina bergansiz» demakchi edi, biroq «ozg‘ina ber» bilan tilini tishlab, dami ichiga ketishka majbur bo‘ldi. Chunki hozir mehmonxona tomondan Anvar kelib chiqqan va maxdumga salom bergan edi...

– Vaalayk... Men, shunday, masjiddan, – dedi maxdum shoshqan holatda va o‘z og‘zig‘a qarab turg‘an dehqong‘a ishorat qildi, – ishingiz bitkan bo‘lsa boravuring.

### XXXIV Fasl. XAYRUL-UMURI AVSATUHO

Dehqon «ozg‘ina ber» deb tilanguchiga nima berishini bil-magan holda yo‘lakdan chiqib ketdi. Maxdum terlagan, dovdira-gan yo‘sunda Anvar bilan ichkariga yurdi. Bir oz so‘zsiz bor-g‘andan keyin sekin Anvarning aftiga qarab qo‘ydi.

– G‘ozi eshon huzuringizda ekan, – dedi maxdum, – o‘zi ko‘b bema‘ni odam... Ziyofat-miyofat deb yaqin bir soat vaqtim-ni oldi. O‘zi ko‘b tammo’<sup>1</sup> odam. Sizga ham ziyofatdan dam

<sup>1</sup> Tammo' (forscha) – tamagir, manfaatparast.

urg'an bo'lsa kerak?

Anvar iljayib bosh irg'atdi. Maxdum G'ozzi eshondan koyib davom etdi:

– Tama' o'zi ko'b mazmumsufat<sup>1</sup>... Chunonchi, azza man qana', zalla man tama'<sup>2</sup>... Otasi marhum ham behad, tama'kor edi. It yeganini qusib, o'g'li undan ham rasvoroq chiqibdir. Bu avlodning kattadan-kichigi bir-biridan battar... Muft ariza yozdiribsan, keta ber. Yana bu o'rtada ziyofat ba chi ma'ni?!<sup>3</sup>

Anvar maxdumning so'ziga kulib, orqada borar edi. Maxdum ichkariga tomon so'zlanib kirar edi:

– Takalluf lozim emas emish: mantimi, somsami – har nachuk og'izg'a yoqadirg'an taom bo'lsa kifoya emish. Kabob bo'lsa yemasmidingiz, eshon?! To'yg'a o'zi bosh bo'lib turar emish, odam kutishni benihoyat bilar emish. Ey... man sandek tammo'ni to'yboshi qilib telba bo'ldimmi? Uyidan toq kelib, juft ketmakchi-da, bu tammo'.

Maxdum shu so'z bilan ichkariga kirib, havli sahnida chaqaloq ko'tarib turg'an Ra'no yonidan ayvonga o'tdi. Maxdumning orqasida kirgan Anvar Ra'noning oldida to'xtab, undan chaqaloqni oldi. Otasining yuzida achchig'lanish sezgan Ra'no Anvarga «nima gap?» degan kabi im qilg'an edi, Anvar ko'z qisib, arzimaganlik ishorasini berdi.

Maxdum ayvonga chiqib o'tlurar chog'ida yana bir «astag'firullo» deb qo'ydi. Chunki kayfi juda ham buzulg'an edi. Ilgari masjididan kech qaytish bilan buzulg'an avzo, G'ozzi eshoning «pastligi» ila juda ham avjiga chiqqan edi. Bu kungi kutilgan «daromad» sartopo<sup>4</sup> falokatka uchrab, maxdumning ko'nglini g'ash qilg'an, ayniqsa, dehqonning ham tekinga qutulishi va o'zining Anvar oldida sharmanda bo'layozishi... Bularning hammasiga shu «past», «tammo'» sababchi va shuning uchun ham maxdum G'ozzi eshon to'g'risida har bir so'zni aytishdan tortinib turmadi.

Anvar havli yuzida chaqaloqni vosita qilib, Ra'no bilan so'zlashar edi. Maxdum kechki osh pishirish bilan mashg'ul Nigor oyimdan taomning tayyor bo'lish vaqtini so'rab, Anvarni

<sup>1</sup> Mazmumsufat (*forscha*) – yomonlik qilishga, xato qilishga moyil.

<sup>2</sup> Azza man qana', zalla man tama' (*forscha*) – qanoatli aziz, tama'li kishi xordir (muall.).

<sup>3</sup> Ba chi ma'ni (*forscha*) – ziyofat haqida gapirishini qarang.

<sup>4</sup> Sartopo – boshdan-oyoq sarpo. Bu yerda ko'chma ma'noda, daromadidan quruq qolmoq.



o'z yonig'a chaqirdi.

– Qani, bu yoqqa, Anvar! – dedi maxdum.– Taomni shu asrda tanovul qilsaq ham bo'lur... Sen, Ra'no, ukalaringga qara-chi: Mansur tashqarida ko'ringandek edi; darbozani ham zanjirlab kir, qizim!

Ra'no tashqarig'a chiqib ketdi. Anvar qo'lida chaqaloq bilan ayvon muyushiga kelib o'lturdi. Chaqaloq Anvar qo'lidan irg'ib har tarafka talpinar va turlik tovushlar chiqarib qichqirar edi. Maxdum chaqaloqning harakatiga qiziqsindi:

– Mam-mam, mam-mam-mam, – dedi qo'lini chaqaloqqa uynatib, – du-du-du, du-du-duv...

– Hay bachchataloq, hay bachchataloh!.. Behad sho'x bo'libti-da, behad, du-du-duv!

Chaqaloq maxdumga talpinar, kichkina qo'llarini goh ochib, goh yumar edi.

– Kel, yigit, kel! Alhol xo'nda, xom; qizamiq chiqib o'tsa edi. Du-du-duv!

Ra'no ukalarini boshlab kirdi. Maxdum chaqaloqni qo'yib, bolalarni koyib ketdi:

– Hay bema'nilar! Chaqirma, uyga kirishni bilmaysanlar! Kiyimni qara, kiyimni! Turpoqqa ag'nadingmi, eshshak! Qoq, qoq, yeshib qoq! Attang-a, esiz kiyim... Bularni endi nima qilsa bo'ladi, Anvar?

Anvar maxdumdan qo'rqib turg'an bolalarning ahvolig'a qarab, kulimsidi:

– Esi kirib qolar.

– Qiyomatdami? Bularning tatig'ini bermasam.... he, ko'zlaring qursin! Ra'no, sen akangga ko'rpacha solib, ukangni ol, onangg'a ayt, osh dam yegan bo'lsa, suzsini!

Ra'no ayvonga ko'rpacha yozib, Anvardan chaqaloqni oldi va onasining yonig'a ketdi.

– Anvar, qani ko'rpachaga chiqing!

Qo'llaringni yuvib kel, eshshaklar! Bolalar yugurishib ariqqa ketdilar. Anvar ham qo'l yuvish uchun bolalar orqasidan bordi. Ariqning suvi juda loyqa edi. Anvar bolalarni ariqdan qaytarib, obdastadagi tiniq suvdan ularning qulig'a quyib, yuvintirdi. Navbat o'ziga yetkanda ayvonda turib, maxdum baqirdi:

– Ra'no, akangning qo'lig'a suv quy!

Anvar Ra'noning kelib suv quyishig'a qaramay, o'zi yuvina

berdi. Ra'no yetib kelguncha qo'lini yuvib oldi. Maxdum qizidan achchig'landi:

– Juda sust qadamsan-a, Ra'no. Seni talqon yeb suvga yuborg'an kishi qaytib kelguningcha, tiqilib o'ladi!

Maxdumning tashbihidan<sup>1</sup> Anvar va Ra'no kulishdilar. So'zni joyida ishlatkani uchun bo'lsa kerak, maxdumning o'zi ham kulimsiradi:

– To'g'ri-da, mirzo Anvar, qo'li sust kosibdan oyog'i chaqqon gadoy yaxshi emish!

Ular yana kulishdilar. Maxdum zavqlandi. Anvar ko'rpa-chaga chiqqandan keyin Ra'no o'rtag'a dasturxon soldi. Nigor oyim sopol laganda palov keltirib, hammalari birga oshqa o'lturdilar. Osh o'xshalg'an edi. Birinchi oshamdayoq maxdum Nigor oyimni taqdir etti:

– Bu kungi oshing durust, Nigor... Biroq go'shtni ko'b solibsan.

Nigor oyim kulimsib Anvarga qaradi:

– Go'sht ko'b bo'lsa, osh o'xshaladir.

– Xayrul-umuri avsatuho, Nigor<sup>2</sup>.

– Bu so'zning oshqa go'shtni ko'b-oz solish bilan nima aloqasi bor?

Ra'no onasining bu so'zi bilan piq etib kuldi. Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetka qaradi.

– Hadisning hukmi om<sup>3</sup>, Nigor, – dedi maxdum. – Bundagi umur – umurid-dunyo<sup>4</sup>, umurid-dunyo iborat az harakati ahli mo'min<sup>5</sup>. Inchinin<sup>6</sup>, bu hadisning amaliyoti oxirat uchun ham hukmi joriydir<sup>7</sup>... Masalan, shab-u ro'z<sup>8</sup> savm<sup>9</sup> va salat<sup>10</sup> mo'min kishini jisman notavon va nafaqai ahli ayoldan ojiz qiladir. Bas, bu holda ibodatning kasrati, ya'ni toatda ifrot<sup>11</sup> ham xayr ul-

<sup>1</sup> **Tashbih** (*arabcha*) – o'xshatish.

<sup>2</sup> Har ishning o'rtasi yaxshidir, yoki: ishda e'tidol yaxshi (muall.).

<sup>3</sup> **Hadisning hukmi om** – 1) payg'ambarning buyrug'i hammaga tegishlik; 2) hadis ilmi hammaga bir xil, hammaga teng.

<sup>4</sup> **Umurid-dunyo** – dunyo ishlari.

<sup>5</sup> **Az harakati ahli mo'min** – musulmonlarning hatti-harakatlari.

<sup>6</sup> **Inchinin** –shu jumladan, shuningdek.

<sup>7</sup> **Hukmi joriy** – amal qiladigan, foydasi tegadigan, yaraydigan.

<sup>8</sup> **Shab-u ro'z** (*forscha*) – erta-yu kech, doimo.

<sup>9</sup> **Savm** (*arabcha*) – ro'za.

<sup>10</sup> **Salot** (*arabcha*) – islom dinidagi 5 ta ruknning eng asosiysi: bir kunda, muayyan vaqtlarda belgilangan tartib va shartlar asosida sig'inadigan ibodat.

<sup>11</sup> **Ifrot** (*arabcha*) – haddan oshish, oshirish; ortiqchalik, ortiq darajada; suiiste'mol.

umur<sup>1</sup>ga qo‘shilmas, zero, farz va sunnat banda uchun kofiy erdi. Ma‘noyi kofiy chist, ay avsat<sup>2</sup>... Binobarin, bu hadisi sharif ro‘zg‘orot<sup>3</sup> borasida dastur tutilsa, yana ayni hikmat va savob. Masalan, oshqa yigirma paysa go‘sht solmoqchisan; ammo «avsat» qilmoq niyatida, mazkurdan o‘n paysani ajratib qolding.. Bas, hikmatni tomosha qil; ertasi kun oshing yana jazlik, ya‘ni «avsat» bilan ikki kunlik ehtiyojdan qutilib, savobga ham daxldor bo‘lding. Hikmati digar: dunyo vajhing<sup>4</sup> yaxshi erdi. Taomni yaxshi mazalik yeb, nafsing yaxshi oshqa ho‘ qildi<sup>5</sup>. Vaqti kelib, aftodahol<sup>6</sup> bo‘lding, kuning go‘shtsiz taomg‘a qoldi: ammo nafsi ammorangni<sup>7</sup> serjaz oshqa ho‘ qildirg‘aning vajhidan go‘shtsiz osh og‘zingg‘a yoqmaydir, bu – bir aziyat; soniyan: laziz oshqa ho‘ qilg‘an nafsing taqozasi bilan, anvo‘i habosatlariga va mazmum kirdorlarga<sup>8</sup> irtikob qilmog‘ing<sup>9</sup> xavfi ham bordir; bu nimadan keldi? Albatta «avsat»ka rioyasizlig‘ingdan. Maxdumning «amri ma‘rufi» Nigor oyimg‘a qaratib so‘zlansa ham, haqiqatda umumiy, ya‘ni, bir o‘q bilan bir necha qushni urmoqchi edi. Biroq, qarshig‘a qarab otilgan bu o‘qdan maxdumning o‘zi ham amin emas, agar lagan tevaragidagi o‘lturg‘uchilardan biri turib, boshqalaridan qat‘i nazar, faqat bu kungi xayrumuringizni misolga olayliq: «Yo‘lakdagi «umurid-dunyongiz» o‘zingiz aytkan «avsat»ka kiradimi?» deb so‘rasa, bilmadikki, maxdum nima deb javob berar edi. Madrasa ko‘rgan Solih maxdum, balki, bu savoldan ham shoshib qolmas. Kitobning «nafaqa» bahsidan varaq ochib, «nafaqai ahli ayol» uchun bo‘lg‘an «harakat»ning farzlig‘idan va bundagi hisobsiz savoblardan dam urib, «nafaqa» bilak ishi yo‘q ba‘zilarni «erga qaratsa» ham mumkin edi... Lekin o‘q yeganlardan hech birisi maxdumga qarshi chiqmag‘anlaridek, uning so‘zini tasdiq etish belgisini ham ko‘rsatmadilar. Ehtimolki, ular muqobalaga ojiz edilar yoki qarshi chiqishg‘a orada boshqacha bir sabab bor edi. Faqat bir-birisiga qarshi o‘lturgan ikki yosh ma‘noliq ko‘z urishtirib

<sup>1</sup> Xayr ul-umur – foydali, savobli ishlar amallar.

<sup>2</sup> Ma‘noyi kofiy chist, ay avsat – yetarli deganning ma‘nosi nima, bu demak o‘rtachalikdir.

<sup>3</sup> Ro‘zg‘orot – ro‘zg‘or ishlarida.

<sup>4</sup> Dunyo vajh – daromad, orttirilgan boylik.

<sup>5</sup> Ho‘ qilmoq – o‘rganmoq.

<sup>6</sup> Aftoda(hol) (forscha: yiqilgan, darmonsiz) – 1) notavon, nochor, abgor; 2) tushkun holatli.

<sup>7</sup> Nafsi ammora – ochko‘z nafs.

<sup>8</sup> Kirdor (forscha) – qiliq, qilmish, xulq; amal, odat, ish, xatti-harakat.

<sup>9</sup> Irtikob qilmoq – harakat qilmoq, intilmoq.

kulimsidilar.

Maxdum amri ma'rufdan keyin oshqa qaradi, ko'b vaqt so'zsiz faqat oshdan bosh ko'tarmadi. Maxdumning da'vosicha, har bir ishda ham «avsat» mezondir<sup>1</sup>. Lekin osh olishda bu «mezon» unutildi. Boshqalar ora-chora bir go'sht qo'shib olg'anda, maxdum bir oshamni ham go'shtsiz yubormasliqqa tirishib bordi, ya'ni «avsat»dan o'tib «a'lo»da ish ko'rdi...

Oshni yarimlatqanda, maxdum lagandan bosh ko'tarib, Anvarni tuzukroq olishg'a taklif qildi, bolalarni oshni to'kib yeyishda ayblab, Ra'noni chipxo'r<sup>2</sup>ligi uchun koyidi:

- Chipxo'rsan-da, qizim... Shu ham osh yeyishmi?
- Meniki adno, - dedi Ra'no.

Bu so'z Anvar va Nigor oyimlarni tovush chiqarib kulishka majbur etdi.

- Senga bir so'z tegmasin, qizim, - dedi kulib maxdum.- Oshni sust yegan kishi, ishda ham sust bo'ladir.
- Bo'lmasa, oshni «a'lo» yeyish kerak ekan-da...
- Og'zing kuymasa, a'losi ham durust.

Yana kulishdilar.

- Hay, voqi'an, - dedi maxdum, kulgi orasi to'xtab.- Mirzoboshidan bir iltimosimiz bor ekan, yodimdan chiqayozg'an ekan... Kim hali... habba, boya mulla Abdurahmon kelgan edi. O'shal va'damizga muvofiq siz bilan uchrashmakchi ekan. Chog'i ul ham mirzoliqqa kirishmakchi. Xo'b, men mirzo Anvar bilan gaplashib qo'yarman, o'z yonig'a olsa kerak, dedim. O'zi yaxshi mulla bo'lg'an ko'rinadi, zakki tab'<sup>3</sup> yigit...

Anvar bir oz o'ylab turdi.

- Kim u mulla Abdurahmon, xotirlay olmadim?
- O'zimizning mulla Abdurahmon-chi, axir... Yorlig' olg'an kuningiz fotihaga kelgan yosh imom.

Anvar yana bosh chayqadi:

- Hech bir esimda yo'q.
- Xo'b, - dedi maxdum o'ng ko'zini qisib.- O'shal kun fotihaga kelgan bo'zchi muxlisingizni xotirlaysizmi?
- Xotirlayman.
- Habba, endi o'shal bo'zchining ustiga kirgan yosh mullani

<sup>1</sup> Mezon (arabcha) - o'lchov, taroz; muvozanat; odillik. Bu yerda o'lchov ma'nosida kelgan.

<sup>2</sup> Chipxo'r, chipxo'r, chimtovoq - kam ovqat yeydigan.

<sup>3</sup> Zakki, zakiy tab' - aqli, dono tabiatli (insonga nisbatan.)

ham xotirlab qarang.

– Xotirimga keldi... O‘zi yoshlig‘ida bizning maktabda o‘qug‘an?

– Habba, – dedi maxdum va bahska Nigor oyimni ham tortdi, – uni sen ham bilasan.

– Men qayoqdan bilay?

– O‘zi Buxoroda o‘qub kelgan, Ra’noga bir necha qayta sovchilar yuborib yurg‘an odam.

Nigor oyim boshi bilan «tanidim» ishorasini berib, Anvarga sekin ko‘z qirini yubordi. Ra‘no «sovchi» so‘zi bilan ensasi qotqandek sochiqni olib qo‘lini artdi. Maxdum keyingi so‘zini o‘ylab aytdimi, yo‘qmi – har nachuk Anvarda g‘ayurlik kabi bir his uyg‘onib, o‘zidan javob kutkuchi maxdumga iltifotsiz, Ra‘nodan sochiqni so‘radi.

– Nega qo‘l artasiz, Anvar. Kun bo‘yi och yurib, yegan oshingiz shumi?

Anvar Nigor oyimg‘a rahmat aytib, to‘yg‘anini so‘zladi va qo‘l artar ekan, chaqaloqqa gap qotdi:

– Anvar bilan Ra‘noning tuprog‘i bir joydan oling‘an, – dedi maxdum osh oshalab, chunki hanuz uniki «avsat”ka yetmagan edi, – ikkisi ham kam taom.

Maxdumning bu so‘zi yuqoridag‘i gunohini yuvg‘andek bo‘ldi. Ular bir-birlariga qarashib, iljayishdilar. Nigor oyim ham og‘irliqdan chiqdi.

– Shunday, Anvar... Shu yigitni o‘z yoningizg‘a olsangiz, qalay bo‘lar ekan?

– Hozircha mirzog‘a ehtiyojimiz yo‘q.

– Mirzoga ehtiyojingiz bo‘lmasa ham, yana shunday kishilarni olg‘aningiz ma‘qul, deb o‘ylayman. Zero bundaylar o‘zingazga sinamol<sup>1</sup>, yana o‘z tarbiyangizda yetishsalar, boshqalardan sizga xayrixohroq, inchinin, xizimatingizga aztahidil kamarbasta bo‘lurlar<sup>2</sup>. Bu ham bir maslahatda, bolam Anvar.

– O‘ylashib ko‘rarmiz.

– O‘ylashqan, albatta, yaxshi va lekin men buni ko‘b vaqtlardan beri andisha qilur erdim. Biloxir<sup>3</sup>, amniyatingiz uchun bu tadbirni ko‘b puxta idrok qildim. Zero Sultonali mirzodek ham-

<sup>1</sup> Sinamol – tekshirilgan, sinalgan, sinovdan o‘tkazilgan, ishonchli.

<sup>2</sup> Kamarbasta bo‘lmoq – xizmatda bo‘lmoq, xizmat qilmoq.

<sup>3</sup> Biloxir (forscha+arabcha) – natijada, va nihoyat, oqibatda.

kuflaringiz<sup>1</sup> ko'paysa, xayriyatingiz, degan mulohaza fikrimga keldi.

– Balki, to'g'ridir...

Anvarning ko'zi dasturxonda edi. Bu to'g'rida qat'iyatsiz muhmal javoblar berishidan nendir tuying'an Ra'no Anvardan ko'z olmay turar edi. Nigor oyim Mansurga qolg'an oshni yedirib qo'yish bilan ora-chora gapka ham quloq solg'andek bo'lar edi.

Maxdum kekirib, sochiq so'radi.

– Bu andishaning haqlig'ida shak yo'q, Anvar, – dedi va dasturxondagi donlarni terib, og'zig'a tashladi. – Menga taslim bo'lib ibtadaan shu mulla Abdurahmonni o'z yoningizg'a oling.

Ul bir necha oyg'acha muft xizmat qilishg'a ham rozi.

– Masala uning muft yoki haqli xizmat qilishida emas.

– Ya'ni, masalan?

– Men yangi mirzo boshlab borsam, u yerdagilarga og'ir kelmasmikin, deb o'ylayman.

– Ul majjonan<sup>2</sup> xizmat qiladi, bas, mirzolaringizg'a nima og'irliq?

– Yana har holda, bir-ikki oydan keyin bo'lsa ham ularga raqobatchi ortadir... Ayniqsa, bizning Shahodat mufti kabilarning fe'li sizga ham ma'lum.

– Shahodat mufti o'zi qanday it! – dedi maxdum. – Andishamiz ham bamisoli shunday itlar qarshisig'a o'z kishingizni tikkaytarish emasmi? Yoshlig'ingiz bor, bolam yoki yangi mirzo olishda biravning ruxsatiga hojat bormi?

– Yo'q.

– Ana, xolos. Az karnaychi yak kuf<sup>3</sup>. Men erta unga aytay, huzuringizga boraversin.

– Borishi qochmas... Ilgari men u yerdagi ba'zilar bilan kengashayin-chi.

– Xo'b, ularning yuzi uchun kengashkan ma'qul, ammo, baharhol, olmoq kerak.

Maxdum fotiha o'qub, shom namoziga qo'zg'aldi. Tashqi yo'lakka yetkanda, yodig'a G'ozni eshonning bema'niligi kelib tushti, shu qatorda to'y, to'yg'a ishtirok etadigan kazolar, xonim oyimlar, hammadan ham muhim va qizig'i yomg'ur kabi yog'ila-

<sup>1</sup> Hamkuf (*forscha*) – safdosh; do'st; hamkasb.

<sup>2</sup> Majjonan – haq olmasdan, bepul, tekinga.

<sup>3</sup> Az karnaychi yak kuf – karnaychidan bitta puf.

dirg'an to'yona va ularning saranjomi... So'fi takbir tushurarkan, maxdumning ko'nglidan «Ra'noga cho'ri qo'sha ko'rmasinlarda, tishlik hayvonning bo'lg'anidan bo'lmag'ani yaxshi» degan andisha kechti...

### XXXV Fasl. XON KO'NGIL OCHMOQCHI

Qavs<sup>1</sup> oyi kirgan bo'lsa ham, havo mo'tadil, kun juma edi. O'rda bog'ig'a suv sepilib, supurilgan, o'rtadag'i shahsufaga lolagul gilam yozilib, xonning o'lturishi uchun baxmal ko'rpacha ustidan arslon terisi tashlang'an edi. Hozir shahsufa xon va a'yondan xoli, ammo shahsufa qarshisidag'i nimsufalar vazirlar, sarkardalar, qozikalon<sup>2</sup>, shayxulislom<sup>3</sup>, qozi-quzzot, rais va shaharning zo'r ulamolari – mudarrislar, ahli tariqat<sup>4</sup> eshonlar, o'rda xodimlari va eng pastlarini qo'rboshi va dahboshilar bilan liq to'lg'an edi. Ulamo qismida umuman banoras to'n, oq salobatlik salla, vazir va sarkardalarda kimxob va baxmal to'nlar, boshlarida ba'zan salla va ba'zan o'siq barradan tikilgan telpaklar hilpirar edi.

Xon bu kun juma namozigacha ko'ngil ochmoqchi va bundagi yig'ilg'anlar shu ko'ngil ochish soatida ishtirok etkuvchi xonning ko'ngil tortarlari, ya'ni mamlakat a'yonlari edilar. Xon hali ichki o'rdadan chiqmagan, hamma ra'iyat «janobi oliy»ni kutib muhtasham darbozaga ko'z tikkanlar edi. Shahsufadan bir oz narida, atrofi bordon<sup>5</sup> bilan o'rog'liq bir kapa paydo bo'lg'an va bu kapa ichida bir necha kishi suhbat qurib o'lturar edilar. Bir necha daqiqa kutkandan so'ng, muhtasham darbozada Darvesh udaychi ko'rinib, qarshisidag'i ra'iyatka<sup>6</sup> o'rundan turish ishoratini berdi. Birdan hamma shuv etib qo'zg'aldi. Darvesh udaychi darboza yonig'a o'tib, ruku'ga<sup>7</sup> bordi. Ichkaridan kimxob to'n

<sup>1</sup> **Qavs** (*arabcha*: o'q-yoy burji) – O'n ikki burjning biri, Aqrab va Jad(iy) burjlari o'rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida to'qqizinchi oyning *arabcha* nomi (22-noyabr-21-dekabr orasidagi davrga to'g'ri keladi).

<sup>2</sup> **Qozikalon** (*arabcha+forscha*) – katta qozi, bosh qozi, eng yuqori darajadagi qozi.

<sup>3</sup> **Shayxulislom** (*arabcha*) – islom dini shayxi; diniy qonunlarni sharhlovchi.. Musulmon ruhoniylari boshlig'ining unvoni, oliy diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoniy.

<sup>4</sup> **Ahli tariqat** – tariqat ahli, so'fiylar.

<sup>5</sup> **Bordon** (*forscha*: katta xurjun) – 1) qobig'i olinmagan qamishdan bo'yraga o'xshatib to'qilgan qalin dag'al to'shama. 2) shunday to'qimadan tayyorlangan maxsus qop, idish.

<sup>6</sup> **Raiyat** (*arabcha*) – poda; qavm; fuqarolar, aholi. **Bu yerda shu majlisda bor shaxslar nazarda tutilgan.**

<sup>7</sup> **Ruku'** (*arabcha*: tiz cho'kish, tiz cho'kib sajda qilish) – namozda boshni egish, ikki bukulish. **Bu yerda ta'zim qilish ma'nosida kelgan.**

bilan yo'g'on qornini o'rag'an, oq shohi sallasini manglayig'acha tushirgan Xudoyor ko'rindi. Xon ko'rinishi bilan barcha ra'iyat ham udaychi kabi ruku'ga ketdilar. Xudoyor orqasidan yosh O'rmonbek qizil baxmaldan tikilgan sipohi kiyim bilan otasini ta'qib etar edi. Buning orqasidan qizil movutdan shahzoda kabi kiyinib, siloh<sup>1</sup> taqing'an va har qatorg'a to'rt nafardan terilgan o'n olti-o'n yetti yashar, yosh va xushro'y sipohlar (mahramlar) chiqdilar. Xon shahsufaga qarab keldi. O'ninchi qatordan so'ng yosh sipohlar turkumi uzulib, yaxshi intizomlik qirq nafar navjuvon shahzoda orqasida xonni ta'qib etar edilar. Shu holda nimsufalarning biridan chalg'ular tovshi keldi. Sozlar nafis va ohangdor qilib «Sarbozcha» kuyini chaldilar. Kuy sozda qaytarib oling'ach, xon orqasidag'i yosh sipohlarning bir qismidan shu kuyning ashulasi eshitildi:

*Shahanshohim, shahanshohim, baxtingiz kulsin!  
Davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko'rsin!*

*Qalqon ushlab, xanjar taqqan yovlar maydonga!  
Nomussizlar, vafosizliq qildingmu xong'a!*

*Bizning aytkan nazrimiz bor Shohimardong'a!  
Ahdin buzib dinin sotqan bo'yalgay qong'a!*

*Shahanshohim, shahanshohim, baxtingiz kulsin!  
Davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko'rsin!*

Xon sufaning zinasiga yetib, yuqori mindi. Shahzoda ham otasini ta'qib etdi. Yosh sipohlar xon va O'rmonbekni zinada qoldirib, to'g'rig'a o'tdilar, sufadan aylanib borib, xonning muhofazatiga<sup>2</sup>, ya'ni Xudoyor o'lturadigan arslon terisining orqasig'a saf torta boshladilar. Xon borib arslon terisiga o'lturdi. O'rmonbekni o'zining o'ng tomonig'a oldi. Ra'iyat hamon ruku'da... Yosh sipohlar sufaning uch tarafini qurshab olg'an edilar. Xon joylashg'ach, ruku'dagilarga tikkayish ishoratini berdi. Barcha bosh ko'tarib, qo'l qovishtirdi. Soz ham to'xtadi. Sufaning zinasida udaychi hozir bo'lib, qo'lini ko'tardi, ra'iyat ham uning bilan barobar duog'a qo'l ochdilar.

<sup>1</sup> Siloh (*arabcha*) – qurol, qurol-aslaha; qo'shin turi. Bu yerda **qurol-yarog'** ma'nosida kelgan.

<sup>2</sup> Muhofazat (*arabcha*) – saqlash, himoya; qo'riqchilik. Bu yerda xoning orqasida joylashgan qo'riqchilik joyi nazarda tutilgan.



– Dushmanlar xarob, munofiqlar betob o‘lsin... Onhazratimning davlatlariga xudo tavfiq-u<sup>1</sup> adolat bersin!

Duodan so‘ng barcha yuz siypadi. Xon udaychiga bir narsa deb ishorat qildi.

– Mingboshi<sup>2</sup>, qushbegi<sup>3</sup>, domla shog‘ovul, janob shayxulislom, otaliq<sup>4</sup> va amsoli hazratka ul janob o‘z huzurlaridan joy mehribonchilik qiladirlar!

Udaychi sanag‘an kishilar birin-birin shahsufaga chiqib xong‘a salom va ta‘zimdan keyin atroflab tura boshladilar. Sufaga o‘n chog‘liq arkon<sup>5</sup> chiqqandan so‘ng, xon udaychiga yana bir narsa deb qo‘ydi.

– Farog‘at ato qildilar!

Sipohlardan boshqa barcha tik turg‘anlar shuv etib o‘lturdilar. U yer-bu yerdan yo‘talgan tovush eshitildi.

Udaychi xong‘a arz qildi:

– Onhazratimning davlatlariga xudo tavfiq-u adolat bersin... Qullaridan biri valine‘matimga ikki kalima arzim bor, deydir!

Xon kelsin, ishoratini qildi. Barchaning ko‘zi boyag‘i bordonliq uyga tushti. Bordon ichidan uzun bo‘ylik, qora soqolliq, ustida malla to‘n, simobi bo‘z sallasining pashini bir qarich osiltirg‘an bir kishi chiqdi; tamkin, viqor bilan bitta-bitta yurib kelib, zina yonida xong‘a qarshi to‘xtadi... Xondan tortib hammaga tabassum tusi kirgan edi. Kishi xong‘a qarshi turg‘an holda sallasini tuzatdi, soqol-murtini siladi, to‘nini qoqib, oldini o‘radi, so‘ngra xotirjam ruku‘ga bordi. Birdan xon va raiyat kulib yubordilar. Bu kishi Xudoyorning eng yaxshi ko‘rgan qizig‘i Zokir-gov edi.

Zokir-gov boshini ruku‘dan ko‘tarib, go‘yo janoza o‘qug‘an kishidek, ikki yelkasiga salom berdi. Yana gurr etib kulib yubordilar. Zinaning ikkinchi boshida turg‘an Darvesh udaychi Zokir-govga tanbih berdi:

– Kimning huzurida turg‘anlig‘ingizni unutmang!

<sup>1</sup> **Tavfiq** (*arabcha*: muvofiqlashtirish; yarashtirish, kelishtirish; yordam, madad; baxt, omad) – to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi din yo‘l-yo‘riqlari, insof, diyonat; e‘tiqod. **Bu yerda yordam, madad; baxt, omad ma‘nolarida kelgan.**

<sup>2</sup> **Mingboshi** – 1) daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi; 2) qo‘shin boshlig‘i.

<sup>3</sup> **Qushbegi** – amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor; hokim.

<sup>4</sup> **Otaliq** – xonlar saroyida eng yuqori amallardan biri; xonning maslahatchisi.

<sup>5</sup> **Arkoni davlat** – davlat arboblari, yuqori martaba egalari.

Zokir-gov qo‘li qovushtirilg‘an holda, gavdasini qimirlatmay yonidag‘i udaychiga qaradi:

– O‘zim ham bilib turibman, bu yerda ahmoq bor, deb o‘ylaysanmi?

– Xo‘sh?

– Xoning‘a arzim bor!

Yana gurr etkan kulgi bog‘ni tutib ketdi<sup>1</sup>.

Udaychi:

– Arzing bo‘lsa, dodras<sup>2</sup> huzuridasan, gapur!

– Arzimni o‘ylab turippan-da, o‘ylag‘ali ham qo‘ymaysanmi?– dedi Zokir-gov.– Yoki men ham so‘zimdanda yanglishib Jabbor jinnidek osilib ketaymi?

– Arzga kelib turg‘aningg‘a bir osh pishar vaqt bo‘ldi!

– Men ham arzimni miyamda pishirib olayotibman-da: pishmag‘an osh ich og‘ritadimi-a, taqsirlar?

– Arzingni yo‘lda o‘ylab kelmabsan-da!

– Ey, devonami bu o‘zi!– dedi Zokir-gov.– Yo‘lda o‘ylash uchun bundan boshqa kasal yo‘qmi?

– Yo‘lda nimani o‘ylading?

– Xon huzuriga borayotibman, deb o‘limni o‘yladim, yatim qoladirg‘an bolalarimni, men o‘lgandan so‘ng erga tegadiringan yangangizni o‘yladim! (*Kulgi.*)

– Janobni va shu qadar ra‘iyatni ma‘tal<sup>3</sup> qo‘yma!

– Xe-xe-xe! – deb kuldi Zokir-gov.– Sizlar har kun minglab kishini o‘rda tegida ma‘tal qo‘yg‘anlaringizda, men bir nafas ma‘tal qo‘ysam, xe-xe-xe!..

– Taqsir, sizga arz!

Xon, «ayt» degan kabi bosh irg‘atdi.

– Taqsirimga birinchi arz shuki, – dedi Zokir-gov, – yonimda turg‘an shu baqa aftni mendan nari qilsangiz, zero, buningizning dag‘dag‘asi siznikidan ham o‘tadig‘an ko‘rinadi! (*Kulgi.*)

Xudoyor udaychiga, sufaga chiq, ishoratini qildi. Zokir-gov qo‘lini duog‘a ochti:

– Onhazratimning davatlari kam, o‘zlarida g‘am, ko‘zlarida

<sup>1</sup> Bundayi kulgiga sabab «xonimg‘a» so‘zidir. Chunki bizda «xonim» deb xotin kishiga aytiladir (muall.).

<sup>2</sup> *Dodras* (*forscha*) qozi; himoyachi, xaloskor) – jabrlanganlarni himoya qiluvchi, ularning arziini tinglovchi. **Bu yerda hukmdor, olampanoh nazarda tutilgan.**

<sup>3</sup> *Mahtal qilmoq* – kuttirmoq. Ma‘tal bo‘lmoq. Muntazir holatda bo‘lmoq. Har qanday, buyruqqa ma‘tal bo‘lish.

nam, dushmanlarida dam, qadlarida xam bo'lmasin... Shahzodamning boshlarida baxt, ostlarida taxt o'ynab, yosh umrlariga ajali bevaqt yetmasin... Shohi baxtiyorning xizmatlariga bel bog'lag'an oq salla, ko'k salla, to'ni malla otalarimizning dillari ham hamesha soqollaridek oq bo'lsin, omin! Soniy, arzi bandaligimiz shulki, biz, darbadari devona, aql-u hushdin begona, xalq tilida afsona, elkezar g'aribona qullaringiz dard-u alam yutar erdik, qalamravingizning bir chetidan o'tar erdik. Dedilarkim, bu diyorning xoqoni, Iskandari soni, zar-u zavar koni, elning osh-u noni, ya'ni saxovatda Hotam, qahri kelsa motam... g'urabo<sup>1</sup> yoridir va yana sizlardek bozori kasod darbadarlar, enasi ko'chada tuqqan bepadarlarga ham ehsoni joriydir, deb biz ahli tama' bechora, nafs ilgida ovora g'ariblar har qaysimiz besh paysa, o'n paysa tama' xapidan yutib, dargohingazga yuzlandik, toki eski-tuski hunarlarimizni arz qilsaq, janobingizni besh pul, o'n pul qarz qilsaq, deb... *(Kulgi.)*

– Xo'p, hunaring'izni ko'rsating'! – dedi xon.

### XXXVI Fasl. QIZIQLAR

Zokir-gov xong'a qulliq qildi va ikki-uch qadam bordon tomong'a yurib, butun tovshi bilan chaqirdi:

– Bahromboy! Hov, Bahromboy!!!

Bordon ichidan bir oyog'ida kafsh, ikkinchisi kafshsiz oldi ochiq kir yaxtagidan badani ko'ringan, bir qo'li bilan yelkasini qashib, ikkinchisi bilan ishtonbog'ini ushlagan, bosh yalan bir yigit chiqdi.

– Eshak hangradima! – dedi Bahrom va u yoq bu yoqqa along'lab olg'andan keyin, yaxtagining chokini axtardi.– Singli taloq bitni qochirdim-da! *(Kulgi.)*

– Bahrom deyapman, menga qara!

– E-ey, Zokir aka, sen chaqirdingma... Ha, nima gap?

– Xonni ko'ndirdim!

– Ko'ndirdingma?.. Men ham aytdim-ku, xon o'zi laqma emish, deb. *(Kulgi.)*

– Ular qani?

– Ularingma? Ularing ichkarida yatipti.

– Nima qilib yatipti.

<sup>1</sup> G'urabo (*arabcha*) – faqir kishilar, g'ariblar.

– Qo‘y desam bo‘lmadi, bir poy kafshimni ikavi huzur qili-  
i-ib yeb yatipti! (*qattig‘ kulgi.*)

Zokir-gov achchig‘landi.

– Senlarga hech bir aql kirmadi-da... Endi xonning oldig‘a  
bir poy kafsh bilan chiqasanmi?

Bahrom o‘ylanib boshini qashidi.

– Chiqsam chiqavuraman-da. Xoning ham menga o‘xsha-  
g‘an bir odam-da, aka! (*Kulgi.*)

– Kir, kir, padarla‘nat, darrav ularingni olib chiq!

Bahrom yelkasini qashib, kafshlik oyog‘i bilan kafshsiz  
oyog‘ini «tap-chip, tap-chip» yerga bosib ichkariga kirib ketdi.  
Bir ozdan so‘ng ikki hamrohini boshlab chiqdi. Chiqqanlardan  
biri pak-pakana, yum-yumaloq, lo‘p-lo‘nda bir maxluq edi.  
Uning gavdasi bu qadar «kelishkan» bo‘lishi ustiga, basharasi  
ham shunga monand tushkan, tomog‘ining ostida cho‘guri<sup>1</sup> qo-  
vundek bo‘qoq g‘ovlab yotar edi. Uning gavdasi misoli bir  
gupchak<sup>2</sup> bo‘lsa, shu gupchakning yuqorisig‘a katta bir suv  
qovoqni bosh bo‘lsin, deb o‘rnatqan edilar. Va bu yaltir qovoq-  
ning betida ko‘z bo‘lib, quyoshda qovjiragan ikkita g‘o‘lun  
turshak, og‘iz yerida bir kafsh, burun o‘rnida yuqorig‘a qarab  
o‘rmalag‘an bahaybat bir qurbaqa va quloq maqomida suv qo-  
voqning ikki bag‘riga tiralg‘an ikki oshlov turar edi. Qosh va  
boshdag‘i soch to‘g‘risida og‘iz ochib bo‘lmas, ammo besh-o‘n  
tuk, ya‘ni soqol-murt g‘ira-shira ko‘zga chalinar edi. Sepkil va  
chechak dog‘i bu betni «muzoyaqakor» qilib ko‘rsatkanidek  
oyog‘idag‘i choriq, ustidagi qisqa, eski alak chopon, belidagi  
besh-o‘n aylantirib bog‘lang‘an bo‘z belboq, boshining uchdan  
bir qismigagina qo‘nib o‘lturgan tor pilta to‘ppi bir «husn»ga  
yana bir yuz «husn» qo‘shib arz qilar edi. Bu maxluq doimiy  
o‘rdada turadig‘an xonning kundalik qizig‘i mulla Baxtiyor edi.  
Ikkinchisi mulla Baxtiyor bilan o‘chakishkandek, juda uzun  
bo‘yliq, g‘ilay ko‘zlik, ajina qoshiqdek yuzlik, qotma, o‘zining  
bo‘yidan ham uzunroq to‘n va boshig‘a qalandar kulohi<sup>3</sup> kiyib,  
yalan oyog‘, o‘rta yashar Davlat ismlik yana bir qiziq edi. Zokir-  
gov bularni qarshi oldi.

<sup>1</sup> **Cho‘gur** – iyak ostidagi bir oz osilinqirab turgan yumshoq et, baqbaqa.

<sup>2</sup> **Gupchak** – g‘ildirakning markazidagi kegaylar qadalgan va o‘q o‘rnatiladigan teshigi bo‘lgan o‘rta qismi. Bu yerda **yumaloq, semiz ma‘nosida kelgan.**

<sup>3</sup> **Kuloh (forscha)** – bosh kiyimi, kuloh. Tepa tomoni ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyimi (asosan, qalandar, darveshlar kiyadigan uchli qalpoq).

– E, haromzodalar, – dedi Zokir-gov qo‘lini paxsalab, – andak nafslaringni tiysanglar, xotinlaring taloq bo‘ladimi?! Buning bir poy kafshi qani?

Bahrom ma‘yus bo‘yin solib turdi, Baxtiyor bilan Davlat labini artib, bir-biriga qarashdi:

– Ayt!

– Sen ayt.

– Nima deb aytaman?

– Yeganimiz yo‘q, deb ayt...

Baxtiyor ikki qo‘li bilan belbog‘ig‘a takya qilib, qaddini rostladi va boshini bir oz orqasig‘a moyil tutib, qaqqaydi:

– Bilib so‘zla, aka, biz yeganimiz yo‘q! Zokir-gov indamasdangina Baxtiyorning yonig‘a o‘tdi va ozorsiz qilib uning namoyishkor ko‘rinib turgan bo‘qog‘ini salmoqladi:

– Kafshning o‘kchasi tiqilib qolipti-ku, inim!– dedi Zokir-gov, kuchlik kulgi ko‘tarildi. So‘ngra vaziyatini o‘zgartirib, ularga uqdirdi:

– Biz hozir xonning huzuriga boramiz, eshitasanlarmi... Uchaving ham adablik, mutavozi<sup>1</sup> bo‘lib ko‘rin. Xong‘a uch-rashkanlaringda, ikki bukulib qulliq qil, undan keyin xonni duo qilasanlar. Tuzukmi? Qani, kelabelaring orqamdan!

To‘rttavi, biri orqasidan biri chizilishib, shahsufa yonig‘a bordilar. Zokir-gov zina yonida to‘xtag‘an edi, orqadag‘ilar bir-biriga turtinishib, biri u yoqqa, biri bu yoqqa, uchunchisi xong‘a orqa o‘g‘irgan holda to‘xtalishdilar. Bu holdan xabarsiz Zokir-gov ularni xong‘a taqdim etdi:

– Qulbachalaringiz ... salomga keldilar. (*Kulgi.*)

Zokir-gov ularning holidan xabar topib, shoshdi va oshiqib, ularning betini xong‘a qaratdi.

– Hay, bepadarlar, hay, beadablar... to‘g‘ringda o‘lturgan kishiga barobar qulliq qil.

Uchavi barobar qulliq qildilar, kulgi boshlandi. Chunki ularning har biri boshqa kishiga qulliq qilib, xon chetda qolg‘an edi.

Zokir-gov xong‘a uzr aytib, ularni koyidi:

– Kimga qulliq qildinglar?!

– To‘g‘rimizda o‘lturganga.

– Lo‘nda bo‘l, lo‘nda; uchaving ham!.. Duo qil, duo!

<sup>1</sup> Mutavoze(‘) (*arabcha*) – kamtar, tavozeli, kibrsiz. Ta‘zim-tavozeni kanda qilmaydigan, barchaga baravar tavoze bilan muomala qiladigan; sertavoze; kamtar.

Uchavi duog'a qo'l ochti, qo'l ochqancha bir necha vaqt qarashib turdi, so'ngra tirsagi bilan bir-birini turtisha boshladi. «Sen qil, sen...» (*Kulgi ko'tarildi*).

Ulardan dam chiqa bermagach, Zokir-govning o'zi qo'l ochti:

– Omin de, ho'kuzlar!– dedi. Ular «omin, omin» deb turdilar.– Shoyad duo qabul bo'lsa... Olloh taoloning mulla Baxtiyor va Davlat kabi zakki bandalariga bizning ehtiyot jimiz yo'q. Shuning uchun duo qilamizki, bu uchavining jonini tezroq olsin va bandalarini bu falokatdan qutqarsin, omin!

Uchavi ham fotihaga yuz siypashkan edilar, yana atrofni gurrr etkan kulgi bosti.

Fotihadan so'ng Zokir-gov ularni yo'lg'a soldi:

– Tilak qil, tilak; baqrayib turasanlarmi?

Uchavi yana bir-birini turtishib, o'z ora bir narsa so'zlashib oldilar. Davlat nimadir aytib, sufaga o'lturganlarga ishorat qildi... Oradan Bahrom tilakka og'iz ochti:

– Salla – kalla, shop-u shalopni ko'rib, o'zimiz ham juda qo'rqqang'a o'xshaymiz... Manovi Davlat bo'lsa: «Bu o'lturganlarning hammasi ham odamxo'r», – deyapti. (*Kulgi*.)

Endi tilagimiz shuki, bizlarga javob bersalar, joyimizga tinchkina ketsak... (*Kulgi*.)

Ilohi, mana shu o'lturganlarga xudoyim insof bersin... (*Kulgi*.)

Yuragimiz judayam chiqib ketayapti! (*Kulgi*.)

– Hay, tilaklaring bilan borib yot!– dedi Zokir-gov yonig'a urib.

– Qochib qol, yeb qo'yadi!!

Oradan «dod» degan tovush chiqdi, uchavi ham uch tomong'a qochar ekan, Baxtiyor Davlatning oyog'ig'a chalinib yiqildi. (*Qattig' kulgi*.) Bahrom bilan Davlat olpong'-tolpong' bordong'a kirib ketdilar... Zokir-gov Baxtiyorni tutib qoldi.

– Qo'y, aka, qo'y!– deb yig'ladi Baxtiyor, bekorga o'lib ketmay, bala-chaqam bor?

– Yemaydi seni!

– Yeydi, aka, yeydi! Manovi bekinganing ko'ziga qara...voy-voya-a-a, qo'yuvor! (*Kulgi*.)

– Men senlarga achchig' aytim-a, padar la'nat!

– Menda o'ching borg'a o'xshaydi, aka! Anovi domlang nax

odamxo'ring o'zi, kiyimingni ham yeshdirib o'lturmaydi...  
Uyag'ini so'rasang, xoningg'a ham ishonmay qoldim! (*Kulgi.*)

Baxtiyor siltanib Zokir-govning qo'lidan chiqdi va g'illdirag'andek bordong'a qarab qochti. Zokir-gov ham uni quvlag'an-cha bordong'a kirdi.

Bir ozdan so'ng tuzukroq kiyimda, boshig'a salla o'rab, oyog'ida sag'ri kafsh bilan qo'lida joynamoz kabi bir narsani ko'tarib bordondan Davlat chiqdi. Xong'a ta'zim qilg'andan so'ng, joynamozni yerga yozdi. Xong'a yana ta'zim qilib: «Shayxulislom Valixon to'ra<sup>1</sup> shu yerga marhamat qilar ekanlar!» – dedi. Xon mulla Niyoz domlaning yonida o'lturgan shayxulislom Valixon to'raga qaradi. Ahvolga tushunmagan shayxulislom: «Nima gap?» – degandek qilib, joynamoz yonidag'i Davlatka ko'z qirini tashladi. Davlat: «Hech gap», – degan ishorani berib, bordong'a qaytib ketdi. Demak, hozir shayxulislom Valixon to'raga muqallid bo'lmoqchi edilar. Buni payqag'an xalq sekin-sekin, bir-birisi bilan imlashib, kulimsishdilar va barchaning ko'zi bordon uyda bo'ldi. Bir vaqt bordon eshigidan banoras to'n kiyib, o'ng qo'lig'a aso ushlagan va so'l qo'lida adras ro'ymolg'a tugiklik kitob ko'targan, shayxulislom Valixon to'ra (Zokir-gov) ko'rindi. Shayxulislom kabi qaddi bir oz bukik va qadam qo'yishi ham Valixon to'radek ikki tarafka moyil edi. Barchaning ko'zi va diqqati har ikki shayxulislomda bo'ldi. Xon yonidag'i haqiqiy shayxulislom esa qip-qizarg'an va har on «tavba» deb qo'yar edi.

«Shayxulislom» yo'l ustida to'xtadi va yerda tushib yotqan bir narsani asosining uchi bilan tekshirib ko'rdi va uni turtib chetka chiqarg'ach, yo'lida davom etdi.

Ko'bachilik chidalmadi, gur etib kulib yubordi. Valixon to'raning o'zi ham tavba aralash kulib qo'ydi. Chunki Zokir-gov hech bir nuqsonsiz muqallid<sup>2</sup> bo'lmoqda edi. Joynamoz yonig'a yetdi, asosini shayxulislom asosi yonig'a tiradi, kafshini yeshib, joynamozg'a chiqdi. O'lturib kitobni tizasiga qo'ydi va pichir-pichir duo o'qub yuzini siypadi.

«Shayxulislom» uyoq-buyoqni qarag'andan keyin chaqirdi:

<sup>1</sup> **Shayxulislom Valixon to'ra** – bu kishi asli chustlik bo'lib, shayxulislom va yangi soling'an Hokim o'yim madrasasining bosh mudarrisi (muall.).

<sup>2</sup> **Muqallid (arabcha)** – o'zbek an'anaviy teatrining janri; shu janr ijrochisi (muqallid shaklidagi tomoshalarda qush va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba'zi kishilar xulq-atvori, qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan).

– Mirzo Hamdam-hay, mirzo Hamdam-hay!

Kulgi ko‘tarildi, ayniqsa, shayxulislom yonida o‘lturgan domlalar qattig‘ kuldilar.

– Mirzo Hamdam-hay...

Bordondan Bahrom chiqdi, ul ham mullayona kiyingan edi.

– Labbay!

Bahrom «shayxulislom» qarshisig‘a kelib, salom berdi. «Shayxulislom» javob berib, joynamoz yonig‘a yeshkan kafshiga qaradi.

– Hay, shu kafshimni bir pok qiling, mirzo Hamdam

«Mirzo Hamdam» tavozi’ bilan cho‘ntagidan ro‘ymolini olib, kafshni arta boshladi va shu vaqtda bordon ichidan, ul ham mullayona kiyimda mulla Baxtiyor chiqib keldi; «shayxulislom» qarshisig‘a kelib, salom berdi.

– Vaalaykum assalom!– dedi «shayxulislom» va kelguchining apti-boshig‘a qarab oldi.

– Shined<sup>1</sup>, bachcha, shined!

Baxtiyor o‘lturdi.

– Xo‘sh, pisar<sup>2</sup>, chi gap<sup>3</sup>?

– Taqsir... sizga...arzim bor edi... Podshohimiz yangi madrasa bino qig‘anlar, deb ilm talabida qishloqdan tushkan edim; bir hujra bersangiz, deb sizg‘a arzg‘a...

– Xo‘b, xo‘b... Shumo gujoyi?<sup>4</sup>

– Taqsir, Oltiariqdan...

Attang, attang, – dedi «shayxulislom», – barvaqtroq kelmabsiz-da, bachcha, akun<sup>5</sup> hamma hujralarga joy yo‘q, mullabachchalar joylashib qolgan.

– Mullalarning arasig‘a qo‘ysangiz ham bo‘lavuradi menga, – dedi tavozi’lanib Baxtiyor.– Biz qishloq odami... siqilishsaq ham yotavuramiz, taqsir!

– Xo‘b, xo‘b... Akun hujralarimiz mullabachchalar minan behad to‘lgan, holonki bir tariq ham sig‘maydi, biz durug‘ so‘zlamaymiz, boshidon<sup>6</sup>...

Haqiqiy shayxulislom masalaga tushunib ter chiqara boshla-

<sup>1</sup> Shined (tojikcha) – o‘tiring.

<sup>2</sup> Pesar (tojikcha) – bolakay, o‘g‘lon, yigit.

<sup>3</sup> Chi gap (tojikcha) – nima gap.

<sup>4</sup> Shumo gujoyi (tojikcha) – siz qayerliksiz.

<sup>5</sup> Akun, aknun (tojikcha) – endi.

<sup>6</sup> Boshidon (tojikcha) – o‘rgulay, aylanay.



di. Baxtiyor (mullabachcha) ma'yus fotiha o'qub «shayxulislom» huzuridan ketdi. «Mirzo Hamdam» kafshni tuflab, tozalab bo'lg'andan keyin «shayxulislom»ning qarshisig'a o'lturdi. Narigi yoqdan «shayxulislom» ro'baro'siga Davlat kelib to'xtadi.

– Assalomu alaykum, to'ra pochcha! – dedi Davlat va kafshini yeshib kelib, «shayxulislom» bilan qo'l olishib ko'rishdi.

– Xo'b salomat, ofiyat xastedmi<sup>1</sup>, taqsir?

– Xudoro shukur, xudoro shukur.

Davlat ruxsat, falon kutmay «shayxulislom»ning yonig'a o'lturib oldi.

– Ba janob arz...

– Bisyor xo'b, arz kuned<sup>2</sup>.

– Ochiq gav: bizga bir hujra bersalar, deb keldik-da, to'ra pochcha!

– Xo'b... Gujoyi?

– Taqsir, chustiy, ba janobi shumo hamshahriy<sup>3</sup>.

– Ya'ni pisariki?

– Pisari usto Muhammad sobungar.

– Xo'b, xo'b, – dedi «shayxulislom» va «mirzo Hamdam»ga buyurdi:

– Ba hamin odam yak hujra dodan gir<sup>4</sup>!

Davlat duo qilib «shayxulislom» huzuridan ketdi. Qo'qonliq mullabachcha ro'lida Baxtiyor keldi. Unga yana: «Biz durug' so'zlamaymiz, madrasamizga bir tariq ham sig'maydi», – degan javob berib jo'natildi. Davlat yana chustlik bir tolibi ilm bo'lib kelgan edi, «mirzo Hamdam» orqaliq «dodan gir!» buyrug'i berildi. Qattig' kulgi ko'tarildi. Xon va domla Niyozning ko'zlariga yoshlar chiqdi. Ammo shayxulislom dam-badam manglay terini artib olar edi. Zokir-gov xong'a qulliq qilib, shogirdlari yonig'a bordi. Xon va ra'iyat yangi qiziqliqni kutib qoldilar.

<sup>1</sup> Ofiyat astedmi (tojikcha) – tinch-omonmisiz.

<sup>2</sup> Bisyor xo'b, arz kuned (tojikcha) – juda yaxshi, arzingizni ayting.

<sup>3</sup> Chustiy, ba janobi shumo hamshahriy (tojikcha) – chustlikman, siz janoblariga hamshaharman.

<sup>4</sup> Ba hamin odam yak hujra dodan gir (tojikcha) – mana shu odamga bir hujra ber.

## XXXVII Fasl. BIRIKISH

Dalv<sup>1</sup> oyi, qattig' qish. Devonning har ikki xonasiga bir nechadan sandal<sup>2</sup> qo'yilg'an edi. Har bir sandalga to'rttadan mirzo joylashib, daftar tahriri, yorlig' inshosi bilan mashg'ul edilar.

Xon huzuriga chaqirilg'an Anvar yarim soat, chamasi, kechikib chiqdi. Anvar o'z xonasig'a kelib kirganda, chetdagi tanchada Shahodat mufti boshliq mulla Abdurahmon va Kalonshoh mirzolar nima to'g'risidadir, ohista-ohista so'zlashib o'lturar edilar. Eshikda Anvar ko'rinishi bilan ularning suhbatini kesildi va har kim o'z qo'lidag'i ishka qaradi.

– Ehi, ehi, – deb yo'talindi Shahodat mufti, – nima farmon bor, mirzo Anvar?

– Hech gap, – dedi Anvar o'z tanchasiga joylashib. – O'sh, Andijon hokimlariga noma buyurildi... Siz, mulla Abdurahmon aka, qo'lingizdag'ini necha nusxa tayyorladingiz? Mulla Abdurahmon yonidag'i qog'ozlarni sanadi:

– Uch nusxa.

– Yana bir nusxa yozsangiz bas. Zakotchi ismini qo'ymandirsiz?

– Qo'ymadim.

– Juda yaxshi, o'zim qo'yarman. Qo'lingizdag'ini tezroq yozib bitirsangiz, yana bir ish bor, – dedi Anvar va Shahodat muftiga yuz o'girdi.

– Taqdir, sizdan bir iltimos; kechagi Abdushukur ponsadga mahzarni<sup>3</sup> o'zingiz yozib bermasangiz bo'lmaydirg'an ko'rinadi. Boya menga yana uchrashdi; g'uldir-g'uldir qiladi, maqsadig'a hech bir tushunmadim. Chamasi, uning da'vo koniyatini siz yaxshiroq bilar ekansiz?

– Qo'ying shu bosh og'rig'ini, – dedi mufti, – necha bora menga ishi tushib, birar martaba haq berganini xotirlamayman.

– Haq olib berishka men kafil.

– Ey-ha, men ololmag'anni siz olarmidingiz?

<sup>1</sup> Dalv (*arabcha*) – 1) o'n ikki burjning biri. Jadiy va Hut burjlari o'rtasida joylashgan; 2) shamsiya yil hisobida o'n birinchi oyning *arabcha* nomi (21-yanvar – 21 fevral davriga to'g'ri keladi).

<sup>2</sup> Sandal (*tancha, olovdon*) – O'rta Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari va Yaponiyada ma'lum bir joyni isitish uchun mo'ljallangan manqal. Xonaning o'rtasiga yoki chekkaroq yeriga chorburchak chuqurchaga o'rnatilgan, ustiga ko'rpa yopilib, atrofiga ko'rpachalar to'shalgan xontaxtadan iborat bo'lib, ichiga saksovol yoki ko'mir cho'g'i solinadi. Qish sovuq'ida tanchaga oyoq-qo'lni tiqib isitiladi, ayni paytda ustiga dasturxon yozib, undan stol sifatida foydalaniladi).

<sup>3</sup> Mahzar (*arabcha*) – hozir bo'lish; ariza; hukmnoma. Bu yerda ariza yoki hukmnoma ma'nosida kelgan.

– Ololmasam, sizga o‘z yonimdan to‘lay, taqdir, ish qilib, shuning da‘vosidan meni qutqaring-chi.

Shahodat mufti indamadi. Anvar qog‘oz olib, bir narsa yoza boshladi. Shahodat mufti ohistag‘ina yonidag‘i Abdurahmonni turtib qo‘ydi va Anvarga ishorat qilib, «ana ahvol» degandek iljaydi. Ya‘ni uning harakati «ko‘rdingmi mirzoboshini, qo‘lidan mahzar yozish ham kelmaydi» mazmunida edi. Mulla Abdurahmon ohista bosh ko‘tarib kulimsidi. Bu gapdan xabardor bo‘lib o‘lturgan Kalonshoh mirzo qo‘lini og‘zig‘a karnay qilib Anvarga to‘g‘riladi, ya‘ni, jirtak chaldi. Shu holda eshikdan Sultonali mirzo kirib, Kalonshohga tikilib qoldi...

– Maymunliq muborak!

Ish bilan mashg‘ul Anvar qog‘ozdan boshini ko‘tarib, eshikdagi Sultonali mirzoga qaradi:

– Nima gap?

– Hech gap, – deb kuldi Sultonali, ammo ko‘zida g‘azab o‘ti yonar edi.

– Men boyag‘i qog‘ozg‘a kirgan edim.

Anvar yonidag‘i qog‘ozlar ichidan bir ariza ajratdi:

– Javob men aytkancha bo‘lsin.

– Xo‘b.

Sultonali qog‘ozni olib chiqar ekan, yana ularga qarab qo‘ydi. Ularning uchavi jiddiy ravishda ishka berilgan, qog‘ozdan bosh ko‘tarmas edilar. Sultonali chiqib ketdi. Bir ozdan keyin Shahodat mufti sekin bosh ko‘tarib Anvarga qaradi. Anvar o‘z ishiga qattig‘ bog‘lang‘an edi. Shahodat mufti Kalonshoh bilan ko‘z to‘qnashtirib: «yaxshi bo‘lmadi», degan kabi bosh chayqadi. Kalonshoh ahamiyatsiz ko‘z qisdi. Odatdagidan ham rangi o‘chkan Abdurahmon bularning hozirgi im-ishoratiga ishtirok etmay, o‘z ishiga qarag‘an edi.

Solih maxdumning o‘sha so‘zi bilan Abdurahmon ishka oling‘an edi. Uch oydan beri Anvar qoshida – o‘z huzurida mirzoliq qilib kelar va ikkinchi oydan besh tilloliq mohonaga ham yozilg‘an edi. Bir oylar, chamasi, Anvarga sadoqat bilan, uning qanoti ostig‘a kirgandek ishladi. Bu orada Shahodat mufti va Kalonshoh mirzo kabilar bilan sirdon bo‘lmasa ham tanishdi, yaqinlashdi. Boshda Shahodat muftilar uni yotsinishib uning yonida har turlik g‘iybatlarni qilishdan cho‘chidilar. Chunki mulla Abdurahmonning Anvar kishisi bo‘lishi taxmin qiling‘an

edi. Ikkinchi oydan mohonaga yozilishi ham ularning o‘z andishalarida yanglishmag‘anliqlarini ko‘rsatdi. Biroq Abdurahmonning ba‘zi harakatlari, masalan, mirzo Anvarning arabcha, forsiycha lafzlardan xoli, sodda tahririni nusxalarga ko‘chirar ekan – «ataomu bilo milhi» (tuzsiz osh), deb kulib qo‘yishi muftilarni o‘ylatib qo‘yar, bu ta‘nani chin ko‘ngildan chiqqanig‘a shubhalanishnda, shubhalanmasni-da, bilmas edilar. Shunday fursatlarda «alamzada» muftilar ham birar latifa so‘zlashka tutunar, aksar, latifa mazmunini bir tarafka burib yuritar edilar. Ba‘zan Shahodat mufti ishdan charchag‘an kabi oh tortib, o‘zicha: «Yamutul-asadu fil g‘abobi ju‘an va lahm-tayri yut-rahul lil-kilob»<sup>1</sup>, – desa, ikkinchi yoqdan Kalonshoh mirzo: shu maqolning davomini so‘zlab: «Va xinziru yanomu fil-firosh va ulul-uquli yanomu alatturob»<sup>2</sup>, – der edi. Mulla Abdurahmon ularning kinoyasi mazmuniga tushunibmi yoki tushunmasdanmi – har holda bir iljayib qo‘yar edi.

Shu yo‘sun ikkinchi oyda bu ikki mufti mulla Abdurahmonni sinab vaqt kechirdalar. Abdurahmon ham o‘zining aksar so‘z va harakatlari bilan ularni shubhadan chiqara bordi, nihoyat, ikki mufti uchunchi yosh «olim»ni ham garchi bir «nodon» tarafidan keltirilgan bo‘lsa ham «zarshunos» deb bildilar va uchunchi oydan uni ham o‘z yonlarig‘a olib sirdon bo‘lishdilar. Boyag‘idek, «qozixona mahzarlari» ularga dastmoya bo‘ldi. Anvar o‘zi vaqt topolmay, birar narsani muftilarga havola qiladig‘an bo‘lsa, «mirzoboshining tishi o‘tmadi» deb kulishdilar. Mulla Abdurahmon ham valine‘mati bo‘lg‘an Anvarning rioyasini unutayozdi. Chunki mazkur ikki muftining ta‘sirlari kuchlik bo‘lishi ustiga, o‘zi ham ularga moyil, hatto bu kamsitishlardan lazzat olg‘uchi edi...

Anvar ikki muftining g‘iybatlarini yaxshi bilsa ham, Abdurahmonning bu g‘iybatda ishtiroki borlig‘ini sezmas edi. Faqat yaqindan beri Sultonali mirzo Abdurahmonning bunda ishtiroki borlig‘ig‘a voqif bo‘ldi. Hatto shu to‘g‘rida Anvarga ba‘zi so‘zlarni ham aytdi: «Mulla Abdurahmondan non yemaymiz, sizga qarshi qattig‘ quturg‘an ikki itimiz bor edi, endi uchun-

<sup>1</sup> Yamutul-asadu fil g‘abobi ju‘an va lahm-tayri yut-rahul lil-kilob – arslon changalzorda ochliqdan jon beradir, ammo itni qush go‘shiti bilan boqadirlar (muall.).

<sup>2</sup> Va xinziru yanomu fil-firosh va ulul-uquli yanomu alatturob – to‘ng‘uz huzur qilib to‘shakda uxlaydir, oqillar tuproqda yotadirlar (muall.).

chisini o‘zingiz keltirganga o‘xshaysiz...»

Kechka tomon mirzolar tarqalishdilar. Biroq, bizning muftilar hanzuq qo‘zg‘almas edilar. Anvar esa hammadan keyin chiqquchi edi. Ikki muftining qo‘zg‘almasliqlariga o‘zi sababchi bo‘lg‘anlig‘ini yaxshi bilgan Sultonali mirzo Anvar bilan xayrlashib chiqdi. Shundan bir oz so‘ng muftilar ham ketishka chog‘landilar.

Havo sovuq, to‘rt ellik chamasi qor yog‘ib, ko‘cha betini yopqan edi. Qo‘qonning o‘ziga maxsus izg‘iriy bu qor bilan yaxshi qurollanib, kishining quloq-tumshug‘ini zahar kabi yalab o‘tar edi. Kishilar telpakni bostirib kiygan yoki sallani quloq va manglay aralash o‘rab, bo‘z guppini tumshuqqacha ko‘targan edilar. Ko‘cha bo‘ylab har kim chopar, bir narsadan quruq qoladirdig‘andek yugurar edi. Bu kungi sovuq bilan qor har kimga ham g‘archliq kafsh in‘om qilg‘an, boy va beklar oyog‘idag‘i bedona, sag‘ri qala kafshlar bilan kambag‘al kosiblar kiygan upika<sup>1</sup>, aybaki kafshlarning o‘zaro farqi qolmag‘an va hatto ba‘zilar oyog‘idag‘i yog‘och kafshlar ham ajoyib nag‘manavozliq qilar edilar.

### XXXVIII Fasl. G‘ARIB KO‘NGLI

Anvar boshqalar kabi yugurmasa ham yelib kelar edi. Xishtko‘prukka yetkanda, katta suv yonidagi hujra eshigida qo‘sqi<sup>2</sup> po‘stunga o‘ralib turg‘an qorovul uning oldig‘a tushib salom berdi:

– Sovuqqa qotqan ko‘rinasiz, taqsir... Gulxanimiz bor.

Anvar tumshug‘ini to‘nidan chiqarib iljaydi va tutun chiqib turg‘an eshikka burildi, qorovul oldinda kelib, eshikni ochib berdi, Anvar ichkariga kirdi. Tutun bilan qop-qorayg‘an, pastkina qorong‘i hujraning o‘rtasida gulxan yonib, alangasi mo‘riga o‘rlar edi. Gulxan yonida qo‘lig‘a kasav tutqan Sultonali mirzo olov jo‘nashdirib o‘lturar edi.

– Siz ham sovuqqa qotqanlardanmisiz!– deb kuldi Anvar.

– Jon olov – jon er, deпти bir xotin... Gulxan o‘tlik yigitning issiq quchog‘i emish. Qani, bu yoqqa marhamat!

Qorovul va Sultonali mirzolarning qistashlari bilan Anvar gulxanning to‘riga, to‘rt qatlanib soling‘an kiyizga o‘lturib,

<sup>1</sup> Upika – buzoq terisidan tayyorlangan charm.

<sup>2</sup> Qo‘sqi – kiyilaverib eskirib ketgan, julduri chiqqan, juldur kiyim.

qo'lini olovga tutdi.

– O'zingiz o'lturmaysizmi, aka, o'lturing!

Anvarning bu so'zi bilan adab saqlab turg'an qorovul gulxanning bir chekkasiga cho'kkalab, gulxan yonidagi qora qumg'onni olovga tirabroq qo'ydi.

– Sovuq tuzuk bo'ldi, – dedi Anvar isinib. – O'rdadan chiqib, o'zingizni gulxanga uribsiz-da?

– Qarasam uyga yetkuncha qotadiring'anman, Toyir akamning tuynugida tutun ko'rib, eshikni ochsam, ish katta. Xiralik bo'lsa ham kirdim, nima qiladi... Biroq, sizni Toyir akamning o'zi chaqirib kiringanga o'xshaydi, hali sizga choy damlayman, deb ovora bo'lsa ham ehtimol...

Toyir aka qumg'onni yana olov tomonga itarib qo'ydi:

– Hozir damlaymiz, taqsir, hozir. Suv ham qalqib qolibdir, yaxshi, ko'k choyimiz ham bor.

– O'zlaringiz ichmasangiz, menim uchun hojat emas, men hozir ketaman.

– Shu gulxanni tashlab, qayoqqa?

– Uyga... Balki, kishilar kutib o'lturgan chiqarlar.

– Shunday sovuqda sizni kim kutsin, choyni damlay bering, Toyir aka, mirzoboshini yubormaymiz.

– Shunday bo'lsin, taqsir... G'ariblarning choyidan ham bir ichib qo'ysinlar, – dedi Toyir aka va o'rnidan turib burchakdagi yorilgan tarashadan bir quchoqni keltirib gulxan yoniga tashladi. Qaynab toshqan qumg'onni olovdan olib, choy damladi.

– Toyir akamning gulxanini tashlab ketib bo'lmaydi, – dedi Sultonali, – bir-ikki piyola choyidan ham ichish kerak, bir-ikki kalima suhbatini ham eshitish kerak.

Anvar iljayib qo'ydi. Toyir aka qoziqdag'i tugunni ochib to'rt-beshta non, bir hovich kattaqo'rg'on magiz<sup>1</sup> olib, kichkina barkashchaga<sup>2</sup> soldi. Barkashni Anvar oldiga keltirib, uzr aytdi:

– Kambag'alchiliq, taqsir, oldingizga dasturxon yozolmadiq...

– Nima aybi bor, – dedi Anvar, – men shunday qorong'i uyda gulxan yonida o'lturishni va shu holda choy ichishni juda yaxshi ko'raman.

<sup>1</sup> Magiz – mayiz.

<sup>2</sup> Barkash (forscha: «ko'tarmoq, tortib chiqarmoq») – jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o'rinda ishlatiladigan, doira yoki turtburchak shaklidagi rozg'or asbobi.

– Bu o‘lturishning o‘z oldig‘a bir nash‘asi<sup>1</sup> bor, – dedi Sultonali.

– Bor... Shoirona, darveshona bir ma‘nosi bor. Men yosh, yatim chog‘im, opamning uyida shu holni ko‘rar edim. Yaznam qashshoq kosib edi. Qish keldi deguncha gulxan yoqar va shu yo‘sun gulxan yonida o‘lturib choy ichar edik. Shu gulxan hayoti hanuz menim esimdan chiqmaydir va shu hayotka hamisha ko‘ngilda bir muhabbat saqlayman.

Toyir aka Anvarga sopol piyolada choy uzatdi. Gulxan keyingi qalang‘an tarashalar<sup>2</sup> bilan alangalanib yondi. Qorong‘i hujra yorishib, uchqunlar bilan ziynatlandi.

– Bola-chaqangiz bormi, Toyir aka?

– Yo‘q, taqsir... Shu yerda yurtni duo qilib yotaman.

– Toyir akam ham sizga o‘xshaydi, – deb kuldi Sultonali.– To‘yni ko‘klamga qoldirganingiz yaxshi bo‘lmadi, qish kunlari Toyir akamdek yolg‘izliq...

– Chunki men Toyir akam turmishini yaxshi ko‘raman... Dardisarning nima keragi bor-a, Toyir aka?

Toyir aka qo‘lida kasav bilan olov to‘g‘rilar edi.

– Qurbi yetkan kishining bola-chaqa qilg‘ani ma‘qul, taqsir.

– Nima uchun?

Toyir aka olov jo‘nashdirib, bir oz javobsiz o‘lturdi. Soqol-murtiga uchib tushkan uchqun kullarini selplib tashladi.

– Xudoy farzand bersa, qarig‘an kunlaringizda ishingizga yaraydi, – deb qo‘ydi Toyir aka, yana bir oz olov to‘g‘rilab turdi.– Menda hech kim yo‘q... Yoshim ellidan oshqan, taqsir... Hozir kuch-quvvat bor, bir narsa topib bo‘ladi... Bir vaqt kelar, kuch ketar, shunda menga kim qaraydi, taqsir? Issiq jon, men og‘rib yotarman, bir qoshiq suvg‘a muhtoj bo‘larman... Shunda suvni menga kim beradi, taqsir? O‘lim haq, ajal yetib amonatni olsa, ko‘zim yumilsa, bir chekkada o‘lib qolg‘animni kim biladi, taqsir? Kishining bola-chaqasi bo‘g‘anda shunday gaplar yo‘q-mi, deb o‘ylayman-da.

– To‘g‘ri gap, – dedi Sultonali, – darhaqiqat, kishi qanday kunlarga qolishini bilmaydi. Toyir akam aytkancha, bola-chaqa

<sup>1</sup> Nash‘a (*arabcha*) – mastlik, kayf qilish; lazzat, huzur (maza) qilish. Bu yerda **lazzat, huzur** ma‘nosida kelgan.

<sup>2</sup> Tarasha (*forscha*: silliqlangan, tarashlangan narsa; yog‘och paraxasi, qirindisi) – yorib maydalangan o‘tin.

bo'lsa, bir oz ko'ngil to'qi-da.

Anvar bir oz so'zsiz, o'ylanib turdi, qo'lidag'i piyolasini bo'shatib, Toyir akaga uzatti.

– Uylantirib qo'yayliqmi sizni?

Toyir aka minnatdor ohangda kuldi.

– E, joningdan, taqsir, – dedi, – endi bo'lmaydi.

– Nega bo'lmaydi?

– Soqolg'a qarang, o'lim isi keladi...

– Bo'lmag'an gap... Siz bizdan ham yosh ko'rinasiz.

– Ko'ngil qarig'an, taqsir, ko'ngil, – dedi Toyir aka, qo'lini ko'kragiga tegizib oldi.– Endi ko'ngil hech narsa ham tilamaydi, faqat tinchliq tilaydi... Tinchliq qachon bo'ladi, unisini bilmaymiz-da.

So'zni yana aylantirishka yo'l qolmadi. Anvar yer ostidan Sultonaliga ko'z yubordi. Sultonali ma'nolik bosh irg'atib qo'ydi. Toyir aka o'z oldidag'i yonib o'chkan xokalarni<sup>1</sup> kuldandan ajratib, gulxanga tashlar edi. Boyag'i shiddati yo'qolg'an gulxan nafis ko'k tutun chiqarib ohistag'ina chayqalib yonar edi. Kullar ko'kka uchar, cho'g'lar kulga botar, chalalar cho'qqa aylanar edilar... Uchavi ham so'z qo'yishqandek ancha vaqt gulxanning shu holini ta'qib etdilar.

### XXXIX Fasl. BISHO'Y, EY XIRADMAND...

– Muftilaringiz menim orqamdan jo'nag'an bo'lsalar kerak, mirzo Anvar?

Xayoli boshqa narsada bo'lg'an Anvar Sultonalining so'ziga tushunibmi, emasmi, har nachuk bosh irg'atib qo'ydi.

– Men siz bilan xayrlashib ko'chaga chiqsam, «do'stingiz» mulla Abdurahmon ularni kutib turg'an ekan. Chamasi, kunduzgi «suhbat» ning moba'di<sup>2</sup> bo'lsa kerak?!

Anvar xayoli bilan vido'lashqandek, tilar-tilamas Sultonaliga yuz o'girdi.

– Qanday suhbatning?

– Suhbatning emas, g'iybatning.

Anvar kuldi:

– Siz mulla Abdurahmon domlani ko'ralmay qoldingiz.

– Masala ko'ralmaslikda emas, uning noloyiq harakatida,

<sup>1</sup> Xoka (*forscha*) – mayda kukun. Bu yerda cho'g' qoldig'i ma'nosida kelgan.

<sup>2</sup> Moba'd (*arabcha*) – davomi, keyingisi, navbatdagisi.



do'st ko'rinib dushmanlik ko'chasiga kirishida.

– Biz uning chin ko'nglini bilishdan ojizmiz.

– Har holda bu kaltakesak bizga do'st emas.

– Xo'sh?– deb kuldi Anvar.

– Muftilar bizga do'stmi, dushmanmi?

– Balki, dushmandirlar, lekin biz ularga dushman emasmiz.

– Bali! – dedi Sultonali mirzo.– Basharti bizning yordamimizda ishlik bo'lg'an bir odam, erta-kech bizning dushmanimiz hisoblang'an kishilar bilan hamsuhbat bo'lsa, og'iz-burun o'pishsa, biz unga qanday baho berishimiz kerak? Bunday odamni biz ochiqdan ochiq dushman yoki ahmoq deymiz. Ammo mulla Abdurahmon ahmoq emas, ko'b ish ko'rgan tullak! Endi faqat uning dushmanlik tarafi qoldi, ham bu aniq. Menim hukmimga qanoat qilmasangiz, hikmatka qarang. Shayx Sa'diy:

«Bisho'y, ey xiradmand, az on do'st dast,  
Ki bo dushmanonat buvad hamnashast»<sup>1</sup>, – deydirlar...

– Men mulla Abdurahmonni yaxshi kishi, deb o'ylaymanmi?

– O'ylamaysiz, biroq uning o'ziga yarasha muomala qil-maysiz, shu bilan birga anovi muttahamlarni haddidan oshirasiz!

Anvar barkashdagi magizdan bir-ikki dona olib qo'lida ushladi.

– Sizningcha, ular bilan qanday muomala qilishimiz kerak?

– Mulla Abdurahmonni o'rdadan jo'natish kerak; tinchkina imom va xatibligini qilsin. Muftilarga ham qozixonadan birar vazifa topilib qolar.

Anvar bosh tebratib kuldi. Toyir aka gulxanga o'tun qalab shom uchun joynamoz yozdi. Sultonali mirzo imom bo'lib, uch kishi shomg'a turdilar. Shomni o'qub gulxan yonig'a o'lturar ekan, Sultonali so'radi:

– Yoki ularni o'rdadan jo'natish oson emasmu?–

– Oson, biroq oson ishda lazzat yo'q, – deb kuldi Anvar.– Sizning shu gapingiz bilan bir kishi yodimg'a tushti: o'zi mulla Abdurahmonning qavmlaridan bo'lg'an oq ko'ngilli sodda bir

<sup>1</sup> «Bisho'y, ey xiradmand, az on do'st dast,

Ki bo dushmanonat buvad hamnashast» – Ey hushyor kishi! Dushmanlaring bilan birga o'lturishkan,– hamsuhbat bo'lgan do'stingdan qo'l yuvg'il (muall.).

kishi bor. Oti... ha, oti Safarboy, kasbi bo'zchiliq. O'tkan kun o'rdadan qaytib borsam, shu kishi uyda meni kutib o'turibdir. Xo'sh, keling, Safar aka?– Kuygan-pishkan, menga «arz» qildi: mulla Abdurahmonning bir do'stidan eshitkan emish, go'yo mulla Abdurahmon biravga: «Mirzo Anvarning tegiga yaqinda suv keladi», – degan emish... «Bu nima degan gap, mirzo, nega sizning tegingizga suv keladi?», – deb so'raydi. Men kuldim... «Hozircha tegim quruq, basharti tegimga suv kelsa, bo'zchiliqni o'rgatasizmi?» – deb so'radim. Savolimga javob bermaydi, faqat sizning so'zingizni aytib: «Imomimiz fisqi-fasod, bunday kishini haydaganingiz ma'qul», – deydi. Sizga yoqadiring'an so'zni aytdimmi, Sultonali aka?!

– Bu kishi sizga chin do'st ekan, – dedi Sultonali jiddiy.– Men o'z fikrimda yanglishmasman. Bu kaltakesak yutkan chayonning yuragida, xudoy bilsin, sizga qarshi katta adovat bor.

Shu choqqacha olov kavlab jim o'turgan Toyir aka so'zga qotisht:

– Safar, yelkasi chiqqan, jikkak yigit emasmi, taqdir?

– Bali, bali.

– U mening oshnam bo'ladi. Ehey, u bilan biz har yoz birga mardikor ishlar edik, o'zi o'bdan yaxshi yigit.

– Vassalom, – dedi Sultonali mirzo.– Bas, Abdurahmon ham adovatda muftilardan qolishmaydir. Shuncha yaxshiligni bilmagan kishi...

– Yaxshiliq qil, daryog'a tashla, baliq bilmasa, xoliq<sup>1</sup> bilur, deganlar. Fuzuliy: «Dahr<sup>2</sup> bir bozordir, har kim mato'in<sup>3</sup> arz edar» deb juda to'g'ri so'zlaydir. Shunga o'xshash biz ham, o'zimizda bo'lg'an mato'ni bozorg'a solamiz, ular ham bisotlarini kavlab shundan boshqasini topolmaydirlar.

– Bu shunday, mirzo Anvar, ammo o'zingizni dushmandan mudofaa qilish kerakmi, yo'qmi?

– Men nimani dushmandan mudofaa qilay?– deb kuldi Anvar.– Agar ularning adovati mendan bosh munshilikni olish uchun bo'lsa, marhamat qilsinlar, hatto o'zim ularga yordam ham beray. To'g'ri, siz ularning nomussizona harakatlaridan qizisha-

<sup>1</sup> Xoliq (arabcha: yaratuvchi, ijodkor) – Yaratuvchi – Allohning sifatlaridan biri.

<sup>2</sup> Dahr (arabcha: zamon, asr; qismat, taqdir. Bu yerda ko'chma ma'noda, ya'ni dunyo olam ma'nosida).

<sup>3</sup> Mato(\*) (arabcha) – mol, ashyo; yuk, gazlama. Bu yerda mol, ashyo ma'nosida kelgan.

siz, achchig‘lanasiz. Menchi, men ham bir inson, ko‘kdan tushkan farishta emasman, o‘z ustimdagi g‘iybatlardan, hayvoncha qiliqlardan, izzati nafsimga to‘qing‘an harakatlardan achchig‘lanaman. Siz aytkancha, ularni o‘rdadan haydash mulohazalarigacha borib yetaman. Biroq, ba’zi andishalar meni to‘xtatib qo‘yadir. Avvalo, ular bilan tenglashish menim uchun kamchilik ko‘rinadir; ikkinchi, ularni devondan haydash to‘grisig‘a kelganda yana andishalar bor: basharti muftilarni devondan chiqarsam xalq nima deydi: besh kun amalga minib, o‘ttuz yilliq mirzolarni qadr qilmadi, demaydimi? Agar ular tinchkina chiqib ketsa-ku, yaxshi, bil‘aks xon va shog‘ovul domlalar vositasida yana kirib olsa, men nima degan odam bo‘laman? Bu holda bir adovat ustiga yuz adovat zamlanishida<sup>1</sup> shubha yo‘q. Endi mulla Abdurahmon to‘g‘risida: boshda men bu kishini o‘rdag‘a olishg‘a qarshi bo‘lib, birinchi ko‘rishimdayoq bu mulladan yaxshilik kutmagan edim. Biroq, sizga aytkanimcha, o‘rtada nozik bir kishi vosita bo‘ldi, shundan keyin noilo<sup>2</sup> xizmatka olishqa majburiyat tug‘uldi. Mulla Abdurahmon ifloslar qatorig‘a o‘tgan ekan, ishi oson, jo‘natib yuborish qo‘limizdan keladi. Va lekin, fikrimcha, uni ham jo‘natish maslahat emas. Avvalo, xizmatka olmasliq kerak edi; oling‘ach, uch oy o‘tmasdan jo‘natish... Juda og‘ir, agar iflos bo‘lsa uning tabiati, biz o‘zgarta olmaymiz, har kim tilagan oshini ichadir.

Sultonali mirzo muftilar to‘g‘risida bir narsa deyalmasa ham, Abdurahmonni jo‘natishg‘a isror etdi<sup>2</sup>.

– Xo‘b, muftilar qolsin, yana bir necha kun sasishsin. Biroq, Abdurahmonni to‘xtatmang, agar siz shu chualchangning bahridan o‘tsangiz, hamrohlariga katta ibrat ko‘rsatkan bo‘lasiz.

Anvar kulib qo‘ydi.

– Siz menim do‘stimga qattig‘ tikildingiz...

– Tikilishka – tikildim, – dedi Sultonali mirzo jiddiy, – siz, loaqal, shuni ham jo‘natmasangiz, men ketaman. Muftilarning aftini ko‘rib qiynalar edim. Endi bu uchunchi iflosning yuziga qarashqa toqatim qolmadi!

Sultonali jiddiylashkan edi, Anvar yana qarshi borishni muvofiq ko‘rmadi.

– Xo‘b, – dedi, – siz shuni maslahat ko‘rsangiz, jo‘natayliq.

<sup>1</sup> Zamlamoq – ustiga qo‘shmoq, qalashtirmoq.

<sup>2</sup> Isror etmoq (isror (*arabcha*) – qattiq turib olish, talab) – qat‘iy talab qilmoq, turib olmoq.

– Bali! – dedi Sultonali.– Sizdan yana bir talab: ertadan boshlab meni o‘z huzuringizga oling, toki muftilar ertadan kech-kacha g‘iybat so‘zlab, maymun bo‘lib vaqt kechirmasinlar.

– Bu ham oson, – deb kuldi Anvar, – ular men yo‘q vaqtdan foydalanib, yurak bo‘shatar edilar. Endi bundan ham bechoralarni mahrum etmakchisiz, bu qadar zulm...

Sultonali yana kulmadi:

– Qilg‘ang‘a qilamiz-da.

Shundan keyin ketishka chog‘landilar. Anvar qo‘zg‘alar ekan, yonchig‘idan bir tillo olib, Toyir akaga uzatti. Toyir aka bilibmi, bilmasdanmi, har holda tilloni qo‘lig‘a olg‘andan so‘ng, yana tez qaytarib berdi:

– Uyat, uyat bo‘ladi.

– Bu pul o‘zimga, deb o‘ylamang, – dedi Anvar Toyir aka-ni qo‘lini itarib, – siz bu pulga o‘tun, magiz, ortib qolsa, choy olasiz. Sultonali akam bilan kelganimizda gulxanni bundan ham katta qilib berasiz.

– Sizlar kelsalaring, hammasiyam o‘zimizdan topiladi.

Anvar pulni olmadi. Toyir aka maslahat so‘rag‘andek Sul-tonaliga qaradi. Sultonali duo qilib oling, degan kabi ishorat qildi. Toyir akaning duosidan keyin chiqdilar.

## **XL Fasl. ALDASH UCHUN BOLA YAXSHI**

Bir necha kunlardan beri Safar bo‘zchi xursand edi. Mulla Abdurahmonning xizmatdan chiqishig‘a o‘zim sabab bo‘ldim, deb o‘ylar; o‘z so‘zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvg‘a tushkan nondek shilqillab qolishig‘a: «Ko‘rpangga qarab oyog‘ uzat, mullavachcha!» – deb o‘zicha kulib qo‘yar edi. Kecha Samad bo‘qoqni ko‘chada uchratib, piching otdi: «Mirza-boshimning tegiga suv kelipti-ya, gapingni to‘g‘ri chiqishig‘a qara, Samad?» – dedi. Chunki Anvarga borib aytgan xabarni shu Samad bo‘qoqdan eshitkan edi. Samad bo‘qoq uning bu pichingidan qizardi: «Qulog‘img‘a yanglish kirgan ekan-da, ablah!» – deb gapni kulgulikka burdi. Safar bo‘zchi ham «payrav»<sup>1</sup> qildi: «Bir qo‘chqorning boshi ketkuncha, minglab qo‘yning boshi kesilar emish, deb ayt domlangg‘a!» – dedi. Samad bo‘qoq

<sup>1</sup> Payrav, payrov (*forscha*) izdosh, izidan boruvchi; ixlosmand; tarafdor. Bu yerda ko‘chma ma‘noda kelgan, ya‘ni askiva uchun tanlab olingan, askivachilar birin-ketin davom ettiradigan ma‘lum mavzu ma‘nosida kelgan.

indamadi.

Safar boʻzchi mulla Abdurahmonning xizmatdan boʻshatilgʻanini eshitkandan beri «Mirzamni bir koʻrsam» deb Anvarning oldigʻa borishqa chogʻlanib qoldi. Biroq, dastgoh yonidan qoʻzgʻalishqa ishni qizgʻandi. Bu kun ish toʻqur ekan, oʻzicha qaror berdi: «Bu kun chorshanba, erta panjshanba... juma kun men ham boʻsh, mirzam ham boʻsh. Ha, indin borgʻanim maʼqul».

Shomdan bir oz ilgariroq Safar aka ishdan chiqdi. Kunning sovuqligʻigʻa ham qaramay muzlagan sovuq suvda tahorat qildi, nari-beri boʻz sallasini chulgʻab, masjidga yugurdi. Ul jilovxonadan kirganda, masjidning toʻrdagi hujrasidan mulla Shahodat mufti, Kalonshoh mirzo va mulla Abdurahmonlar namozga chiqib kelar edilar. Safar boʻzchi har ikki muftining ham oʻrdada turishlarini yaxshi bilar edi. Mulla Abdurahmonni oʻrdagʻa yana oladigʻan boʻlibdirlarmi, deb oʻyladi va uch ulamo kelib masjidga kirgunlaricha adab saqlab, masjidning boʻsagʻasida qoʻl bogʻlab turdi. Ular kelib masjidga kirar ekan, mulla Abdurahmon koʻzining paxtasini chiqarib, Safar boʻzchigʻa qarab oʻtdi, ular orqasidan Safar boʻzchi ham xonaqohgʻa kirdi. Ammo haligi qarashdan soʻng Safar boʻzchining boshidan: «Bu mullalar ham domlamdek oʻrdadan haydalganlarmikin? Mirzamning gʻiybati-ga yigʻilishqanlarmikin?» – degan bir fikr oʻtib ketdi.

Soʻfi takbir tushurdi, mulla Abdurahmon mehrobka oʻtdi, mufti va boshqalar unga iqtido qildilar. Imom qiroatda, Safar boʻzchi somiʼlik<sup>1</sup> oʻrnigʻa: «Manovi ketman soqolning afti xunuk, uttasining avzoyi buzuq, domlamning boʻlsa gʻurragi bola ochqan... Uchavi ham alamzada boʻlsa-mi? Domlamning koʻnglini koʻtargali kelganlardir, yoki mirzam bilan ikki orani bitishtirmakchilarmi?.. Mirzamning bitishmagani maʼqul, ikki ogʻiz gap uchun hanuzgacha kek saqlagʻan domla...», – deb oʻylar edi. Shu yoʻsun vasvasalanib shom namozini qanday oʻqugʻanini oʻzi ham bilmadi, ammo yotib turishdan erinmadi. Fotihadan soʻng jamoat tarqala boshladi. Besh-olti kishi, jumladan, Safar boʻzchi ham adab saqlab, domlalar masjiddan chiqquncha qoʻzgʻalishmadilar. Ular chiqib ketkandan soʻng soʻfi shamni oʻchirdi, boshqalar masjiddan tarqadilar. Safar boʻzchi sahnga tushib hujraga qaradi; hujra darichasidan shamʼ yoruqli-

<sup>1</sup> *Somiʼlik* (somiʼ) (*arabcha*) – eshituvchi, tinglovchi) – eshituvchilik, tinglovchilik.

g'i tushar, ichkaridan qo'lida quroq dasturxon ushlagan, o'n bir-o'n ikki yoshliq bir bola chiqib kelar edi.

Safar bo'zchi jilovxonaga o'tib to'xtadi. Hujradan kelgan bola o'z yonig'a yetkach, bolani olding'a o'tkarib, uning orqasidan ko'chaga chiqdi. Bola ko'chaning o'ng tomonig'a qarab ketdi. Safar akaning havlisi ko'chaning chapida edi, lekin ul o'z havlisi tomong'a yurmay, shu bola orqasidan bordi.

– Hoy, Shukur so'fining o'g'li!

Shukur so'fining o'g'li – bola, yo'l ustida to'xtadi. Safar bo'zchi uning yonig'a yetib oldi.

– Qani yuravur, sening oting Mamatqul-a?

– Hi.

– Mamatqul... Sen bizning Asqarboyni taniyanmi?

Bola ajablansumon Safar bo'zchig'a qarab oldi.

– Asqar menim o'rtog'im-da, shu topqacha bilmaysiz ekan-da!

– Ha, ha... o'zing ham yaxshi yigit ko'rinasan... Masjidda nima qilib yurg'an eding?

– Imom pochchamning hujralarida chay qo'yib berdim. Katta domlalar mehmon bo'b kepti.

– Ha, ha... Endi qayoqqa borasan?

– Imom pochchamning uylaridan osh ob kelaman-da.

– Tuppa-tuzuk dastyor bo'lib qopsan-da. Osh olib kelgandingdan keyin tag'in choy qo'yib berarsan hali?

– Ha, qo'yib beraman. Domla pochchalar jo'nag'uncha xizmat qilib turaman.

– Ha, ha... Katta domlalar qachon kelishdi ekan?

– Dadam azong'a chiqqanda kelishdi-da, qo'yib bergan chayimni shu topta ichishayapti.

Safar bo'zchi o'n qadamcha so'zsiz bordi.

– O'zing ko'b yaxshi bolasan-da, Mamatqul, domla pochchalaring nima deyishyapti?

– Hali gapurishkanlari yo'q-da.

– Mamatqul-chi, shu domla pochchalarning so'ziga yaxshi quloq solib tig'nab og'an<sup>1</sup> kishi bemalol jannatka kirib ketavuradi-da... Sen ham ularning so'zini tig'nab olasanmi?

– Ha, ting'ab olaman. Dadam ham savob bo'ladi, deyapti.

<sup>1</sup> Tig'nab og'an – tinglab olgan.

– Bali, Mamatqul, juda yaxshi tig‘nab ol-da... Agar sen shu domla pochchalarning so‘zini yaxshi tig‘nab, ular jo‘nag‘andan keyin menga borib so‘zlab bersang-chi, Mamatqul, men senga o‘n pul beraman-da.

Mamatqul tushunalmaslik ichida Safar bo‘zchig‘a qaradi:

– Chin aytayapsizmi, Safar aka?

– Yolq‘oni yo‘q-da, Mamatqul, – dedi Safar bo‘zchi va bo‘z yaxtagining cho‘ntagini silkitib jaraqatdi.– Ko‘ryapsanmi chaqalarni... Agar ularning gapini tig‘nab menga so‘zlasangchi, o‘n pulni olavurasan-da, Mamatqul.

– Tunda sizning oldingizg‘a borg‘ani qo‘rqaman-da.

– Nimadan qo‘rqasan, Mamatqul? Asqar o‘rtog‘ing kechasi ham qo‘rqmasdan yuravuradi.

– Men itdan qo‘rqaman-da.

– Bizning ko‘chada it yo‘q-ku, tentak, qo‘rqsang etametan bor. Agar imom pochchang endi ketavur desa-chi, Mamatqul, xo‘b, deb hujradan chiq-da, hech kimga bildirmay, darchaning tegidan gapni eshit, hami?

Mamatqul nima uchundir iljayib qo‘ydi va ma‘qul degan kabi bosh irg‘atdi.

– Qo‘rqmasang, ular jo‘nag‘andan keyin biznikiga bor, men do‘konda ish to‘qub o‘lturaman; o‘n pulni olib kelavurasanda, sendan nima ketdi, Mamatqul...

– Tuzuk.

Bola shu so‘zni aytib kichkina, tor ko‘chaga buruldi. Safar bo‘zchi bolaning orqasidan bir oz qarab turg‘andan so‘ng, orqasig‘a qaytdi. Safar bo‘zchi bolag‘a bergan o‘zining bu vakolati bilan kelasi kun mirzoboshining oldig‘a yana bir gap topib bormoqchi edi. Uning fikricha, ehtimolki, keyingi domla pochchalar ham o‘rdadan haydalishtika loyiq, mirzoboshig‘a dushman bo‘lib chiqar edilar. Shu xayollar bilan kelib, uyiga kirdi. Erini kutakuta qozondag‘i tuppasi atalag‘a aylangan To‘xtabibi Safar bo‘zchini koyib qarshi oldi.

## XLI Fasl. CHAQANGIZ SIYQA EMASMI?

Ul aksar shom va ertalabki namozlarnigina masjidida o‘qub, qolq‘anlarini uyida ado qilar, peshin, asr, xuftanlarga vaqt topolmas edi. Ammo bu kech jo‘rtta xuftanga chiqmadi. Ya‘ni Mamat-

qul o'n pul uchun shoshib, topqan gapini kishilar orasida so'zlab bersa ehtimol edi. Oshdan so'ng ishxonasiga chiqdi. Dastgoh yonidag'i qora charog'ni siqib o'rishdagi uzuqlarni uladi, ay-mashqan iplarni yeshdi, chigillarni yozib tarog'ladi, og'zi bilan oxor burkib yana taradi va eng so'ng qurutish uchun o'rishni yelpidi. Urish-to'qishqa rostlang'andan keyin, eski to'ppidagi naychaga soling'an iplarni (arqonni) olib, dastgohka tushti, tig' va gulani<sup>1</sup> orqag'a surib mokkini rostladi.

Qora charog' arang-arang dastgohni yoritar, yelkasi tashqarig'a turtib, ko'kragi ichka botqan Safar bo'zchi, go'yo dastgohka quyulib qo'yg'andek ko'rinar edi. Tepki bosishdan g'ich-g'ich qilg'an nag'ma eshitar va bu nag'ma ohangaga o'ynag'uchi mokki u yoq-bu yoqqa o'tib turar, lahza sayin arqoq-o'rish birlashib, to'rt ellik bo'z hosil qilar edi. Safar bo'zchining bir kechlik ishiga bir ohor<sup>2</sup> mo'ljal bo'lib, qora charog'ning moyi ham soat vazifasini o'tar, ya'ni qora charoqqa to'ldirilgan moy har kun bir ohorg'a yetib bitar edi.

Safar bo'zchi navort yog'ochini o'rab, ohorliq tandaga – o'rishka mo'raladi va nos otib, ko'cha tomong'a quloq soldi. Chunki ul hanuz Mamatqulning kelishidan umidvor edi. Bir oz quloq solib turg'andan keyin, mokkiga yangi naycha joylab, yana ishka urindi. Ichkarida charx toblab naycha solish bilan mashg'ul To'xtabibi ko'ylak yengini iplik o'rishchalar bilan to'ldirib chiqdi.

Gap-so'zsiz, o'rishchalarni eski to'ppiga ag'darib, bo'shalg'an naychalarni yig'ib oldi.

– Oyog'im sovuq qotti, olovning ilojini qil-chi.

– O't yoqib beraymi?

– Ha, bali, uch-to'rtta tarashani kertib kirsang bo'ladi.

To'xtabibi chiqib ketdi. Safar aka asabiylangandek tez-tez tepki bosib ishka qaradi. Mokki to'xtovsiz ikki yoqqa sapchib turdi. O'n daqiqa chamasi shu holda ish qizg'in davom etkandan keyin, birdan mokki to'xtadi, Safar bo'zchi tashqarig'a quloq solib qoldi. Ko'cha eshik «g'iyq» etib ochilib, yo'lakdan kichkina oyoq tovshi keldi. Safar bo'zchi mokkisi qo'lida o'zicha

<sup>1</sup> **Gula** (*forscha*) – 1) yumaloqlab o'ralgan, eshilgan ip; to'qimachilik dastgohida tanda iplarini ikkiga ajratib, ular orasidan moki o'tkazishga xizmat qiladigan moslama.

<sup>2</sup> **Ohor** (*forscha*) – kraxmal; gazlamaga pardoz berish. Ip, gazlama yoki kiyimga pardoz berish yoki qotirish uchun ishlatiladigan modda; kraxmal.



iljaydi, yana bir-ikki oyoq boskandan keyin, do'konxona eshigi ochildi.

– Bali, Mamatqulim, bali... Eshikni yop, eshikni!

Mamatqul eshikni yopdi va ikki qo'lini og'zig'a ko'tarib isindi.

– Sovuq qotdingmi, Mamatqul? Hozir olov yoqamiz, hozir... Boyadan beri Mamatqul keladi, deb o'n pulni saqlab o'turibman-da.

Shu paytda eshik qiyag'ina ochilib, yana yopildi.

– Kiravur, to'xtama, kiravur: o'zingning Mamatquling-ku.

Tarasha ko'tarib To'xtabibi kirdi va Mamatqulg'a qaradi.

– Mamatqulmiding, – dedi To'xtabibi.– Bemahalda nima qilib yuribsan, bolam? Enang eson-sog' yuriptimi?

Mamatqul To'xtabibining so'ziga bosh irg'atib, Safar bo'zchig'a qaradi...

– Mamatqulning menda ishi bor, xolasi. Olovni tezroq yoq. Mamatqul sovuq qotipti...

To'xtabibi o'tunni gulxan o'rnig'a tashlab, qo'lidag'i qovg'asini<sup>1</sup> qora charoqqa tutib yondirdi va borib o'tunni yoqdi.

– Ularni jo'natib keldingmi, o'g'lim Mamatqul?.. Bali, bali. Yonlaringg'a yana boshqa kishi ham keldimi?

– Yo'q.

– Ha, ha... Imom pochchang senga ketavur demapti-da?

– Men tag'in ikki qayta chay qo'yib berdim-ku: men ketsam, ularga kim chay qo'yib berardi. Men chayni qo'yib gapni ting'ab o'turdim.

– Bali, bali, – dedi Safar kulib va xotinig'a qarab qo'ydi.– Yigit deganing ana shunday bo'lsin-da, bizning Asqarboylar ham «yigit»da. Qani, Mamatqul, gulxanning yonig'a borayliq-chi, isinib gapirishamiz-da.

Ikkisi gurillab yong'an olov yonig'a cho'nqaydilar. Safar aka oyog'ini kafshidan chiqarib olovg'a tutdi.

– Asqarboy uxlab qog'anmi, deyman, xola?

– Uxlab qog'an, – dedi To'xtabibi va borib dastgoh yonidag'i bo'shag'an naychalarni yig'ib oldi.

– Shularni to'ldirib bersam, bu kechka yetar?

– To'ldiravur-chi, ko'ramiz-da.

<sup>1</sup> Qovg'a – ichi g'ovak va yumshoq, uzun bo'lib o'sadigan ko'p yillik o'simlik; so'ta. (odatda, bo'yincha yasash, qovun osib saqlash uchun ishlatiladi).

To'xtabibi do'konxonadan chiqdi. Safar bo'zchi Mamatqul-g'a qarab iljaydi. Mamatqul ham o'z navbatida iljayib, Safar bo'zchining chaqaliq cho'ntagiga ko'z tashladi va nima uchundir entikib qo'ydi.

– Xo'sh, Mamatqul oxun?

Mamatqul o'ylab ikkilandi:

– Kitob... kitob so'zini aytishmadi-da, he... Katta domlam qurg'andag'i<sup>1</sup> hijjani<sup>2</sup> o'qug'an edi, men...

Safar bo'zchi bolaning andishasiga tushunib kuldi:

– Sen uqub ololmadingmi, attang. Mayli, uqub olg'aningni ayta ber.

Mamatqul yengillanish nafasi yutdi, ko'zini beixtiyor Safar bo'zchining cho'ntagiga tikdi.

– Kitob so'zi bo'lmasa ham, chaqani beravurasizmi, Safar aka?

Safar bo'zchi kulgidan o'zini to'xtata olmadi, cho'ntagidan chaqalarni chiqarib qo'lig'a oldi:

– Beravuraman-da. Ko'rayapsanmi?.. Shundan o'novi seniki.

– Imom pochcham, – dedi Mamatqul ko'zini chaqadan ololmag'ani holda, – imom pochcham o'zi o'rdag'a mirzaboshi bo'g'an ekan-da... O'sha xat bitadug'an jayda mulla emas, bir kishi katta bo'b qog'an ekan... O'sha mulla emas xomi kishi imom pochchamni xat bitishka tozasi ekan, deb mirzaxonadan chiqarg'an ekan-da... Ali mirzo degan kishi imom pochchamni unga yomonlapti... Safar bo'zchi Mamatqulning so'zini bo'ldi:

– Kinga yomonlapti?

– O'sha mulla emas, xomi kishiga yomonlapti-da... Shundan keyin imom pochchamni chiqaripti. Endi katta domlamlarni ham o'rdadan chiqarsam, deb yurg'an ekan. O'zi juda yomon kishi ekan-da... Katta domlamlar buni nima qilamiz endi, deb imom pochchamning oldig'a kelishti ekan-da, – dedi Mamatqul va bir necha fursat Safar bo'zchining qo'lidag'i chaqaga qarab turdi.

– Chaqangiz siyqa emasmi, Safar aka?

Safar aka kuldi, chaqadan beshtasini ajratib Mamatqul-g'a uzatti.

– Mana o'zing ko'r-chi.

<sup>1</sup>Qurg'an – Qur'on.

<sup>2</sup>Hijja – dars, ta'lim, saboq.

Mamatqul chaqani olib, uyoq-buyog'ini tekshirdi:

– Muhri butun ekan. Bir pulga o'n paysa holva berarmikin, Safar aka?

– Nega bermasin. Chaqani cho'ntagingga solib qo'y, qolg'anini so'zlab bo'g'aningdan keyin olasan. Katta domlalar kengashka kelgan ekanlar, degin?

– Ha... Chaqamni belbog'imga tugsam tushib qolmasmikin?

– Hozir tugma, mendan yana besh pulni olg'aningdan keyin, qo'shib tugarsan.

Mamatqul qo'lidag'i pulni jaraqlatib o'ynadi va shuning orqasidan ijirg'anib shikoyatlandi:

– Oyog'im ivishib qog'an.

– Cho'nqayib o'lturma.

Mamatqul o'lturib olg'andan keyin, yana ijirg'andi:

– Igna sanchyapti?

– Quloq solma, so'zlay ber, hozir o'zi tuzalib qoladi.

– A, shundaymi, – dedi Mamatqul mahsisini silab. – Sizniki ham ashundaqa bo'ladimi, Safar aka?.. Katta domlam soqolini tutamlab, o'shani yandi<sup>1</sup>, tuzoqqa tushar, dedi. Imom pochcham o'ylab o'turdi, undan keyin...

– Sanchyapti-ku, Safar aka?

– Hozir tuzalasan, xo'sh?

– Undan keyin... Sizlarga ma'qul bo'lsa bir gap xotirimga keladi, dedi. O'sha ko'klam chiqsa, uylanadi, dedi...

Safar bo'zchi Mamatqulni to'xtatib so'radi:

– O'sha kim, o'sha?

O'sha-da, mulla emas, singlitaloq-da... O'zingiz ham so'ray beraydi ekansiz-da!.. Oladug'an xotini chiroyliq, deb eshitaman, dedi. Bu ham bir gap-da, shu qizni xong'a to'g'rilasaq bo'ladimikan, dedi. Katta domlalar ma'qul deyishdi. Hay-hay deyishdi...

Shu yerda Mamatqul bir oz o'ylab qoldi, – buning davosi gulchin bo'ladi, deyishdi.

Safar bo'zchi keyingi so'zni takrorladi:

– Gulchin bo'ladi, deyishdi?

Mamatqulning o'zi ham bu to'g'rida ikkilangandek bo'ldi.

– Men yaxshi payqamadim-da: davosi gulchin bo'ladi,

<sup>1</sup> Yanmoq – yomonlamoq.

deyishdi... gulchay... yo‘q.

– Undan keyin?

– Shu, bo‘ldi.

– Bari?

– Bari shu... Men tashqarig‘a chay qo‘yg‘ani chiqqanimda gap ting‘amadim-da.

– Ma‘qul, ma‘qul, – dedi Safar bo‘zchi, – undan keyin ular ketdilarmi?

– Ketdilar. Imom pochcham endi uyingga bor, dedi menga... Chaqani bersangiz, qo‘shib tugat edim.

Safar bo‘zchi kulib, qo‘lidagi chaqadan yana besh pulni uzatdi.

– Mendan o‘n pul olg‘aningni har kimga so‘zlab yurma, tuzukmi? Ha, undan keyin bu gapni hech kimga aytma, domlalarining so‘zi savobsiz gaplar ekan... Uyingga yolg‘iz ketkali qo‘rqmaysanmi?

Mamatqul bir oz o‘ylanib, belidagi chaqa tugunini qo‘li bilan ushladi, Safar akaning «qo‘rqmaysanmi» savoliga javob bermay, borib eshikni ochdi va yugurgancha chiqib ketdi.

## **XLII Fasl. QUV ODAM EKAN**

Safar bo‘zchi darbozadan kirganda, ichkaridan yasamol<sup>1</sup> bir xotin chiqib qoldi. Munday yaxshi kiyingan va husndor xotinni ul o‘z umrida birinchi martaba ko‘rgani uchun bo‘lsa kerak, xotin yashirilib olg‘uncha, undan ko‘zini olmay qaradi. Taajjub va hayrat ichida kelib mehmonxonag‘a kirdi. Mehmonxonada Anvar yo‘q, Anvar o‘rnida begona bir kishi – Sultonali mirzo o‘lturar edi. Safar bo‘zchi salom berdi. Sultonali mirzo javob berib, o‘lturgan joyidan Safar bo‘zchig‘a joy ko‘rsatdi. Safar bo‘zchi bir oz so‘zsiz o‘lturg‘andan keyin, «mirzasini» so‘radi. Sultonali mirzo, Anvarning qo‘shnilaridan birinikiga zarur bir yumish bilan chiqib ketkanligini va bir ozdan so‘ng kelishini so‘zlab, undan mirzoda qanday yumishi borlig‘ini savol qildi.

– Yumish-ku, yo‘q, taqsir, – dedi Safar.– Biz bir xolis duogo‘y odam. Mirzamni bir ziyorat qilay, deb kelgan edim.

Sultonali Safar bo‘zchini bir narsaning tama‘ida yurg‘an kishi, deb o‘yladi. Chunki Anvarning qo‘li ochiqlig‘ini, unga

<sup>1</sup> Yasamol – yasangan, bezangan.

ko‘b hojatmandlarning o‘rganib qolg‘anliqlarini yaxshi bilar edi. Ammo Safar bo‘zchi Sultonaning silliq muomalasidan xursand bo‘lib, unga qarshi o‘zida do‘stliq sezdi.

Bir oz jim o‘lturgandan keyin Safar yana tilga keldi:

– Baraka topsin mirzam odamjon-da, odamjon; bizdek faqir-lar bilan ham og‘ayni, sizlar bilan ham shunday, barcha barobar.

Bu so‘z Sultonali mirzoning boyag‘i fikriga qarshi so‘zlan-gandek tushdi. Safar bo‘zchining mirzo bilan og‘ayniliq da‘vosi uni taajjubga soldi.

– Shunday, shunday... Mirzo, siz aytkancha, barchaga barobar yigit, – dedi Sultonali.

– Nima kasb qilasiz?

– Bo‘zchiliq, taqsir. Lekin mirzam, sen bo‘zchisan, deb bizdan hazar qilmaydi, biz shunisiga ado-da, taqsir... Bo‘lmasa gularimizning oqsoqoli ham ikki og‘iz gapimizga quloq solsini-chi. Nafsambir<sup>1</sup> gap yaxshi-da, taqsir.

Safar bo‘zchining «nafsambir» gapi Sultonalini beixtiyor kuldirdi.

– To‘g‘ri aytasiz. Ismingiz nima?

– Biz devorning kavagida yotqan bir odamda. O‘zimiz kim-u, ismimiz nima bo‘lar edi. Shaharning Olim qovog‘i<sup>2</sup> emas-mizki, aytkan on tanib olsangiz.

Sultonali mirzo yana kuldi, – «nafsilamr» gaplardan zavq-lanib, ul ham Safar bo‘zchig‘a qarshi o‘zida yaqinliq his etdi va bir oz o‘ylab turdi.

– Ismingizni aytsangiz, balki, men tanir edim... Siz bo‘zchi bo‘lsangiz, o‘tkan hafta mirzo Anvarga bir so‘z aytkan emas-siz?

– Aytkan bo‘lsam, ehtimol: nega desangiz, qo‘l bo‘shag‘an-da mirzamning ziyoratiga kelib turaman-da.

– Siz... Siz mulla Abdurahmonning qavmlaridan emas-siz?

– Xe-xe-xe... Xudda, taqsir.

– Agar yanglishmasam, ismingiz Safarboy chiqar?

– Safar bo‘zchi zavqlanib, kayflanib kulib yubordi:

– Mirzam aytkan ekanlar-da. Sultonali mirzo ham kuldi va kulgi orasi latifa qildi:

<sup>1</sup> Nafsambir, nafsilamr (arabcha: haqiqatda) – haqiqatga mos; to‘g‘ri, rost.

<sup>2</sup> Xudoyorg‘a chet mamlakatlardan mol keltirib sotg‘uchi mashhur savdogar (muall.).

– Siz o‘zingizni past urib, Olim qovoq emasmanki, otimni aytkan on tanisang, deysiz, holbuki, sizni o‘rdaning mirzoboshisi, shaharning qo‘rboshi, dahboshisi<sup>1</sup> ham taniydir.

– Tavba qippan, tavba qippan, – dedi Safar.– Men o‘z qadrimni bilmay yurg‘an ekanmanda.

Ikkisi hangama so‘qib bir necha payt kulishdilar va bir onda eski qadrdonlar holig‘a o‘tishdilar. Sultonali uni «Safar aka» deb xitob qila boshladi va mulla Abdurahmonning keyingi ahvolidan so‘radi. Safar bo‘zchi mulla Abdurahmonning bo‘shatilg‘anidan xursandligini izhor qildi va uning labi gezarib yurg‘anini so‘zlab, Sultonalini kuldirdi.

– Shunchalik holing bor ekan, duningga qumg‘on bog‘lashing nima hojat edi, deb kulaman. Egri to‘nkaga – egri to‘qmoq; mirzam xo‘b yaxshi ish qilg‘anlar-da.

– Shunday, – deb kuldi Sultonali, – kishilarga endi nima der ekan, balki qulog‘ingizga chaling‘andir?

Safar bo‘zchi o‘ng qovog‘i ustini silab oldi va qo‘lining tekis o‘smagan tirnoqlarig‘a qaradi.

– Bu to‘g‘ridag‘i so‘zini eshitkanim yo‘q-ku... Endi o‘zi yomon odam-da.

– Masalan, yomonlig‘i?

– Yomonlig‘i...– deb yana tirnog‘ig‘a qarab qoldi, – ishqilib, taqsir, shu odamni payini qirqsam, deydi-da. Ilgari xolisanlillo dushman bo‘lsa, endi alamzada bo‘ldi-da...

Safar bo‘zchining sodda ko‘nglida yashiring‘an sir oz-oz sirtiga ham tepib turar edi. Uning «...endi alamzada bo‘ldi-da» jumlasidan shubhalanib qolg‘an Sultonali jiddiy tus oldi:

– Men mirzo Anvar bilan birga turaman, Safar aka, – dedi.– Mirzo bilan bizning oramizda hech bir yashirin gap bo‘lmaydi. Masalan, sizni tusmol bilan tanishim, mulla Abdurahmon to‘g‘risida kelib aytkan so‘zingizni bilishim...

– Men buni bilib turippan, taqsir.

– Bilib turg‘an bo‘lsangiz, – dedi Sultonali o‘pkalik qiyofatda, – nega mendan shubhalanasiz?

– Yo‘q, yo‘q, uka, men xudoy haqqi...

– Bo‘lmasa, nega mulla Abdurahmon to‘g‘risidag‘i savolimga tuzuk javob bermaysiz?

<sup>1</sup> Dahboshi – o‘nboshi, o‘nta sipohning boshchisi, daha sarkardasi.

– Men aytdim-ku, yomon odam-da, o‘zi...

– Uning yomon odamlig‘ini o‘zim ham bilaman. Ammo meni ham yomon odam deb o‘ylag‘aningiz uchun... Xo‘b, hali mirzo Anvar kelganda o‘sha mendan yashirib turg‘an gapingizni so‘zlarsiz, men shunda sizni uyaltirarman...

Safar bo‘zchi birdan kulib yubordi va qo‘li bilan Sultonalini yanib qo‘ydi:

– Uyat qilsangiz ham «nafsambir»ini aytay, ancha quv odam ekansiz.

Bu sodda baho Sultonalini kuldirdi:

– Siz mendan ham quvroq ekansiz.

– Men topqan gapimni mirzamning o‘ziga aytay, degan edim-da.

– Albatta, aytasiz, lekin men ham eshitsam, zarar qilmaydi. Xo‘sh, «alamzada» nima qilmoqchi?

– Alamzadami?– deb kuldi Safar va bir oz o‘ylab turdi.– O‘rdada turadig‘an bo‘lsangiz, anovi katta go‘zim<sup>1</sup> muftilaringiz bor-ku?

– Bor, bor: pul bersangiz harom o‘lgan eshakning halollig‘i-g‘a fatvo beradigan muftilar. Xo‘sh?

– Gaplaringiz ham qiziq ekan... Ana shu muftilaringizdan ikkitasi o‘tkan kun domlamizning hujrasiga mehmon bo‘lishdi...

Safar bo‘zchi o‘tkan faslda yozilg‘an mojaroni bir-bir so‘zlab bordi. Eshitkuchi bo‘zchining soddag‘ina qilib sir olishini kulib, zavqlanib tinglab turdi.

– Bolaning so‘zi ko‘b tatal keldi, taqsir. Chamasi, mirzam bir qizg‘a uylanmakchi ekan-da. Qizi qurg‘ur chiroyliq bo‘lsa, qo‘ying-chi, shu qizni xong‘a oldirmoqchi bo‘lg‘anlar-da. Kishiga alam qilg‘andan keyin har bir kurakni bemalol...

Sultonali mirzo bu so‘zni eshitish bilan birdan o‘zgarib ketdi, ko‘zi katta ochilib, manglayida uzun-uzun ajinlar hosil bo‘ldi:

– Tutilmagan gap... Xo‘sh, so‘zlay bering-chi?

– Bolaning, xullas, gapi shu, – dedi Safar va bir oz jim qarab turdi.

– Ha, ha, yana bir narsa ham bor ekan: ular shuni muvofiq ko‘rganlaridan keyin: «Buning davosi Gulchin», – deb aytkan

<sup>1</sup> Go‘zim – ko‘zli.

emishlar. Men bolaning bu soʻziga harchand tushunalmadim. Bola yanglishqanmi yoki mullalarning shunday tojikisi ham boʻladimi, men endi avom odamman-da, taqsir.

Sultonali mirzo shu jumla ustida oʻyladimi yoki boshqacha bir andisha uni mashgʻul etdimi, baharhol, birar daqiqa, chamasi, soʻzsiz xayol surib qoldi. Safar boʻzchi esa, bu holdan bad olib, manglayini qashidi. Qashir ekan, barmoq orasi Sultonali mirzoning yuzidan bir narsa oʻqushqa tirishar edi.

– Ular qaysi kun shu maslahatni qilgʻan edilar?– deb soʻradi Sultonali mirzo.

– Oʻtkan kun, taqsir.

– Yaʼni orada kecha panjshanba oʻtkan?

– Bali, bali.

Sultonali boshini chayqab tebrandi. Soʻngra mirzo Anvarning koʻklamga chiqib uylanmakchi boʻlgʻanini, qiz esa, shu uyning bolasi ekanini, domlalar mirzo Anvarning obroʻsini toʻkish fikriga tushkanliklarini soʻzlab chiqdi:

– Rahmat sizga, Safar aka, – dedi Sultonali.– Siz mirzo Anvarning obroʻsigʻa toʻqunmoqchi boʻlgʻan bir yomonliqning xabarini oldindan olib kelgansizkim, mirzo Anvarning bir doʻsti boʻlishim sifati bilan sizga minnatdorchilik izhor qilaman va shuning bilan birga bu xabarni mirzoga bildirmasligingizni, hozircha bu sirning ikkimizning oramizdagʻina qolishini sizdan soʻrayman.

Negaki, mirzo Anvarni bu xabar bilan tashvishka solgʻan boʻlamiz. Mirzoga bu xabarni aytishdan ilgari oshigʻich ravishda siz bilgan ifloslar qarshisigʻa chiqib ishlashimiz, mirzoning obroʻsigʻa toʻqunadirgʻan yomonliqni dafʻ qilishimiz va shundan keyingina boʻlib oʻtkan bu mojaroni unga soʻzlashimiz kerakka oʻxshaydir. Men hozir mirzo Anvar qaytib kelmasdanoq, shu gap orqasidan bir joygʻa boraman.... Boradirgʻan joyimni sizga aytib ham qoʻyay: «Davosi Gulchin» jumlasidagi «gulchin» soʻzini bola yanglish onglagʻan, ular – «davosi Gulshan» deganlar. Zeroki «Gulshan» soʻzi bir xotinning ismi boʻlib, bu xotin xongʻa chiroylik qizlar topib berguchi haram dallasidir<sup>1</sup>. Ular oʻzlarining iflos niyatlariga shu xotin orqaliq yetmakchi, shu vositada mirzo Anvardan oʻch olmoqchi boʻlgʻanlar. Fursatni qochirmay shu

<sup>1</sup> Dalla (arabcha) – vositachi; qoʻshmach, qoʻshmachilik bilan shugʻullanuvchi.



xotinning oldig'a borishim kerak. Gapka tushungan chiqarsiz, Safar aka.

– Tushundim, sadag'ang ketay, taqsir.

– Gap shunday bo'lsin; ish bartaraf bo'lg'uncha bu to'g'rida mirzoga og'iz ocha ko'rmang, jon aka, – dedi takror Sultonali va o'rnidan turdi, – Men mirzo Anvar kelmasdan jo'nay, kelsa yu-bormaydir. Sizdan meni so'rasa, bir kishi chaqirib ketdi, dersiz, durustmi?

– Xo'b, men ham siz bilan ketabersam?

– Yo'q, siz o'lturing, menim daragimni aytib uni xotirjam' qiling. Undan keyin kelasi juma, albatta, shu yerga kelib mendan natijani eshitarsiz, mirzo bilan uchavimiz o'lturishib suhbat-lasharmiz, ma'qulmi?

– Xo'b.

Sultonali xayrlashib, oshig'ich mehmonxonadan chiqdi.

### XLIII Fasl, CHO'LOQ QUSH

Ayvonda salla o'rab ovora bo'lg'an maxdum yo'lakdan «zaifa» shaprasini olib, tanchada sanama tikib o'lturg'uchi Ra'noga:

– Yo'lakda xotin kishi ko'rinadi, xabar ol-chi, bolam, – dedi. Ra'no yo'lakda yarmisini ko'rsatib yondama turg'an xotin-nig oldig'a bordi.

– Assalomu alaykum...

Xotin salomga javob berib, yo'lak tomong'a o'tdi va Ra'no-ni o'z oldig'a imladi. Yasamol, po'stun kiygan bu xotin Ra'noning diqqatini o'ziga jalb etdi. Borib ko'rishdi.

– Nasibbekning havlilari shu emasmi, otin qiz?

– Yo'q, – deb kuldi Ra'no, – biz Nasibbekning qo'shnisimiz.

Xotin boshdan-oyoq Ra'noga qarab chiqdi:

– Sho'rim qursin, – deb qo'l silkdi xotin, – men adashib sizlarni ovora qilibman... Kezi kelganda tanishib qo'yg'anni aybi yo'q, bu kimning havlisi?

– Solih maxdumning.

– Men adashmay ketay, juda uyat bo'libti-da, hali men maxdum pochchamning havlilariga kirdimmi... Siz kimlari?

– Men... qizlari.

– Ko'b yashang, ismingiz?

– Ra’no... Qani, bu yoqqa.

– Rahmat, Ra’noxon... Nasibbekning uyi sizning qaysi tarafingizdagi eshik bo’ladi?

– So’limizdagi birinchi darboza?

– Rahmat, Ra’noxon.

Xotin xayrlashish o’rnig’a, yana bir oz Ra’noga qarab turdi. Ra’no bu holdan o’ngg’aysizlanib, yerga qaradi. Xotin kulimsib olg’andan keyin, Ra’no bilan xo’shlashib orqasig’a qaytdi, tashqarig’a chiqib, Safar bo’zchig’a uchrashdi.

Ra’no xotinni jo’natib, ichkariga kirganda, maxdum «zarurat» to’nini kiyib, o’ziga oro bergan holda, ayvondan tushib kelar edi. Xotinning kim ekanini so’rag’andan keyin, Ra’noga bu kungi ro’zg’or ishlari to’g’risida ba’zi ta’limotlarni berdi. Chunki Nigor oyim bu kun ertalab qarindoshlarnikiga mehmon bo’lib ketkan, Ra’no uyda yolg’iz qolg’an edi.

– Onang kech qaytadi, binobarin, taomni barvaqtroq qilsang ham bo’ladi... Habba, taomni o’zing bilan Anvar akangga loyiq qil, men bo’lsam to’ydan albatta to’yib kelaman, onang ham och kelmas, – dedi va bir necha qadam yurib, yana to’xtadi:

– Anvar akangdan, nima taom qilay, deb so’rasang yaxshi bo’ladi, qizim!

Ra’no otasig’a ma’qul ishoratini berib ayvonga keldi, maxdum chiqib ketdi. Ra’no ayvonda bir necha vaqt sanama tikib o’lturgandan keyin, ishini yig’ishtirdi, rafdagi<sup>1</sup> kitoblardan birini olib ochdi. Kitob ustida ham ancha shug’ullanib, bundan ham zerikdi. So’ngra o’rnidan turib, tashqarig’a yo’l soldi. Boqcha eshigi yonig’a kelganda, Anvar tashqarida kim bilandir xayrlashar edi. Ra’no eshik yonida kutib turdi. Bir ozdan keyin Anvar yolg’iz qolib, shu tomong’a – ichkariga qarab kela boshlag’andek bo’ldi. Ra’no kulimsib o’zini eshik panasiga oldi.

– Assalom.

Bir-ikki qadam olding’a o’tkan Anvar muloyimg’ina eshitilgan «assalom» so’zi bilan cho’chib, yonig’a qaradi va juda ham qo’rqqan kishi bo’lib atrofiga tuflay boshladi.

– Jonim chiqib ketdi... Bu nima qilg’aning, hoy qiz!

– Bumi, bu sizni cho’chitkanim.

– Xo’sh, nima qilib yuribsan?

<sup>1</sup> Raf (*forscha*) – devorning balandroq qismida o’yib yasalgan tokcha; idish tokchasi.

– Sizga osh qilib beraymi, deb so‘rag‘ali chiqqan edim.

– Otamdan so‘ra.

Ra‘no otasining to‘yg‘a ketkanini va so‘zini aytdi. Anvar kulimsidi.

– Uch qavat havlida ikkimiz yolg‘iz qolsaq, qanday baxt bu?..

– Bo‘lmasa men darbozani zanjirlab kelay.

– Ha... zanjirlab keling...

– Nega achchig‘lanasan, yaxshi qiz, men ichkari kirsam, mehmonxonaning yolg‘iz qolishini o‘ylamaysanmi?

Ra‘no istig‘nolandi<sup>1</sup>.

– Men sizni ichkariga taklif qilg‘ali chiqmadim, nima osh qilishni so‘rag‘ali chiqdim.

– Maqsadingta tushunib turibman, ammo sen yolg‘iz zerikmagil, deyapman.

– Men zerikmayman... Qanday osh qilay?

– Qaysi xilini buyursam ekan?– deb o‘z-o‘ziga savol berdi Anvar.– Ubraga uquving yo‘q, palovni lanj qilasan, somsani yopolmaysan, tuppanti kesalmaysan, senga qayla buyurg‘andan, atala qil degan yaxshi, chunki eziltirib yuborasan, manti to‘g‘risida o‘ylash ham ortiqcha... Yana shu holda qanday osh qilay, deb do‘q urg‘aning qiziq.

– Men uquvsiz bo‘lsam, o‘zingiz osh qiling.

– Men ham osh qilishni yaxshi bilmayman, shuning bilan birga do‘q ham urmayman, – dedi Anvar.– Lekin ikki yorti – bir butun bo‘lsa, ehtimol, yaxshi osh qilarmiz... Sen borib o‘choq harakatini ko‘raber, sabzi-piyoz to‘g‘rashni menga qo‘y, xo‘bmi, yaxshi qiz?

Ra‘no javob bermadi, o‘pka namoyishi<sup>2</sup> ostida ichkariga jo‘nadi. Anvar kulgi orasi tashqarig‘a chiqdi...

Ra‘no o‘choqqa olov yoqib, qozonni yuvar, Anvar o‘choqboshining sufasiga enggashkan ko‘yi sabzi to‘g‘rar edi. Ra‘no hanuz o‘pka saqlab, Anvarning savollariga javob bermas, uning qiziqliq so‘zlariga ham teskari qarab kular, kulgisini unga ko‘rsatmas edi.

<sup>1</sup> Istig‘no (*arabcha*: ehtiyosizlik, badavlatlik; noz-karashma qilish) – 1) muhtoj bo‘lmaslik (ehtiyoj sezmaslik) his-tuyg‘usi, shunday his-sezgili munosabat, holat; 2) go‘zal qiliq bilan tortinish; noz. Istig‘nolanmoq – nozlanmoq, karashma qilmoq.

<sup>2</sup> O‘pka namoyishi ostida – xafa bo‘lgan kabi.

– Xotin kishining charxi bilan o‘chog‘ig‘a tegma, degan gap to‘g‘ri emish... Albatta, sen xotin kishi emassanku, biroq, «kullu shay‘in yarji‘u ila aslihi»<sup>1</sup>. Sabzini mayda to‘g‘raymi, yirik? Bir bor emish, bir yo‘q emish, o‘tkan zamonda bir qiz bor emish: ko‘ziga tutun kirib yum-yum yig‘lag‘an emish. Sababini so‘rasalar, o‘tun ho‘l emish, ammo qizning achchig‘i xiyli mo‘l emish... Teskari qarab kulma, hoy qiz! O‘h, latta keltir, qo‘limni kestim!

Ra‘no yalt etib Anvarning qo‘lig‘a qaradi va aldang‘anini bilib yana o‘z ishida davom etdi.

Qo‘lingni kessang, ham bu qiz ishonmaydi. Soching kuyadi, yaxshi qiz.

Ra‘no sochini orqasig‘a tashlab, o‘choqboshi sufasiga chiqdi; qozong‘a yog‘ solib, Anvarning oldig‘a go‘sht bilan piyoz keltirib qo‘ydi. Anvar go‘shtni to‘g‘rab, yana tegajalik boshladi:

– To‘yinglar qachon, hoy qiz... Javob bersang-chi, axir, agar nasrni pisand qilmasang, nazm bilan ham so‘ray:

*Nag‘ma unlari,  
Bahor kunlari,  
Ishrat tunlari,  
Yetarmi, Ra‘no?*

Ra‘no sekin iljayib, Anvarga yon qaradi, so‘ngra ko‘zini o‘choq yonidag‘i bir nuqtag‘a olib, harakatsiz qoldi.

– Nasrga javob beralmagan, nazmga... O‘zim ham qiziqmanda, – dedi Anvar.

Ra‘no bir necha vaqt boyag‘icha harakatsiz, Anvarning pichinggiga iltifotsiz turdi, so‘ngra Anvar tomong‘a bir oz mayl etib iljaydi:

*Kecha-kunduzlar,  
Qizardi yuzlar,  
Uyatli so‘zlar  
Bitarmi, mirzo?*

– dedi va oradan ozg‘ina fursat kechirib yana:

*O‘choq boshidan,  
Do‘sti qoshidan.–  
Qarab Roshidan<sup>2</sup>*

<sup>1</sup> *Kullu shay‘in yarji‘u ila aslihi* – har bir narsa baribir o‘z asliga qaytadi.

<sup>2</sup> *Roshidan* – Qo‘qon tumanida bir qishloq ismi (muall.).

*Ketarmi, mirzo?–*

dedi va shuning orqasidanoq:

*Manglayin qashib,*

*Mendan ham oshib,*

*Javobim shoshib*

*Etarmi, mirzo?*

Anvar ust-ustiga tushkan qator bu hujumlar ostida shoshib qoldi, baytlarning qaysi birisiga javob berishni bilmay kuldi.

– Lo‘li ekan bu qiz!– dedi.

Ra‘no o‘choq yonig‘a cho‘nqayib olov jo‘nashdirar ekan, yer ostidan Anvarga qarab iljaydi:

– Javob. Anvar kulimsigan holda o‘ylab qoldi.

*Nozmidir, ha?*

*Bilmadim, ayo,*

*Go‘zal, dilbaro*

...

Anvar oxirg‘i misra‘ni aytalmay tutiliqdi, chunki qofiya topish qiyin edi. «Ketar, yetar» vaznlik so‘zlar qofiya uchun kambag‘al bo‘lib, o‘xshashlari to‘rt-beshtadan oshmas va shular ham Ra‘no tomonidan olinib bitkan edilar. Anvar har qancha urinib, keyingi misra‘ga qofiya topolmag‘andan so‘ng, Ra‘noga qo‘shilishib kulishdi.

– Qushingizning boshi bilan ikki qanoti bor, lekin oyog‘i yo‘q.

– Qush uchun bosh bilan ikki qanot kifoya, Ra‘no... Qush uchib yursa, bas!

– Cho‘loq qush ko‘kda uchib charchagandan keyin daraxtka qo‘nolmaydi, ammo yerga tushsa mushuk yeb qo‘yadi, – dedi Ra‘no va kulib qotib qoldi.

Kuchlik kulgidan Ra‘noning ko‘zi yoshlanib, o‘siq kipragi juftalandi, kulgi va o‘choq harorati bilan ikki yuzi qizil olmag‘a aylanib, latif burni ustida marvarid rezalari hosil bo‘ldi.

Anvar o‘zining mag‘lubiyatidan xafa emas, Ra‘noning husnidagi hozirg‘i ajib o‘zgarish muvaffaqiyatidan o‘zini tutolmay kulguchi shoiraning namoyishkor xursandligi Anvar uchun bir yuz mag‘lubiyatka arzirik edi.

#### XLIV Fasl. QOP YO‘QOTDING‘IZMI?

Sultonali mirzo «Qushbegi» mahallasiga kelib, bir darbozaga kirdi. Qorong‘i yo‘lakdan yurib borib, ichki eshikni taqirlatdi. Ichkaridan «Hozir!» degan tovush eshutilgandan keyin bir necha qadam orqag‘a qaytib keldi. Bir ozdan so‘ng ichkaridan beqasam choponini yelkasiga xom tashlag‘an, mahsisiz oyog‘ig‘a sag‘ri kafsh kiyib ko‘ylakchan badanini choponi bilan o‘rag‘an qirq yoshlar chamaliq bir yigit chiqdi va Sultonali mirzoga salom bergandan so‘ng, shoshib choponining yengini kiydi, kelib ko‘rishdi.

– Marhamat, taqsir.

Bu kishi moltopar xotinni olib, suyagi tinchib qolg‘an Xolboy – Gulshanning eri edi. Uyida erta-kech bekor yotib, Gulshanning topib kelganiga qanoat qilar, faqat osh pishirib havli supurar edi. Boshqa oilalarda xotinlar uy ishi bilan bo‘lib, erkaklar ko‘cha ishini qilsalar, Xolboy akaning oilasi tamoman shuning ziddiga qurilg‘an edi. Sultonali mirzo Gulshanning o‘rdag‘a ketkanligini eshitib sillasi qurudi, bir necha vaqt fikrga tolib qoldi.

– O‘rdag‘a ketkanligini aniq bilasizmi?

– Bundan chiqib bir joyga bormoqchi edi, – dedi Xolboy, – agar ishi bitsa, to‘g‘ri o‘rdag‘a ketmakchi, bitmasa uyga qaytib kelmakchi edi. Shu choqqacha qaytib kelmagani uchun o‘rdag‘a bordimi, deb o‘ylab turippan.

– Siz o‘sha boradiring‘an joyini bilarsiz?

– Payqolmadim, taqsir.

Sultonali mirzo tinkasi qurug‘andek orqasig‘a tislaniib, yo‘lakning toqchasig‘a o‘lturdi va manglayini qashidi:

– Kecha yangamni hech kim yo‘qlab keldimi?

Xolboy bir oz o‘ylanib soqoli ostini chimchiladi.

– Yo‘qlab kelgan ekan, men uyda yo‘q edim.

Sultonalining tusi o‘zgarib, boshini qimirlatib qo‘ydi, shipka, ko‘chaga qarandi.

– Agar yangam kelsa, meni aytasiz, men yana qaytib kelaman... Uydan siljimay, meni kutsin, katta bir ish bor, durustmi?

Sultonali mirzo Xolboydan va‘da olib ko‘chaga chiqdi, ildam-ildam oyog‘ qo‘yib, kelgan tomoniga yo‘l soldi. Qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar bo‘ylab borar, ko‘chada ko‘ringan har bir xotinni tekshirib oyog‘ bosishig‘a qarab o‘tkazar edi. Bozor-

chag'a yetkanda tevarakdan juma azoni eshitildi. Ko'chada durkum-durkum salla o'ragan xalq masjidlarga qarab oqar, ul ersa jumani unutilib allaqayoqqa chopar edi. Solih maxdum ko'chasini bosib to'g'rig'a o'tdi, o'n qadamcha yurib to'xtadi. Bir oz taraddudlanib turg'andan so'ng, orqasiga qaytib, Solih maxdum ko'chasiga kirdi. Darboza qiya ochilib turar, tashqari kishidan xoli, mehmonxona qulflangan edi. Sultonali mirzo boqcha eshigida to'xtab, tirqishdan mo'raladi. Xotin kishi yo'qlig'iga qanoatlangandan keyin, boqchag'a qadam bosti va sekin-sekin yurib ichkari havlining eshigida to'xtadi.

– Mirzo Anvar, hov mirzo Anvar!

Chaqirish uch-to'rt takrorlangandan keyin, yo'lakdan gurs-gurs oyoq tovshi keldi. Sultonali mirzo o'zini eshikning yonig'a olib, yana chaqirdi.

Ichkaridan: «Yo'qlar!» – degan javob bo'ldi.

– Qayoqdalar?

– Jum'aga ketdilar.

Sultonali rohat nafas olg'andek ko'rinib, ko'zini eshik ostonasig'a tikdi:

– Sizdan so'rab ketsam ham bo'lar, singlim... Shu yerga bir xotin keldimi?

– Yo'q... Ha, boya bir xotin adashib kirgan edi, – degan javob bo'ldi.

Sultonalining ko'zi olalanib, peshonasida qator ajinglar zohir bo'ldi.

– Adashib kirdi?

– Ha.

– Adashib kirganiga qancha bo'ldi?

– Boya, ertalab.

Sultonali boshini chayqadi. Ra'noga rahmat aytkandan keyin, tashqarig'a qarab yurdi. Ko'chaga chiqib yana boyag'icha oyog'ini qo'lig'a olg'andek, yugurib ketdi. O'rdag'acha bir yarim chaqirim, chamasi, yo'l bo'lib, ul bu masofani o'n besh daqiqa ichida bosti. Havoning sovuq bo'lishig'a qaramay, manglayidan ter quyg'an holda o'rdaning birinchi darbozasiga kelib yetdi.

Darbozabonlar yonida to'xtab so'zlashdi, manglay terini artib, darboza sufachasiga o'lturdi.

– Qop yo'qotding'izmi, taqsir, – deb kuldi darbo-

zabonlardan biri.

– O‘xshash... Janob jumaga chiqdilarmi?

– Chiqmadilar.

Sultonali mirzo damini rostlag‘an kabi bir oz so‘zsiz o‘lturdi.

– Haramga birar xotin kirdimi?

– Bitta kirmadi, – deb kuldi darbozabonlarning biri.

– Besh-o‘ni kirdi, chamasi...

Sultonali uning hangamasiga kuchlanib kuldi, ammo yana og‘iz ochishg‘a majolsiz kabi o‘lturib qoldi. Chunki, endi bundan nariga yugura olmas, qo‘li shundan ortiqchag‘a yetmas edi. Ko‘zini yerga tikib, ikki soatdan beri qilgan harakatlarining shamolg‘a ketkanini xotirladi. Abdurahmon va sheriklari o‘zlari-ning iflos maqsadlarig‘a yetmasalar, deb entikdi, ayniqsa, mirzo Anvarning dushmanlari oldida obro‘si to‘kulishi unga og‘ir tuyuldi. Bu og‘irliqning ustiga Abdurahmon to‘g‘risida qilg‘an o‘zining xudra‘yligini<sup>1</sup> xotirlag‘ach, yana ham ko‘ngli g‘ash tortdi. Bu jihat bilan go‘yo yomonliqning bosh omili Sultonali-ning o‘zi bo‘lib chiqar, «Agar men Abdurahmonni o‘rdadan chiqarib yuborishqa isror etmasam, mirzoni bu ishka majbur qilmasam, balki, bu adovatlar bo‘lmasmidi?» – deb o‘ylar, Anvarning ta‘na qilmaslig‘ini bilsa ham, yana ma‘nak<sup>2</sup> ezilishini, uning yuziga qarolmaslig‘ini chamalar edi. Andishasi shu joyg‘a yetkandan keyin o‘rnidan turdi, darbozaning kichkina eshikcha-sini ochib, ichkariga kirdi. To‘g‘ri yo‘lni qo‘yib, qor ostida bosilib qolg‘an sobiq gulzorlar ichi bilan aylanib yurdi. Ichki o‘rda qo‘rg‘onlari ostida yarog‘liq yigitlar aylanib turar edilar. Sultonali mirzo yura-yura o‘rdaning chap muyushiga, qorovul yigitlardan birining yaqinig‘a yetib, u bilan so‘rashdi, biri-kki og‘iz so‘zlashib, o‘rdaning sharqig‘a yuzlandi. Bunday darboza beklari bilan bordi-keldi aytishib: «Jum‘a kun nima qilib yurib-siz?» – degan savolga: «Bu kun janob ko‘ngil ochmoqchilar, deb eshitkan edim» – javobini berdi. Bular yonida ham bir oz o‘lturib, yana qo‘zg‘aldi, o‘rdaning shimol qismig‘a o‘tdi. Haram va xon oilasiga maxsus yangi daxma tevaragida uch-to‘rt nafar qora qulchalar ichida O‘rmonbek o‘q o‘ynab yurar edi. Sultonali mirzo daxmaga qarab bordi, «kichkina xon”g‘a ta‘zim qilg‘an-

<sup>1</sup> Xudray – qaysarlik, o‘jarlik, o‘z fikrini o‘tkazish.

<sup>2</sup> Ma‘nak – ruhiy, ich-ichidan.



dan so'ng, daxmaning bir chekkasiga o'lturib, qur'on o'qudi. Ammo ko'zi o'ynab yurg'an bolalarda, tili qiroatda edi. Fotihadan so'ng qorixonaning ayvon muyushiga cho'nqayib bolalarning o'yunig'a tomosha qildi. O'rmonbek kamonchaga o'q qo'yib otar, o'qlar ko'kka ko'tarilib turli masofaga borib tushar, qulchalar otilg'an o'qlarni terib kelib O'rmonbekka berar edilar. Otilg'an o'qlardan biri Sultonaning oyog'i ostig'a kelib tushti. Sultonali enggashib yerdan o'qni oldi, o'qning uringan patini to'g'rilab o'lturdi. Shu holda qulchalarning biri yugurib yetdi. Gap-so'zsiz o'qqa qo'lini uzatqan edi, Sultonali qulchani bo'yi yetmaydirgan qilib qo'lini yuqori ko'tardi.

– O'qni bering', aka, taqsir xafa bo'lati!

Sultonali hazillashkan bo'lib, o'qni yuqorida ko'tarib turaberdi.

– Sen Gulshan opani taniysanmi?

– Tanisam ne?! Bering' o'qni!

– Shoshma, xuvari, Gulshan opa bu kun haramga keldimi?

– Kelsa ne?..

– O'q o'ynab bo'lg'andan so'ng Gulshan opani menga chaqirib ber, durustmi?

– Xo'p.

Sultonali o'qni qulchani qo'lig'a ushlatdi, ammo yana qo'yib yubormay qo'rg'on osti bilan yurib turg'an yigitlarga qaradi...

– Aniq chaqirib berasanmi, o'g'lim?

– Xo'p dedim-quv.

– Meni taniysan-a?

– Sizni? Siz mirzo – taqsir.

Sultonali o'qni berib yubordi. Qulcha yugurib O'rmonbek yonig'a ketdi. Sultonali qo'rg'on ostidag'i yigitlarga ko'z qirini tashlab, ularni o'zidan parvosiz topdi. Chunki uning hozirgi ishi, ya'ni bola orqaliq haram bilan aloqa tutish qo'rqinchli sanalar, basharti bu xil gap sezilib qolsa, katta falokatlar ham sababchi bo'lar edi. O'rmonbek yana bir oz o'q otqandan so'ng, zerikib, kamonchani yerga tashladi va o'zi haram darbozasiga qarab jo'nadi. Qulchalar ham uni ta'qib etdilar. Sultonali mirzo bolalarni haramga kirgizib qabrlarg'a yana «fotiha» o'qudi va sekin-sekin orqasig'a qaytdi.

## XLV Fasl. «FOTIHA – MUHRI XUDODIR»

Maxdum chuvirlashib o‘qub yotqan bolalarg‘a to‘xtalish ishoratini berib, o‘zi irg‘ib o‘rnidan turdi va shoshqancha maktabxonadan chiqib, sahn o‘rtasida turg‘an ikki nafar mashhur beklar istiqbolig‘a yugurdi. Ular bilan engashib ko‘rishkandan so‘ng, borib mehmonxona eshigini ochdi.

– Marhamat, taqsirlar, marhamat!

Maxdum bu qadar shoshib qolishg‘a haqli edi. Chunki, kelguchilarning har ikkisi ham xon yonida mo‘‘tabar va hamisha unga musohib<sup>1</sup> beklardan edilar. Ular mehmonxonag‘a kirib o‘lturgandan keyin, maxdum o‘rnidan turib, qo‘l qovushtirdi va «xush keldilar!» dedi. Mehmonlar ham maxdumning hurmatiga qo‘zg‘alishib qo‘ydilar.

– Nachuk xudo yarlaqadi, taqsirlar? G‘aribxonamizni muborak qadamlaringiz bilan munavvar etkanlaringiz uchun hazoron<sup>2</sup> rahmat.

Beklar maxdumga tashakkur aytdilar. Abdurauf tunqotar<sup>3</sup> hamrohiga qarab olg‘andan keyin «tashrif» sababiga til ochdi:

– Janobi pushti panoh bizni ziyoratlariga buyurdilar, sizga ulug‘ mehribonchilik ato qildilar.

Maxdum joyidan qo‘zg‘alib o‘lturdi, ammo «janob» ning «marhamat»lariga tushunalmay shoshdi. Tunqotar ning so‘ziga Muhammad Sharif dasturxonchi<sup>4</sup> izoh berdi:

– Har kimsa ham pushti panohning marhamatlariga loyiq ko‘rila olmaydir. Pushti panoh o‘zlarini domodliqqa chog‘lab, bu bashoratni bizlar orqaliq sizga yetkarishka amr qildilar...

Maxdum boyag‘idek yana qo‘zg‘alib olsa ham, ammo tovshi chiqmay, sukutka ketib qoldi.

– Taqsirimda ojiza borlig‘ini pushti panoh eshitkan ekanlar...– dedi tunqotar.– Mirzo Anvar kabi donishmand yetishtirgan kishi oqila va jamila<sup>5</sup> qiz ham tarbiya qilmag‘anmukin degan andishaga boribdirlar... Shogirdingizga qilg‘an marhamatni janobingiz va karimangiz uchun ham darig‘ tutmaslik niyatida,

<sup>1</sup> **Musohib** (*arabcha*) – hamsuhbat, ulfat; suhbatdosh; yaqin.

<sup>2</sup> **Hazoron** (*forscha*) – minglar, ko‘p ming, behisob. Bu yerda **behisob, ming bora ma‘nolarida** kelgan.

<sup>3</sup> **Tunqotar** – tungi qorovul, soqchi.

<sup>4</sup> **Dasturxonchi** – o‘tmishda amir, xon va beklar saroyida saroy ahllariga beriladigan ovqatlarni tayyorlatish va mehmon kutish bilan shug‘ullangan lavozimli kishi.

<sup>5</sup> **Jamila** (*arabcha*) – go‘zal, suluv.

bizni xizmatingizga buyurdilar. Albatta, bu marhamatning nechogʻliq ulugʻligʻini sizga soʻzlab oʻlturish ham hojat emas.

– Qulliq, rahmat, pushti panohning davlatlari ziyoda boʻlsin, – dedi maxdum uzoq sukutdan bosh koʻtarib. – Bir emas, yuz qizimiz boʻlgʻanda ham janobning kanizliklariga nazr qylish vazifamiz edi... Ammo kamina va ojizamizda bir qancha gunohlar, nuqslar, uzrlar bor, tahsirlar.

– Beayb parvardigor, – dedi tunqotar. – Banda hamisha maʼzur va xatolikdir, taqsir.

Maxdum bosh irgʻatib bir oz sukutda oʻlturdi, soʻngra koʻzini tunqotarning tizzasiga tikdi.

– Janoblariga ojizona arz... Avvalo, kamina ojiz, notavon, aftodahol; pushti panoh jihatlaridin sodir boʻlgʻan ulugʻ marhamatka sazovor va loyiq emasdirman; soniyan – ojizamiz olampanohdek ulugʻ zotka hamxob boʻlmoq uchun kofiy tarbiya olmagʻan bir qulbachchadir. Bas, biz shu kayfiyatda onhazratning mehribonliklarigʻa arzirmu, taqsirlar?

– Pushti panohning sizningdek ahli ilmlariga qaratilgʻan daryo marhamatlari arzitar, taqsir.

Tunqotar bu marhamatning behad ulugʻligʻini sharh qilib ketdi. Maxdum bir necha fursat sukutda oʻlturgandan keyin, tunqotarning mubolagʻalariga bosh irgʻatib qoʻydi.

– Shak yoʻq, shak yoʻq, men onhazratka musallamman<sup>1</sup> va lekin... va lekin bir uzri faqirni andishaga qoʻyadir: ojizani bir vajh bilan mirzo Anvarga ishontirgʻan edik... mana shu masala kaminaga bir oz mushkil keladir...

Bu soʻzdan tunqotar dasturxonchigʻa qaradi, dasturxonchi qoʻl silkiib kuldi:

– Hech boki yoʻq, – dedi dasturxonchi, – mirzo Anvar pushti panohning oʻz kishilari, bu xabarni mirzo eshitsa, shubhasiz, soʻyunadir.

– Inshoolloh.

– Biz borib onhazratka janobingizning duongizni eshitdiramiz: husni qabulingizni, ijobatingizni uqdiramiz... Janobning xursand boʻlishlarida shubha yoʻq, taqsir, – dedi dasturxonchi va boshqa soʻzga yoʻl qoʻymay hatto keyingi masalalarga ham kelib yetdi.

<sup>1</sup> Musallam (*arabcha*) – yoʻl qoʻyiladigan, maʼqullangan; tan olingan; sogʻ-salomati; taslim boʻlgan. Bu yerda taslimman maʼnosida kelgan. Imtiyoz qilmoq – farqlamoq.

– To‘y fursatini ta‘yin qilish, albatta, onhazratning ixtiyorlariga... Qani tunqotar, fотиha qilayliq, fотиha – muhri xudodir!

Tunqotar fотihaga qo‘l ochdi, maxdum sarosima holatda ularni ta‘qib etdi. Fotihadan so‘ng «sovchilar» hech narsaga qaramay qo‘zg‘aldilar. O‘n besh daqiqaliq bu hodisadan maxdumning miyasi shishdi, hatto aytishka chog‘lab turg‘an muhim bir so‘zini ham unutdi. Ularni darbozaga kuzatib chiqar ekan, mazkur yo‘qotib qo‘yg‘an muhim so‘zini xotirlasam, deb kuchar edi. Beklar bilan xayrlashar choqdag‘ina birdan «habba» deb yubordi. Uning sovchilarg‘a aytmakchi bo‘lg‘an so‘zi haqiqatan muhim, ya‘ni bu voqi‘a xabarini Anvarga shu beklar vositasi bilan yetkazish edi. Ular bu iltimosni ma‘al mamnuniyat qabul qildilar, mirzoga yotig‘i bilan so‘zlab, maxdumning ma‘zur qolg‘anlig‘ini unga uqdirmoqchi bo‘ldilar.

Maxdum «ulug‘ mehmonlar»ni jo‘natib, mehmonxonag‘a qaytib keldi. Miyasi hanuz tuzukrak muhokamaga qobil emas, kutilmagan bu hodisa o‘zi uchun foydaliqmi, zararlikmi – imtiyoz qilolmas edi. Anvarni ayag‘anliqmi yoki undan uyalg‘anliqmi, baharhol, ko‘nglida bir xil g‘ashliq, chigallik bor edi. Muhokama har turlik: to‘yni ilgariroq qilib qo‘ysaq bo‘lar ekan, deb o‘ylasa, ikkinchi tarafdin, «xong‘a padari aruslik<sup>1</sup>» masalasi orag‘a ko‘ndalang tushib, yana fikri chuvalib ketar edi. Bir tarafdin Anvar, ikkinchi tarafdin xon... Shu yo‘sun, fikri bir yo‘lda tinolmay gangigan holda mehmonxonani yopib chiqdi.

Maxdumni maktabxona eshigida ko‘rgan bolalar chuvirlashib saboq takrorlashka tutindilar. Lekin maxdumga hozirg‘i chuvur-chuvur yoqmadi; uning uchun hozir tinchlik, kutilmagan hodisaning o‘ng-tersini o‘ylash kerak tuyuldi. Maxdum maktabga kirib o‘z o‘rnig‘a o‘lturgach, bolalarni to‘xtashg‘a buyurdi. Bolalar jim bo‘lg‘andan keyin «ozod!» deb yubordi. Bolalar domlag‘a salom berib, bir onda maktabxonani bo‘shatib ketdilar. Maxdum dars o‘rnidan qo‘zg‘almay yana o‘ylab qoldi.

Anvar to‘g‘risidag‘i ko‘ngil g‘ashlig‘i bir turlik bo‘lsa ham, boshqa tarafdin anchagina yaxshi umidlar tug‘ulib qoldilar. Xonga qayin ota bo‘lish el qoshida kichkina gap emas edi. Qalin to‘g‘risida podshoh-kuyavdan ko‘b, mablag‘ kutilsa bo‘lar edi. Agar xudo o‘g‘ul nabira ato qilsa, Xudoyorning taxt vorisi

<sup>1</sup> Padari arus (forschа) – xotining otasi, qaynata.

bo'lish ehtimoli ham bor edi... To'yning keyinga siltanishi esa taqdir ishi; Ra'ning taqdiri xong'a bitilgan, shunga binoan Anvar to'yni keyingi siltashka, bitkan ishni yetirishka<sup>1</sup> majbur edi... Yana shu holda va shuncha yangi umidlar ichida ko'ngildan haligi g'ashlikni, o'ziga noma'lum ilinjini yuvib yubora olmadi. Yana bir oz shu to'g'rida qiynalib o'lturgach, Anvarga qarshi o'zida bir achchig' sezdi: «To'yni ko'klamga qo'y, deb unga kim aytdi? Bu o'zi har ishda ham sustqadam. Endi, xon so'ratqandan keyin rad qilishg'a kimning haddi bor!» deb ko'ngildan kechirdi. Shundan so'ng ul ozg'ina tinchidi, yana bir muncha fikrlanib o'lturgandan keyin ko'z o'ngiga – qalin uchun beriladig'an bir sanoch<sup>2</sup> oltin, el qoshidag'i obro', eng oxirda Xudoyorning taxt vorisi bo'lg'an xonzoda kelib kechdilar. O'zini el so'rab turg'an yosh xon yonida ko'rib, iljaydi...

Shu yo'sun maxdum o'zini bosib oldi, ko'kdan tushkandek bu sovchiligni o'z istiqbolining xayrlik foli, fayzi ilohiy, deb quvondi, hanuz ko'nglini g'ash qilib turg'an Anvar masalasini xotirig'a keltirmaslikka, «xayoli fosid»<sup>3</sup> dan qochishqa qaror berdi. Maxdum shuni o'ziga ma'qul qilg'andan keyin boshqa kishilar andishasini, ayniqsa, uydagilar ra'yini o'ylab turmadi. O'zicha saodat bo'lib ko'ringan bu foji'a xabari bilan Nigor oyimni esankiratdi, yig'latdi. Ra'no ersa tanchada o'qub o'lturgan Xayyom ruboiyoti ustiga hushsiz boshini qo'ydi.

– O'n yillab bizga kiydirgan, yedirgan bechora Anvarga oqibatimiz shu bo'ldimi! Sho'rlik Ra'no bir yuz xotin yonig'a yuz birinchi kundash bo'lib boradimi?! – deb yig'ladi Nigor oyim.

Ra'ning hozirgi ahvolini biz yozib o'lturmaymiz. Ammo maxdum ularning har ikkisini ahmoqqa chiqarib, o'zi «oqillar» qatorig'a o'tdi.

<sup>1</sup> Yetmoq – yo'q qilmoq, barbod bo'lmoq.

<sup>2</sup> Sanoch – teridan qilingan idish; teri to'rva; mesh, meshkob.

<sup>3</sup> Fosid (*arabcha*) – buzilgan; aynigan; yo'ldan adashgan; buzuq, axloqsiz, yaramas. Xayoli fosidi – noxush; iflos yomon xayol.

## XLVI Fasl. YIGIT!

Ma'lumki, kecha Sultonali mirzo qul bolag'a Gulshanni chaqirishni ta'yinlab, o'rdadan chiqqan edi. Shu chiqishda o'rda atrofidan siljimay, kechgacha Gulshanni kutdi. Asr namozidan bir oz keyinroq o'rdadan uch-to'rtta xotinlar chiqdilar, bularning orasida Gulshan ham bor edi. Sultonali mirzo xotinlar bilan so'rashib (chunki o'rdag'a aloqaliq xotinlarning hammasi unga tanishdir) Gulshanni chetka chaqirdi, uning bilan so'zlashib ish qo'ldan ketkanligini va dushmanlarning yana bir iflos nayranglarini ongladi. Shundog'ki, Gulshanning yonig'a borg'uchi mulla Abdurahmon, go'yo o'zini Solih maxdum tarafidan yuborilg'uchi qilib ko'rsatkan. Hatto mulla Abdurahmon orqaliq Solih maxdum, qizimni xong'a maxtasin, deb Gulshanga bir necha tillo pul ham berib yuborg'an emish...

– Men qiz topishni ikki-uch oylardan beri tashlab yuborg'an edim, – dedi Gulshan, – kishining hojati chiqsin, dedim. Keyinchalik o'zimga gap tegdirmaslik uchun avval borib qizini ko'rdim; qizni yoqtirg'animgan so'ng ne andishalar ichida xong'a kelib arz qildim... Men u qizning mirzo Anvarga aytdirilg'anlig'ini, o'rtada adovat borlig'ini tush bilaymi, Sultonali aka... Endi ish o'tdi, men xonning oldig'a kirib kechagi sizg'a maxtag'an qizim falon ekan, deb ayta olmayman. Mirzo Anvar uylanadigan bo'lsa, men ko'rib qo'yg'an yaxshi qizlar bor, aybonam<sup>1</sup> uchun mirzo Anvarga men boshqa bir qiz topib beray.

Sultonalining tarbuzi qo'ltug'idan tushib, Abdurahmon va sheriklaridan g'ijing'an holda, Gulshan bilan xayrlashdi. Butun kun zir yugurib yurg'anig'a emas, ifloslarning g'aliz muvaffaqiyatiga chidamas edi. Bu chuchmal adovat bilan ingichka tabiatlik Anvarning ne kayfiyatka tushishini tasavvur qilolmas; it fe'l, qadr bilmas xong'a achchig' qilib mirzoliqni tashlab ketmasa, deb qo'rqar edi.

Gulshan aytkancha, ish o'tkan, gap mazmunicha, albatta, xon Solih maxdumga kuyav bo'lmay qo'ymas, hozir buning qarshisig'a birar tadbir topish juda qiyin va bu xabarni Anvarga aytish-aytmaslik masalasi ham yana og'ir. Sultonali mirzo bu gapdan Anvarni xabardor qilish va qilmasliq to'g'risida ko'b o'yladi. Qancha mulohazalardan keyin uni xabardor qilishni

<sup>1</sup> *Aybona* – jamoat tartibini buzganlik, axloqsizlik, yetkazilgan zarar kabilar uchun undiriladigan (to'lanadigan) jarima; tovon. Bu yerda o'z aybim uchun degan ma'no bor.

ma'qul ko'rdi. Chunki yuzda to'qson to'qquzg'a qarshi bir eqtimolgina bu foji'aning bo'lmay qolishlig'i tarafida edi. Anvarni xabardor qilsa, ehtimolki, uning o'zi birar chora topar yoki masala Sultonali o'ylag'ancha uning uchun ahamiyatlik bo'lib chiqmas, basharti ahamiyatlik bo'lg'anda ham foji'ani kutib, o'zini bosib qarshi olish nogahoniysiga qarag'anda xiyli yengil ko'char edi.

Sultonali ertalab uyqudan turib, namozni o'qudi, bolalari yonida choy ichmay, Solih maxdunning havlisiga qarab ketdi.

Mehmonxonada o'rdag'a ketmakchi bo'lib turg'an Anvar Sultonali ni ranjib qarshi oldi:

– Shunday ham ish bo'ladimi, kecha nega men kelguncha ketib qoldingiz?

– Birav chaqirib keldi-da... Men o'z o'rnimga Safar akamni tashlab ketdim-ku.

Anvar o'pkalik iljayib, undan choy ichkan-ichmaganligini so'radi. Sultonali go'yo o'zini shu yaqindag'i qarindoshlardan birinikida qolg'an va shunda nonushta qilib, yo'l ustidan Anvarning oldig'a kirgan kabi ko'rsatdi. Ikkisi birgalashib yo'lg'a tushdilar. Ko'chada yigirma qadam, chamasi, borg'andan so'ng, Anvar kulimsib Sultonaling ko'ziga qaradi:

– Kecha bizning havliga kimni so'rab keldingiz?

Sultonali manglayini qashidi:

– Men chaqirib kelganda siz uydamingiz?

– Men uyda edim, – deb kuldi Anvar va bir oz jim bordi. – Men uyda bo'lmasam ham, uydagilar sizni tanig'anlar. Uydan shu xabarni eshitib, kechadan beri taajjubka tushdim... Xo'sh, siz so'rag'an xotin kim? O'zi nima gap?

– Arzimagan gap...

– Qani?

Sultonali masalaning qulay ko'chishidan yengil tortib, bir oz so'zsiz bordi.

– Kulgi gap... Sizga bir oz tegishligi bo'lsa ham arzimaydir...

– Arzimasa ham?

– Gapuring... Sizning kelib yurg'aningizni eshitkanimdan beri ancha tashvish chekdim.

– Sizga bir so'zni aytib ham bo'lmaydi, – deb kuldi

Sultonali, – ignani tuyadek, xasni xaridek<sup>1</sup> ko‘rasiz.

– Menmi? Xayr, dunyoni sel yuvsam ham to‘pug‘img‘a chiqmasin, so‘zlangiz.

Sultonali hikoyani Safar bo‘zchidan boshladi. Lekin jiddiy emas, yarim jiddiy qilib mulla Abdurahmon va mufti bechoralarning aqlig‘a go‘yo shundan boshqa pastlik va masxararoq fikr kelmagan, shu qadar ahamiyatsiz, tubanliq bilan go‘yo o‘ch olmoqchi bo‘lg‘anlar ruhida so‘zlab bordi. Anvarning bir necha kundan beri o‘zi tushunmay chekkan tashvishi, ko‘ngil g‘ashlig‘i haqiqatka aylanib borsa ham, Safar bo‘zchining bolani aldab yo‘lg‘a solishidan, sir olishidan va Abdurahmonlarni kamsitib, masxaralab qiling‘an tashbihlardan ko‘b o‘runda kulib, Sultonali mirzoga yengillik berdi. So‘z Gulshan bilan uchrashish va undan oling‘an javobka yetkanda, Anvarning tusi o‘zgarib, kiprak ostlari uchib ketdi. Ammo kutilmagan ravishda yana sovuq-qonliq saqladi.

– Zarari yo‘q, – dedi Anvar bir xil vaziyatda qo‘l siltab. – Men ulardan bu xilda ifloslik vujudga kelishini tasavvur qilmag‘an bo‘lsam ham, lekin har holda adovat kutkan edim... Zarari yo‘q, Sultonali aka.

Sultonali Anvarning tovush ohangidagi o‘zgarishka e‘tibor etmagan bo‘lsa kerak, hanuz boyag‘i yarim jiddiy ruhidan siljimadi.

– Sallalik eshklarning diringlashi og‘ilxonag‘acha... Ular mirzo Anvar uylanmakchi bo‘lg‘an qizni xong‘a to‘g‘rilab, shuning bilan go‘yo o‘ch olmoqchilar. Mirzo Anvar xotinsiz qolsin, demakchi-da, bu ahmoqlar. Holbuki, butun mamlakat qizlari mirzo Anvar uchun soch taraydi. Agar siz xohlasangiz qozikalon yoki domla shog‘ovul va shular singari kalonpolarga kuyav bo‘lolsangizmi? Kesak otib arslonni yengmakchi bo‘lg‘an galvarslarning ishiga kulgim qistaydir...

– Zarari yo‘q...

– Rahmat, Anvar. Men sizning ba‘zi to‘g‘rilarda yuragingiz kengligidan achchig‘lanar edim... Darhaqiqat, o‘ylab qarasam, yurak kengligi o‘zi bir fazilat emish... Bundan boshqa ma‘no onglamangiz, Anvar. Mufti kabilarning past, bachkana adovating kishi qitig‘ig‘a tegishi bo‘lmasa, siz va do‘stlaringizcha

<sup>1</sup> Xari – imorat to‘sinlari ostidan ko‘ndalangiga qo‘yiladigan uzun, yo‘g‘on asosiy yog‘och.



ham qiz oti topilmaydirg'an mato' emas.

– Albatta.

Anvar o'zini favqulodda tekis ushlab borar, hozir unda boyag'i o'zgarishlarning' hech birisi ham ko'rinmas edi.

Sultonali mirzo bu bemaza gapni Anvarning ko'nglidan chiqarishqa tirishib haligidek yupatishlarni og'zidan qo'ymas, eshitkuchi esa qisqag'ina jumla bilan uning fikriga qo'shular yoki iljayib, tasdiq ishorasini berar edi. Ikkisi birga devong'a kirdilar. Ishka ilgariroq kelgan mirzolar yozuv bilan mashg'ul edilar. Anvar mirzolar bilan salomlashib so'rashdi, hatto hech gap bo'lmag'an kabi Shahodat muftilardan ham ahvol va sog'liq so'radi. Muftilarni ko'rishi hamono nafrati junbushka kirgan Sultonalining bu holdan taajjubi ortib Anvarga qaradi va ko'ngli-dan «yigit» degan so'zni kechirdi. Sultonali aytkancha, shubhasiz, bu yigitning ko'ngli yolg'iz muhabbatkagina emas, muhabbatdan g'ayri fazilatlariga ham qobil edi.

Sultonali mirzo ham narigi xonadan Anvarning huzuriga o'tkan, Shahodat muftilar qatorida o'lturib ishlar edi. Anvar bu kungi noma va arizalarni yig'ishtirib udaychiga topshirdi, devonning o'ziga tegishlik bo'lg'anlarini mirzolar orasida taqsim qildi. Har kim o'z vazifasiga berilib, orag'a jimjitlik kirdi. Faqat bu tinchlikni savog'ich qalamlarning qog'oz ustida qirillashi va goho buklangan qog'ozlarning shildirashi buzar edi. Shu hol bir soat, chamasi, davom etkandan so'ng, onda-sonda so'z ham qo'zg'aldi. Anvar huzuridagilardan Shahodat mufti qog'oz-qalamni yoniga qo'yib, sandalda isindi.

– Mulla Navro'z ko'b past odam-da, – dedi mufti – uning ishi kechadan beri menga ajab ta'sir qiladi-da...

– Past, past, – dedi Kalonshoh.

Sultonali Anvarga qarab qo'ydi. Anvarning esa ko'zi yozuvda edi.

– Shuncha kishining iltijosini yerda qoldirishi o'zi yaramasliq... Qazosi yetib o'lgan ekan, kelinning molig'a nima daxling bor? Bu odamiyat<sup>1</sup> emas-da.

– Past kishida odamiyat nima qilsin.

Sultonali kulimsirab bir-ikki qayta muftilarga qarab oldi.

<sup>1</sup> Odamiyat (arabcha) – inson tabiati; inson qadr-qimmat; insoniyat, insoniylik. Bu yerda insonivlik ma'nosida kelgan.

– Uyingga ikki tarafdan shuncha odam yig'ildi, so'zga kirmay, ularni ovora qilding, loaqal, bir lagan osh bilan ularni jo'natsang o'lib qolarmiding... E, hayf sendek mumsukka!<sup>1</sup>

– Men ham mulla Navro'zni bunchalik bilmas edim, – dedi Kalonshoh, – odamiyatni yeb qo'yg'an kishi ekan.

Sultonaling rangi o'chib, qovoq ostlari pirr-pirr ucha boshlag'an edi.

– Qiziq bahsni qilasiz, taqsirlar, – dedi birdan Sultonali, – shu zamonda odamiyat qoldimi? Agar ozg'ina andisha qilib ko'rsak, siz ham, biz ham odamiyatni pok-pokiza yeb qo'yg'an chiqamiz. Bu zamonda o'zgani qo'ya turib hatto o'zlaringizdan ham odamiyat kutmasangiz bo'ladi, taqsirlar!

Yuragi tor – asabiy Sultonaling bu so'zi «shirin suhbat» ustidagi muftilarni hayron qilib qo'ydi. Anvar Sultonliga qarab uning ko'zini uchratilmadi. Chunki ul haligi so'zlarni aytib, qo'lidag'i tahrirga berilgan edi.

– Siz ajab odamsiz-da, Sultonali, – dedi mufti.

– Biz nima teyapmiz-ku, siz nimadan o'tlaysiz.

– Sizlar odamiyatdan bahs qilayotibsizlarmi, axir? Men ham bu vaqtda odamiyat yo'qlig'idan zorlandim-da...

– Sizning so'zingiz ajab, Sultonali. Siz bizning odamiyatimiz yo'qlig'ini birar joyda ko'rganmisiz yoki dimog'ingizg'a futur<sup>2</sup>etib qolg'anmi?

Anvar Sultonaling ko'zini uchratishka urundi, ammo Sultonali muftilarga yuz o'gurib o'lturdi.

– Sizlarning odamiyatingiz yo'qlig'ini hech bir joyda ko'rganim va eshitkanim yo'q albatta, – deb zaharxanda qildi Sultonali. – Ammo hozir o'z nafsimdan bir hisob olib ko'rsam, hatto shu haftaning ichidayoq necha jinoyatka irtikob qilg'anman. Shuning uchun ham boyag'i so'zni aytdim-da. Yo'qsa menim kim bilan qanchaliq ishim bo'lsin, taqsirlar...

Muftilarning rangi bo'zarib, ittifoqlashqandek Anvarga qarab qo'ydilar va Sultonalidan zorlang'andek bosh chayqadilar.

– Sultonali aka, – dedi Anvar zorlang'an ohangda, – taqsirlarim aytkancha, dimog'ingizg'a bir oz futur yetkanga o'xshaydir: shunday gaplar nima hojat, nima aloqasi bor? Tinchkina ishingizga qarasangiz-chi, xudo xayr bersin.

<sup>1</sup> Mumsik (arabcha) – o'taketgan xasis, baxil, ziqna.

<sup>2</sup> Futur (arabcha: bo'shshish, ojizlanish; holsizlik) – zarar, ziyon, shikast.

So'ngra Anvar muftilar tomong'a kulimsib, Sultonaning gapiga ahamiyat bermaslikka ishorat qildi. Shahodat mufti bir narsalarni aytib ishiga qaradi. Sultonali ham kulib, go'yo Anvarga itoat qilg'andek, so'zsizgina, qalamini qo'lig'a ushladi. Har kim o'z ishiga qarab, orada yana boyag'icha tinchlik boshlandi.

Kechka tomon mirzolar tarqalishib, orada Sultonali va muftilar ham birin-sirin chiqib ketdilar. Eng so'ngg'a qolib qo'zg'alg'an Anvar devonxona dahlizida tunqotarg'a uchrashdi. Tunqotar Anvar bilan hazillashkandek, uning qo'lidan ushlab, ichkariga – devong'a boshladi. Ichkariga kirdilar.

– Xizmat, taqsir?

– Xizmat shuki, – deb kuldi tunqotar, – sizning ustingizdan bir o'ktamlik qilindi?

– Yaxshi... Eshitsam bo'ladimi?

– Janob bu kun bizni ustozingiz Solih maxdumnikiga qulchilikka yuborg'an edilar. Borib eshitsamiz, fotiha sizga bo'lg'an ekan... Biz qiblagoh uchun kecharsiz, deb o'yladiq...

Anvar bu zaharlik so'z bilan ilon kabi to'lg'anib olsa ham, butun kuchini sarf qilib, sir bermaslikka tirishdi.

– Atigi shu gapmi?

– Shu gap, mirzo Anvar.

– Arzimagan gap... Buni mendan so'ramasangiz ham bo'lar edi.

– Rahmat, mirzo, men sizning bu sadoqatingizni janobga so'zlayman.

– Yo'q, yo'q, – dedi Anvar bosh chayqab, – zinhor gapirmang, zinhor.

– Nega axir, nega? Janob ham o'zlarining sodiq qullarini tanib qo'ysinlar-da.

Anvar majhul ohangda kuldi:

– «Aytmang, men xohlamayman» – dedi yana. Ikkisi birgalashib devondan chiqdilar.

Havo tekis qoramtil bulut bilan o'ralg'an, Qo'qonning mashhur shamoli qanot yoyg'an edi. Qoramtil bulutlardan quyiroqda olaqarg'alar qanot qimirlatmay sayohat qilar va onda-sonda yomg'ur qatralari tomchilar edi. Shu vaqtda ko'pruk yonig'a kelib to'xtag'an Anvar qayoqqa borib yotsam, deb taraddudlandi...

## XLVII Fasl. OCHIQ XAT

Shom namozini o‘qub qaytqan maxdum mehmonxonaning eshigini ochiq ko‘rdi. Uning kelganligini fahmlab, to‘g‘ri ichkari-ga o‘tdi. Bir ozdan keyin tovoqda osh ko‘tarib Nigor oyim chiqdi. Yig‘idan kibraklari terilib, chuqur andisha ichida boshini quyi solg‘an edi. Nigor oyim kirganda Anvar charog‘poyag‘a<sup>1</sup> sham‘ yoqar edi. Nigor oyim dasturxon yozib, tovoqni Anvarning oldig‘a qo‘yar ekan, birdan piq-piq yig‘lab yubordi. Anvar hayron bo‘lib qolmadi, yig‘i sababiga tushundi.

– Nega yig‘laysiz? Taqdirni o‘zgartib bo‘ladimi? Xafa bo‘lish yaxshi emas, siz shunday bo‘lsin deganmidingiz...

Nigor oyim javob qaytarmadi, yig‘lag‘an ko‘yi mehmonxonadan chiqishg‘a oshiqdi. Anvar oshdan bir-ikki luqma olib, qo‘lini artdi, sandal ko‘rparasini bag‘rig‘a tortib, kuchli va uzun tin oldi.

Charog‘poyadagi sham‘ bedillar<sup>2</sup> yuragidek titrab, mehmonxonani arang-arang yoritar, sham‘ning titrog‘i bilan ko‘zini bir nuqtag‘a tikkan Anvarning hozirgi xayolchan yuzi ham qaltirag‘andek ko‘rinar edi. Mehmonxona tip-tinch, faqat bu tinchlikni tashqarida yoqqan yomg‘urning kuchsiz shitirlashi, o‘qtin-o‘qtin qo‘zg‘alib qo‘yg‘an shamolning darichaga kelib urinishi va allaqaysi tom boshidag‘i bir mushukning mavlagan tovshi buzar edi. Daricha tirqishidan kelib kirgan keyingi shamol charog‘poyadagi titroq sham‘ni o‘chura-yozib, mehmonxona qorong‘ilandi va shu choqda ichkaridan chiqib kelgan oyoq tovshi bilan Anvar xayoldan ko‘z ochib, tancha ustidagi tovoqqa qo‘l uzatdi va tovoqni ushlagancha bir oz quloq solib turdi. Oyoq tovshining mehmonxonadan uzoqlashqanini, maxdumning xuftan uchun masjidga o‘tkanini fahmladi va tovoqni o‘lturgan joyidan orqasidagi toqchag‘a olib qo‘ydi. Oradan bir piyola choy ichish fursati kechkandan keyin yana oyoq tovshi eshitildi. Bunisi adim sayin mehmonxonag‘a yaqinlashib kelar edi. Mehmonxona dahlizida qo‘lida choydosh ko‘targan Ra‘no ko‘rindi... Ikki ko‘zi qip-qizarib, qovoqlari oludek ko‘pchigan, yuzida ham zo‘riqish alomati bor edi. Yerga qarag‘an holda oq choydoshni Anvarning yaqiniga keltirib qo‘ydi, toqchadag‘i piyolani olib choydoshdagi choy bilan chayqadi, piyolani sochiqlag‘ach, yana

<sup>1</sup> **Chiroqpoya** (*forscha*) – chiroq tagligi. Chiroq qo‘yadigan taglik, chiroq o‘rnatiladigan uch oyoq.

<sup>2</sup> **Sham‘ bedillar** – tilsiz shamlar.

chayib ikkisini Anvarning yonig'a surdi va birdan o'krab yuzini tancha ustiga qo'ydi...

– Ra'no, Ra'no, – dedi shoshib Anvar.– Bolamisan, hali hech gap bo'lg'ani yo'q-ku.

Ra'no boshini ko'tarmay, piq-piq yig'lar edi. Anvar uni yupatib, yaling'an holda yig'idan to'xtatishqa urinar edi.

– Bekorga yig'laysan, Ra'no. Yig'idan bir foyda chiqqanini eshitkanmisan yoki meni ham yig'latmoqchimisan?.. Agar o'y-lab ko'rsang, yig'lash sening haqqing emas, menim haqqim, holbuki men yig'lamayman. Nega? Negaki, yig'i eng so'ngg'i ish... Men yig'lag'an kishini yoqtirmayman...

– Tur, jonim, tur.

Anvar Ra'nonint sochini siladi, ikki qo'li bilan boshini ko'tarib, yuzidan o'pti.

– Mendan ko'ngli qolsin desanig, yig'la. Yuzingni yosh bilan yuvibsan, Ra'no, o'nglan, men yuzingni artib qo'yay. O'zingga kel, aqlingni yig', og'ir qiz bo'lib, so'zimga quloq sol.

Ra'no yuzini chetka o'gurib, boshidag'i ro'ymoli bilan yuzini artdi, uzun entikdi.

– Yig'lab bir natijaga yetib bo'ladimi hech? Ko'zing yana yoshlandi, sen yig'lay ber, men so'zlamayman, Ra'no.

Ra'no yana chetka qarab ko'zini quritdi. Anvar piyolaga choy quyib, Ra'noga uzatti:

– Ma, Ra'no, ich.

Ra'no ichmayman degandek, bosh chayqadi. Anvar qistab choyni oldirdi.

– Hammasini ichmasang ham, bir-ikki ho'pla.

Ra'no Anvar aytqancha, ikki-uch ho'plab, piyolani oldig'a qo'ydi. Anvar o'rnidan turib dahlizga chiqdi, qo'lida obdasta<sup>1</sup>, dastsho<sup>2</sup> ko'tarib Ra'noning yonig'a keldi.

– Yuv yuzingni, Ra'no.

Anvar suv quyib turdi, Ra'no yuzini yuvdi. Anvar qoziqdan sochiq keltirib berdi. Ra'no artindi.

– Ana tamom... Endi odamshavanda so'zlashaylik, yig'i nima hojat.

<sup>1</sup> **Obdasta** (*forscha*: qo'l yuviladigan suv.) – ro'zg'or buyumi; yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo'mrakli, qorni keng, bo'g'zi tor idish. Bu yerda **idish ma'nosida kelgan**.

<sup>2</sup> **Dastsho**(y) (*forscha*) qo'l yuvadigan idish) – qo'l-bet yuvganda, yuvindi suv oqib tushadigan metall idish.

Ra'no qayg'ilarini ozaytirg'andek entikdi, o'ziga yarim jiddiy tikilib turg'an yigitka javoban iljaydi.

– Yana bir kul, Ra'no.

Ra'no birdan tundliqqa og'ishdi.

– Kulgi soati emas...

– Kulgi soati bo'lmasa yig'i fursati ham emas, – dedi Anvar o'lturib. – Sening murassa'<sup>1</sup> xaltachaga o'xshash kichkinagina yuraging bor, ichini qiymatli toshlar bilan to'ldirg'ansan. Bu kun qazo munshiyisi<sup>2</sup> shu murassa' xaltachadagi qiymatli toshlar orasig'a qo'pol bir narsa keltirib tiqdi... Tabiiy, sening kichkina yuraging bu qo'polliqni ko'tara olmadi, qiymatli toshlar siqildilar, sen yig'lading, sening kabi men ham shu qo'polliqni qabul qilishda qattig' entikdim, biroq yig'lamadim. Nega? Nega-ki, bu qo'polliq menim yuragimdagi javohirni siqib chiqara olmas, faqat unga tanglikkina berar edi, senga ham shunday emasmi, Ra'no? Xo'sh, endi bizning foji'amiz sababiga kelaylik. Bu hodisa to'g'ridan to'g'ri xonning o'zidan kelgan gap emas. Xon – hazmi har bir iflosliqni ham ko'taradigan katta bir hayvon. Uning tevaragida mayda hasharotlar ko'b, bular ham o'zlariga yarasha hayvonliq istaydilar. Biroq qo'l qisqa, shuning bilan birga yotib qolishqa ko'ngil tinchimaydir. Shundan keyin xon – katta hayvonni qitiqlab ishka soladirlar... Balki, yodingdadir, mulla Abdurahmon ismlik biri sening xaridoring edi, shoir aytkancha:

*Mendin o'tib gulga bo'yi yetmadi,*

*Umid uzib o'z yo'lig'a ketmadi.*

Xabaring bor, men otangning tazyiqi ostida uni o'rda xizmatiga oldim, ul o'rdadagi bir necha ifloslar bilan birgalashib, menim qarshimg'a ishladi... Men... uni o'rdadan jo'natdim, natijada hozirg'i ifloslikka yeng shimardilar. Biroq, ular bizni bir-birimizdan ajrata oladirlarmi? Yo'q. Majoziy ajralish – ajralish emasdir, chunki biz bir-birimizga majoziy bog'lanmag'anmiz, haqiqiy bog'lanishni esa qat' etish<sup>3</sup> ifloslar uhdasidan kelmas. Bas, shu holda biz ikav nega xafa bo'layliq, Ra'no?

<sup>1</sup> Murassa' (arabcha) – qimmatbaho toshlar solinadigan kichik xaltacha.

<sup>2</sup> Qazo munshiyisi – taqdir kotibi, taqdiri azal; Ollohning irodasi.

<sup>3</sup> Qat' (arabcha) – kesish, qirqish; uzish, uzilish. Qat' etmoq – uzmoq, kesmoq.

Ishq davosi avom o'ylag'ancha vasl emas – hajrdir. Zero, vasl  
ishq o'tini so'ndirg'uchi, hajr esa kamolatka erishdirguchidir...  
Sen shu ikkidan qaysi birisini tanlaysan, Ra'no?

Ra'no ko'zini tizasiga tikib, qo'li bilan sholcha ipini chir-  
mab o'lturar edi. Haligi savol Anvar tarafidan yana takrorlandi.

– Men keyingisini... Biroq, xonning iflos to'shagida  
yotmayman.

Anvar bir necha vaqt sukutda o'lturdi. Ra'noning javobi  
unga og'ir ta'sir qilg'an edi...

– Buni men ham xohlamas edim... Biroq, ifloslar menim  
chora yo'llarimning xammasini kesdilar, Ra'no. Yana o'ylash-  
moq uchun fursat bor, ayniqsa, sen birar tadbirni muvofiq ko'r-  
sang, men bosh egaman... Seni yig'latib hayvon changaliga  
bermasman... Shunday, sen yig'lama, aqlli qizlarcha harakat qil,  
men...

Anvar so'zini tugata olmadi, mehmonxona eshigida  
maxdum ko'rindi:

– Ichkariga kir, Ra'nō, bevaqt bu yerda nima qilib  
o'lturibsan?

Anvarning vujudi g'izz etib ketdi: qarshisida boyag'icha  
o'lturgan Ra'noga «tur, jo'na» degan kabi ishorat qildi, lekin  
Ra'no qimirlamadi. Maxdum boshqa so'z aytmay, dahlizdan  
orqasig'a qaytdi.

Anvar juda ham og'ir tortqan edi. Haqiqatan ham maxdum-  
ning bu harakati aqlsizcha, ahmoqlarcha edi. Anvarga og'ir  
kelishini o'ylamay bu «buyruq» bilan Ra'noning kundalik odati-  
ni man' qilar, har kechasi o'z vaqtida o'lturgan Ra'no go'yo bu  
kun «bevaqt» o'lturar edi. Bundan boshqa, uning Anvarga uch-  
rashmay namoyishkor chiqib ketishi, qandaydir yana bir ma'noni  
onglatqandek ham bo'lar edi.

Ra'noning yuzidagi qayg'i belgilari yo'qolib, uning o'rmini  
g'azab, nafrat alomatlarini oldi.

– Andishasiz!

– Zarari yo'q, achchig'lanma, – dedi Anvar. – Endi boshqa  
so'zimiz ham yo'qqa o'xshaydir...

Ra'no yana bir oz qo'zg'almay o'lturib qoldi, so'ngra  
ko'ziga jiq yosh olib, mehmonxonadan chiqdi.

Erta bilan Nigor oyim choy olib chiqqanda, mehmonxonada  
Anvar yo'q, sandal ustida ochiq bir xat yotar edi:

«Mehribon xola

Yoshliqdan sizning tarbiyangizda o'sdim, sizga va taqsimimg'a ko'b zahmatlar berdim. Bu zamat badaliga tegishlik qaytarolmag'an, xizmat qilolmag'an holda ma'lum sabablar tazyiq ostida sizning shafatli tarbiyangizdan ketishka majbur bo'ldim.

So'ngra uydagi menga aloqador barcha narsalar, shu jumladan, o'zingizdagi amonat oltinlar ham oilangizga mendan hadyadir. Men oltinlarni qizingizning to'yig'a atab yig'gan edim, munda so'ng ham shu oqchani Ra'noning to'yig'a sarf qilsangiz, deb so'rayman. Meni yo'qlab kelguchilarga o'rda daragini aytilsa edi. Shafat va marhamatingiz bilan gunohimni kechirarsiz umidida:

Anvar».

### XLVIII Fasl. TO'Y ARAFASIDA

Xonning sovchilari ikkinchi martaba kelib to'y vaqtini ta'yinladilar: kelasi juma maxdumning uyida to'y ijro qilinib, marosimdan so'ng Ra'no o'rdag'a yuboriladig'an bo'ldi. To'y vaqti belgilangandan bir kun keyin to'y jamarg'asi ham keldi. Xonning hadyasi uch yuz tillo pul, shu qadar qiymatka arziydirgan shohona sarpolar. maxdumga alohida iltifot qiling'an «raisulmakotiblik»<sup>1</sup> unvonlaridan iborat edi.

Shunchalik iltifotlar ichida gangib qolg'an maxdum uch kundan beri daraksiz ketkan Anvar to'g'risida o'ylay olmadi, faqat bundan «hamoqat», «andishasizlik» degan natija chiqarib tinchidi. Nigor oyim ersa o'zini birmuncha bosib oldi, goho Anvarga yuragi achib qo'ysa ham, uni oshig'ich kelgan to'y hozirligi masalasi ixtiyorsiz ravishda bu to'g'rini o'ylay olmasliqqa majbur etdi.

Ra'no!.. Ma'lumki, bu kunlarda Ra'noga tikilgan falokat behad ulug'dir: falokatlik, halokatlik kunlar yaqinlashadir. Buning ustiga uch kundan beri Anvar daraksiz. Anvar «visol – muhabbatni o'ldirguchi, hajr esa – kamolatka erishdirguchidir», deb Ra'noni hamishalikka tashlab ketdi-mi yoki maxdumning bemaza muomalasidan ko'ngli olinib, araz qildimi? Holbuki hozirg'i kunlar araz, achchig' va falonlarni ko'taradigan vaqtlar

<sup>1</sup> Raisulmakotib (arabcha) – barcha maktablar raisi.



emas, hech bo'lmag'anda bechora qizg'a gap bilan, so'z bilan ma'naviy yordam berib turish soatlaridir. Bechora Ra'no hamisha yaxshiliq, aqllilik ko'rib kelgan bir kishidan ham oxirda dag'alliq ko'rar, vafosizlik bo'yini olar edi. Shu dudama<sup>1</sup> falokat bir necha kun ichida Ra'no gulini so'litayozdi, hatto jodu ko'zlar yosh to'kishdan ham to'xtaldilar.

Ra'no sandalda o'lturib juma kuni – mudhish jum'a kuni to'g'risida o'ylar edi. Bu kun seshanba, jum'agacha yana ikki kun bor. Faqat ikki kungina... Ra'no bundan ortiqni ko'z o'ngiga keltira olmas, go'yo o'zini jar yoqasida ko'rgan kishidek panjshanba kechdan beixtiyor, go'yo savqi tabiiy<sup>2</sup> ostida orqasig'a tisarilar edi. Shundan keyin Anvar to'g'risida xayol surib, unga – Anvarga qarshi o'zida kuchlik bir kek sezar, shunday og'ir soatlarda tashlab ketkan «yigit» yana bir ko'rinsa, qanday kinoyalar bilan istiqbol qilishini<sup>3</sup> – kutib olishini o'ylar edi: «Hamma da'volaringiz puch! Siz, mirzoboshiliqdan mahrum bo'laman, deb qo'rqdingiz, bizning uyda o'n yil tursangiz ham, otamning fe'lini bilmaganmidiniz? Holonki, men sizni xondan ham yuqori o'rung'a qo'yg'an edim. Endi fursat qo'ldan ketkach, nima uchun keldingiz?..» Lekin ul keyingi itobi ma'nosidan o'ziga hisob bermas, agar bunga qarshi Anvar: «Qanday ish va fursat o'tkandan keyin keldim?», – deb so'rasa, ehtimolki, Ra'no sukut qilar, chunki hozirgacha uning fikriga vaqti o'tadigan birar chora kelmaganidek va bu to'g'rida o'ylab ham ko'rmagan, faqat bu foji'a qarshisida takyagoh, deb Anvarni istagan, Anvar esa ko'zdan yo'qolib, Ra'noning majruh yuragida yana yangi bir jarohat ochgan edi.

Nigor oyim oshig'ich hozirliklar orqasidan chopib yurar, beshikda yotib zerikkan Mas'ud qichqirib yig'lar edi. Boyag'i xayollar ichida o'lturgan Ra'no uzoq entikdi va asabiy harakat bilan o'rnidan turib beshik yonig'a keldi. Tebratkan bilan bola tiyila bermagach, uni yig'lag'an ko'yi tashlab, havliga tushti va narigi ayvonda yumish qilib o'lturg'uchi onasig'a «emizing!» deb asabiy hayqirdi, o'zi yo'lak tomong'a qarab o'tdi.

Boqchada Mahmud va Mansurlar qo'shni bolalari bilan o'q

<sup>1</sup> **Dudama (forscha)** – ikki tig'li, har ikki tomoni o'tkir, ikki tomonida ham dami, tig'i bor. **Bu yerda ikki tomonlama falokat ma'nosi bor.**

<sup>2</sup> **Savq (arabcha)** – bozor; mashinani boshqarish; undash, qo'zg'atish; mayl, xohish. **Savqi tabiiy** – ichki his-tuyg'u, sezgi; mayl.

otib o'ynar edilar. Atrof olashovur qor bilan yopilg'an, so'ri ostidag'i sufaning chetlari yog'in bilan nurab, ustidan bir necha joyi uzun-uzun yorilg'an edi.

Sufa yonida to'xtag'an Ra'no bolalar ichidagi Mahmudni chaqirib, so'radi:

- Mahmud, dadang qayerda?
- Dadam... bozorda.
- Tashqarida kim bor?
- Ichkim.

Ra'no boshqa so'z aytmay, o'rta eshikka keldi. Mahmud aytkancha, tashqarida hech kim yo'q, to'y munosabati bilan maktab shogirdlari bir necha kunga ozod qo'yilg'an edilar. Nima maqsad bilandir, tashqarig'a chiqqan Ra'no mehmonxona eshigini qulflang'an ko'rib, mashqxonag'a qarab keldi. Eshik zanjirini tushurib ichkari kirdi. Sahnidagi bo'ryo<sup>1</sup> va bordonlari chuvalib, titilib yotqan mashqxonaning har bir toqchasig'a ko'z tashlab, birar narsa izlagandek yurindi. To'rdagi toqchadan ustiga ko'k sir berilgan bir davotni<sup>2</sup> olib qaradi. Davotning ichidagi loslarini qora-sariq tusda qurib qolg'an ko'rgach, oyoq ostig'a tashlab mashqxonadan chiqdi.

– Mahmud!

Kamonchasiga o'q qadab yotqan Mahmud o'rta eshikka turg'an opasig'a qaradi.

– Hmm?

– Beri kel.

Mahmud tilar-tilamas opasi – Ra'noning yonig'a keldi.

– Hmm?

Ra'no Mahmudga o'z orqasidan kelishka ishorat qilib, yana mashqxonag'a qarab ketdi. Mahmud qo'lidag'i kamonchasini turli tarafka o'qtala-o'qtala Ra'no bilan mashqxonag'a kirdi. Ular ikkisi bir necha vaqt mashqxonada qaysi to'g'ridadir so'zlashib qoldilar.

Uyda xat yozib o'lturgan Ra'no onasining kim bilandir havli yuzida ko'rishib, so'zlashqanini eshitdi va bir ozdan so'ng yumaloqqina, to'la-to'kis bir bo'g'oz xotinni ayvon muyushida ko'rib, yozuvini to'xtatishqa majbur bo'ldi. Chunki xotin Ra'noni ko'rib qolg'an, shuning uchun bo'g'oz xotin bilan chiqib

<sup>1</sup> Bo'ryo – bo'yra. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'ryo (bo'yra).

<sup>2</sup> Davot (arabcha) – siyohdon.

ko'rishish Ra'noga lozim bo'lg'an edi. Ra'no chiqib ko'rishdi. Nigor oyim tanimag'an mehmonni sandalga taklif qildi.

– Bu yoqqa, aylanay, bu yoqqa.

Xotin qistatmay sandalga chiqib o'lturdi, ko'zi Ra'noda ekan, fotiha o'qub ro'ymol-lachagini tuzatdi:

– Tanimag'an xotin nima qilib yuruydi, deb o'ylarsizlar, aylanay, – dedi xotin va cho'ntagidan bir qog'oz chiqardi, – Mirzo bir-ikki kundan beri biznikidalar... Tanisalaringaz kerak, o'rgulay, men mirzo Sultonaning ko'chlari<sup>1</sup> bo'laman... Kitob-siz zerikdim, uyda bir kitobim bor edi, deb boya – erta bilan shu qog'ozni beribtilar, aylanay...

Xotindan bu so'zni eshitib Nigor oyim achinish va uyalish vaziyatiga kirdi. Tanchadan nariroqda tik turg'an Ra'no Nigor oyimdan qizg'ang'andek, kelib xotinning qo'lidag'i buklangan qog'ozni oldi.

– Mirzodan uyatlig'miz... Ayniqsa uch kundan beri qayoqlarda qoldi, deb ich-etimni yedim, – dedi Nigor oyim, taqdirga hech narsa deb bo'lmas ekan... Biz mirzo bilan ulanisharmiz deb o'ylag'an edik.

– Taqdiri azal, aylanay, – dedi xotin.– Mirzo ham yurtda ikkita aqil bo'lsa bittasi. Sizlardan hanuz minnatdor ekanlar; shunday, shunday ish bo'g'andan keyin kelishka andisha qilib qog'anlar-da, aylanay.

Ular shu so'zda ekan, Ra'no uyga kirdi:

*«Xolamg'a, so'ngra Ra'noga beadam salom va duo. Mendan ranjimangiz, na uchunkim, shundan boshqa choram yo'qdir. Xat olib borg'uchidan Shayxi Sa'diy kulliyotini<sup>2</sup> berib yuborsangiz, bo'sh soatlarimdan foydalanar edim. Ra'noga ma'lum bo'lsinkim, bundan so'ng senga menim mashlarim (she'r daftarim) kerak bo'lmas va o'zing bilan olib yurishing ham ehtiyotdan emas. Agar xafa bo'lmasang, shuni ham berib yubor. Sog'li ahvolotingizdan yozingiz.*

*Addoi<sup>3</sup> Anvar».*

<sup>1</sup> **Ko'ch** – 1) ko'chish paytida tashiladigan uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat yuk. 2) ahli ayol, xotin (eriga nisbatan). **Bu yerda shu ma'noda kelgan.**

<sup>2</sup> **Kulliyot** (arabcha: to'liqlik, bir butunlik; umumiy tushuncha; fakultet) – bir turdagi narsa (juzv) larning to'plami, she'riy to'plam.

<sup>3</sup> **Addoiy** (arabcha) – da'vat etuvchi; duo qiluvchi, yaxshilik tilovchi (maktub oxirida imzodan oldin ishlatiladigan so'z).

Xat shu qisqa jumladan iborat, yana shunday ham bo'lsa Ra'no uchun qiymatli edi.

Hali yozib boshlagan qog'ozni nima uchundir yirtib tashladi, ayvondagilarning o'zaro so'zlashib turg'anlaridan foydalanib, javob yozishqa shoshildi.

### **XLIX Fasl. RAMZ**

Anvardan bir oz ilgariroq qaytqan Sultonali og'ilxona ayvonida sigir sog'ib yotqan xotini ustida to'xtadi.

– Bordingmi, Ruzvon?

– Bordim, – dedi Ruzvon va emchakdan «pov-pov» sut sog'ishda davom etdi.– Bordim, olib keldim.

– Mehmonxonag'a olov qilg'andirsan?

Ruzvon boshi bilan qildim, ishorasini berdi.

Sultonali mirzo uyga o'tdi, salla-choponini yeshib, yana xotining yonig'a keldi.

– Buzoqni yeshib yuboring-chi, aylanay.– Sultonali mirzo ustunga bog'lang'an buzoqni yeshib yubordi. Buzoq onasining emchagiga yopishdi. Ruzvon xurmadagi sutni ko'tarib hujraga o'tdi, Sultonali ham xotini orqasidan kirdi.

– Xo'sh, nima gap bo'ldi, Ruzvon?

Ruzvon xurmadaga sutni tovoqlarg'a bo'lar edi.

– Bordim, xatni berdim, choy qaynatdilar, talay gapurishib o'lturgandan keyin, kitobni olib qaytdim.

– Kimlar bor ekan?

– Otin xola, qizi.

– Qizi qalay?

Ruzvon afsus qilgandek, boshini ikki yelkasiga irg'atdi va tilini tag'layig'a tegizib «chaloq» etdirib qo'ydi.

– Men, mirzoboshi juda xafa ko'rinadi, deganingizdan shuni o'ylag'an edim. Baayni surat: kishi ham bunday jirim bo'lar ekan.

– Ha, Ha!

– Chamasi, ular oshiq-ma'shuq, baloxo'r xon, loaqal, shunga cho'vagini tiqmasa nima qilar edi. Bechora qiz, shunday xafa, shunday xafa. Dor-dunyosi<sup>1</sup> qop-qorong'i.

<sup>1</sup> Dor-dunyo (*forscha*) –koinot, dunyo, olam. Bu yerda ko'ngil dunyosi ma'nosida.

– Ha, ha... Otin xolasi-chi?

– U bechora ham hayron, «bolalarimning so‘yinchi ichiga tushti», deydi.

Sultonali afsuslangandek bosh chayqab qo‘ydi.

– Kitobni qayerg‘a qo‘yibsanz?

– Mehmonxonada... Ha, aytkancha, ichida kichkina xat ham bor.

Sultonali mirzo kechlik osh to‘g‘risida ba‘zi gaplarni aytib, tashqarig‘a chiqdi. Mehmonxona ochiq edi. Tirsagi bilan tanchaga takya qilg‘an Anvar Sa‘diy kulliyotini varaqlar edi. Sultonali kirishi bilan Anvar kitobni yonig‘a olib qo‘ydi va kuchlangandek iljaydi.

– Rahmat, olib kelgan ekanlar.

– Kitobning ichida xat bor emish, balki, ko‘rgandirsiz?

Anvar xatni ko‘rmagan edi, kitobni qaytadan ochib, muqovadan to‘rt buklangan bir qog‘ozni oldi. Xat masalasi bilan Anvarning bir oz shoshib qolg‘anini sezgan bo‘lsa kerak, uyda bir ishi borlig‘ini so‘zlab, Sultonali mehmonxonadan chiqdi. Anvar xatni ochdi.

*"Hurmatlik Anvar aka, assalomu alaykum. hammamiz sog‘ va salomatmiz. Kelin oyim orqali berib yuborg‘an xatingizni oldim, sog‘lig‘ingizni, tinchlig‘ingizni o‘qub va eshitib juda xursand bo‘ldim: ilohi, salomat bo‘lsinlar. Soniy, bizdan ahvol so‘rasangiz alamdulilloh tinchmiz, xotirjam‘ bo‘lursiz. So‘ratib yuborg‘an kitobingizni berib yubordim. Ayamdan sizga salom, boqiy so‘zni Shayxi Sa‘diydan o‘qursiz deb xatni muxtasar qildim, Ra‘no".*

Anvar yozuvni qo‘lida ushlagan holda qarab qoldi. Bir oz o‘ylanib turg‘andan keyin, xatni yana o‘qub har bir jumla ustida to‘xtalib o‘tdi. «Sog‘lig‘ingizni, tinchlig‘ingizni eshitib juda xursand bo‘ldiq» jumlasini bilan «siz tinchib ketdingiz» demakchi edi. Chunki, shu jumladan keyinga – «ilohi, salomat bo‘lsinlar» kinoyasi buni ta‘kid qilar, «soniy, bizdan ahvol so‘rasangiz, alamdulilloh tinchmiz, xotirjam bo‘lursiz», yana kinoya, ammo eng keyingi – «boqiy so‘zni Shayxi Sa‘diydan o‘qursiz deb xatni muxtasar qildim» jumlasini bir oz o‘runsiz kabi edi. Anvar bu jumlaning «mundan so‘ng yoningizda Ra‘no yo‘q, bo‘sh vaqtingiz-

ni Shayxi Sa'diy o'qub kechiringiz» ma'nosida tushundi.

Anvar qog'ozni buklab kitobning muqovasiga soldi va xatning og'ir ma'nosi ta'sirida entikib sukutka bordi. Uning bu kunlarda kechirib turg'an holi juda og'ir, bu og'irliq ustiga Ra'noning mazlumona yerdam so'rab kinoyalar yozishi yana alamlik edi. Chora nima? Bu foji'ani daf' qilish uchun birar yo'l, birar xil tadbir? Faqat bir yo'l, eng so'ngg'i chora: Xudoyor oldida sirni ochish, Ra'noga va Ra'noning esa o'ziga qarshi muhabbatlarini fosh qilib, xonning oyog'ig'a bosh urish – yalinish, yolborish... Hayhot, bu razolatni Anvarning nafsi hazm qilolmag'anidek, «adolatpanoh»ning ham bu to'g'rida «marhamat»lari shubhalik. Basharti Anvar shu razolatka irtikob etsa, adabsizlik, uyatsizlikda ayblanib, birar jazoga yo'liqishi ham yaqin ehtimoldir...

Ma'nan va jisman ezilgan, ayniqsa, hozirgi ahvol ichida ko'z o'ngi qorong'ilang'an Anvar mehmonxonag'a kirib kelguchi Sultonolidan ham ibo qilmay, go'yo hushsiz kabi boshini ikki qo'li orasig'a olib, sandal ustiga enggashti... Masala bilan bir-muncha tanish Sultonali mirzo bu holni daf'atan boyag'i xat mazmunidan deb o'yladi. Uyalmasin, degan kabi bir narsa izlagan bo'lib, tokchalarni aylandi... Anvar qaddini rostlab, uzun nafas oldi va Sultonliga o'lturing ishoratini qildi. Sultonali o'lturdi.

– Nega undaysiz, Anvar?

Anvar kuchlanib iljaydi.

– Haligi xat meni xafa qildi, – dedi va bir oz to'xtalib turdi. – Sizdan yashirar sir yo'q, xat yozg'uchi bilan oramizda anchadan beri yaqinlik kabi bir gap bor edi. Ma'lum gaplar tug'ilg'ach, men o'zimni chetka olishni, qat'iy aloqa qilishni muvofiq ko'rib, sizning ustingizga keldim. Vositangiz bilan bu kun xat yozib, mendan ranjyidir, tinchib ketdingiz deb, kinoya qiladir. Yosh, aqlsizg'a nima ham deb bo'lsin, faqat diqqatlik... Mana, o'qub ko'ringiz, sartopo kinoya.

Sultonali kulimsidi, ammo o'zida o'ngg'aysizlik, tusida qizarinish bor edi. Xatni mirzoning qo'lidan olib o'qudi. O'qub chiqqach, yozuvning yana allaqaysi jumlasiga ikkinchi martaba qaradi.

– Qiziq, «boqiy» so'zni Shayxi Sa'diydan o'qursiz, deb xatni muxtasar qildim...» Bu jumla bilan nima demakchi?

– Bu ham kinoya, – dedi Anvar, – bundan so'ng menim

to'g'rimda o'ylamay, bo'sh vaqtingizni Shayxi Sa'diy o'qub kechiringiz, demakchi bo'lsa kerak.

Sultonali majhul harakat yasadi:

– Balki...

Bu muhmal tasdiq va majhul vaziyat Anvarni shubhaga tushirdi.

– Xo'sh, sizning fikringizcha?

– Men... Men ham sizning fikringizga kelib qoldim, men boshqacharoq tushungan ekanman.

– Masalan?

– Men: «Kitobning ichida yana bir xat bor, qolg'an so'zni shundan o'qursiz» deb.

– Ehtimol sizniki to'g'ridir, – deb alang'ladi Anvar – Bu ham bir erinmaganlik bo'lsin, kitob ichini axtarib ko'raymi?

Sultonali kuldi:

– Mayli... Men uyga kirib, taom yetilgan bo'lsa, olib chiqay. Sultonali ketdi.

Anvar kitobning o'ng-tersini ochib, axtara boshladi. Hech narsa ko'rina bermagandan keyin birma-bir sahifa ochib borishdan ham erinmadi. Bosh tarafdin o'ttuzlab sahifa tekshirilgan edikim Sultonaling foli haqiqatka oshib, sahifa orasig'a buklavsiz qo'yilg'an bir xat kitob chetiga qoqilib chiqdi.

Anvar shoshdi.

*«Andisha va ehtiyot yuzasidan bu xatni alohida yozib, kitob ichiga yashirdim: Anvar aka, og'ir soatlarda yoningizda turg'uchi do'stdir; ochquchi esakim – buni sizning hukmingizga havola qilaman. Va'da berish oson, lekin udasi mashaqqat; bundan so'ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz. Og'ir damlarda arzimas gapni ko'ngilga olish sizning kabi olijanoblar ishi bo'lur, deb kim o'ylasin. Baxtsiz bir qizning najoti uchun tebranmadingiz, deb sizni ayblab bo'lmas, biroq, baxtsiz Ra'no tahlika ostida qolg'anda, uni bu kun-erta bir foji'a kutkanda vafoli, deb bilgan bir kishisidan bu yanglig' jafu ko'rishi naqllarda o'qulg'anmi, afsonalarda to'qulg'anmi? Shu qadar gunohim bor emish, deb xafa bo'lmangiz, Anvar aka. Basharti shu gunohlarning yuvilib ketishini tilasangiz, sizga bir xizmat bor, ham sizning uchun eng oson xizmat: ertaga charshanba kechqurun, tilasangiz – ochiqcha, tilamasangiz – yashirincha bo'lsa ham, biznikiga kelingiz, men bilan oxirg'i martaba vido'lashingiz. Chunki siz nash'u*

*namo<sup>1</sup> qilg'an joyda Ra'noni halokat kutadir».*

Anvar yozuvni onda-sonda o'qub tezlik bilan kitobka qaytarib soldi, sahifalar orasida qoldirib, ustiga yangi sahifalar uya bordi. Chunki laganda manti ko'targan Sultonali dahlizga qarab o'tkan edi.

– Bormi?– dedi Sultonali laganni sandal ustiga qo'yib.

– Vallohi a'lam, ma'no siz tushunganchadir. Men yanglishqan chiqarman.

Anvar uning so'zini tasdiq qilg'an kabi bosh irg'atib, kitobni yopdi, qo'l yuvg'ali dahlizga chiqdi.

## **L Fasl. MA'SHUQA MAHBASI<sup>2</sup>**

Ra'noning ikkinchi xati Anvar uchun yana bir tashvish edi. Uning yoniga borishdan hech bir mantiq topmas, bil'aks, yurak o'tining alanga olishini, jarohatlarning yangilanishini ko'rar edi. Kitob bahonasi bilan xat yozib, o'z daragini aytib, evaziga shunday tashvish ortdirib olg'an Anvar, kechagi kunlarda hissiyotka qattig' berilib, kitob so'ratish oqibatini yaxshi muhokama etalmaganidan pushaymon edi. Shuning bilan birga o'zining mundan so'ngg'i harakatida ham amniyat sezmas edi. Chunki Ra'noga uchrashishdan hech bir foyda tasavvur qilmag'an muhokamasi qarshisidag'i kuchlik bir mayl, Ra'noga yo'liqishdan foyda emas ma'no ko'rsatar edi... Uchrashilganda shubha yo'qkim, Ra'no yig'lar, ko'ngilni buzar, shundan boshqa ish chiqmas, lekin ikkinchi tarafda necha yilliq muhabbat yana shu foji' uchrashishka moyil kabi edi.

Ul tun bo'yi uchrashishning yaxshi va yomon taraflarini o'ylab uxlay olmadi, ora-chora uxlab ketkan asnolari<sup>3</sup> ham yana shu uchrashishka aloqador tushlar bilan kechdi. Har qancha aql izi bilan harakat qilishg'a tirishsada, yana uchrashmaslik, sukut qilib ketishlik eb ko'rinmas edi. Uchrashish – nechog'liq tadbirsizlik, jon koyitish bo'lmasin, Ra'noning «Men bilan oxirgi martaba vido'lashingiz, siz nash'u namo qilg'an joyda meni halokat kutadir» jumlasini har qandaydur andishalikni yengarlik va bu jonso'z xitobadan ko'z yumish yigitlik sha'niga yarasha-

<sup>1</sup> *Nash'u namo (arabcha)* – yuksak, huzur-halovat, yuqori darajadagi estetik lazzat, huzur, gasht. **Bu yerda ko'chma ma'noda taragqiyot, rivoj, gullash ma'nolarida kelgan.**

<sup>2</sup> *Mahbas (arabcha)* – qamoqxona; omborxona, hibsxona.

<sup>3</sup> *Asno (arabcha)* – zamon, vaqt; zamon orasi.



dirg'an ko'rinmas edi.

Anvar qat'iyon borish qarorig'a kelganda, devonda o'lturib ishlar edi. Uning endigi taraddudi uchrashish yoki uchrashmaslik borasida emas, Ra'noning oldig'a ochiqcha borishmi, yashirin-chami to'g'risida edi. Basharti ochiq borsa, maxdumning shub-halanishi, Ra'noni chetka qoqib yoki ularni ta'qib etib, yarag'a tuz sepishi, Anvarning izzati nafsiga to'qunishi aniq. Yashirin borsa... Orada xiyonat, buzuq niyat bo'lmag'andan keyin yashiri-nib yurish nima hojat? Xayr, yashirincha ham borsin, banogoh maxdum ko'rib qolsa... Uning uchun bu masalani hal qilish ham mushkil edi.

Ikkisi kechqurun qaytishib keldilar: Sultonali mirzo kundagi kabi Anvarni yaxshi oshlar bilan mehmon qildi. Shomni o'qug'andan keyin Anvar «bir necha soat ichida jiyonlari oldig'a borib kelish uchun» Sultonali mirzodan izn olib chiqdi.

Qishning oxirg'i kunlari, ko'chada qora sovuq bilan izg'iriy yurar edi. To'qquz-o'n kunlik oy shaharning qoq ustida cheti qorayg'an sariq barkashdek yaltirab turar edi. Mahalla bolalari eshikma-eshik yurib – «Barot keldi, bildingizmi, idish-oyoq qildingizmi?» ashulasini aytar edilar.

Anvar maxdumning mahallasiga kelib yetkanda, kishi tani-masliq darajada qorong'i tushdi va shu qatorda Anvarning ko'ng-lidagi qorong'iliq ham kuchaydi, yurak urishi e'tidoldan<sup>1</sup> chiqib, o'g'ri kishidek atrofiga qarana boshladi. Bundan birar hafta ilgari baxt bo'yini ong'itqan bu mahalla hozir shuning ziddi bilan huvillar; hammayoq tim qorong'i, faqat bu mahalla ustida nurla-nib ko'ringan oyg'ina uning ko'nglini yoritir, biroq... Biroq kajraftor falak uni ham bag'rida qora dog'i bilan o'rda tomong'a qarab sudrar edi...

Anvar yopiq holda turg'an darboza yonig'a kelib ohista itardi. Darbozani zanjir ko'rib, ko'z o'ngi qorong'ilandi... Bir necha fursat darboza yonida qadalib turg'andan so'ng, to'g'rig'a o'tdi. Yigirma qadam chamasi yurib, qo'shnining darbozasini itardi, bunisi ochiq edi. Qorong'i yo'lakka kirdi. Ul maxdumning xuftanga chiqishidan foydalanmoqchi, xuftan azoni aytilgandan keyin ham darboza ochilmasa, so'ngra qaytib ketmakchi edi. Uzoq kutishka to'g'ri kelmadi, mahalla masjidida xuftan azoni

<sup>1</sup> E'tidol (*arabcha*) – xushqomatlik, adillik; mo'tadillik, o'rta daraja; bir tekisdalik, mutanosiblik. Bu yerda yurakning notekis urishi nazarda tutilgan.

aytildi, shundan bir oz keyin Ra'nolar darbozasi ham g'iyqillab ochildi.

Darbozadan chiqqan oyoq tovshi Anvarga yaqinlab kelar edi. Anvarning yuragi arziqib qo'shni darbozasining ichki tomonidan ochiq tabaqa orqaliq yo'lg'a mo'ralar edi. Ra'nolar darbozasidan chiqquchi to'g'rig'a o'tishi bilan Anvar turg'an yo'lakning ichkarisidan ham oyoq tovshi kelib qoldi. Anvar shoshdi, maxdum besh-olti qadam yiroqlashqach, yo'lakdan chiqishqa majbur bo'ldi. Anvar oyog'idan tovush chiqarmasliqqa tirishib, sekin-sekin darbozaga yurib keldi. Orqadag'i oyoq tovushlarining uzoqlasha borg'anini sezib, xotirjam ichkariga kirib oldi. Mehmonxona sahnida bir oz alang'lab turg'andan keyin, to'g'rig'a – mashqxonona eshigiga o'tdi. Mashqxonona eshigini ochar ekan, orqasig'a – darboza yo'lagiga qarandi.

Darichalari yopiq mashqxonaning ichi hosidlar<sup>1</sup> yuragidek qop-qorong'i, daromad ham yopilg'andan so'ng uy go'yo lahad tusiga kirdi. Zulumat ichida qolg'an Anvar orqa-o'ngini ajratolmay bo'ryo ustini chog'lab bir-ikki qadam yurib keldi va ikki qo'li bilan tizasini quchoqlab cho'nqaydi. Darichalar tirqishidan tushkan yorug'liq bilan zulumat bir oz kuchsizlandi, shunda ham uning ko'z o'ngga qov<sup>2</sup> kabi qorong'i edi. Hamma tip-tinch; quloq ostidag'i chivillashishdan boshqa tovush eshutilmas, ora-chora uzoqdan kelgan bola yig'isi bu tinchliqni buzg'andek bo'lar edi. Shu holda oradan necha daqiqalar o'tib ketdi. Bir vaqt yer osti dukillagandek bo'ldi. Bu dukillash sekin-sekin oyoq tovshig'a mubaddal bo'lib, uning quloqlari tikkaydi. Ichkaridan chiqqan birav yo'lakkami, mehmonxonag'ami o'tib ketdi. Anvar entikdi, mehmonxonaning eshigi ochilib bir ozdan keyin yana yopildi, havli sahnida yana birav yurindi. Borg'an sayin mashqxonag'a yaqinlashib kelgan oyoq tovshi bilan Anvar toqatsizlandi. Eshik ochilishi bilan beixtiyor o'rnidan turib ketdi...

– Anvar aka.– Men...

Eshik ochqan Ra'no edi, bir-ikki qadam ichkariga kirib to'xtadi. Anvarga ozg'ina qarab turg'ach, uzun nafas olib orqasig'a qaytdi. Anvar bu holning sababiga tushunalmaganidek, uni chiqarmay to'xtatishqa ham o'zida jasorat topmadi. Birar daqiqadan so'ng eshikda yana Ra'no ko'rinib, Anvarning oldig'a

<sup>1</sup> **Hosid** (*arabcha*) – hasad qiluvchi, badxoh; baxil.

<sup>2</sup> **Qov** – alangasiz kuydirilgan paxta, so'xta (xalq tabobatida kesilgan yaraga qo'yish uchun ishlatiladi).

qoramtil bir narsa keltirib qo'ydi.

– Sizga ko'rpacha olib keldim, – dedi shivirlab, – uyga ammam va xolamlar kelishkan, men ularni uxlatib chiqaman...

Ra'no shu so'zni aytib, orqasig'a qayta berdi, eshikni boyag'icha yopib, hujradan yiroqlashdi. Ahvolga bir oz tushungan Anvar ko'rpachani bo'ryog'a solib, ustiga chiqdi va erkin nafas olib yonboshladi. Endi Ra'noning har holda chiqishini bilsa ham, biroq, qachon chiqishini bilmas, shunga binoan bir tavq o'tkuncha kutib o'lturishini chamalar edi. Oradan bir oz fursat kechkanda darboza ochilib yopildi. Anvarning qulog'i tikkayib, qaddini rostlab o'lturishka majbur bo'ldi. Oyoq tovshi yaqinlashdi, uzoqlashdi va oxirda bitib ham ketdi.

Vaqt juda qiyinliq bilan o'tar, tashqarida «tiq» etkan tovush uni bir alang'atar edi. Bir tavq o'tkaniga talay vaqt bo'lsa ham, hamon Ra'no daraksiz. Yuragi siqilg'an Anvar goh o'lturib, goh yonboshlar, sovuqda muzlab ketkan mahsilik oyog'ini turli vaziyatka solib ko'rar edi. Shu azob ichida yana talay vaqt kechti. Ma'shuqa mahbasiga tushkan Anvar o'lturib chidalmadi, kafshini kiyib, o'rnidan turdi, muzlagan oyog'ini isitish va og'riqqa kirgan a'zosini harakatlantirish uchun uy bo'yincha kezina boshladi. Necha vaqt sahn aylanib, yana o'lturdi, Oy ham bota boshlag'an, chunki chetdagi daricha tirqishi orqaliq tushib turg'an kuchsiz oydin izi ham yo'qolib, uyni qorong'iliq bosgan, tevarakda chaling'an dovullarning «gum-gum» ohangi ichida xo'rozlar ikkinchi martaba qichqirib yuborg'an edilar. Anvar bir oz yonboshlag'andan keyin yana o'rnidan turdi, kafshini kiyib kelib, eshikni ochdi, sahnga tushib ko'zini uqaladi. Ko'kda durkum-durkum yulduzlar sayr etar edilar. Tom boshidan botishqa yaqinlashgan oy nuri arang-arang ko'zga chalinar edi. Anvar toza havo iskab uzun nafas oldi.

– Zerikmadingizmi?

## LI Fasl. Jasur qiz

Qulog'i ostidag'ina aytilgan bu so'z Anvarni cho'chitdi va o'z yonida qo'lida bir narsa ko'tarib turg'an Ra'noni ko'rdi.

– Ularni uxlatmay chiqolmadim... Uyga kiraylik, Anvar aka.

Yuragi arziqqan Anvar Ra'noning orqasidan mashqxonag'a kirdi. Ikkisi ko'rpacha ustiga yonma-yon o'lturishdilar.

– Kitob ichidagi xatni payqamaysizmi, deb qo'rqan edim,

– dedi yarim tovush bilan Ra’no.

– Payqamasangiz...

– O‘zing hamma gapka tushuna turib, yana bunchalik achchig‘ yozg‘aning nimadir, Ra’no?

– Chunki shunchalik achchig‘ yozmasam, – dedi Ra’no tovshida titroq ohang bilan, – siz kelmas edingiz... Siz... siz mirzoboshiliqni yaxshi ko‘rasiz-a?

Anvar bu munosabatsiz savoldan bir oz hayron bo‘lib turdi.

– Tushunmadim... Nima demakchisan?

– Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko‘rasizmi, deyapman?

– Yaqinda mirzoliqni tashlamoqchiman, Ra’no?

– Mirzoliqni tashlagandan so‘ng nima ish qilasiz?

– Qo‘qondan ketaman, sayohat qilaman.

– Meni... meni ham o‘zingiz bilan olib ketmaysizmi?

Anvar yana tushunmadi. Ra’noning yuziga ancha qarab turdi:

– Sen... senga mumkinmi, Ra’no?

– Mumkin, – deb qaltirandi Ra’no.

– Mirzoboshiliqni hozirdan e‘tiboran tashlasangiz mumkin...

Bu so‘z Anvarni ham qaltiratib yubordi.

– Nima deyapsan, Ra’no?

Ra’no bir necha vaqt javob beralmay turdi. O‘zini to‘xtatib olish, hayajonini tindirish og‘ir edi.

– Haligi... haligi so‘zingiz chin bo‘lsa, men ham siz bilan ketishni xohlayman... Basharti sizga og‘ir oshmasam...

Anvar jim bo‘lib qoldi, tushiga ham kirmagan bu taklifka nima deyishini bilmay entikdi...

– Basharti sizga og‘ir oshmasam, – dedi takror Ra’no.

«Jasur qiz», – deb o‘yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish edi. Anvar istiqbolda qanchaliq mushkilot va xatar ko‘rmasin, bu jasoratni xush qabul qilishg‘a majbur, chunki muhabbatdan ham ilgari yigitlik taqozosi shu edi.

Ul o‘z yaqinida turg‘an qora tugunni ushlab qaradi.

– Bu nima, Ra’no?

– Bu... bu sizning eski kiyimlaringiz.

– Nima uchun bu?

– Basharti siz xohlasangiz...

Anvar paranjimi, deb chamalag'an edi. Mantiqsiz bu javob uni shoshirdi.

– Xo‘b, sening rizolig‘ing yo‘lida...– dedi Anvar yarim to-vushda.– Menim eski kiyimlarim senga nima darkor?

Ra‘no javob berish o‘rnig‘a uzun so‘lish olib yonidag‘i tugunni yesha boshladi.

– Paranji olmandingmi, axir?

– Hozir...– dedi Ra‘no va qorong‘ida bir narsalar qila berdi.

Paranjisi ham bordir, deb o‘ylag‘an Anvar uni o‘z holiga qo‘yib turdi. Birar daqiqadan keyin Ra‘no yerdan bir narsani tu-tib qo‘zg‘aldi, paranji kabi uzayg‘an narsa ichidan «choq» etkan bir narsa yerga tushti.

– Topib oling shuni.

Anvar yerni timiskiladi.

– Nima edi?

– Ayamga bergan amonatingiz.<sup>1</sup>

Anvar tushkan narsa oltinlar ekanini payqadi, uzoqni o‘y-lag‘an Ra‘noga qarshi yuragida yana haroratliroq muhabbat sezdi.

– Topdingizmi?

– Topdim.

– Turing endi.

Anvar Ra‘no bilan boshlashib hujradan chiqdi va o‘z yonida paranji yoping‘an qizni emas, telpak va to‘n kiygan yosh, o‘s-purin bir yigitni ko‘rdi...

– Bu nimasi, Ra‘no?

Ra‘no javob berish o‘rnig‘a yo‘lakka qarab, yura berdi. Darbozani ochib ko‘chaga chiqqandan so‘ng, Anvar Ra‘noning oldig‘a tushib yo‘l boshladi va o‘zida yengillik his etdi. Chunki Ra‘noning yigit suratiga kirishi andozasiz ma‘qul; bemahalda paranjilik xotinni boshlab yurish mirshab va qorovullarda ham turli shubha tug‘dirg‘ani kabi, Anvarning o‘zi uchun ham o‘n-g‘aysiz bo‘lar edi. Go‘yo bir o‘rtog‘i bilan ketib borg‘andek parvosiz ko‘ringan Anvar, burilishka yetkanda o‘zidan o‘n qa-dam orqadag‘i hamrohini kutib turdi. G‘urubi<sup>1</sup> yaqinlashqan qip-qizil oy Anvar to‘xtag‘an muyushka ko‘laga kabi zaif nur sochar edi. Ra‘no Anvar yonig‘a yetib «qayoqqa yuramiz», degan kabi

<sup>1</sup> G‘urub (*arabcha*: uzoq, olis; uzoqliklar; kunbotar tomonlar; kun botish vaqti) – quyoshning botish payti, kun botishi. Bu yerda ovning botish vaqti nazarda tutilgan.

bir yo'lg'a va bir hamrohiga qaradi. Soch o'rumlarini telpak ostig'a bosib, to'ni to'pug'i ustiga tushayozg'an «yosh yigit» Anvarning ko'ziga yana ham do'nduqroq ko'rindi. Anvar Ra'no'ning to'nini bir oz ko'taribroq ushlatdi, onda-sonda telpakdan chiqib qolg'an soch tolalarini yashirdi va «o'ngga» degan ishoratni qildi. Ra'no oldinda, undan ikki-uch qadam orqada Anvar yo'lg'a tushdilar. Yengil bedona mahsisi bilan qala kafshi kichkina oyog'ig'a juda ham kelishkan Ra'no, go'yo uchkandek tez yurib borar, orqada kelgan Anvar g'oyai omolg'a<sup>1</sup> oshiq-qandek undan qolishmasqa tirishar edi. Uzoq yurdilar. Elli qadam, chamasi, narida gulxan va gulxan tevaragida uch-to'rt nafar kishilar ko'rinib, Ra'no to'xtaldi.

– To'xtama, Ra'no, – dedi orqadan Anvar, – sen pisand qilmag'andek, parvosiz gulxan yonidan o'ta ber, men ular bilan so'zlashib qolsam, nariroqda kutib tur.

– Mirshablar bemahalda qo'yimas emish-ku.

– Men bilan seni qo'yar... Qo'rqmay boravur. Ra'no ikki-langansumon yo'lg'a tushti, gulxangacha o'n qadam qolg'anda mirshablardan biri hayqirdi:

– To'xta!

Ra'no Anvarga qarab taraddudlandi, Anvar yura berishka ishorat qilib, tezlik bilan gulxan yonig'a yetdi. Anvarni tanig'an mirshab va qorovullar ta'ziman o'runlaridan qo'zg'aldilar.

– Qo'zg'almanglar, – dedi Anvar gulxanda isinib, – dahboshi ham shu yerda ekanlar...

Anvar «dahboshi» deb atag'an yum-yumaloq kishi Qorunboy ismlik bo'lib, mirshablarning qiziqrog'i, shuning uchun undan «dahboshi» deb istehzo qilar edilar:

– Yoningizda besaqal<sup>2</sup> bilan bemahalda nima qilib yuribsiz, taqsir? Odamzodga ishonib bo'lmas ekan-da...

Anvar, «dahboshi»ning ko'zi Ra'noga tushib qolganini ongladi. Gulxandan o'ttuz qadamcha nariga borib to'xtag'an «besaqal»ga ko'z qirini tashladi.

– Ziyofatda edik, dahboshi.

– Ha-a-a-a-a, menam aytdim... Uy bu yoqda qolib, endi qayoqqa ketapsiz, taqsir?

<sup>1</sup> G'oyai omol – oliy maqsadi; orzu-umidi.

<sup>2</sup> Besoqol – 1) hali soqol-mo'ylovi chiqmagan, yosh yoki soqol qo'yilmagan; soqolsiz; 2) bachcha vazifasida saqlanadigan, hali soqoli chiqmagan chiroyli bola.

Anvar qo'lini yaqindan isitmakchi bo'lib gulxan tarafka bir qadam bosti.

– Eshitmadingizmi, hali?.. Men Rais ko'chadan... yangi havli oldim.

– Muborak, muborak.

Anvar qutlug' aytib, ular bilan xayrlashdi. Mirshablar uning hurmati uchun qo'zg'alishib qoldilar.

Gulxanchilardan elli qadamlab uzoqlashqach, Ra'no Anvarning yetib kelishi uchun yo'l ustida to'xtadi.

– Nima deyapti u go'rso'xta?

Anvar hiringlab kuldi va Ra'noning yelkasiga qoqdi:

– Yur, yur, yigitcha. Go'rso'xta to'g'ri aytyapti.

– Yetayozdiqmi, qayerg'a boramiz?

– Yaqin qoldi, kechagi xotinning uyiga...

Ra'no olding'a tushib ketdi, uzoqqina so'zsiz borg'andan keyin orqasig'a qayrilib so'radi:

– O'zlari yaxshi odamlarmi?

– Yaxshi, yaxshi, – dedi Anvar va o'n qadam chamasi indamay bordi. – Sen uy egasidan qochib o'lturma, o'zi menim og'am... Tuzukmi, Ra'no?

– Xo'b.

Yana bir oz yurib torroq bir ko'chaga burildilar. Sultonalining darbozasiga yetkuncha ikkisi ham og'iz ochib gapirishmadilar.

## LII Fasl. DO'STLIQ «KAROMATI»

Ertalab xonning haramdan chiqish vaqti yaqinlashqan, salom va istiqbol uchun xoslardan sakkiz-to'qquzi yig'ilg'an edilar. Shu kutish asnosi eshikda hovliqib Sultonali ko'rindi. Qora barmog'i bilan xoslar ichidagi Abdurauf tunqotarni o'z tarafiga imlab, orqasig'a qaytdi. Abdurauf tunqotar ajablangan holda dahlizga chiqib, o'zini chetka olib turg'an Sultonali, nima gap, degan ishoratni qildi. Sultonali labini tishlab, qo'li bilan tunqotarni o'z yonig'a chaqirdi. Tunqotar mahsichan oyog'ini yerga bosib Sultonalining yonig'a keldi.

– Xo'sh?

Sultonali boshini ikki yelkasiga irg'atib, labini tishlab oldi.

– Mirzoboshimizning misi chiqib qoldi-ku.

– Xo'sh, xo'sh?

Sultonali tunqotarning qulog‘i ostig‘a enggashti va yarim tovush ichida dedi:

– Mirzo Anvardan onhazratka nomussizona bir xiyonat sodir bo‘ldi.

Tunqotar boshini quyiroyq tushurib, Sultonalining aftiga egri qaradi:

– Masalan?

– Mirzo Anvar uch-to‘rt kundan beri mening havlimda qo‘nib yurar edi, – dedi Sultonali va so‘z orasi u yoq bu yoqqa qarab qo‘ydi. – Chamasi, ustoziga bir xiyonat qilg‘andan keyin mening havlimda yotib yurg‘an ekan... O‘z ustozini bilmagan bu bepadar, olampanohning ham betlariga oyoq qo‘yishdan toymay, mazkur ustozining qiblagoh<sup>1</sup> uchun muvofiq ko‘rilgan qizini yo‘ldan ozdirib, bu kun kechasi uni qochirib mening havlimga olib keldi... Garchi o‘z havlimda yotqan mehmonim va do‘sti qadr-donim bo‘lsa ham, valine‘matimning haqqi namaklarini unutkan bu behayoning andishasizligidan har mo‘yim bir nishtar-dek kiyimimdan teshib chiqayozdi. Uning yigitligiga tilda tahsin o‘qub, ichdan la‘nat aytib, janobni xabardor qilish uchun yugurib kelayotqanimda, bek aka.

Tunqotarning ko‘zi qinidan chiqayozib, bir-ikki qayta soqolini qo‘li bilan bukib yamladi.

– Padar la‘nat. O‘zi hozir sizning uyingizda?

– Ha, ha... Qiz ham shunda. Janobning ra‘ylarini bilish qiyin-ku, biroq, menga qolsa, vaqt qochirmay uni hoziroq qo‘lg‘a olish kerakda.

– Bo‘lmasa-chi, – dedi tunqotar yelkasini qisib, – men hozir arz qilay. Rahmat sizga.

Tunqotar huzuri xoska kirish uchun shoshildi. Sultonali xonning «haqqi namagini» benuqson ado qilib, xotirjam devong‘a qaytdi. Anvarning eng sodiq kishisining oxirg‘i «karomati» nihoyat shu bo‘ldi.

Ko‘b fursat o‘tmadi. Devonning darichasi yonig‘a kelgan tunqotar Sultonaliga chiq ishoratini qilib, o‘zi nariroqqa ketdi. Hovliqqan, entikkan Sultonali oyog‘ini onda-sonda tashlab, devonxonadan chiqib keldi.

<sup>1</sup> **Qiblagoh** (*arabcha+forscha*: qibla singari muqaddas joy) – 1) qibla tomon; 2) o‘ta hurmatga loyiq kishi (masalan: ota, ona) haqida; unga murojaat shakli (ko‘chma ma‘noda) **Bu yerda xon nazarda tutilmoqda.**



- Marhamat?
- Ushlashka buyurdilar.
- Ayni karomat, – dedi Sultonali.
- Ikkisini ham albatta?
- Albatta.

Yonig‘a to‘rt nafar yasovul olib, Sultonali yo‘lg‘a tushti. Tashqi darboza yonig‘a qantarilg‘an otlardan birisiga minib, tunqotar ham ularning iziga kirdi. Ozg‘ina yurg‘andan keyin, tunqotar yayovlardan o‘zdi. Unga yetib yurish uchun Sultonali va yasovullar yelib bordilar. Ot bilan barobar yugurishar, ozg‘ina keyinda qolsalar, otlig‘ tunqotar tez yurishg‘a qistar edi. Shu yo‘sun halloslashib uzoq choptilar... Burulishqa yetkanda Sultonali bir oz sustlanib, o‘zidan o‘n ot adimi yiroqda borg‘an tunqotarni chaqirib to‘xtatdi va qo‘lini o‘ngga siltadi. Tor ko‘chaga kirib ketdilar. Uch daqiqa, chamasi, yelgandan so‘ng, Sultonali darbozasi ko‘rindi. Sultonali to‘xtadi...

– O‘sha ko‘rinib turg‘an darboza... Ozg‘ina tahammul qilinsin-chi<sup>1</sup>, bek pochcha, menim kirishim yaxshi bo‘lmas, deyman?..

To‘rt adimcha oldinda borg‘an tunqotar otning jilavini tortdi.

– Nima uchun?

– Menim do‘stlig‘ otim bor... Men chetroqda tursam ma‘qul bo‘lmasmi?

– Ma‘qul, ma‘qul.

– Rahmat... Darbozadan kirsangiz, mehmonxona bor: ul shunda bo‘lsa kerak, qiz esa ichkarida edi.

Sultonali shu so‘zni aytib, o‘zini qarshidag‘i darboza yo‘lagiga oldi. Tunqotar yigitlar bilan darbozaga qarab ketdi. Darbozaning har ikki tabaqasi ham langgillab ochilg‘an, ichkari tarafdandan xotin va er kishining so‘zlashkan tovushlari eshitilar edi. Tunqotar otdan tushib jilavini yasovullardan birining qo‘lig‘a berdi:

– Sen ot bilan shu yerda turasan, darbozadan na xotin va na erkak kishini chiqarmaysan, – dedi tunqotar. – Siz yigitlar, meni orqamdan kiringiz, Anvarni ko‘rganingiz on hech narsaga qara-

<sup>1</sup> **Tahammul qilmoq** (tahammul (*forscha*) – zimmasiga olish; boshdan kechirish; toqat, sabr, chidam; tuzim) – (yoki etmoq) 1) bardosh bermoq, chidamoq, sabr-toqat qilmoq; sabr-toqat bilan kutmoq. **Bu yerda zimmasiga oling ma‘nosini bildirgan.**

may, qo‘lini bog‘langiz.

Yasovullar sadoqat nishoni ko‘rsatdilar. Tunqotar uch-to‘rt qadam ichkari yurdi va yo‘lak daromadida to‘xtab ichkariga quloq soldi. Ichkaridan er va xotin so‘zlarini eshitdi.

– Sharmanda bo‘ldim, rasvo bo‘ldim!..

– Sharmanda bo‘lish hech gap emas, – dedi ichdan tunqotar.

– Voy sho‘rim qursin!..

– Albatta sho‘ring quruydi, mocha!<sup>1</sup>!..– dedi tunqotar.

Tunqotar, yigitlarga «orqamdan» ishoratini qilib, birdan sahnga chiqdi... Sahnning o‘rtasida qo‘lida bir qog‘oz ushlab, boshini quyi solg‘an Solih maxdum turar edi. Maxdumning yonida ikki kishi, ulardan beriroqda paranjilik uch xotin qadalg‘an edilar. Tunqotar va yasovullarning shapراسi bilan hamma cho‘chib ketdi. Maxdum qo‘lini bir-biriga urib, oh chekti:

– Sharmanda bo‘ldim, rasvo bo‘ldim!

Tunqotar shoshib, olpong‘-tolpong‘ maxdumning yonig‘a kelib yetdi.

– Nima gap?

Maxdum shart etib, peshonasiga urib, yig‘ladi:

– So‘zlagali til yo‘q... Janobning oldilarida sharmisor, g‘a-zabka sazovor bo‘ldim... Ertalab uyg‘onsaq, bepadar o‘jizamiz yo‘q... Sarosima uyon-buyon yugurib turg‘animizda, mirzo Sultonalinikidan, qizingiz biznikida, degan xabar bordi. Biz ayollar bilan yugurishib kelsak, bir onda...

– Xo‘sh, xo‘sh?

– Haromzoda Anvar uni yo‘ldan ozdirib, bu yerdan ham olib qochibdir... Harchand ichkari va tashqarini izlab, ushbu xatdan g‘ayri asar topmadiq... Evoh!..

Xotinlarning biridan yig‘i tovshi eshitildi. Tunqotar maxdumning qo‘lidag‘i xatni yulqqandek o‘z qo‘lig‘a oldi.

*«Izzatlik mirzo Sultonali og‘amizg‘a! Ma‘lum bo‘lsinkim, singlingiz bilan maslahatlashib o‘z hayotimiz uchun siznikida turishni xavfli, deb o‘yladi. Garchi do‘st ko‘rinsangiz ham, ba‘zi noloyiq harakatlaringiz bizni shubhaga soldi. Ayniqsa xotiningizning Ra‘noga buzuq iz bilan qilg‘an kabi muomalasi yana bizni xavotirg‘a tushirdi. Shularga mabni<sup>2</sup> aldag‘an kabi*

<sup>1</sup> Mocha (forscha) – it yoki eshakning urg‘ochisi. Bu yerda ko‘chma ma‘noda hagoratni bildirgan.

<sup>2</sup> Mabni (forscha) – tayangan, asoslangan, binoan, ko‘ra.

sizni o'rdag'a jo'natishga, sizdan so'ng uyingizdan ketishka majbur bo'ldik. Dunyoda do'sti sodiqni topish qiyin ekan. Sizga harchand: «Men oshiqman, siz ma'shuqamdir, olampanohqa qilg'an bu xiyonatim yolg'iz o'z tarafimdan sodir bo'lg'an jinoyat emas», – desam ham, siz: «Yoshlik qilibsiz, marhamatlik podshohing haqini unutibsiz», – deysiz. Lekin siz shu iz yo'lida hatto bosh munshiylikdan ham kechib turg'animni o'ylamaysiz. Buning uchun men sizdan ranjmayman. Ammo sizni inson fahmlab, uyingizga do'st olib kelganda bu qadar tundli<sup>1</sup>, bu qadar rioyasizlig'ingiz kishiga qattig' ta'sir qiladir. Ichkarida hatto qiz bechoraning boshig'a yostiqh am bermaganlar. Barakalla sizga, barakalla yangamizga, barakalla odamgarchilikka!..  
Addoi do'stingiz ANVAR».

– Odamgarchilikni ham biladi, bu tuz ko'r qig'ur! – dedi zaharxanda ichida tunqotar va xatni buklab yonig'a soldi. – Ichkaridan mirzo Sultonalining xotinini chaqirib beringlarchi!

Xotinlardan biri ichkariga qo'zg'aldi. Ruzvon yo'lakda turg'an bo'lsa kerak, xotin ichki-eshik yonida to'xtab, yo'lak bilan so'zlashdi. Tunqotar eshik yonig'a keldi.

– Siz shundamisiz, yanga?

– Ha, aylanay.

– Siz bu gaplardan nima bilasiz?

Ruzvon eshik panasiga yashirinib, bir oz javobsiz turdi va bir-ikki tomoq qirib qo'ydi:

– Uch kundan beri mirzo Anvar otlig' yigit bizning mehmonxonada yotib turar edi, aylanay... Shu yigit bu kun yarim kechada bir qizni boshlab keldi, men hayron bo'lib mirzongazdan so'rasam, shunday-shunday gap... Juda xafa bo'lib ketdik-da, aylanay. Ket degali yuz chidamaydi, kishi chaqirg'ali yana vaqt emas; mirzongiz bilan kengashib, emdi harchi ertalabgacha joy beraylik, tong otsa, bularning tatig'ini berguchilar<sup>2</sup> topilarku, axir deyishdik. Tong otdi, mirzo Anvar u kishiga: «Men bunda yana bir kun turaman, shungacha bizni ehtiyot qilsangiz bo'ladi», – degan emish. Mirzongiz shoshib o'rdag'a ketdi, u kishidan keyin men ham tinch o'lturalmadim, aylanay. Qo'shni-mizning bolasini qizning uyiga choptirdim. Bir vaqt men bilan

<sup>1</sup> Tundli(k) – qo'pol, sovuq muomala.

<sup>2</sup> Tatig'ini bermoq – jazosini, adabini, ta'zirini bermoq.

sandalda o'lturgan qiz uydan chiqdi, men tashqarig'a chiqqusi keldi-mi, deb beparvo o'ltura berippan, aylanay... Shu chiqqani bilan qaytib kirmadi-qo'ydi. Ko'nglim g'ash tortib, havliga chiqib qaradim. Yo'q, tashqaridamikin deb shu turg'an joyimg'a kelgan edim, uyoqdan bular kelishib qoldi... Bo'g'an gap shu, aylanay!

Tunqotar afsus chekib maxdumning yonida turg'an kishilarga yaqin keldi.

– Sizlar nima qilib yurasiz bu yerda?

– Biz... biz mirzo Sultonaning qo'shnilari bo'lamiz.

– Juda yaxshi, xizmat?!

Tunqotarning karih<sup>1</sup> bu muqobalasidan kishilar siqilib qoldilar.

– Men ko'chada edim, – dedi birisi qo'rqa-pisa, – u yoqdan domla bilan ayollar kelisha berdi... Ayollar yig'lashqang'a mirzoning uyida bir gap bo'lg'anmi, deb.

– Tekin tomoshachiman, degin...

– Xo'b, sen-chi?

– Men ham mirzo Sultonliga qo'shni bo'laman, – dedi ikkinchi kishi: bunisi o'ziga bir oz tetikroq edi.– Biroq men sizlarning gaplaringni eshitib, bir narsaga hayron bo'lib turippan-da.

– Nimaga hayron bo'lasan?

– Men shunga hayron bo'lyapmanki, yangamning so'ziga qarag'anda, mirzo Anvar o'z yonida paranjilik xotin bilan chiqib ketsa kerak edi... Boya men uni darbozadan chiqib borg'anida ko'rdim, yonida xotin-potin degan gap yo'q edi.

– Yolg'izmidi?

– Yolg'iz-ku emas edi, biroq yonidag'isi ayol emas, do'n-diqqina bir besaqal edi.

Tunqotar qo'shnining so'ziga tushunmadi, yelkasini qisib qo'ydi.

– Siz aniq ko'ribsiz, Karim aka, – dedi u yoqdan Ruzvon.– Qiz kechasi kelganida ham erkak kiyimida edi.

– O'b, padar la'nat!– deb yubordi tunqotar. Ustig'a tog' ag'darilg'an maxdum boshini yana quyiroqqa solib, ho'ngir-ho'ngir yig'ladi.

– Bo'lar ish bo'lg'an...– dedi tunqotar atrofiga xitoban, –

<sup>1</sup> Karh (arabcha) – jirkanch, yoqimsiz, ko'ngil aynitadigan.

ular-ku, albatta, qo'lg'a tushib jazosini topar, biroq janobning sha'nlariga juda og'ir gap. Binoan alayh, shu yerdagi sirga voqif bo'lg'anlarning vazifasi bu hodisaning kishiga so'zlamalik, ko'rgan-kechirganini shu yerda qoldirib ketishlik!

Kishilardan: «Albatta, albatta!» degan javob bo'ldi. So'ngra tunqotar maxdumning yonig'a keldi.

– Sizda gunoh yo'q, biroq qiz o'sdirishni bilmas ekansiz.

– Bandamiz, bandamiz, – deb yig'ladi maxdum. – Ilohi, juvonmarg bo'lsin, meni yerga qaratdi.

Paranjidagi xotinlarning biri bo'lg'an Nigor oyim piq-piq yig'ladi. Tarbuzi qo'ltug'idan tushkan tunqotar yasovullarning oldig'a tushib, tars-turs ko'chaga chiqdi, yigitlardan birining ko'magida otqa minib, jilavini qo'ydi. Sultonali yashiring'an darbozaga yetkanda yo'lakay chaqirib o'tdi:

– Mirzo Sultonali, chiqing. Qochqan, padar la'natlar! Sultonali ko'zini katta ochib, darbozadan chiqdi.

– A, chinmi?

– Qochqan, – dedi tunqotar xatni Sultonaliga uzatib, – o'qub, yana menga qaytaring, janobga ham ko'rsatishimiz kerak...

...Sultonali shu hodisaning ikkinchi kuni xong'a qilg'an sadoqatining samarasini ham ko'rди, ya'ni bosh munshiy bo'lib belgilandi.

### LIII Fasl. CHAYONNING NAMOYISHI

Bu kech masjid hujrasi yana obod, katta sham'ni toqchag'a qo'ndirib, ochiq tanchaga pista ko'mir solib, ma'yus, bir-biriga yonma-yon o'lturg'uchi ikki mufti qo'llarini olovg'a tovlar edilar. Hujraning to'rdagi toqchasig'a besh-olti dona qalin muqovaliqliq kitoblar terilgan, ularning varaq taxida<sup>1</sup> – «Sharhi mullo Jomiy», «Aqoidi ma'-alhavoshiy», «Hikmat ul-ayn», «Alviqoya», «Siyari sharif» kabi so'zlar yozilg'an edi. Kun botish toqcha devorig'a gul ravishida tushirilgan duo yoki shuning kabi muqaddas kalimalar yozig'liqliq bir qog'oz yopishtirilg'an. Sirlar bilan turlangan qoziqlarning biriga beva xotinning dekchasidek bir salla ilingan edi. Shahodat mufti kasavni olib, cho'g'ni titdi va keng ko'kragini shishirib nafas oldi.

<sup>1</sup> Tax – 1) dazmol urilgan yoki taxlangan narsaning tekis qayrilgan, bukilgan joyi, chizig'i; 2) terib, taxlab quyilgan narsa yoki uning har bir taxlami (bu yerda shu ma'noda kelgan).

– Ajab bedavo dard-da.

Kalonshoh mirzo boshini irgʻatib qoʻydi.

– «Soʻygan yorim sen boʻlsang, koʻrgan kunim ne boʻlgʻay», – deb davom etdi mufti. – Ulul Amir qadrnoshunos<sup>1</sup> boʻlgʻandan soʻng qiyin ekan. Shu oqpadarning qoʻl ostida ishlagandan devonni tashlab ketkan behroq<sup>2</sup>.

– Sabr qiling, domla, sabr: «Innalloha maʼassobirin»<sup>3</sup>.

– Albatta... Va lekin Sultonali dek bemaʼniga bosh ekkandan, har roʻz oʻn tayoq yegan yaxshi.

Xuftanni oʻqugʻandan soʻng tahorat yangilab yurguchi mulla Abdurahmon hujra eshigida koʻrindi. Kichkina hovoncha<sup>4</sup> boshidagʻi oq tepchima toʻppi<sup>5</sup> va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofatiga qoʻygʻan edi. Mulla Abdurahmon ichkari kirib, qoziqdagʻi sallani oq toʻppi ustidan kiydi.

– Men janoblarning soʻzlari bilan uyga ovqat buyurmadinga?

– Lozim emas, biz uydan ovqatlanib kelganmiz.

Mulla Abdurahmon tancha yonigʻa kelib oʻlturdi va yer ostidan Shahodat muftiga qarab iljaydi.

– Shunday qilib, mirzo Anvarni qiz bilan qochirdingiz?

– Qochirish boʻlsa, qochirdiq va lekin qordan qutulib yomgʻurgʻa tutildi, mulla Abdurahmon.

– Men eshitdim.

– Kullu yavmin batar<sup>6</sup> – bunisi undan ham qabihroq boʻldi... Besh kundan beri yuraklar zardobka toʻldi, mulla Abdurahmon, – dedi mufti. – Kecha biznikiga yoʻqlab borgʻan ekansiz, siz ketibsiz, men kelibmanda, koʻb afsus qildim. Bu kun mulla Kalonshohni olib, siz bilan suhbatlashib qaytayliq, degan niyatda...

– Qulliq, taqdir, qulliq, – deb mulla Abdurahmon qimirlab oʻlturdi. – Men Anvar bilan Sultonali mojarosini faqat kecha mirzo Boisdan eshitdim. Bu toʻgʻrini aniqroq bilish uchun janobingizning xizmatigingza borgʻanim edi...

– Xoʻsh, havodis<sup>7</sup> nima?

<sup>1</sup> **Qadrnoshunos** (*forscha+arabcha*) – qadr bilmaydigan, yaxshilikni bilmaydigan.

<sup>2</sup> **Beh** (*forscha*) – yaxshi, afzal; durust.

<sup>3</sup> **Innalloha maʼassobirin** – Oloh sabr qilgʻuchilar bilan birgadir (oyat) (muall.).

<sup>4</sup> **Hovoncha** (*arabcha*) – oʻgʻir(cha), keli(cha) – urib yanchish, tuyish uchun ishlatila-digan, yogʻoch yoki metalldan yasalgan maxsus idish.

<sup>5</sup> **Tepchima doʻppi** – yoqa va shu kabi joylarida ipni sirtga chiqarmay mayda qavib tikilgan doʻppi.

<sup>6</sup> **Kullu yavmin batar** – ahvol bundanda yomonlashdi, battarlashdi.

<sup>7</sup> **Havodis** (*forscha*) – nima gap, qanday voqea yoki hodisa (yuz bergan).

– Havodismi? Qani so‘zlang-chi, mulla Kalonshoh.

Kalonshoh, so‘zlay bering, degandek Shahodat muftining o‘ziga ishorat qildi. Shahodat mufti ko‘zini yuminqirab, havodisdan sahifa ochdi:

– Havodis shulki, Anvar borasig‘a sizning olg‘an nishoningiz jiddan to‘g‘ri tushib, biz kutkandin ham ziyodaroq samaraga erishkan, ya‘ni mag‘rur go‘dagimiz qizni alib qochqan...

Mulla Abdurahmon hakimona iljaydi, Shahodat mufti davom etdi:

– Chamasi, nisfi shab – yarim kecha asnosi, do‘stim, deb yonida qiz, Sultonaning uyiga kelgan. Sultonali tong otquncha ikki go‘dakning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘latib chiqqan, erta bilan ular uyquda yotqanda, Sultonali o‘rdag‘a yugurib kelgan; voqi‘ani tunqotarg‘a so‘zlab, tunqotar xong‘a yo‘liqib, xonning buyrug‘i bilan yonlarig‘a yasovullar olib kelsalar, oshiq-ma‘shuq yo‘q, ular joyida Sultonaliga atalg‘an bir sabnoma<sup>1</sup> bor... Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo‘yg‘an va tong vaqti, ular uyquda ekan choqda g‘oyib bo‘lib, yana shubhani ortdirg‘an bo‘lsa kerak. Sultonali Anvar bilan qizni tutib beralmasa ham, baharhol, xong‘a yaxshi ko‘rinib, Anvarning o‘rnini olishqa muvaffaq bo‘ldi. Barcha havodis mana shundan iborat.

Abdurahmon hikoyani eshitkandan keyin, bir necha vaqt so‘zsiz o‘lturdi. Tanchadagi olovni tuzatar ekan, yer ostidan muftilarga qarab iljaydi.

– Mirzo Boisdan ham shu maol<sup>2</sup>ni eshitkan edim, – dedi nihoyat.– Janoblarning fikrlari, balki, to‘g‘ridir, ammo men bu maoldan bir oz shubha qilaman...

– Ya‘ni, masalan?

Abdurahmon qo‘lini o‘ynab, yana bir oz sukutda o‘lturdi, so‘ngra labi ohista-ohista ochilib yumila boshladi:

– Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o‘yunidir, deb o‘ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardan maxfiy emasdirkim, biz o‘zaro qanday yaqin bo‘lsa, Sultonali bilan Anvar ham o‘zaro shunday qalin do‘st edilar. Bino-barin, aqlg‘a «qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qur ekanmi?» degan savol keladir; janoblar shu borani qanday tushundilar ekan.

Shahodat mufti Kalonshohka qarab qo‘ydi, Kalonshoh par-

<sup>1</sup> Sabnoma – so‘kib, tahqir qilib yozilg‘an xat (muall.).

<sup>2</sup> Maol (arabcha) – mazmun, ma‘no.

vosizroq ko‘rinar edi. Orada yana bir necha vaqt sukut hukm surdi.

– Sultonali sarmunshiy bo‘lish uchun do‘stidan kechsa ham mumkin, – dedi mufti. – Ikkinchi tarafdin, sizning fikringiz ham ehtimoldan ba‘id<sup>1</sup> emas.

– Sultonali do‘stidan kechmay turib ham bu nayrangni qilsa mumkin emasmi, domla?– deb kuldi Abdurahmon. – Masalan, xon olmoqchi bo‘lg‘an qizni qochirg‘uchi Anvar ikki boshdan-ku, qaytib sarmunshiy bo‘lolmaydir, boshqa tarafdin, xiyonatkor do‘sti bo‘lib tanilg‘an Sultonalinining ham hayoti tahlika ostida turadir... Bas, shu holda bu nayrang to‘qilg‘an bo‘lsa, yana to‘g‘risi, shu hiylani Sultonalinining amniyati talab qilg‘an bo‘lsa, siz bilan men g‘ayraz qanday mantiqqa suyana olamiz?

Shahodat mufti o‘rnidan turdi, Abdurahmonning yoniga kelib, orqasini qoqdi:

– Rahmat, o‘g‘lim, rahmat. Seni tuqqan onangg‘a va o‘qutg‘an ustozingga rahmat.

Abdurahmon yerga qarag‘an holda iljaydi. Shahodat mufti uning aqlig‘a tahsin o‘quy-o‘quy, nos chakib o‘z joyig‘a o‘lturdi.

– Mulla Kalonshoh-a, shu gap bizning aqlimizg‘a aslo kelmabti-da?

Shahodat muftining xursandligiga qo‘shulmay, tund o‘lturg‘uchi Kalonshoh, parvosiz qo‘lini olovg‘a isitdi.

– Men shu andishani ham qilg‘an edim, – dedi bir ozdan keyin Kalonshoh, – lekin aqlim bovar qilmag‘an edi va xozir ham bu fikrga qo‘shula olmayman.

– Sabab?

– Bois shulki, Sultonali Anvarga suiqasd qilmag‘anda ham unga hech gap yo‘q edi. Ammo ul xong‘a qarobat<sup>2</sup> hosil qilish uchun aztahidil Anvarning qasdig‘a tushkankim, bunda shubha yo‘q.

O‘zgalar tarafidan so‘zlangan fikr yoki bahs har qancha mantiqiy bo‘lganda ham Kalonshohning qarshi chiqish fe‘li bor edi. Uning bu fe‘liga yaxshi tushunib qolg‘an Shahodat mufti bosh chayqadi.

– Biz yanglishamiz.

<sup>1</sup> Ba‘id (forscha) – uzoq.

<sup>2</sup> Qarobat (arabcha: yaqinlik, qarindoshlik; taxminiylik). Bu yerda yaqin bo‘lish, yaxshi ko‘rinish ma‘nosida kelgan.



Kalonshoh yana yuqoridag'i so'zini takrorladi:

– Bachi ma'ni yanglishamiz? Mulla Abdurahmonning o'zi ham o'ylab ko'rsin, basharti Sultonali do'stliq yuzasidan Anvarni qochirib yuborg'anda ham unga hech bir zarar yo'q edi. Bas, Sultonalining hamma harakati to'g'ri, Anvarga xiyonat qilishi mansab umidida ekanligi shubhasiz.

Orada o'z fikriga qarshi shuncha raddiya<sup>1</sup> o'tsa ham, parvosiz, go'yo muroqabada<sup>2</sup> o'lturguchi mulla Abdurahmon yana iljayib bosh ko'tardi.

– Sultonalining Anvar bilan ati-qatilig'i o'rdadan har kimga ma'lum-ku, domla. Basharti o'z uyida turg'an Anvarning xiyonati to'g'risida Sultonali o'zini tag'ofulg'a<sup>3</sup> solsa, mardumning<sup>4</sup> ko'ngliga nima gap kelar edi, ayniqsa, janoblaringiz qanday andishaga tushar edingiz... Ojizning fikrimcha, ul nayrangbozlar bir o'q bilan necha qo'shni urganlar, masalan, janobga Sultonalining sadoqati zohir bo'ldi, sarmunshiylik vazifasiga beozor o'lturib oldi va uchunchidan, mardum ko'zini bo'yadi.

– Baharhol... baharhol Anvarga qarshi chiqmag'anda ham Sultonalini na xon va na biz ayblay olar edik.

– Xo'sh?

– Xo'sh-po'shi yo'q, – dedi qizishib qolg'an Kalonshoh, – biravning ustiga ayb qo'yish uchun, shar'an shohidlar lozim, da'voni isbot qilish gerak... Xax-xax-xax, sen falonchi gunohkor bilan do'st eding, deb kishini ayblash. Masalan, ushbu da'voni qilg'uchi o'zingiz ham ularning maslahati ustida bo'lmag'ansiz; faqat shundaymikin, degan mulohazada so'zlaysiz, holbuki sizning so'zingizning shar'an to'rt pullik qiymati yo'q, uka...

Kalonshoh juda qizishib ketdi, «shar'an so'zingizning to'rt pullik qiymati yo'q, uka» tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo'zarib oldi.

– Menim so'zim bir mulohaza, taqdir, mulohaza shar'an isbotka buyurilmag'an. Hokazo, o'zingiz aytkancha, go'yo

<sup>1</sup> **Raddiya** (*arabcha*) – inkor qilish, rad javobi – biror xabar, ma'lumotni rad etuvchi, ularning noto'g'riligini yoki asos soxtaligini isbotlovchi rasmiy bayonot.

<sup>2</sup> **Muroqaba** (*arabcha*) – kuzatish; mushohada qilish; nazorat qilish, tekshirish. O'zi, o'z ichki dunyosi haqida fikr yuritish, mushohada qilish.

<sup>3</sup> **Tag'ofil** (*arabcha*) – o'zini e'tiborsiz, beparvo, beg'amlikka solish; bilib bilmaslikka olish.

<sup>4</sup> **Mardum** (*forscha*) – odam(lar), kishi(lar).

masnad<sup>1</sup> uchun jon otib yurg'an Sultonaning zohir<sup>2</sup> harakatiga ham ishonib bo'lmaydir.

– Shuning kabi, siznikiga ham vusuq<sup>3</sup> yo'q.

– Men aytayapman-ku...

Janjalning kattaga ketishini fahmlagan Shahodat mufti Abdurahmonning so'zini bo'lib, orag'a tushdi:

– Bahs nima hojat? Mulla Kalonshohniki ham to'g'ri, sizniki ham haqiqat... Ammo hozirgi masalamiz qaysi fikr to'g'rilig'i ustida emas, qaysi yo'l bilan Sultonani bu o'rundan olib tashlaymiz borasida.

Ko'b yillardan beri birga yurib, o'z ruhiga tushunib qolg'an Shahodat muftining bu so'zi bilan Kalonshoh ozg'ina yorishdi.

– Ana bu boshqa masala, – dedi, – mulla Abdurahmonning fikrini to'g'rimi, egrimi, surishtirmay, unga faqat bir tadbir deb qarasangiz bu boshqa gap, ammo mahzi haqiqat<sup>4</sup>, deb bilish busbutun xato.

Shahodat mufti bu masalani yopib, ikkinchi tarafka o'tishka shoshildi. Chunki Abdurahmon yana bir iljayib ikki og'iz so'z aytsa Kalonshohning og'zini tikish og'ir oshar, Shahodat mufti buni yaxshi onglar edi.

– Xalos, xalos, – dedi mufti, – menda voqi' holog'i farah<sup>5</sup> ham faqat shuning ustida, yo'qsa, ilmi g'aybni<sup>6</sup> kim bilibdir. Ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bo'lur.

Muftining siforish<sup>7</sup> so'zlashi bilan Kalonshoh juda ham o'ziga kelib qoldi va «halli qanday» deb yovoshqina so'rab ham qo'ydi.

– Halli oson, juda oson, – dedi mufti. – Biz mulla Abdurahmonning mulohazasi ayni bilan janobga bir ariza yozamiz, xolos.

Mulla Abdurahmon namoyishkor Kalonshohka qarab, o'ng

<sup>1</sup> **Masnad** (*arabcha*: kursi; suyanchiq; martaba) – yuqori martaba, o'rin, amal.

<sup>2</sup> **Zohir** (*arabcha*: aniq, ravshan; tashqi ko'rinish) – sirt, sirtqi tomon, tashqi ko'rinish.

<sup>3</sup> **Vusuq** (*arabcha*) – ishonch, asos.

<sup>4</sup> **Mahzi haqiqat** – aynan to'g'ri, faqat to'g'ri gap.

<sup>5</sup> **Farah** (*forscha*) – shodlik, xursandlik; shodiyona, quvnoqlik, vaqtichog'lik. sevinch. **Voqi' holog'i farah** – boyagi xursandlik holati.

<sup>6</sup> **G'ayb** (*arabcha*) – 1) yo'qlik, g'oyiblik; barcha ko'rinmas narsalar; kelajak; 2) inson sezgi a'zolari bilan his eta olmaydigan, bilish imkonlari bilan idrok eta olmaydigan hodisalar. Mo'min-musulmonlar g'aybga imon keltirish bilan boshqalardan ajralib turadilar. **Ilmi g'ayb yoki g'ayb ilmi** – sir bilish, ko'rinmaydigan narsalarni ko'rish, kelajakda bo'ladigan voqeani oldindan bilish. Bu xususiyat faqat Parvardigorga xos.

<sup>7</sup> **Siforish** (*forscha*) – 1) topshiriq, vazifa, buyurtma; farmoyish, amr; tavsiya, kafolat; 2) o'git, nasihat; 3) e'zoz-ehtiroim, iltifot, mulozamat yoki xushomad (**Bu yerda shunday ma'noda**).

qo'li bilan manglayini qashidi... Ammo Kalonshoh qanoatlanmag'andek qilib bosh chayqadi.

– Xon Sultonaning sadoqatiga qanoat hosil qilg'an, yana shu holda bu arizaga ishonadirmi?

– Agar haqiqatni aytilsa, xon o'zidan boshqa hech kimga e'timod qilmaydir, – dedi mufti, – xayr, Sultonliga e'timod qo'yg'an ham bo'lsin, yana bu taqdirda ham biz arizani yoza beramiz. Nega? Agar ishonsa, Sultonini o'rdadan haydar, ishonmasa, yana bizga nima zarar: bu gap sizga qanday o'xshaydi, mulla Abdurahmon?

Abdurahmon ko'zini katta ochib, to'g'ri topqan kabi bosh irg'atdi.

– Arizamiz o'runlasa ko'b yaxshi, bil'aks o'rdadan o'zimiz haydalurmiz, – dedi Kalonshoh.

– Nima uchun?– deb so'radi mufti.

– Axir arizani kim berganligi ma'lum-ku.

– Yo'q, – dedi mufti.– Biz ariza ostig'a imzo qo'ymaymiz, Kalonshoh.

– Imzosiz ariza mu'tamad bo'lmas.

– Mu'tamad bo'lsin-bo'lmasin bizga nima zarar; baharnav<sup>1</sup> shu ehtimolni xonning qulog'ig'a yetkarsak basda, Kalonshoh.

– Kimning dastxati bilan yozasiz?

– Bu oson, siz bunisidan xotirjam bo'ling, Kalonshoh!

Kalonshoh noiloj ariza yozishqa rog'ib<sup>2</sup> bo'ldi. Arizaning shu majlisda, mulla Abdurahmon huzurida yozilishi muvofiq ko'rilib, mufti tahrirga o'lturdi.

## LIV Fasl. IKKI XIL SADOQAT

Kechasi yomg'ur savalag'andek yog'ib turadir... Qopqorong'i, olti qarichliq tor ko'chaning muyushida turg'an bir ko'laga yomg'urdan qochqan kabi, kichkina eshik panasiga siqilg'an va zo'r berib eshikni qoqadir.

– Kim?

– Men, oching.

– Safarmisan

<sup>1</sup> Baharnav(\*) (*forscha*: ba+ har qanday; yo'1, usul, yo'1, vosita) – 1) har qalay, har holda; durust, bir nav'i; 2) qanday qilib bo'lmasin, qanday qilib bo'lsa ham, amallab (**bu yerda shu ma'noda kelgan**).

<sup>2</sup> Rog'ib (*arabcha*) – rag'bat qiluvchi, xohish, mayl bildiruvchi, moyil. Rog'ib bo'lmoq – moyil bo'lmoq, rozi bo'lmoq.

– Ha.

Eshik zanjiri «shirq»etib ko‘tarildi. Yomg‘urda bo‘kkan Safar o‘zini torg‘ina, oldi ochiq yo‘lakka olib, eshikni zanjirladi.

– Tinchlikmi?

– Tinchlik, – dedi eshik ochqan kampir.

– Nega kech qolding, Safar?

– Yomg‘urni ko‘rmaysizmi...

Safar kampirning orqasidan so‘zlanib sahnga chiqdi. Tor sahning yo‘lak qatorida, to‘rt bo‘yra eni kattaligida osti bir qarichqina yerdan ko‘tarilib ishlangan katalak ayvonning to‘r toqchasida qora charog‘ sasib yonadir. Sandalning bir chekkasida g‘o‘za sug‘urib o‘lturguchi bir keksa ko‘r kishi qo‘lidagi g‘o‘za po‘choq va sug‘urgan paxtasi bilan boshini baland ko‘tarib havlidagi so‘zga quloq solib turadir. Sandalning ikkinchi tarafida, yuzini ro‘ymoli bilan yashirg‘an, xotinmi, qizmi – o‘lturibdi, sandalning uchunchi tomonida, bir to‘da chiqarilg‘an paxta orasida chig‘irig‘ ko‘rinadir...

– Oyim qizim bizni judaam uyaltirdi, Safar, – deb so‘zlandi kampir. – Shuncha qaytarsaq ham bo‘lmaydi, erta-kech otasining yonida g‘o‘za sug‘urishadi.

– Singlim zerikkandir-da, opa, – dedi Safar.

– Eson-omon o‘lturibsizmi, pochcha, assalom alaykum.

Ko‘r kishi boshini yana ham balandroq ko‘tarib, ikki tarafka chayqadi.

– Vaalaykum salom... Ha, nega jim bo‘lib ketding, Safar? Mullaning oldig‘a kiraqo, yomg‘urda ividingmi, xo‘b.

Safar tanchadagi yuzini yashirg‘uchig‘a qaramasliqqa tiri-shib, daromadi ayvondan bo‘lg‘an hujra eshigiga chiqdi.

– Eski hikoyalarigizni so‘zlab, opamni zeriktirmay o‘lturibsizmi, pochcha?

– Ha, ha, – dedi ko‘r kishi, – qizimning o‘ziyam hikoyaga juda usta ekan-da, dam men hikoya aytaman, dam oyim qizim aytadi, asti qo‘ysang-chi bizni, Safar.

– Bali, bali.

Safar hujraning eshigini ochib, ichkariga kirdi. Sandal ustiga qora charog‘ qo‘yib, oldig‘a kitob yozg‘an Anvar Safar bo‘zchining istiqbolig‘a qo‘zg‘aldi.

– O‘lturing, o‘lturing, shu ishingiz yomonda, mirzam... Salomatmisiz? Zerikmadinglarmi? Uch kun kechikdim-a. Men-

dan xafa bo'lg'an chiqarsiz-ov... Ha deganda u yoqdan xabar bo'lavermadi, uning ustiga ayollar navqaslanib<sup>1</sup> qoldi...

– Zarari yo'q, toza ivibsiz, Safar aka. Asli bu kun ham chakki ovora bo'lgansiz.

– Jazzasi choponni solib tashlash-da, mirzam, – dedi Safar choponini yeshib.– Qani o'lturing... Yurtda tinchlik, yer-do'st-dan sizga salom, mirza og'ayningiz xotirjam mirshaboshiligni qilaypti... Men bo'lsam, sengayam bali, ustozingayam bali, deb yuribpan.

Anvar iljaydi. Safar bo'zchi sandal yonig'a o'lturib, mahsi-sining qo'njidan bir qog'oz oldi. Anvar qog'ozni undan olib sandal ustiga qo'ydi. Qoziqda osilgan choponini keltirib, Safar-ning yaxtakchan yelkasiga yopti.

– Shamollaysiz, Safar aka, o'ranib o'lturing.

– Hamma vaqt koyib qog'ansiz<sup>2</sup>da, mirzam, – dedi Safar va ustiga yopilg'an beqasam choponining astar-avrasini tekshirdi.– Toza yaxtak kiymagan edim, buningiz menga uval-da, uka.

Anvar o'lturar ekan, e'tiborsiz qo'l silkdi va sandal ustidan xatni olib ochdi:

*«Baland maqom, loyiqi e'tirom, burodarim mirzo Anvar.*

*Do'stlar shod, dushmanlar g'amgin, yavmi saodat<sup>2</sup> yaqin-dir. Falak kajravligi ahli salo<sup>3</sup> ustiga har ro'z har rang<sup>4</sup> javr tug'dirsa ham, ba hamahol<sup>5</sup> layli zalimaning<sup>6</sup> yavmi navirasi<sup>7</sup>, riyozati qaviyaning<sup>8</sup>, ajri azimasi<sup>9</sup> bordir. Janobi sarvari koinot<sup>10</sup>, mushriklar sharridin<sup>11</sup> salanmo uchun o'zlarini g'or panohiga olg'an erdilarkim<sup>12</sup>, bu amsolingiz kabi ummati haqiqiylarg'a<sup>13</sup> sunnat bo'ldi. Ba'da, kamina do'sti xosdin arzi*

<sup>1</sup> Navqaslanmoq (forscha) – holsizlanmoq, betob bo'lmoq, ojizlanmoq.

<sup>2</sup> Yavmi saodat (arabcha) – saodatli, baxtli kunlar (vaqt, davr).

<sup>3</sup> Ahli salo (arabcha) – oqil, halol, to'g'riso'z insonlar.

<sup>4</sup> Har rang (forscha) – turlicha, har hil, turfa.

<sup>5</sup> Ba hamahol (arabcha) – doimo, har doim.

<sup>6</sup> Layli zalima (arabcha) – qora tun, zulmat, jaholat.

<sup>7</sup> Yavmi navira (arabcha) – nurli kun, yorug'lik, ezgulik.

<sup>8</sup> Riyozati qaviya (arabcha) – katta, ulkan mashaqqat, zahmat.

<sup>9</sup> Ajri azima (arabcha) – ulug', buyuk mukofot, nasiba.

<sup>10</sup> Janobi sarvari koinot – Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimiz nazarda tutilgan.

<sup>11</sup> Sharr (arabcha) – yomonlik, gunoh ish.

<sup>12</sup> Muhammad payg'ambar islomni oshkora targ'ib etayogan davrida Makka mushriklarining ta'qibidan Madina shahriga qochib, Abu Bakr va boshqa sahobalar bilan birga yo'lda g'orga yashirinib jon saqlaydilar. Sultonali shunga ishora qilaypti.

<sup>13</sup> Ummati aviy (arabcha) – payg'ambar yo'lidan borganlar, payg'ambarning izdoshlari; ummatlar.

ixlos<sup>1</sup> shudirkim, barcha tadbirlarimiz shohi majnunga<sup>2</sup> va g'ayri ashqiyog'a<sup>3</sup> baayni afsun kabi ta'sir qilib, o'tkan xatda yozg'an muloha-zalarim xayoldin amalka oshmoqda. Kaminaga xonning e'timodi yondoshmoqda va ul andishalarimiz ehtimoli bizdin uzoqlash-moqdadir. Mojaro bir necha kun sir bo'lib kechsa ham, alhol o'rdadin ba'zilar bu sirga voqif bo'lg'ang'a o'xshaydirlar, ma'ahozo<sup>4</sup> ochiq so'zlashka hech kimda had yo'q. Ammo, ikkinchi tarafdin, sizni izlashka maxfiy buyruqlar berildi, darbo-za beklari yonig'a xufiyalar yuborildi, binobarin, sizdin iltimos, ushbu xavflar ko'tarilguncha benihoyat ehtiyotda bo'lish, Toshkand niyatini bir necha haftaga mavquf<sup>5</sup> qo'yishdir. Xizma-tingizga Safarboy bilan ushbu xatni ozg'ina kechiktirib yubori-shim boisi ham, mazkur xavflar borlig'idin bo'lib, ma'lumingiz-dir, Safarboyning tabiatida andak beboklik<sup>6</sup> va loqaydlik bor. Binobarin, muxobaroti digarimizni<sup>7</sup> uning ayoli vositasida qilsammi, degan andishadaman. Zero ayol kishi, baharhol, mardum nazariga yaxshi va kunduz kunlari borsa ham xavfsiz. Ammo boshqa ehtiyot o'zingizga munhasir<sup>8</sup>. Zinhor ba saddi<sup>9</sup> zinhor, hamsoyalardin xotirjam bo'linmasin. Soniy – sizga te-gishlik g'ariba<sup>10</sup> xabar shudirkim, kecha o'rdadin aytib kelsam, mehmonxona sahnida uch nafar yigit o'lturibdir. Har uchavi ham bizning Farg'ona kiyimida bo'lmag'an bu yigitlarni ariza yozdirg'ali kelganmi, deb o'yladim. Salom-alikdin so'ng ularni mehmonxonag'a olib kirdim. Istifhomi<sup>11</sup> sababi tashrifdin so'ng, yigitlardin biri menim kim ekanligimni aniqlab oldi, ba'da, afsus chekib, sizning mojarongizni so'zladi. Men tamom hayratda qolib, xufiyalarmi, degan andishaga tushdim. Bu hodisani kim-din eshitdingiz, mirzo Anvarga qanday aloqangiz bor, deb so'ra-dim. Opamdin eshitdim, o'zim mirzo Anvarning

<sup>1</sup> Arzi ixlos (arabcha) – ixlos bilan qilingan arz, samimiy arz.

<sup>2</sup> Shohi majnun (arabcha) – oshiq, devona xon.

<sup>3</sup> G'ayri ashqiyog (arabcha) – begona raqiblar, dushmanlar.

<sup>4</sup> Ma'ahozo (arabcha) – shu bilan birga, lekin, shunga qaramay.

<sup>5</sup> Mavquf (arabcha) – to'xtatish, orqaga surish, cho'zish; tegishli.

<sup>6</sup> Bebok (forscha: qo'rqmas, jasur; qo'pol, dag'al) – hech narsadan qo'rqmaydigan, hech qanday nojo'ya ishdan qaytmaydigan, hayiqmaydigan; tap tortmaydigan; shum, battol. Bu yerda mulohazasizlik ma'nosida kelgan.

<sup>7</sup> Muxobaroti digar (forscha) – bundan keyingi, boshqa xatlarimni.

<sup>8</sup> Munhasir (arabcha) – bog'liq, havola.

<sup>9</sup> Zinhor ba saddi zinhor, hamsoyalardin xotirjam bo'linmasin – qo'shnilaringizdan yuz bora ehtiyot bo'ling, ularga sira ishonmang.

<sup>10</sup> G'ariba (arabcha) – ajab, taajjubli, hayron qoladigan.

<sup>11</sup> Istifomi (arabcha) – so'ramoq, bilmoq.

og'asi bo'laman, degan javobni berdi. Men taajjubda qoldim, zero og'angiz borlig'ini sizdin eshitmagan edim. O'tkan xatimda yozg'a-nimcha, bu yigitka ham opangizg'a bergan javobni aytdim, ya'ni o'zimni oqlash uchun hodisaga birmuncha yolg'on aralastirib so'zladim. Yigit-og'angiz bo'lmish afsus chekti, o'n yillardin beri Qo'qonda bo'lmag'anlig'ini, buxoroliq bir sarkarda eshigida xizmat qilg'anlig'ini, qarindoshlarini ko'rish uchun Buxorodan Samarqandga kelib, u yerdagi katta og'asini topolmag'anini, undan yong'a o'tib, bunda ham sizga yo'liqolmay olg'anini so'z-ladi. Ba'daz uning ustidagi shubham biroz zoyil<sup>1</sup> bo'lib, ko'ngil ko'tardim. Og'angiz bo'lmishning yonidag'i yigitlar bizning bu tarafning kishisiga o'xshamaydirlar. Bular og'angiz bo'lmish-ning hamrohlari, bu yonni tomosha qilg'ali kelgan emishlar. Sizga og'aliq da'vo qilg'uchining ismi Qobilboy, tusi sizga o'x-shab kelsa ham, o'zi to'la, pahlavon yigit va har uchavi ham zabardast ko'rindilar. Harchand istasam ham, ularni ovqatqa to'xtatib bo'lmadi. Siz kechagi maktubingizda menim sarmun-shiy tayinlanishimdan tashvishlanib, orada muftilar, Abdurah-monlar bor, sizga birar zahmat yetarmi, degan andishani yozib-siz. Voqi'an, menim uchun bu xavf bor, bundan ko'z yumib bo'lmas. Modomiki, «sadoqatim xon hazratka oftobdin ravshan-roq bo'ldi, devonda mendin g'ayri mavsugroq<sup>2</sup> kishi topilmadi, ba'daz sarmunshiylik menga havola qilindi, xolos». O'tkan xatimda yozg'animdek, bu «marhamat»dan bosh tortishga hech bir yo'l topmadim, agar uzr bayon qilsam, sizni tutib berishka bo'lg'an harakatimning soxitaligi ochilish ehtimoli bor edi. Chunki xong'a sadoqat bizning «odamlar» fikricha, birar manfaat taqozosidir. Agar men xong'a «sadoqatlik qul» ekan-man, bu «sadoqat» zamirida bir manfaatim bo'lmog'i lozim-dirkim, ul ham o'z do'stimni holog'i «sadoqatim g'a» qurbon ilib, evaziga sarmunshiylik masnadini olishimdir. Basharti shu masnaddin bosh tortsam, menga ishonchsizlik tug'ulishi shubha-siz edi. Bas, shu majburiyatda men bu vazifani qabul qildim. Menga zahmat yetishi to'g'risida siz tashvish cheka ko'rmangiz, modomiki, taqdirim shu ekan, tag'yiri<sup>3</sup> mumkin emasdir. Bu yo'lda anchali zahmat chekmayin

<sup>1</sup> Zoyil (arabcha) – yo'q, bartaraf bo'luvchi. Zoyil bo'lmoq – yo'q bo'lmoq; bartaraf bo'lmoq.

<sup>2</sup> Mavsug (arabcha) – ishonchli.

<sup>3</sup> Tag'yir (arabcha) – o'zgartish, boshqacha tus berish.

*va hatto boshim ham ketmasin, menim uchun qiymatlirog'i insonga sadoqat va shu sadoqatni to o'lguncha qo'ldin bermaslikdir. Singlimiz Ra'nobibiga salom aytursiz. Otonalariga hech bir zarar bo'lmadi, faqat «hadya» larnigina qaytarib oldilar. Oxirg'i so'zim yana ehtiyotlik ustida: zinhorzinhor har ehtimolga qarshi hozir turilsin.*

*Addoi mirzo Sultonali».*

Anvar maktubni tugatib, oldida yonib turg'an qora charoqqa tutib, kuydirdi.

– Ehtiyot kerak-a, Safar aka?

– Albatta, mirzam, albatta.

– Bu kech qolasizmi, ketasizmi?

– Ketmasam bo'lmaydi, Sultonalingiz xafa qiladi, uka.

Anvar kuldi.

– Ketsangiz, xat yozib turishim kerak ekan, – dedi va toqchadan siyoq-qalam oldi. – Isidingizmi, Safar aka?

– Ha, ha... Jon kirib qoldi, mirzam.

\* \* \*

... Biz o'tkan 51-nchi faslda Anvar bilan Ra'noni Sultonaling darbozasida qo'yib, 52-nchi faslga sakragan edik. Shunda chala qolg'an bir necha ahvolni hozir aytib kechmasak, muhtaram o'qug'uchig'a Sultonali masalasi bir oz onglashilmay qoladirg'an ko'rindi. Shundog'ki, Anvarning majburiyat ostida Ra'no bilan kelishi Sultonolini juda ham shoshirib qo'ydi. Ikki orada kuchlik muhabbat borlig'ig'a yana bir karrâ amalda qanoat hosil qilg'anidek, ularning istiqbolini qorong'iliqda ko'rdi. Yana shu holda matonatini yo'qotmay, «do'sting uchun qon yut» maqolidagi kabi, ularni qahramonliqda tabrik etdi. Anvar esa faqat o'z istiqboli ustidagina qayg'irib qolmay – chunki Ra'no va o'zining istiqbollari mundan keyin yo chik, yo puk edi – ammo ikki o'rtada bu botqoqqa toyib ketishi aniq bo'lg'an Sultonali masalasida jiddiyroq o'yladi. Zero, mulla Abdurahmonga ilhom bo'lg'anidek, Anvar tinchkina Ra'noni yonig'a olib qochsa, albatta, Sultonali ushlanar edi. Mulla Abdurahmonning fikrlaridan tashqari, Sultonaling o'z xotini Ruzvonbibi orqaliq maxdumning uyi bilan qiling'an kitob aloqasi ham bor, eng oxirda



mufti va Abdurahmonlarning Sultonaliga kuchlik adovatlari... Shu mulohazalarini Sultonaliga bayon qilib, fikr so'rag'anida, undan ahamiyatsiz javob oldi. Chunki do'stliq taqozosi har qanday og'irliq qarshisida matonat, ko'krak kerishdir, boshing'a tog' yiqilish ehtimoli bo'lg'anda ham turg'an joyingdan siljimaslikdir – Sultonalig' shu eski qonun tobi'laridan yagona vakil edi. Lekin Anvar o'z do'stini balog'a qo'yishni xohlamadi. Har ehtimolga qarshi chora ko'rishni lozim topib, o'qug'uchiga ma'lum yo'llarni, Sultonaliga taklif qildi. Tabiiy, ul ko'ndi. Shu yo'sun ertaga o'ynalaturg'an tomoshag'a Sultonalining xotini ham o'rgatildi, hatto yarim kechada qo'shni Karimboy ham uyqudan uyg'otilib, bir tillo barobariga yolg'on guvoh tiklandi va shu ondan boshlab Anvar bilan Ra'no Karimboyning uyiga chiqib yashirindilar.

Ma'lumdirkim, ertasi kun har kim o'z ro'lini yaxshi ado qilib, ish juda silliq o'tdi, hatto bu o'rtada Solih maxdum ham oqlanib qoldi. Sultonalig' shu kun kechqurun Toyir akani Safar bo'zchig'a yubordi. Chunki bu ishda sirdon bo'lish va Sultonalig' ko'maklashish uchun eng muvofiq, ham ishonchlik kishi birdan bir Safar bo'zchi edi. Xuftan asnosida Safar bo'zchi yetib keldi, voqi'ani eshitib, daf'atan mirzoni yashirish uchun shaharning chetrog'ida bo'lg'an yaznasining uyini jo'pladi. Darhol yaznasi, ya'ni opasi uyiga yugurib joy hozirlatdi va shu kechasidayoq Anvar bilan Ra'noni eltib joylashtirdikim, qolg'ani o'qug'ichimizg'a ma'lumdir. Ammo Anvarning hiylasi xon va yaqinlarig'a shunday yaxshi ta'sir qildikim, biz buni Sultonalining sarmunshiy belgilanishidan onglaymiz.

\* \* \*

«Qir-qir» xat yozib borg'an Anvar, savog'ich qalam uchini sochig'a suykab, qalamga yopishqan los qilchig'ini tushurar ekan, Safar bo'zchig'a yuz o'girdi:

– Mundan so'ngg'i kelishingizda mirzo Sultonalig' yoningizg'a bir kishi qo'shsa kerak. Siz shu yigitni bu yerga olib kelasiz, o'zi menim og'am bo'ladir, xo'bmi?

– Xo'b, mirzam, xo'b. Mirza og'ayningizg'a shuni ta'yinlab bitsangiz bo'ldi-da.

– Shunday, men bityapman.

Anvar yana yozuvga qaradi, Safar bo'zchi sandal ko'rpasiga o'ranibroq o'turdi. Tashqarida yomg'ur tinayozib, kuchlik shamol qo'zgalgan, yomg'ur tomchilarni goho tom ustiga to'pillatib qattig' tushurar, daricha tirqishidan kirgan shamol bilan qbra charog' chayqalib-chayqalib yonar, ayvondagi kampirning chig'irigidan g'ijillab chiqqan tovush mushuk bola mavlagan kabi hujraga eshilib turar edi.

## LV Fasli. BARIMTA

Kun choshkohdan oshib, Chorsuda xalq olag'oviri boshlan-  
sa ham, shundagi bo'sh do'konlarning birida uch nafar yigit  
hanuz dong qotib uxlar edi. Chorsuda bo'lib turg'an tars-to'polon  
go'yo bu uch yigitni allalar edi. Boshig'a bittadan shaparak<sup>1</sup> kir  
yostiq qo'yib, ostig'a yalanqavat taqir ko'rpacha yozg'an va  
ustiga guppi choponini yopib, yana shu holda bahuzur xurрак otib  
uxlag'an bu uch yigit musofirga o'xshar edilar. Ular bu yo'sun  
rohat qilib yotqanda, taxtabandlik do'kon yonig'a tashqaridan  
birav kelib to'xtadi va hamma tovshini qo'yib, baqirib yubordi:

«To'xta, hovv Navro'zqul!»

Uxlag'uchilarning ikkisi pinagini buzmadi, ammo do'kon-  
ning to'rida yotqan chuvak bir yigit so'chib, boshini ko'tardi,  
uyquliq ko'z bilan atrofiga qarag'andan keyin, hamyoza tortdi<sup>2</sup>,  
kerishdi, so'ngra eng chetda yotg'uchig'a ko'zi tushib, yonidag'i  
yigitni turti:

– To'r, Sharif, tur, peshin bo'lubtu.

Ikkinchi yigit ko'zini ochdi:

– Ey, qo'ysang-chi, Rahem.

– Tur-da, axi, ana Qobelboy ham keb to'xtabtu.

Sharifboy yostiqdан burilib, yonidag'i uchunchi yigitka  
qaradi:

– Pala'nat, qachon kelgan ekan?

– Kim bilsin.... Inisini bo uchratdimikin? Qani, uyg'otchi,  
pala'natini.

Sharifboy yotqan joyidan qo'lini uzatib, Qobilboyning  
murtidan tortdi, Qobilboy g'inshib uyg'ondi:

– Tek yot, Sharif.

– Iningta yo'liqding-chi?

<sup>1</sup> Shaparak – yupqa.

<sup>2</sup> Hamyoza (forscha) – bir oz tortish; esnash, esnoq. Hamyoza tortmoq – esnamoq.

– Yo‘liqdim, ikavingga salom aytdi, – dedi Qobilboy va yuzini ulardan chetka o‘gurib oldi.– Bir oz tinch qo‘y, uxlayman.

– Ebi, ebi, – dedi Rahim, – burodaring ahvolini gapurda, axi. Bar padari uyquki, peshinga chikin<sup>1</sup> bo‘lsa; ko‘chaga bo‘lib yotkan to‘palangni go‘shingga ilasanmi?

– Kech keldim, ko‘b jovrama-chi, Rahim.

– Qorunni to‘yg‘uzib, so‘g‘un uxla akun, qorunlar ham piyoz bo‘lib to‘xtabtu, nonushtani qayerga qilamiz, Sharif?

– Choyxonaga qilamiz.

– Qani, sen ham kafaningni yopinib shunda chikin yotma, pala’nating bo uxlab ketdimi?

Ikkisi turib kiyina boshladilar. Rahim uzun bel-bog‘ini to‘g‘rilar ekan, bir qancha chaqa va tangalari yerga sochilib tushti.

– O‘ho‘, o‘ho‘, sabil, – dedi Rahim pullarni terib.– Xudo bularni ham ko‘b ko‘rdi chog‘i, akun, Qo‘qoning bizga to‘g‘ri kelmadi, ish topilmay-de, pul sochila-de, och qolamiz chog‘i, Sharif?

– Qobelboyning Qo‘qonjoniga la‘nat, – dedi Sharif, – loaqal, temirchi ham shogird olmaydi, bizga biron ish topib bermasa, to‘ppa-to‘g‘ri nar xar<sup>2</sup> Qobelning ustiga minamiz.

Bularning vaqirlashig‘a uyqusi o‘chib ketkan Qobil, to‘n-g‘ur-to‘ng‘ur bir narsalarni so‘zlab, yostiqdand boshini ko‘tardi.

– Chumchuqdek chirqillashdinglar-da, tojiklar, – dedi Qobil.– Ishsiz qolg‘an bo‘lsalaring, Toshkandga ketamiz.

– Ana-ana, yana topdi gapni, – dedi Rahim.– Valdir-valdir qilasan, Qobelboy akun, Toshkand borish uchun pul qani?

– Pul topiladi.

– Pul topiladi?– deb kuldi Rahim, – bu bepadar boybachchangizni qara, Sharifboy.

– Pul topiladi, – dedi yana Qobilboy va yaxtagining cho‘ntagaga qo‘l soldy.– Past odamlarsan-da: biring temirchining o‘g‘li, ikkinching shustagarning<sup>3</sup> bolasi...

– Voy-voy, – dedi Rahim, – nazari baland bo‘yoqchining o‘g‘lidan xafa bo‘llem!

Qobilboy cho‘ntagidan bir narsa olib, ularning oyog‘i osti-

<sup>1</sup> Chikin (forscha) – qadar, dovur, -gacha.

<sup>2</sup> Nar xar (forscha+forscha) – eshakning urg‘ochisi.

<sup>3</sup> Shustagar (tojikcha) – mato ohorlovchi.



g'a tashladi va o'zi og'zini katta ochib, hamyoza tortdi.

– Ana pul, kerak bo'lsa ol, sendek ifloslarni bir yil boqadi.

Rahim bilan Sharifboyning oyoqlari ostig'a ikki tillo kelib tushti, ular bir oltinlarg'a va bir Qobilboyg'a qarab qoldilar.

– Ebi, kimni o'ldurding?

– Ota kasbim odam o'ldirish emas.

– Inisi bergan, – dedi Sharif.

– Qani, ining bilan ko'rishdingmi, Qobel?

– Ko'rishdim.

– Odami nag'z bo'lg'an?

– Odami nag'z.

– Akun shu qochib yota beraykan-da, – dedi Rahim.– Biron chora boqsin-da, aytmading-chi, axi?

– Aytdim... Payt topib hammamiz Toshkand ketmakchi bo'ldiq.

– Bale-bale! – Dedi Rahim va Sharifka qarab qosh qoqti.– Toshkand ketamiz degani teksiz<sup>1</sup> emas ekan-da, pala'natingni. Hay, ish bitti, Qobelboy, Toshkandga yuramiz, o'rusingni ham bir ko'raylik<sup>2</sup>.

Sharif yerda yotqan ikki tilloni olib Qobilg'a uzatti:

– Ma, tillongni kissangta tiq, Qobel.

Qobil olmadi.

– Tillo o'zlaringga, ikaving bir tillodan bo'lib ol.

– Achchig'ingni qo'y, axi, biz senga dahanaki aytdik-da.

Qobil kuldi va parvosiz kiyina berdi.

– Olmaysanmi, pala'nat?

– O'zlaringta deyappan-ku, inim senlarga atab berdi.

– Bizdan qarzi yo'q-ku, axi?

– Tushunmagan odamlarsan-da, – dedi Qobil.– Inim qochib yotqan holda ularni mehmon qilolmadim, deb senlarga shu ikki tilloni berib yubordi... Endi tushundingmi?

– Voy, pala'nat... Hali san bizni o'z pulimiz bilan betimizga urding?

Qobil kuldi. Ular ikkisi birining og'zidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar.

– San otang o'g'li emassan, agar otang o'g'li bo'lsang,

<sup>1</sup> Teksiz (tojikcha) – bekorga, bejiz.

<sup>2</sup> Shu vaqtlarda Toshkand o'rus qo'hida ekanligi unutilmasin (muall.).

mirzo Anvardek mehmondo‘st bo‘layding. Mirzo Anvar mehmonning betini ko‘rmay, boshidan tillo nisor<sup>1</sup> qilg‘anda, san pala‘nat bizni tukonxonaga qamab qo‘yasan. Burodaring bo‘lmasa, Qo‘qonjonningni ko‘tarib og‘zingga uraydik, muruningdin mag‘zi saring oqib tushaydi!

Qobil bir narsa deb to‘ng‘illadi.

– E, to‘ng‘illama, pala‘nat. Biz pul oshnosi emas, odam oshnosi... Seni bozori podshoga olib chiqsa, og‘ziga tishi bor deb sakkiz pulga ham olmaydi, ba xudo!

Ular shu hangamaning ustida edilarkim, Chorsudagi shovqin-suron ichidan bahaybat bir hayqiriq eshitildi: bozor ola-g‘o-viri birdan kesilib, bu uchavi ham tashqarig‘a quloq solib qoldilar:

Ey-y-y-y-y-y-y...

– *Bozor aro yig‘ilishib gul terganlar!*

*Qasam yodlab, podshog‘a so‘z berganlar!*

*Mirzo Anvar otlig‘ elga ma‘lum kishi,*

*O‘rda ichra qalamkashlik erdī ishi.*

*Arzimagan gunohiga qochdi, ketdi.*

*Bundin andak podshoga ozor yetdi.*

*Uning do‘sti Sultonali nomlig‘ mirzo,*

*Bu qochishdan chekmakdadir behad izo<sup>2</sup>.*

*Mirzo Anvar gunohiga toyildi zor,*

*Xaloyiqni to‘xtatishdan maqsadim bor.*

*Erta peshin asnosida Sultonali,*

*Orsiz Anvar gunohiga o‘lg‘ay, bali.*

*Jamiyatda hozir bo‘lsa osiy Anvar,*

*Yoki uning do‘sti oshnosidin birar.*

*Gunohingga Sultonali o‘lar, desin,*

*Erta peshin vaqti, afsus, so‘lar desin.*

*Imonlik qul nafsi uchun do‘stin sotmas,*

*Gunohi yo‘q oshnosini o‘tka otmas.*

*Quloq solgan gunohsizning faryodiga,*

*Dard qolmag‘ay, yetar har vaqt murodiga!*

Jarchi to‘xtadi, shovqin-suron yana eskicha davom etdi. Jarning davomida qulog‘i tikkayib, ko‘zi katta ochilg‘an Qobil-

<sup>1</sup> Nisor (arabcha: shirinliklar, hadyalar ulashish, tarqatish) – ulashish, sochish, hadya qilish.

<sup>2</sup> Izo (arabcha) – azob, ozor, ranj. Izo chekmoq – azoblanmoq.

boy sukutka ketdi...

– Nega xomush to‘xtading, Qobel? Akun jarching nima deb vaqirlaydi?

Qobil javobsiz boshini chayqadi.

– Gapur, – dedi Sharif. – mirzo Anvar, osiy Anvar, deyapti chog‘i?

Qobil yana javob bermadi.

– Zaboning<sup>1</sup> bor, axi, burodaringni tutkanlar-chi?

– Yo‘q.

– Bo‘lmasa nega unday chikin xomush to‘xtading?

– Endi tutmakchilar...

– Endi tutmakchilar?– deb zaharxanda qildi Rahim. – Dardi xarinani tutadi.

– Tushunmay yotibsanlar, anovi kun biz bir mirzoning uyiga borg‘an edik-a.

– Hay.

– Ana shuni, sen Anvarning do‘sti eding, deb barimta<sup>2</sup> ushlaganlar... Ertagacha Anvar kelmasa, shu Sultonolini o‘ldurar emishlar...

Jar ma‘nosiga endi tushungan yigitlarning yuzida birdan o‘zgarish ko‘rildi, ko‘zlarida g‘azab, nafrat o‘ti yondi:

– Bu xon yo‘q<sup>3</sup>, bu dayus<sup>4</sup>!– dedi Rahim. – Akun saning labingga kesakni man surtay, o‘rtog‘im Sharifni o‘ldir? Bu xon yo‘q, bu dayus. Azbaroyi xudo, dayus!

Qobil labini tishlab, sekinroq ishoratini qildi. Chunki xuylanib<sup>5</sup> ketkan Rahim butun do‘konxonani boshig‘a kiyib baqira boshladi.

– Bu xon yo‘q, bu dayus! Voy dar dahanat xonasha!..

– Sekin-sekin!– dedi qo‘rquvliq Qobil va o‘rnidan turib ketdi, – bir foydasi bormi, jinni!

– Voy dar dahanat xonasha!..

Qobil yugurib borib, do‘konxona eshigidan ko‘chaga

<sup>1</sup> **Zabon** (tojikcha) – til.

<sup>2</sup> **Barimta** (tojikcha: garov, garovga olingan) – ko‘chmanchi qabilalarda bir urug‘ga boshqa bir urug‘ tomonidan yetkazilgan zararni to‘lashga yoki haqoratlangan tomonning izzat-nafsini qondirishga majbur qilish maqsadida, garov tariqasida uning mollarini zo‘rlik bilan haydab ketish yoki mol-mulkini bosib olish odati.

<sup>3</sup> Bu xon emas... (muall.).

<sup>4</sup> **Dayus** (arabcha: qo‘shmach) – o‘z xotinini birovga qo‘shib beruvchi; qo‘shmach; 2) qattiq so‘kish iborasi. Bu yerda haqorat ma‘nosida kelgan.

<sup>5</sup> **Xuylanmoq** (tojikcha) – qizishmoq, g‘azablanmoq.

qaradi.

– Qo‘y akun, dayusing meni xam bo‘g‘iz qilsin... Voy dar dahanat...

Rahimning eskidan shuning singari asabiy og‘rig‘i bor edi. Sharif bilan Qobil uning fe‘liga yaxshi tushunar, ul birar haqsizlikka duch kelsa, garchi masalaning o‘ziga taalluqi bo‘lmag‘anda ham shuning singari jinni bo‘lib olar edi. Rahim uch-to‘rt daqiqa so‘kunib, titrab do‘konxonani boshig‘a ko‘targandan keyin tinchidi, Qobil do‘konxona eshigini yopib, o‘rtoqlari yonig‘a keldi. Uchavi bir necha vaqt xomush o‘lturdilar.

– Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz, Qobelboy, – dedi yana ko‘zi olalang‘an Rahim. – Dayusingni zindoni qayerga?

– Zindonini nima qilasan?

– Ana man bor, ana Sharif, ana san, – dedi Rahim. – Shu tunga uchavimiz borib yo o‘lamiz, yo shu bechorangni ro‘shnoqliqqa olamiz.

Qobil manglay ostidan Sharifka ko‘z yubordi. Sharif kulim-sib, Rahimga qaradi..

– E, senga chi balo shud?<sup>1</sup>

– Hech chi, – dedi Rahim. – Akun biz dunyoga nima olib boramez, hay o‘lluk; dunyoga o‘n tillo pulimiz qolaydimi, yo uyga sochini tarab to‘xtag‘an xotunimiz qolaydimi?

– Yo‘q, qolaytikoni yo‘q, – dedi kulib Sharif.

– Dastasha gir<sup>2</sup>, – dedi Rahim. Sharif bilan Qobilg‘a ikki qo‘lini cho‘zib, ular ikkisi ham iljaygan ko‘yi qo‘llarini berdilar.

– Lafzaton yakmi<sup>3</sup>?

– Yak-yak, Rahim dav.

– Hazilash nest?

– Nest.

– Tamom, – dedi ikki qo‘lini bo‘shatib Rahim.

– Shud.

Bu ahdlashishdan so‘ng uchavi ham xomush qoldilar. Tashqarida shovqin-suron davom etar, uzog‘roq joydan qalandarlar talqini eshitilar va do‘kon yonidag‘i bir kallapaz zo‘r berib yog‘liq xasipini maxtar edi. Polos ustidagi cho‘plarni o‘ynab o‘lturgan Qobilboy uzoq sukutdan bosh ko‘tardi.

<sup>1</sup> Chi balo shud (tojikcha) – nima balo bo‘ldi?

<sup>2</sup> Dastasha gir (tojikcha) – qo‘llaringiz bering. Bu yerda va‘dalashmoq ma‘nosida kelgan.

<sup>3</sup> Lafzaton yakmi (tojikcha) – lafz bittami.

- Menim bir necha yerlarga borishim kerak ekan.
- Qayong'a?
- Kecha meni olib ketkan bo'zchining uyiga, undan keyin inimning oldig'a.
- Nima uchun?
- Balki, Sultonalining qamalishi yolg'ondir, agar chin bo'lsa, inim bilan, albatta, kengashish kerak. O'runsiz kuchanib qolmayliq-da.
- Sharif Qobilning so'zini ma'qullab, bosh irg'atdi.
- Hay, ket, - dedi Rahim. - Biz shu yerga bo'lamiz, xanjarlarni charxka toblaymiz. Ko'b to'xtama, pala'nat.
- Sharif va Qobil uning jiddiyatidan kulimsishdilar. Qobil do'kondan chiqdi.

### LVI Fasl. XAYR ENDI, RA'NO!

Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchlik, hatto erlardan ham jassurroq shaxslarni ko'b uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni naqadar kuchlik irodaga molik bo'lmasinlar, yana hissiyotlariga mag'lub ko'ramiz. Masalan: hikoyamiz qahramoni Ra'noning jasorati, xong'a qarshi isyoni, hatto ma'yus qolg'an Anvarni yo'lg'a solishi - o'z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra'no yoshliq qizlarimizg'a ibratdir. Lekin irodasi kuchlik shu Ra'no hozir yana hissiyoti qo'lida mag'lub edi.

Bu kecha Anvar og'asi bilan kengashib, shu kunlar miyonasida Toshkand ketishni o'ziga jazm qildi. Ra'noga ham Qo'qon bilan vido'lashish og'ir sezilmadi. Ammo, masala qat'iy hal qiling'ach, Ra'noda bir tarafdin qo'rqunch, ikkinchi tarafdin qiziq yana bir jasorat tug'uldi; kampir bilan birgalashib ota mahallasiga borar emish; o'zi biravning yo'lagida turib, kampir orqali onasini aytdirib chiqar emish.

Tuni bilan shuni o'ylab chiqqan Ra'no, ertalabdan beri Anvarni xafa qilar, o'z so'zida isror etar edi. Kichkina hujraning sandalida qarshima-qarshi o'lturg'uchi Anvar va Ra'no bir-biridan o'pkalik qiyofatda edilar.

- Hissiyotka qattig' berilibsan, Ra'no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa, ayamga ham ishonib bo'lmas.

- Paranji ichida borg'an Ra'noni tanish uchun hech kimda



karomat yo‘q; ayamga nega ishonib bo‘lmasin?

– Sen qochqan, ayangning obro‘cini to‘kkan qizsan...

– Hech, hech... Ayamning ko‘nglini men yaxshi bilaman, ayam siz o‘ylag‘an xotinlardan emas, hech.

– Yaxshi, yo‘lda ham seni hech kim tanimasin, kampir ham ayangni aldab olib chiqsin, ayangning o‘ziga ham ishonayliq; yana har holda menim uchun shu qasdingdan kechsang, nima bo‘ladi, Ra‘no? Biz Toshkandga borib yetkan kunimizoz, sog‘lig‘imizni va uzrimizni aytib, xat yozarmiz-ku, jonim.

Ra‘no javob berish o‘rnig‘a birdan yig‘ladi, ancha vaqt ko‘z yoshisini yuzi orqaliq to‘kib turdi.

– Balki, men... ayam bilan abadiy ko‘rishmasman.

– Hay Ra‘no, Ra‘no, – dedi Anvar. – Xudoyor yuz yil yashaydi, biz Toshkandda o‘lamiz, deb o‘ylaysanmi? Xayr, ko‘b bo‘lsa Xudoyor yana besh yil yashasin, vaholanki, uning zulmi shu yo‘sun davom etkanda, biz chamalag‘an bu fursat ham ko‘b; zero Zulm neqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo‘lishi tajribalar bilan sobitdir. Agar shungacha ham sabring yetmasa, boshqa chorasi topilar, Ra‘no, masalan, ayangni Toshkandga chaqirarmiz yoki gapni bir oz eskitkandan so‘ng Qo‘qong‘a o‘zimiz kelsak ham bo‘ladi.

Ra‘no javobsiz yana ko‘z yoshisini to‘ka berdi, bu holdan siqilgan Anvar, Ra‘noga bir oz qarab turdi:

– Xo‘b, yig‘lama. Hali bir-ikki kunsiz yo‘lg‘a chiqolmas-miz, bu kun kechasi akam kelsa, erta bozorg‘a chiqib yo‘l hozirligini ko‘rsa, har holda birisi kun kechqurun jo‘nashimiz ham aniq emas. Binobarin, sen oshiqmasang ham bo‘ladi. Undan so‘ng, sening o‘ylag‘an yo‘ling juda qaltis, bu to‘g‘rida boshqa-charoq tadbir toparmiz...

Ra‘no indamadi, bir entikib orom havosini yutdi va ro‘ymoli bilan ko‘z yoshisini quritdi. Anvar o‘pkalik iljayib Ra‘noni yengdi. Ular shu holda ekan, hujra devori ko‘cha tarafdin uchto‘rt qayta gurs-gurs urildi. Ikkisining ham quloqlari tikkayib bir-birisiga savol nazari yubordilar...

– Begona kishi emas, – dedi bir ozdan keyin Anvar. – Men Safar aka bilan kunduzi uchun devor urishni shart qilg‘an edim... Sen chiqib kampirga ayt, eshikni ochsin.

Ra‘no hujradan chiqdi. Birar daqiqadan keyin havli sahniga bir necha oyoqlar kirdi. Bemahal yo‘qlashdan Anvarning ko‘ngli

g'ash tortib, kelguchini Safar aka bo'lar deb o'yladi. Hujra eshigi ochilib, ichkariga biri orqasidan biri – Qobilboy bilan Safarboy kirdilar. Anvar yana onglashilmovchilik ichida qoldi, Safar akaning tinchsiz – hayajonli ko'zi Anvarning ilgaridan ko'rib qo'yg'an bir necha ehtimollarini xotirlatib, ularga joy ko'rsatdi.

– Vaqtsiz yo'qlashlaringaz sababsiz bo'lmas, – dedi tovshini sekinroq chiqarib Anvar. – Bizdan xabar topqanlarmi?

Safar hamrohiga qarab, ikki qo'lini qovushtirib yenglari ichiga oldi.

– Yo'q...

– Sultonolini qamag'anlarmi?– deb yana so'radi Anvar.

– Qamag'anlardir?

Safar va Qobil bir-birlariga qarashdilar.

– Shunday, mirzam, shunday... Bizlar juda hayron bo'lib qoldiq-da.

Anvarda qonsizlanish va kiprak ostlarida harakat ko'rildi.

– Zarari yo'q, qutqaramiz... Qachon qamag'anlar?

– Kecha kechqurun... Boya bizning uyga Sultonalining xotini kelgan edi, men shundan eshitdim. Uning ustiga akangiz borib qoldi...

– Siz kimdan eshitdingiz, aka?

Jarchi xabarini va bu to'g'rida o'rtoqlari bilan bergan qarorini Qobilboy so'zladi. Anvar og'asining so'zini jiddiy eshitib, bir necha vaqt o'ylab o'lturdi.

– Siz va o'rtoqlaringizning hamiyatlaringizga<sup>1</sup> rahmat. Lekin bu yo'l bilan Sultonolini qutqarish qiyinroq, balki, mumkin ham bo'lmas, deb o'ylayman.

– Agar biz uning qamalg'an joyini bilsak, nima uchun mumkin bo'lmasin, Anvar? O'rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog'idan xotirjam bo'lingiz.

– Rahmat. Albatta, bu jasoratni yuraksiz kishilar qilolmas. Menim bu jasoratka umidsiz qarashim sababi shuning uchunki, bunday shartlik va nozik habslar<sup>2</sup> aksar o'rdaning o'zidagi ovoqqa qamalg'uchi edi.

– O'rdag'a kirish qiyinmi? Anvar bosh chayqadi.

– Hech mumkin emas, tun bo'yi elli nafar yigit o'rda qo'r-

<sup>1</sup> **Hamiyat** (*arabcha*: jahli tezlik; jizzakilik; g'ayrat, qunt; manmanlik, takabburlik; mag'rurlik) – or-nomusini, qadr-qimmatini pok saqlash tuyg'usi; oriyatli. **Bu yerda oriyatlilik nazarda tutilgan.**

<sup>2</sup> **Habs** (*arabcha*) – qamash; qamoqxona.

g'oni ostidan aylanib turadir.

Qobilboy ma'yus Safar bo'zchig'a qaradi. Safar bo'zchi zo'r berib mo'ylabini tishlab, uzar edi.

– Zindong'a qamag'an bo'lsalar, ebi bor ekan-da, taqsir.

– Ebi... Zindong'a qamashlari ehtimoldan uzoq, Safar aka.

Yana bir necha fursat sukutda qoldilar. Qobilboy har on to'ppisini qayirib, boshini qashir edi. Anvar sandal ko'rpsidagi bir ipni uzib olmoqchi bo'lg'andek qo'lini siltar edi.

– Zindondan xabar oldirishimiz kerak ekan-da, Anvar?

– Xabar olinsa... bo'ladi.

Qobilboy Anvardan shu javobni olib, Safar bo'zchig'a yuz o'girdi:

– Mirzoning uyiga bir kishi yuborsaq-da, uning xotini eriga taom keltirgan bo'lib zindong'a borsa... Shu qanday bo'lar ekan, Safar aka?

– Ma'qul, uka, ma'qul.

– Sizga-chi, Anvar?

Anvar to'g'ri ishorasini berdi.

– Boyag'i andishamizni ham aytib o'taylik, – dedi Qobilboy – Biz yo'lda bu to'g'rini mulohaza qilib keldik, Anvar. So'zning rosti shuki... Siz bu uydan hozir ketsangiz ma'qul.

Garchi odam bolasi-da. Haligidek joni ko'ziga ko'rinib iqror bo'lib qo'ysa...

Anvar bosh chayqab, kulimsidi.

– Sultonali unday odam emas, bundan xotirjam, – dedi Anvar qanoat bilan va bir oz o'ylab turdi... – Ammo Sultonaling xotini, to'g'risi, bir oz xavfliroq; xotin kishi erimni qutqaraman, deb nodonliq qilsa, ish rasvo...

Safar bo'zchi boya Sultonaling xotini kelganda, Qobilboyning niyatini eshitib xotirjam bo'lg'anini so'zladi.

– Juda yaxshi qiling'an, rahmat... Hali uning uyiga kishi yuborsangiz, yana uqdirish, xotirjam qilish kerak, shunday ishon-tirilsinki, erta peshingacha erining ozod bo'lishig'a shubhasi qol-masin, hatto uni bu yo'sun aldansa ham bo'ladir. Erta bilangacha qutqarilsa, xo'b, qutqarilmasa Anvarning o'zi borib qutqarar emish, agar sen shungacha sabr qilmasang, eringning yana jazo tortishig'a sabab bo'lasan, deyilsin.

– Xo'b, mirzam, xo'b.

– Sizga yana bir xizmat, Safar aka, – dedi Anvar, Safar

hozirlik ishorasini qilib, engtashib oldi.

– Xizmat shuki, singlingiz men bilan birga turmasa, siz olib ketsangiz...

– Xo‘b, xo‘b.

Anvar o‘rnidan turdi va hozir qaytib kirishini so‘zlab hujradan chiqdi. Ko‘r kishi zo‘r berib g‘o‘za sug‘urar, kampir chig‘iriq chiqarar, Ra‘no esa, ko‘zini bir nuqtaga tikib, sandal yonida o‘lturar edi. Anvar havliga tushib, Ra‘noni o‘z tarafiga imladi. Ikkisi havlining chekkarog‘iga bordilar.

– Eshitdingmi, Ra‘no?

– Nimani?

– Ularning so‘zini?

– Yo‘q.

– Bizning bu yerdalig‘imizni sezish ehtimollari bor ekan, Sultonali qamalg‘an, iqrorg‘a qilsa ehtimol emish...

Ra‘noning ko‘zi qavarib ketdi.

– Ah?

– Qo‘rqma... Sen hozir Safar aka bilan ketasan, men ham boshqa joyga boraman. Yo‘l hozirlik‘ini ko‘rib bitirguncha bir necha kun ayrilishib turmasak bo‘lmas... Sen borib kiyin.

– Rostdanmi?

– Rostdan, sen qo‘rqma, faqat bu bir ehtiyot, hozir Sultonaning qamalishidan boshqa gap yo‘q.

– Kiyimlarim hujrada...

– Hujrada bo‘lsa ular chiqqandan keyin kirib kiyinarsan.

Ikkisi ayvonga qaytib, Anvar hujraga kirdi.

– Singlingiz hozir kiyinadi, – dedi Anvar. – Birga yurish yaxshi, bo‘lmas, ikavingiz bir oz ilgarida, Ra‘no orqada borsin.

– Xo‘b.

– Undan keyin siz zindon xabarini bilib, xuftan chog‘i menim oldimg‘a kelingiz, Qobil aka.

Qobil va‘da ishoratini berib, Safar aka bilan hujradan chiqdi. Ra‘no kirib kiyina boshladi. Anvar ma‘yus edi, bir oz shoshin-qirab kiyingan Ra‘noning latif yuziga qattig‘a tikilgan edi.

– Siz kimnikiga borasiz?

– Menmi, men... men shu yaqindag‘i biravnikiga.

– Men ham siz bilan tursam bo‘lmasmidimi?

– Yo‘q, xavf bor.

Ra‘no ayrilg‘usi kelmagandek ufladi. Kiyinib bo‘lib paran-

jisini ham qo'lig'a oldi, Anvar hujraning burchagiga o'tib, Ra'noni o'z yonig'a imladi. Ra'no kelgach, Anvar uni qattig' quchog'lab o'pdi.

– Akam sening yoningg'a mendan xabar yetkazib turar, senga boshqa yordamlar ham qilar, Ra'no.

– Toshkandga tezroq ketaylik, men... uch kundan ortiqqa ko'nmayman.

– Xo'b... yana bir o'pay, Ra'no.

Ra'no tabassum ichida yana yuzini tutib berdi. Anvar bir necha vaqt uning yuzidan ajralolmay turdi.

– Bo'ldi... Ular kutishib qolg'andirlar.

Anvar uni bo'shatdi...

– Pulni sen olib ket, Ra'no, menim esim yo'q, yo'qotib qo'yarman.

Ra'no burchakdagi kiyiz<sup>1</sup> taxidan bir hamyon oltunni oldi.

– Sizga bir-ikki tillo berib ketaymi, balki, kerak bo'lar?

Anvar kerak emas, deb bosh chayqadi. Yana shu holda Ra'no hamyondan ikki tillo olib, Anvarga ko'rsatdi:

– Shu ikki tilloni xolam bilan otamg'a bittadan berib ketaman?

– Ber, ber... Xayr endi, Ra'no!

Ra'no ham, xayr, degandek bosh irg'adi va shoshib hujradan chiqdi. Ra'no ayvondagilar bilan xayrlashar ekan, hujrada qolg'an Anvarning ikki ko'zi jiq yoshqa to'lib, ko'kragi kuchlik-kuchlik silkindi va gavdasi o'ziga og'irliq qilg'andek devorg'a borib suyandi...

## LVII Fasl. Qo'rqunch bir jasorat

Qobilboy bu so'zni eshitkuchi quloqlarig'a ishonmag'andek, Anvarning yaqinrog'ig'a surildi.

– Nima deyapsiz, Anvar, men yaxshi onglamadim?

Anvar yana o'sha so'zini takrorladi. Qobilboy endi bir oz orqasig'a qochib ko'zini katta ochdi va bir necha vaqt qotib turdi...

– Siz nima qilmoqchisiz, uka. O'z oyog'ingiz bilan... Yo'q, bu bo'lmag'an gap. Balki, bu – xonning unga popisasidir, shu hiyla bilan maqsadig'a yetmakchidir... Qo'ying bu gapni, uka,

<sup>1</sup> Kigiz – yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos; namat.

qo'ying...

Anvar hamon boyag'i vaziyatda, ko'zini bir nuqtag'a tikib, sandal ustidagi qog'ozni og'asi yaqinrog'ig'a surib qo'ydi...

– Basharti popisa bo'lmasa?..– dedi Anvar.– Xon popisani bilmaydi, uning hamma harakati jiddiy. Shunday, siz bu xatni ertaga uning qo'lig'a berasiz va undan har bir yordamingizni ayamaysiz.

– Bu aqilliq gap emas, uka...

– Men endi shunga qaror berganman, – dedi Anvar o'zgarishsiz.– Bu azmdan qaytish yo'q... Faqat, siz undan yordamingizni ayamaysiz menga so'z bersangiz bo'ldi.

Qobilboy entiqdi, xatni qo'lig'a olib, bir necha fursat sukutda o'lturdi... So'ngra birdan o'rnidan turib hujradan chiqqa boshladi.

– Yo'l bo'lsin?

– Ketyappan.

– Xayr, kechiringiz.

Qobilboydan javob bo'lmadi.

\* \* \*

Kun qiyomg'a yaqinlashqan. Yana birar soatdan so'ng Sultonalini o'limga olib chiqar edilar. O'rda hech bir o'zgarishsiz, odatiy takallufida harakatlanar, baxmal va zarrin kiygan sarkardalar ichkari bilan tashqarig'a to'xtovsiz qatnashib turar edilar. Bu kungi devonda bir necha muhtamlarning chaq-chaqi bilan yana boshqacha ruh, ikki kundan beri yana devon xizmatini ado qila boshlag'an bir muhtaram yosh olimning muloyim siymosi mirzolar orasini yana munavvar etkan va yuzidan g'olibiyat ma'nosi chakillab turg'an ikki muftining mutoyabalariga yosh olimning mayin nigohi har zamon iljayar edi.

– Uning uchun ikki yo'l, – der edi Shahodat mufti, – yo ammazodasini topib berish, yo o'lim, faqat ikki yo'l.

– Albatta shunday, – deb uning so'zini tasdiq qilar edi mulla Abdurahmon.– Topib berganda ham yana jazo bor, bu taraf ham unutilmasin.

– Yana qanday jazo?– deb ajablanar edi mulla Kalonshoh.

– Topib berishni bo'ynig'a oldimi, bas, bu so'z Anvarni qochirg'an ham o'zim, degan iqroridir.

Bu biyron javob mulla Kalonshohga yoqinqiramasi edi.

– Topib berishni bo'yinga olmasliq, gunohsizlik degan so'z-

dir. Darhaqiqat, Anvarning qayerg'a ketkanini bilmasa, qanday qilsin? Bas, bu holda Sultonali qatl qilinadir, gunohsiz o'ldiriladir... Bunga kim sabab, uning qoni kimni tutadir? Men shunga hayronman-da.

Bu so'z qarshidag'i ikki muhtaramni lom dedirmay qo'yib, chaq-chaq shu yerda shart kesildi. Shar'iy libos kiydirib, o'z menligini ishka oshirg'an mulla Kalonshoh g'olib va mag'rur, qo'lidag'i tahrirga qaradi.

Shunday: shu soat ichida Sultonalini o'lim jazosiga olib chiqar edilar. O'rdadan har kim uning najot topishig'a ishonmas; xonning oldig'a chaqirildi – o'ldi, basharti gunohi bo'lib, iqror qilsa, yana jazoga qoldi, vassalom. Ammo Anvar xon huzuriga kelib o'zini uning hukmiga topshiradir, chin yigitlik yo'li bilan do'stini qutqaradir, degan xayolg'a kim ishonsin? Kecha jarchi ko'y-guzarlarni aylanib, Anvarni insofga chaqirdi, kishi qonig'a qolmasliq fazilatini tarannum ettirdi. Biroq, Anvarning bunday «hamoqati»g'a axloqan sukut etib, vijdonan muzlagan o'rda arbobi va boshqalar ishonsinmi?

Shunday: o'rda arbobi bu kun peshindan bir oz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit va o'lim sari kulib kelguchi bir arslonni o'z tarixida birinchi martaba ko'rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug' jasorat bir necha daqiqalarg'acha zulm itlarini sukutka soldi, ularni ishdan to'xtatdi. O'rda arboblarning mahkamada o'lturganlari eshik yonig'a chiqib, yo'lda borg'anlari harakatsiz qolib, parvosiz har kim yonidan salomlashib o'tkuchi arslonni tamosha qildilar.

Anvar devonxona qarshisig'a yetkanda, nima maqsad bilan-dir darichalar va eshik yonidan mo'ralashquchi mirzolarga umumiy bir ta'zim ifoda qildi va sobit qadam zinalarga oyoq qo'yib, yuqorig'a, xon huzuriga chiqib ketdi. Poytaxt bo'sag'asidagi doimiy yasovullardan o'tib, dahlizda to'xtadi. Chunki bundan nariga o'tish uchun hudaychi vositasida xondan ruxsat oldirish lozimdir. Birinchi eshik yonida qo'l qovushtirib turg'uchi Darvesh hudaychi taajjub va hayrat ichida Anvarni qarshilab, ikkinchi xonadagi «janob» huzuriga ketdi.

Taxtiga takya qilg'an Xudoyor ikki ko'zi to'g'risig'a ikki jallodni qo'yib, yonidag'i domla shog'ovul, Tursun otaliq va g'ayri bir necha a'yonlar bilan suhbatlashar edi.

– Pushti panoho!– dedi hudaychi, – xiyonatkor o'z ixtiyori

bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo‘lmoqchi!

– Xiyanatkaring‘ kim?

– Mirzo Anvar!

Xon seskanib ketdi, hamnishinlar ham along‘-jalong‘ bo‘ldilar.

– Keltir!

Hudaychi qulliq qilib, orqasig‘a qaytdi. Dahlizdagi Anvar birinchi xonadagi a‘yonni hayratka solib, ikkinchi tanobiyning bo‘sag‘asida, jallodlar o‘rtasida to‘xtadi va xong‘a ta‘zim ado qildi.

Raqibni bu qadar jasoratda ko‘rgan Xudoyorning kiprak ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va bir oz so‘z topolmag‘andek tamshanib turdi.

– Sen bizga xiyanat qilding‘, it uvli!

Anvar bosh irg‘atdi.

– Iqorman.

– Tuzimni unutding‘!

– Tonmayman.

– Iqorsen, tonmaysen, o‘bdan ish!– dedi zaharxanda qilib xon, – o‘luvdan ham qaytmaysen!

– Men sizdan marhamat so‘rab kelgan emasman, – dedi iljayib Anvar.– O‘zimni o‘limga berib, bir gunohsizni qutqazish uchun kelganman.

Hamnishinlar lablarini tishlashdilar. Xudoyor istehzolik kuldi.

– Pusulmonchiliq qig‘ansan-da?

– Albatta, – dedi Anvar, – boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchiliqdan chiqqach, men pusulmonliq bilan o‘lishni o‘bdan bildim.

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tuska qo‘yib, manglayida terlar ko‘rindi, g‘azab o‘ti alanga oldi.

– Sening qig‘an ishing pusulmonchiliqda bormi, it uvli?

– Musulmonchiliqda yuzlab xotin ustiga, bir kambag‘al uylanmakchi bo‘lg‘an qizg‘a ham zo‘rliq qilish bormi, qiblai olam.

– Chiqar buni, jallod!

Jallodlar harakatlandilar.

– Xanjarimiz qonsirag‘an!

Anvar bosh chayqab kuldi.



– Gunohsizni mening ko‘z o‘ngimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblai olam, – dedi va o‘zini tashqarig‘a torta boshlag‘an jallodlarni arslonlarcha siltab yubordi. Sizda adolat bormi, janob?!

Qo‘rqunch bu hayqiriq Xudoyorni insofka keltirdi. Jallodlarni to‘xtashqa va hudaychini Sultonalini hozirlashga buyurdi. Ko‘zi qonlang‘an Anvar ikki qo‘lini yonig‘a tashlab Xudoyor qarshisida turib qoldi. Hamma sukutda... Shunday fursatlarda gunohkorni adabsiz so‘zlar bilan so‘kib turg‘uchi Xudoyor ham jim. Chunki, a‘yon nazarida har bir adabsizligiga Anvar tarafidan kuchlik bir haqorat olish ehtimoli bor. Shayxi Sa‘diy aytkanча, dunyoda hayotidan qo‘l yuvg‘uchidek tili uzun kishi bo‘lmas. Darhaqiqat, insonni razolatka solg‘uchi uning manfaati taqozasi, qola bersa o‘limdir. Bu ikkisidan kechguchiga esa na podshohning qahri va na jahannamning qa‘ri farqsizdir.

Ko‘b fursat o‘tmay hudaychining orqasida Sultonali kirdi, xong‘a qarshi turguchini tanib, titradi... Titrar ekan, Anvardan bir oz keyinda turib xong‘a ta‘zim qildi.

– Siz ozod bo‘ldingiz, – dedi xon, – devong‘a chiqib o‘z ishingizg‘a qarang‘!

Sultonali ixtiyorsizcha xon tomong‘a bukulib oldi... Anvar «istehzoli» vaziyatda Sultonaliga yon qaradi:

– Menim qarshimg‘a ishlab, janobga neqadar sodiq qolsangiz ham, sadoqatingiz sizni najotka chiqara olmadi, bil‘aks siz o‘ylag‘ancha men – insofsiz sizni qutqardim... Siz shuni unutmangiz bo‘ldi, Sultonali aka, – dedi Anvar va xong‘a ishorat qildi:

– Qo‘limni bog‘lasinlar, chiqarib o‘ldirsinlar.

Sultonali orqasig‘a qaytdi, qaytar ekan, ko‘zidan bir necha tomchi yoshi oqib tushdi. Jallodlardan biri kelib, Anvarning qo‘lini orqasig‘a bog‘ladi, Anvarning qo‘li bog‘lanar ekan, Muhammad Niyoz domla o‘rnidan turib, xong‘a qulliq qildi.

– Shu adabsizning gunohini mening uchun kechsinar.

Xon yuzini chetka o‘girdi:

– Rastag‘a chiqaring‘!

Anvar xonni va hamnishinlarini masxaralagandek ta‘zim ado qildi. Jallod olding‘a tushdi, uning orqasidan Anvar yurdi va orqadan ikki nafar qurolliq yasavul ergashtilar. Anvar o‘zini o‘rdag‘a kirishida qanday tetik tutkan bo‘lsa, o‘lim sari chiqishida ham o‘shandog‘ parvosiz edi. Ko‘zi tushkan tanish har kimsa

bilan «Xayr, xo'sh» degan kabi imlashib olar edi. Rangi quv o'chib hushsiz kabi tashqi darboza yonida turg'an Sultonali bilan xam alohida vido'lashdi. Anvarning qarashidag'i ma'noga tushungan Sultonalinig yuragi suv bo'lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko'zdan yo'qolg'uncha qarab qoldi...

Yangi rastada xalq qaynashar edi. Qo'lida yalang'och xanjarini ushlab, beliga oyboltasini qistirg'an manfur<sup>1</sup> jallod orqasida kelguchi mahkumga ko'zi tushkan xalqdan ba'zisi jazo maydonig'a qarab og'ildi va ba'zisi nafratlangan ko'yi o'zini chetka tortdi. Jazo maydoni yangi rasta bilan o'rda bog'ining muyushida bir dor va ostig'a qon oqizish uchun qazilg'an chuqurdan iborat, edi. Dor ostig'a kelib yetdilar. Bir onda dor atrofiga yuzlab yig'ilg'an tomoshabin xalqni yasovullar chetlanishka buyurdilar. Xalq orqag'a siljigan bo'lib, yana siqilisha berdi. Dor ostida Anvarning qo'li yeshilib, tahorat olish uchun unga suv berildi. Chunki bu mahkumning qonuniy haqqi edi. Anvar tahorat olar ekan, jallod va yasovullar xanjar yalang'ochlab uning tevaragini qurshab turdilar. Anvar tahoratlanib, ustidagi to'nini yerga yozdi. Jallodlar doirani bir oz kengaytib, Anvar ikki raka'at namoz o'qudi.

Duodan so'ng Anvar o'rnidan turdi, qo'lini bog'lashqa berib, atrofiga besaranjom alang'ladi. Tevarakni sirib olg'an xalq oldida manfur ko'zini moylandirib o'z ustiga to'ppa-to'g'ri qarab turg'an mulla Abdurahmonni ko'rdi. Anvar titradi. Abdurahmon iljaydi...

– Kulishka haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz, – dedi Anvar. Birdan hammaning ko'zi Abdurahmonga tushdi. – Faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men... Men to'g'riliq samarasini o'laman, siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostig'a kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir?! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi. Iflosliq emasmi, taqsir?!

Xalq chuqur sukutda, o'z orasida turg'an «peshvo»ga kinalik ko'z bilan tikilgan edi... Jallod qo'li bog'lang'an Anvarni dor tomong'a olib bordi. Anvar o'z ixtiyoricha chuqur yonig'a o'lturdi va xanjarini yanib kelgan jallodga qo'li bilan «ozg'ina to'xtang» ishoratini qilib, Abdurahmon tomong'a kuldi:

<sup>1</sup> **Manfur** (*arabcha*) – nafratga yo'liqqan, kishini nafratga keltiruvchi; jirkanch.

– Menim holimni ko‘ringiz, domla, – dedi Anvar kulgan yuzda, – qo‘lim bog‘lang‘an, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqdir? Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq... Durust, men ko‘milgach, qabrim ustida ko‘ksi dog‘liq qizil lolalar ko‘karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solg‘an iz...

Tomoshabinlar toqatsizlang‘andek ko‘rindilar, Anvar uzanib yotdi... Jallod xanjarini yenggiga yanib Anvar ustiga enggashti.

...Enggashti, biroq orqadan berilgan kuchlik bir zarb bilan Anvarning ustidan oshib, mukkancha chuqurg‘a yiqildi. Jalloddan besh qadam narida turg‘an yasovullar ham ko‘kdagi xanjarlik qo‘llarini ostg‘a bukalmay, kimlar bilandir olishib yotar edilar va shu onda kuchlik shapaloq tovshi eshilib, sallasi chuvalgan bir yosh mulla yerga o‘lturib qoldi. Xalq tartibsizlandi... Qobilboy Anvarning dastbandini kesdi va ikkisi tartibsizlik ichiga kirib yo‘qoldilar. Qurolsizlandirilg‘an yasovullar gurr etib turli tomong‘a sochilg‘an xalq ichidan do‘st-dushmani ajratolmay garangsidilar. Shu vaqt butun a‘zosi eski qonlarga belangan jallod chuqurdan chiqishqa intilar edi...

\* \* \*

Shu voqi‘adan ikki kun so‘ng yarim kecha vaqti, Besh ariq bilan Xo‘jand darbozalari o‘rtasidag‘i qurg‘on devori ostig‘a to‘rt nafar ko‘laga kelib to‘xtadi... Yigirma ikki-yigirma uch kunlik oy hali uncha ko‘tarila olmagan, ayniqsa oy nurig‘a qo‘rg‘on devori to‘squn edi. Ko‘lagalar birin-birin qo‘rg‘on devorig‘a tirmasha boshladilar. Birinchi martaba kungira yonig‘a chiqquchi emaklab yurib atrofni tekshirdi, tekshirguchining betiga oy nuri sepilib, tanish bir yuz – Safar bo‘zchi zohir bo‘ldi. Qo‘rg‘on tashqarisi keng daraxtsiz qir, tumanlik – xira oydin va uzoqdan bir necha tup yalang‘och daraxtlar ko‘lagasi ko‘rinar edi. Safar bo‘zchi o‘zidan bir zina quyida turg‘an hamrohlarini birin-birin o‘z yonig‘a chiqara boshladi. Anvar, paranjilik Ra‘no, eng oxirda qo‘lida arqon ko‘targan Sultonali yuqorig‘a chiqdilar. Sultonali asta-sekin kungira yonig‘a kelib, ostg‘a qaradi.

– Sakkiz gaz bor, – dedi shivirlab Sultonali.– Keling, Anvar... Anvarning qo‘ltug‘i ostidan arqon solinib bog‘landi.

Sultonali va Safar boʻzchi Anvar bilan quchoqlashib koʻrishdilar... Soʻngra Anvar kungira yonigʻa kelib, quyigʻa osildi. Safar bilan Sultonali arqonni sekin-sekin yuborib turdilar.

– Yotdim, – degan tovush keldi quyidan va bir ozdan soʻng arqon ham boʻshaldi.

– Torting...

Arqon tortilib olindi. Paranjisi aralash Raʼno ham arqongʻa bogʻlandi.

– Arqonni qattigʻ ushlab, oyogʻingizni devorgʻa tirab tushasiz, Raʼno... Endi omon boʻling, singlim...

– Kelin oyimlargʻa salom ayting, siz ham, amaki.

Raʼno goh chalgʻib, goh toʻxtab, quyigʻa siljidi: Yerga tushishka bir gaz chamasi masofa qolgʻanda devor ostida kutib turgʻan Anvar uni koʻtarib oldi.

– Qoʻying, oʻzim tushaman.

– Tegimiz ariq, loygʻa botasan.

Anvar shu soʻzni aytib, uch-toʻrt qadam bosdi, Raʼnoni «Tuya toydi» arigʻining narigi chekkasiga chiqarib qoʻydi. Raʼno qoʻltugʻi ostidagʻi arqonni yeshdi, arqon devor ustiga tomon sogʻilib oldi. Anvar yana qoʻrgʻon devori ostiga yurib chiqdi va sekin yuqorini chaqirdi.

– Sultonali aka!

Qoʻrgʻon kungirasidan Sultonaling koʻlagasi quyigʻa engashti.

– Ehtiyot boʻlingiz, Sultonali aka, – dedi Anvar. – Siz ham shu haftadan kechikmang.

– Takror aytaman: zinhor koʻrinish fikriga tusha koʻrmang.

– Xotirjam, xotirjam.

Chunki Anvarning qutilgʻan kunidan boshlab Sultonali ham yashiringʻan edi. Garchi, xon uni qaytadan yoʻqlamasa ham, yana shu ehtiyotni muvofiq koʻrgan edilar. Sultonali uy ishlarini saranjomlash uchun ulardan bir hafta keyinroq yoʻlgʻa chiqmoqchi edi.

Anvar «Tuya toydi» arigʻidan Raʼno yonigʻa oʻtib, oxirgʻi martaba xayrlashdilar.

– Xayr, Sultonali aka, xayr, Safar aka!

– Xayr, amakilar!

– Olloning panohiga, Anvar!

– Safaringlar bexatar boʻlsin!

Qo'rg'on ustidagilardan kimdir biri piq-piq yig'ladi. Anvar Ra'noni oldig'a solib, uzoqda ko'ringan daraxt ko'lagasiga qarab yurdi. Yer juda botqoq, har bir qadamni arang yerdan uzilar edi. Yigirma qadam chamasi borg'ach, Ra'noning kafshi loyg'a tishlashib oyog' uzolmay to'xtadi.

Ikki qadam orqada kelgan Anvar Ra'noni ko'tarib oldi.

– Menim etigim bor, chimga chiqquncha jim tur, – dedi Anvar.

– Qo'rg'on ustida... Qo'ying, uyalaman...

Anvar javob bermadi. O'ttuz qadam chamasi borib Ra'noni yerga qo'ydi va qo'rg'on ustidan hanuz mo'ralashib turg'uchi ko'lagalarga «keting» degan kabi qo'l chayqadi. Ikkisi yana boshlashib ketdilar. Ular o'n besh qadam bosarbosmas daraxt ko'lagasi ostidan ikki otliq yugurib chiqdi va bir onda Ra'nolar yonig'a kelib, otliqdan birisi «to'p» etib yerga tushti va jilavni Anvarga to'g'rilab turdi.

– Akun, suvor bo'ling<sup>1</sup>.

Anvar Rahim ko'magida otqa mindi. Uzangidan oyog'ini chiqarib Ra'noni chaqirdi. Ra'no – Anvar bilan, Rahim – Sharif bilan mingashib oldilar. Anvar yana qo'rg'on kungirasiga qaradi. Hanuz ikki ko'laga ko'rinar edi. Qamchisini ularga to'g'rilab silkitdi, otni yo'lg'a soldi. Daraxt ko'lagasi ostida soyabonliq aravaning shotisig'a takya qilg'an Qobilboy ularni qarshiladi. Ra'no ot orqasidan aravaga o'tdi. Anvar ham otdan qo'nib, aravaga – Ra'no yonig'a chiqdi. Rahim o'z otig'a minib, Qobilboy aravani yo'lg'a soldi. Ikki otliq aravaning ikki shotisi yonig'a kirib qo'zg'aldilar. To'g'un<sup>2</sup> temiri yerdagi mayda toshlarg'a urunib, shaq-shuq tovush chiqara boshladi. Arava va otliqlar ko'lagasi daqiqa sayin kichiklasha bordi, bora-bora keng qirning bag'rida ko'zga ko'rinmas bo'lib ketdi. Faqat, yana bir oz to'g'unning kuchsiz-kuchsiz toshqa urinishi eshitilib turdi...

*Bitdi.*

<sup>1</sup> Suvor bo'ling – otga mining.

<sup>2</sup> To'g'un – g'ildirakning tashqi gardishi.

## Mirzo Anvarning keyingi hayoti to'g'risida

Men mirzo Anvar hikoyasini otam marhumdan eshitkan edim. Mirzo Anvar Qo'qondan qochib kelib, uch-to'rt yil, chamas, Toshkandning mashhur Eskijo'va mahallasida turgan. Ul vaqtlarda bizning havlimiz shu Eskijo'vada bo'lib, mirzo Anvar otamg'a qo'shni emish.

«Qo'qondan bir mirzo ko'chib kelib, falonchining havlisini ijaraga olg'an emish», degan gap chiqib qoldi, – deb hikoya qilar edi chol. – Men mirzo xabarini eshitsam ham, bir haftagacha o'zini ko'ralmadim. Ro'za kunlarining bi-rida biz masjiddan shom namozini o'qub chiqar edikim, so'fi: «Hammangizni Xudoyorxonning mirzosi iftorga<sup>1</sup> taklif qilg'an», – dedi. Biz yigirma chog'liq kishi yangi qo'shning uyiga bordiq. Bir uy va ayvonga yaxshi poloslar soling'an, ko'rpachalar yozilg'an, o'rta-da anvo'i dasturxonlar... Biz uyga kirib o'lturgandan keyin eshik yonida xushsurat bir yigit ko'rindi. Bizga tavozi'lanib xush omadi aytdi. Mirzo Anvar, degani shu emish. Biz iftorga qaradiq, mirzodan ahvol so'radiq, toshkandlik bo'lg'umiz keldi, deb kuldi. Biz – toshkandliklar xush ko'radirgan norin qildiribdir, xo'b yedik... Domla bilan bir nechalar fotihaga yaqin tashqarig'a chiqib ketdilar. Biz nima voqi' bo'lg'anig'a tushunmadik. Oradan bir oz o'tkandan keyin yana qaytib kirdilar. Dasturxonlar yig'ilib ish fotihaga to'xtalg'an edikim, domlanning oldig'a bir kosa suv keltirib qo'ydilar. Domla nikoh xutbasini<sup>2</sup> boshladi... Biz hayron bo'ldiq. Xutba oxirig'a yetib, mirzo Anvarga bir qizni nikohladilar; biz, mirzo bilan qizning haqqig'a duo qilib, tarqalishdiq. Lekin xilofi odat bu nikoh har birimizni taajjubga soldi. Yana birar hafta o'tkach, bir nechamiz mirzo bilan tanish bo'lib oldiq, keyinroq mirzoni ulfatchiligimizga ham olib kela boshladiq va shunda mirzoning o'z og'zidan Xudoyor bilan kechkan mojarosini eshitdik, taajjublandik va minba'd<sup>3</sup> mirzoga ixlosimiz ortdi...»

<sup>1</sup> **Iftor** (*arabcha*: nonushta qilish; ro'za ochish) – 1) ro'za kunlari shom paytida o'tkaziladigan ro'zani ochish, og'iz ochish marosimi; og'iz ochib ovqatlanish; 2) iftor vaqtida beriladigan ziyofat, mehmondorchilik.

<sup>2</sup> **Xutba** (*arabcha*: va'z, nutq; pand-nasihati) – 1) juma va hayit kunlarida imom xatibning sunnatdan keyingi (farzdan oldingi) va'zxonligi; taxtga chiqqan hukmdorning nomini namozdan keyingi duoda tilga olib, uning haqiqiy hukmdor ekanligini tan olmoq; 3) nikohlash vaqtida o'qiladigan duo (bu yerda shu nazarda tutilyapti).

<sup>3</sup> **Minba'd** (*arabcha*) – 1) bundan keyin (bu yerda shu ma'noda kelgan); 2) hech, sira, aslo.

Cholning soʻziga qaragʻanda mirzo Anvar Xudoyorning qoʻli yetmaydirgan Toshkandda (oʻrus qoʻl ostida) tinch, ammo juda ham faqir yashagʻan, boylargʻa mirzoliq qilsa ham, daromadi doimiy boʻlmagʻan. Toshkandda turishining uchunchi yillarida Xudoyordan bir afvnoma olib, qashshoqliq jonigʻa tekkan mirzo Anvar, oʻylab turmay, Raʻno bilan Qoʻqongʻa qaytqan. Oradan uch-toʻrt oy oʻtkach, Qoʻqondan kelguchilar mirzoning oʻldirilganligini soʻzlaganlar. Nega oʻldirilgan, eski «gunohi» uchunmi, boshqa sabab bilanmi yoxud «afvnoma» ham mulla Abdurahmonlarning nayranggi boʻlgʻanmi, otam bu tarafini yaxshi bilmas edi.

Men ushbu kitobka material yigʻish uchun Qoʻqon bordim, yashagʻan kishilar bilan soʻzlashib yurdim: oʻzi Xudoyor devonida ishlamagan boʻlsa ham, Xudoyor mirzolariga hamasr<sup>1</sup> boʻlgʻan bir keksa mirzoga uchrashdim. Uning soʻziga qaragʻanda, mirzo Anvar oʻldurilmagan. Xudoyordan soʻng ancha yil yashab, oʻz ajali bilan oʻlgan emish. Men hayron boʻlib qoldim va ikki oʻrtada taraddudlanib, mirzoning keyingi hayotini shu holda bitirishka majbur boʻldim.

*Abdulla Qodiriy – Julqunboy*  
*Toshkand, 1928-nchi yil, 15-fevral*

<sup>1</sup> **Hamasr** (*forscha*: ham + asr) – bir asrda yashovchi yoki yashagan; asrdosh.

## «MEHROBDAN CHAYON» ADIBLAR NIGOHIDA

### «Mehrobdan chayon» haqida<sup>1</sup>

1926-yilning kuzidan Qodiriy ikkinchi roman – «Mehrobdan chayon»ni yozishga tutinadilar.

Bu asar ham tarixiy. U ba'zi tarixiy shaxslar, xalq, hayot, davr jihatidan olib qaralganda, go'yo «O'tgan kunlar»ning davomidek ko'rinsa ham (masalan, «O'tgan kunlar»da Xudoyorxonning taxtga yangi o'tirgan davrlari tasvirlansa, «Mehrobdan chayon»da uning oxirgi xonlik hayoti ifoda etiladi), biroq mavzu, mazmun, voqealarning rivojlanishi jihatidan butunlay farq qiladi.

Agar ikkala asarni o'qib, fikran muqoyasa qilinsa, shunday bir tasavvur tug'iladi: «O'tgan kunlar»da uzoq bir tarix asta bir tekisda maqsaddan maqsadga ko'chib, maroqli tasvirlangani ko'riladi. «Mehrobdan chayon»da esa unday emas, voqealar murakkab, go'yo yozuvchi o'rtadagi kichkina bir voqeani bayon qilmoqchidek bo'lgan-u, lekin bu voqea kitobxonga to'laroq tushunarli bo'lsin uchun atroflicha tafsilolarga kirishgan va kutilmaganda bir roman hosil bo'lib qolgani kabi...

Men Qodiriy asarlarini qayta-qayta o'qirkanman, kitobdagi voqealarning chindan-da bo'lgan-bo'lmaganligi to'g'risida u kishiga turli-turli savollar beraverar edim. Biroq u kishi kulib: «Bu masalalarni keyinroq adabiyot domlang tushuntirib beradi...»,– deb qo'ya qolar edilar. Bunday paytlarda oyim menga oro kirar, dadamning mensimagandek bu xil javobidan achchig'lanar edilar:

– Kitobni siz yozing-da, ma'nosini domlasi aytib bersinmi? O'zingiz tushuntirsangiz bo'lmaydimi?

Dadam kulardilar, erinibgina javob qilardilar. Ammo u kishining bunday muomalasi yosh bola kezlarimda edi. Keyin-keyin tushuncham kengayib, chuqurlashib borgan sayin men bilan jiddiy suhbatlashadigan bo'ldilar. Bir kun dadamdan so'radim:

– Sizga «Mehrobdan chayon»dagi voqealarni, darhaqiqat, romanning xotimasida yozganingizdek, Qodir bobom aytib berganmilar?

Dadam bu savolga umumiy tarzda javob aytib, Qodir bobodan xususan romanga doir qanday voqealar tinglaganini so'zla-

<sup>1</sup> Ushbu parcha Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibullo Qodiriyning «Otam haqida: Xotiralar» kitobidan olindi.



magan, ehtimol, so‘zlashni xohlamagan edilar. Ammo keyinchalik romanga taalluqli shunday bir tarixni eshitganim bor.

Qudratilla amakim ham tarix va adabiyotga qiziquvchi kishi bo‘lganlar. (1956-yilda vafot etdilar.) U kishi bobomdan shu lavhani eshitganlarini keyinchalik menga aytib bergan edilar:

Xudoyorxon haram hovlisiga misdan katta bir hovuz yasatmoqchi bo‘ladi. Qo‘shbosh ismli (laqab bo‘lsa kerak) kekxa bir misgar ustani chaqirib, unga mis hovuz yasashni buyuradi. Misgar buyruqni bir shart bilan qabul qiladi: «Qarib qoldim, bu og‘ir ishni yolg‘iz bajara olmayman, bir o‘g‘lim bor, o‘zi menda zo‘r usta, unga ham haramga kirib, men bilan birga ishlashga ruxsat etsangiz»,– deydi. Xudoyorxon ruxsat beradi, ota-bola bir necha kun haramga kirib ishlab, mis hovuzni bitkazadilar. Gap shundaki, bu fursat ichida Qo‘shbosh misgarning o‘g‘li haram kanizaklaridan biri bilan sevishib, aloqqa bog‘laydi. Til biriktirib, bir kun payt topib, ular Toshkentga qochib keladilar va Eski jo‘va mahallasida istiqomat qilib, uyli-joyli, bola-chaqali bo‘ladiar. Chor askarlari Qo‘qonni olgach, o‘z shaharlariga ko‘chib ketadilar...

– U xo‘p chaqqon yigit edi-da, xonning kanizini olib qochib-di-ya, obbo bachchag‘ar-ey, xoh-xoh,– der ekanlar Qodir bobom.

Qudratilla amakim bobomdan eshitgan bu hikoyani Qodiriy eshitmagan bo‘lishlari mumkinmi? Mulohaza etib, shu singari kichik-kichik lavhalar yozuvchining ikkinchi tarixiy romanni yaratishga turtki bo‘lmadimikan, deyman. Ammo qay bir vaqt Qodiriy: «O‘tgan kunlar»ga material to‘plaganimda, ba‘zan qo‘limga qiziq tarixiy materiallar tushsa ham davr va yo boshqa jihatdan uning «O‘tgan kunlar»ga to‘g‘ri kelmasligini sezardim. Shunday bo‘lsa-da, ularni alohida yig‘ib borardim. Shu yo‘sin Xudoyor hayotiga doir anchagina ma‘lumotlar to‘planib, «O‘tgan kunlar»ni bitirgan chog‘larimda o‘rmini «Mehrobdan chayon» tashvishi egallagan edi», degan so‘zlarini ham eshitganim bor.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar muallifning navbatdagi romanini yozishga moyillanganiga oid gaplardir. 1926-yili Qodiriy «Mehrobdan chayon»ni yozishga jazm qilgach, garchi «O‘tgan kunlar» munosabati bilan avval bir necha marta borgan bo‘lsalar ham Qo‘qonga yana maxsus safarlar qiladilar...

...Qodiriy avval Qo‘qonga borganlarida shahar bilan yuzakigina tanishgan bo‘lsalar (chunki «O‘tgan kunlar» uchun Qo‘qonni sinchiklab ko‘rishning hojati yo‘q edi), bu gal uni batafsil o‘rganadilar, turli tabaqa kishilar bilan uchrashadilar, suhbatlashadilar, asarni boyitadigan, ishonarli qiladigan qimmatli materiallar topadilar. Masalan, Xudoyorxonning harami hayoti haqidagi ma‘lumotlarga to‘xtab o‘taylik.

«Haram to‘g‘risidagi ma‘lumotlarimizning aksarisi bu kunda ham hayot bo‘lgan shu Roziya oyimdan (Xudoyorxonning, sevikli xotinlaridan biri – H. Q) olindi. Hozir to‘qson yoshlarga yetgan bu kampir o‘zining kuchli xotirasi bilan bizga qimmatli ma‘lumotlar berdi. Hanuz saqlanib kelgan ba‘zi xususiyatlari bilan bizni taajjubga soldi....

Agar shu yuqoridagi izoh asosida tekshiruv o‘tkazib, mulohaza yurgizilsa, muallifning qanday sinchkovlik bilan material izlagani, mashaqqatlar chekkani to‘g‘risida birmuncha tasavvur hosil bo‘ladi.

Men mavridi kelmagandanmi, baharhol, otamdan «Mehrobdan chayon» ga material izlash-yig‘ish boralarida ortiqcha xotira eshitmaganman. Faqat qay bir vaqt: «Roziya oyimni izlab, Qo‘qon chetidagi bir qishloqqa bordim. U to‘qson yoshlarda, lekin hali tetik, gap-so‘zlari, muomalalari hamon eskicha, xonim oyimlar kabi yuqoridan...

Qodiriy haqida xotira yozishni niyat qilib yurarkanman, Qodiriy merosi bilan qiziqib shug‘ullanib yuruvchi, ilmiy xodim do‘stim Sherali Turdiev yaqinda menga: Toshkentda, Cho‘ponota mahalla, Bog‘obod ko‘cha, 93-uyda Roziya oyimning Kimyoxon Haydarova nomli qizi yashar emish, dadangizning Roziya oyim oldiga borganlari, suhbatlashganlari to‘g‘risida ancha ma‘lumot bilar emish, xabar to‘g‘ri bo‘lsa, u ayol bilan so‘zlashib ko‘ring, balki yaxshi ma‘lumotlar olarsiz» deb qoldi.

Bir kun (1966-yil) Sh. Turdiev bilan mazkur Cho‘ponota mavzesiga chiqib bordik. Kimyoxon oyini topib, u bilan uzoq suhbatlashib o‘tirdik. Kimyoxon oyining so‘zlari ishonchli haqiqat chiqib, birmuncha qimmatli ma‘lumotlar oldik.

Ma‘lumki, Qodiriy «Mehrobdan chayon»da Roziya oyim to‘g‘risida: «...Roziya oyim, garchi o‘tgan yillardagina xonga nikohlangan bo‘lsa ham o‘zining xayoliy husni bilan

«Sayid»ning iltifotini jalb etib, haramda birinchi mavqega mingan xonimdir....

1875-yillarda ruslar kelib, Qo‘qon xonligi tugatilgach, Xudoyorxon Peterburgga ketadi va undan hajga o‘tib, o‘sha yoqda vafot etadi. Qo‘qonda qolgan Roziya oyim esa keyinroq sobiq saroy a‘yonlaridan biri bo‘lgan Haydar sarkor degan kishiga (to‘rtinchi marta nikohlanishi) erga tegadi. Haydar sarkorning avvalgi xotinidan yosh bir qizcha qolgan bo‘lib, uni Roziya oyim tarbiyalaydi. O‘sha qizcha ana shu biz tanishgan Kimyoxon ekan. Ya‘ni Kimyoxonga Roziya oyim o‘gay ona hisoblanadi.

Kimyoxon oyi sakson yoshlarda bo‘lsa ham xotirasi kuchli. Uning bir o‘g‘il, bir qizi bo‘lib, o‘g‘li Toshkentda chet tillar institutida o‘qituvchilik qilar, shu sababli u Qo‘qondan Toshkentga ko‘chib kelgan ekan...

– Men,– deb hikoya qiladi Kimyoxon oyi,– o‘z onamni eslay olmayman. Roziya oybam qo‘llarida tarbiyalandim, turmushga chiqdim. Ikki farzand ko‘rgach, yoshgina tul qolib, boshqa er kilmadim. Umrinni shu ikki bola-yu Roziya oybam; bilan o‘tkazdim... Oybamning yaqin hesh-aqrabolari ham, borlari ham o‘la-o‘la so‘nggi choqlarda mendan boshqa yaqin kimsalari qolmagan edi. U kishi 96 yoshda o‘z qo‘limda vafot etdilar...

Kimyoxon oyi Qodiriyning Roziya oyim bilan bo‘lgan uchrashuvlarini eslab, shunday hikoya qiladi:

– Oybam o‘lmaslaridan uch-to‘rt yil burun edi, shekilli, qoradan kelgan, qora baxmal do‘ppi kiygan bir kishi (keyin bil-sam – Julqunboy) Galaboqqol mahallasidagi uyimizga bir necha bor (yolg‘izmi, hamroh bilanmi – yodimda yo‘q) bordilar<sup>1</sup>, oybam bilan suhbatlashib qaytdilar. Xotirimda, bir gal u kishi oybam bilan so‘zlashgani eshigimizga keldilar, oybam bo‘lsa Ingichkadagi bog‘imizda edilar, men u kishini qizim Sa‘dixon bilai Ingichkaga yo‘lladim... Julqunboy birinchi gal kelganlarida salom-alikdan so‘ng baland ovoz bilan so‘z boshlaganlari esimda (chunki oybamning quloqlari bir oz og‘irlashib qolgan edi). «Oyi, men sizni Toshkentda ko‘p qidirdim. Keyin daragingizni bilib bu yoqqa keldim»<sup>2</sup>,– dedilar u kishi, «Xush kelibsiz, bolam.

<sup>1</sup> Qodiriy Roziya oyim oldiga Bosit Qodiriy hamrohligida borganlari aniq.

<sup>2</sup> Kimyoxon oyining aytishicha, Xudoyorxonning Madaminbek, Fansurullobek (Og‘acha oyimning o‘g‘li), Ilmiyanbek degan o‘g‘illari va Mirsaidxon ismli nevarasi ruslar davrida Toshkentda yashaganlar. Roziya oyim esa bularnikiga tez-tez kelib turgan. Shu sababli Qodiriy Roziya oyimni yoki mazkur o‘g‘illarni Toshkentdan izlagan bo‘lsalar ehtimol.

Kim bo'lasiz, qanday yumushda keldingiz?»— dedilar oybam. «Kasbim kitob bitish. Xudoyorxon to'g'risida bir kitob bitsam degan niyatim bor. Xon to'g'risida siz bilan picha suhbatlashsam, ba'zi narsalarni so'rab bilsam, degan tilakda ziyoratingizga keldim»,— dedilar Julqunboy, keyin: «Agar kitob o'rinlasa sizga ham nafi bo'lar»,— deb qo'shib qo'ydilar...

Kimyoxon oyi tafsilotda davom etib, dedi:

— Oybamlar, Julqunboy yozmoqchi bo'lgan kitobni kutdilar. Biroq, afsuki, kitobni ko'rolmay yigirma to'qqizinchi yil edi, shekilli, vafot etdilar. Oybamga yigirma ushatar kuni kimdir «Mehrobdan chayon»ni keltirib, xotinlarga ko'rsatdi, undan oybamga taalluqli yerlarini o'qib tinglashdi...

...Kimyoxon oyi so'z oxirida:

— Dadam bilan oybamni nikoh qog'ozlari menda xitoyi ko'ra ichida saqlanib kelardi. U qog'oz urush yillarida bolalar qo'lga tushib o'choqda yoqilib ketdi,— deydi va taajjublanib kuladi.— Hayronman, bu xotiralar yodimda qanday saqlanib qolgan...<sup>1</sup>

### **Obrazlar qayoqdan olindi?**

Yuqoridagi ma'lumotlar asarning bir tomoniga, ya'ni tarihiyligiga taalluqli gaplardir. Ammo asarniig ikkinchi eng mas'u-liyatli tomoni bor: Voqealar, konfliktlar, qahramonlar, tiplar, xarakterlar yaratish va ularni asarning umumiy ruhiga, yo'nalishiga ustalik bilan singdirib borish... Bu jihatlar, albatta, juda murakkab, yozuvchining mahoratiga, iste'dodiga, hassosligiga bog'liq narsalardir. Shunday bo'lsa-da, ko'ngliga bir fikr keladi: Solih Maxdum va Ra'nolar-ku, hayotda aynan bo'lmasa-da, tez-tez uchraydi, ammo Anvar va Mulla Abdurahmon singari murakkab, bir-biriga zid obrazlar qayoqdan olindi ekan? Bu — avtor fantaziyasimikan, yoki bular ham turmushda ko'rilgan achchiq-chuchuk kechinmalarmikan?..

Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov «XV asr o'zbek adabiyotining boshqa sharqiy adabiyotlar bilan qiyosiy o'rganishning ba'zi masalalari» degan doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan yozgan avtoreferatida shunday bir ma'lumotni keltirib, mulohazasini aytib o'tadi:

<sup>1</sup> Kimyoxon oyi 1968-yilda vafot etdi (H. Q.).

Alisher Navoiy bilan hamasr bo'lgan mashhur Ozarbayjon shoiri Sayid Imodiddin Nasimiy o'z zamonasidagi mutaassib ruhoniylarga qarata maxfiy, qaqshatg'ich bir hajviy she'r yozadi. Davlat idora ishlarini o'z qo'llarida tutgan ruhoniylar bu she'rning muallifini bila olmay qahrlanib, g'azablanib yuradilar.

Kunlarning birida ruhoniylar Nasimiyning mazkur she'rini yosh bir yigit xush ohangda o'qib turganini sezib qoladilar va «she'rni sen yozgansan», deb uni tutadilar, o'limga hukm etadilar... Mazkur yigit esa Nasimiyning yaqin do'sti, she'rni Nasimiydan yozib olgan bo'ladi. U o'z do'stiga xiyonat qilishni xohlamay, o'limga mardona bosh egadi.» Biroq bu xabarni eshitgan Nasimiy o'z she'ri uchun do'stining halok bo'lishini istamaydi, qozi mahkamasiga borib: «Mazkur she'rni men yozganman»,— deb iqror bo'ladi, do'stini o'limdan ozod etadi.

Halab ruhoniylari Nasimiyning terisini shilib o'ldirishga fatvo berishadi va darhaqiqat, 1417-yili shoir Sayid Imomiddin Nasimiy terisi tovonidan boshigacha shilinish, vahshiylarcha o'ldiriladi.

Ergash Rustamov deydi:

«Mehrobdan chayon»da Xudoyor tomonidan. Sultonali mirzoning Anvar gunohi uchun o'ldirilmoqchi bo'lishi, bunga qarshi o'z do'stini qutqazmoq uchun Anvarning xonga borib taslim bo'lishi voqealari shu shoir Nasimiy fojiasini eslatadi... Ehtimol, bu o'xshashlik tasodifiydir. Ehtimol, Qodiriy Nasimiy fojiasini tarixdan bilgandir, undan ilhomlangandir».

Qodiriy Xudoyor saltanatini, davrini tasvirlashga kirisharkanlar, faqat yuqoridagi kabi ayrim voqea, og'zaki xabarlar bilangina cheklanib qolmaydilar. «O'tgan kunlar»dagi kabi bu roman uchun ham o'sha davrga oid turli tarixiy adabiyotlarni sinchiklab o'qib o'rganadilar (albatta, bu fikrlar yozuvchining o'z so'zidan olib aytilayotir, bu to'g'rida quyida so'z bo'lur) va yig'ilgan ma'lumotlarni fikran umumlashtirib, uni ma'lum bir tartibga ham solib chiqadilar, go'yo romanning umumiy shakl-mazmuni ham tayyorday bo'ladi. Ammo u kishini bir narsa ancha vaqt o'ylatadi, izlatadi, qiynaydi.

– «Mehrobdan chayon»ni yozishga tayyorlandim. Hamma narsa taxt: romanning shakli, qahramonlari, voqealari, asarning qanday xotimalanishi ko'z oldimdan davra olib o'tib turadi. Ammo ishni qaerdan, nimadan boshlash, davruga qanday kirib

borish masalasi meni o'ylatar, qiynar edi,– degan edilar dadam bir vaqt, oilaviy o'tirishda tush to'g'risida suhbat bo'lganda,– bir kun tush ko'rdim. Go'yo Mahmud domla go'sht, piyoz ko'tarib machitdan chiqib kelar va uzoqdan meni o'ziga imlab, qo'lidagilarni ko'rsatar edi. Uyg'onib ketdim. Ajablanib, xayol surib yotdim va birdan quvonib ketdim. Chunki ipning uchi topilgan, romanning qanday – qaerdan boshlanishi aniqlangan edi...

Shoir G'ayratiy hikoya qilgan edi:

– 1930-1932-yillar miyonasida bo'lsa keraq, Abdulla akam biz yosh yozuvchi-jurnalistlar bilan bir necha bor adabiy uchrashuvda bo'lib, o'z ijodiy tajribalaridan so'zlab bergan edilar. Uchrashuvlardan birida (bu uchrashuv yoz kunlari nashriyot binosida bo'lgan edi, shekilli) u kishi asta so'zlab o'tirib, shu fikrni aytganlari yodimda:

«So'nggi yillarda yosh yozuvchilarimizning ko'payib borishi meni quvontiradi. Lekin ayrimlarning asarlarini o'qib shunday nuqsonlarni sezaman: asarga mas'uliyatsiz qarashliq, kichik fikr-voqealarni haddan ortiq shishirib yuborishlik, asarning boshdan-oxirini avvaldan o'ylab, belgilab olmaslik, hokazo... Bu nuqsonlar asar qiymatini tushiradi, uni zerikarli qiladi. Agar yozuvchi asarni boshdan-oxir yaxshi o'ylab olsa, yozish oson ko'chadi. Masalan, men «Mehrobdan chayon»ga ma'lumotlar to'plab bo'lganimdan keyin asar shaklini bir yildan ko'p o'ylab yurdim. Ma'lum fikrga kelib olgach, romanni qariyb bir yilda yozib bitirdim».

«Mehrobdan chayon» yozilgan chog'larda men to'qqiz-o'n yoshli edim. Bu roman ham Eshonguzar mahallasida, o'sha hovli, o'sha uy, o'sha sandalda o'tirib, ikki kish (muallif yuqorida: «Qariyb bir yilda bitirdim»),– deb faqat ijod qilgan oylar-nigina hisobga olgan bo'lsalar kerak) yozilgan. Bu o'rinda, mavzudan sal chetrod chiqsak-da, bir kulguli xotirani so'zlab o'tmoqchiman:

Besh-olti yoshli paytlarim, qish, ro'za oylari edi. Dadam erta-yu kech sandalda qadalib, «O'tgan kunlar»ni yozardilar. Men dadamning bunday o'tirish ma'nosiga tushunmas, aksincha, «nega u hadeb o'tiraveradi, yozaveradi-a?» deb ajablanar, ach-chig'lanar edim... Bir kun, kechqurun, odatimcha, oyimdan: «If-torlikka nisholda olib kelaymi?»– deb so'radim. «Kerak emas, pul yo'q»,– dedilar oyim. Men «pulsiz ham berar» deb umid kildimmi yoki juda nisholda yegim kelganidanmi, sekingina

piyolani ko'tarib, ko'cha boshiga chiqdim... Hammaning havasini keltirib nisholda sotib o'tirgan Malikxo'ja amaki qo'limdan piyolani olib: «Puli qani?»— dedi. «Yo'q» dedim. «Bor, pul olib chiq!»— dedi va piyolani quruq qaytarib berdi. Men ko'pchilik ichida izza bo'lib uyga qaytdim va yig'lab, oyimni «koyib» ketdim:

– Nisholda bermadi!.. Adam ham nisholda qilib sotsa bo'l-maydimi! Hadeb yozaveradimi!..

Ammo «Mehrobdan chayon» yozilgan vaqtda dadamning kimligini birmuncha anglar, mehnatini bilar, asarlarini unchamuncha o'qib tushunar, u bilan faxrlanar edim. U kishi muttasil uyda o'tirar, goho bir-yarim kelgan yor-do'st mehmonlar, ariza yozdiruvchilar (Qodiriy ba'zan iltimos qilib keluvchilarga ariza ham yozib berar edidar) alahsitmasalar, uyda hech kim u kishiga xalal bermas edi, U kishining kuni tartiblari: yozish, yozish... Yozishdan charchagan vaqtlarda mutolaa qilish, uy yumushlariga qarashish, ko'cha boshidagi usta do'koniga, choyxonaga chiqish, bozor aylanish edi... :

...«Xo'ja Nuriddin» qabristoni yonida Shorahim ota degan keksa bir kishi yashardi. U hech kimi yo'q, kasb-korsiz juda faqir, qilar ishi erta-yu kech gupillatib nasha chekish edi. Uni hamma «Shorahim bangi» deb atar, bilmadim, u qanday manbaga yashar edi. Biz, bolalar, uning eshigidan o'tganda: «Shorahim bange-e!»— deb qichqirib qochar edik. U orqamizdan «Ha-ayt!» deb po'pisa qilib qolardi.

Taom pishgach, oyim: «Bor, adangni aytib kel!»— derdilar. Men dadamni izlab, ba'zan ana shu Shorahim otaning uyidan topardim. Uning uyi qanaqa deysiz, qoq yer, qora shift, chaldivor, olov yoqilaverganidan ichi mo'ridek qorayib ketgan, bir burchagiga uvada ko'rpa-yostiqlar to'shalgan, xolos. O'zi esa moshguruch majnunona soch-soqolli, rangi tag-tagidan sarg'ayib, qovoqlari salqigan, qizil ukki ko'zlari o'qraygan, ko'k-sovtabiat kishi edi. Dadam uy o'rtasidagi gulxan yonida choy ichib, u bilan suhbatlashib o'tirar edilar...

Men bu Shorahim otaning hayotini, gulxan yonida Qodiriyning choy ichib o'tirishlarini hamon eslasam, «Mehrobdan chayon» dagi «G'arib ko'ngli»ni, Anvarning: «...Men shunday qorong'u uyda, gulxan yonida o'tirishni va shu holda choy

ichishni juda yaxshi ko'raman. Bu o'ltirishning shoirona, darveshona bir nash'asi bor», degan so'zlarini xotirlayman...

1927-yilning qish oldi edi chog'i, dadam «Mehrobdan chayon»ni avji yoza turib, to'satdan Qo'qon safariga jo'nab qoldilar va besh-o'n kun aylanib kelib, yana ishini davom ettirdilar. Shunda bir kun mulla Alijon domla, odatlaricha, bizga mehmon bo'lib keldilar-da, suhbat chog'i dadamdan so'radilar:

– Qo'qonga boribsiz, deb eshitdim?..

– Ha, domla, romanning ba'zi o'rinlarini aniqlash zarur bo'ldi, bormasam ish yurishmaydigan, birrov borib qaytdim.

Bu vaqtlarda ham dadam mahallamizdagi mazkur ulfatlari bilan gap-gashtak yerlar, yozayotgan «Mehrobdan chayon»dan mehmondorlik paytlarida parchalar o'qib berardilar. Xotirimda: bir qish, gap berganimizda, u kishi romandan «Barimta» bobini (chamasi, roman tugallanish arafasida ekan-da) olib chiqib mehmonlarga o'qib bergan edilar, dadamning og'zidan mayin eshutilgan o'sha jarchiniig xabari (she'r), Rahimning g'azabi, uch do'stning qo'l olishib qilgan ahdi, do'kon yonidagi kallapazning zo'r berib yog'li hasipini maqtashi, qalandarlar talqin lavhalari quloqlarim tagida hamon takrorlanganday, dadamning ovozlari eshutilganday bo'ladi...

### **Roman bosilib chiqqandan so'ng**

1928-yilning qish chiqishida (15-fevral) Qodiriy romanni yozib tugatdilar. Romanning bitganini men shundan xotirlaymanki, u kishi endi, o'ylanib o'tirib, yozishni qo'yib, kun sayin nusxa ko'chirishga boshlagan edilar... Ko'chirish bir necha kun davom etib, oxir zerikdilar, shekilli, bir kun (erta bahor edi) Qodiriy o'sha vaqtning yosh ziyoli, adabiyot havaskorlaridan hisoblangan Hamid Sulaymon (1979-yilda vafot etdi), Rahmat Azizxo'jaev, Mansur Rizqiy, Fazliddin Hoshimovlarni<sup>1</sup> uyimizga chorlab keldilar. Mehmonxonaga o'tqazib, o'rtaga bir necha xontaxta qo'ydilar va qo'lyozmaning nusxa ko'chirilmagan boblarini ularga ko'chirishga bo'lib berdilar. ...Hasharchilar bir kunmi, ikki kunmi nusxa ko'chirishdi. Ish oxirlagach, osh damlab, ularni kuzatdik va Qodiriy qo'lyozmani o'zlarida qoldirib, nusxani nashriyotga topshirdilar...

<sup>1</sup> Bular hozir pedagog, yozuvchi, bosmaxona xodimi, shifokordirlar.



Shu kezlarda ba'zi kimsalarda, eski ziyolilardan foydalanilmasin, degan zararli «g'oya» hukm surib, Qodiriy matbuot – nashriyot ishlaridan yiroqlashibroq yurardilar. Shundanmi va yo boshqa boisdanmi, har holda, qo'lyozma nashriyotga topshirilsada, u tezlikda bosmaga tushirila qolmaydi. Romanning badiiy tomonga bir narsa deyilmasa ham «Roman, siyosiy jihatdan, balki, hozirgi davr talabiga javob bera olmasmik?» degan ikkilanish – dudmallik bilan asarni nashrga tayyorlashni bir necha oylab to'xtatib qo'yiladi. Nihoyat, Qodiriy o'zlari qo'lyozmani ko'tarib, Akmal Ikromov oldiga chiqqach va u kishi asarni o'qib ko'rib, ustiga «Bosilsin» deb imzo chekkach, romanni nashrga tayyorlash ishlari yurishib ketadi.

Shunday qilib, 1929-yilning mart oyida roman Samarqand shahrida bosmadan chiqadi (7000 nusxa). Bir kun dadam shahar hovlimizga bir dasta kitob ko'tarib keldilar va yor-do'stlarga, qo'shnilarga ulashdilar. Kitobning birinchi nashri arab alifbosida, qalinroq qog'oz muqovada edi. Muqova ustiga mehrob surati solinib, o'rtasida sallali xunuk bir mulla-imomning basharasi chizilgan, tag qismida esa chayonning rasmi...

Realistik adabiyotga hali chanqoq kitobxonlarimiz bu ikkinchi romanni ham yaxshi kutib olishdi: bunisi ham birinchisi kabi do'konlarda ko'p turmay, tez kunda sotilib bitdi; qo'lma-qo'l o'qila boshladi; hatto uyimizga yiroq-yovuqdan kitob so'rab kelish hollari ham bo'ldi va shu sababdan bo'lsa kerak, shu yilning o'zida roman ikkinchi qayta nashr etildi.

«Mehrobdan chayon»ning bosilib chiqishi munosabati bilan Murodxo'ja domla Julqunboyga bag'ishlab she'r – madhiya yozadi. Bu madhiyaning she'riyatda qanchalik qiymati bor-yo'qigidan qat'iy nazar, uni kitobxonlar ommasiga qanchalik manzur bo'lganligini ko'rsatuvchi bir dalil sifatida quyida ko'chiramiz:

*Oling chiqdi, bu kun Julqunning yozgan fikri inshosi,  
Desa mumkin ani bahri adamning durri yaktosi,*

*Asarniig ismini go'yo «Mehrobdan chayon» qo'yg'on,  
Bitib chiqmasdan avval tutdi olamni allosi.*

*Ko'zim o'ngida turgan jilva birla ayrilmas,  
Bayon etganda Ra'no vafida ul ko'zi shahlosi.*

*O'qib chiqqon zamon she'ri Ra'no birla Anvarning,  
Ajab mahv ayladi alfab-u gulshanning tamoshosi.*

*Ko'ngilda qayg'uni mahv etgali mehrobi afsonang,  
Sharob ilkingdan totmoqqa go'yo sirkosi.*

*Boshimda bir turli qayg'u bor edi, xotirim ranjur,  
Tamoman bir yo'li yo'q etdi, afsonang allosi.*

*Kel endi, xizmat aylab tut qalam ilgingga, ey Julqun,  
Ko'ngilda bor ersa gar she'r etmog'liq tamannosi.*

*Agar fursat topilsa, ushbu she'rni jam' qilg'oydim,  
Xaloyiqning boshimda bor erur besud savdosi.*

*(«Sharq haqiqati» gazetasi, 1930-yil, 80-son)*

Roman chiqqach, uni uyimizda har kim o'zicha sevib o'qirdi. Josiyat bibim «Baxmalbofda faqir bir oila», «Taniyanmi shu jajji qizni?» boblarini o'qitib eshitar ekanlar, ko'zyosh qilar edilar. Xonim bibim «Xon ko'ngil ochmoqchi», «Qiziqalar» boblarini menga o'qitib kular edilar. Oykumush opam «Do'stlik karomagi» bobini o'qib, negadir zo'r berib tunqotarni qarg'ar edi. Menga eng ma'quli esa «Qo'rqinch bir jasorat» bobi va Nigorxonim obrazi edi. Chunki Nigorxonimning tashqi qiyofasi, og'ir, mayin tabiati, muomalasi, bor-yo'qdek uyda yurishi xuddi oyimga o'xshab ketardi...

Bir vaqt mehmondorlikda mulla Alijon domla bilan Qodiriy o'rtalarida shunday suhbat bo'lgan edi:

– Menga ayniqsa Safar bo'zching yoqdi, Abdulla... U nafsilamr, sodda, pokiza, hoksor yaratilgan iison...

– Mahdum domlaga nima deysiz?..– deb kuldilar norin to'g'rab o'tirgan Qodiriy.

– U – voqean hozirda ham uchraydigan mullalarimizdan bir vakil. Uning marg'ub, nomarg'ub tomonlari haq. Lekin qurg'urning nomarg'ub sifat – xislatlari o'tacha... Ziqnalik ham evi bilan-da!..

– Pastkashlikni qarang, domla, Mahdum domlaning fikricha, qovoq somsaga yog'ni kam solish kerak emish, negaki yog'

qovoqniig ta'mini buzari emish...– dedilar Qodiriy va qotib kuldilar.

Qodiriyning bunday kayflanib kulishlaridan, xursand bo'lishlaridan sezilardiki, u kishi o'zi yaratgan obraz xarakterlarga o'zi ham qoyil, o'zi yozib o'zi zavqlanadi. Ba'zan u kishining o'z asarlarini o'zlari o'qib kulib o'tirgan paytlari ham bo'lardi...

Bir kun kechki payt shahar hovli eshigimiz taqilladi. Chiqib ochdim. Ko'chada to'n kiygan, mo'ylabli, yoshroq, oq yuzli notanish bir yigit turardi. «Dadangiz bormilar?»– deb so'radi u. «Borlar»,– dedim. «Chaqiring»,– deb iltimos qildi yigit. Bir vaqt dadam u yigitni eshikdan kuzatib, qo'llarida yaraqlagan bir mahsi ko'tarib kirib keldilar. Oyim mahsini ko'rib, so'radilar:

– Ha, mahsi buyurganmidingiz?

– Yo'q,– dedilar dadam mahsini qo'yib mamnun bir vaziyatda,– bir guruh kosiblar to'kmada «Mehrobdan chayon»ni o'kishibdi va rahmatnoma tariqasida, hammalari bu mahsini tikib, sovg'a qilishibdi.

Qodiriy romanning «Qirq qizlar» bobida haramdagi – san'atkor, sozanda, raqqosa, xonanda qizlarni tasvirlab kelib: «ular hanuz ham shaharning mashhur xotinlari bo'lgan Nusrat hofiz, Botirboshi xola, Tilla hofiz, Toji hofiz, Mishol hofiz, Xon og'acha, Misoq og'acha, Ulug' o'yinchi, Shohbachcha, Rajabhon, Tosh hofiz va hatto marg'ilonlik Zebixonlardan o'yinga, sozga, ashulaga ta'lim olib kelarlar va shuning uchun har birlari o'z hunarlarida yaxshi san'atkor bo'lgan edilar», deb yozadilar:

Bir kun suhbatda yuqorida nomlari zikr qilingan mazkur xotinlarni eslab, Qodiriydan so'radim:

– Bu san'atkor ayollar bo'lgan ayollarmi, ada?

– Ha, bo'lgan.

– Ularni qaerdan bildingiz?

– Roziya oyimdan...

Qodiriydan yana so'radim:

– «Xon ko'ngil ochmoqchi» bobida «Sarbozcha» kuyi chalinganini yozasiz... Bu kuyning ohangi qanday?..

U kishi kulib, «Shahanshohim» she'rini «Sarbozcha» kuyiga solib aytib berdilar va;

– Bu kuy juda ko'hna, Navoiy o'ylab chiqargan,– deb qo'ydilar.

– Navoiy muzika chalishni bilganmi?

– Ha, u yaxshi tanbur chertgan. Uyni qorong‘ilatib yolgiz o‘zi o‘tirarkan-da, kuy-maqom ijod kilarkan...

1935-yilda «Mehrobdan chayon» uchinchi qayta nashr etildi. Bu nashr lotin alifbosida, muqovasining ich tomonlariga bir necha tasviriy rasmlar berilib, 7100 nusxada chiqdi. Shu yilning o‘zida asar Alizoda tarjimasida tojik tilida ham chop etildi. Alizoda roman tarjimasida jarayonida muallifdan maslahatlar olgani Dushanbadan biznikiga kelib ham ketdi. Keyin bir kun (Tojikiston Davlat nashriyotidanmi yoki Alizodadanmi) pochta orqali bir necha nusxa «Kajdum az mehrob» oldik. Men kiziqib, uni darhol o‘qib chiqdim<sup>1</sup>. Shunda dadam mendan so‘ragan edilar:

– Qalay, tarjima senga yoqdimi?

– Yoqdi... Asliga juda yaqin,– dedim.

– Fors-tojik tili yoqimli, ko‘p ibora, urf-odat jihatlaridan bizga juda yaqin, shuning uchun tarjima, ravon, chiroyli chiqadi,– dedilar u kishi.

1935-1936-yillarda L. Sotserdotova<sup>2</sup> «Mehrobdan chayon» romanini ruschaga tarjima qildi. Tarjimaning ayrim boblari esa «Literaturniy Uzbekistan» jurnalining 1936-yil sonlarida bosilib ham turdi. 1936-yilning oxirlarida L. Sotserdotova tarjimini tamomlab, qo‘lyozmani Qodiriyga bir yo‘la o‘qitib oldi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga muhokamaga topshirdi. Oradan birmuncha vaqt o‘tib, bir kuni, ittifoqo, men so‘radim:

– Ada, roman muhokama qilindimi, rus yozuvchilariga ma‘qul tushdimi?..

– Ma‘qul tushdi... Faqat kitobning bir o‘rinlariga e‘tiroz bildirishdi...

– Qaysi yeriga?

– «Amir Umarxonning kanizi» bobiga... Ba‘zi rus tarixchilari «Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo‘qonga bostirib kelishi faqat bir kaniz maqsadidagina emas edi. Nasrulloxon bunda iqtisodiy manfaatlarni ham ko‘zda tutgan edi», deb fikr aytishayotir...

<sup>1</sup> Men bu vaqtlarda fors-tojik tilini o‘rgangan edim.

<sup>2</sup> Lidiya Yevgenevna Soderdotova (1954-yilda oltmish yoshlarda vafot etgan). Sharqshunoslik institutini bitirgani, Yozuvchilar uyushmasining a‘zosi, o‘zbek tilini yaxshi biluvchi va erkin so‘zlasha oluvchi tarjimon edi. U Qodiriyning «Obid ketmon» qissasini va birmuncha hikoya, maqolalarini ham ruschaga tarjima qilgan. Lidiya opa tarjima xususida dadamdan maslahatlar olgani biznikiga tez-tez kelib turar, oilamizga qadrdon bo‘lib qolgan, kamtar ayol edi.

– Ular fikriga siz qanday qaraysiz?

– Balki, fikrlari to‘gridir. Men romanga material to‘plaganimda masalaning bu tomonini tarixdan chuqurroq o‘rganmagan edim...

«Mehrobdan chayon» 1961-yili rus yozuvchilari L. Bat va V. Smirnovalar tomonidan qayta tarjima etildi, shuningdek bu asar, hozircha, mening aniqlashimcha, uyg‘ur, litva, ozarbayjon, turkman tillariga ham tarjima qilingan.

*Habibullo Qodiriy*

### **Shoirona, darveshona bir ma’no<sup>1</sup>**

Ulug‘ san’atkorlarga hamisha bashorat tuyg‘usi yor bo‘ladi. Mumtoz o‘zbek adibi Abdulla Qodiriy ana shunday san’atkorlar sirasiga kiradi.

Uning o‘lmas dahosiga mansub asarlarni el aro mashhur va sevikli qilgan fazilatlar bisyor.

Tasvirdagi donishmandlik, nuroniy aql va soddalik, andisha, hur fikr va insoniy joziba yog‘dusi shu xil fazilatlarining ayrim belgilari, xolos. Shu bois ham, oltmish yildan oshibdiki, «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» kitoblari halq qo‘lidan tushmaydi, avlodga, nasllardan nasllarga suyaklik, ardoqli bir ma’naviy meros bo‘lib keladi. Holbuki, bu oltmish yillik tarix mobaynida adabiy qarashlar, san’at asari haqidagi tasavvurlar bizning jamiyatimizda kam deganda olti yuz marotabalab o‘zgargandir...

Hech kimga sir emaski, Abdulla Qodiriy yashab ijod etgan davrda milliylik haqida nafaqat asar yozish, balki gapirish ham mumkin bo‘lmagan. Lekin A. Qodiriy esa mustabid tuzum iste’dod egalarini sindirib, bukib, qul qila boshlagan bir paytda o‘zining adabiy bashorat bilan maydonga chiqdi: yuragida o‘z zamonasining «Layli va Majnun»lari, «Tohir va Zuhro»lari, «Bahromgo‘r» va «Chor darvesh»larini yaratish zaruratini anglatdi. Davr taqozosi, uning beshafqat bo‘ron va aldamchi epkinlari ko‘plab qalam sohiblarini uzoqdan munavvar bo‘lib ko‘ringan, lekin oxiri berk ko‘chalarga boshlab ketganida Abdulla Qodiriy

<sup>1</sup> **Izoh:** Xayriddin Sultonovning «Mehrobdan chayon» haqidagi ushbu ilmiy-ommabop maqolasi birinchi bor «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 1991-yil 1-iyundagi sonida chop etilgan edi. Bu yerda maqola aynan keltirilmagan, ya’ni ba’zi bir qisqartirishlar asosida keltirilgan.

san'atni ilohiy bir mo'jiza deb bildi, so'zni muqaddas yalov kabi yuksakka ko'tardi.

«Ehtiyoj kishini buyuk kashfiyotchiga aylantiradi»,– deydi Robinzon Kruzo, Abdulla Qodiriy dilidagi tuyg'u yurakdan anglagan badiiy ehtiyoj edi – u kashfiyotchiga aylandi. Ko'hna o'zbek tarixining, sokin, mudroq qo'rg'onlar bag'ridagi sirli hayotning, muazzam o'rdalar qo'ynida kechgan fitna – fujurlarning, qashshoqlar kulbasiga sof, odmi, halol munosabat-larning, jahondagi qayg'uli ishq qissalaridan birining, inson ruhiyatining murakkab g'alayonlarining mislsiz kashfiyotchisiga aylandi u.

Ruhiy tahlil bobida Qodiriy o'ziga xos maktab va an'ana yaratgan san'atkor ekanligi ko'pdan e'tirof etilgan haqiqat. Uning tahlili negizida insonga hamdardlik, shafqat, joziba tuyg'ulari mujassam. Uslubdagi shu jozibadorlik bois tuyg'ulari mujassam. Uslubdagi shu jozibadorlik bois Qodiriy tasviri hamisha qavat-qavat ma'no kasb etadi, kitobxonni turfa xil o'ylarga toldiradi. Yodingizda bo'lsa, «Mehrobdan chayon»ning «G'arib ko'ngli» degan faslida adib mahalla qorovuli Toyir akaning «tutun bilan qop-qoraygan, pastgina qorong'i hujrasini» tasvir etadi. Sehrli qalamning joziba qudrati shunchalarki, Anvar shu hujraga kirib kelgach, yarim betli tasvirdan so'ng bu pastqam oshiyon kitobxon ko'z o'ngida bag'oyat shinam bir go'sha kabi gavladanadi. Yozuvchi bunga hech qanday zo'rakiliksiz, sof realistik ifoda yo'li bilan erishadi, biror lahza bo'lsin, hayot haqiqatidan chekinmaydi:

*« Toyir aka qoziqdag'i tugunni ochib to'rt-beshta non, bir hovuch kattaqo'rg'oni mayiz olib, kichkina barkashchaga soldi. Barkashni Anvar oldig'a keltirib uzr aytdi:*

*– Kambag'alchiliq, taqsir, oldingizg'a dasturxon yozolmadiq...»*

Bu so'zlarda qanchalar o'kinch, ko'ngil siniqligi, armon va insoniy hasrat mujassam... Bu jumlaning o'qigan chog'larimda nihohim qarshisidagi hujra yana ham qorong'ilashib, yana ham past tortgandek tuyulaveradi. Shiftni qoraytirgan achchiq tutun tomog'imni battarroq bo'g'ayotgandek bo'ladi. Ammo buyuk san'atning joziba kuchi bilan shu lahza mo'jiza ro'y beradi – buning uchun mirzo Anvarning iqki og'iz sehrli so'zi kifoya:

«– Nima aybi bor, – dedi Anvar, – men shunday qorong‘i uyda, gulxan yonida o‘lturishni va shu holda choy ichishni juda yaxshi ko‘raman».

Nima uchun? Qorong‘i uyda, gulxan yonida o‘ltirib choy ichishda qandoq xislat bor?

Bu savolga Anvarning o‘zi kabi yuragi pok do‘sti Sultonali javob qiladi:

«– Bu o‘lturishning bir nash‘asi bor...»

Lekin qanday nash‘a bu? Bir lahzalik sukutdan so‘ng nim-qorong‘i hujra ichra mirzo Anvarning o‘ychan tovushi eshitiladi:

«– Bor... Shoirona, darveshona bir ma‘nosi bor. Men yosh, yatim chog‘im, opamning uyida shu holni ko‘rar edim. Yaznam qashshoq kosib edi. Qish keldi deguncha gulxan yoqar va shu yo‘sun, gulxan yonida o‘lturib choy ichar edim. Shu gulxan hayoti hanuz mening esimdan chiqmaydi va shu hayotga hamisha ko‘ngilda bir muhabbat saqlayman...»

Bu dardchil, haroratli so‘zlar jozibasi ko‘p narsalarni yodga soladi. Kitobxon ko‘z o‘ngida beixtiyor qorong‘i hujra yorug‘lashgandek, sirli bir yog‘du bilan fayziyob bo‘lgandek tuyuladi. Endi bu xilvat kulbani mirzo Anvarning ma‘rifatli qalbidagi ziyo shu‘lasi munavvar eta boshlaydi. Qandoqdir bir kuch tasirida kishining shu hujraga kirib borgisi, gulxan atrofida jimgina xayol surib o‘ltirgisi kelaveradi.

Qodiriyning donishmand va o‘tkir nigohi hayot hodisalari zamirida hamisha shoirona, darveshona bir ma‘no ko‘radi. Va ana shu badiiy ma‘noni shoirona, darveshona bir yo‘sinda – tengsiz joziba bilan tasvir etib beradi. Mumtoz adibimizning har so‘zi, har bir jumlasidagi olam-olam botiniy ma‘nolardan nozik ishoralar anglash va ulardan cheksiz bahra topish qanchalar zavqli. Mazlum qorovul Toyir akaning umr daftarini picha varaqlagan mirzo Anvar bu g‘arib kimsaga taskin bermoqqa, uni yolg‘izlik balosidan qutqarmoqqa urinib so‘raydi:

«– Uylantirib qo‘yayliqmi sizni?

Toyir aka minnatdor ohangda kuldi.

– E, joningdan taqsir, – dedi, – endi bo‘lmaydi.

– Nega bo‘lmaydi?

– Soqolg‘a qarang, o‘lim isi keladi...»

«Soqolg‘a qarang, o‘lim isi keladi...» Savodsiz, qashshoq bir qorovulning xayoliga bu purhikmat so‘z qayoqdan, qay

yo'sin kela qoldi ekan? Axir, bu iboraning tarixi behad uzun, qadim emasmi? U jahon qezgan, kitob ko'rgan sohibi ilm tabiatiga ko'proq xos emasmi? Zero, «soqol» va «o'lim»ni hazrati Alisher Navoiy mislsiz bir pog'onada muqoyasa etganlar:

*«Soqol oqi o'limga peshravdir,  
Tiriklik sabzasi uzra qiravdir...»*

G'arib ko'ngil Toyir aka ana shu hayot falsafasini xalqchil tarzda, sof, sodda, mardona bir alfoz bilan ifoda etadi. Shu yo'l bilan Qodiriy eng oddiy, eng xoksor, hatto aytish mumkinki, o'tkinchi bir qahramoni vujudi va yuragida ham o'sha shoirona, darveshona ma'noni topa biladi. So'qqabosh qorovulning keyingi so'zlari bu ma'noni yanada chuqurlashtiradi, yanada kuchaytiradi:

*«– Ko'ngil qarigan, taqsir, ko'ngil, – dedi Toyir aka, qo'lini ko'kragiga tegizib olib. – Endi ko'ngil hech narsa ham tilamaydi. Faqat tinchlik, tinchlik qachon bo'ladi – unisini bilmaysiz-da...»*

Bu so'zlarning ma'nosiga diqqat qiladigan bo'lsak, ularning ham bejiz aytilmaganiga amin bo'lamiz «Tinchlik» orzusi – dunyo ishlarida etak siltash niyati so'fiylik ta'limotining tayanch tushunchalaridan biriga – «xilvat dar anjuman» degan falsafiy aqidagi borib taqaladi.

Ayni xususiyat – qahramonlarning surat va siyratidan shoirona, darveshona ma'nolar qidirishga intilish hatto salbiy kimsalar qiyofasini chizgan chog'larida ham Qodiriy qalamini aslo tark etmaydi. Ziqnalikda, mumsiklikda Gobsekdan, Qori Ishqambadan zinhor qolishmaydigan Solih Maxdum tasvirini eslaylik. Hatto o'zining oqila qizi Ra'no tomonidan «Yerga yog'lar to'kilsa, yotib yalar taqsirim», deya hajv qilingan, xotini Nigorxonim bilan qovoq somsaga yog'ni ko'p solib ta'mini buzibsang», deb janjallashadigan Solih Maxdumning adabiy siymosi mazkur ikki qahramondan farqli o'laroq, kishida jirkanish, hazar hissini uyg'otmaydi. Maxdumning turfa qiliqlariga goh kulasiz, goh achchiqlanasiz, goh rahmingiz kelib, hamdard-xayrixoh bo'lib qolasiz. Xalqona qilib aytganda, Maxdum, o'zi xunuk bo'lsa ham, istarasi issiq badiiy siymodir. Bu hol ayniqsa – «Adras to'n va issiq non «fojiasi» faslida yaqqol namoyon bo'ladi. Mirzo Anvarning yorliq olgani munosabati bilan Solih Maxdum xonadoniga o'rdadan sevinchiga kishi keladi. Taomilga ko'ra sevinchiga to'n berish kerak. Ana shu masala ustida Max-



dum uchun kutulmagan «fojia» yuz beradi. Maxdumning buyrug'i bilan sandiqdan bo'z to'n olgan Nigor oyim ikkilanib qoladi:

*«O'rdadan kelgan kishiga to'nni berib bo'larmikan?» Ra'no ham bu e'tirozga qo'shilgach Maxdum o'ylanib qoldi. «Bo'lmasa, – dedi ikkilanib, – jo'nroq adrasdan olchi!»– Nigor oyim bir adras to'n olib Maxdumning qo'lig'a berdi. Maxdum to'nni yoruqqa solib ko'rdi:*

*– Yo'q, adras hayf, Ra'no, – dedi to'nni taxiga solib, – haligi bo'zni beravur!»*

Ammo bu taklif yana qarshilikka uchraydi, Maxdum tang ahvolda qoladi:

*«– Hayf-da, hayf!– dedi Maxdum, adras to'nni salmog'lab ko'rib. Boyag'i shoshilish holati hozir yo'q, ammo yuzida achinish vaziyati bor edi. – Uvol-da, uvol kizim, ipagi juda quyuq ekan!*

*– Ipagi quyuq bo'lsa, hech narsa qilmas!– dedi Ra'no asabiylanib. – Kishining izzat-nafsi undan ham quyuq!*

*– Xayr, xayr!– dedi Maxdum adras to'n bilan vido'lashgandek...»*

To'n mojarosi shu tariqa Maxdum uchun «ko'ngilsiz» hal bo'lgach, yana bir ishkaliq – «bozordan issiq non oldirish» muammosi bo'ladi. Maxdum so'nggi umid bilan xotinidan uydagi suvi qochgan nonni «juda, qattig'mi?» deb so'raydi va ilinj bilan javob kutadi. Ammo... «Javob yana falokatliroq edi...» Muallif shu paytdagi Maxdumning holatini tasvir etsin-u, siz bilan biz tomosha qilaylik:

*«Xo'p, non oldiraman», deyishga ham Maxdumning majoli qolmag'an holda boshini quyi solib, javobsiz, tashqarig'a jo'nadi. Mehmonxona sahnida kutib o'lturgan yigitga o'z qo'li bilan adras to'nni kiydirdi. Yigit darbozadan chiqquncha ham Maxdumning ko'zi «xayf ketkan» adras to'nda, hatto undan Anvarning kelayotqan xabarini so'rashni ham unutkan edi...»*

Na iloj, mol achchig'a – jon achchig'i!

Ammo Maxdumning bu «jon achchig'i»dagi to'lg'anishlari, unsiz iztiroblari odamda faqat beozor kulgi qo'zg'aydi, xolos. Uning qiliqlarini kuzatishingiz oshib boraveradi, biroq miyig'ingizdagi tabassum hech vaqt zaxarxanda yoki yovuz nafratga aylanib ketmaydi. Beixtiyor ich-ichingizdan: «E, bu ham xudoning bir bandasi-da», – degan xayol kechadi.

Chinakam san' natkorga xos jozibaning qudrati ana shunday bo'ladi.

Mulohazalarimizni davom ettirib, Maxdumning yana boya-gi holatiga qaytadigan bo'lsak, uni yanada kulgili vaziyatlarda uchratamiz. Adras to'n alamini hovli supurayotgan va mehmon-xonaga joy qilayotgan o'quvchi bolalardan olgandek bo'lib, lekin qusuri qonmagan Maxdum bari bir osonlikcha taslim bo'lishni istamaydi, Nigor oyimni qiyin – qistoqqa oladi: «...qani, menga uch – to'rtta noningdan olib ko'rsatchi!» Bunga javoban Ra'no qutidan besh-olti dona non olib, otasining qo'liga beradi.

*Darhaqiqat, bir-biriga o'xshamag'an nonlar tarashadek qotib qolg'an edilar. Maxdum urinib qo'rib, bittasini ham sindirishg'a kuchi yetmadi. Ra'no yuzini chetga o'gurib, kulib turar edi. Maxdum urina-urina, o'zi ham kuldi:*

*– Zor qolg'uring juda qotipti da, kun ham issiq-da Ra'no?»*

Mana shu yerdagi «o'zi ham kuldi» degan so'z Solih maxdum tabiatidagi o'ziga xos insoniy jozibani ochishga bir kalit bo'lib xizmat qiladi. O'z qusurlari ustidan o'zi ham kulishga qodir odam ma'lumki, o'taketgan ablah va nobakor odam bo'lmaydi. Biz endi Solih maxdumni shu ko'ylarga solgan hayotiy omillar haqida o'ylab ketamiz. Davrning mislsiz to'fonlari qismatiga yetkazgan ziyon-zahmatlarni bor salmog'i bilan idrok etkandek bo'lamiz.

Ko'rinadiki, tabiatan zarofatdan, she'riyatdan u yiroqroq bo'lgan kimsalar yuragidagi miltillagan ezgulik uchqunlarini ham alanga oldirishga mohir bo'lgan Qodiriy o'zining suyukli, marg'ub qahramonlari siymosini hamisha nurga, latofat va nafosatga yo'g'irib tasvirlaydi. Adibning sehrli qalami visol va hijron onlarini ifoda etganida, o'lim va tug'ilish lahzalarini bayon qilganida, tabiatning jannatiy manzalarini chizishga kirishganida bamisoli bo'lib sayray boshlaydi.

*«...Kuchlik shamol qo'zg'alg'an edi. Shamol, go'yo ko'maklashkan kabi orqadan esib, Ra'noni Anvar tomong'a mayl etdirar edi. Terak orqasida qolg'an oy xam kuchlik yelning ko'magida terak boshidan bularga mo'ralab oldi. Ikki yoshning hozirgi holini yaqindan tomosha qilmoqchi bo'lg'an tussiz bir yulduz ko'k sahnining yerga yaqinroq qismig'a uchib tushdi...»*

Qodiriy romanlarini mutolaa qilar ekansiz, uning sahifalari Sharq otalarining asriy hikmatlari bilan to'lug'ligini ko'rib hay-

ratingiz ortadi. Ehtimol, shuning uchundir bu asarga qahramon bo'lib kirgan har bir shaxs sharif bir alfozda fikr va so'z yuritadi, aksariyat adabiy siymolarning tilidan Shayx Sa'diy, Hofiz, Bedil, Navoiy va o'zga donishmand ajdodlarimizning bayt-u g'azallari tushmaydi. Bu hikmatli baytlar asarlarning badiiy to'qimasiga uzviy ravishda birlashib ketadi, goho esa qahramonlarni hal qiluvchi xattiharakatlarga da'vat etguvchi sehrli kuch kabi ta'sir beradi.

Mirzo Anvar, nohaq hibsi etilib, o'lim xavfi ostida qolgan do'sti Sultonolini xalos etish uchun xon o'rdasiga o'zi taslim bo'lib keladi. Xudoyorxon bilan Anvar o'rtasida keskin to'qnashuv sodir bo'ladi. Anvarning kutilmagan bemisli jasorati hammani dovdiratib qo'ygan. Xo'sh, bu qo'rqinch jasoratning boisi nimada? Qodiriy buni mumtoz Sharq she'riyatining qadim hikmati bilan quyidagicha izohlaydi:

*«Shayxi Sa'diy aytkancha, dunyoda hayotidan qo'l yuvg'uchidek tili uzun kishi bo'lmas. Darhaqiqat, insonni razolatka solg'uchi uning manfaati taqozasi, qolabersa, o'limdir. Bu ikkisdan kechguchiga esa na podshohning qahri va na jahannamning qa'ri farqsizdir...»*

Hatto o'lim sahnalari tasvirida ham adib dahshat pardasi ichra mardonalik, shijoat belgilarini kashf qila oladi. Jallod qo'li bog'liq Anvarni dor tomonga olib borib, xanjarini yengiga yanib kelgan chog'da ham bu olijanob qahramon yuragini shoirona, darveshona hissiyot tark etmaydi:

– *«Meni holimni ko'ringiz, domla, – dedi Anvar kulgan yuzda, – qo'lim bog'lang'an, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir? Chunki vijdon rohatda jon tinch, yurakda ishq!.. Durust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'liq qizil lolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solg'an iz...»*

Bu otashin so'zlarga olomonning munosabati qanday edi? Afsuski, tomoshaga to'plangan tumonat odam nochor kar-u soqov edi. Bu holat jumlada muxtasiz ifoda topgan: «Tomoshabinlar toqatsizlang'andek edilar».

Diqqat qilib qarajak, shu jumlada ham sir yashirin. Tomoshabinlar nega toqatsizlangandek ko'rindilar? Ular Anvarning fig'onli va shoirona so'zlaridan toqatsizlangan edilarmi yoki so'dir etilayotgan manfur zulm, bedodlikdanmi?

Bu sir ikki jumladan keyin oshkor bo'ladi, ya'ni hayotda o'ziga xos bir yupanch, ilinj axtargan uch chapani o'rtoq: Sharif, Rahim va Qobilboyning sa'y-harakatlari bilan Anvar jallod qo'lidan yulib olinadi. Yuqorida so'z yuritganimiz darveshona bir ma'no mana shu uch do'st timsolida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. O'z tasavvurlaridagi ozod bir turmushni istagan, rindona xayollar bilan umrguzaronlik qilayotgan boshi ochiq bu yigitlarga nisbatan bo'layotgan adolatsizlik, «nomusulmonchilik»ni ko'rgan, aslo toqat qilolmay qoladilar. «Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz», degan uzil-kesil qarorga keladilar. Bu «bir ish»ning ma'nosi shuki, «shu tunga uchovimiz borib yo o'lamiz, yo bechorangni ro'shnolikka olamiz!» Qaror qat'iy, ularni bu yo'ldan, hatto o'limdan ham qaytarguvchi kuch endi olamda yo'q. Buning sabablari esa quyidagi sodda mantiq bilan ifodalanadi:

*«Akun biz dunyoga nima olib boramez, hay o'lluk, dunyoga o'n tillo pulimiz qolaydimi yo uyga sochini tarab to'xtagan xotinimiz qolaydimi!»*

Mana shu yerda endi bir oz diqqatimizni jamlab, mulohaza yuritaylik. Bundan bir necha sahifalar muqqaddam biz mirzo Anvarni mana shunday hayot-mamot muammosi girdobi ichra kuzatgan edik. Va uning kanday qarorga kelib to'xtaganini ham ko'rgan edik. Shayx Sa'diyning o'sha so'zlari hozirgi vaziyatda ham nihoyatda o'rinli emasmi? Demak, shu nuqtada hayotidan qo'l yuvgan kimsalar soni to'rttaga yetdi. Endi bular uchun «na podshohning qahri, na jahannamning qa'ri farqsizdir...»

Suhbatimiz avvalida biz bashorat tuyg'usi haqida so'zlagan edik. «Mehrobdan chayon» mutolaasi chog'ida kishi aqlini favqulodda shoshirib qo'yguvchi bir bashorat uchraydi. Romaning «O'pka va hazil» degan dastlabki boblaridan biri. Asar voqealari hali benihoyat osoyishta kechayotir. Istiqboldagi xavfu xatardan hech bir nishona sezilmaydi. Ra'no va Anvar hazil bilan so'zlashib o'ltirgan chorboqqa ko'lanka solguvchi hech qanday bulut asari yo'q. So'z aylanib kelib, kutilmaganda shunday ohang kasb etadi. Ra'no bu kun oqshom mehmon kelishi kutilayotganini aytadi;

*«...Fotihaga kishilar kelar emish, deb eshitdim. Uning bu gapiga javoban Anvar o'ylanib yana kulimsids:*

*– Sening fotihang bo'lmasin:*

*– Menim qanday fotiham bo'lsin, men hali tirikman.*

– Teskariga burma, Ra'no, balki, seni erga bermakchidirlar?

Ra'no qizarib turdi-da, yana gapni kulgulikka oldi:

–Meni kimga berar emishlar?

– Senimi?– dedi kulib Anvar. – seni xondan boshqa(!) kim olsin!...»

O'ynab aytilgan shu bir og'iz hazil gapga shu lahzada farishtalar omin deb yuborgan bo'lsa, ne ajab! Mening nazarimda, romanda bundan keyin yuz berajak barcha ruhiy to'qna-shuvlar, fojiali mana shu birgina jumla bilan chambarchas bog'liqdek tuyuladi...

Qodiriyning mahorati sirlari haqida to'xtovsiz va uzoq hikoya qilish mumkin. Ammo faqat bu tengsiz san'atga mahliyo bo'lish bilangina kifoyalanmasdan, undan ma'naviy-ijodiy saboqlar olish vaqti ham yetgandir. Ulug' adibimiz hamisha, hamma asarlarida hayotdan shoirona, darveshona ma'nolar qidirgani bo'ldi. Bunda teran bir hikmat bor. Chunki hayot qanchalar og'ir, qanchalar uqubatli bo'lmasin bari bir go'zaldir. Go'zallik esa, ma'lumki, she'riyatdir, sof ozoda yuksak insoniy xayol va orzulardir. Ko'p chalg'itilgan bizning bugungi jafokash adabiyotimiz esa, afsuski, mana shu qudratli safarbar ruhdan – hayotdan shoirona, darveshona ma'nolar topa bilish va uni badiiy yo'sinda ifodalay olish xislatidan tobora uzoqlashib borayotir. Aksariyat asarlarimizda ko'ngil dardlari, inson ruhiyatining ming bir sirli jilvalaridan zarracha ham nishon ko'rmaymiz.

Kishi ba'zan kundalik ikir-chikirlardan charchar ekan. Ana shunday kezlarda uning ruhi chinakam adabiyotni, so'z san'atining asl durdonalarini sog'inadi. Ne baxtki, taqdir o'zbek adabiyoti manglayiga ham oz bo'lsa-da, ana shunday asarlarni bitgan...

## MUNDARIJA

<b>Adabiyot mehrobidagi abadiyat</b> .....	<b>3</b>
<b>Ro‘monning mavzu‘i to‘g‘risida</b> .....	<b>5</b>
<b>I FASL. Ra‘noning egasi</b> .....	<b>6</b>
<b>II FASL. Amir Umarxonning kanizi</b> .....	<b>8</b>
<b>III FASL. Maxdumning uylanishi va     maktabdorlig‘i</b> .....	<b>11</b>
<b>IV FASL. Maxdumning ba‘zi xislatlari</b> .....	<b>14</b>
<b>V FASL. Oila va kishilar bilan muomala</b> .....	<b>15</b>
<b>VI FASL. Nigorxonim</b> .....	<b>18</b>
<b>VII FASL. Ra‘no</b> .....	<b>20</b>
<b>VIII FASL. Bir O‘rdaliq</b> .....	<b>24</b>
<b>IX FASL. O‘pka va hazil</b> .....	<b>29</b>
<b>X FASL. Xayrixoh bir odam</b> .....	<b>33</b>
<b>XI FASL. Maxdumning tahdidi</b> .....	<b>37</b>
<b>XII FASL. Baxmalbofda faqir bir oila</b> .....	<b>43</b>
<b>XIII FASL. Taniysanmi shu jajji qizni?</b> .....	<b>45</b>
<b>XIV FASL. Chin o‘rtoq</b> .....	<b>49</b>
<b>XV FASL. Maxdumning baxti</b> .....	<b>53</b>
<b>XVI FASL. Xonning iltifoti</b> .....	<b>57</b>
<b>XVII FASL. Anvarning andishasi</b> .....	<b>60</b>
<b>XVIII FASL. Jilovxonada bir janjal</b> .....	<b>63</b>
<b>XIX FASL. Iflos bir moziy</b> .....	<b>68</b>
<b>XX FASL. Hushyorliq</b> .....	<b>72</b>
<b>XXI FASL. Yorlig‘ berish marosimi</b> .....	<b>77</b>
<b>XXII FASL. Adras to‘n va issig‘ non «foji‘asi»</b> .....	<b>82</b>
<b>XXIII FASL. Kitob so‘zi</b> .....	<b>87</b>
<b>XXIV FASL. Shoirning sirri</b> .....	<b>92</b>
<b>XXV FASL. Hayot sham‘i</b> .....	<b>97</b>
<b>XXVI FASL. Nega yerga qaraysan, ra‘no?</b> .....	<b>104</b>
<b>XXVII FASL. Zulm o‘chog‘i</b> .....	<b>108</b>
<b>XXVIII FASL. Haram</b> .....	<b>111</b>
<b>XXIX FASL. Og‘acha oyim</b> .....	<b>116</b>
<b>XXX FASL. Xonim oyimlar</b> .....	<b>122</b>
<b>XXXI FASL. Qirq qizlar</b> .....	<b>126</b>
<b>XXXII FASL. Nozik</b> .....	<b>131</b>
<b>XXXIII FASL. Yangi «hunar»</b> .....	<b>137</b>
<b>XXXIV FASL. Xayrul-umuri avsatuho</b> .....	<b>142</b>

XXXV FASL. Xon ko'ngil ochmoqchi .....	150
XXXVI FASL. Qiziqalar .....	154
XXXVII FASL. Birikish .....	161
XXXVIII FASL. G'arib ko'ngli .....	164
XXXIX FASL. Bisho'y, ey xiradmand... ..	167
XL FASL. Aldash uchun bola yaxshi .....	171
XLI FASL. Chaqangiz siyqa emasmi? .....	174
XLII FASL. Quv odam ekan .....	179
XLIII FASL. Cho'loq qush .....	184
XLIV FASL. Qop yo'qotding'izmi? .....	189
XLV FASL. «Fotiha – muhri xudodir» .....	193
XLVI FASL. Yigit! .....	197
XLVII FASL. Ochiq xat .....	203
XLVIII FASL. To'y arafasida .....	207
XLIX FASL. Ramz .....	211
L FASL. Ma'shuqa mahbasi .....	215
LI FASL. Jasur qiz .....	218
LII FASL. Do'stliq «karomati» .....	222
LIII FASL. Chayonning namoyishi .....	228
LIV FASL. Ikki xil sadoqat .....	234
LV FASL. Barimta .....	241
LVI FASL. Xayr endi, Ra'no! .....	247
LVII FASL. Qo'rquch bir jasorat .....	252
<i>Mirzo Anvarning keyingi hayoti to'g'risida .....</i>	<i>261</i>

#### «MEHROBDAN CHAYON» ADIBLAR NIGOHIDA

H. Qodiriy: «Mehrobdan chayon» haqida .....	263
X. Sultonov: <i>Shoirona, darveshona bir ma'no</i> .....	276

# **ABADIY BARHAYOT ASARLAR**

**ABDULLA QODIRIY**

**MEHROBDAN CHAYON**

*(Xudoyorxon va munshilari hayotidan tarixiy roman)*

**Nashrga tayyorlovchi:**

Xondamir **QODIRIY**

**Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:**

Ergashbay **MATYAKUBOV**

**Bosh muharrir:**

Alisher **RAVSHANOV**

**Badiiy muharrir:**

Asaloy **ESHONQULOVA**

**Musahhih:**

Lolaxon **QO'ZIBOYEVA**

**Kompyuterda sahifalovchi:**

Feruzbek **VOXIDOV**

**Litsenziya raqami AI № 170, 23.12.2009**

Bosishga 2019 yil 15.02 da ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog'i 18 Shartli bosma tobog'i 21  
Garnitura "Times New Roman" offset qog'ozi.

Adadi 1 500 nusxa. Buyurtma № 10

Bahosi kelishilgan narxda.

**"BOOK MEDIA PLUS"** xususiy korxonasida tayyorlandi.  
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 6-uy.

**"ADAD-PLYUS"** MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent, "Bunyodkor" shoh ko'chasi 28-uy. 100097



## ***QAYDLAR UCHUN***



ISBN 978-9943-3819-2-6



9 789943 381926